

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**Z. NISHANOVA, D.QARSHIEVA,  
N.ATABAEVA, Z.QURBONOVA**

**PSIXODIAGNOSTIKA VA EKSPERIMENTAL PSIXOLOGIYA**



**Toshkent – 2013**

Darslikda psixodiagnostika va eksperimental psixologiya fanining predmeti, rivojlanish tarixi, bilish faoliyati, shaxs psixodiagnostikasi, intellekt va shaxslararo munosabatlarga doir nazariy bilimlar hamda psixodiagnostik metodikalar, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar hamda kattalarni psixologik tekshirish metodikalari bayon etilgan. Shu bilan birga eksperimentlarni o'tkazish shart-sharoitlari va bosqichlari, eksperimentlarni loyihalashtirish, noa'naviy tadqiqotlarni loyihalash, eksperiment natijalari tahlili keltirilgan.

Psixologlar, o'qituvchilar hamda pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi (5110900) talabalariga mo'ljallangan.

#### АННОТАЦИЯ

В учебнике отражены предмет и история развития психодиагностики и экспериментальной психологии, теоретические знания и психодиагностические методики по психологии личности, познавательных процессов, интеллекта и межличностных отношений и психодиагностические методики исследования детей дошкольного и младшего школьного возраста и взрослых. Вместе с тем приведены условия и этапы проведения экспериментов, планирование экспериментов, нетрадиционных исследований, анализ экспериментальных данных.

Рассчитана для психологов, преподавателей и студентов бакалавриата по направлению педагогики и психологии(5110900).

#### ANNOTATION

In this manual you can find the subject of psycho-diagnostics and experimental psychology, history and development of psycho-diagnostics and experimental psychology, cognitive process, psychology of personality, intelligence, theoretical knowledge about interpersonal attitudes, psycho-diagnostic methods and techniques of psychological investigation of preschools, primary school pupils and adults, as well as conditions of experiments and stages, design of experiment, design of unconventional experiments and interpretation of research results.

Suggested for psychologists, teachers and students of educational courses for pedagogical psychology (5110900)

#### **Taqrizchilar:**

**TTA professori, psixologiya fanlari doktori B. Umarov**

**TDPU dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi L. Nazirova**

**Psixologiya fanlari doktori, professor Z T Nishanovanning umumiy tahriri ostida**

## KIRISH

Har tomonlama etuk, barkamol avlodni tarbiyalash masalasiga Prezident I.A.Karimov «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli ma'ruzalarida to'xtalib o'tganlar. Prezidentimiz respublikamizda asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri kadrlar masalasi ekanligini ko'rsatib, quyidagi fikrlarni bildiradi: “Biz oldimizga qanday vazifa qo'ymaylik, qanday muammoni echish zarurati tug'ilmasin, gap oxir-oqibat, baribir kadrlarga va yana kadrlarga borib taqalaveradi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz, mamlakatimizning kelajagi o'rnimizga kim kelishiga yoki boshqacharoq aytganda, qanday kadrlar tayyorlashimizga bog'liq”<sup>1</sup>.

Darhaqiqat, respublikamiz taraqqiyotga erishishini ko'p jihatdan kadrlar masalasining qanday hal qilinganligi belgilab beradi. Bu haqda Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ham ta'kidlangan. Shu bois oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan talabalarni o'z kasbini sevuvchi etuk mutaxassis sifatida tarbiyalash hozirgi vaqtda oliy ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Hozirgi davrda respublikamizda bosqichma-bosqich amalga oshirilib borilayotgan Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi talablaridan, ta'lim islohotlari bosh maqsadidan kelib chiqqan holda o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Darslik Oliy ta'lim Vazirligining o'quv adabiyotlariga qo'yilgan talablar asosida yangilangan klassifikatorga muvofiq tayyorlangan. Unga mualliflarning 2007 yilda nashr etilgan “Eksperimental psixologiya” hamda 2010 yilda nashr etilgan “Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya” o'quv qo'llanmalari asos qilib olindi, yangi dasturga muvofiq ayrim bo'limlar qayta ishlandi va to'ldirildi. Darslikning “Psixodiagnostika” qismi psixologiya fanlari doktori, professor Z. Nishanova, Z.Qurbanova tomonidan “Eksperimental psixologiya” qismi D. Qarshieva, N. Atabayvalar tomonidan tayyorlangan.

---

<sup>1</sup> Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.- T.: O'zbekiston, 1999. –B.18.

## I.PSIXODIAGNOSTIKA VA EKSPERIMENTAL PSIXOLOGIYA FANIGA KIRISH

### **Reja:**

- 1.1.Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya fanining predmeti va vazifalari.
- 1.2.Psixodiagnostik va eksperimental tekshiruv bosqichlari.
- 1.3.Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya turlari.
- 1.4.Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya bilan shug'ullanuvchi psixologga qo'yiladigan talablar.
- 1.5. Psixologik tadqiqotning asosiy metodologik tamoyillari.

### **Maqsad:**

Talabalarda psixodiagnostika va eksperimental psixologiya predmeti va vazifalari, psixodiagnostika va eksperimental psixologiya bilan shug'ullanuvchi psixologga qo'yiladigan talablar haqida tushuncha hosil qilish.

### **Vazifalar:**

- 1.Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya fanining predmeti va vazifalarini bayon qilish.
- 2.Psixodiagnostik va eksperimental tekshiruv bosqichlarini asoslash.
- 3.Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya turlarini yoritish.
- 4.Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya bilan shug'ullanuvchi psixologga qo'yiladigan talablarni asoslash.
5. Psixologik tadqiqotning asosiy metodologik tamoyillari bilan tanishtirish.

### **Tayanch tushunchalar:**

Psixik taraqqiyot diagnostikasi; psixodiagnostika; eksperimental psixologiya; eksperiment (tajriba); simptomatik diagnoz; etiologik diagnoz; tipologik diagnoz

### **1.1.Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya predmeti va vazifalari**

Hozirgi zamon psixologiyasi har xil usullar bilan kishi amaliy faoliyatiga ta'sir qilish imkoniga ega. Shunday usullardan biri, bu turli toifadagi odamlarga psixologik yordam ko'rsatishdan iboratdir. Ammo psixologik yordam ko'rsatish uchun, avvalo, ulardagi psixik o'zgarishlar sabablarini va unga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash zarurati tug'iladi. Bunda biz psixodiagnostika faniga va uning metodlari hamda metodikalariga murojaat qilamiz. O'z-o'zidan savol tug'iladi: «psixodiagnostika» atamasi nimani anglatadi va u nimalarni o'rganadi hamda uning nazariy, amaliy vazifalari nimalardan iborat?

«**Psixodiagnostika**» atamasi **psixologik tashxis qo'yish degan** ma'noni anglatib, shaxsning ruhiy holati, to'liq biror-bir alohida xususiyati haqida xulosa chiqarishdir, bunda «tashxis» shaxsning taraqqiyot ko'rsatkichi va tavsifnomalarni birgalikda tahlil qilish asosida sinaluvchining holat va xususiyatlari haqidagi xulosalardan iborat. «Psixodiagnostika» atamasi ilk bor **Rorshaxning «Psixodiagnostika»** asari chop etilishidan so'ng psixiatriyada qo'llanilgan bo'lib, u tez orada tibbiyotdan tashqarida ham keng miqyosda ommalasha boshladi. «Diagnoz», ya'ni «tashxis» esa shaxs rivojlanishidagi har qanday og'ishlarni, hattoki uning holat va xususiyatlarining konkret taraqqiyot darajasini aniqlash demakdir.

Psixodiagnostika – bu maxsus bilimlar sohasi bo'lib, individ guruhning psixologik taraqqiyot ko'rsatkichlarini, holat va xususiyatlarini baholash uchun metodikalar majmuini ishlab chiqish bilan bog'liqdir. Psixologiya fani o'rganayotgan har qanday jarayon psixodiagnostikaning baholash ob'ekti bo'lishi mumkin. Masalan: o'zaro hamkorlik qilayotgan shaxslarning xatti-harakatlari va muloqotida Yuzaga keladigan, alohida bir odam sezgisidan boshlab, murakkab ijtimoiy- psixologik jarayongacha.

Psixodiagnostika fanining **nazariy vazifalari** quyidagilardan iborat:

psixik ko'rinishlar tabiati va ularni ilmiy jihatdan printsipial baholashning imkon darajasini aniqlashtirish;

hozirgi paytda psixologik ko'rinishlarning miqdorini baholash va uning ilmiy asoslanganlik holatini o'rganish;

psixodiagnostik usul va uslublarning asosiy metodologik talablari nimalardan iborat;

psixodiagnostik tadqiqotning shart-sharoitlari, natijalarni qayta ishlash hamda ularni interpretatsiya qilish usullarining ishonchligi nimalarga asoslangan; test va psixodiagnostik metodlarning tuzilishi hamda ilmiylikni tekshirishning asosiy muolajalari nimalardan iborat.

Psixodiagnostika fanining **amaliy vazifalari** psixolog faoliyatining maxsus sohasiga taalluqli bo'lib, amaliy psixologik tashxis qo'yish bilan bog'liqdir. Bunda masala nafaqat nazariy, balki psixodiagnostik tadqiqotni tashkil qilish va o'tkazishning amaliy jabhalarini qamrab oladi hamda quyidagi vazifalardan iboratdir:

psixodiagnostika mutaxassis sifatida qo'yiladigan kasbiy talablarni aniqlashtirish;

psixolog haqiqatdan ham u yoki bu psixodiagnostik metodlarni mutaxassis sifatida muvaffaqiyatli o'zlashtirib olgani haqida minimal amaliy shartlar, ya'ni kafolat sifatida;

psixodiagnostika sohasida o'z ishini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun psixolog o'zida mujassamlashtirishi shart bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar;

psixologning psixodiagnostika sohasida malakali mutaxassis ekanligini hamda amaliy jihatdan tayyorgarligini baholash mezonlarini hamda dasturlarini ishlab chiqish.

Bu vazifalar majmuasi, ya'ni psixodiagnostika fanining nazariy va amaliy vazifalari bir-biri bilan bog'liqdir. Ushbu sohada etuk mutaxassis bo'lib etishish uchun, psixolog nazariyani va amaliy psixodiagnostikaning asoslarini Yuqori darajada o'zlashtirib olgan bo'lishi shart.

Amaliyotda individ, guruhning psixik taraqqiyot darajasi o'rganiladi hamda quyidagi vazifalardan biri amalga oshiriladi:

biror-bir xususiyatga xos taraqqiyot holatini aniqlash;

taraqqiyot dinamikasini va qandaydir vaqt davri mobaynida qayta tarbiyalash imkonini aniqlash;

ta'lim-tarbiya natijasida, o'tkazilgan pedagogik eksperiment natijasida individ guruh xulqi va ruhiyatidagi real o'zgarishlarni kuzatib borish;

shaxs sifatlarining oldingi taraqqiyot dinamikasi va qonuniyatlari tahlili asosida kelajakdagi taraqqiyotini aniqlab olish;

sinaluvchi kishilar guruhlarini taraqqiyot darajasi natijasiga asoslanib kelajakdagi ishlar uchun toifalarga ajratish;

u yoki bu topshiriqlarni bajara olishiga qarab individ guruhlarining yaroqliligini aniqlash, masalan o'z xizmat vazifasini bajara olishda kasbiy tayyorgarligini tekshirish;

psixokorreksion ishlar olib borish maqsadida individ guruhning ijtimoiy me'yorga mos yoki mos emasligini aniqlash;

individ yoki guruhning kelajak hayot yo'liga yordam berish maqsadida tavsiyalar ishlab chiqish.

Yuqorida sanab o'tilgan vazifalar psixodiagnostika fani uchun umumiy hisoblanadi. Bu vazifalardan aksariyati maktabgacha tarbiya muassasalarida va maktab ta'limida har xil yoshdagi bolalarga mos ravishda olib boriladigan ish jarayonlarida u bu darajada hal qilinadi.

Psixodiagnostika **xususiy** jihatdan quyidagi **vazifalarni** amalga oshiradi:

bola tug'ilgandan boshlab maktab ta'lim jarayoniga tayyorgarligi, yosh davrlarining psixologik taraqqiyot dinamikasini o'rganadi (bilish jarayonlari, intellektual qobiliyatlari, shaxs sifatleri hamda shaxslararo munosabatlarini). Bunda har bir bolaga maxsus psixodiagnostik kartochka to'ldiriladi va uning rivojlanish ko'rsatkichlari har oyda yoki yilda qayd qilinib boriladi;

har bir bolaning psixik va xulqiy rivojlanishidagi individual qobiliyatlarini tekshirish, uning o'rtacha standart me'yorlardan chetlashishlari, ya'ni ijobiy (rivojlanishda oldindami), salbiy (rivojlanishdagi qo'zg'atqichlari) tomonlarini aniqlash;

bolaning ta'lim va tarbiya jarayonidagi Yutuqlarini aniqlash maqsadida psixologik xizmat ko'rsatish va uning natijasida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

bolani yanada rivojlantirish maqsadida uning iqtidori, layoqati va individual qobiliyatlarini hamda qiziqishlarini tashxislash hamda ilmiy asoslangan psixologik maslahat va kasbga yo'naltirilish ishlarini olib borish;

bolaning psixologik holati haqida ota-onalarga, o'qituvchilarga zarur bo'lgan har tomonlama ma'lumotlar to'planib, bolaga mos ravishda ta'lim va tarbiya metodlarini tanlash.

Psixodiagnostika fani psixologiya tarmoqlaridan biri bo'lib, shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini, aqliy taraqqiyotini aniqlab o'lchash, ya'ni hisoblab chiqaruvchi metodlarini o'rgatuvchi fandır.

Psixodiagnostika – shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini (aniqlab o'lchashda) har xil metodlar bilan aniqlab o'lchashda, keyinchalik proektiv metodlar, so'rovnomalar paydo bo'lishi jarayoniga asos bo'lib xizmat qildi. Shu bilan birga psixodiagnostikaning rivojlanishida nazariy jihatdan metodikalarning kamligi ko'rinib qoldi. Psixodiagnostikaga matematik-statistik metodlar va korrelyatsiya hamda tahlil qilish, faktorli analiz paydo bo'lishi va takomillashuvi, psixometrik tadqiq qilish amaliy jihatdan juda katta samara berdi.

Bolalarni psixodiagnostik tadqiq qilish yosh xususiyatlariga, u yoki bu yosh davri uchun etakchi faoliyat turining ta'siriga, individual tipologik tavsifnomalarning taraqqiyot darajasiga bog'liq ravishda ba'zi xususiyatlarga ega. Bola taraqqiyotining har bir yosh davri bolalar bilan ishlashning usullari va metodlarini, eksperimental tadqiqotning o'z maqsadlari va vazifalarini talab qiladi.

Kichik yoshdagi bolalarni psixodiagnostik tekshiruv yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyaning sohasi hisoblanadi. Olingan natijalar yordamchi xarakterga ega bo'lib, pedagog tomonidan bola psixik taraqqiyoti xususiyatlarini aniqlashda qo'llaniladi. Bunda ta'lim va tarbiya dasturi, turli hayotiy sharoitlarda (faoliyatda, muloqotda va boshqalarda) shaxs xulq-atvori xarakteristikalarini tuzishda hisobga olinadi. Eksperimental tadqiqotdan olingan natijalar oilada, bog'chada, maktab va boshqa jamoat joylarida individual va guruhiy tarbiyaviy-pedagogik tadbirlar sxemasi tuzishda foydalanilishi mumkin. O'qituvchi o'z ishida doimo bolalar psixofiziologik masalalari bilan to'qnashadi. Uni vaqtinchalik natijalargina emas (masalan, chorakning oxiriga kelib o'quvchilarning o'zlashtirishi kabi), balki u yoki bu jismoniy va ruhiy sifatlarning rivojlanish istiqbollari aytib beradigan natijalar qiziqtiradi. Bolalar bog'chalarida yoki boshlang'ich maktablarda psixodiagnostik tadqiqotlar quyidagi vazifalarni hal qiladi:

#### **Diagnostika uchun zarur ma'lumotlarni olish.**

Bunda bola psixik holati va shaxsi xususiyatlarining ba'zi belgilarining ko'rinishini o'rganish maqsadida tadqiqot olib boriladi. Tadqiqotda olingan ma'lumotlar yordamchi xarakterga ega bo'lib, bola xulq-atvorining haqiqiy kuzatilgan xususiyatlari, uning psixik funktsiyalari taraqqiyot darajasi bilan taqqoslashda foydalanadi. Masalan: darsda bola diqqatining barqaror emasligi, diqqatini bir joyga to'plashga qiynalishi, aqliy ish qobiliyatining pastligi, tez chalg'ishi va boshqalar bilan ajralib turadi. Ikkala holatda ham u yoki bu o'quvchi o'zlashtirishi va intizomining pasayishi tashqaridan sezilsada, psixodiagnostik tadqiqotlarda o'rganilayotgan o'zgarishlar manbalari, rivojlanishi va kelgusida qanday bo'lishi psixologik holat belgilari ham o'rganiladi.

1. Psixik taraqqiyot o'zgarishini o'rganish uchun zarur ma'lumotlarni to'plash. Agar «ko'ndalang kesim» metodlari orqali psixodiagnostik tadqiqot ma'lum bosqichda bola psixik taraqqiyoti darajasini, ya'ni psixik funktsiyalar rivojlanishining dolzarb zonasi aniqlanadigan bo'lsa, «uzunasiga kesim» (longitudinal) psixodiagnostik tadqiqotlarda bola psixik hayoti taraqqiyoti xususiyatlari rivojlanishi, ya'ni ta'lim va tarbiya jarayonida o'rganiladi.

2. O'yin va o'qish faoliyatida ko'p martalab o'tkazilgan eksperimental-psixologik tadqiqotlar bola shaxsini shakllanishi va rivojlanishida ma'lum faoliyatning ta'sir ko'rsatkichi bo'lishi mumkin. Bolada o'tkazilgan psixodiagnostik tadqiqotlar muhim prognostik ahamiyatga egadir, chunki qo'llanilgan turli metodlarning o'quv-tarbiyaviy ta'sirini hisobga olganda shaxs rivojlanishi istiqbollari aniqlash imkoni yaratiladi.

3. Aqliy zaiflik darajasini, yoki boshdan kechirgan kasallik tufayli psixik kamchiliklarni aniqlashga qaratilgan psixodiagnostik tadqiqotlar mahsus yoki yordamchi maktabda o'qish haqida masala hal bo'layotganda tibbiy pedagogik xay'at (komissiya) tomonidan foydalanishi mumkin.

4. Bolalarda paydo bo'lgan etarlicha o'rganilmagan yangi psixik holatlarni tahlil qilish uchun ilmiy maqsadda psixologik tadqiqot o'tkazish. Vazifa bunday qo'yilganda tadqiqotchini qiziqtirgan masala bo'yicha katta guruhlarda tadqiqot o'tkaziladi. Bu erda olingan natijalarning statistik ishonchliligi muhim ahamiyat kasb etadi.

**Eksperimental psixologiya-** umumiy psixologiyaning tarkibiy qismi bo'lib, ruhiy jarayonlarni tajriba yordamida o'rganadi.

Eksperimental psixologiya fanining **maqsadi** psixologik eksperiment o'tkazishning malaka va ko'nikmalarini paydo qilish va rivojlantirishdan iborat.

**Eksperimental psixologiyaning vazifalari:**


1. Psixologiya fanida eksperiment o'tkazishning qonunlari, tartibi va tamoyillari bilan tanishtirishdan iborat.
2. Turli metodikalar yordamida shaxsning psixik jarayonlari, holatlari va psixomotor rivojlanishini o'rganishdir.

**1.2.Psixodiagnostik va eksperimental tekshiruv bosqichlari**

Psixodiagnostik tadqiqotlar amaliyotida psixologik diagnoz qo'yishning 3 bosqichi farqlanadi: Simptomatik diagnozda mavjud har qanday EHM bajarishi mumkin bo'lgan tadqiqotda olingan natijalar qayta ishlanadi.

Etiologik diagnozda (kelib chiqish sabablari) biror xususiyatning mavjudligigina emas, balki uning vujudga kelish sabablari ham hisobga olinadi.

Tipologik diagnozda sinaluvchi shaxs tuzilishida olingan natijalarning ahamiyati va o'rnini aniqlanadi.



**1.3. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya turlari**

Fan va texnikada diagnostikaning juda ko'p turlari bor. Masalan: tibbiyot diagnostikasi kasalning kelib chiqishini o'rganadi va aniqlaydi; texnik diagnostika – har xil texnika sistemalari, elektron hisoblash mashinalari, kompyuterlarning salbiy xususiyatlarini aniqlab, ularni bartaraf qilishni o'rgatadi; sport diagnostikasi – jismoniy jarayonlarning o'zgarish holatlarini o'rganadi va aniqlaydi; psixologik diagnostika – shaxs guruhlarining psixik xususiyatlari, holatlari va taraqqiyot ko'rsatkichlarini aniqlab, sifatli va miqdoriy jihatdan o'lchab beradi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi, umumta'lim maktablaridagi o'quv-tarbiya jarayoni bolalarning qobiliyati va layoqatlarini har tomonlama rivojlantirishga, ular shaxsini shakllantirishga qaratilgan. Pedagogik jarayonning mahsuldorligi pedagogning o'z o'quvchilarini yaxshi bilishiga, ta'lim va tarbiyaning xilma-xil metodlarini qo'llashiga bog'liq.

Albatta, pedagogika fan sifatida tarbiyachiga pedagogik psixologiya sohasidagi tayyor «retseptlar»ni bera olmaydi. Bunday ko'nikmalar bolalar bilan bevosita muloqot jarayonida, ular xulq-atvorining motivlarini, hissiy-shaxsiy xususiyatlarini tahlil qilish mobaynida egallanadi. Bu haqida mashhur rus pedagogi K.D.Ushinskiy quyidagicha yozgan edi: «Biz unday yoki bunday qiling deb tushuncha bermaymiz. Biz ularga: Siz boshqarmoqchi bo'lgan psixik hodisalarning qonuniyatlarini o'rganing va ularga mos ravishda harakat qiling, deymiz».

Lekin tarbiyachilar bolalar psixologiyasi bo'yicha bilimlarni juda kam qo'llaydilar, asosan o'quvchilar o'zlashtirmaganlarida, taraqqiyotdan chetlashish yoxud buzilishlar sodir bo'lgandagina foydalanishga harakat qiladilar. Bolalarning bunday holatlari chegara holatlari sifatida, psixik taraqqiyot kamchiligi o'laroq shaxs aktsentuatsiyasining turli ko'rinishi sifatida

tasniflanishi mumkin. Ularni aniqlash uchun bolalar psixologiyasi, klinik patopsixologiya va psixiatriya kabi sohalardagi bilimlar talab qilinadi. Bundan tashqari tarbiyachi bolalar psixologiyasining akseleratsiya (tez etilish), pedagogik qarovsizlik kabi muammolarini hal qilishiga to'g'ri keladi.

O'qituvchi ta'lim va tarbiyadagi qiyinchiliklar nega va qanday paydo bo'lishini tushunishi uchun, avvalo bola psixik taraqqiyotining asosiy qonuniyatlarini bilishi va turli psixik holatlarning psixologik diagnostika metodlarini egallashi zarur. O'qituvchi bolalar bilan ishlashda psixodiagnostik tadqiqot doimiy kuzatish jarayonida olingan natijalardan qanchalik to'g'ri foydalana olishi ham muhim hisoblanadi.

Tajribaga asoslangan psixologik diagnostika fan sifatida XIX asr oxirida vujudga keldi. Xuddi shu davrda psixologiyada o'lchash g'oyasi keng tarqaldi. Psixodiagnostikaning mustaqil fan sohasiga aylanishi olimlarning insonlar psixikasidagi individual farqlarga qiziqishining ortishi bilan bog'liq.

Psixodiagnostika psixologik diagnoz qo'yish haqidagi fandır. Bunda diagnoz ko'rsatkich va tavsifnomalarni birgalikda tahlil qilish asosida sinaluvchining holati va xususiyatlari haqidagi xulosalardan iborat.

#### **1.4. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya bilan shug'ullanuvchi psixologga qo'yiladigan talablar**

Har qanday psixodiagnostik metodika yo'q joydan paydo bo'lmaydi, balki (tashxislash) o'rganilayotgan ob'ektning psixologik nazariyasi asosida vujudga keladi va rivojlanadi. Masalan, intellekt testlari, intellektning hayotiy voqeliklarda namoyon bo'lishi, ahamiyati, tuzilishi va uning tabiati haqidagi ilmiy tasavvurlarga asoslanadi. Shaxs testlari, shaxsning tuzilishi, shaxs xususiyatlarining taraqqiyoti va tabiati, ilmiy ma'nosi haqidagi nazariyalarga asoslanadi.

Psixodiagnostik metodikalardan to'g'ri foydalana olish uchun albatta uning nazariy asoslarini bilish shart, aks holda psixodiagnostik tadqiqot natijalarining analizi, sharhlash va xulosalarda xatoliklarga yo'l qo'yishi mumkin.

Eksperimentator biron-bir psixologik testni mukammal o'zlashtirib olmagan bo'lsa va hech bo'lmaganda o'zida boshqa bir odamda sinab ko'rmagan bo'lsa, uni qo'llashga haqli emas. Bundan tashqari, psixodiagnostik metodikalarni qo'llashning shart-sharoitlariga qat'iy amal qilish shart. Ammo har qanday voqelikda ham psixologik tashxis bilan kim shug'ullanishidan qa'ti nazar – mutaxassismi yoki qiziquvchimi, quyidagi **ma'naviy-ahloqiy me'yorlarga** rioya qilishi shart: Shaxsni o'z xohishsiz psixologik tadqiqotga jalb qilish man qilinadi, faqat ba'zi bir hodisalar bundan mustasno, ya'ni sud tibbiyot amaliyotlari agar qonun bilan chegaralanmagan bo'lsa.

Psixologik testlar o'tkazishdan oldin sinaluvchi, tadqiqot jarayonida o'zi anglamagan holda, o'z fikri va hissiyotlari haqida ma'lumotlar berib turishi to'g'risida ogohlantirib qo'yilishi kerak.


Har bir odam agar qonun bilan chegaralanmagan bo'lsa, test natijalarining qachon, kim tomonidan va qanday maqsadda qo'llanilishi haqida bilishga haqlidirlar.

Psixologik test natijalari tadqiqot o'tkazgan shaxs tomonidan sinaluvchiga tushunarli bo'lgan shaklda tayyorlab taqdim qilinadi.

Voyaga etmagan bolalar bilan o'tkazilgan test natijalarini ularning ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bilishga haqlidir.

Agar test shaxsning psixologik taraqqiyot darajasini aniqlash maqsadida o'tkazilsa, u holda sinaluvchi nafaqat testning maqsadini, balki kim tomonidan nima asosida test natijalarining xulosasi chiqarilishini bilishga haqlidir.

Amaliyotda psixologik testlarni qo'llashda asosiy javobgarlik ulardan foydalanayotgan shaxslar, tashkilotlar va psixologlar zimmasidadir.





biron-bir metodikani amaliyotda  
qoʻllay olishda zaruriy tajribaga ega  
boʻlishi

### 1.5. Psixologik tadqiqotning asosiy metodologik tamoyillari

Psixodiagnostika – bu psixologning kasbiy faoliyatidagi murakkab va juda maʼsuliyatli sohadir. Shuning uchun ham psixodiagnostikaga bir qator ijtimoiy-axloqiy talablar qoʻyilgan boʻlib, ular quyidagilardir:

Psixodiagnostika sirlarini saqlash.

Psixodiagnostik metodikalarning ilmiy asoslanganligi.

Sinaluvchiga ziyon etkazmaslik.

Xulosalarning ob'ektivligi.

Taklif qilingan tavsiyalarning samaradorligi.

Yuqorida qayd qilib oʻtilgan talablarning, har birini psixodiagnostikaning tamoyillari sifatida alohida koʻrib chiqamiz.

Psixodiagnostikaning **sir saqlash tamoyili** – sinaluvchining ruxsatisiz olingan natijalarni eʼlon qilmaslik, bu birinchi navbatda balogʻat yoshiga etgan odamlarga taalluqlidir. Agar sinaluvchilar balogʻat yoshiga etmagan boʻlsa hamda psixodiagnostik natijalarni eʼlon qilish uchun ota-onalarning, bolalar uchun maʼnaviy va huquqiy masʼul boʻlgan shaxslarning ruxsati boʻlishi shart. Faqat baʼzi hollarda ilmiy maqsadda, yaʼni eksperimental tadqiqotning bir qismi sifatida eʼlon qilish bundan mustasno, ammo sinaluvchilarning aniq ismi-shariflarini bayon etish tavsiya qilinmaydi.

Psixodiagnostik metodikalarning **ilmiy asoslanganlik tamoyilida** metodikaga validlik, ishonchlilik talabi qoʻyiladi, yaʼni olingan natijalarga toʻliq ishonch imkonini bersin.

**Ziyon etkazmaslik tamoyilida** psixologik tashxis natijalaridan hech qachon tadqiqotda qatnashgan odamlarga nisbatan zarar etkazish maqsadida foydalanmaslik nazarda tutiladi.

**Xulosalarning ob'ektivlik tamoyili** test oʻtkazayotgan odamning sub'ektiv ustanovkalarga tobe boʻlmasligi, test olingan natijalardan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan boʻlib, validli va ishonchli metodika yordamida oʻtkazilgan boʻlishi shart.

Taklif qilinayotgan tavsiyalarning samaradorlik tamoyilida tavsiyalar albatta taklif qilinayotgan odamga yordam berishi shart. Test natijalari asosida taklif qilinayotgan tavsiyalar befoyda tasodifiy holatlarni keltirib chiqarmasligi kerak.

Shunday qilib, ushbu mavzuda psixodiagnostika va eksperimental psixologiya fanining predmeti, vazifalari, bosqichlari, eksperimentator shaxsiga qoʻyiladigan talablar, psixologik tadqiqotning asosiy metodologik tamoyillari bilan tanishdik.

#### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar?

1. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiyaning predmeti?
2. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiyaning vazifalari?
3. Psixodiagnostikaning turlari va bosqichlari?

4. Eksperimentator shaxsiga qo'yiladigan talablar haqida nimalarni bilasiz?.

5. Psixologik tadqiqotning asosiy metodologik tamoyillari?.

#### “Blits-so'rov” texnologiyasi

Savol	Javob
Psixodiagnostika tushunchasining mazmunini sharhlang	
Eksperiment nima?	
Psixologik diagnoz bosqichlari nima?	
Tipologik diagnoz nima?	
Etiologik diagnoz nima?	
Simptomatik diagnoz nima?	
Psixologning kasbiy tamoyillarini yoritib bering	
Psixolog kasbiga qo'yiladigan axloqiy tamoyillarini tahlil qiling	
Sinaluvchilarning majburiyatlarini sharhlang	

#### “BBB” texnologiyasi

Talabalarning egallagan nazariy bilimlarini aniqlash maqsadida qo'llaniladi.

SAVOLLAR	BILAMAN	BILISHNI XOHLAYMAN	BILIB OLDIM
Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya fanining predmeti va vazifalari.			
Psixodiagnostik va eksperimental tekshiruv bosqichlari.			
Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya turlari.			
Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya bilan shug'ullanuvchi psixologga qo'yiladigan talablar.			
Psixologik tadqiqotning asosiy metodologik tamoyillari.			

## II. PSIXODIAGNOSTIKA VA EKSPERIMENTAL PSIXOLOGIYA TARIXI

### Reja:

- 2.1. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiyaning psixologik tadqiqotlar sohasi sifatida shakllanguncha bo'lgan davrda psixodiagnostikaga oid bilimlar taraqqiyoti.
- 2.2. Psixodiagnostikaning psixologik tadqiqotlar mustaqil sohasi sifatida rivojlanish davri.
- 2.3. Sobiq ittifoqda psixodiagnostika va eksperimental psixologiya fanining taqdiri
- 2.4. Eksperimental psixologiyaning shakllanish tarixi
- 2.5. O'zbekistonda psixodiagnostika va eksperimental psixologiyaning rivojlanishi

### Maqsad:

Talabalarda psixodiagnostika va eksperimental psixologiyaning fan sifatida rivojlanish tarixi haqida tushuncha hosil qilish.

### Vazifa:

1. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiyaning psixologik tadqiqotlar sohasi sifatida shakllanguncha bo'lgan davrda psixodiagnostikaga oid bilimlar taraqqiyotini bayon etish.
2. Psixodiagnostikaning psixologik tadqiqotlar mustaqil sohasi sifatida rivojlanish davrini asoslash.
3. Sobiq ittifoqda psixodiagnostika va eksperimental psixologiya fanining taqdirini yoritish.
4. Eksperimental psixologiyaning shakllanish tarixini bayon etish.
5. O'zbekistonda psixodiagnostika va eksperimental psixologiyaning rivojlanishini yoritish.

### Tayanch tushunchalar:

1. **Psixofizika** (Yunon. phisus – tabiat) - psixik xususiyat va qonuniyatlarining fiziologik asoslarini o'rganadi.
2. **Psixofiziologiya** - psixologiya va neyrofiziologiyaning psixikani, uni neyrofiziologik asoslari bilan birga o'rganadigan sohasi.
3. **Psixologik laboratoriya** - inson ruhiy jarayonlarini o'rganish maqsadida jihozlangan maxsus tadqiqotlar olib boriladigan ilmiy muassasa.
4. **Psixodiagnostika** (Yunon. diagnostikos - bilishga qodir) shaxsning individual psixologik xususiyatlarini aniqlovchi va o'lchashni ishlab chiquvchi psixologiya usuli.
5. **Kombinatsiya** – birlashtirilgan testlar degan ma'noni bildiradi.
6. **Psixometrika** - bu psixologik o'lchash degan ma'noni anglatadi.

### 2.1. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiyaning psixologik tadqiqotlar sohasi sifatida shakllanguncha bo'lgan davrda psixodiagnostikaga oid bilimlar taraqqiyoti

Psixodiagnostikaning rivojlanish tarixi ko'p asrlarga borib taqaladi. Individual psixologik farqlarni aniqlashga mo'ljallangan dastlabki testlar 4000 yil oldin ma'lum bo'lgan. Qadimgi madaniyat tarixini o'rganish bunga yaqqol misol bo'la oladi. Qadimgi Xitoyda Xristos tug'ilishidan 2200 yil oldin shaxsning ko'p xususiyatlarini qamrab olgan amaldorlarni tanlash tizimi yaratilgan. Bunda amaldorlarning ko'pgina xislatlariga: jumladan, chiroyli yozuvdan - kundalik xulq-atvorigacha e'tibor berilgan. Platon insonlarni bir-biridan farqlaydigan tug'ma layoqatlarning ahamiyatini yaxshi tushungan.

Har uch yilda imperator huzurida olti yo'nalish bo'yicha: musiqa chalish, kamon otish, chavandozlik, yozish, o'qish, marosimlarni bilish kabi sinov mashg'ulotlari amalga oshirib borilgan.

Masalan, eramizdan avvalgi VI-V asr qadimgi Yunonistonda Pifagor o'z maktabiga kelganlarni qabul qilishda ularga dastlab qiyin matematik masala bergan masalani echgan odam darhol o'qishga qabul qilingan, masalani echa olmagan odamni esa maxsus zalga olib kirishgan. Bu erda esa sinov qoidasiga binoan bir guruh odamlar uning ustidan kulishni boshlaganlar, agar sinaluvchi o'zini munosib tutib luqma tashlovchilarga o'rinli javob bera olsa u ham maktabga qabul qilingan.

Qadimgi Misrda esa ruhoniylikka o'qitilgan odamlarning tarjimai holi, ma'lumoti, suhbatlashishi, ko'nikmasi tekshirilgach u qorong'u er to'ladan bir o'zi o'tishi lozim bo'lgan.

XIX asrning birinchi yarmida psixologiyada o'lchash g'oyasi ommalashadi. Bu davrda inson haqidagi empirik psixologik bilimlarni aniqlashda vrachlar katta rol o'ynadilar. Vrach-psixiatrlar

Evropa kasalxonalarida ruhiy kasallar va nevrozlarni doimiy kuzatib, o'z kuzatish natijalarini yozib bordilar va bu yozuvlar tahlil qilindi. Bu vaqtda psixodiagnostikaning kuzatish, so'rovnomalar, hujjatlarni tahlil qilish metodlari paydo bo'ldi. Bu davrda psixodiagnostika qat'iy bo'lmagan, ixtiyoriy xarakterga ega bo'lib, bir bemorni bir xil metod yordamida vrachlarning kuzatishlariga asoslangan. Bu davrda psixodiagnostika metodlari sifat xarakteriga ega bo'ldi. Masalan, frantsuz shifokori J.Eskirol aqli zaiflikning har xil shakllarini o'rganib, intellektni o'lchashda nutqning rivojlanishiga e'tibor berish kerak degan xulosaga keldi (E.Segen aqli zaif bolalarni tashxis qilish testini ishlab chiqdi). XIX asrning ikkinchi yarmida psixologiya fani individual farqlarni miqdoriy ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ayniqsa, bunga V.Vundt tomonidan dastlabki eksperimental laboratoriyaning ochilishi va Veber, Fexner ishlari turtki bo'ldi. XX asrning 20-yillarida psixodiagnostika mustaqil fan sifatida rivojlanadi. Bunga quyidagi tarixiy hodisalar asosiy sabab bo'lib 1884 yil Angliyada F.Galton tomonidan antropometrik laboratoriya tashkil etilishi xizmat qiladi.

### “CHalkash chiziqlar” usuli

Talabalar quyida keltirilgan davlatlar va ushbu davlatlardagi psixodiagnostik tekshiruvlarning bir-biriga mosini topishlari kerak bo'ladi.

Davlatlarning nomi	CHiziqlar	Psixodiagnostik tekshiruvlar
Qadimgi Misr		Bu erda sinov qoidasiga binoan bir guruh odamlar birinchi bosqich sinovidan o'ta olmagan kishilarning ustidan kulishni boshlaganlar, agar sinaluvchi o'zini munosib tutib luqma tashlovchilarga o'rinli javob bera olsa u ham maktabga qabul qilingan.
Qadimgi Xitoy		Aqli zaiflikning har xil shakllarini o'rganib, intellektni o'lchashda nutqning rivojlanishiga e'tibor qaratilgan.
Frantsiyada		Jangchilik san'ani, kamonbozlik bilan bir qatorda xusnixat ham tekshirilgan.
Qadimgi YUnonistonda		Ruhoniylikka o'qitilgan odamlarning tarjimai holi, ma'lumoti, suhbatlashishi, ko'nikmasi tekshirilgach u qorong'u er to'ladan bir o'zi o'tishi lozim bo'lgan


## 2.2.Psichodiagnostikaning psixologik tadqiqotlar mustaqil sohasi sifatida rivojlanish davri

Psixologik diagnostika fan sifatida XIX asr oxirida eksperimental asosda vujudga keldi. Psixologik diagnostikaning vujudga kelishida F.Galton (1879); J.Cattell (1890); H.Ebbinghaus (1891); A.Binet va V.Henri (1896); A.Binet va Th.Simon(1905)larning ishlari katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu tadqiqotlarda individual farqlarni o'rganishning yangi statistikaga asoslangan quroli – test ishlatila boshlagan. Psixologiyada ilk bor psixometrik yo'nalish asoschisi F.Galton testlar yaratgan. Dastlabki test aqlni o'lchash metodi sifatida qo'llanildi, keyinchalik esa undan shaxsni, uning reaksiyalarini o'rganishda foydalanila boshlandi. Psixodiagnostikada yangi metodlarni ishlab chiqish psixiatrik shifoxonalarning ehtiyojlari tufayli kuchaytirildi. Keyinchalik esa kasb tanlash ishlari bilan bog'liq psixotexnikaning taraqqiyoti bilan yanada rivojlantirildi.

Psixologik diagnostika fan sifatida 1920-yillarda keng shakllana bordi. Shveysariyalik psixolog va psixiatr H.Rorschach (1921)ning «Psixodiagnostika» asari nashr etilishi bilan psixodiagnostikaga asos solindi. Psixodiagnostika tushunchasi individni o'rganadigan barcha metodlar majmuini o'z ichiga oladi. Bu kitob nashr etilishi bilan psixologik diagnostika taraqqiyotida yangi davr boshlandi, u psixometriyadagi shaxsni o'rganish yangi metodlari bo'lmish proektiv metodlar bilan bog'langan edi. Proektiv psixologiya bir butun shaxsni o'rganish mumkin emas, deb talqin qiluvchi psixometrik nuqtai nazar va bixeviorizmga qarshi e'tiroz bildiruvchi fan sifatida rivojlana boshladi.

Galton(1879)

Psixologik  
diagnostikaning  
vujudga



Keyinchalik psixodiagnostikada yangi metodlar yaratilishi bilan birga birlashtirilgan (kombinatsiya qilingan) testlar qo'llanila boshlandi. Masalan, aqlni o'rganish metodlari orasida amerikalik psixolog D.Wechsler(1939, 1955)ning subtestlari keng tarqaldi. Yangi proektiv metodlar ham yaratilib, keng foydalanila boshlandi. (Amerikalik psixolog G.Murray(1935, 1943)ning Tematik Appertsepsion Testi (TAT), nemis psixologi S.Rosenswegning frustratsiyaga bo'lgan reaksiyani o'rganish bo'yicha testi va boshqalar.) Shaxsiy savolnomalar (MMRI, 16 PF) keng tarqaldi.

### 2.3.Sobiq ittifoqda psixodiagnostika va eksperimental psixologaya fanining taqdiri

Rus psixologiyasida diagnostik metodlardan foydalanish o'z tarixiga ega. Bu jarayonda shartli ravishda 2 bosqichni ajratish mumkin.

**Birinchi bosqich o'tgan asr 20-yillarining boshidan 30 yillar** o'rtasigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda pedagogika va psixotexnikada test metodlari keng tarqaldi. Bunga bog'liq ravishda pedalogiya – bola haqidagi fan rivojlana boshlandi. Uning predmeti – bolalar hayotini o'rganish, irsiyatning rolini, jismoniy va ma'naviy taraqqiyot qonunlarini aniqlash, bolalar psixikasida kasallik ko'rinishlarini o'rganishdan iborat (K.N.Kornilov, 1917). Bu davrda psixologik diagnostikaning rivojlanishiga M.S.Bernshteyn, L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, S.G.Gellershteyn, N.D.Levitov, G.I.Rossolimo, P.I.Shpilreyn, A.M.Shubert va boshqalar katta hissa qo'shdilar. Olimlar tomonidan ilgari surilgan qator ilg'or fikrlar keyinchalik rivojlantirilmadi, chunki 1936 yildan keyin bu sohadagi barcha tadqiqotlar to'xtatildi va psixodiagnostikaning keyingi rivojlanishiga jiddiy to'siq Yuzaga keldi. Mashhur rus psixologi L.S.Vigotskiy shaxs psixik taraqqiyoti xususiyatlarini o'rganishga muhim hissa qo'shdi. Uning ta'limoti insonga xos bo'lgan psixik jarayonlar va inson ongining tarixiy rivojlanishiga bag'ishlandi. Uning fikricha, bolalar psixik taraqqiyoti insoniyat madaniyatini o'zlashtirishi natijasida ro'y beradi. Bunda shaxs shakllanishida ta'lim va tarbiya jarayonlari etakchi rol o'ynaydi.

Psixodiagnostikaning rivojlanishidagi **ikkinchi bosqich 50 – 60-yillarga** to'g'ri keladi. Bu davrda aqliy taraqqiyotni o'rganishga katta e'tibor berildi. Jumladan, A.A.LYublinskaya tadqiqotlarida nutq va uning funksiyalarining rivojlanish xususiyatlari o'rganilgan. A.R.Luriya rahbarligida faoliyatni boshqarishda nutqning roli o'rganildi. A.N.Leont'ev va A.V.Zaporjets rahbarligida asosiy psixik jarayonlarning rivojlanishida faoliyatning roli o'rganilgan. D.B.Elkonin rahbarligida nutqning rivojlanishi va bog'cha davrida o'yinning etakchi faoliyat turi sifatidagi roli aniqlandi. Bu tadqiqotlardan olingan natijalar bolalar uchun ta'lim va tarbiya dasturlarini tuzishda asos bo'lib xizmat qildi. Rus psixologlari tomonidan ishlab chiqilgan aqliy taraqqiyotni sifatiy tahlil qilish tamoyili qator vazifalarni hal qilishda o'z mahsuldorligini namoyon qildi va ko'pgina

tadqiqotlarda o'z aksini topdi (Z.I.Kalmikova, 1975, 1982; G.A.Vardanyan, 1979; L.A.Venger, 1974; K.M.Gurevich, 1980; V.I.Voytko, Yu.Z.Gilbux, 1981; D.B.Elkonin, 1982; V.V.Stolin, A.G.Shmelev, 1987; L.F.Burlachuk, S.M.Morozov, 1989 va boshqalar). Psixologik diagnostikaning kichik amaliy yo'nalishi u yoki bu hodisalarni bilishga va tavsiflashga qaratilgan. B.G.Ananev (1968) psixologik diagnostikani psixologik tadqiqotlarga qaratilgan yo'nalish, deb ta'riflaydi, uning maqsadi, psixofiziologik funktsiyalar, jarayonlar va shaxs xususiyatlari rivojlanish darajasini aniqlash, turli qo'zg'atuvchilar ta'sir qilganda inson holatini bilish, insonning mehnat qobiliyatini, layoqatini aniqlashdan iborat.

K.K.Platonov (1974) psixologik diagnostikani psixik hodisalarning xossa va xususiyatlarini o'rganish haqidagi fan, deb hisoblagan. K.N.Gurevich (1974) esa insonlarni psixologik va psixofiziologik belgilari bo'yicha ajratish va tavsiflash metodlari haqidagi fan deb hisoblaydi. V.V.Stolin va A.G.Shmelev (1984) psixodiagnostikani psixologik diagnoz qo'yish haqidagi fan deb bilishgan. **Diagnoz** (tashxis) – sinaluvchining alohida ko'rsatkich va xarakteristikalarini chuqur tahlil qilish asosida uning xususiyati va holati haqidagi xulosadir. Shu bilan birga psixodiagnostik tadqiqot, eksperimental tadqiqotdan tubdan farq qiladi. Psixodiagnostik tadqiqotda aniq individ, individlar guruhi haqida ma'lumot olinadi, eksperimental tadqiqotda nazariy faraz tekshiriladi. Shuning hisobiga psixodiagnostika maxsus metodik tamoyillarga bo'ysunadi. Lekin psixologik diagnostikaga turlicha ta'rif berishlariga qaramasdan, uning asosiy tushunchasi «psixologik diagnoz» tushunchasi bo'lib qoladi. Hayotda biz kasalxonalarda turli kasalliklarga diagnoz (tashxis) qo'yishlariga o'rganib qolganmiz. Bunda tashxisning to'g'riligi tekshirishning turli klinik metodlaridan foydalanishga bog'liq bo'ladi. Qator hollarda bunday diagnostika murakkab apparaturali test metodlaridan foydalangandan keyingina mumkin bo'ladi. Eksperimental diagnostikada ham tadqiqotchi turli metodlar, apparaturali testlardan foydalanadi. Olingan ma'lumotlar asosida psixolog sinaluvchining xulq-atvori, faoliyati haqida xulosa chiqaradi, ya'ni shaxsga psixologik diagnoz qo'yadi. Psixologik diagnoz qo'yishning umumiy sharoitlariga aloqador asosiy mezonlarni ajratib ko'rsatish mumkin: psixologik diagnoz insonga xos bo'lgan maxsus hodisa va xususiyatlarni ochib berishi kerak; har qanday diagnoz olingan natijalarni bayon qilish bilan chegaralanmasligi, u yoki bu belgining vujudga kelish sababi, oqibati, keyingi rivojlanishi ham namoyon bo'lishi kerak.

***Sobiq sovet psixologiyasida diagnostik metodlardan foydalanishni shartli ravishda 2 bosqichga ajratish mumkin***

- **Birinchi bosqich** 20 yillarning boshidan 30 yillarning o'rtasigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda pedagogika va psixotexnikada test metodlari keng tarqaldi. Bunga bog'liq ravishda pedalogiya-bola haqidagi fan rivojlana boshladi. Bu davrda psixologik diagnostikaning rivojlanishida M.S.Bernshteyn, L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, S.G.Gellershteyn, N.D.Levitov, G.I.Rossolimo, P.I.SHPilreyn, A.M.SHubert va boshqalar katta hissa qo'shdilar.
- **Ikkinchi bosqich** 50 – 60-yillarga to'g'ri keladi. Bu davrda aqliy taraqqiyotni o'rganishga katta e'tibor berildi. Bu davrda A.A.LYublinskaya, A.R.Luriya, A.N.Leont'ev, A.V.Zaporojets, Z.I.Kalmikova, ; G.A.Vardanyan, L.A.Venger, K.M.Gurevich, V.I.Voytko, Yu.Z.Gilbux, D.B.Elkonin, V.V.Stolin, A.G.Shmelev, L.F.Burlachuk, S.M.Morozovlar sermahsul ijod qildilar.

Psixologik diagnoz tadqiqot sharoitida inson xulq-atvorini xarakterlaydigan material. Sinaluvchining shaxsiy hayot va psixik faoliyati haqida eksperimental tadqiqot yo'li bilan ma'lumotlar asosida psixologik diagnoz qo'yiladi. Tadqiqotchi psixik faoliyat natijalari haqida ma'lumot olish uchun turli psixodiagnostik metodlardan foydalanadi (N.A.Menchinskaya, 1966; Z.I.Kalmikova, 1968; S.Ya.Rubinshteyn, 1970; B.V.Zeygarnik, 1976; V.M.Bleyxer, 1976; L.F.Burlachuk, 1979; M.K.Gurevich, 1984 va boshqalar).

***Aqliy hujum savollari***

1. Nima deb o'ylaysiz, psixodiagnostika fani qanday paydo bo'lgan?

2. Individual farqlar deganda nimani tushunasiz?

3. Birlashtirilgan testlar qanday yaratulgan?

4. Hozirgi davrda psixodiagnostika fanining rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shgan psixologlarning nomlarini keltiring?

Respublikamizda psixodiagnostikaning rivojlanishiga M.G.Davletshin, B.R.Qodirov, G'.B.Shoumarov, E.G'.G'oziev, V.A.Tokareva, R.Z.Gaynutdinov, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, Sh.R.Baratov, A.Jabborov, Z.T. Nishanova, S. X.Djalilova, G.To'laganova, A.Rasulov kabi olimlar o'z hissalarini qo'shganlar.

Shunday qilib, ushbu mavzuda biz psixodiagnostikaning mustaqil fanga aylanguncha bo'lgan rivojlanish tarixi hamda xorijda, Rossiyada, O'zbekistonda rivojlanish tarixi, uning bosqichlari bilan tanishdik.

#### 2.4. Eksperimental psixologiyaning shakllanish tarixi

Har bir mustaqil fan singari "Eksperimental psixologiya" fani ham o'zining rivojlanish tarixiga egadir. Eksperimental psixologiya mustaqil fan sifatida XIX asr o'rtalarida rivojlana boshladi. Psixologiyada eksperimental tadqiqotlarni qo'llanilishi va rivojlanishi bu fanning ilmiy-amaliy asosga ega ekanligini yana bir bor ko'rsatib berdi.

Mashhur ingliz olimi F.Gal'ton 1884 –1885 yillar davomida bir necha seriyalardan iborat tajribalar o'tkazdi. Bunda 5 dan 80 yoshgacha bo'lgan hoxlovchilar arzimagan haq evaziga laboratoriyada o'z kuchi, reaksiya tezligi; organizmning xislatlarini 17 ko'rsatkich bo'yicha tekshirishlari lozim edi. Bu ko'rsatkichlar qatoriga shuningdek, bo'yi, oq'irlik, o'pkaning tiriklik siq'imi, kaft va musht kuchi, harflarni eslab qolish qobiliyati, ko'rish o'tkirligi, rangni farqlash kabi ko'rsatkichlar ham kiritildi. To'liq dastur bo'yicha hammasi bo'lib 9337 kishi tekshirilib chiqildi. F.Gal'tonning fikriga ko'ra, testni o'tkazish eksperimentni talab etadi. Shunday qilib, eksperiment fanning haqiqiy asosi, poydevori deb qarala boshlandi. Bu haqida Dj.Kettell ham ta'kidlab o'tgan: qachonki asosini eksperiment va o'lchash, aniqlash tashkil qilgan ekan, shundagina psixologiya haqiqiy va aniq fan bo'lishi mumkin. 1890 yilda nashr qilingan ilmiy ishida Dj.Kettell 50 turdagi laboratoriya testlarining ro'yxatini keltiradi. Hozirgi kunda ularni testdan ko'ra ko'proq topshiriqlar deb atash to'g'riroq bo'ladi. Bu topshiriqlar testlarga qo'yiladigan talablardan faqat ikkitasiga ega edi: uni qo'llash ko'rsatmasi mavjud hamda tadqiqotning (laborator) ilmiy xarakteri ta'kidlangan edi. Bu talablarga ko'ra laboratoriya yaxshi jixozlanishi; testni o'tkazish vaqtida begonalar bo'lmasligi; barcha sinaluvchilarga bir xilda ko'rsatma berilishi, ya'ni ular nima qilishlari kerakligini yaxshi o'zlashtirib olishlari lozim edi.

F.Gal'ton va Dj.Kettell dastlabki asarlari nashr etilgach, test metodi g'oyasi turli mamlakat olimlarining diqqatini o'ziga tortdi. Shu tariqa uning tarafdorlari va qarshi bo'lgan olimlar paydo bo'la boshladi. Bu metodni qo'llash tarafdorlariga quyidagilarni kiritish mumkin: Germaniyada – G.Myunsterberg, S.Krepilin, V.Onri, Frantsiyada – A.Bine, AQSHda – Dj.Gilberd va boshqalar. Bu tadqiqotchilar yangi turdagi, ya'ni psixologiyani amaliyot extiyojlari bilan bog'lashga uringan olimlar edilar. Biroq amaliy tadqiqotlarga intilish psixologiyada fandan yiroqlashish deb baholanadi. Dj. Kettellning ta'kidlashicha, u o'zining dastlabki testlarini laboratoriya tadqiqotlarida individual farqlarni aniqlash maqsadida 1885 yilda qo'llagan, ammo V. Vundtning qarshiligi tufayli ularni nashrdan chiqara olmadi.

Ma'lumki, XIX asr fizika, biologiya, fiziologiya, ximiya va boshqa fanlarning rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Fanda paydo bo'lgan eksperimental metodning keng qo'llanilishi bu fanning rivojlanishiga yordam berdi. XYIII asrning oxiri XIX asrning boshlaridayoq psixologlar o'rtasida psixik hodisalarni o'rganishda eksperimentni tatbiq qilish mumkin emasmikan, degan muammo paydo bo'ldi.

Bu muammo bo'yicha faylasuf Kant o'z fikrini bildirdi. Uning fikricha, psixologiyada eksperimentning bo'lishi mumkin emas, chunki psixik hodisalarni o'lchash mumkin emas, ularga matematikani tadbiq qilish ham mumkin emas.

Psixik hodisalarni o'lchashning mumkinligi, binobarin, psixologiyada eksperimentning bo'lishi mumkinligi haqida nemis psixologi I.Gerbert (1776-1841) ijobiy fikr bildirgan. U

«psixologiyada matematikani tadbiq qilish mumkin va zarurligi haqida» shunday degan: «Mening tadqiqotlarim amalda faqat psixologiyaning o'zi bilan cheklanib qolmasdan, balki fizikaga va umuman tabiat fanlariga ham qisman aloqadordir».

Gerbartning fikricha, asosiy psixofizik element tasavvurdir, qolgan barcha jarayonlar – hissiyot, iroda, tasavvurlar majmuasidan va munosabatlaridan iboratdir. Ruhiy holatlar doimo o'zgarish jarayonida bo'ladilar. Tasavvurlarning bu doimiy o'zgarish va almashish jarayonida ma'lum darajada doimiylik, qonuniyat bor. Bu doimiylikning miqdor tomonini o'lchash mumkin. Shuning uchun ham, Gerbartning fikricha, psixologiyaga matematikani tatbiq qilish mumkin.

Gerbart garchand psixologiyada eksperimentdan foydalanishning zarurligi va foydaliligini isbotlagan bo'lsa ham, lekin uning o'zi bu metoddan foydalanmadi.

Psixologiyada eksperimentni tatbiq qilish bo'yicha dastlabki ishlarni fiziolog **Veber (1796-1878)** va fizik **Fexner (1801-1887)** amalga oshirdilar. Veber va Fexnerning maqsadi tashqi ta'sirotlar (fizik omillar) ta'sirida sezgilarning o'zaro munosabatlari sohasidagi qonuniyatlarni topishdan iborat edi. Fexner eksperimental metodlar asosida sezgilarning ortib borishi bilan ularni qo'zg'atuvchi ta'sirlar o'rtasidagi q'iyosiy munosabatni aniqlab, sezgi qo'zg'atgich logarifmiga proportsionaldir, degan psixofizik qonunni kashf etdi. Veber va Fexner o'tkazgan tajribalar «Psixofizika» degan alohida fanning paydo bo'lishiga olib keldi.

Veber va Fexner ishlarining ahamiyati, asosan, shundan iboratki, ular birinchi bo'lib psixologiyani, tabiat fanlari singari, eksperimental fanga aylantirish mumkin ekanligini isbotladilar. Shu vaqtgacha faqat kuzatish, asosan o'z-o'zini kuzatishdan foydalanib kelayotgan psixologiya, endi aniq fanlardagi ob'ektiv metoddan foydalana boshlaydi.

Eksperimental psixologiya taraqqiyotida ayniqsa nemis fiziologi va psixologi **Vilgelm Vundtning (1832-1920)** ishlari katta ahamiyatga ega bo'ldi. Vundtgacha faqat ichki tajribadan va o'z-o'zini kuzatishdan foydalanib kelgan psixologiya faqatgina ijtimoiy fan edi. Vundt eksperiment va o'lchash metodlarini zarur deb topib, psixologiyani eksperimental fanga aylantirishni maqsad qilib qo'ydi. Vundt psixologiya uchun klassik metodlar bo'lib qolgan bir qancha metodlarni, ya'ni kuzatish metodi, ifodalash metod I va reaksiya metodlarini kashf etdi hamda rivojlantirdi. **Vundt 1879 yili Leyptsigda birinchi eksperimental psixologiya laboratoriyasini** tashkil qildi.

Vundt shug'ullangan masalalardan biri o'sha vaqtda astronomlar tomonidan ochilgan diqqatni bir vaqtda ikkita har xil ko'zg'atuvchiga to'plash mumkin emasligi haqidagi masala edi. Bu hodisani aniqlash uchun Vundt (laboratoriya tashkil qilingunga qadar) 1861 yilda alohida mayatnik o'ylab chiqardi (Vundt mayatnigi). Bu mayatnik graduslarga bo'lingan yoy atrofida harakatlanadi va har bir ma'lum vaqtdan keyin shig'irlaydi. Bu psixologik eksperimentlar uchun kashf etilgan birinchi asbob edi.

Ilmiy psixologiyani rivojlantirish uchun Vundt qo'shimcha vosita sifatida turdosh fanlar, ayniqsa fiziologiya, astronomiya, geografiya, tarix va boshqa fanlardan olingan ma'lumotlardan foydalanish zaruriyatini ilgari surdi.

1883 yilda Vundt o'z tajribalarini ommaga etkazish uchun “Falsafiy maktab” degan jurnalga asos soladi va bu jurnalga 1903 yilda “Psixologiya maktabi” degan nom beriladi. 1889 yilda Vundt laboratoriyasi psixologiya institutiga aylantirildi. 1887 yilda Vundt psixologik asbob-uskunalarni ishlab chiqaruvchi “E. TSimmerman” firmasiga asos soldi.

1882 yilda Germaniyada yana boshqa psixologiyaga oid laboratoriyalar ochildi.

Geytengen shahrida “Myuller”, Berlinda “Ebbingauz”, Freyburgda “Myustenburg”, Bonnda “Lips”, “Geydelburg”, “Strasburg”, “Gall”da psixologlarning kabinetlari ochildi. Keyinchalik esa Vyurtsburgda – Kyunpe, Frankfurtda – Shumann labratoriyalari ochildi.

1890 yilga kelib Ebbengauz va Kenning ishtirokida “Sezgi a'zolari psixologiyasi va fiziologiyasi” jurnaliga asos solindi. 1903 yilda E. Meymann “Umumiy psixologiya arxivi” degan jurnal nashr ettira boshladi.

Leyptsig laboratoriyasi va institutidan namuna olib boshqa mamlakatlarda jumladan, Frantsiya, Angliya va Amerikada laboratoriya hamda institutlar tashkil qilindi. XIX asrning oxirida Rossiyada ham bir qancha eksperimental psixologiya laboratoriyalari tashkil qilindi: Moskvada Tokarskiy, Qozonda Bexterev, Odessada N.N.Langerlar tomonidan shunday laboratoriyalar



ochildi. 1911 yil Moskva universiteti huzurida, maxsus qurilgan binoda professor Chelpanov rahbarligida eksperimental psixologiya instituti tashkil qilindi. Hozirgi vaqtda bu institut RF Pedagogika fanlari akademiyasi sistemasiga kiradi.

Bundan tashqari Rossiyada Sechenov eksperimental psixologiyaning otasi sifatida tan olindi. Uning asosiy g'oyalari nevroptologiya va psixologiya patologiyalari edi. Shundan so'ng psixologiya va fiziologiyani bog'lab o'rganish avj oldi.

1886 yilda Kozonda Bexterev tomonidan birinchi psixologiya laboratoriyasi ochildi. 1983 yilda esa Bexterev tomonidan "Nevrologik axborotnoma" jurnaliga asos solindi. 1894 yilda Bexterev xarbiy akademiyada ikkinchi psixologiya laboratoriyasini ochadi. Bu erda asosiy e'tibor sezgilarga qaratiladi. 1986 yilda Bexterev asos solgan "Psixiatriya, nevrologiya, eksperimental psixologiya xabarnomasi" jurnalida akademiyada o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari yoritiladi.

1907 yilda Bexterevning tashabbusi bilan Peterburgda ikkinchi psixologik nevroptologiya instituti ochiladi. 1918 yilda esa miya va psixik faoliyatni o'rganuvchi institutga asos solinadi.

XIX asrning 80 yillarida Xarkov va Yurev shaharlarida psixologiya laboratoriyalari ochiladi. Xarkov laboratoriyasining asoschisi P.I.Kovalevskiy edi. 1883 yilda esa Kovalevskiy Rossiyada birinchi psixiatriya jurnali "Psixiatriya, nevrologiya va sud psixopatologiyasi" jurnalini nashr qildiradi.

Yurev shahridagi laboratoriyaning asoschisi Krepelin edi. 1891 yilda bu laboratoriyaga V.F.Chij rahbarlik qilgan. Bu laboratoriya dunyo bo'yicha Vundt laboratoriyasidan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

1895 yilda psixiatr Korsakov laboratoriya ochib unga rahbarlik qilishni Tokarskiyga topshiradi. Bu laboratoriyada sezgi, idrok, xotira o'rganilgan. Bu erdagi ma'lumotlar "Laboratoriya qaydlari" degan jurnalda yoritib borildi.

1912 yilda Rossiyada psixologiya institutiga asos solindi. Bu institutga G.I.Chelpanov rahbarlik qildi. I.A.Skorskiy Kievda ochgan laboratoriyada aqliy faoliyat va toliqish muammolari o'rganildi. 1985 yilda I.A.Skorskiy asos solgan "Nevropsixik tibbiy muammolar" jurnali chop etildi.

1892 yilda Odessadagi "Novorossiysk" universiteti filologiya fakulteti qoshida faylasuf va psixolog N.N.Lange laboratoriya ochdi. Bu erda idrok va xotira muammolari o'rganildi.

Professor A. F. Lazurskiy (1874-1917 y.) tomonidan eksperimental metodning alohida turi – tabiiy eksperiment ishlab chiqarilgan. Eksperimentning bu turidan bizda bolalar psixologiyasini o'rganishda, pedagogika masalalarini, ayniqsa, ta'lim psixologiyasi masalalarini ishlab chiqarishda keng va unumli foydalanilmoqda.

Eksperimental metodning tatbiq qilinishi psixologiya fani taraqqiyotiga juda unumli ta'sir ko'rsatdi.

Bu metod yordamida oddiy kuzatish yoki o'z-o'zini kuzatish yo'li bilan aniqlash qiyin bo'lgan yoki butunlay mumkin bo'lmagan ko'p ma'lumotlar aniqlandi, ayrim psixik hodisalar o'rtasidagi bog'lanishlar aniqlangan, psixik protsesslardagi, ayniqsa, sezgilar, diqqat, idrok, xotira sohasidagi ba'zi bir qonuniyatlar ochilgan.

Eksperimental analiz yo'li bilan murakkab psixik protsesslar (idrok, xotira, tafakkur)ning alohida komponentlari tarkibiy qismlari ajratilgan, psixik protsesslarning fiziologik hodisalar bilan, shuningdek, tashqi fizik muhit hamda ijtimoiy muhit bilan bo'lgan bog'lanishlari ochilgan.

Eksperimental tekshirishlarning yakunlari, shuningdek, eksperimental metodning usullaridan foydalanish praktik faoliyatning turli sohalarida – o'quv tarbiya ishlarida, meditsinada, mehnatni tashkil qilish va ratsionalizatsiyalashtirishda, sud ishlarida, san'atda juda ko'p foyda keltiradi.

AQSHda eksperimental psixologiyaning rivojlanishida evropalik olimlarning xissasi kattadir. Amerika psixologiyasining asoschilari S.T.Xoll, D.Kettel, D.Endjel, Skripcher kabilar edi. Ular uzoq vaqt Leyptsig shahridagi Vundt laboratoriyasida ta'lim olishgan.

AQSHga Evropadan ko'chib kelgan psixologlar E.Titchener, G.Myustenger, K.Levin, Mak-Dugalli kabi psixologlar eksperimental psixologiyani AQSHga olib kirdilar.

1883 yilda Baltimor shahridagi D.Gopkins universitetida Xoll ta'lim olib, AQSHda birinchi laboratoriyani ochdi. 1888 yilda Vorchestordagi S.Klarks universitetida Xoll ikkinchi

laboratoriyani ochdi. Bu laboratoriyani E.Sanford boshqardi. 1891 yilda “Pedagogik seminar” uyushtirildi.

1877 yilda “Amerika psixologiyasi” jurnali, 1915 yilda “Amaliy psixologiya” jurnaliga asos solindi. 1892 yilda Xoll tashabbusi bilan Amerika psixologlari assotsiatsiyasi tuzildi. Bu assotsiatsiyaning birinchi prezidenti etib Xollning o’zi tayinlandi.


1887 yilda Kettel Penselvaniya shahrida laboratoriya ochadi. Xuddi shu yilda D.Petrik ham Yova universiteti qoshida laboratoiya ochadi. 1888 yilda Viskonsern universitetida (D.YAstrov), 1891 yilda Torontoda (D.Bolduin), 1891 yilda Kolumbiya universitetida (D.Kettel), 1892 yilda Garvard universitetida (G.Myustenburg) lar psixologik laboratoriya ochdilar.

XIX asrning oxiriga kelib Amerikada 27 laboratoriya va psixologlar mahkamalari faoliyat Yuritgan.

Angliyada birinchi laboratoriya 1897 yilda ochildi. Kembridjda ochilgan bu laboratoriyaga dastlab R.Rivers, 1912 yildan boshlab esa S.Mayerlar boshchilik qildi. 1897 yilda J.Solli Londonda universitet kolledji qoshida ikkinchi laboratoriyaga asos soldi. Ushbu laboratoriyaning ayrim jihozlari Myustenburg (Freyburg shahrida) laboratoriyasidan olindi. 1900 yilda Angliyada boshqa laboratoriyalar yo’q edi. 1903 yilda Mayer qirollik kolledjida uchnchi laboratoriyaga asos soldi. 1936 yil Oksfordda eksperimental psixologiya instituti ochildi. 1901 yilga kelib ilk bora psixologlarning birinchi yig’ilishi bo’lib o’tdi. 1904 yilda Rivers, Mayer va Uartlar psixologiyaning “Britaniya” jurnaliga asos soldilar.

Frantsiyada psixologiyaning rivojlanishi P.Jane, A.Bine va T.Ribo nomi bilan bog’liq. Rossiya psixologiyasida Sechenev, Germaniya psixologiyasida Vundt qanchalik katta ahamiyatga ega bo’lsalar Frantsiya psixologiyasi uchun T.Ribo shunchalik qadrlidir. T.Ribo eksperimental tadqiqotlar o’tkazmagan bo’lsa ham, Frantsiya psixologiyasining g’oyaviy otasi hisoblanadi. 1889 yilda Ribo Sarbonnada birinchi laboratoriyani ochadi va unga Bonini prezident etib tayinlaydi. 1895 yildan boshlab esa bu laboratoriyaga A.Bine rahbarlik qila boshlaydi.

1896 yilda V.Burdon Reyn shahrida ikkinchi laboratoriyani ochadi. 1921 yilda Parij psixologiya institutiga asos solinadi. Bu institutga A.Peron rahbarlik qilgan. 1901 yilda esa frantsuz psixologlar jamiyati tashkil etildi.



Germaniyada tashkil qilingan psixologiyaga oid birinchi ilmiy jurnallar nomi

1883 yilda nashr qilingan “Falsafiy maktab”  
jurnali

1890 yilda nashr qilingan “Sezgi a`zolari  
psixologiyasi va fiziologiyasi” jurnali

1903 yilda nashr qilingan “Psixologiya maktabi”  
jurnali

1903yilda nashr qilingan “Umumiy psixologiya  
arxivi” jurnali

Rossiyada tashkil qilingan psixologiyaga oid birinchi ilmiy jurnallar nomi


1883 yilda nashr qilingan  
“Nevrologik axborotnoma” jurnali

1985 yilda nashr qilingan  
“Nevropsixik tibbiy muammolar” jurnali

1883 yilda nashr qilingan “Psixiatriya,  
nevrologiya va sud psixopatologiyasi” jurnali

1886 yilda nashr qilingan “Psixiatriya,  
nevrologiya, eksperimental psixologiya  
xabarnomasi” jurnali

1895 yilda nashr qilingan “Laboratoriya qaydlari”  
jurnali



## 2.5 O'zbekistonda psixodiagnostika va eksperimental psixologiyaning rivojlanishi

Daslabki pedagogik va psixologik fikrlar markazi 1918-yili Toshkent va keyinchalik Chimkent shahrida tashkil qilingan. Pedagogika muzeyi va pedagogik laboratoriya universal o'quv tarbiya muassasasi bo'lib ta'lim- tarbiya bilan bog'liq bo'lgan hamma vazifalarni qamrab oladi. Buning natijasida yordam ta'lim metodlari ishlab chiqarilgan, shu erning o'zida sinalgan va respublikaning boshqa o'quv muassasalariga tarqatilgan. Ishning bunday tashkil qilinganligi tadbir qilishga imkon bergan. Pedagogik laboratoriya haqida Nizomda bu joy pedagogik fikr va ishning markazi bo'lishi lozim. Shuning uchun bir tomondan psixologik ishning har bir yangilik o'qitishda laboratoriyada to'plangan boy tajribadan foydalanish imkoniyati berilishi kerak, bu imkoniyat bevosita maktablarga joriy qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Boshqa laboratoriya va kabinetlar bilan bir qatorda pedagogik laboratoriya va pedagogik muzeyda eksperimental psixologik laboratoriyasi ham mavjud bo'lib, bu erda turli xil psixologik tajribalar amalga oshirilgan 1919-yili 1 aprelda Kavman Xorvat maorif komissariga xat yo'llab, davlatning ko'zi o'z o'ziga, gung, ruhiy kasal va psixologik taraqqiyoti hamda psixikasi muvozanatsiz bolalarni o'z tarbiyasiga olishi zarurligini ta'kidlagan. Xuddi shu maqsadda butun bir maxsus muassasalar tizimini tashkil etishni taklif etgan. Xorvatning taklifi bir necha yo'nalish bo'yicha diqqatga sazovordir. Birinchidan, bu kompleks xarakterdagi ish bo'lib, biron-bir psixonevrologik kasallik nazardan chetda qolmagan. Ikkinchidan, bu rejada ketma-ketlikdan bir necha bosqich nazarda tutilgan:

1. Kasallik diagnostikasi (tadqiqot darajasi).
2. Kasallarni davolash (amaliy tibbiy darajasi).
3. Kasallarni tarbiyalash va ta'lim berish (amaliy ta'lim darajasi).

Birinchi darajani psixologik laboratoriya, ikkinchi darajani davolash maxsus muassasasi, uchinchi darajani maktablar amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Turkistondagi muassasalardan biri "O'zbek davlat ilmiy tadqiqot instituti", hozirgi Qori Niyoziy nomidagi pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti 1929-yili tashkil qilingan bo'lib, hozirgi kunga qadar bu institut o'qitishning pedagogik konsepsiyalari maktab va maktabgacha tarbiya muassasalarida ta'lim-tarbiya nazariyasini yaratuvchi yagona markaz hisoblanadi. 1930-yillar boshlarida institut tarkibida quyidagi kabinetlar mavjud bo'lgan: 1. Ijtimoiy gigiena kabineti. 2. Iqtisod kabineti. 3. Pedagogik-psixologiya kabineti. 4. Psixologik laboratoriya kabineti. Institut tashkil bo'lgan vaqtdan boshlab milliy mentalitetni va ijtimoiy muhitni chuqur tadqiq qilish bolalarning psixologik ijtimoiy-madaniy xususiyatini hisobga olgan holda darslarni yaratish bilan shug'ullandi. Institut faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat edi. 1. Ilmiy

ekspedisiyalar uYushtirish. 2. Bolalar xarakterini o'rganish. 3. Pedagogik kadrlar tayyorlash. Ushbu institutning faoliyati Bendrikov, Leventuev, Zavarova, Yusupov, Tokanaev, Debenzov, Mirsharipov, Muxiddinov kabi olimlarning nomlari bilan chambarchas bog'liq. 1930-yillarda bu institutda jahon psixologiya faniga katta hissa qo'shgan olimlardan biri Aleksandr Romanovich Luriya ishlagan. U o'z institut doirasida o'tkazgan tadqiqotlari asosida keyinchalik "Ob istoricheskom razvitie poznavatelnix protsessov" – "Bilish jarayonlarining tarixiy taraqqiyoti haqida" degan asarini nashr qildi. O'zbekistonda psixologiya fanining shakllanishiga katta hissa qo'shgan olimlardan yana biri P.Ivanov hisoblanadi. 1927-yil Samarqanddagi o'zbek pedagogika institutida (pedakademiya) eksperimental psixologiya laboratoriyasini tashkil qilgan. 1940-yilda u pedagogika institutlari talabalari uchun psixologiyadan birinchi o'quv qo'llanmasini nashr qilgan. Keyinchalik 1934-yili Samarqand pedagogika institutining o'zbek davlat universitetiga aylantirishi munosabati bilan P.Ivanov o'z laboratoriyasi bilan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutiga ko'chib o'tadi. Pedagogika o'quv muassasalarida ilmiy pedagogik potensialning etishmasligi tufayli dastlabki psixologiya darslari tarjimonlar yordamida olib borilgan, keyinchalik bu tarjimonlarning o'zlari mustaqil ravishda psixologiyadan o'zbek tilida ma'ruzalar o'qiy boshlashgan. Aliaskar Usmonov, Toxiriyxon Askarxo'jaev, Bayburova, Raxmatova va boshqalar o'zbek tilida dars o'tuvchi psixologiya o'qituvchilari bo'lishgan. P.Ivanovning (1891-1968) psixologiyaga oid 75 dan ortiq ilmiy ishlari nashr qilingan. Uning 1927-yilda nashr qilingan "Umumiy pedagogika" bo'yicha qisqa ocherk, "Maktabshunoslik" tarbiyaning umumiy metodlari 1940-yillar va 1954-yillarda "Umumiy psixologiya", 1962-yilda "Ta'limning psixologik asoslari" kabi asarlari O'zbekistonda psixologiya fani rivojlanishiga juda katta hissa qo'shdi. SH.A. Boyburova, Usmonov kabilar bevosita uning rahbarligida faoliyat ko'rsatishdi. 1959-yil uning rahbarligida M.G.Davletshin, Bekboev, Muzaffarovlar nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilishdi. 1963-yil O'zbekistonda psixologiyadan birinchi bo'lib Krasnoboev Ilya Berovich (1896-1963) Toshkent Davlat universiteti filologiya fakulteti logika va psixologiya kafedrasini mudiri "Yuqori sinf o'quvchilarida e'tiqod, axloqiy tushunchalarni shakllanishi" mavzusidagi doktorlik ishini himoya qildi. Krasnoboevni ilmiy faoliyati 20- yillarda O'zbekistonda tadqiqotlar bilan bog'liq uning rahbarligi ostida logika va psixologiya kafedrasini azolari: 3. Mo'minova, V.Ya.Maros, A.Abdusattorov, V.I.Sofer, A.Gulyamov, R.V. Galyamov, A.A. Erstifirovlar turli xil ob'yektlarda psixologiya va logika bo'yicha ilmiy tadqiqotlarini olib bordilar. Bu tadqiqotlar O'zbekistonda xalq ta'limi bilan bog'liq muammolarni hal qilishga yordam berdi. M.Voxidov (1927-1989) 1955-yilda Leningradda nomzodlik ishini himoya qilgan. Dastlab Andijon pedagogika institutida, so'ngra Qori Niyoziy nomidagi pedagogika ilmiy tadqiqotlar institutida ishlagan. 1966-yil Toshkent Davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasini mudiri etib saylangan. 1973-yili Ministrlar Soveti topshirig'iga binoan tarix fakulteti tarkibida tashkil etgan. P.S.Zimin, L.I.Sofer ishtirokida va markazning iste'dodli olimlari yordamida bu erda o'quv eksperimental laboratoriya tashkil qilingan. M.Voxidov tomonidan maktabgacha pedagogika bilim Yurtlari uchun, pedagogika institutlari uchun darsliklar yozilgan, oxirgi yillarda M.Voxidov, A.Petrovskiy tahriri ostidagi "Umumiy psixologiya" darsligini tarjima qilingan va ayni paytda milliy va mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda o'zbek tilida darslik yaratish bilan mashg'ul bo'ldi.

Davletshin Muhammad G'abdulgalimovich 1923-yilda tug'ilgan. Toshkent Davlat pedagogika universitetining psixologiya kafedrasini mudiri psixologiya fanlari doktori, 1957-yilda "5-7 sinf o'quvchilarida texnik qiziqishlarni shakllanishi" mavzusida, 1971-yil "O'quvchilarning texnik qobiliyatlari psixologiyasi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 1968-yildan 2005-yilgacha Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining "Umumiy psixologiya" kafedrasini mudirlik qildi. M.G.Davletshin rahbarligida uning bevosita maslahatlari yordamida O'zbekistonda 100 dan ortiq nomzodlik va doktorlik ishlari himoya qilingan. O'zbekistonda psixologiyaning turli yo'nalishlari bo'yicha ko'pgina olimlar ilmiy tadqiqot ishlari olib borib, O'zbekistonga psixologiya fanini, ya'ni psixologiya tushunchasini olib kirib, to'raligicha ochib berdilar. Hozirgi kunda O'zbekistonda ham psixologiya tarmoqlari rivojlanib bu borada bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mamlakatimizda etishib chiqqan barcha olimlarimiz o'zbek psixologiyasini chet mamlakatlar psixologiyasi kabi Yuqori

cho'qqiga chiqishida o'zlarini hissalarini qo'shib, kelmoqdalar. Odamlar ongiga esa milliy psixologiya asosida, ya'ni milliylik ruhida tarbiyalash, ularni ongiga psixologiyani singdirmoqdalar. O'zbekistonda psixologiya fanining hozirgi ahvoli ilgariyidan ancha rivojlangan. Chunki bu fanni o'qitish uchun tayyorlov kurslari va markazlar ochilib kishilarning ongiga etib bormoqda. Bundan tashqari, psixologiya tarmoqlari bo'yicha turli xil muammolarni echishda asosiy rol o'ynaydi. Bu fan rivojlanishida o'zbek psixologlari M.G.Davletshin, M.Voxidov, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, E.G'.G'oziev, R.I.Sunnatova, B.R.Qodirov, J.Azimov, R.Gaynutdinov, Sh.R.Baratov, Z.T.Nishonova, K.Mamedov, N.S.Safaev va boshqa olimlarning hissasi katta. Hozirgi kunda psixologiya fanining turli tarmoqlari, jumladan psixodiagnostika ham rivojlanmoqda.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Psixodiagnostika fanining Yuzaga kelishiga sabab bo'lgan omil nima?
2. Dastlab diagnoz qanday qilib qo'yilgan?
3. Testlarga ehtiyoj qanday Yuzaga kelgan?
4. Psixodiagnostikaning mustaqil fanga aylanganigacha bo'lgan rivojlanish tarixi haqida nimalarni bilasiz?
5. Rossiyada psixodiagnostika rivojlanishining birinchi bosqichi?
6. Psixodiagnostika rivojlanishining ikkinchi bosqichi?
7. O'zbekistonda psixodiagnostika va eksperimental psixologiyaning rivojlanishi haqida nimalarni bilasiz?
8. Eksperimental psixologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi
9. V.Vundtning eksperimental psixologiyani fan sifatida rivojlanishidagi o'rni

#### **Nazorat uchun test savollari:**

1. Psixologiyada tajriba (eksperiment) metodidan qachondan foydalana boshlangan?  
A) XVIII asr  
V) XIX asr boshlari  
S) XX asr boshlari  
D) XIX asr oxiri XX asr boshlari  
E) XVIII asr oxiri
2. Dastlabki psixologiya laboratoriyasi qachon va qaysi shaharda tashkil etilgan?  
A) 1870 yil, Berlin  
V) 1980 yil, London  
S) 1979 yil, Leyptsig  
D) 1875 yil, Parij  
E) 1989 yil, Moskva
3. Eksperimental psixologiyaning asoschisi kim?  
A) Veber  
V) G.Fexner  
S) Ebbingauz  
D) V.Vundt  
E) A.Bine
4. Ilk bor tashkil etilgan laboratoriyalarda qanday psixologik xususiyatlar o'rganilgan?  
A) Sezgi, idrok, reaksiya tezligi  
V) Xotira, tafakkur va xayol  
S) Individual psixologik xususiyatlar  
D) SHaxsning motivatsion sohasi  
E) Bilish jarayonlari
5. «Nutq, tafakkur, iroda kabi bilish jarayonlarini tajriba orqali o'rganish mumkin emas» deb ta'riflagan olim kim edi?  
A) Z.Freyd  
V) Ebbingauz  
S) R.Dekart  
D) V.Vundt


- E) Veber  
 6. O'zbekistonda eksperimental laboratoriya dastlab kim tomonidan ochilgan?  
 A) P.Ivanov  
 V) I. Zavarova  
 S) M.G.Davletshin  
 D) M.Voxidov  
 E) L.I.Sofer

**“T-organayzeri”**

Talabalarni faollashtirish uchun quyidagi topshiriqlar qo'llaniladi.

Psixodiagnostikaning mustaqil fan sifatida rivojlangangunga qadar bo'lgan bosqichni o'ziga xos jihatlari	Psixodiagnostikaning mustaqil fan sifatida shakllangandan keyingi davrini o'ziga xos jihatlari
----------------------------------------------------------------------------------------------------------	------------------------------------------------------------------------------------------------

**“Moychechak” usuli**



**“Blits-so'rov” usuli**

Savollar	Javoblar
Dastlabki eksperimental laboratoriya qachon va kim tomonidan ochilgan?	
Dastlab psixologik ilmiy jurnal qachon ochilgan?	
O'zbekistonda dastlabki laboratoriyalarning ochilish shart-sharoitlarini sanab o'ting.	
O'zbek psixologiyasining rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlarni sanang.	

**“BBB” texnologiyasi**

SAVOLLAR	BILAMAN	BILISHNI XOHLAYMAN	BILIB OLDIM
Antik davrda psixodiagnostik qarashlarning Yuzaga kelishi va ularning tahlili			



Sobiq ittifoqda psixodiagnostik qarashlarning shakllanishi			
Xorijda psixodiagnostik qarashlarning shakllanishi			

### III. PSIXODIAGNOSTIK TEKSHIRUVDA QO'LLANADIGAN ASOSIY METODLAR HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

#### Reja:

1. Metod va metodika haqida tushuncha.
2. Standartlashtirilgan va ekspert (klinik) metodlarning asosiy farqlari.
3. Test standartlashtirilgan psixodiagnostik metod sifatida. Test turlari.
4. So'rov metodi va uning asosida ishlab chiqiladigan metodikalar. So'rovnomalar turi .

#### Maqsad:

Talabalarda psixodiagnostik tekshiruvda qo'llaniladigan asosiy metodlar haqida tushuncha hosil qilish.

#### Vazifa:

1. Metod va metodika haqida tushuncha hosil qilish.
2. Standartlashtirilgan va ekspert (klinik) metodlarning asosiy farqlarini ochib berish.
3. Test standartlashtirilgan psixodiagnostik metod sifatida. Test turlarini bayon etish.
4. So'rov metodi va uning asosida ishlab chiqiladigan metodikalar. So'rovnomalar turlarini yoritish.

#### Tayanch tushunchalar:

1. **Eksperiment (tajriba)** - ruhiy jarayonlarni o'rganish uchun zarur sharoitlarni ataylab vujudga keltirib, o'rganishga yo'naltirilgan psixologik tadqiqot uslubi.
2. **Psixologik laboratoriya** - inson ruhiy jarayonlarini o'rganish maqsadida jihozlangan maxsus tadqiqotlar olib boriladigan ilmiy muassasa.
3. **Intervyu** (interview – suhbat) - bu ijtimoiy psixologiya metodi bo'lib, qo'yilgan savollarga berilgan javob tariqasida axborotlarni to'plash usuli.
4. **Kontent - analiz** (ing.contents mazmun, Yunon. Analysis bo'laklarga ajratish) – ma'lum mazmunlarni ro'yxatga olish yo'li bilan matnlarning o'ziga xos xarakterli tomonlarini aniqlash.
5. **Korrelyatsion tahlil** (lot, sorrelativus - o'zaro munosabat) - tekshirilayotgan hodisalar yoki omillarning shakllari, belgilarining aloqadorlik darajasini (bir - biriga bog'liqligini) baholashning statistik metodi.
6. **Kuzatish** - psixologik metodlardan biri bo'lib, odamning xatti - harakatlarida namoyon bo'ladigan turli hodisalarni hisobga olish va sub'ektiv psixik hodisalar to'g'risida fikr olishdan iborat.
7. **Kuzatuvchanlik** - shaxs xususiyatlaridan biri, u kishining idrok qilish jarayonida narsalarni kamdan - kam uchraydigan ammo muhim tomonlarini payqay olishida namoyon bo'ladi.
8. **Metod** (Yunon. Methodos tadqiqot, tekshirish) - bilishning nazariy va amaliy o'zlashtirish usullari yig'indisi.
9. **Miqdoriy tahlil** - moddalar xususiyatining tuzilishini miqdoriy jihatdan aniqlash metodlarining yig'indisi.

#### 3.1. Metod va metodika haqida tushuncha

Metod – (Yunoncha. Methodos- tabiat hodisalarini tekshirish usuli).Psixodiagnostik metod – psixologiya fanining tadqiqot usulidir. Psixodiagnostik metod psixologiya fanining eksperimental va eksperimental bo'lmagan an'anaviy tadqiqot metodlariga nisbatan o'ziga xoslikka ega. Psixodiagnostik metodlarning asosiy xususiyati shundan iboratki, o'rganilayotgan hodisaning miqdoriy (va sifatiiy ) baholash imkoniyatining mavjudligi tufayli o'lchash-sinashga yo'naltirilganligidir. Buni ma'lum qoidalarni bajarish natijasida amalga oshirish mumkin bo'ladi. Psixologiyaning metodlari: kuzatish, eksperiment, suhbat, anketa, test, faoliyat natijalarini tahlil qilish, sotsiometriya. SHaxsning biror bilish jarayonlari, psixik holatlari yoki individual-psixologik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan aniq test yoki so'rovnoma metodika deyiladi. Jahonda psixodiagnostik metodlarning mingdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularni sxematik qarab chiqilmasa, farqlab olish juda ham mushkul. Psixodiagnostik metodlarning umumiy sxematik klassifikatsiyasini quyidagicha ko'rsatib o'tish mumkin:

Kuzatish asosidagi psixodiagnostik metodlar.

Savolnomali psixodiagnostik metodlar.

Ob'ektiv psixodiagnostik metodlar, bunga inson xulq-atvor reaksiyalari analizi va faoliyat mahsuldorligini o'rganish ham kiradi.

Psixodiagnostikaning eksperimental metodlari.

Kuzatish asosidagi psixodiagnostik metodlar, albatta, kuzatish olib borish hamda olingan natijalardan psixodiagnostik xulosalar chiqarishning muvaffaqiyatli garovidir. Bunday kuzatishda standart sxemalar va sharoitlar kiritiladi, bunda nimani kuzatish, qanday kuzatish, kuzatish natijalarini qanday qilib belgilab borish, qanday baholash hamda sharhlash asosida xulosa chiqarish aniq belgilab olinadi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan psixodiagnostik talablar – standartlashtirilgan kuzatish deb Yuritiladi. Bunga misol sifatida, qandaydir topshiriqning echimi bo'yicha kichik guruhning ish faoliyatini ko'rib chiqamiz (R.Beyls metodi bo'yicha).

Sharoitni engillashtirish

Muammo echimini taklif qilish

Savollarga javob berish

Ma'lumotlar berish

Tushuntirib berish

Yordam berishni taklif qilish

Yordam so'rash

Tushuntirib berishni so'rash

Ma'lumotlar berishni so'rash

Savollarga javob berishni so'rash

Muammo echimini so'rash

Muammoni yanada chigallashtirish.

Bu sxema xulq-atvorni kuzatishning 12 xil tipini qamrab olgan, unda 6ta ijobiy va 6ta salbiy ko'rinishlar ifodalangan.

Kuzatish natijalarini miqdoriy tahlil qilishda statistik metodlarni quyidagicha tartibda qo'llash lozim:

*olingan natijalarni foizlar bo'yicha hisoblash;*


*o'rtacha arifmetik qiymatni topish;*

*o'rtacha kvadrat og'ishni topish (sigma);*

*son qatoridagi miqdorlar tarqoqligini aniqlash (dispersiya);*

*omillar o'rtasidagi muayyan munosabatlar mavjudligini tahlil qilish (korrelyatsiya);*

*metodikalar ishonchlilik darajasini aniqlash (StYudent mezon).*



B.G. Ananovning nuqtai nazaricha, psixologik kuzatish metodlari psixologik ob`ektlar bilan operatsiyalar tizimi bo`lib, fanning bilish ob`ektidir. Psixologiyada empirik metodlarni qo`llash muammosi ko`rib chiqilayotganda ularni psixologik metodlar tizimidagi o`rnini aniqlashdan boshlash kerak. Empirik metodlarni qo`llashning beshta darajasini ajratish mumkin.

1. Metodika darajasi.
2. Metodik qo`llanma darajasi.
3. Metod darajasi.
4. Tekshirishni tashkil qilish darajasi.
5. Metodologik yondashish darajasi.

To`g`ri, «metod» atamasini turli darajada ishlatish bo`ladi, masalan psixofizikada – o`rtacha xatolar metodi, chegara metodi bor: psixodiagnostikada – proektiv metod (ikkinchi daraja); psixosemantikada semantik differentsial metod va repertuar kataklar metodi haqida gapiriladi (birinchi daraja); yosh davrlari psixologiyasida psixogenetik metod to`g`risida bahs Yuritiladi va uning turlichaligi – egizaklar metodida (to`rtinchi daraja) ko`rsatilgan.

Psixologik tadqiqotda qo`llaniladigan usullarning darajali bo`lishini G. D. Pirov taklif etgan. U metodlarni quyidagi guruhlariga bo`lgan:

- 1) xususiy metod (kuzatuv, eksperiment, modellashtirish);
- 2) metodik qo`llanma;
- 3) metodik yondashuv.

S. L. Rubinshteyn “Umumiy psixologiya asoslari”da eng asosiy psixologik metodlar sifatida kuzatuv va eksperimentni ajratib ko`rsatdi. Kuzatuv “tashqi” va “ichki”ga bo`lingan, eksperiment – laboratoriya ishi, tabiiy va psixologik-pedagogik, qo`shimcha metod uning asosiy modifikatsiyasida fiziologik eksperiment. Bundan tashqari, faoliyat mahsulini o`rganishda suhbat va anketa usullarini ajratib o`tdi. Tabiiyki, vaqt bu tasnifning qirralarini ta`kidlabdi. SHunday qilib, psixologiyaning falsafa bilan bog`liqligi uni nazariy metodlaridan mahrum qildi, xuddi shunday yaqinlik pedagogika va fiziologiya bilan bu fanlarning psixologik ro`yxatga qo`shilishi bilan amalga oshirildi.

Psixologik tekshiruvlarning keng ko`lamdagi ikkinchi tasnifini – bolgar psixologi G.D. Pirov tuzgan. U mustaqil metodlar sifatida taklif qilgan kuzatuv, eksperiment, modellashtirish, psixologik xarakteristikani, yordamchi metodlar maxsus metodik yondashuvlarni ta`kidlab o`tdi. SHu metodlarning har biri bir qancha turlarga bo`linadi. SHunday qilib, masalan, kuzatish (aloqador) anketalar, so`rovnomalar, faoliyat mahsullarini o`rganish va boshqalarga bo`linadi.

B. G. Ananov G.D.Pirov klassifikatsiyasini tanqid ostiga olib, boshqasini taklif etdi. Hamma metodlarni u:

- 1) tashkiliy;
- 2) empirik;
- 3) ma`lumotlarni qayta ishlash usuli;

4) sharhlash metodlariga bo'ldi.

Tashkiliy metodlarga B.G. Ananov qiyosiy, longitYud va kompleks metodlarni kiritdi.

Ikkinchi guruhga observatsion metodlar, eksperiment psixodiagnostik metod, faoliyat mahsullari, modellashtirish va biografik metodlar kiritildi.

Uchinchi guruhga ma'lumotlarni matematik-statistik tahlil qilish metodi va sifat tahlili kiritildi.

Nihoyat, to'rtinchi guruhni genetik va donalash metodi tashkil qildi. Ananov har bir metodni aniqroq tasvirlab berdi. Lekin uning chuqur tahlil qilishiga qaramay, ko'pgina echilmagan muammolar uchraydi:

Nimaga modellashtirish empirik metod bo'lib qoldi?

Nima uchun qayta ishlash metodi tashkiliydan ajratilgan?

Genetik qayta ishlash tekshirishni tashkil qilishning muhim usuli deb tushunilmaydimi?

Shuni eslatib o'tish ahamiyatliki, bu erda psixologik tekshirishning nazariy metodlari ko'rsatilmagan, shu bilan birga metodlar sinfi ajratilgan, o'zni bo'yicha «oraliq» empirik va nazariy metodlar o'rtasida, empirik kuzatishlar ma'lumotlarni sharhlash va qayta ishlash metodlaridir.

M.S. Rogovin va T.B. Zapevskiylarning fikricha, metod bu – idrok jarayonida ob'ekt va sub'ekt orasidagi ba'zi bir nisbatlarning ifodalanishidir. Ular asosiy psixologik metodlarning sonlarini 6 taga birlashtirishadi. 1) germeneytik – fanning bo'linmagan yakka holatiga to'g'ri keladi; 2) biografik metod – psixika to'g'risidagi fanning yakka ob'ektiv idrokini ko'rsatish; 3) kuzatish – idrok ob'ekti va sub'ekti farqlanadi; 4) o'z-o'zini kuzatish - sub'ektni oldingi farqlanish asosida ob'ektga aylanishi; 5) klinik – birinchi o'ringa mexanizmning tashqi kuzatuvchidan ichki kuzatuv mexanizmiga o'tish vazifasi chiqadi; 6) eksperiment sub'ekti ob'ekt idrokining faol qarshiligi sifatida, sub'ektning roli idrok jarayonida hisobga olinadi.

Keltirilgan tasnif gneseologik asos, kelishmovchiliklarga ega bo'lsa ham, tushunarsiz, biografik metodning ajralishi nimaga bog'liqligi bizni qiziqtiradi?

Biroq mualliflar o'ylab yoki o'ylamay psixologik metodlarning empirik tasnifidagina, Germaneyning metodlari hisobiga modellashtirishni qo'shishga majbur bo'ldilar. Bu metodni qo'llashda “idrokning sub'ekt va ob'ekti qarama- qarshi” qilib qo'yilmaganmi? Model – bu bir sub'ektning boshqa bir sub'ektga oqilona qarshiligi, sub'ektning ob'ektga va o'ziga nisbatan muomalasi mumkin emas-ku, degan savol tug'iladi.

Psixologik tekshirishning tasnifiy metodlarini tushuntirishda boshqacha yondashuvlar bor, lekin psixologik tekshirish empirik metod va psixologik metodlar orasida umuman, amalda “teng” belgisi qo'yiladi, ularning o'ziga xos jihatlarini aniqlash qiyinlashadi.

Psixologiyada boshqa fanlar analogiyasi bilan uchta metodlar tasnifini ko'rsatish maqsadga muvofiqdir:

1. Empirik, tekshirish sub'ekti va ob'ektning tashqi real munosabatlari amalga oshiriladi;
2. Nazariy, sub'ekt ob'ektning hayotiy modeli bilan o'zaro munosabatda bo'ladi;
3. Sharhlash va tasvirlash, bunda sub'ekt «tashqaridan» ob'ektning simvolik – belgisi bilan munosabatda bo'ladi.

Birinchi guruh metodlarini ishlatishning natijasi ma'lumotlar hisoblanadi, ob'ekt sharoitini asboblardan yordamida o'rganadi. Nazariy metodlardan foydalanish natijasi tabiiy til belgisi yoki ochiq sxematik shakldagi predmet haqidagi bilim hisoblanadi.

Nihoyat, qayta ishlash – tushuntirish metodi – bu nazariy va eksperimental metodlarni qo'llashda, ularni o'zaro munosabati natijalarining “uchrashish joyi”dir.

Psixologik tekshirishning nazariy metodlarini sanab o'tamiz:

- 1) Deduktiv – umumiydan xususiyga o'tish. Natijasi – nazariya, qonun va boshqalar.
- 2) Induktiv – omillarni umumlashtirish, xususiydan umumiyga o'tish.
- 3) Modellashtirish – analogiya metodini aniqlashtirish, «transduktsiya», xususiydan xususiyga o'tish. Natija – ob'ekt, jarayon, sharoit modeli.

Psixologiyaning nazariy metodlarida psixologiyaning aqliy etuklik metodlarini saralash kerak. Aqliy etuklik ilmiy faktlar empirik qonuniyatlarga tayanmay, balki ta'limot muallifining faqat shaxsiy bilimida o'z o'rnini topadi.

Modellashtirishning ikkita asosiy turlari bor: Bular: struktura – funktsionalli va funktsional – strukturali.

Birinchi holatda tadqiqotchi alohida tizimning tashqi xulq - atvoriga qarab tizimni aniqlab o'tmoqchi va shuning uchun analog tanlaydi yoki konstruktsiya qiladi – boshqa tizimni o'xshash xulq-atvorga bo'lgan. Bunday xulq-atvor strukturalarning o'xshashligi haqida mulohaza Yuritishga olib keladi.

Modellashtirishning bunday ko'rinishi psixologik tadqiqotning asosiy metodlaridan hisoblanadi hamda tabiiy ilmiy psixologik tadqiqotda yagona hisoblanadi. Ikkinchi holatda modellar va obrazlar strukturalari o'xshashligida tadqiqotchi funktsiyalar va tashqi ko'rinishlarda va boshqalarda qandaydir umumiylikni tahlil qiladi. Bu metod ko'p fanlarda tarqalgan, ayniqsa solishtirma anatomiya, paleontologiya va boshqalarda ko'p uchratish mumkin.

Tabiiyki, bizga boshqa odamning psixik reallik tizimini tushunish qiyin. Ammo har bir narsa xususiy reallikka ega, shuning uchun M.S.Rogovin va G.V.Zalevskiylarni germinenitik metodlar qatoriga modellashtirish metodini kiritishga turtki bo'lgan funktsional-strukturani modellashtirish va germinenitik metodlarning o'xshashligi bor.

SHarhlash metodlari butun bir psixologik tadqiqotda muhim rol o'ynaydi. Bu metodlarning tadqiqotchi tomonidan egallanishi ilmiy dasturning muvaffaqiyatini belgilab beradi. Psixologiyada sharhlash metodining ahamiyati V.A.Ganzen monografiyasida aniqroq ta'riflangan. Psixologik empirik metodlarning yana bir tasnifini ko'rib chiqamiz. Biz tadqiqotchining bilish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan metodlarni ikki asosga bo'lgan edik. Faollik-sustlik, mablag'larning borligi – muqobillik. Psixologik tadqiqotda ob'ekt faol bo'lishi mumkin, odam yoki hayvon haqida gap bo'lishidan qat'iy nazar, odam sinaluvchi sifatida tadqiqotchi kabi faoliyat sub'ekti bo'ladi. Empirik psixologik metodlarning tasnifida shu narsani hisobga olish kerak.

Psixologiyada sinaluvchi xulq-atvorining tahlili va tushunilishi katta ahamiyatga ega. Tushunish jarayoni qaysidir ma'noda o'lchash jarayoniga qarama-qarshidir. O'lchashda tadqiqot natijalarini ob'ektlashtirishga harakat qilamiz, tushunishda esa aksincha, sinaluvchining xulq - atvorini xususiy ma'naviy o'lchamlarida qayta ishlanadi.

Barcha psixologik empirik metodlarni ikki o'lchamli kenglikda joylashtirish qulay, ularning o'qlari psixologik tadqiqotning ikkita maxsus belgilarini bildiradi.

Birinchisi – sinaluvchi va tadqiqotchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning borligi yoki yo'qligi yoki bu munosabatlarning jadalligidir. U klinik eksperimentda eng katta va o'zini-o'zi kuzatishda eng kam hisoblanadi.

Ikkinchisi muolajalarning ob'ektlashuvi va sub'ektlashuvidir. Bunda eng chetki variant sifatida test olish va boshqa odamning xulq-atvorini uning xatti-harakatini “sezish”, empatiya nazarda tutiladi.

Tadqiqotchi ikkinchi holatda hech qanday narsa ishlatmaydi deb aytish mumkin emas: ular bor, lekin “ichki” – tadqiqotchining shaxsiy malakasi, individual xususiyatlari, sharhlash usullari va boshqalar. Tadqiqotchi o'lchamda ishlatadigan ashyolarni boshqacha ham atash mumkin.


Birinchisi koordinata o'qini tashkil qilib, “ikkita sub'ekt – bir sub'ekt” yoki “tashqi” dialog, yoki– “ichki” dialog.

Ikkinchisi “tashqi” ashyolar – “ichki” ashyolar, yoki “o'lchash sharhlari” o'qini keltirib chiqaradi. Bu o'qlar bilan tashkil qilingan kvadratlarda asosiy psixologik empirik metodlarni joylashtirsa bo'ladi.

Psixologik eksperiment bu nuqtai nazardan sinaluvchi bilan bo'lgan o'zaro munosabat, uning xulq-atvori ob'ektiv ro'yxati bilan moslashadigan metoddir.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib eksperimental psixologiya fanining metodlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

# EKSPERIMENTAL PSIXOLOGIYANING METODLARI



**Kuzatish.** Ilmiy emperik metod sifatida 19 asrning oxiridan boshlab ijtimoiy, pedagogik, klinik psixologiyada rivojlanish psixologiyasida keng qo'llanilib kelinyapti. 20-asrning boshidan boshlab esa mehnat psixologiyasida keng qo'llanilmoqda. Kuzatish uchun eng muhim jihat bu tashqi validlikning saqlanib qolishidir. Bu metodning asosiy afzalligi shundan iboratki, kuzatish tabiiy sharoitda o'tkaziladi, kuzatish kuzatilayotgan shaxslarning odatdagi xulq-atvorlarini o'zgartirmaydi. Kuzatishni bitta odam ustida xam va bir gurux shaxslar ustida xam olib borish mumkin. Bu metod bolalar bog'chasi guruxlaridagi yoki maktab sinfidagi bolalarni o'rganish uchun qulaydir. Kuzatish metodining kamchiligi uning anchagina mehnat talab qilishidir. Tadqiqotchi psixologni xulq-atvorning istalgan qiyofada emas, balki konkret tadqiqot vazifalari bilan bogliq xolda namoyon bo'lishigina qiziqtiradi. SHuning uchun kuzatiluvchi shaxs xususiyatlari va psixik xolatlarining o'ziga kerakli tarzda namoyon bo'lishini kutib turishi kerak. Bundan tashqari,

psixik xususiyatlarning yakka ho'lda namoyon bo'lishini kuzatish va qayd qilish etarli emas. Tadqiqotchi u yoki bu xususiyatlarning xarakterligiga, tipikligiga ishonch hosil qilishi kerak.

Kuzatishning tizimli va tizimli bo'lmagan turlari ajratiladi. Tizimli bo'lmagan kuzatish maydon tadqiqot jarayonida o'tkazilib, etnopsixologiya, rivojlanish psixologiyasida, ijtimoiy psixologiyada keng foydalaniladi.

Tizimli bo'lmagan kuzatuvni o'tkazayotgan tadqiqotchi uchun sababli bog'lanishlarni qayd etish muhim emas, balki ma'lum bir sharoitlarda individ yoki gurux xatti- harakatlarining qandaydir umumlashgan manzarasini yaratish muhim hisoblanadi.

Tadqiqotchi qayd etilayotgan xulq- atvorning o'ziga xos-xususiyatlarini (o'zgaruvchilarni) ajratib k o'rsatadi va tashqi muxitning sharoitlarini tasniflaydi.

Tizimli kuzatishning rejasi eksperimentning chizmasiga yoki korrelyatsion tadqiqotga mos keladi. Kuzatishning «Tartibsiz» va tanlovli turlari mavjud.

Birinchi turida tadqiqotchi (yoki tadqiqotlar guruxi) maksimal batafsil kuzatish uchun t o'g'ri keladigan xatti- xarakatning barcha o'ziga xosliklarini qayd etadi.

Ikkinchi turida esa (tanlovni) tadqiqotchi o'z e'tiborini faqatgina xulq-atvorning aniq biror parametrlariga yoki xulq-atvor aktlarining tiplariga qaratadi.

Masalan: faqatgina agressiyaning namoyon b o'lishi chastotasini yoki ona-bolaning kun davomidagi o'zaro munosabatlarining vaqtini qayd etadi.

Kuzatish bevosita yoki kuzatuv asboblaridan foydalangan holda o'tkazilishi mumkin.

Ularning qatoriga audio va video apparatlar o'ziga xos kuzatish apparatlari va xokazolar kiradi.

Kuzatish natijalarining fiksatsiyasi (qayd etilishi) kuzatuv jarayonida yoki vaqt o'tgandan so'ng amalga oshirilishi mumkin.

Vaqt o'tgandan so'ng natijalarning qayd etilishida kuzatuvchi xotirasining ahamiyati ko'payadi, xulq-atvorni qayd etish ishonchliligi va to'liqligiga zarar etadi, shubhasizki, olingan natijalarning aniqligi ham zarar ko'radi.

Kuzatuvchining muammosi alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

Agar individ yoki gurux o'zining kuzatilayotganligidan xabar topsa, u holda uning xulq-atvori o'zgaradi.

Agarda kuzatuvchi shaxs gurux yoki individga noma'lum bo'lsa, agarda u obro'li b o'lsa hamda sinaluvchilarning xulq-atvorini kompotent baxolay olsa (adolatli) u holda Yuqorida aytilgan effekt ortadi. Faollashtirilgan kuzatuvning ikkita varianti bor:

1. Kuzatuvchilar o'zlarining xulq- atvorlari tadqiqotchi tomonidan qayd etilayotganligini biladilar (masalan, alpinistlar guruxining yoki suvosti kemasidagi ekipajning xulq-atvor dinamikasini o'rganishda).

2. Kuzatuvchilar o'zlarining xulq- atvorlari qayd etilayotganligidan bexabar bo'ladilar (masalan xonada o'ynayotgan bolalar, bu xonaning bir devori - gazzel oynasi, umumiy kamerada saqlanayotgan maxbuslar guruxi va xakazolar).

Kuzatish metodi orqali tadqiqot jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Kuzatishpredmeti (xulq-atvor), ob`ekti (alohida individlar yoki gurux), vaziyat aniqlanadi.

2. Kuzatish va ma'lumotlarni qayd etish usuli tanlanadi

3. Kuzatish rejasi tuziladi (vaziyatlar ob`ekti vaqti)

4. Natijalarni qayta ishlash metodi tanlanadi

5. Olingan ma'lumotlarning qayta ishlanishi va interpritatsiyasi amalga oshiriladi

Kuzatish metodining kamchiliklari:

Birinchi navbatda kuzatuvchi tomonidan yo'l qo'yilgan barcha xatoliklar kuzatuvchi o'z farazini isbotlashga qanchalik qattik uringani sayin, voqealarni idrok qilishda xatoga yo'l qo'yish shunchalik ortadi.

U charchaydi, vaziyatga moslashadi va muxim o'zgarishlarni payqamay qo'yadi, yozuvlarda xatoliklar qila boshlaydi va xakazolar.



A.A.Ershov (1977Y) kuzatishning quyidagi kamchiliklarini ajratib

ko'rsatadi:

1. Galo effekt - kuzatuvchining umumlashgan taassuroti xulq-atvorning ko'p idrok qilinishiga, nozik tafovutlarni qabul qilmaslikka olib keladi.
2. Bo'lib o'tayotgan voqea hodisaga doimo ijobiy baho berish tendentsiyasi.

3. Markaziy tendentsiya xatoligi. Kuzatuvchi kuzatilayotgan xulq-atvorga o'rtachalashgan bahoni berishga intiladi.

4. Korreleltsiya xatosi. Xulq-atvorning bir belgisini baxolash boshqa bir kuzatilayotgan belgining asosida bo'ladi.

5. Kontrast xatolik.

Kuzatuvchining o'zidagi xususiyatlariga qarama-qarshi bo'lgan xususiyatlarni kuzatuvchilarda ajratib ko'rsatilishi.

6. Birinchi taassurot xatoligi.

Ammo ushbu kamchiliklarga qaramay, kuzatish juda zarur metod hisoblanadi.

Kuzatish metodi mustaqil jarayon sifatida namoyon bo'lishi hamda eksperimentlash jarayoniga kiritilgan metod tarzida ko'rilishi mumkin.

**Eksperiment.** Eksperiment metodining asosiy farqi va afzalligi shundan iboratki, bunda tadqiqotchi o'z xohishi bilan qandaydir psixik protsess yoki xususiyatni Yuzaga keltirib psixik hodisaning tashqi sharoitga bog'liqligini tekshirib ko'rishi mumkin. Eksperiment metodining ana shu afzalligi uning psixologiyada keng qo'llanilishi bilan tushuntiriladi. Empirik, ya'ni tajriba yo'li bilan qo'lga<sup>1</sup> kiritilgan faktlarning asosiy ko'pchiligi psixologiyada eksperimental yo'l bilan olingandir. Biroq, har qanday tadqiqot qilinadigan vazifalarga eksperimentni

qo'llab bo'lmaydi. Masalan, agarda psixik protsesslar va funktsiyalar ko'proq eksperiment yo'li bilan o'rganilsa, shaxsning birmuncha sodda xususiyatlari (temperament, ko'pgina qo'biliyatlar) ham shu metodda o'rganiladi. Lekin xarakterning va qobiliyatlarning murakkab turlarini xali eksperiment metodi bilan o'rganib bo'lmaydi.

**Suxbat metodi.** Bu metod tadqiqotning turli bosqichlarida qo'llaniladi: masalan, dastlabki tanishish bosqichida ham boshqa metodlar, ayniqsa, kuzatish metodi orqali qo'lga kiritilgan xulosalarni aniqlashda qo'llaniladi. Suxbat metodidan moxirlik bilan foydalanish juda qimmatli natijalarga erishishga yordam berishi mumkin.

**Intervyu metodi.** Psixologiya fanidagi bu metod sotsiologiyada keng qollaniladigan anketa metodidan farq qiladi. Xuddi suxbat metodi kabi intervyu metodi ham so'roq-javob metodiga tegishlidir. Ko'pincha intervyu uchun savollarni sotsiologik anketalar tipiga o'xshatib, ya'ni ko'p masalalar Yuzasidan ko'plab javoblar olishni ko'zlab tuziladi. Intervyu metodiga bunday tarzda yondashish tadqiqotning faqat birinchi bosqichiga, muammo bilan dastlabki tanishish bosqichiga to'g'ri keladi. Biroq bilimlarni va o'rganilayotgan psixik xususiyatlarni strukturasini hisobga olib tuzilgan savollar o'rganilayotgan xususiyatlar strukturalari hamda darajalarini bundan keyin aniqlash uchun juda qimmatli natijalar berishi mumkin.

**Ekspert baholash metodi.** Bu metod shaxs psixologiyasida keng

qo'llaniladi. Ekspertlar sifatida tekshirilayotgan kishilarni yaxshi biladigan shaxslar - bolalar bog'chasi va maktab-internatlarning tarbiyachilarini, sinf raxbarlari, ishlab chiqarish-texnika bilim Yurtlarining masterlari, ishlab chiqarishdagi masterlar, ilmiy jamoa raxbarlari, xarbiy komandirlar, administratorlar, sport trenerlari qatnashishlari mumkin. Ekspert baxolarni ko'proq xususiyatlarning sifat jixatidan namoyon bo'lishlarini tasvirlash emas (buni ekspertlar bilan qilinadigan keyingi suxbatlarda o'tkazilsa ancha foydaliroq bo'ladi), balki o'rganilayotgan xususiyatlarning ifodalanishini miqdoriy baholash tarzida, ya'ni u yoki bu xususiyat yoki xulq-atvor elementlari darajalarini

baxolash tarzida o'tkazilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ekspertlar umumlashtirish bilan bog'liq bo'lmagan xulq-atvor elementlarining ancha-muncha mayda qismlari ifodalanganligini qayd qilishi lozim. Umumlashtirish - ekspertning emas, balki tadqiqotchining ishidir.

**O'z-o'zini kuzatish metodi.** XVIII-XIX asrlar empirik psixologiyasi tomonidan kamsitilgan bu metod so'nggi yillarda yana ma'lum ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Chunonchi, suxbat va so'roq-javob metodlarini o'z-o'zini kuzatish metodi orqali olingan ma'lumotlarsiz qo'llab bo'lmaydi. Buni suxbat va shaxsiy savol-javob o'tkazish uchun savollar tuzishda hisobga olish zarur. Lekin o'z-o'zini kuzatish garchi psixologik tadqiqotlarning asosiy metodi bo'lmasa-da, mustaqil ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. O'z-o'zini kuzatish metodi psixik holatlarni, ya'ni tetik kayfiyatni, achchiklanishni, ishchanlikni, kasb bilan bog'liq bo'lgan sermahsul ishlarni o'rganishda ayniqsa foydali bo'lishi mumkin.

**Arxiv metodi.** Amerika ilmiy adabiyotlarida «Arxiv metodi» degan atama qabul qilingan, bunday tadqiqotlarni o'tkazuvchi psixolog sinaluvchining xulqini kuzatmaydi va o'lchamaydi, balki, kundalik qaydnomalarni va yozuvlarni, arxiv materiallarini, mehnat, o'quv yoki ijodiy faoliyatini tahlil qiladi.

Sobiq sovet psixologlari bu metodni ifodalashda boshqa atamadan foydalanishdi. Ko'p hollarda u «**faoliyat mahsullarini o'rganish**» yoki «**praksimetrik metod**» deb ifodalanadi.

Ekspirimentator tadqiqotlar matnini, faoliyatning, predmetli mahsulotini turli xil maqsadlarda o'tkazishi mumkin. Shaxs psixologiyasining keng yoyilishi ijodiy psixologiya va psixologiya tarixi, bir shaxsning yoki ko'p odamlar hayot yo'lining o'ziga xosligi – biografik metod nomini oldi.

«Arxiv metodi» xilma-xilligiga kontent-analiz texnikasi ham taalluqlidir. **Kontent – analiz** o'zidan yanada takomillashtirilgan hujjatlar analizining qat'iy metodlarini namoyon qiladi. Tadqiqotchi mazmun birligini ajratib, olingan ma'lumotlarni umumlashtiradi.

Bu metod nafaqat psixologiyada, balki boshqa ilmiy adabiyotlarda ham keng tarqalgandir. Bu metoddan ko'p hollarda, asosan, siyosiy psixologiya, reklama psixologiyasi, aloqalarda keng foydalaniladi. Kontent-analizni ishlab chiqish G. Lassuela, Ch. Osgud, B.Berelsonlar nomi bilan bog'liq bo'lib, ular «Kontent analiz, kommunikativ tadqiqotlar» fundamental monografiyaning mualliflaridir.

Kontent-analizdagi matn tahlilining standart birligi bo'lib: 1) so'zlar; 2) tugallangan fikr; 3) mavzu; 4) personaj; 5) muallif va 6) yaxlit holdagi yo'llanma hisoblanadi. Ular bir mazmunda yanada umumiy tuzilish sifatida ko'rib chiqiladi. Kontent-tahlil ma'lumotlarini qayta ishlashning bir qancha usullari mavjud.

Oddiy matndagi u yoki bu birliklarning ko'rinish darajalarini qayd etilishidir. Tadqiqotchi bu ko'rinishlar darajasini u yoki bu birliklarini turli matnlarda qo'llab, undagi o'zgarish boshidan, to yakunlanishga qadar aniqlaydi.

Analizning ikkinchi tipi – matndagi kontent - analiz birligini matritsa turidagi mujassam ko'rinishlari hisoblanadi. Bunda: Masalan: turli xil yo'llanmalarda erkinlik chastatosi A va V birlikda yoziladi.

Hamkorlikdagi to'qnashuv shartli tasodifiy ajratiladi va u

$$R(AV)=R(A) \times R(V)$$

Bir yo'llanmadagi ikki birlikning hamkorlikdagi ko'rinishlari belgilanadi.

To'qnashuvning empirik matritsasini turli birliklarini nazariy matritsa bilan taqqoslash mumkin. Bu muolaja Osgud tomonidan taklif etilgan va muloqot psixologiyasida keng tarqalgan.

Proektiv testlardagi natijalarni qo'llashda, suhbat materialida kontent – analizdan foydalaniladi.

Ko'p vaqtni olishiga qaramay, kontent – analiz ko'pgina Yutuqlarga ega; tadqiqotchining sinaluvchini xulqiga nisbatan ta'siri, ma'lumotlar ishonchliligi tekshiriladi. Bu metodni tarixiy hujjatlarning analizida tavsiya etish mumkin. Kontent – analiz oxirgi holda ko'p qirrali ma'lumotlar analizi, psixosemantika rivojlanishida bog'lanish, «ikkinchi nafas» nomini oldi.

**Faoliyat mahsulini o'rganish**– metodi, psixologiya tarixida, antropopsixologiya, ijodiy psixologiyada keng tarqalgan.

Ijodiylik psixologiyasida u asosiy hisoblanadi toki, ijodiy mahsulotni antiqaligi ham shundadir.

Faoliyat mahsulining analizi klinik psixologlar uchun muhim materialni taqdim etadi; alohida kasallarda (Shizofreniya, Manial – depressiv psixoz va b.) samaradorlik xarakteri tez o'zgaradi (matnlarda, rasmlarda va h.k).

Neyropsixologik analizning bemor faoliyat mahsuldorligini namunasi A.R.Luriyaning «Yo'qolgan va qaytarilgan» ishlarida bayon qilingan.

Barcha taxminlar kundalik qaydlarni tahlil qilish, miyaning chap yarim sharlari 1/3 qismi og'ir asoratlarni kechirgan holda o'rganiladi.

**Proektiv metod** oraliqdagi o'z darajasiga ko'ra psixologik o'lcham va faoliyat mahsuldorligining analizi metodi bo'lib hisoblanadi. Proektiv metodning istalgan muolajasini qo'llash, istalgan psixologik testni qo'llashga o'xshashdir, sinaluvchidan alohida vazifalarni bajarish so'raladi, rasmni chizish, rasm asosida hikoya tuzish, gapni to'ldirish. Eksperimentator uning harakatlarini boshqaradi, suhatni olib boradi, vazifalarni alohida ketma-ketlikda ko'rsatadi, ammo an'anaviy test o'tkazishda muolaja tahlili va ishlanayotgan faoliyat mahsulotlari tahliliga ko'proq urg'u beradi.

L.Frenka klassifikatsiyasiga binoan proektiv metodikalar unchalik ko'p emas; «Uyning rasmi» testi, «Odam qomati», Gudinaf va Maxover testi, «Daraxt rasmi» testi. Ammo u yoki bu chegarada faoliyat mahsul tahlili kuzatiladi va tahlil jarayonida, boshqa test natijalarida ham kuzatib boriladi.

Ular qatoriga TAT, Rozentsvey testi, Rorshaxning «Siyoh dog'lari» testi, yozuv analizi kiradi.

Barcha proektiv testlarga quyidagilar xos:

- Materialning yoki vazifaning nisbatan noaniqligi.
- «Ochiqlik» - barcha javoblar – sinaluvchi barcha reaksiyalari qabul qilinadi.
- Mulozamatlilik muhiti va eksperimentator tomonidan chetdan baholashning ishtirok etmasligi.
- Psixik funktsiyaning o'lchanishi emas, ijtimoiy muhitga munosabatni, shaxsning xususiyati o'lchanishidir.

### **3.2. Standartlashtirilgan va ekspert baholash (klinik) metodlarning asosiy farqlari.**

Standartlashtirish (standart- inglizcha so'zdan olingan "me'yorda" degan ma'noni bildiradi) – test baholarini va muolajalarini yagona normativlarga keltirishdir. Metodika standartlashtirilganda turli sinaluvchilarda olingan natijalarni solishtirish imkoniyati vujudga keladi. Psixologik diagnostikada ikki xil standartlashtirish farqlanadi.


Birinchi holda standartlashtirish deganda qo'llanmani, tadqiqot varaqalarini unifikatsiyalash (bir xil qilish) o'tkazish jarayonini, natijalarni qayd qilish usullarini, tadqiqot o'tkazish sharoitlarini, sinaluvchilar sonini aniq belgilash nazarda tutiladi. Tadqiqot o'tkazishda ketma-ketlikka rioya qilish tadqiqot natijalarini baholash uchun test normalarini aniqlash va testning ishonchliligini ta'minlashda asosiy sharoit hisoblanadi.

Ikkinchi holda standartlashtirish deganda normal (yoki sun'iy normallashtirilgan) baholash shkalalarini sinaluvchilar to'plamida nisbiy taqsimlanish joyiga emas, balki o'rganilayotgan ko'rsatkichning miqdoriy empirik natijalariga asoslanilgan yangi shkalalarga o'zgartirish nazarda tutiladi. Psixometrikada dastlabki baholarni o'zgartirishda o'rta kvadrat tarqoqlik yordamida normallashtirish yoki markazlashtirish keng tarqalgan.

Standartlashtirish bir qancha mezonlar asosida me'yorga keltirilgan metodikalarga nisbatan qo'llanilar ekan, bu jarayondagi mezonlarni aniqlashtirish muhimdir. Ular quyidagilar:

1. Matematik statistik qayta ishlanganlik.
2. Tanlanma to'plamdagi sinaluvchilarning ko'rsatkichlari.
3. Ijtimoiy psixologik me'yorlar.

Ekspert bahosi (klinik) metodi o'z sohasini mukammal biladigan ekspertlarning fikriga asoslangan bo'lib, bunda ishonchli bahoga asoslangan ekspertlarning xulosalari umumlashtiriladi. Ushbu metodika ko'pincha shaxs psixodiagnostikasida qo'llanilib, bunday metodikalarning asosiy kamchiligi ekspertlarning sub'ektiv munosabatlari baholash jarayoniga o'z ta'sirini o'tkazishi mumkin.



### “T-organayzer”

Ushbu usul yordamida metodlarni qiyosiy tahlil qiling.

Tashkiliy guruh metodlari	
Afzalliklari	Kamchiliklari

Empirik guruh metodlari	
Afzalliklari	Kamchiliklari

Standartlashtirilgan metodlar	
Afzalliklari	Kamchiliklari

### 3.3. Test standartlashtirilgan psixodiagnostik metod sifatida. Test turlari

Psixologiyada **test** deb, o'rganilayotgan xususiyatning rivojlanganlik darajasini, miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini bir-biriga taqqoslash imkonini beruvchi standartlashtirilgan psixodiagnostik metodikaga aytiladi. Metodikaning standartlashtirilishi tushunchasining ma'nosi shundan iboratki, u voqea, hodisalardan boshlab sinaluvchiga beriladigan ko'rsatmalar, hisoblash usuli, olingan natijalarni sharhlash bilan tugaydigan, butun jarayonning hammasi, hamma vaqt va har joyda bir xil qo'llanilishiga aytiladi.

Testlar yordamida olingan baholar, agar test to'g'ri qo'llanilgan bo'lsa, test qachon, qaerda, qanday qilib va kim tomonidan qo'llanilganidan qat'i nazar ularni bir-biri bilan tenglashtirish, taqqoslash deb Yuritiladi. Har xil psixodiagnostik metodikalarda testlarning validlik, ishonchlilik, aniqlik va bir xillik mezonlariga juda qat'iy talablar qo'yiladi.

Testlarning ko'plab turlari mavjud va ularni qo'llanish asoslariga qarab bir necha guruhga bo'lish mumkin: test predmetligi bo'yicha (sifati bo'yicha, ya'ni aynan sifatni testlar yordamida baholash); testlarda topshiriqlardan foydalanishning alohida xususiyati; materiallar bo'yicha sinaluvchiga talablar; ob'ekt bo'yicha baholash. Predmetligi bo'yicha testlar intellektual shaxsiy va shaxslararo testlarga bo'linadi. Testlarda topshiriqlardan foydalanishning alohida xususiyati bo'yicha amaliy, obrazli va so'zli testlar. Test materiallarining tavsifi bo'yicha sinaluvchiga talablar, blankali va apparaturali testlarga bo'linadi. Ob'ekt bo'yicha baholash – protsessual testlar, Yutuqqa erishish testi, holat va xususiyatlar testi.

Intellektual testlar shaxsning aqliy faoliyati rivojlanganlik darajasi va ularni alohida bilish jarayonlarini (idrok, diqqat, xayol, xotira, nutq) baholashda qo'llaniladi.

Shaxs testlari insonning barqaror individual xususiyatlari, xatti-harakatlarini aniqlash, bunga: temperament, xarakter, motivatsiya, emotsiya va qobiliyatlarni aniqlovchi testlar kiradi. Bundan tashqari, shaxsni har tomonlama, shaxs holatini kompleks baholash alohida xususiyatining

rivojlanganlik darajasini baholash testlari ham mavjud. Bunga Kettell, MMPI va boshqa testlar kiradi.

Xususiy testlar yordamida, shaxsning alohida belgilari, motivlar, emotsiyalar, masalan xarakter aktsentuatsiyasi, xavotirlik, lokus nazorati, Yutuqqa erishish motivi, tajovuzkorlik va boshqalar aniqlanadi.

Shaxslararo testlar har xil ijtimoiy guruhlarda odamlarning munosabati sifatida ijtimoiy-psixologik o'z-o'zini attestatsiya qilish testi.

Amaliy testlar o'ziga topshiriq va shakllarni qamrab oladi, bunda sinaluvchi aniq predmet materiallari ularni almashtiruvchi materiallar bilan ko'rgazmali-harakatli reja asosida amaliy ish bajaradi.

Obrazli testlar obrazlar, surat, rasm, sxema va tasavvurlar bilan mashqlarni o'zi ichiga oladi.

Verbal testlar so'zli topshiriqlardan iborat, ular tushunchalarni aniqlash, xulosa chiqarish, har xil so'zlarning ma'nosini anglash va taqqoslash hamda bu so'zlar bilan har xil mantiqiy operatsiyalarni bajarishni o'z ichiga oladi.

Testlarda qo'llaniladigan ko'pgina topshiriqlar kompleks xarakterga ega va bu testlarda amaliy, nazariy, obrazli va verbal topshiriqlar mujassamlashgan. Bu odamning real hayotdagi ko'p vazifalari kompleks xarakterga ega ekanligi bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham, testlar, kishining real hayotdagi Yutuqqa erishish imkoniyati va xulqini aytib berish uchun o'tkaziladi.

Blankali testlar – sinaluvchida test materiallari sifatida har xil shakldagi blankalarda foydalaniladi, masalan, rasmlar, sxemalar, jadvallar va savolnomalar.

Apparaturali testlar – bu shunday testlarki, unda test natijalarini qayta ishlash va ko'rsatish uchun har xil turdagi apparaturalar qo'llaniladi, masalan, audio va videotexnika, elektron hisoblash mashinalari.

Protsessual testlar yordamida qandaydir bir psixologik xulqiy jarayon o'rganiladi va unga aniq miqdoriy va sifatiy tahlil beriladi, masalan, materiallarni esda olib qolish jarayoniga, individlarning guruhda shaxslararo hamkorlik jarayoni tahlilini misol sifatida keltirish mumkin.

Yutuqqa erishish testlari kishining qandaydir bir faoliyatida, bilish sohasining qandaydir bir turida Yutug'ini baholashda qo'llaniladi, masalan, tafakkurning mantiqiyliigi, diqqatning barqarorligi, verbal tafakkurning rivojlanganlik darajasi.

Holatlar va xususiyatlar testlari shaxs psixologik sifatlarining barqarorligini diagnostika qilish bilan bog'liqdir, masalan, shaxs xislatlari, temperament xususiyati, qobiliyatlari va boshqalar.

Proektiv testlar maxsus guruhga ajratiladi. Proektiv test kishining u yoki bu psixologik sifatini to'g'ridan-to'g'ri emas, balki bivosita baholaydi. Bunday baholash kishining ko'p ma'noli ob'ektlarni qanday qabul qilishi va talqin qilishining analizi natijasida olinadi. Bunga: surat s'Yujetining noaniqligi, shaklsiz dog'lar, tugallanmagan jumlar va boshqalar kiradi. Bunday ob'ektlarni tahlil qilish va baholashi kishi ongsiz ravishda o'z-o'zining «proektsiyasini» ko'rsatib berishi deb Yuritiladi.

Bu guruh testlariga, Rorshax testi, Tematik Appertseptiv Test (TAT) va boshqalar kiradi.

Proektiv testlar sinaluvchining yashirin va anglanilmagan psixologik xususiyatlarini psixodiagnostika qilish zarurati tug'alganda qo'llaniladi.

Psixodiagnostik eksperiment metod sifatida kamdan-kam voqelikda, asosan, kishining zarur psixologik sifatini boshqa usullar bilan aniqlash va baholash imkoniyati bo'lmaganda qo'llaniladi.

Protsessual testlar, tadqiqotchini sinaluvchida kechayotgan psixik va xulqiy jarayonlarning xususiyatlari qiziqtirganda qo'llaniladi, Yutuqqa erishish testlari esa kishining qobiliyati, ko'nikma va malakalarini baholash vazifasini o'taydi.

Intellekt testlaridan kishining intellektual taraqqiyotining umumiy ko'rsatkichini aniqlash va miqdoriy baholash zarurati tug'alganda foydalaniladi.

Psixodiagnostik metodlar singari testlarga ham qat'iy talablar qo'yiladi:

1. Testning ijtimoiy-madaniy adaptatsiyasi.

Bu so'zlar tuzilmasi, test topshiriqlari va test baholari hamda sinaluvchiga berilayotgan test topshiriqlari ushbu jamiyat madaniyati milliy qadriyatlariga mos bo'lishi zarur degan ma'noni anglatadi. Masalan, Evropada tuzilgan test boshqa bir mamlakatda birinchi marta qo'llanilayotgan bo'lsa va bu mamlakatda intellekt strukturasi so'z-mantiqiy bo'lmasa, balki obrazli amaliy

tafakkurli bo'lsa, test albatta ijtimoiy-madaniy moslashtirilgan bo'lishi shart. Agar test moslashtirilmagan holda, ya'ni qanday bo'lsa shundayligicha qo'llanilsa, u holda biz juda past natijalar olamiz va natijalar ushbu mamlakatda yashovchi kishilarning tafakkuri taraqqiyotining ko'rsatkichiga mos kelmaydi. Ba'zan buning aksi, ya'ni ushbu mamlakatda so'z-mantiq tafakkuri asosiy rolga ega bo'lsa-Yu, test topshiriqlari amaliy tafakkurga oid bo'lsa, u holda biz aqliy taraqqiyotning noadekvat ko'rsatkichiga ega bo'lamiz.

2. Test topshiriqlarining sodda tuzilganligi va bir ma'noliligi.

Ushbu talabga binoan, testning so'z va boshqa topshiriqlarida ya'ni, so'z, rasmlar kishilar tomonidan har xil idrok qilinishi va tushunilishi momentlari bo'lmasligi kerak.

3. Test topshiriqlarini bajarishda vaqtning chegaralanganligi.

Bunda psixologik test topshiriqlarini bajarishda vaqt 1,5-2 soatdan oshmasligi lozim, chunki kishi o'zining ish qobiliyatini Yuqori saviyada uzoq muddat ushlab turishi juda mushkuldir.

4. Ushbu test uchun me'yorlarning mavjudligi.

Test me'yorlari deb, ushbu test reprezentativligining o'rtacha ko'rsatkichi tushuniladi, ya'ni ko'p odamlardan to'plab olingan ko'rsatkichlarning o'rtacha ko'rsatkichi bilan individning ko'rsatkichi taqqoslanib, uning psixologik taraqqiyoti baholanadi. Test me'yorlari asosan, sinaluvchilarning yoshi, jinsini aniq bilgan holda, katta tanlama guruhidan olingan test natijalarining o'rtacha bahosi va keyinchalik ularning yoshi, jinsi va bir qancha relevant ko'rsatkichlarini differentsiyalash bilan aniqlanadi.

Test me'yorlari – bu kishilar taraqqiyotining o'rtacha ko'rsatkichi. Har qanday me'yor, o'lchov ham vaqti bilan o'zgarib turadi, chunki ishlar davomida kishilarning ham psixologik taraqqiyotida o'zgarishlar bo'ladi, masalan, XX asrning birinchi choragida kishilarning intellektual taraqqiyotiga qo'yilgan me'yorlar, shu asrning oxirgi choragida qo'yilgan me'yorlarga to'g'ri kelmaydi chunki ushbu yillar mobaynida kishilarning aqliy taraqqiyot ko'rsatkichlari ancha Yuqorilagan.

Bundan tashqari, empirik qoidalar mavjud bo'lib, unga ko'ra kamida har besh yilda test me'yorlari qayta ko'rib chiqilishi shart, asosan bu intellektual testlarga taalluqlidir.

Test me'yorlariga qo'yilgan talablardan tashqari, test o'tkazishni, natijalarni qayta ishlash va tahlil qilishning qat'iy qoidalari mavjud. Bular quyidagilardir:

U yoki bu testni qo'llash uchun psixolog test bilan tanishib chiqib, o'zida boshqa bir kishida sinab ko'rish kerak. Bu testni o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan xatoliklarning oldini olish imkonini beradi.

Sinaluvchi test topshiriqlarini bajarishidan oldin va ko'rsatmalarni yaxshi tushunib olishi uchun oldindan tayyorgarlik ko'rib qo'yish. Test o'tkazish vaqtida, sinaluvchilar mustaqil ishlashi, bir-biriga halaqit bermasligini va ta'sir o'tkazmasligini nazorat qilib turish, chunki bu test natijalarini o'zgartirib Yuborishi mumkin. Har bir test natijalarini qayta ishlash va tahlil qilish uchun asoslangan va aniq ishlangan matematik-statistik usullarni oldindan tayyorlab qo'yish.

Biz test turlari va uning me'yorlariga qo'yilgan talablarni o'rganib chiqdik, endi test me'yorlarining reprezentativligi, validligi, ishonchliligiga to'xtalib o'tsak.

Test tuzilishining asosiy statistik printsiplari 1980-yillarda V.S.Avanesov, A.Anastazi, V.K.Gayda, V.P.Zaxarovlarning adabiyotlarida to'liq yoritib o'tilgan. Ammo ko'rsatib o'tilgan adabiyotlarda psixometrik testlarning asosiy muammosi, test me'yorlari to'liq yoritib berilmagan. Bu birinchi navbatda amerikalik testolog A.Anastazining ishlariga taalluqlidir. Anastazining yaratgan qo'llanmasi, g'arb testologlari tomonidan ikkita asosiy printsipti zaruriy tanqidiy muhokamalarga ega bo'lmaydi, bular diagnostik me'yoriy sifat tarzida statistik me'yorlarning qo'llanilish muammolari va normal modellarga hamma empirik ma'lumotlarning taqsimlanishi haqidagi ma'lumotlar muammosi.

Endi biz differentsial asosiy tushunchalar tizimi tuzilishining qisqacha kontekstini analiz qilib o'tamiz:

1. Test shkalalarining statistik tabiati. Psixodiagnostikada tipik o'lchov testi – bu qisqa topshiriqlarning punktlarning ketma-ketligi, sinaluvchi tomonidan topshiriqlar bajarilishi natijasida ularning bir xil miqdoriy tahlil qilinishi demakdir. Masalan, alohida topshiriqlardan tuzilgan intellektual testlarning interpretatsiya qilinishi: «echimi to'g'ri», «echimi noto'g'ri»,


«javob yo‘q» (vaqt etishmasligi sababli topshiriqni o‘tkazib Yuborilishi), shaxsiy savolnomalarning tahlil qilinishi: sinaluvchi tomonidan ta’kidlanishi lozim bo‘lgan javoblar berilishi: «tasdiqlashi», «inkor qilinishi» («rozi emasman», «yo‘q»).

Umumiy ballar kalit orqali hisoblab chiqiladi, kalit har bir punkt bo‘yicha sonlar bilan ifodalanadi. Masalan, topshiriqning to‘g‘ri echimiga – «+1», noto‘g‘ri o‘tkazib Yuborilganiga – «0». Bunda ballar to‘g‘ri javoblarning miqdorini ko‘rsatib beradi.


2. Psixometrikada o‘lchov muammolari va test punktlarining xususiyatlari.

O‘lchov ko‘rsatkichi «etalon» hisoblanadi. Etalon bu – o‘lchanayotgan xususiyatga berilgan kattalikni bir maromda saqlab turuvchi fizik ob'ektdir, differentsial psixometrikada bunday fizik etalonlar mavjud emas. Psixometrikada etalon rolini testlarning o‘zi bajaradi, buni shunday tushunish kerakki, topshiriqning murakkabligi kishi qobiliyatiga to‘g‘ri proporsional kattalik deb qarash mumkin. Ya’ni, topshiriq qancha murakkab bo‘lsa, uning echimini topish uchun kishi qobiliyatining darajasi shuncha Yuqori bo‘lishi kerak. Test punktlarining kuchi va murakkabligini test o‘tkazish yordamidagina aniqlash mumkin. Murakkablikni aniqlash «foizli o‘lchov» bilan belgilanadi, test topshiriqlariga «to‘g‘ri» javob bergan sinaluvchilar foiz bilan aniqlanadi, ya’ni «foiz» qancha kichik bo‘lsa, murakkablik shuncha Yuqori bo‘ladi.

Test punktlarining xususiyatini test ballarining taqsimlanishi ko‘rsatib beradi. Agar test ballarining taqsimlanishi egriligi o‘ng tomonli assimetriyaga ega bo‘lsa, unda test murakkab topshiriqlardan tuzilgan, agar egrilik chap tomonli assimetriyaga ega bo‘lsa, u holda test topshiriqlari sodda tuzilgan hisoblanadi va quyidagi ko‘rinishga ega:



a) o‘ng tomonli ijobiy



b) chap tomonli salbiy

Test – shaxsning aqliy taraqqiyotini, qobiliyatini, irodaviy sifatlarini va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo‘llaniladigan qisqa standart masalalar.

Testlashtirish – psixodiagnostika metodlaridan biri bo‘lib, standartlashtirilgan savol va topshiriqlar yordamida individual farqlarni o‘rganish, alohida shkalalar bilan o‘lchash.

Etuklik testlari psixodiagnostika metodlaridan biri bo‘lib, konkret bilim, malaka va ko‘nikmalarning o‘zlashtirish darajasini aniqlab beradi. Etuklik testi 3ga bo‘linadi: harakat testlari, og‘zaki va yozma testlar. Harakat testlari mexanizmlar, materiallar asboblari bilan ishlash layoqatini aniqlab beradi.

Intellektual testlar – psixodiagnostika metodlaridan biri bo‘lib, individning aqliy taraqqiyoti darajasini aniqlab beradi.

Proektiv test motivatsiyaning anglanilmagan yoki to‘liq anglanilmagan shakllarini o‘rganishga qaratilgan va bu jihati bilan inson psixikasining tobora intim sohasiga kirishning yagona psixologik metodidir.


«Proektiv» atamasi ilk bor Lourens Fenk tomonidan 1939 yilda qo‘llangan. Shuningdek, u shaxsni tadqiq etishning proektiv metodlari tasnifini ham keltiradi:

Strukturalash metodlari (Rorshaxning siyoh dog‘lari testi, bulutlar testi, uch o‘lchamli proektsiya testi).

Konstruktsiyalash metodikalari (MAR, olam testi).  
 Sharhlash metodikalari (SATO, TAT, Rene Jil testi).  
 To'ldirish metodikalari (tugallanmagan gaplar, hikoyalar, One assotsiativ testi).  
 Katapsis metodikalari (psixogramma, proektiv o'yin).  
 Ekspressiyani o'rganish metodikalari (dastxat, muloqot tahlili).  
 Ijod mahsulini o'rganish metodikalari (rasmli testlar, yozma ishlar va hokazo).  
 Bunday metodikalarning asosiy xususiyati material aniqmasligi, xayrixohlik muhiti va qadriyatli fikrlar mavjud emasligidir. Ular, avvalo, shaxsning munosabatlar sohasini aks ettiradi va maktab nevrozi uchun xos bo'lgan maxsus reaksiyalarni aniqlash imkonini beradi.  
 Mazkur ishlar o'quvchilarni maktab, kollej va litseylarda o'qish jarayonida psixologik-pedagogik jihatdan chuqurroq o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning individual xususiyatlarini, ta'lim va tarbiyadagi nuqsonlar sabablarini yoritishga yo'naltirilgan. Psixodiagnostika ishlari guruhda yakka holda o'tkaziladi. Bu asosda amaliy psixologlar quyidagi vazifalarni bajaradi:  
 Ongli maqsadi mavjud bolalar, umumta'lim maktablari va akademik litsey hamda kasb-hunar kolleji o'quvchilari, oliy o'quv Yurti talabalarining yosh davri taraqqiyoti mezonlariga muvofiqligini psixologik tekshiruvdan o'tkazadi. Ularning kamolot darajasini belgilaydi. O'quvchilarning kasbiy yaroqliligini diagnostika qiladi. Ularning hissiyotlari, irodaviy sifatleri, o'z-o'zini boshqarish imkoniyati, intellektual darajasini tekshiradi.  
 Maktab yoshidagi bolalar, talabalarda uchraydigan ta'lim malakalari, ko'nikmalarini egallashdagi nuqsonlar, xulqidagi kamchiliklar, intellektual taraqqiyot, shaxs fazilatlaridagi buzilishlar sababini diagnostika qiladi.  
 Bolalarning voyaga etgan tengqurlari bilan munosabatini o'rganish uchun ularni tekshiradi.  
 Iqtidorli yoshlar, talabalar, aspirantlar tanlovlarida ishtirok etish, ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish.  
 Psixologiya shaxsning bolalik davridagi xususiyatlari va psixik taraqqiyot darajasini aniqlash uchun turli eksperimental psixologik metodlardan foydalanadi. Psixologik tadqiqotlarda foydalaniladigan metodikalar u yoki bu faoliyat jarayonida shaxs psixik xususiyatlarining namoyon bo'lishini aniqlashdan iborat.  
 Bolalar psixologiyasida eksperimental metodikalarni ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish psixologlar va pedagoglarning asosiy vazifasidir. Eksperimental topshiriqlar majmui bola psixik taraqqiyotini, aqliy darajasini, uning maktabda o'qishga tayyorligini aniqlashga mo'ljallangan. Jumladan, maktabda o'qishga tayyorlikni bildiruvchi belgilar quyidagilardir:

- a) psixik jarayonlarning ixtiyoriyligi;
- b) aqliy ish qobiliyatining etarlicha davomiyligi;
- v) yangi bilim va malakalarni maqsadga yo'naltirilgan ravishda o'zlashtirish imkoniyati;
- g) borliqni bilishga qiziqishning mavjudligi;
- d) tevarak atrofdagi voqea va hodisalarni farqlay olish va umumlashtira olishi;
- e) fikrlay olish va boshqalar.

Yuqorida qayd etilgan belgilarning mavjudligi pedagoglar va psixologlar tomonidan o'quv jarayonida turli didaktik vosita va usullar yordamida aniqlanadi.



**3.4.**

**So'rov**

**metodi va uning asosida ishlab chiqiladigan metodikalar. So'rovnomalar turi**

Savolnomali psixodiagnostik metodlar maxsus standart bo'yicha tanlab olingan savollarga yozma og'zaki javoblarni tahlil qilishdir. Ushbu metodning bir necha turi mavjud: anketa, savolnoma, intervYu. Sinaluvchi savollarga javob berishidan tashqari, o'zi haqida ma'lumot berishi anketa metodi deb aytiladi.



Sinaluvchiga beriladigan savollar majmuasi savolnoma metodi deyiladi. Bu savollar ochiq va yopiq usulda bo'ladi.

Standartlashtirilgan javoblarga, sinaluvchi o'ziga mos javobni berishi yopiq savollar deyiladi. Masalan: «ha», «yo'q», «bilmayman», «roziman, rozi emasman», «aytish qiyin».

Sinaluvchi mustaqil ravishda hohlagan javobni berishi ochiq savollar deyiladi, bu javoblar yopiq savollardan farqli ravishda, faqat sifatli tahlil qilinadi.

Bundan tashqari, savolnomali psixodiagnostik metodlar shaxs sifatlarini to'g'ridan-to'g'ri aks ettiruvchi savollar hamda to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilmagan savollar usulida bo'lishi mumkin. To'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan savollarga sinaluvchi o'zida u yoki bu psixologik sifatning ko'rinishlari bor yoki yo'qligi haqida javob beradi. To'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilmagan savollar, sinaluvchidagi o'rganilayotgan xususiyatga to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilmagan bo'lib, ammo uning shaxs sifatining bu xususiyati psixologik taraqqiyotini o'rganishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, shaxs sifatlaridan «xavotirlanish»ni diagnostika qilish uchun savollarga murojaat qilamiz (bezovtalik, o'ychanlik):

Ochiq savol: «Kuchli xavotirlanish holatiga tushib qoladigan hodisalar haqida gapirib bersangiz».

Yopiq savol: «Siz ko'p hollarda xavotirlanish holatida bo'lasizmi? Quyidagi javoblardan birini tanlang va belgilang «ha», «yo'q», «ba'zan», «bilmayman».

To'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan savol: «Sizda xavotirlanish degan shaxs sifati mavjudmi?».

To'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilmagan savol: «Sizda imtihon paytida bezovtalik holati vujudga keladimi?».

Yozma savolnomalardan tashqari, og'zaki savolnomalar ham mavjud, bu intervyu deb yuritiladi. Unda psixolog sinaluvchiga o'zi savol berib, o'zi javoblarni yozib boradi, bu savollar oldindan aniqlanib, tayyorlab qo'yiladi ular xuddi yozma savollar tipidagi kabi bo'lishi mumkin.

Psixodiagnostik metodlardan yana biri faoliyat mahsullarini analiz qilish orqali kontent-analiz hisoblanadi. Kontent-analizing vazifasi shundan iboratki, u kishining psixologik tavsifini aniqlash va baholashda, uning nima ish qilayotganligi, asosan yozma ijodi mahsuli tahlili orqali o'rganishga qaratilgan.

Eksperimentning psixodiagnostik metod sifatidagi muhim jihatlari shundan iboratki, sinaluvchining biron-bir xususiyatini baholashda maxsus psixodiagnostik eksperiment ishlab chiqiladi va tashkil qilinadi. Bunday eksperiment muolajalari bir qancha tibbiy voqeliklarni o'z ichiga oladi, ya'ni bu hodisalar sinaluvchining o'rganilayotgan xususiyatini namoyon qilish hamda bu sifatning taraqqiyotini baholash va belgilashning standart metodikasini ishlab chiqishga qaratilgan. Psixodiagnostik eksperimentni tashkil qilish va o'tkazish natijasida tadqiqotchi o'zini qiziqtirayotgan muammolar, bo'yicha maxsus tarzda tashkil qilingan eksperimental tadqiqotda sinaluvchi xulq-avtorini kuzatish orqali ma'lumotlarga ega bo'ladi. Masalan, tadqiqotchini shaxs sifatlaridan xavotirlanish muammosi qiziqtiradi. Bu holda diagnostik eksperiment quyidagi tarzda olib boriladi. Sinaluvchi imtihon sinovlari kabi voqelik holatiga tushiriladi qandaydir murakkab ishni vaqt tig'izligida bajarib qat'iy natijalar olishga undaydi. Sinaluvchi topshiriqni bajarayotgan paytda, uning xulqida har xil Yuqori darajali «xavotirlanish» kuzatilib va belgilab borilishi mumkin.

Biz yuqorida psixodiagnostik metodlar va ularning turlari hamda qo'llanishi haqida ma'lumotlar berdik, har qanday psixolog yuqori malakali mutaxassis bo'lib etishishi uchun, albatta, ushbu psixodiagnostik metodlarni o'zlashtirishi va amaliyotda foydalana olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi shart

Yuqorida qayd etilgan belgilarning mavjudligi pedagoglar va psixologlar tomonidan o'quv jarayonida turli didaktik vosita va usullar yordamida aniqlanadi.

Eksperimental tadqiqot sharoitida yuqoridagi belgilarning mavjudligi so'zli, predmetli va psixometrik metodikalar yordamida aniqlanadi. Har bir konkret holda olingan ma'lumotlarni sifatli tahlil qilish va ularni boshqa metodlardan olingan natijalar bilan bog'lash zarur.

Psixologik diagnostikada metodikalarning ishonchliligi muhim hisoblanadi. Sodaroq qilib aytganda, bu tushuncha «testda olingan natija nechog'lik to'g'riligini ko'rsatadi». (A. Anastazi). Har qanday metodikaning, testning ishonchliligi o'rganilayotgan psixologik xususiyatlarning

ularda aks etishi nuqtai nazaridan to'g'ri qo'llanishini xarakterlaydigan ma'lumotlar majmui sifatida qaralmog'i kerak (L.F.Burlachuk, S.M.Moroz, 1989).

Shunday qilib, maqsadga muvofiq tanlangan metodika va testlar psixik faoliyat ko'rinishlarini to'liq va har tomonlama o'rganish imkonini beradi.

Bolalar ustida psixologik tadqiqotlar o'tkazish tajribasi shundan dalolat beradiki, qo'llanilayotgan psixodiagnostika metodikalarini shartli ravishda u yoki bu psixik jarayonlarni o'rganish metodikalariga ajratish mumkin. (L.I.Poperechnaya 1978; L.A.Venger, V.V.Xolmovskaya 1978; Z.I.Kalmikova, 1982; V.M.Bleyxer, I.V.Kruk, 1986). Masalan, bola xotirasi haqida faqat bir metod asosida xulosa chiqarish mumkin emas, buning uchun metodikalar majmuini qo'llash kerak. Shu bilan bir vaqtda, har bir eksperimental metodika o'zining asosiy yo'nalishidan tashqari (ya'ni shaxsning ma'lum xususiyatini o'rganishdan tashqari) psixikaning boshqa xususiyatlarining holati haqida ba'zi ma'lumotlar beradi. Masalan: bolaga berilgan 10 ta so'zni qanday yodlashiga qarab, faqat uning xotirasi haqidagina emas, balki ixtiyoriy diqqati, harakatlarining maqsadga yo'naltirilganligi, ularning sabablari haqida ham bilsa bo'ladi.

Psixologik-pedagogik tadqiqotning sifati eksperimentda qo'llaniladigan metodikalar soniga bog'liq bo'ladi. Lekin bog'cha va maktab yoshidagi bolalar bilan tadqiqot o'tkazganda ularning tez charchashini hisobga olish zarur. Shuning uchun bir tadqiqot o'tkazganda, tadqiqot vazifalariga bog'liq ravishda tanlangan 5 – 7 metodikadan foydalanish tavsiya etiladi. Bir necha bosqichda o'tkaziladigan tadqiqotlarda ko'proq metodikalardan ham foydalanish mumkin. Eksperimental tadqiqot usullarini yaxshi egallash ham muhimdir. Tadqiqotchi tajriba vaqtida bola bilan qanchalik yaxshi munosabatda bo'lsa, bola topshiriqni shunchalik yaxshi bajaradi.

Tadqiqot o'tkazish uchun eksperimental metodikalarni tanlashda quyidagilarni e'tiborga olish zarur:

- a) tadqiqot maqsadi – psixik taraqqiyot darajasini aniqlash, uning yoshiga, ma'lumotiga mosligi, shaxs xususiyatlarini aniqlash;
- b) sinaluvchining yoshi va uning hayot tajribasi, unga ta'lim va tarbiya berilayotgan sharoit;
- v) bolaning eksperimental tadqiqotga moslashishi, muloqotga kirishishi, verbal aloqa o'rnatish xususiyatlari.

Bolaga tanlangan eksperimental psixologik metodikalarni qiyinligi o'sib borish darajasida berish kerak.

Shunday qilib, ushbu mavzuda metod va metodika, standartlashtirilgan metodlar, testlar, ularning turlari, so'rovnomalar, ularning turlari bilan tanishdik.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar?**

1. Metod va metodikaning orasidagi farq?
2. Testlarning turlari?
3. So'rovnomalarning turlari.
4. Testlarni standartlashatirishda nimalarga e'tibor qaratiladi?

### **TOIFALASH JADVALI**

Kuzatuv harakteriga ko'ra kuzatish tiplari			
nazoratli va nazoratsiz	to'laqamrovli va qamramaydigan	dala va laboratoriya sharoitida	muntazam va tasodifiy

### **1-o'quv topshiriq**

#### **“Tushunchalar tahlili” organayzerini to'ldiring**

1-guruh

Muhim muammoning echimini topishga yordam beradi va “Tushunchalar tahlili” usuli orqali muammo hal qilinadi.

Tushunchalar	Mazmuni
--------------	---------

Eksperiment	
Kuzatish	
Psixofizika	
Eksperimental tadqiqot	
Introspektsiya	

**“Blits-so’rov”**

<b>Savollar</b>	<b>Javoblar</b>
Metod nima?	
Metod bilan metodikaning farqini ko’rsatib bering.	
Metodikani standartlashtirish deganda nimani tushunasiz?	

**Talabalarning mustaqil ta’lim mavzulari:**

1. “Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya” fani doirasida qo’llaniladigan asosiy va yordamchi metodlarning o’ziga xosligi
2. Kuzatish metodi va uning afzallik va kamchiliklari.
3. Eksperiment metodi va uning turlari.
4. Introspektsiya haqida tushuncha.

**IV.PSIXODIAGNOSTIK METODIKALAR VA PSIXODIAGNOSTIK TEKSHIRUV JARAYONIGA QO’YILADIGAN TALABLAR**

**Reja:**

- 4.1.Validlik – psixodiagnostik metodikalarning asosiy xususiyatlaridan biri sifatida validlikning asosiy turlari va ularni aniqlash usullari.
- 4.2.Ishonchlilik – psixodiagnostik metodikalarning muhim psixiometrik ko’rsatkichi sifatida. Ishonchlilik turlari va ularni aniqlash usullari.
- 4.3.Psixodiagnostik metodikani va tekshiruv natijalarini standartlashtirish muammosi.
- 4.4.Psixodiagnostik tekshiruvda tanlanma to‘plam representativligi muammosi

**Maqsad:**

Talabalarda psixodiagnostik metodikalar va psixodiagnostik tekshiruv jarayoniga qo’yiladigan talablar haqida tushuncha hosil qilish.

**Vazifa:**

Metodikalarning validligi, ishonchliligi, tanlanma to‘plam representativligi, tekshiruv natijalarini standartlashtirish haqida tushuncha hosil qilish.

### **Tayanch tushunchalar:**

1. **Validlik** atamasi Evropa tillaridan olingan bo'lib u quyidagi ma'noni anglatadi: «to'laqonli», «yaroqli», «mos». Psixodiagnostik metodikaning validlik sifatidagi tavsifi uning aynan o'rganilayotgan psixologik xususiyatga mo'ljallanganligi va ushbu psixologik xususiyatni baholashga mosligi hamda yaroqliligini ko'rsatib beradi.

2. **Nazariy validlik** – qo'llanilgan metodika yordamida olingan ko'rsatkichlarni, boshqa metodik vositalardan olingan ko'rsatkichlar bilan ya'ni ko'rsatkichlar orasida nazariy asoslangan bog'liqlik borligini va tadqiqot qilinayotgan sifat ko'rsatkichlari mosligi bilan aniqlanadi.

3. **Empirik validlik** – sinaluvchining reaksiyasi va xatti-harakatini kuzatish orqali, uning haqqoniy xulqidagi diagnostik ko'rsatkichlarning bir-biriga mosligi bilan tekshiriladi.

4. **Ichki validlik** – metodikadagi topshiriqlar, subtestlar, mulohazalarning umumiy maqsadga mosligini anglatadi.

5. **Tashqi validlik** ham xuddi empirik validlikka o'xshash, undan farqli tomoni shundaki, sinaluvchining xulqiga taalluqli asosiy tashqi ko'rinishlarning ko'rsatkichlari bilan metodikadagi ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligiga e'tibor qaratiladi.

6. **Metodikaning ishonchliligi** – metodika yordamida barqaror, qat'iy ko'rsatkichlarni olish imkoniyatlari bilan tavsiflanadi.

7. **Reprezentativlik** (frants. representatif- namunal) tanlanma to'plam bosh to'plam xususiyatlarini aks ettiradi degan ma'noni anglatadi.

#### **4.1. Validlik – psixodiagnostik metodikalarning asosiy xususiyatlaridan biri sifatida validlikning asosiy turlari va ularni aniqlash usullari.**

Pedagogik-psixologik eksperiment, tadqiqotning ishonchli vositasi bo'lishi hamda natijalarning haqqoniyligiga ishonch hosil qilish uchun va ushbu natijalar asosida to'g'ri xulosa chiqarish uchun tadqiqotda qo'llanilgan psixodiagnostik metodika ilmiy asoslangan bo'lishi kerak, bunda metodlar quyidagi talablarga javob berishi lozim: validlik, ishonchlilik, bir sifatlilik va aniqlik. Endi har bir talabni alohida ko'rib chiqamiz.

«Validlik» atamasi Evropa tillaridan olingan bo'lib u quyidagi ma'noni anglatadi: «to'laqonli», «yaroqli», «mos». **Psixodiagnostik metodikaning validlik** sifatidagi tavsifi uning aynan o'rganilayotgan psixologik xususiyatga mo'ljallanganligi va ushbu psixologik xususiyatni baholashga mosligi hamda yaroqliligini ko'rsatib beradi.

**Metodikaning validlik tavsifi** ushbu metodika orqali haqiqatdan ham psixologik sifatni o'lchash mumkin, degan xulosadan tashqari uni qo'llash mumkin bo'lgan sohani va uning sharoitlari haqidagi ma'lumotlarni ham o'ziga qamrab oladi.

Psixodiagnostik metodikaning validligi haqida mulohaza qilar ekanmiz, validlikning bir necha turi borligini va ularning har birini alohida ko'rib chiqish hamda baholash zarurligini qayd etamiz. Validlik – nazariy, amaliy, empirik, ichki va tashqi bo'lishi mumkin.

**Nazariy validlik** – qo'llanilgan metodika yordamida olingan ko'rsatkichlarni, boshqa metodik vositalardan olingan ko'rsatkichlar bilan ya'ni ko'rsatkichlar orasida nazariy asoslangan bog'liqlik borligini va tadqiqot qilinayotgan sifat ko'rsatkichlari mosligi bilan aniqlanadi.

Nazariy validlik bitta nazariyaga tayangan holda, aynan bir xususiyatga tegishli har xil metodikalardan foydalanish natijasida olingan ko'rsatkichlarni korrelyatsiyasi bilan tekshiriladi.

Empirik validlik – sinaluvchining reaksiyasi va xatti-harakatini kuzatish orqali, uning haqqoniy xulqidagi diagnostik ko'rsatkichlarning bir-biriga mosligi bilan tekshiriladi. Agar sinaluvchining xarakterini qo'llanilgan metodika yordamida baholasak, ushbu odamning hayotdagi xarakter ko'rinishining qo'llanilgan metodikadan olingan ko'rsatkichlar bilan bir xilligini aniqlasak, u holda metodikani empirik va amaliy validli deb hisoblasak bo'ladi.

Empirik validlik mezonlari bo'yicha metodika odamlarning amaliy faoliyat natijalari hamda haqqoniy hayotiy huquqlarining ko'rsatkichlarini taqqoslash bilan tekshiriladi.

Ichki validlik – metodikadagi topshiriqlar, subtestlar, mulohazalarning umumiy maqsadga mosligini anglatadi. Metodikadagi subtestlar, topshiriqlar va undagi savollar qisman butunlay biz o'rganayotgan xususiyatni o'lhay olmasa, u holda ushbu metodika ichki validli emas yoki ichki validlik etarli darajada emas, deb hisoblanadi.

Tashqi validlik ham xuddi empirik validlikka o'xshash, undan farqli tomoni shundaki, sinaluvchining xulqiga taalluqli asosiy tashqi ko'rinishlarning ko'rsatkichlari bilan metodikadagi ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligiga e'tibor qaratiladi.

Metodikani tuzish jarayonida darhol uning validligini baholash juda murakkabdir. Odatda metodikaning validligini tekshirish va aniqlashda metodika uzoq muddat qo'llanilgandan so'ng u haqida xulosa chiqarish mumkin, chunki Yuqorida ko'rsatib o'tilgan validlikning to'rt turi ham tekshirilishi zarurdir.

Validlikning turlaridan tashqari uning mezonlarini bilish ahamiyatga molikdir:

- A) Xulqiy ko'rsatkichlar – sinaluvchining har xil hayotiy voqe'lardagi reaksiya va xatti-harakatlari;
- B) Sinaluvchining faoliyatidagi Yutuqlari: o'quv, ish, ijodiy va hokazolar;
- V) Har xil nazorat sinov va topshiriqlarning bajarilganligi haqida ma'lumotlar;
- G) Boshqa metodikalar yordamida olingan ma'lumotlar – validlik tekshirilayotgan metodikaning boshqa metodika bilan bog'liqligining etarli darajadali.

#### **4.2. Ishonchlilik – psixodiagnostik metodikalarning muhim psixiometrik ko'rsatkichi sifatida. Ishonchlilik turlari va ularni aniqlash usullari**

Metodikaning ishonchliligi – metodika yordamida barqaror, qat'iy ko'rsatkichlarni olish imkoniyatlari bilan tavsiflanadi.

Psixologik test natijalarini nazorat qilish murakkab omillarga bog'liq va bu quyidagilardir:

- asbob-uskunalarining o'lchov sifati;
- psixologik testlarning doimiy relevant tavsifi;
- sinaluvchining ko'rsatmalarni to'g'ri tushunishi;
- sinaluvchining xulqi, xatti-harakati;
- sinaluvchining dolzarb psixologik holati.

Psixodiagnostik tadqiqot jarayonida ushbu omillarning o'zgarishi o'lchovning ishonchlilik darajasini pasaytiradi, chunki bu omillarning doimiylikni saqlab turishning imkoni yo'q, shuning uchun ham psixodiagnost metodikaning Yuqori darajada ishonchliligiga amin bo'lishi juda qiyin. Ushbu omillarning asosiylaridan biri metodikaning o'zining ishonchliligidir, chunki qolgan omillarning olingan natijalar doimiylikiga ta'siri ancha kamdir.

Psixodiagnostik metodikalarning ishonchliligini ikki xil usul bilan tekshirib chiqish mumkin:

Ushbu metodika yordamida har xil odamlarda olingan natijalarni taqqoslash.

Aynan bir xil sharoitda metodikani qo'llash va undan olingan natijalarni taqqoslash.

Metodikaning aniqligi – psixodiagnostik tadqiqot paytida biror-bir xususiyatni baholashda ozgina o'zgartirishga ham javob qaytarish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Metodikaning aniqligini texnik o'lchov asbob-uskunalarining aniqligi bilan izohlash mumkin. Masalan: santimetrda bo'lingan metrdan ko'ra millimetrga bo'lingan chizg'ich bilan aniqroq o'lchash mumkin.

Psixodiagnostik metodika qanchalik aniq bo'lsa, o'lchovning sifati shuncha Yuqori bo'ladi. Ammo amaliy psixodiagnostikada hamma vaqt ham o'lchovning aniqligi, baholashning Yuqori darajasi talab qilinmaydi. Masalan, butun tadqiqotda tanlama sinaluvchilarni ikkiga bo'lish kerak bo'lsa, u holda qo'llanilayotgan metodika aynan shunga mos holda bo'linishi kerak, undan ko'pga ham, kanga ham emas. Agar sinaluvchilar beshta guruhga bo'linishi shart bo'lsa, u holda beshta o'lchov shkalasi bor metodikani qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi va ular beshta punktdan iborat bo'lishi kerak, masalan «ha», «yo'qdan ko'ra ha», «yo ha, yo yo'q», «yo'q hadan ko'ra», «yo'q» shaklida. Metodikaning bir sifatligi ushbu metodika yordamida olingan natijalar qay darajada, aynan bir xususiyatga taalluqli o'zgarishni o'lchashi bilan tavsiflanadi. Agar o'rganilayotgan xususiyatlardan olingan ko'rsatkichlar, ushbu metodika bilan bog'liq bo'lmagan boshqa bir xususiyat ko'rsatkichlarini namoyon qilsa, u holda ushbu metodika bir sifatlilik mezoniga mos bo'lmaydi. Masalan, tadqiqotchini shaxsning xulq motivlarini baholash qiziqtirsa, u sinaluvchining xulq motivlariga taalluqli to'g'ridan-to'g'ri savollar berishi mumkin, u holda olingan javoblar bir xillik mezoniga mos tushishi kamdan-kam hollarda ro'y berishi mumkin, chunki sinaluvchi o'z xulq motivlarini anglagan holda eksperimentatorga xulq motivlarining ijobiy tomonlarini ko'rsatishga harakat qiladi.

O'quvchi, talabanning faqat bilimlarni o'zlashtirishini baholash ham bir sifatlilik mezonini to'liq qanoatlantira olmaydi, chunki bilimni o'zlashtirishga hamisha ham ob'ektiv baho qo'yilmaydi, bunda o'quvchining bilimlaridan tashqari, uning o'qituvchi bilan munosabati va o'quvchining xulqi ko'rinishi ham namoyon bo'ladi.

Psixodiagnostikada biror-bir metodikani qo'llashdan oldin tadqiqotchi ushbu metodikani validligi, ishonchliligi, aniqligi va bir sifatlilik talablariga javob bera olishiga to'liq ishonch hosil qilishi shart. Aytib o'tilgan mezonlardan asosiylari: validlik va ishonchlilikdir, agar o'lehov uskunalari bu ikkala mezonga mos kelmasa, u holda psixodiagnostikada bu vositalarni qo'llash umuman mumkin emas. Mabodo metodikaning aniqligi va bir sifatlilik to'liq bo'lmasa ham uni aniq shartlar asosida qo'llash mumkin. Ammo quyidagilarni unutmaslik zarur:

noaniq metodika, o'tkazilayotgan eksperiment natijalari biror-bir xususiyatdagi kichik o'zgarishlarni aniqlash imkonini bermaydi;

metodika bir sifatlilikining to'liq emasligi, hamisha ham aynan baholanayotgan xususiyatdagi o'zgarishlar darajasi bilan olingan ko'rsatkichlarni taqqoslash imkonini bermaydi.

#### **4.3. Psixodiagnostik metodikani va tekshiruv natijalarini standartlashtirish muammosi.**

Psixodiagnostik natijalarga qo'llanilgan metodikadan tashqari voqea hamda hodisalar ham ta'sir qiladi, ya'ni berilgan ko'rsatmalarni sinaluvchining to'g'ri tushunmasligi va test vaqtida sinovchining xulqi va shaxs xususiyatlari o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Agar voqelikni sinaluvchi imtihon sifatida qabul qilsa, o'zini shu voqelikka mos tarzda tutadi. Yuqori xavotirli odamni hamisha va hamma payt Yuqori «xavotirlik» holati qamrab oladi, har qanday hodisani xavf sifatida qabul qiladi. Kichik darajali xavotirli odam buning aksidir, ya'ni o'zini erkin tutadi.

Sinaluvchilarning xulqi, xatti-harakati va ularning ko'rsatgan natijalari ko'rsatmalarni qanday tushinishi bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham psixologik tashxisda ko'rsatmalarning aniq tuzilishi va ularning tez anglab olinishiga qat'iy talablar qo'yiladi:

ko'rsatma sodda va tushunarli bo'lishi;

bir xil ma'nodagi so'z va talaffuzlarni o'ziga qamrab olmasligi;

ko'rsatmaning iloji boricha yozma shaklda bo'lishi (ko'rsatma berayotgan shaxs, ko'rsatmani har xil paralingvistik tarkibiy qismlar orqali ifodalashi mumkin: mimika, talaffuz, temp, pauza va xatti-harakatlar).

Ba'zan tadqiqot natijalariga sinovchining xulqi va xatti-harakati ham ta'sir qilishi mumkin. Masalan, eksperimentator haqida sinaluvchining fikri ijobiy bo'lsa, uning xatti-harakatida, munosabatida imkoni boricha sinovchiga yaxshi natija berishga harakat qiladi. Buning aksi bo'lsa, eksperimentatorga nisbatan sinaluvchida antipatiya bo'ladi.

Asosiy ko'rsatma: eksperimentator bosiq, muvozanatli, xatti-harakati sinaluvchilarga nisbatan yaxshi va do'stona bo'lishi kerak.

Tarbiyachi qancha ko'p eksperimental psixologik tadqiqotlar o'tkazsa, uning tajribasi shuncha ortib boradi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi: bola faoliyatining xususiyatlarini o'yin va o'quv vaziyatlarida tahlil qilish; maktab, maktabgacha ta'lim muassasasi, oila sharoitiga moslashish, moslasha olmaslik darajasini aniqlash; bolaning ichki dunyosini tushunib olish istagi; shaxsi xususiyatlarini har tomonlama rivojlantirishda unga har qanday yordam ko'rsatish. Psixolog-eksperimentator faoliyati tadqiqotda ta'sir qiladigan alohida xususiyatlarga ega. Shuning uchun M.P.Kononova (1963) ta'kidlaganidek, bo'lajak tadqiqotchi o'zida quyidagi sifatlarni shakllantirmog'i lozim:

a) tadqiqot qarorlarini tez va aniq tuzish;

b) bola topshiriqni qanday bajarayotganligiga va uning xulq-atvorini kuzatishga diqqat qaratish;

v) bola bilan yaxshi aloqaga kirishish, uning hamma aytganini yozib, xulqidagi ba'zi reaksiyalarni to'g'ri baholash qobiliyatini yo'qotmaslik va boshqalar.

Bundan tashqari, tadqiqotchi eksperimental tekshiruvga turlicha munosabatda bo'lishi kerak. Masalan, bog'cha yoshidagi bolalarni shunga qiziqtirish kerakki, bolalar eksperimentator xonasida ko'proq bo'lib, uning hamma talablarini bajarishga intilsin. Bunga bolalarga qiziqarli rasmlarni ko'rsatib, ularni hikoya qilib berish kubiklardan har xil narsalar yasash orqali erishish

mumkin. Bolada qiziqish paydo bo'lishi bilan birga uning xotirasi, diqqati, mantiqiy jarayonlari o'rganiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari va o'smirlar bilan tadqiqot o'tkazgan paytda ular bilan shunday kirishib ketish kerakki, bolalarda tajribaga qiziqish, tadqiqotchiga ishonch va o'z ichki dunyosini ochish istagi paydo bo'lsin. Shuni ta'kidlash joizki, hamma bolalar ham tekshiruvga qiziqadilar. Lekin ba'zi hollarda, ular takroran tadqiqotda ishtirok etishdan bosh tortadilar. Ko'pincha bu tengdoshlariga nisbatan yomon natijalar olganda eksperimentatordan ortiqcha so'z eshitganda paydo bo'lishi mumkin. Bunday bolalarga o'zgacha munosabatda bo'lish darkor. Ular arzimasa sabab uchun ham maqtovga muhtojlar.

Eksperimental-psixologik tadqiqot natijalari ishonchli bo'lishi uchun, tadqiqotchi uni o'tkazishda ma'lum sxema (umumiy reja)ga amal qilishi kerak. Tadqiqotchi ishini bolaning hayoti, uning jismoniy va psixik taraqqiyotining xususiyatlari, oilada, maktabda, MTMda ta'lim va tarbiyaning ijtimoiy-madaniy sharoitlarini aks ettiradigan materiallar bilan tanishishdan boshlashi kerak. Tadqiqotchi uchun bola tug'ilishi bilan bog'liq (onasida homiladorlik toksikozlari bo'lganligi, chala tug'ilganligi va h.k.), 3 yoshgacha bo'lgan davrdagi taraqqiyotining xususiyatlari haqidagi ma'lumot ham muhimdir (nevrologik xususiyatlar va tanasida kasallik mavjudligi – titrab-qaltiraydigan xuruj, kunduzgi va tungi enurez (siyib qo'yish), duduqlanish, bosh miya va markaziy nerv sistemasi kasalliklari, bola qachondan boshlab Yura boshlagan, gapira boshlagan, bog'chaga va maktabga kelishdan oldin qanday rivojlangan). Bu ma'lumotlarni ota-onalar bilan tanishganda, bolaning shaxsiy daftari ko'rib chiqqanda, u bilan bevosita suhbatlashganda olish mumkin.

Bola rivojlanishi haqida ma'lumotlarni xronologik ketma-ketlikda bayon etish maqsadga muvofiqdir (1-jadval).

*1-jadval*

Bolaning jismoniy va psixik rivojlanishi xususiyatlari

Bolaning F.I.O.	Bola haqida ijtimoiy va psixologik ma'lumotlar				
	Tug'il-gan yili	Ota-onasi haqidagi ma'lumot	Tug'ilishining ba'zi xususiyatlari	Sog'lig'i	Jismoniy va psixik rivojlanish xususiyatlari

MTMga, maktabga kelishi bilan tarbiyachi yangi ma'lumotlarni qo'shib boradi. Bu unga bolaning jismoniy va psixik taraqqiyotini kuzatish imkonini beradi.

Bolaning individual-psixologik xususiyatlarini o'yin faoliyatida, topshiriqlarni bajarish jarayonida, o'quv faoliyatida, psixologik-pedagogik eksperiment sharoitlarida uning xulq-atvorini kuzatib ham o'rganish mumkin. Kuzatishda olingan ma'lumotlar oldindan tayyorlangan tadqiqot qaroriga yoziladi.

Eksperimental-psixologik tadqiqotda kuzatish jarayoni ixtiyoriy bo'lib, odatda hayotiy sharoitlarda pedagog ixtiyoriy ravishda kuzatadi. MTMda, boshlang'ich sinflarda bo'lajak tarbiyachining ishi ixtiyoriy va ixtiyorsiz kuzatish malakalarini bir xilda rivojlantirishni talab qiladi.

Eksperimental-psixologik tadqiqot o'tkazishdan oldin pedagog-tadqiqotchi bola bilan suhbatlashadi. Bunda u bola bilan ijobiy - hissiy aloqa o'rnatib, bajariladigan topshiriqning maqsad va vazifalarini tushuntirib beradi. Suhbat psixologik tadqiqot metodi sifatida bola haqida ma'lumot olish imkonini beradi. Suhbat oldindan tayyorlangan savollar asosida o'tkazilishi stixiyali ravishda kechishi mumkin. Bunda tadqiqotchi suhbat jarayonida bolaning oilasiga tengqurlariga tegishli bo'lgan, unga yoqmaydigan savollarni bermasligi kerak. Suhbatda bola shaxsining xususiyatlari, o'zining jismoniy va psixik holatiga, ishchanligiga baho berishi aniqlanadi.


Tekshiriluvchining ijtimoiy-madaniy darajasi, ma'lumoti, qiziqishlari, ehtiyojlari, o'zaro fikrlashuv qobiliyati aniqlanadi. Ba'zi hollarda suhbat psixoprofilaktik va psixoterapevtik maqsadlarda o'tkaziladi, bunda bola boshidan kechirayotgan qo'rqinch, xavotirlanish, o'ziga

ishonmaslik kabi holatlar yo‘qotiladi. Shunday qilib, tarbiyachi suhbat jarayonida tadqiqot oldiga qo‘ygan vazifaga bog‘liq ravishda bola hayoti haqida muhim ma‘lumot olishi kerak. Eksperimental psixologik tadqiqot o‘zining quyidagi shartli sxemasiga ega. (1-sxemaga qarang). Eksperimental vaziyatda bola beriladigan yo‘l-yo‘riq, ko‘rsatmani tushunishi muhim rol o‘ynaydi. Ko‘rsatma tushunarli, bolaning yoshi va aqliy rivojlanish darajasiga mos bo‘lishi kerak. Bola topshiriqni bajarishni boshlaganidan so‘ng ko‘rsatmani misollar yordamida qo‘llab-quvvatlash bilan mustahkamlash zarur, bu esa sinaluvchida faoliyatga ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Tajriba jarayonida tadqiqotchi bola nimada qiynalayotganini aniqlaydi va unga yordamlashadi. Ko‘rsatmaga kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar haqidagi barcha ma‘lumotlar oldindan tayyorlangan tadqiqot qaroriga yozib qo‘yiladi.

Eksperiment jarayonida olingan natijalarni puxta yozib borish, keyingi sifat tahliliga asos bo‘ladi. A.Bining (1910) ta’kidlashicha, eksperimental-psixologik tadqiqotni o‘tkazish uchun ruchka, ozgina qog‘oz va ko‘p chidam zarur. Tadqiqotchi u yoki bu olingan ma‘lumotni iloji boricha tezroq qarorga yozib olishi kerak. Har bir tajriba qarori alohida qog‘ozda bo‘lishi lozim (2-jadval)

**1-sxema**



Tekshiruv qog‘ozlari har xil bo‘lishi mumkin. Ular alohida psixodiagnostik tadqiqot natijalarini yozib olish uchun maxsus shaklga ega bo‘ladi.

Unda qator metodikalar majmui ham aks etishi mumkin. Tekshiruv qog‘ozlarini to‘g‘ri to‘ldirish, qarorlarini yozib borish turli metodikalar bo‘yicha olingan natijalarni umumlashtirish, tekshirilayotgan bolalarni bir yosh guruhida taqqoslash imkonini beradi. Tajriba davomida pedagog-psixolog bola faoliyatini iloji boricha tabiiy sharoitlarga yaqinlashtirishi kerak. Masalan, o‘rta guruh bolalari uchun shunday topshiriqlarni tanlash kerakki, ular o‘yin vaziyatida bajarilsin. Katta bog‘cha bolalari va boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bu topshiriqlar o‘quv faoliyati elementlari bilan birga qo‘shilishi mumkin.

Eksperimental psixologik tadqiqot bir necha bosqichda o‘tkazilishi zarur. Bu bolaning yangi sharoitga yaxshi moslashishiga, u bilan ijobiy aloqa o‘rnatishga imkon beradi. Birinchi bosqichda tadqiqotchi bola bilan aloqa o‘rnatadi, uning qiziqish va ehtiyojlarini aniqlaydi. Bola ba’zi



topshiriqlarni tadqiqotchi oldida bajaradi. Ikkinchi bosqichda olingan ma'lumotlarga aniqlik kiritiladi, boshqa metodikalarda olingan natijalar bilan o'zaro bog'liqlik aniqlanadi. Uchinchi bosqichda tajribada olingan natijalar tahlil qilinadi, ular umumlashtirilib, xulosa chiqariladi.

Tadqiqotchi olingan ma'lumotlarni bir joyga to'plab, sinaluvchi shaxsining xarakteri, aqli, xotirasi, hissiyoti, psixik buzilishlar mavjudligi yo'qligi haqida xulosa chiqariladi.

Tadqiqotning so'nggi qismidagi xulosalar shaxsga psixologik diagnoz qo'yish, sinaluvchi psixikasidagi o'zgarishlarni oldindan aytib berish, olingan ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatlari bilan bog'liq ravishda hamda pedagog amaliy faoliyatida tavsiyalar berish maqsadida qiziqarlidir. Shuni esda tutish zarurki, eksperimental vaziyat bola uchun odatdagidan boshqacha bo'ladi. Shuning uchun olingan natijalar har doim ham haqiqiy ko'rsatkichlarga mos tushmasligi mumkin.

Eksperimental tadqiqot xarakteriga bog'liq ravishda undan olingan natijalardan o'quv-tarbiya jarayonida foydalanish mumkin.

Quyidagi kuzatishni keltiramiz:

Tarbiyachi bog'chada mashg'ulotlar o'tkazish jarayonida 6 yoshli Gulnora (K.) ismli qizcha xulq-atvoridagi boshqalarnikidan farq qiluvchi ayrim xususiyatlarni payqab qoladi. Qiz mashg'ulotlarda tez-tez chalg'ib ketadi, ko'pincha parishonxotir. Tarbiyachi topshirig'ini bir zumda bajarmaydi. Bir topshiriqni tashlab, ikkinchisiga tez o'tib ketadi, hech bir ishni oxiriga etkazmaydi. O'quv topshiriqlari bajarilmaydigan boshqa vaqtlarda u o'zgalardan farq qilmaydi. Qizning diqqat, tafakkur hissiy jarayonlarini o'rganish uchun bog'chada tadqiqot o'tkazildi. Tekshiruv natijalari qizning psixik jarayonlarida hech qanday psixik o'zgarish yo'qligini tasdiqlaydi. Topshiriqlarni bajarish vaqtida charchash, faol diqqat darajasining pastligi kuzatildi. Lekin bu xususiyatlar sinaluvchi diqqatini ishning boshqa shakllariga ko'chirish bilan osonlikcha bartaraf etilgan. Shunday qilib, eksperimental psixologik tadqiqot qizning psixik taraqqiyoti normada ekanligini, psixik jarayonlarning o'zgarib turishi esa ba'zi omillarning ta'siri oqibatida ro'y berishini ko'rsatdi.

Tarbiyachining vazifasi – bu omillarni to'g'ri aniqlash, keyinchalik bola bilan individual ish olib borib, ko'rsatilgan xususiyatlarni yo'qotishdan iborat. Yuqoridagi misolda ixtiyoriy diqqat darajasining pastligi, ish qobiliyatining sustligi o'zining ob'ektiv sabablariga ega. Qizning 3 yoshgacha rivojlanish tarixidan ma'lum bo'ladiki, u asfiksiya (kislorod etishmasligi sababli bo'g'ilish) bilan tug'ilgan, tug'ruqdan so'ng bosh miyasi yallig'langan. Uzoqroq davom etadigan ish faoliyatida bu narsa o'z ta'sirini ko'rsatib, qiz tez charchab qoladi. Tarbiyachi bola bilan individual ish olib borganda, albatta shuni hisobga olishi zarur.

Bolalarni eksperimental-psixologik o'rganish natijalaridan o'quv mashg'ulotlari vaqtida psixik jarayonlarning ixtiyoriyligini rivojlantirishda ham foydalanish mumkin.


Psixologik tadqiqot natijalaridan bolalar bilan individual ish olib borishdagina emas, balki guruhiy o'quv-tarbiya tadbirlarini o'tkazishda ham foydalansa bo'ladi. Bunda tarbiyachi o'quv-tarbiya jarayonida har bir guruh a'zosining rolini to'g'ri aniqlashi mumkin. Shunga asosan ta'sirning u yoki bu shaklidan foydalaniladi.

Psixodiagnostik tadqiqotlar tarbiyachiga guruhning, har bir shaxsning u yoki bu psixik funksiyalari rivojlanish printsiplarini hisobga olgan holda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish imkonini beradi.

#### **4.4.Psixodiagnostik tekshiruvda tanlanma to'plam reprezentativligi muammosi**

Reprezentativlik (frants. representatif- namunali) tanlanma to'plam bosh to'plam xususiyatlarini aks ettiradi degan ma'noni anglatadi. Reprezentativlik o'rganilayotgan belgilarning tanlanma to'plamda taqsimlanishi ularning real taqsimlanishiga ma'lum statistik xatolik bilan mos kelishini bildiradi. Har qanday tadqiqotda to'plam reprezentativligini ta'minlash uchun ma'lum sharoitlarga amal qilish kerak. Ulardan asosiylari quyidagilar: a) bosh to'plamning har bir birligi to'plamga tushish ehtimoli bo'lishi zarur; b) o'zgaruvchi to'plam o'rganilayotgan belgiga bog'liq bo'lmagan ravishda tanlanadi; v) tanlov bir xil to'plamlardan amalga oshiriladi; g) tanlovda birliklar soni ko'p bo'lishi lozim. Keng ma'noda reprezentativlik metodikaning validligi bilan bog'liq.

Hozirgi zamonda fanga ma'lum, insonning psixologik jarayonlar, xususiyatlar va holatlarini o'rganish maqsadida tuzilgan psixodiagnostik metodikalar amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Yangi ilmiy tushunchalarni bayon qilish, ilmiyligini kafolatlash maqsadida, ularga xos belgilarni o'rganish uchun eksperimental psixodiagnostik vositalarni ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish borasida juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. XX asr boshlarida ancha yaxshi rivojlangan fanlarning, masalan fizika fanining tushuncha va tadqiqot metodlariga bir qancha talablar qo'yildi va qabul qilindi, bu psixologiyaga ham fan sifatida taalluqlidir. Bu operatsionalizatsiya va verifikatsiya talablaridir.



Operatsionalizatsiya talabi asosida shu narsa yotadiki, yangi ilmiy tushunchani fanga kiritishda albatta aniq, konkret muolajalar, usul va metodlarni ko'rsatib berish va ular yordamida ilmiy tushunchalarni bayon qilishda bu ko'rinishlar haqiqatdan mavjudligiga ishonch hosil qilish lozim. Operatsionalizatsiyada har qanday tadqiqotchi amaliy harakati ish jarayonida ilmiy tushunchadagi ko'rinishlar bayoni haqiqatdan ham aynan shu xususiyatlarga ega ekanligiga ishonch hosil qila olsin.

Verifikatsiya talabi shuni anglatadiki, ilmiylik statusiga talabgor har qanday ilmiy tushuncha, fanga kiritilayotgan yangiliklar, albatta, haqiqiy ma'nosiga ega ekanligini aniqlash maqsadida tekshiruvdan o'tkazilishi shart. «Verifikatsiya» so'zi «tekshirish» ma'nosini anglatadi. Bu har qanday tushuncha bo'shliqdan paydo bo'lmaganligini, haqiqatdan ham mavjudligini isbotlashda, unga mos psixodiagnostik muolajalar yordamida amalga oshiriladi. Masalan, biz fanga «motiv» tushunchasini kiritmoqchimiz, u holda birinchi navbatda ushbu tushunchaga oid bizga ma'lum tushunchalar va ushbu tushuncha ma'nosiga oid diagnostik belgi, ko'rinishlarni aniq tavsiflab bera olishimiz kerak. «Motiv» tushunchasini quyidagicha ta'riflab ko'raylik. "Motiv – bu ichki, psixologik, o'zini anglagan yoki o'z-o'zini anglamagan odam harakatini qo'zg'atuvchi manba hamda u bir maqsadga yo'naltirilgan holda faollikni qo'llab turadi".

Bolalar psixodiagnostikasi amaliyotida faqat validli aniq va ishonchli metodlar qo'llanilishi shart, aks holda natijalarning ishonchsizligi va noaniqligi hamda xulosa chiqarishda xatoliklar kelib chiqishi xavfi Yuzaga chiqishi mumkin.

Qo'llanilayotgan metodlar sifatiga, uning yordamida olingan natijalarga, ya'ni unga ishonish mumkinligiga psixodiagnostik metoddan foydalangan shaxs mas'uldir. Ta'lim tizimidagi muassasalarda pedagog-psixologlar mas'ul shaxsdir. Bundan tashqari bolalar bilan psixodiagnostik tashxislar o'tkazishda bir qator kasbiy-ahloqiy tavsifga ega talablar qo'yilgan. Bu asosiy kasbiy-axloqiy talablar quyidagilardir:

Har qanday sharoitda ham psixologik tashxis natijalari bola shaxsiga ziyon etkazish maqsadida qo'llanmasligi shart.

Psixologik tashxisni faqat bolalarning va ota-onalarning roziligi bilan o'tkazish mumkin (faqat ayrim holatlar bundan istisno, ya'ni tibbiyot va huquqiy sohalarda). Go'daklik yoki balog'at yoshigacha bunday qarorlarni ota-onalar bolalar ishtirokida qabul qilishi mumkin.

Ota-onalar, (ota-onalik huquqidan mahrum qilinganlar bundan mustasno) mutaxassis psixolog psixodiagnostik tadqiqot natijalari asosida tayyorlagan xulosalarni bilishga haqlidir. Psixolog o'z navbatida ota-onalarning farzandlari ruhiyati haqidagi savollariga to'liq, ishonchli va haqqoniy javob berishi shartdir.

Psixologik tashxis natijalari, shaxs taraqqiyotiga ta'sir qiluvchi har xil omillarni hamda ota-onalarning, pedagoglarning fikrlarini inobatga olmasdan, bolaning ta'lim va tarbiyasiga taalluqli takliflarni hal qilishga asos bo'la olmaydi.

Ta'lim tizimida ishlayotgan psixolog, psixologik tashxis ishlarini o'qituvchi va tarbiyachi bilan hamkorlikda olib borgan holda, ularni bola ruhiyati haqida zarur ma'lumotlar bilan ta'minlab borishi shart.

Psixodiagnostikada qo'llanilayotgan ko'pgina metodikalar yosh me'yorlari atamasi bilan bog'liq. Bu, birinchidan, ruhan va jismonan sog'lom hamda tasodifan tanlab olingan bolalar guruhida o'rganilayotgan xususiyatlarning o'rtacha taraqqiyot darajasi bilan bog'liq holda tavsiflanadi. Bolada yosh me'yorlari o'rganilayotgan xususiyatlar taraqqiyot darajasining og'ishi, o'tkazilgan tadqiqotdan olingan natijalar bilan aniqlanadi. Agar uning individual ko'rsatkichlari me'yordan yuqori bo'lsa, u holda bola o'z tengqurlaridan ilgarilab ketgan, buning aksi bo'lsa tengqurlaridan orqada qolgan degan xulosa chiqariladi.

Ikkinchidan – bu o'z-o'zidan me'yorlarni o'rganib turishdir. Ma'lumki, jamiyatning rivojlanib borishi bilan bolalardagi intellektual, shaxsiy va xulqiy taraqqiyotning o'rtacha ko'rsatkichi o'zgarib boradi. Bu, albatta, bundan o'n yil oldingi me'yordardan hozirgi paytda foydalanish mumkin emasligini ko'rsatib beradi, shuning uchun ham har bir metodikani har 3 – 5 yilda albatta qayta tekshirib ko'rish talab qilinadi.

Uchinchidan, boladagi u yoki bu psixologik xususiyatlarning taraqqiyot darajasini baholash bilan uning kelajakdagi taraqqiyoti haqida xulosa chiqarib bo'lmaydi. Chunki bu nafaqat uning taraqqiyot darajasi bilan, balki bolaning uquvchanlik qobiliyati, yangi hayotiy tajribalarni o'zlashtira olishi, ta'lim sifati hamda ko'pgina boshqa omillar va sharoitlar bilan bog'liqdir.

Bundan tashqari, har qanday psixodiagnostik metodikalarni qo'llash va xulosa chiqarish uchun, avvalo uni sinab ko'rish kerak.

Psixodiagnostik metodikalarni ishlab chiqish va sinab ko'rish bosqichlari quyidagilardir.

Psixodiagnostika so'zi psixologiyada ikkita asosiy ahamiyat kasb etadi. Birinchisi ilmiy psixologik bilimlar va tadqiqotlar sohasi hisoblansa, ikkinchisi psixologik bilimlarni amaliyotda qo'llay olish sohasidir. Ilmiy soha sifatida psixodiagnostika: printsiplar, har xil psixodiagnostik metodlarning ilmiyligini tekshirish muolajalarini va usullarini qamrab oladi. Amaliy soha sifatida psixodiagnostik metodlarni amaliyotda qo'llay olish ko'nikma va malakalarini psixolog-diagnostda shakllantirishga qaratilgan.

Ilmiy va amaliy sohada ham odamning psixologik jarayonlari, xususiyat va holatlarini baholash haqida fikr yuritiladi.

Hozirgi zamon psixologiyasida juda ko'p psixodiagnostik metodlardan foydalaniladi, ammo ularning hammasi ham ilmiy asoslangan deb ayto olmaymiz. Bundan tashqari, metodlar ichida tadqiqot va xususiy psixodiagnostik metodlar mavjud. Xususiy psixodiagnostik metodlar shunday metodlar sirasiga kiradiki, ular o'rganilayotgan psixologik xususiyatning aniq miqdoriy va sifatiy tavsiflarini ko'rsatib bera oladi, ya'ni muayyan bir xususiyatni baholash maqsadida qo'llaniladi.

Yuqorida aytib o'tilgan maqsad uchun qo'llanilmaydigan metodlar, faqat psixologik jarayonlarni, insonning xususiyat va holatini o'rganadigan metodlar tadqiqot metodlari deb yuritiladi. Ular asosan empirik va eksperimental ilmiy tadqiqotlarda qo'llaniladi. Ularning asosiy maqsadi – ishonchli bilimlar, faktlarni olishdir. Psixodiagnostik va tadqiqot metodlari farqlarini ko'rsatib beruvchi ikkita misol ko'rib o'tsak:

1-misol. Shaxsni psixodiagnostik tekshiruv metodi.

Bu 16 faktorli R.Kettell testi. Mazkur standartlashtirilgan savolnoma o'ziga 187ta mulohazani qamrab olgan bo'lib, 16ta guruhga bo'lingan shkalalar mavjud. Har bir shkala yordamida

shaxsning alohida bir belgisini baholash mumkin, bunda baholash standart ballarda beriladi. Ushbu testdagi mulohaza, ko'rsatma, qo'llashdagi muolajalar, natijalarni sharhlash va xulosalar – hamma voqea-hodisalarda bir xil qo'llaniladi va o'zgartirilmaydi.

2-Misol. Shaxsni tadqiqot qilish metodlari.

Masalan, odamni maxsus sharoitda kuzatish orqali, aniq bir xulqini o'rganish uchun mo'ljallangan eksperiment ishlab chiqilmoqda. Eksperimentni shunday tuzish mumkinki, tadqiqotchini qiziqtirayotgan shaxs xulqidagi ko'rinish, belgilarning har birini alohida o'rganish imkonini bersin. Sinovchi, sinaluvchilar xulqini kuzatish orqali shaxs belgilarining alohida xususiyatlari va unga mos xulq-atvor shakllari haqida xulosa chiqarish uchun ishlab chiqilgan eksperiment o'tkazadi. Bundan tashqari, bolalar bilan o'tkaziladigan psixologik-pedagogik eksperiment, ularni maxsus eksperimental sharoitda kuzatish imkonini beruvchi izlanishlar ham tadqiqot metodi deb Yuritiladi.

Bu psixodiagnostik metodlar psixologiyaning turli sohalarida va har xil insonlar faoliyatida qo'llaniladi. Ilmiy psixologiyada bu metodlar asosan eksperimental izlanish va bu jarayonni tashkil qilishda, amaliy psixologiyada esa – psixologik maslahat, psixokorreksiya hamda psixologning kasbiy faoliyatidagi boshqa jabhalarda, masalan, kasbga yo'naltiruvchi malakali mutaxassislar tayyorlashda qo'llaniladi.

To'g'ri tashkil qilingan eksperimentda hamma vaqt ham sinaluvchining u yoki bu psixologik xususiyati taraqqiyot darajasini aniq baholash zarur, chunki o'tkazilgan eksperiment o'rganilayotgan xususiyatga ta'sirini ko'rsatdimi, yo'qmi, bilib olishimiz shart. Yuqorida aytib o'tilgan fikrlar psixologik maslahat va psixologik korreksiya ishlariga ham taalluqlidir. Psixologik maslahat olib borayotgan psixolog mijozdagi har xil psixologik xususiyatlarning taraqqiyot darajasini baholashi shart. Uning bu ishi shifokor mehnatini yodga soladi, ya'ni shifokor bemorning kasalini va muolaja metodini aniqlashda diagnostik ishlar o'tkazadi.

Psixolog ham diagnostika bilan shug'ullanar ekan, avval mijozning psixologik taraqqiyot darajasini tashxislab, so'ngra maslahat va korreksiya ishlarini amalga oshiradi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, biz metodikaning validligi, ishonchliligi, aniqligi, tanlanma to'plam representativligi haqida tushunchalarga ega bo'ldik.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

Psixodiagnostikaning tamoyillari qaysilar?

Psixodiagnost shaxsiga qo'yiladigan talablar haqida nimalarni bilamiz?

Psixodiagnostikaning ma'naviy-axloqiy me'yorlari.

Testlarning turlari, me'yorlari.

Psixodiagnostik tadqiqotlarni o'tkazish.

Metodikaning validligi, validlik turlari, mezonlari.

Metodikaning ishonchliligi.

Metodikaning aniqligi haqida nimalarni bilamiz?

### **FSMU usuli**

<b>Psixodiagnostik metodikalarning validligini aniqlash orqali uning yaroqlilik darajasi namoyon bo'ladi.</b>	
<b>Fikr</b>	
<b>Sabab</b>	
<b>Misol</b>	
<b>Umumlashtirish</b>	
<b>Psixodiagnostik metodikalarning ishonchliligini aniqlash orqali uning sifatililigi namoyon bo'ladi.</b>	
<b>Fikr</b>	
<b>Sabab</b>	

<b>Misol</b>	
<b>Umumlashtirish</b>	

### “Kontseptual jadval”

Psixodiagnostik metodikalar javob berishi kerak bo'lgan psixometrik talablarni izohlang. “TAT” metodikasi misolida sharhlang.

<b>Talabalar</b>	<b>Tavsiflar</b>		
Validlik			
Ishonchlilik			
Reprezentativlik			

#### **Talabalarning mustaqil ta`lim mavzulari:**

1. Validlik va uning turlari
2. Ishonchlilik va uning turlari
3. Tanlanma to'plam representativligi
4. Psixodiagnostik tekshiruvlarga qo'ildigan talablar

## **V. BILISH JARAYONLARI PSIXODIAGNOSTIKASI**

### **Reja:**

- 5.1. Diqqat psixodiagnostikasi.
- 5.2. Diqqat psixodiagnostikasida korrektur sinov va Gorbov Shulte jadvallaridan foydalanish masalalari.
- 5.3. Diqqat psixodiagnostikasi uchun intellekt testlarining ayrim subtestlaridan foydalanish imkoniyatlari.
- 5.4. Xotira psixodiagnostikasi.
- 5.5. Xayolni diagnostika qilish metodlari.

#### **Maqsad:**

Talabalarda diqqat, xotira, xayol diagnostikasi haqida tushuncha hosil qilish.

#### **Vazifa:**

Talabalarda diqqat, xotira, xayol diagnostikasi haqida dunyoqarashini rivojlantirish orqali mutaxassis shaxsini shakllantirish.

#### **Tayanch tushunchalar:**

**Bilish** - psixik aks ettirish jarayoni, bilimlarni egallash va o`zlashtirishni ta`minlaydi, bilishga qiziqish – aqliy intellektual hislar mahsuli, bu odamning tevarak - atrofdagi olamni bilish ehtiyoji tariqasida namoyon bo`ladi.

**Diqqat** - ongimizning muayyan ob`ektga yo`naltirilishi va unda to`planishidan iborat psixik holat. D. ixtiyorsiz, ixtiyoriy va ixtiyoriydan keyingi turlarga ajratiladi.

**Diqqatning barqarorligi** – diqqatning ma`lum obektga uzoq vaqt davomida mutassil qaratilish imkoniyati.

**Diqqatning ko`lami** - bir vaqtning o`zida diqqatning bir qancha ob`ektga qaratilishi imkoniyati.

**Diqqatning taqsimlanishi** – diqqatning bir vaqtda bir necha ob`ektga yoki faoliyatga taqsimlanish xususiyati.

**Diqqatning ko'chishi** – diqqatni ixtiyoriy ravishda bir ob'ektdan ikkinchi ob'ektga ko'chirish.

**Xayol** - mavjud tasavvurlar asosida yangi obrazlarni yaratishdan iborat psixik aks ettirish jarayonlaridan biri. U ixtiyorsiz va ixtiyoriy, ijodiy xayol turlariga ajratiladi.

**Xotira** - aks ettirilgan narsa va hodisalarni, tajribani esda qoldirish, esda saqlash va zarur bo'lganda esga tushirishdan iborat psixik jarayon.

### 5.1. Diqqat psixodiagnostikasi

Shaxsni psixologik o'rganishda eksperimental metodikalar majmui qo'llaniladi (S.Ya.Rubinshteyn (1970); B.V.Zeygarnik (1976); V.M.Bleyxer (1976); E.T.Sokolova (1980); L.F.Burlachuk, S.M.Morozov (1989). Lekin bolalar taraqqiyotini psixologik diagnostika qilish metodlariga bag'ishlangan amaliy tavsiyalar juda kam. (I.A.Sikorskiy, 1901; E.Klapared 1911; K.N.Kornilov, 1921; I.V.Kruk, 1983; A.S.Spivakovskaya, 1988). Pedagogika universitetlari va institutlari talabalari uchun pedagogik faoliyat amaliyotida qo'llash mumkin bo'lgan aniq psixologik metodlarni beradigan o'quv qo'llanmalar yo'q. Psixologiya bo'yicha mavjud o'quv qo'llanmalar esa talabalarni bolalarni psixologik o'rgani metod va metodikalar bilan juda oz darajada tanishtiradi. (V.S.Muxina, 1985; M.V.Gamezo, I.A.Domashenko, 1986).

Ilk bolalik davrining psixodiagnostikasi turli yosh davrlarida bola rivojlanishini baholash imkonini beradigan uning psixik taraqqiyot me'yorlariga mos yoki mos emasligini aniqlash, mavjud me'yordan chetga chiqishlarini aniqlash, uni tuzatishning individual choralarini rejalashtirish va oldini olish bo'yicha vositalar va metodlar majmuidan iborat.

Turli yosh davridagi bolalar guruhini tekshirishda psixodiagnostika metodikalari o'z xususiyatlariga ega. Masalan, chaqaloqlik davridagi bolalarni tekshirishda sensomotor harakatlarni o'rganishga mo'ljallangan metodlar qo'llaniladi: boshini ushlab turishi, predmetlarni ushlashi, o'tirishi, qayrilib qarashi, predmetning orqasidan ko'z bilan qarashi va boshqalar. (A.Anastazi, 1982). 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarni tekshirishda sodda harakatlarni og'zaki qo'llanmalarni bajarishga qaratilgan topshiriqlar beriladi. Qalam va qog'oz, plastilin va boshqa o'quv vositalari qo'llaniladigan topshiriqlar bola katta bo'lgan sayin qiyinlashtirib boriladi.

Bolalarni psixologik tekshiruvda chet el va sobiq ittifoq psixologlari foydalangan an'anaviy metodikalarni ko'rib chiqamiz.

Sensomotor ta'sirlanish va diqqatni o'rganish uchun metodikalar

Insonning sensomotor sohasi asosiy nerv jarayonlari harakatchanligi tipini, ixtiyoriy diqqat darajasini, ishga qobiliyatlilik sur'atini xarakterlaydi. Ma'lumki, bola hayotining dastlabki yillarida jismoniy va ruhiy sifatlarining rivojlanishida sensomotor faollik bosh miya faoliyatida shartli reflektor aloqalarning mustahkamlanishiga imkon beradi (Ya.P.Frumkin, S.M.Livshits, 1979). Ular shu bilan birga temperament, iroda, hissiyot xususiyatlarining hamda bilish psixik jarayonlarining rivojlanishiga yordam beradi (E.A.Golubeva, 1980; E.B.AYurova, 1986).


Masalan, 1-2 yoshli bolalar sensomotor sohasini tekshirishda an'anaviy metodlardan foydalanib, u yoki bu harakat malakalarining qanday shakllanganligiga, ularning ma'lum yosh davridagi o'rtacha ko'rsatkichi qanchalik mosligiga e'tibor beriladi. Ko'pincha bu tadqiqotlar bolalar motor harakat rivojlanishidagi kechikishlarni aniqlashga qaratilgan bo'ladi. Harakat rivojlanishida kechikish mavjudligi keyinchalik bolaning barcha psixik taraqqiyotida kechikish sodir bo'lishining ob'ektiv zamini sifatida qaralishi kerak. Shu bilan birga, erta Yurgan bola o'z tengdoshlarini barcha tomondan qoldirib ketadi, deb faraz qilish ham xatodir. Bola hayotining dastlabki ikki yilidagi umumiy jismoniy taraqqiyot bolaning keyingi aqliy taraqqiyotini belgilamaydi (P.H.Mussen, 1987).

Bolaning sensomotor sohada rivojlanish darajasi haqida uning atrofidagi turli predmetlar, jumladan, o'yinchoqlar bilan harakat qilish xususiyatlari darak berib turadi. O'yinchoqdan diagnostik qurol sifatida foydalanish uning tevarak-atrofidagi hodisalarni bilishga intilishi va faollik darajasi hamda predmetlardan foydalanishda amaliy ko'nikmalarning mavjudligini aniqlash imkonini beradi. Kattaroq bolalarni tekshirishda konkret psixologik metodikalardan foydalanish mumkin. Chunki xuddi shu davrdan boshlab, so'zli topshiriqlarni bajarish bo'yicha

yo‘l-yo‘riqlarni tushuna boshlaydi, unda zarur shaxsiy sifatlar shakllangan, bilishga qiziqish rivojlangan, u kattalar bilan birga eksperimental psixologik tadqiqotlarda nisbatan uzoqroq ishtirok etish holatida bo‘ladi.

### SEGEN DOSKASI

Bu metodika oligofrenopedagogika asoschilaridan biri E.Segen tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, bolaning shakllarni farqlash qobiliyatini aniqlashga, motorika xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan (N.A.Shivarev, 1970). Qattiq qog‘oz kartonga 1-rasmdagi figuralar chiziladi.



1-rasm. Segen doskasi

Keyin ular ehtiyotkorlik bilan qirqib olinadi. Har bir variant bir-biridan murakkabligi bilan ajralib turadi: 1 - doskada 10 ta har xil butun figuralar bor; 2 - doskada 2 ta figura bo‘lib, ularning har biri ikki qismdan iborat; 3 - doskada har biri ikki va uch qismdan iborat 4 ta figura; 4 - doskada ikki qismdan iborat 5 figura.

Bolaga 10 soniya davomida doska ko‘rsatiladi. Keyin doskadagi figuralar stol ustiga tushadigan qilib ag‘dariladi. Eksperimentator ularni aralashtirib, har bir figurani o‘z joyiga qo‘yishni so‘raydi. Tajriba boshida eksperimentator 2-3 namunani ko‘rsatib berishi mumkin. Keyin bolaning o‘zi topshiriqni qanday bajarayotganini diqqat bilan kuzatadi. Bunda bola «sinash va xato qilish» kabi harakatlar qiladimi, figuralarni joyiga qo‘yishda bola qanchalik diqqat-e‘tiborli, buni u qanchalik o‘rganadi, tadqiqotchi shu kabilarga e‘tibor berib, kuzatishi kerak. Birinchi topshiriqni bajargandan so‘ng, keyingi qiyinroq topshiriqqa o‘tiladi. Sinaluvchining har bir topshiriqni bajarish vaqti, uning qilgan harakatlari maxsus qog‘ozga yozib boriladi (3-jadval). Sinaluvchi topshiriqlarni o‘zi bajara olmasa, 1 daqiqadan so‘ng unga yordamlashish mumkin.

3-jadval

#### Figuralarni joylashtirish bo‘yicha topshiriqlarni bajarish qarori

Doska №	Sinaluvchi harakatlari	Ko‘rsatilgan yordam turi	Topshiriqni bajarish vaqti

Bu metodika juda sodda bo‘lib, 3 yoshdan katta bolalarni tekshirishda foydalanish mumkin. Bolalar figuralarni o‘yin deb qabul qilib, bu topshiriqlarni qiziqib bajaradilar.

### P'eron- Ruzer metodikasi

Metodika qurish-yasash xususiyatlari, maqsadga yo‘nalgan ko‘nikmalarni egallash imkoniyatlarini, harakatlarning yangi usullarini o‘zlashtirishni o‘rganishga mo‘ljallangan. Bu metodika yordamida ixtiyoriy diqqat hajmi, uning barqarorligi haqida bilib olish mumkin. Tajriba o‘tkazish uchun 10 qatordan geometrik figuralar chizilgan maxsus qog‘oz varag‘i oldindan tayyorlanadi (1-ilova).

Yuqoridagi to'rtta figuraga turli belgilar qo'yib chiqilib, qog'ozdagi boshqa figuralarga ham xuddi shunday belgilar qo'yib chiqish sinaluvchiga taklif etiladi. U o'z harakatlarini namuna bilan solishtirishi mumkin. Olingan natijalarni tahlil qilish va qayta ishlashda 100 ta figurani chizishga ketgan vaqt, ehtimoli bo'lgan xatolar soni, topshiriqni bajarish xarakterini tahlil qilishda yosh me'yorlarini hisobga olish zarur (4-jadval).

#### 4-jadval

7-8 yoshli bolalar uchun P'eron - Ruzer metodikasi bo'yicha qog'ozni to'ldirish normalari (M.P.Kononova natijalari).

To'ldirish vaqti	Xatolar soni	Sifati(%) ()
1 daqiqa 15 soniya	-	100
1 daqiqa 45 soniya	2	60
1 daqiqa 50 soniya	3	50
2 daqiqa 10 soniya	6	20

Bunda sinaluvchining chalg'iganligi, ishni davom ettirish zarurligi haqida eslatilganligi va hokazolar e'tiborga olinadi.

Diqqatning ko'chishi, uzoq davom etadigan aqliy ishga qobiliyatini o'rganish maqsadida I.V.Kruk (1986) tomonidan taklif etilgan metodikaning o'zgartirilgan variantini qo'llash mumkin. Uning mazmuni quyidagicha: bola 1-qog'ozni to'ldirgandan so'ng, to'ldirish qo'llanmasi o'zgartirilib, 2-qog'oz taklif etiladi; o'sha belgilarni boshqa geometrik figuralarga qo'yib chiqish kerak. Keyin 3-qog'oz ko'rsatiladi: toq qatorlar 1-qog'oz namunasi bo'yicha, juft qatorlarni 2-qog'oz namunasi bo'yicha to'ldiriladi. Olingan natijalar quyidagicha qayta ishlanadi. 1 va 2-chi qog'ozlarni to'ldirish uchun ketgan vaqt orasidagi farq vaqt etishmovchiligi –E ni aniqlash orqali amalga oshiriladi:

$$E=t_1+t_2$$

Bu erda t – qog'ozlarni to'ldirish uchun ketgan vaqt.

Bundan tashqari, xatolar farqi (XF) quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$XF=3K-/IK+2K/;$$

Bu erda k – har bir qog'ozni to'ldirishdagi xatolar.

Xatolar farqi ko'rsatkichi ixtiyoriy diqqat darajasining pastligi, aqliy ish qobiliyati yomonligi mezoni sifatida qaralishi mumkin.

Bolalar bu topshiriqni qiziqib bajaradilar, yaxshiroq natijaga erishishga intiladilar. 5-6 yoshli bolalar qog'ozni to'ldirishni Yuqoridagi 4 ta figuraga qarab bajaradi. 9-10 yoshli o'quvchilar esa 1 daqiqadan so'ng bu ishlarni eslab qolib mustaqil bajaradi.

## 5.2.Diqqat psixodiagnostikasida korrektur sinov va Gorbov Shulte jadvallaridan foydalanish masalalari

Bu metodikadan diqqatning ko'chish va bo'linish xususiyatlarini, sensomotor reaksiyalar tezligini o'rganish uchun foydalaniladi. Sinaluvchilarga 1 dan 25 gacha sonlar ixtiyoriy joylashtirilgan 5 ta jadval ketma - ket ko'rsatiladi (2-ilova).

U sonlarni tartib bilan izlab ko'rsatishi va ovoz chiqarib aytishi kerak. Har bir topshiriqni bajarish vaqti tadqiqot qaroriga yozib boriladi (5-jadval).

Sinaluvchi faoliyatini miqdoriy baholashdan tashqari sensomotor reaksiyalar tezligining sifatini tahlili ham amalga oshiriladi. «Topshiriqni bajarish xususiyatlari» bo'limiga sinaluvchi o'zini qanday tutganligi, verbal va emotsional reaksiyalari yozib boriladi. 6-7 yoshli bolalar uchun bitta jadvalni 1-1,5 daqiqa qarash me'yoriy hisoblanadi, o'rtacha o'quvchilar uchun 45 soniyadan 1 daqiqagacha me'yor hisoblanadi. Katta bog'cha davridagi bolalar va 1-2-sinf o'quvchilari ba'zi



sonlarni chalkashtirib Yuboradilar. 10-12 yoshli bolalar uchun sensomotor reaksiyalar tezligi oshishi, harakatlarning avtomatlashuvi xarakterlidir.

**5-jadval.**

Shult jadvalidan foydalanishda tadqiqot qarori

No jadval	Topshiriqni bajarish xususiyatlari	Vaqt (soniya)

Har bir topshiriqni bajarish xususiyatlari hamda 5 ta jadval bo'yicha olingan natijalarni tahlil qilib, tadqiqotchi nerv jarayonlari o'zgarishini, jismoniy va ruhiy zerikish hodisasini aniqlaydi. Masalan, agar har bir keyingi topshiriqni bajarish vaqti oshib borsa, tez charchash, ixtiyoriy diqqat darajasining susayganligidan dalolat beradi. Bu metodikadan foydalanish bolalarning diqqati xususiyatlarini tajribada o'rganish imkonini beradi.

**Krepelin bo'yicha sanash va hisoblash**

Bu metodikadan murakkab sezgi harakat reaksiyalarini, ish qobiliyatini, ixtiyoriy diqqat barqarorligini, psixik jarayonlar kechishining tezligini aniqlash uchun foydalanish mumkin. Ushbu metodikani qo'llash uchun sinaluvchi bir necha o'nliklar ichida eng sodda arifmetik operatsiyalar – qo'shish va ayirishni bilishi kerak. Krepelin metodikasida sinaluvchiga qo'shilishi va ayrilishi kerak bo'lgan sonlar jufti yozilgan maxsus qog'oz taklif etiladi.

Krepelin bo'yicha hisoblashda, (masalan: 30 da 3 gacha, 100 dan 7 gacha) tadqiqot qarorida to'xtab qolishning uzoqligi va xatolar xarakteri qayd etib boriladi.

Masalan:

30-3.....27.....24.....21.....19\*.....18.....15.....12.....9.....6.....3.....0

Xato hisoblashlar ham hisobga olinib (\*) bilan belgilab qo'yiladi, sinaluvchiga xatolarni to'g'rilash taklif qilinadi. Vaqt nuqta bilan qayd etiladi. Qoidaga ko'ra «nuqta» shartli ravishda 1 soniyaga to'g'ri keladi.

Shuni qayd etish lozimki, bu metodika aqliy ish qobiliyati jadalligini o'rganishga ham mo'ljallangan. Bajarilgan qo'shish va ayirishlar soni ko'pligi aqliy malakaning avtomatlashganidan, diqqatni uzoq vaqt bir narsaga to'play olish qobiliyati mavjudligidan dalolat beradi. Bajarilgan topshiriqlar sonining kamligi, ko'p to'xtab qolish faol diqqatning barqaror emasligidan, psixik tez charchashga moyillikdan dalolat beradi.

**Burdon korrektur sinovi**

Boshlang'ich va yuqori sinf o'quvchilari faol diqqatining xususiyatlarini, uning ko'chishi xususiyatlarini o'rganish uchun B.Bourdonning korrektur sinovi metodikadan foydalanish mumkin. Bu metodika diqqatning tebranishi, ko'rish analizatori uzoq vaqt ishlaganda bir xil ko'ruv qo'zg'atuvchilariga nisbatan sinaluvchining charchashini aniqlashga imkon beradi. Buning uchun P.A.Rudik tomonidan o'zgartirilgan Burdon testi maxsus qog'ozda ko'rsatiladi. Qog'ozda harflar tasodifiy ravishda yozilgan bo'lib, sinaluvchi ularning ikkitasi to'rttasini o'chirishi kerak. Bunda eksperimentator har 30 60 soniyada sinaluvchi qalami turgan joyni belgilab ko'yadi, shu bilan birga barcha topshiriqni bajarish uchun ketgan umumiy vaqt ham hisobga olinadi.

Tajribani bir sinaluvchi ustida individual va guruh bilan o'tkazish mumkin. Tajribani boshlashdan oldin, sinaluvchilarga ko'rsatma beriladi va 1 daqiqa davomida mashq qildirib o'rgatiladi, mashqlardan so'ng sinaluvchi asosiy vazifani bajarishga kirishadi. Tajriba 5 daqiqa davom etadi (3-ilova).

Tadqiqot natijalarini qayta ishlash maxsus qog'oz orqali amalga oshiriladi. Unda o'chiriladigan harflar o'rni va o'chiriladigan harflar soni o'ng tomonda va har bir qatorga o'tganda bu o'chiriladigan sonlarning yig'indisi chap tomonda beriladi. Kalit (blank)ni sinaluvchi qog'oz ustiga qo'yib tadqiqotchi miqdoriy tahlilni osongina olib borishi mumkin.

Korrektur sinovni bajarish natijalari (diqqatning to'planganligi, topshiriqni bajarish tezligi, diqqatning ko'chishi)ni miqdoriy aniqlash mumkin. Diqqatning to'planganlik darajasi (K)ni quyidagi formula yordamida hisoblash mumkin:

$$K = \frac{P_1 - P_2 - P_3}{P} * 100\%$$

bu erda  $p_1$  – to'g'ri o'chirilgan harflar yig'indisi;

$p_2$  – o'chirilmay qolgan harflar yig'indisi;

$p_3$  – noto'g'ri o'chirilgan harflar yig'indisi;

$p$  – o'chiriladigan harflar AMKZ larning umumiy yig'indisi.

Diqqatning to'planish darajasi (K)ni topish uchun umumiy va ishning har bir daqiqasi bo'yicha ( $K_1, K_2, K_3, K_4, K_5$ )larni hisoblash mumkin.

Psixotexnikada diqqatning to'planishi (K)ni sifatiy baholashda quyidagi mezon qabul qilinadi: juda yaxshi – 81–100%, yaxshi – 61–80%, o'rta – 41–60%, yomon – 21–40%, juda yomon – 0–20%.

Topshiriqni bajarish tezligi ko'rsatkichi (A) quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$A = \frac{S}{t}$$

bu erda S – sinaluvchining korrektur jadvalda ishlagan qismi;

t – bajargan vaqti.

Diqqatning ko'chishini o'rganish uchun sinaluvchiga korrektur jadvaldagi toq va juft qatorlardagi har xil harflar to'plamini o'chirish taklif etiladi. Diqqatning ko'chish darajasi (C) quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$C = \frac{S_0}{S} * 100.$$

bu erda  $S_0$  – xato ishlangan qatorlar soni;

S – sinaluvchi jadvalda ishlagan qatorlarning umumiy soni.

Tadqiqot natijalarini grafik tarzida tasvirlash mumkin. Bunda abtsissa o'qiga – ish tezligining o'zgarishi (ma'lum vaqt birligida qarab chiqilgan harflar soni) va ordinata o'qiga aniqlikning o'zgarishi (o'sha vaqt oralig'ida xatolar soni) joylashtiriladi. Bu diqqatning o'zgaruvchanligi xarakterining rivojlanishini kuzatish imkonini beradi. To'g'ri o'chirilgan harflar soniga qarab diqqat barqarorligi darajasi haqida xulosa qilish mumkin. Xatolar qog'ozning hamma erida borligi diqqatning tebranishi haqida ma'lumot beradi. Agar tajriba oxirida xatolar ko'payib ketsa, bu diqqatning umumiy kuchsizligi, ish qobiliyatining sustligidan dalolat beradi. Topshiriqni tez bajarish va xatolarning yo'qligi o'quvchida ixtiyoriy diqqat barqarorligidan dalolat beradi.

Bog'cha yoshidagi bolalarda bu tadqiqotni o'tkazish uchun frantsuz oftalmologi E.Landolt tomonidan korrektur sinovning uzuklarga asoslangan o'zgartirilgan variantini qo'llash mumkin.

Tajriba qog'ozi turli tarafga qaratilgan – uzuklarning tasodifiy to'plamidan iboratdir (4-ilova).

Tajriba va unda olingan natijalarni qayta ishlash, xuddi B.Bourdon jadvali metodikasiday olib boriladi.

### **5.3. Diqqat psixodiagnostikasi uchun intellekt testlarining ayrim subtestlaridan foydalanish imkoniyatlari**

#### **Koss kubiklari**

Bu metodika 1923 yilda S.C.Koss tomonidan taklif etilgan bo'lib, fazoda ish tutish, diqqat, ziyraklik, qurish, yasash xususiyatlarini o'rganishga mo'ljallangan. Bu metodika D.Wechslnerning (1939, 1955) metodikasiga aqlni tekshirish subtesti sifatida kiritilgan. Odatda uni kattalarni

tekshirishda qo'llashadi, lekin bunday topshiriqlarni bolalar ham qiziqib o'ynaydilar. Bolalar berilgan namunaga ko'ra kubiklardan figuralar yasashlari kerak(5-ilova).

Tajriba o'tkazish uchun bir xilda bo'yalgan plastmassa yoki yog'och kubiklar kerak bo'ladi. Kubiklarning kattaligi 3x3 sm, shakli va rangi har xil figuralar chizilgan 10 ta rasm zarur. Sinaluvchi uchun ko'rsatma: «Shunday figurani to'rtta kubikdan yasab ko'r». Rasmning birinchi namunasi ko'rsatiladi va sinaluvchi taklif etilgan figurani kubiklardan yasay boshlaydi.

Kubiklarni rasmning ustiga qo'yib, topshiriqni bajarish man etiladi. Vaqt hisobga olinadi. Topshiriqni bajarishning aniqligiga va uzoqligiga bog'liq ravishda miqdoriy baho qo'yiladi.

Bog'cha yoshidagi va boshlang'ich sinfdagi bolalar topshiriqni bajarishganda ozroq yordam berish mumkin. Bola agar qiynalsa, 1-2 figurani yasab ko'rsatish kerak. Bunda eksperimentator faqatgina yasab ko'rsatmasdan, qurish printsiptini ham tushuntiradi. Figurani yasab bo'lgach, eksperimentator kubiklarni buzib tashlaydi va sinaluvchiga mustaqil kubiklarni yasashni aytadi. Tadqiqot qarorida ko'rsatilgan yordam va bajarilgan vaqt yozib qo'yiladi.

### **Link kubi**

Bu metodika diqqat barqarorligini, ziyrakligini, hissiy reaksiyani aniqlashga imkon beradi. Tajriba o'tkazish uchun 3x3 sm. kattalikda bir xil 27 kichik kubiklardan iborat kub kerak. Kichik kubchalarning tomonlari 3 xil (qizil, yashil, sariq) ranglarga bo'yalgan bo'ladi, ulardan tashqi tomonidan bir xil rangdagi katta kubik yasash mumkin bo'lsin.

Bolaga bir xil rangli kub ko'rsatiladi (masalan, qizil), so'ngra buzib tashlab, xuddi shundayini yana qurish kerakligi aytiladi. Eksperimentator qo'shimcha ravishda bolaga, agar u qizil tomonini ichkarida qoldirsa, unda qizil rang tashqari tomonda etishmasligi aytiladi. Topshiriqni bajarish vaqtida sinaluvchining ziyrakligiga, uquvchanligiga, tez bajarishiga, hissiyotiga ahamiyat beriladi. Bularni hammasi oldindan tayyorlangan tadqiqot qaroriga yozib qo'yiladi. Sinaluvchi qurish usulini qanchalik tez o'zlashtirganligi ham yozib qo'yiladi, uch tomondan ham qizil kubikchani burchaklariga, bitta ham qizil tomoni yo'q kubikni o'rtaga joylashtirish kerak. Sinaluvchi 3-4 kubikni qo'lga olib, qurish usulini yaxshi tushunmagan bo'lsa, unga aytib yordam ko'rsatiladi. Lekin bu bolaning ziyrakligi oz rivojlanganligidan dalolat beradi.

Eksperimentator bola topshiriqni bajarayotganida uning harakatlarini, xatolarini, diqqati xususiyatlarini kuzatib, yozib boradi. Masalan, diqqatdagi xatolar quyidagicha bo'lishi mumkin:

a) bu kubikning joyini to'g'ri aniqlab, sinaluvchi uni noto'g'ri aylantirib Yuboradi, shundan so'ng xatoni to'g'rilash qiyin bo'ladi;

b) o'rtaga ikki tomoni qizil kubik qo'yib qo'yilsa ham shunday xato bo'lishi mumkin, o'rtaga faqat bir tomonida qizil bor kubiklarni qo'yish kerak.

Bu xatolar diqqatning parishonligidan, barqaror emasligidan dalolat beradi. (S.YA.Rubinshteyn, 1970). Bu vazifani bajarishda bolalar ikki usulni qo'llaydilar. Birinchisi, muvafaqqiyatsizroq bo'lib, sinaluvchi navbatdagi joyni to'ldirish uchun kubik izlaydi. Ikkinchi usulda, sinaluvchi har bir kubikni qo'lga olib, uning uchun mos joyni izlaydi. Odatda topshiriqni bajarishni birinchi usul bilan boshlaydilar, lekin birozdan so'ng ikkinchi usul bilan topshiriqni bajarishga kirishadi.

Bolalar kubiklarni qurishga turlicha munosabatda bo'ladilar. Masalan, 3-4 yoshli bolalar qo'llanmani darrov tushunmaydilar va ularning ko'pchiligi topshiriqni bajarishda tartibsiz harakat qiladilar. 6-7 yoshli bolalar bo'lsa, xatolarga yo'l qo'ysalar ham, diqqat bilan, tartibliroq harakat qiladilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ham topshiriqni bajarishda xatoga yo'l qo'yadilar. Lekin ular bu topshiriqni tezroq bajaradilar. 10-11 yoshli bolalar qo'llanmani yaxshi tushunadilar, o'z xatolarini o'zlari tuzatadilar.

### **5.4.Xotira psixodiagnostikasi**

Barcha yoshdagi bolalarda xotira juda kuchli rivojlanadi. Kichik bolalar ham vaqt va fazoni yaxshi farqlay oladilar, so'z boyligi ortib boradi. Bularning barchasi bolaning kattalar bilan, tengdoshlari bilan muloqotga kirishishi natijasida sodir bo'ladi.


Xotiraning rivojlanishi bola bilan ishlashda ta'limning qaysi metodlari ustunligiga, uni o'rab turgan muhit idrok obrazlari bilan qanchalik «boyligiga» bog'liq. Materialning sezgi organlariga ta'sir etishi, idrok xususiyatlarini hisobga olgan holda ko'rish, eshitish, ushlab ko'rib bilish, hid

bilish, ta'm bilish xotiralarini ajratiladi. Materialni esda saqlab qolish va uni qayta esga tushirishga bog'liq ravishda harakat, mexanik, obraz (assotsiativ), mantiqiy, hissiy xotiralarga ajratiladi. Ma'lumotni saqlashning uzoqligiga bog'liq ravishda qisqa muddatli (operativ) va uzoq muddatli xotiralar ajratiladi. Ma'lumotni esda olib qolish, inson tomonidan biror maqsad qo'yilmasdan ixtiyorsiz, o'rganilayotgan materialni esda saqlab qolish uchun maqsad qo'yilganda ixtiyoriy esda olib qolinadi. Umumiy xotira olingan materialni esda saqlab qolish, esda saqlash va qayta esga tushirishdan iborat jarayon bo'lib, bu tarkibiy qismlarni doimo rivojlantirishni talab etadi.

Psixologiyada xotirani o'rganish uchun maxsus metodikalar mavjud.

#### «Qisqa muddatli ko'rish xotirasi hajmini aniqlash»

Bolaga galma-gal quyidagi A va B rasmlar ko'rsatiladi.



Bolaga rasmning A va B qismlari ko'rsatilgandan so'ng unga trafaret shakli taqdim etilib, boladan 2-rasmning har bir qismidagi barcha chiziqlarni ushbu trafaretda ifoda etishi talab etiladi.


Har ikkala tajriba natijalari sifatida xotira orqali to'g'ri qayta esga tushirilgan chiziq deb, namuna sifatida ko'rsatilgan chiziqlardan uzunligi va yo'nalishi jihatidan hech qanday farq qilmaydigan chiziqlar qabul qilinadi (chiziqlardan chetlanish, uning buklanishi, burchaklari saqlangan holda bitta katakdan oshmasligi lozim).

To'g'ri esga tushirilgan chiziqlar soni ko'rish xotirasi hajmining ko'rsatkichi hisoblanadi.


#### «Tezkor ko'rish xotirasini baholash»

Xotiraning ushbu turi masalani echish jarayonida to'g'ri javobni aniqlash uchun kerakli axborotni shaxs qay darajada uzoq muddat xotirada saqlay olishi mumkinligi bilan belgilanadi. Axborotni saqlab turish vaqti, tezkor xotiraning qo'shimcha sifatlariga masalani echish vaqtida bola tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarni ham kiritish mumkin. (Xato deganda masalani echish uchun kerak bo'lgan axborotni saqlay olmaslik kabi xususiyatlar nazarda tutiladi). Bolaning tezkor ko'rish xotirasini va uning ko'rsatkichlarini quyidagi tajriba bilan aniqlash mumkin. Bolaga tartib bilan 15 sekundga mo'ljallangan 6 tadan har xil shtrixlangan uchburchaklar ifodalangan kartochka taqdim etiladi. Bola shunday kartochkadan birini ko'rib bo'lgandan so'ng, bu kartochka olib qo'yilib, o'rniga 24 ta uchburchakni o'z ichiga olgan katta kartochka ko'rsatiladi. Ushbu kartochkada albatta bola hozirgina ko'rgan 6 ta uchburchak ham tasvirlangan.



Vazifaning maqsadi, bola ushbu kartochkadagi 24 ta uchburchakdan avvalgi alohida berilgan kartochkadagi 6 ta uchburchakni qidirib topib, to'g'ri ko'rsatishidan iborat(3-rasm).




I



II





3-rasm.

Ko'rish xotirasi rivojlanish darajasining ko'rsatkichi, masalani echish vaqtidan (daqiqqa hisobida) qilingan xatolar sonini ayirish va ularning yig'indisiga 1 sonini qo'shish bilan aniqlanadi. Bola tomonidan qaysidir sababga ko'ra noto'g'ri ko'rsatilgan uchburchaklar xato deb qaraladi. Bu ko'rsatkich quyidagicha aniqlanadi: har biri 6 ta uchburchakni o'z ichiga olgan 4 ta kartochkadagi to'g'ri topilgan uchburchaklar yig'indisini topib, u 4 ga bo'linadi, bu to'g'ri javoblarning o'rtacha miqdoridir.

Ushbu son 6 dan ayriladi va hosil bo'lgan natija xatolarning o'rtacha sonini ifodalaydi. Shundan so'ng bolaning vazifani echish uchun sarflagan o'rtacha vaqti barcha vazifalarni echish uchun sarflagan umumiy vaqtini 4 ga bo'lish orqali aniqlanadi. Bolaning 24 ta uchburchakni kartochkadan to'g'ri topishi uchun sarflayotgan vaqtining oxirini bilish uchun tekshiruvchi: «Sen qo'lingdan kelganicha vazifani echib bo'ldingmi?» degan savolni beradi. Bola berilgan savolga to'liq ishonch bilan javob berib, uchburchaklarni qidirishni to'xtatsagina u o'z ishini yakunladi, deb hisoblanadi. Bolaning umumiy (24 talik) kartochkadagi 6 ta uchburchakni topish uchun sarflagan o'rtacha vaqt u tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar soniga bo'linsa, qidirilayotgan ko'rsatkichni qo'lga kiritish imkoniyatiga ega bo'linadi.

Bolaning umumiy (24 uchburchakli) kartochkadan uchburchaklarni to'g'ri yoki noto'g'ri topganligi to'g'risidagi axborotni aniqlash jarayonining tezligini oshirish uchun 24 uchburchak har birining chap burchagi ostiga birin-ketin raqamlab chiqish bilan erishiladi. Masalan, birinchi 6 ta uchburchakli kartochkaga (kartochka raqami rim raqami bilan 6 tadan belgilangan). Umumiy (24 uchburchakli) kartochkadagi;

1,-3,-8,-12,-14,-16- uchburchaklar birinchisiga;  
2,-7,-15,-18,-19,-21- uchburchaklar ikkinchisiga;  
4,-6,-10,-11,-17,-24- uchburchaklar uchinchisiga  
5,-9,13,) ko'rsatkichlarini 10 balli shkala orqali standart ko'rsatkichlarga o'tkazish uslubini taqdim etish mumkin.

### **Natijalarni baholash.**

10 ball 8 yoki undan Yuqori birlikdan iborat qisqa muddatli xotira hajmiga ega bo'lsa, bu hol 10–12 yoshli bolalarga tegishlidir.

Shunday 10 ballni qisqa muddatli xotirasi 7-8 birlikni tashkil etgan 6–9 yoshli bolalar ham qo'lga kiritadilar.

8 ballni 6–9 yoshli bolalar 5-6 ta birlikni eslab qolsalar qo'lga kiritadilar.

10–12 yoshli o'quvchilar esa, qisqa muddatli xotira hajmida 6-7 birlikni esda qoldirishlari kerak.

6–9 yosh bo'lgan, qisqa muddatli xotira hajmi, 3–4 birlikni tashkil etgan o'quvchilar 4 ball oladilar. Shuncha ballni yoshi 10–12 da bo'lgan, qisqa muddatli xotira hajmi 4-5 birlikni tashkil etgan o'quvchilar ham oladi.

2 ball 6–9 yoshli bolalarga, agarda ularning qisqa muddatli xotira hajmi 1-2 birlikdan iborat bo'lsa beriladi. Shuncha ballga yoshlari 11-12 da bo'lgan bolalar qisqa muddatli xotira hajmi 2-3 birlikdan iborat bo'lsa, ega bo'ladilar.

0 ball bilan 6–9 yoshli, ko'rsatkichlari nolga teng bo'lgan bolalar baholanadi. Shu ball 10–12 yoshli qisqa muddatli xotira hajmining 0-1 birligiga ega bo'lgan bolalarga beriladi.

### **Rivojlanish darajasi haqida xulosalar**

6–7 yoshli bolalarning qisqa muddatli xotirasi hajmining baholari asosida maktabda o'qishi uchun tayyorligi haqida xulosalar quyidagicha chiqariladi:

Maktab ta'limi uchun to'liq tayyorlangan va qisqa muddatli xotirasi hajmi yaxshi rivojlangan deb, 10 ball to'plagan bolalar qabul qilinadi.

Maktab ta'limi uchun umumiy tayyorlangan va qisqa muddatli xotira hajmi o'rtacha rivojlangan deb 8 ball to'plagan bolalar tan olinadi.

Qisqa muddatli xotira hajmi 4 balli bolalar o'qitish uchun to'liqsiz tayyorlangan deb hisoblanadilar.

Qisqa muddatli xotira hajmi 2 balli bo'lgan bolalar maktab ta'limi uchun tayyor emas, deb xulosa chiqariladi.

Va nihoyat, qisqa muddatli xotira hajmi 0 ga teng bo'lgan bolalar umuman maktabda o'qitishga tayyor emas deb hisoblanadi.

### **«Eshitish xotirasini baholash»**

Bu xotira turini aniqlash uchun bolaga 1 sekund oralig'ida 4 ta so'zlar to'plami ketma-ket o'qib beriladi.

I. Oy, daraxt, sakramoq, sariq, qo'g'irchoq, sumka;

II. Gilam, stakan, suzmoq, og'ir, kitob, olma;

III. Divan, hazillashmoq, palto, telefon, sanchqi, dovYurak;

IV. Maktab, odam, uxlamoq, qizil, daftar, gul.

Shu so'zlar to'plamini eshitib bo'lgandan so'ng, sinaluvchiga taxminan sekund o'tgach, keyingi 36 ta so'zlar to'plami shoshilmay, har bir so'z 1 sekunddan oraliq bilan o'qib eshittiriladi.

Stakan, maktab, sanchqi, tugma, gilam, oy, stul, odam, divan, sigir, televizor, daraxt, qush, uxlamoq, dovYurak, hazillashmoq, qizil, oqqush, surat, o'g'ri, suzmoq, to'p, sariq, sakramoq, daftar, palto, kitob, gul, telefon, olma, qo'g'irchoq, sumka, ot, etmoq, fil, uy.

Bu 36 ta so'z to'plami tasodifiy ketma-ketlikda barcha qatordagi so'zlardan iborat. Har bir to'plamdagi so'zlarni farqlash uchun ular turli chiziq bilan belgilanadi.

1-to'plamdagi so'zlar tagiga 1 ta to'g'ri chiziq chizilgan; 2-so'zlar to'plamiga 2 ta to'g'ri chiziq chizilgan; 3-so'zlar to'plamiga bitta uzun chiziq va oxirgi 4-so'zlar to'plamiga ikki qator uzun chiziq chizilgan.

Bola eshitgan 36 ta soʻz ichida qisqa toʻplamdagi soʻzlar bor yoʻqligini topib, bor boʻlsa «ha», boʻlmasa «yoʻq» deb javob berish kerak. Katta toʻplamdagi soʻzlardan kichik toʻplamni topishi uchun bolaga 5 sekund vaqt beriladi. Agar farqlay olmasa, tadqiqotchi keyingi soʻzga oʻtib ketadi.

#### Baholash natijalari

Tezkor eshitish xotirasi koʻrsatkichi katta toʻplamdan 6 ta soʻzni topishi uchun ketgan oʻrtacha vaqtga qarab aniqlanadi. Oʻrtacha vaqtni topish uchun bola topshiriqni bajarishga sarflagan umumiy vaqt 4 ga boʻlinadi.

Oʻrtacha vaqtni xatolar soniga boʻlib, 1 qoʻshilsa, operativ eshitish xotirasi hajmi aniqlanadi. Notoʻgʻri topilgan topa olinmagan soʻzlar xato hisoblanadi.

### «Bevosita xotirani diagnostika qilish»

Metodikani oʻtkazish uchun qogʻoz va ruchka kerak boʻladi.

Tadqiqot oʻtkazishdan avval bolaga quyidagicha koʻrsatma beriladi:

«Hozir men senga turli xil soʻz va gaplar aytaman hamda bir toʻxtalib olaman. Sen mana shu toʻxtalgan vaqtimda aytgan soʻz gaplarimni eslab qolib uni qogʻozga yozishing, rasmini chizishing kerak boʻladi.

Tezroq yozishga, chizishga harakat qil. Men aytadigan soʻzlar koʻp, vaqtimiz esa oz».

Bolaga birin-ketin quyidagi soʻz va iboralar aytib beriladi. «Uy, tayoq, daraxt, balandga sakrash, quyosh nur sochmoqda, quvnoq odam, bolalar toʻp oʻynashayapti, soat toʻxtab qoldi, qayiq daryoda suzyapti, mushuk baliq emoqda».

Tadqiqotchi har bir soʻz yoki soʻz birikmasini aytib boʻlgandan soʻng 20 sekund tanaffus qiladi. Shu vaqt ichida bola aytilganlarni yozishi, chizib olishi kerak.

Agar bu vaqt ichida bola topshiriqni bajarishga ulgurmasa, tadqiqotchi uni toʻxtatib qoʻyib, navbatdagi soʻzni oʻqiydi. Tajriba tugagandan soʻng, boladan qogʻozga chizilgan rasm yoki yozilgan soʻzlardan foydalanib, soʻz va soʻz birikmalarini aytib berishi soʻraladi.

#### Natijalar tahlili:

1 ball — oʻz chizmalari va yozuvlaridan foydalanib, aytilgan soʻzlarni toʻgʻri va xatosiz esga tushira olsa;

0,5 ball – chizgilari, yozgan narsalariga asoslanib, berilgan soʻzga yaqinroq soʻzni esga tushirsa;

0 ball – notoʻgʻri esga tushirilsa.

Umumiy maksimal koʻrsatkich – 10 ball

Bu ballni bola barcha aytilgan soʻzlarni toʻgʻri, toʻliq esga tushirsa toʻplay olishi mumkin.

Minimal koʻrsatkich – 0 ball.

#### Rivojlanish darajasi haqida xulosa

10 ball – bevosita eshitish xotirasi juda Yuqori darajada rivojlangan.

8-9 ball – bevosita eshitish xotirasi Yuqori darajada rivojlangan.

4-7 ball – bevosita eshitish xotirasi oʻrtacha darajada rivojlangan.

2-3 ball – past darajada rivojlangan.

0-1 ball – kuchsiz rivojlangan bevosita eshitish xotirasiga ega.

### «Esda qoldirish jarayonining dinamik xususiyatlari»

Bolaga 10 ta soʻzdan tarkib topgan qator bir necha marta qaytarish orqali eslab qolish uchun tavsiya etiladi.

Har bir takrorlashdan soʻng, bola tomonidan eslab qolingan soʻzlar soni aniqlanadi.

Quyidagi soʻzlar qatorining birortasidan foydalaniladi:

1. Uy, parta, oq, yaxshi, nok, boʻr, kuchli, piyola, sham, stol.

2. Mushuk, ruchka, qizil, yomon, olma, pol, kuchsiz, sanchqi, chiroq, qalam.

3. Qoʻgʻirchoq, qoshiq, qizil, mashina, baland, choʻtka, ona, kitob, tovuq, anor.

4. It, deraza, gul, gilam, konvert, osmon, harf, uyqu, quyi, pichoq.


5. Soat, shamol, baliq, yulduz, fil, qand, qogʻoz, stul, arqon, shaftoli.



*Eslatma: Bolalarning esda qoldirish dinamikasini diagnostika qilishda, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar uchun soʻzlar qatorini shunday tuzish kerakki, birinchi soʻz ikkinchi soʻzga, ikkinchi soʻz uchinchisiga aloqador, maʼnodosh boʻlmasligi lozim.*

Bolaning eslab qolishi va qayta aytib berishi uchun tadqiqotchi soʻzlar qatorini 6 marta qaytarishi mumkin (undan koʻp emas).

Har bir qaytarishdan soʻng toʻgʻri va xatosiz eslab qolingan soʻzlarni belgilab borib, grafikda aks ettiriladi.



4-rasm.

Grafik asosida:

- Eslab qolish dinamikasi,
- Eslab qolish mahsuldorligi aniqlanadi.

Grafikda har bir takrorlashdan soʻng eslab qolgan soʻzlarining soni ortib borsa – eslab qolish dinamikasi yaxshiligini bildiradi.

Agar koʻrsatkich oʻzgarmasa, oʻrtacha darajadagidan dalolat beradi.

Agar har bir takrorlashdan soʻng ham eslab qolgan soʻzlar soni kamayib borsa, bu eslab qolish dinamikasining sustligini bildiradi.

### **Natijalar tahlili**

Olingan natijalar boʻyicha bolaning eslab qolish dinamikasi quyidagicha baholanadi: etarli darajadagi yaxshi dinamik esda qoldirish jarayoni – aʼlo.

Esda qoldirish oʻrtacha dinamik jarayoni – qoniqarli.

Esda qoldirish dinamik jarayon emas – qoniqarsiz. Shuningdek, bu jarayon quyidagi ballar mezonini boʻyicha ham baholanadi.

10 ball — bola 10 ta soʻzni xatosiz toʻgʻri eslab qolib, ayta olgan va bunga 6 marta takrorlash shart boʻlmagan.

8-9 ball – 6 marta takrorlashdan soʻnggina 10 ta soʻzni toʻgʻri eslab qolsa.

6-7 ball — 6 marta takrorlashdan soʻng 7–9 ta soʻzni esda qoldirsa.

4-5 ball – 6 marta takrorlashdan soʻng 4–6 tagacha soʻzni eslab qolsa.

2-3 ball – 6 marta takrorlashdan soʻng faqat 2-3 ta soʻzni eslab qolib aytsa.

0-1 ball – 6 marta takrorlashdan soʻng ham 1 ta soʻzni eslasa umuman esda qoldira olmasa.

### **Rivojlanish darajasi haqida xulosa**

8-10ball – bola maktab ta'limiga tayyor, uning esda qoldirishi Yuqori va o'rtacha dinamiklikka ega.

4-7 ball – o'qishga etarli darajada tayyor emas.

0-3 ball – umuman maktab ta'limiga tayyor emas.

### Meyli testi yordamida ko'rish va eshitish xotirasini o'rganish

R.Meili testi 1961 yilda ishlab chiqilgan bo'lib, 7–14 yoshli bolalar va kattalarning ko'rish va eshitish xotirasini o'rganishda foydalaniladi. Tadqiqot ikki bosqichdan iborat (6-jadval).

Birinchi bosqichda rasmda tasvirlangan predmetlarni xotirada olib qolish va ko'rish xotirasi o'rganiladi. Ikkinchi bosqichda tadqiqotchi o'qib bergan so'zlarni – predmetlarning nomlarini eshitib, esda olib qolish qobiliyati o'rganiladi. Bu tadqiqotlar bir kunda o'tkazilmaydi, bu esa xotiraning o'rganilayotgan xususiyatlarini yaxshilab tahlil qilishga imkon beradi.

Tajriba o'tkazish uchun turli predmetlar tasvirlangan 60 ta so'zlar to'plami – 2 - qatorda kerak bo'ladi. Ko'rish xotirasi o'rganilayotganda quyidagi qo'rsatma beriladi: «Hozir men sizga turli predmetlar tasvirlangan rasmlarni ko'rsataman, siz ularning nomini istalgan tartibda aytasiz». Rasmlarning har biri 2 soniya ko'rsatiladi. 10 soniya tanaffusdan so'ng sinaluvchi predmetlarni aytadi. Eksperimentator to'g'ri aytilgan predmetlarni ham, rasmda yo'q bo'lgan qo'shib qo'yilgan predmetlarning nomini ham yozib boradi. Rasmlarning 2-seriyasini boshqa kuni, so'zlar qatori bo'yicha tajribalar ham boshqa kunlari o'tkaziladi.

*6-jadval*

Meyli testi uchun qo'zg'atuvchi material  
tadqiqot bosqichlari

1 - bosqich		2 - bosqich	
Rasmlarning 1-seriyasi	Rasmlarning 2-seriyasi	So'zlarning 1-qatori	So'zlarning 2-qatori
no'xat	chig'anoq	karton	jadval
eshak	krovat	vagon	hafta
kalit	truba	dehqon	so'm
arava	nok	pianino	qarg'a
qo'ng'iroqcha	supurgi	botinka	fleshka
stol	echki	karta	ari
olcha	buket	tepalik	ko'zoynak
etik	tramvay	ushoq	suv
vilka	arra	pero	ovchi
baliq	stul	ko'mir	qo'y
bochka	bola	olmaxon	bulut
bosh	bolg'a	qurol	terak
bufet	shisha	yigitcha	qalam
atirgul	g'ildirakli arava	nok	velosiped
parovoz	taroq	dasturxon	botinka
kreslo	zambarak	sho'rva	echki
bayroq	daraxt	plash	salon
xo'roz	olma	mushuk	sohil
qaychi	kitobcha	pichoq	burun
zontik	shlyapa	bosma qog'oz	po'kak
vaza	uy	sirka	mehmonxona
sigir	it	gul	sovun
divan	skameyka	mehnat	ilon
kaptar	eshik	osmon	tova
soat	piyola	gugurt	qush

qariya	daryo	siyoh	salat
ko'zoynak	pech	qulf	raketa
chiroq	skripka	qul	nonushta
oyoq	papiros quti	daraxt	qor
pianino	ot	yong'in	truba

Eshitish xotirasini o'rganish bo'yicha tadqiqot ham shunday o'tkaziladi. Sinaluvchiga quyidagi qo'rsatma beriladi: «Hozir sizga so'zlar qatorini o'qib beraman, siz esa eshitib bo'lganingizdan so'ng, ularni istalgan tartibda menga aytib berasiz». Tadqiqotchi tadqiqot qaroriga sinaluvchi aytgan barcha so'zlarni – takrorlaganlarini ham, yo'q so'zlarni qo'shib qo'rganlarini ham yozib boradi. Olingan natijalar foizlarda miqdoriy o'lchash orqali tahlil qilinishi mumkin.

### **Ko'rib esda olib qolingan narsani qayta tiklash**

Ko'rish xotirasi xususiyatlarini D.Wechsler (1945) taklif etgan metodika yordamida o'rganish mumkin. Bu metodika xotira shkalasini o'rganish subtestlaridan biridir. Sinaluvchiga turli geometrik figuralar tasvirlangan rasmlarga qarash taklif etiladi (6-ilova). Har bir rasm sinaluvchiga 10 soniya ko'rsatiladi. Keyin sinaluvchi toza oq qog'ozga ko'rgan narsasini qayta esga tushirib, chizishi kerak. Tajriba natijalarini miqdoriy tahlil qilish mumkin.

Figura A: 1) ikki kesishgan chiziq va ikki bayroq – 1 ball; 2) to'g'ri joylashtirilgan bayroq – 1 ball; chiziqlar kesishganda to'g'ri burchak – 1 ball. Eng Yuqori baho – 3 ball.

Figura B: 1) katta kvadrat ikkita diametri bilan – 1 ball; 2) katta kvadrat 4 kichik kvadrat – 1 ball; 3) ichki diametr barcha ichki kvadratlar bilan – 1 ball; 4) kvadratchalardagi 4 ta nuqta – 1 ball; 5) aniq taqsimlanganlik – 1 ball. Sinaluvchi olishi mumkin bo'lgan eng Yuqori baho – 5 ball.

Figura V: 1) ochiq to'g'ri to'rtburchak – 1 ball; 2) markaz va o'ng chap tomon to'g'ri esga tushirilgan – 1 ball; 3) bir noto'g'ri chizilgan qismni hisobga olmaganda, figura umuman to'g'ri – 1 ball; 4) figura to'g'ri esga tushirilgan – 1 ball; eng Yuqori baho – 3 ball.

Figura G: 1) katta to'g'riburchak ichida kichik to'g'riburchak – 1 ball; 2) ichki to'g'riburchakning hamma uchlari tashqi to'g'riburchak uchlari bilan birlashtirilgan – 1 ball; 3) kichik to'g'riburchak katta to'g'riburchakda aniq joylashtirilgan – 1 ball; eng Yuqori baho – 3 ball. Eng Yuqori natija – 14 ball.

Bu metodikadan maktabgacha ta'lim muassasalarining katta va tayyorlov guruhi bolalarini hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarini tekshirishda foydalanish mumkin. Bu topshiriqlarni bajarganlaridan so'ng bolalarning nafaqat geometrik figuralarni xotirada olib qolish va uni esga tushirish qobiliyatlari haqidagina emas, balki xotira bo'yicha rasm chizish malakalarining shakllanganligi, sensomotor faoliyat holati haqida ham bilib olish mumkin.

### **Bentonning ko'rish xotirasini o'rganish testi**

Bu testni A.L.Benton (1952) turli shakldagi rasmlarni ko'rib esda olib qolish xususiyatlarini o'rganish uchun ishlab chiqqan. Sinaluvchiga ko'rsatiladigan rasmlar 3 guruhga birlashtirilgan. Barcha guruhlar o'zaro teng. Ularning har biri 10 ta namuna kartochkalaridan tuzilgan. Kartochkalarda bir nechta oddiy geometrik figuralar aks ettirilgan (7-ilova).

Har bir kartochka 10 soniya ko'rsatiladi. Kartochkalar ko'rsatilgandan so'ng ularda chizilgan figuralarni esga tushirib chizish taklif etiladi. Olingan natijalar miqdoriy va sifatli tahlil qilinadi. Sinaluvchi to'g'ri chizgan figura – 1 ball bilan, noto'g'ri chizilgan figura – 0 ball bilan baholanadi. Tadqiqot natijalarining umumiy bahosi faqatgina ko'rish xotirasining holati haqidagina emas, balki aqliy taraqqiyot darajasi haqida ham bilishga imkon beradi.

### **Tovushlarni eslab qolish uchun o'tkaziladigan sinovlar**

Ma'nosiz so'zlarni esda olib qolish uchun o'tkaziladigan sinovlar mexanik xotira hajmini o'rganishga qaratilgan. Tajriba quyidagicha o'tkaziladi: sinaluvchiga alohida qog'ozga yozilgan tovushlar aytiladi (7-jadval), keyin istalgan tartibda esga tushirish so'raladi.

#### **7-jadval**

Tadqiqot natijalarini qarorga qayd qilish sxemasi

Sinaluvchi F.I	yoshi	sinf
Samira N.	11,5 yosh	5-sinf o'quvchisi
sana	5.05.2013	
vaqt	10-00	

Qo'zg'ovchi material	Ko'rsatishlar soni									
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1-seriya										
na	-	-	-	-	-	-				
ko		-			-	-				
la			-	-		-				
ra	-		-	-	-	-				
tu			-	-	-	-				
ma		-	-	-	-	-				
no	-			-	-	-				
zi	-		-	-	-	-				
nu				-	-	-				
la		-	-			-				
Aytilgan «ortiqcha» tovushlar	si		ru da							
Esga tushirilgan tovush	3	5	7	7	8	10				
2-seriya	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
salom	-	-	-	-	-					
doli				-	-					
kozim	-		-							
mira		-		-	-					
nulim		-	-		-					
kiryam	-		-	-	-					
vokar	-		-	-	-					
torik		-			-					
siza		-		-	-					
viga					-					

Aytilgan «ortiqcha» so'zlar										
Esga tushirilgan so'zlar soni	4	5	6	6	9					

Avval 1-seriyadagi qo'zg'atuvchi material – 10 ta bir bo'g'indan iborat tovushlar o'qib beriladi va sinaluvchidan ularni takrorlash so'raladi, keyin bu tovushlar yana o'qib beriladi. Tadqiqot qarorida barcha tovush birikmalari qayd etiladi. Navbat bilan har bir ko'rsatishdan so'ng jadvalda aytilgan so'z birikmalari va tovushlar qayd etiladi. Ikki seriyani o'tkazish uchun o'rtacha 12 daqiqa vaqt kerak bo'ladi.

#### Eslab qolish uchun sinov

10 ta so'zni eslab qolish uchun diqqat barqarorligini aniqlashda sinov o'tkazish mumkin. Bu metodikadan katta bog'cha yoshidagi bolalar va kichik maktab o'quvchilari xotirasini aniqlashda foydalanish mumkin. Tajriba o'tkazish uchun bir qatorga yozilgan 10 ta so'z kerak bo'ladi. So'zlar shunday tanlangan bo'lishi kerakki, ular orasida aloqa o'rnatish qiyin bo'lsin.

Eslab qolinadigan so'zlar

№1	№2
----	----

Togʻ	Oʻrmon
Arra	Non
Atirgul	Deraza
Sovun	Stul
Non	Suv
Oyoq	Aka
Pero	Ot
Koʻzoynak	Qoʻl
Divan	Asal
Daryo	Bolgʻa

Tajribani boshlashdan oldin sinaluvchiga quyidagi koʻrsatma beriladi: «Hozir sizning eslab qolish qobiliyatingizni tekshirmoqchiman. Buning uchun men sizga soʻzlarni oʻqib beraman. Keyin siz esda olib qolganlaringizni aytasiz». Bunda oldindan tayyorlab qoʻyilgan tajriba qarorida sinaluvchi aytgan soʻzlar yozib olinadi (8-jadval).

### 8-jadval

10 ta soʻzni eslab qolish va uni qayta esga tushirish boʻyicha tadqiqot qarori  
 Sarvar N. 11 yosh 4-sinf  
 sinaluvchi F.I. yoshi oʻquvchisi  
 20.03.2013 y 11-20  
 sana vaqt

Qoʻzgʻatuvchi soʻzlar	Koʻrsatishlar soni										1 soat 40 daqiqada esga tushirilgan soʻzlar
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	
Togʻ	-	-	-	-							-
Arra	-			-							-
Atirgul		-	-	-							-
Urugʻ	-			-							-
Deraza		-	-	-							-
Non			-	-							-
Pero			-	-							-
Koʻzoynak	-		-	-							-
Palʻto		-		-							-
Daryo	-	-	-	-							-
Aytilgan «ortiqcha» soʻzlar											
Esga tushirilgan soʻzlar soni											

Tajriba qarorida sinaluvchi «mustaqil» aytgan soʻzlar ham qayd etiladi. Bir qayta esga tushirish bosqichi davomida «ortiqcha» soʻzlarni va takrorlashlarni hisobga olgan holda esga tushirilayotgan soʻzning tartib raqami boʻyicha necha marta takrorlanganligini hisoblash mumkin. Navbatdagi koʻrsatishlarda sinaluvchidan oldingi aytilgan soʻzlarni ham, hozirgi aytilgan soʻzlarni ham qayta esga tushirish soʻraladi. Tajriba oʻtkazish uchun oʻrtacha 5–7 daqiqa vaqt ketadi.

### Bavosita eslab qolish metodikasi

Bavosita esda olib qolish metodikasi yordamida (A.N.Leontev, 1928) faqatgina assotsiativ, mantiqiy xotirani emas, tafakkur xususiyatlarini ham aniqlash mumkin. Tadqiqotchi sinaluvchi eslab qolishi uchun beriladigan 10–15 ta soʻzni (9, 10 - jadval) hamda 20–30 ta rasmlı kartochkalar toʻplamini tanlaydi. Rasmlar soʻzlarnı bevosita aks ettirmaydigan qilib, mustaqil tanlanishi mumkin.

### 9-jadval

5–7 yoshlı bolalar uchun bavoşita esda olib qolish metodikasida ishlatiladigan qoʻzgʻovchi material

Sinaluvchi eslab qolishi uchun aytiladigan soʻzlar			Har xil bevositalikni ifodalaydigan rasmlar				
Tushki ovqat	Yorugʻ	Qush	Son	Karovat	Pichoq	Divan	Olma
Bogʻ	Kiyim	Oʻqish	Hona	Daraxt	Maktab	binosi	Shkaf
Yoʻl	Tun	Stul	Hiroq	Idish	Soat	Sigir	Koʻylak
Dala	Xato	Oʻrmon	Velosiped	Qulupnay	Qalam	Mushuk	Avtomobil
Tut	Ot	Sichqon	Uycha	Divan	Samokat	Aravaha	Xaskash

Katta bogʻcha yoshidagi va kichik maktab yoshidagi bolalarnı tekshirish uchun turli seriyalarda har xil soʻzlar va rasmlar tanlanishi zarur: birinchi seriyada ular ancha aniq boʻlishi kerak, ikkinchi seriyada mavhumroq boʻlishi ham mumkin. Rasmlarning hajmi bir xil va boʻyalgan boʻlishi kerak.

Maktabga chiqishidan oldin bolalarning xotirasini tezda aniqlash maqsadida bu metodikaning L.N.Poperechnaya (1979) tomonidan oʻzgartirilgan variantidan foydalanish mumkin. Uning mazmuni: qoʻzgʻatuvchi materialni oʻzgartirish, hajmini qisqartirishdan iborat. Bunda 15 ta soʻz va 25–30 rasm oʻrniga 5 ta soʻz va 16 ta rasm beriladi. Tajribani boshlashdan oldin tadqiqotchi bola bilan birgalikda hamma rasmlarnı qarab chiqadi, bolaga tushunarsiz rasmlarnı izohlab beradi. Keyin bolaga quyidagi koʻrsatma beriladi:

### 10-jadval

8–12 yoshlı bolalar uchun bavoşita esda olib qolish metodikasida ishlatiladigan qoʻzgʻovchi material

Sinaluvchi esda olib qolishi uchun oʻqib beriladigan soʻzlar	Har xil bavoşitalikni ifodalaydigan rasmlar
yomgʻir      janjal      uchrashuv javob      yongʻin      mehnat gʻam          oʻyin          majlis kuch          ertalab      qoʻshni teatr          telefon      bayram	Dasturxon, ot, stul, bolta, telefon, daftar, lampochka, pat, qalam, gul, belkurak, shapka, xaskash, daraxt, samolyot

### 11-jadval

Bavosita eslab qolish metodikasining oʻzgartirilgan varianti uchun qoʻzgʻatuvchi material

Sinaluvchi esda olib qolishi uchun oʻqib beriladigan soʻzlar	Har xil bavoşitalik imkonini beradigan rasmlar
yongʻin yomgʻir mehnat xato gʻam	oshxona, asbob, maktab doskasi, taroq, quyosh, globus, koʻza, xoʻroz, devor, bolalar ishtoni, ot, koʻcha chirogʻi, botinka, soatlar, qalam, zavod trubalari, non doʻkoni

«Hozir sizlarga soʻzlarni oʻqib beraman, siz esa ularni yaxshiroq eslab qolish uchun ularga mos rasmlarni tanlaysiz. Bu rasmlar keyinchalik soʻzlarni qayta esga tushirishga yordam berishi zarur». Birinchi «yongʻin» soʻzi beriladi. Agar bola 15 soniya davomida ishga kirishmasa, u koʻrsatmani yaxshi tushunganligini aniqlash kerak. Koʻrsatma yana takrorlanadi. Agar 20-30 soniyadan keyin bola topshiriqni bajarishga kirishmasa, tadqiqotchi tushuntira boshlaydi: «Siz «yongʻin» soʻzini esga tushirishga yordam beradigan rasmi kartochkani tanlashingiz zarur. Qanday rasm yongʻinni, tutun chiqayotganini eslatishini qarab chiqamiz. Mana masalan, bu erda zavod trubalari, tutun Yuqoriga chiqayotgani tasvirlangan. Bu rasm sizga «yongʻin» soʻzini eslab qolishga yordam beradimi?». Bola tasdiqlab boshini silkiydi va qanday eslab qolish kerakligini tushunganligini aytadi. Keyin tadqiqotchi keyingi soʻzni aytadi, sinaluvchi boʻlsa zarur kartochkani tanlaydi. Kartochkani tanlash uchun 30 soniyagacha vaqt beriladi. Koʻpincha bolalar tezroq tanlashadi. Har bir tanlashdan soʻng, tadqiqotchi bolani nima uchun xuddi shu rasmni tanlaganini, u aytilgan soʻz bilan qanday bogʻlanganligini soʻraydi.

Hamma soʻzlar aytilib, ularga mos rasmlar tanlanganidan keyin, eksperimentator ularni bir chetga olib qoʻyib, bolaga xotirani oʻrganish boʻyicha boshqa topshiriq beradi, masalan kubiklardan figura yasash. 15 yoki 30 daqiqadan soʻng, unga soʻzlarni eslab qolish uchun tanlangan rasmlar koʻrsatiladi. Bola eslab qolgan soʻzni aytishi kerak. Bunda u yoki bu rasm xotirada qanday bogʻlanishlarni hosil qilishini aniqlash zarur.

Tadqiqot jarayonida tajriba qarori toʻldirib boriladi (12-jadval).

## *12-jadval*

### Bavosita eslab qolish tajribasining qarori

Eslab qolish uchun berilgan soʻzlar	Rasmni tanlash vaqti (soniya)	Rasmni tanlash motivi	Qayta esga tushirish

Turli yordamchi vositalardan foydalanib toʻgʻri qayta esga tushirilgan soʻzlar bolada eslab qolish qobiliyatining kuchli rivojlanganligidan dalolat beradi (A.N.Leontev, 1928).

### **Piktogramma metodi**

Bevosita eslab qolish xususiyatlarini piktogramma, ya'ni rasmi assotsiatsiyalar metodi orqali ham oʻrganish mumkin. Piktogramma eksperimental-psixologik tadqiqot usuli sifatida birinchi marta L.V.Zankov (1935) tomonidan qoʻllanilgan. Sinaluvchi aniq soʻzni rasmdagi tasvir orqali eslab qolishi kerak. Sinaluvchi soʻz va tasvir oʻrtasidagi aloqani oʻylab topishi kerak, bu esa keyinchalik soʻzni qayta eslashiga imkon beradi.

Rasm va soʻz oʻrtasidagi assotsiativ aloqani shakllantirish jarayonida inson shunday mazmunli aloqalarni tanlaydiki, uning fikricha, bu rasmlar soʻzni eslab qolish uchun yaroqli boʻladi. (A.R.Luriya, 1967). Shuning uchun ham bu metodika orqali tadqiqot oʻtkazish faqatgina assotsiativ, bevosita xotira xususiyatlarinigina emas, fikrlash faoliyati xarakteri, mantiqiy tafakkurning rivojlanish darajasi haqida ham bilish imkonini beradi. (S.V.Longinova, S.Ya.Rubinshteyn, 1972, B.G.Xersonskiy, 1988).

Metodikaning mazmuni shundan iboratki, sinaluvchi aniq bir soʻzni – tushunchani eslab qolish uchun oʻzi mustaqil rasm sxema chizadi. Bu chizilgan rasm sxema keyinchalik soʻzni – tushunchani esga tushirishga yordam berishi kerak. Alohida harf soʻzlarni yozish tavsiya etilmaydi. Tajriba oʻtkazish uchun oldindan tayyorlangan toza varaq va qalam kerak boʻladi.

Sinaluvchiga quyidagi koʻrsatma beriladi: «Men sizga soʻzlarni aytaman, siz ularni eslab qolish uchun kichikroq rasm chizib oling. Rasm chizish tezligi va rasmning sifati sizni xavotirlantirmasin. Asosiysi, siz keyin rasmga qarab, eslab qolgan soʻzlaringizni aytsangiz boʻladi».

Soʻzlar ( yoki soʻz birikmalari) quyidagilar boʻlishi mumkin:

Bayram	Ko‘zi ojiz bola	Taraqqiyot
Mehribon buvi	Qorong‘u tun	G‘amgin
Urush	Og‘ir ish	Hokimiyat
Qattiqqo‘l o‘qituvchi	Sovqotayotgan qiz	Qo‘rqinch
Qorni och odam	Bemor ayol	Do‘stlik

Bola qanchalik yosh bo‘lsa, topshiriqni bajarishga u shunchalik qiynaladi. Bu ularda tafakkurning aniq uslubi, mexanik xotira ustunligi, rasm chizish malakalarining etarlicha rivojlanmaganligi bilan bog‘liq. Lekin bolalar 11-12 yoshdan materialning qismlari o‘rtasida bog‘lanishlar (assotsiatsiya) o‘rnatishda ko‘rinadigan anglangan operatsiyalar asosida eslab qola boshlaydilar. Tadqiqot mobaynida quyidagi qismlarni o‘z ichiga oladigan qaror to‘ldiriladi (13-jadval).

### 13-jadval

Piktogramma metodi bo‘yicha tadqiqot qarori

t/r	So‘zli qo‘zg‘atuvchi	Rasm	Sharhlash	Javob

Piktogramma metodikasi yordamida assotsiativ jarayonlar xususiyatlari, bolada so‘zning aniq mavhum ma‘nosi o‘rtasidagi aloqa o‘rnata olish xususiyatlari haqida bilish mumkin.

### Hikoyani qayta esga tushirish

So‘z-mantiq xotira xususiyatlarini o‘rganish hikoyani qayta esga tushirish metodikasi yordamida amalga oshirilishi mumkin. Bunda faqatgina matnni tushunish va eslab qolish qobiliyatigina emas, balki og‘zaki va yozma nutq qobiliyatlari ham aniqlanadi. Tajriba o‘tkazish uchun turli murakkablikdagi hikoyalarni tayyorlab olish kerak. Ularni alohida qog‘ozlarga kompYuterda yozib olish mumkin. Kichik bolalar uchun hikoyalar qisqacha, mazmuni tushunarli bo‘lishi kerak. Bunday hikoyaga misol keltiramiz:

Qadim zamonda bolalar yashagan ekan. Ularga onasi yog‘och ot sovg‘a qiladi. Bolalar kuchuk va mushukni otga mindirib, sayr qildirib boshlaydi. Yaxshi sayr qilib Yurganda, ot birdan Yurmay qolibdi. Bolalar qarasa, otning oyog‘i sinib qolgan ekan. Bolalar Anvar amakini chaqirishibdi va u otni tuzatib beribdi.

Har bir hikoyada sifatiy tahlildan boshqqa, miqdoriy tahlil qilish imkonini beradigan ma'lum so‘z birliklari sonini ajratib olish kerak. Bunda hikoya boshqacha turga, ya'ni miqdoriy tahlil qilganda tadqiqotchi uchun kalitday holga keladi. Masalan:

Bir bola /bor edi/. Uning ismi /Abror edi/. Abror/ onasi bilan /ko‘chaga/ o‘ynashga chiqdi/. Abror /tez-tez chopib borayotib/, toshga /qoqilib tushdi/ va yiqildi/. Abrorning oyog‘i /lat edi/. Uning oyog‘i/ qattiq og‘ridi/. Onasi Abrorni /doktorga olib bordi. Doktor oyog‘ini/ boylab qo‘ydi/ va u og‘rimay qoldi/.

Kattaroq bola uchun murakkabroq hikoyalar tanlanishi mumkin. So‘z birikmalarining ma‘lum miqdori ajratilgan bir necha hikoyalarni keltiramiz:

1. 136-o‘rta maktab/ o‘quvchisi/ o‘n ikki yoshli/ Sanjar/ yozgi ta‘tilni/ buvisinikida/, qishloqda/ o‘tkazdi. Kechki payt/ o‘rmondan/, qaytayotib/, Sanjar temir yo‘lining/ tuzatilmaganligini/ payqab qoldi/. Sanjar bu haqda temiryo‘lchilarga xabar berdi/. Halokatning/ oldi olindi/. Hushyorlik/ ko‘rsatgan bola/ mukofot/ bilan taqdirlandi/.

2. Dushanba kuni kechqurun/ amerika passajir samolyoti/ «Boing»/ Kanada yaqinida/ boshqa samolyotga urildi/. 180 ta yo‘lovchining barchasi, jumladan, 18 nafar ayol/ va 9 nafar bola ham/ hech narsani ko‘rib bo‘lmaydigan/ qorong‘i/ qorongi bo‘lishiga qaramasdan/, bo‘ronli kunda/ qutqazildi. Hamma passajirlar/ «Rossiya» teploxodi bilan/ portga etkazildi.



Hikoyani qayta esga tushirish bo'yicha tajribani turli tartibda o'tkazish mumkin. Bog'cha yoshidagi bolalarga hikoyani eksperimentator o'qib beradi. Keyin iloji boricha matnga o'xshash qilib, eshitilgan hikoyani esga tushirish so'raladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari esa hikoyani mustaqil o'qishlari eshitishlari mumkin.

Shuni esda tutish kerakki, hikoyani idrok qilish, uni o'qib berish usuliga bog'liq. Tadqiqotchi hikoyani o'qib berishi sinaluvchiga hikoya mazmunini tushunishni osonlashtiradi, «eshitganini» idrok qilishi uchun ko'proq kuch, diqqatning barqarorligi talab etiladi (S.Ya.Rubinshteyn, 1970). Sinaluvchi mustaqil o'qiganida unda matnni bir necha marta qarab chiqish imkoniyati tug'iladi, shu bilan bir vaqtda yomon o'qilganda matnning mazmunini tushunishda qiyinchilik vujudga keladi. Hikoyani yozma ravishda esga tushirishda yanada ko'proq qiyinchiliklar vujudga keladi. Shuning uchun ham ko'pchilik sinaluvchilar hikoya qilib berishni afzal ko'radilar.

Agar bola eshitgan hikoyasini aytib berishga qiynalsa, o'rgatuvchi dars elementlarini qo'llashi mumkin. (S.Ya.Rubinshteyn, 1962, 1970). Hikoya bir necha marta o'qib beriladi va keyin sinaluvchi bilan birga o'qilganini muhokama qilinadi.

### 5.5. Xayolni diagnostika qilish metodlari

Bola xayolini baholashda turli xil ijodiy ishlar: rasm chizish, hikoya tuzish, bu Yumlarni yasash bilan bog'liq jarayonlarda fantaziyaning namoyon bo'lishiga e'tibor beriladi.

#### «Nutqiy fantaziya» metodikasi

Bolaga biror jonli mavjudot (odam hayvonlar) haqida ( bolaning xohishiga ko'ra) hikoya tuzish va uni so'zlab berish topshirig'i beriladi. Buning uchun bolaga 5 daqiqa vaqt ajratilib, shundan 1 daqiqasi hikoya ertakni o'ylab olishi uchun beriladi.

Bola hikoyani so'zlab berish jarayonida, uning fantaziyasi qay darajadiligini bilish uchun quyidagilarga e'tibor beriladi.

1. Xayol jarayonining tezligi.
2. Obrazlarning o'ziga xosligi, originalligi.
3. Fantaziya (tasavvur)ning boyligi.
4. Obrazlarning chuqur ishlanganligi.
5. Obrazlarning hissiy - ta'sirchanligi.

Yuqoridagi belgilarning hikoyada aks etganligiga qarab, har biri 0 balldan 2 ballgacha baholanad "Nutqiy fantaziya" metodikasi uchun bayonnoma

14 -jadval

№	Bola xayolining baholanayotgan belgilari	Ushbu belgilarning balldagi bahosi		
		0	1	2
1.	Xayol jarayonining tezligi			
2.	Obrazning o'ziga xosligi, originalligi			
3.	Fantaziyaning boyligi			
4.	Obrazlarning chuqur ishlanganligi			
5.	Obrazlarning hissiy ta'sirchanligi			

Bola hikoyani so'zlab berayotganida, tadqiqotchi Yuqoridagi jadvalga, hikoyada mezonidagi belgilarning namoyon bo'lishiga qarab, mos ballar bilan belgilab boradi.

Rivojlanish darajasi haqida xulosalar.

10 - ball – juda Yuqori

8-9 ball – Yuqori

4-7 ball – o'rtacha

2-3 – quyi  
0-1 ball – juda past

### «Rasm» metodikasi

Tadqiqotni o‘tkazish uchun qog‘oz va flomaster (kamida 6 xil rangda) kerak bo‘ladi. Bolaga ana shulardan foydalanib, biror-bir rasmni o‘ylab, chizish topshirig‘i beriladi. Buning uchun 5 daqiqa vaqt belgilanadi.

Tadqiqot natijalari tahlili quyidagi jadval yordamida amalga oshiriladi.

15-jadval

№	Bola xayolining baholanayotgan belgilari	Ushbu belgilarning balldagi bahosi		
1.	Xayol jarayonining tezligi	0		2
2.	Obrazning o‘ziga xosligi, originalligi			
3.	Fantaziyaning boyligi			
4.	Obrazlarning chuqur ishlanganligi			
5	Obrazlarning hissiy ta’sirchanligi		1	

### Rivojlanish darajasi haqida xulosalar

10 - ball – juda yuqori  
8-9 ball – yuqori  
4-7 ball – o‘rtacha  
2-3 – quyi  
0-1 ball – juda past

### «Haykaltaroshlik» metodikasi

Bolaga 5 daqiqa davomida plastilindan biror -bir narsa o‘ylab topib, yasash topshirig‘i beriladi. Bola fantaziyasi, topshiriqni bajarishdagi qobiliyati quyidagi ball - mezonni bo‘yicha baholanadi.  
0-1 ball — 5 daqiqa mobaynida bola hech narsa o‘ylab topib yasay olmasa;  
2-3 ball – agar bola shu vaqt ichida biror oddiyroq narsalarni, masalan: kubik, aylanalarni yasasa;  
4-5 ball – agar bola faqat 3-4 qismdan iborat narsa yasasa;  
5-7 ball – boy fantaziyasi bilan ajralib turadigan, g‘ayrioddiy narsa yasasa;  
8-9 ball – bola original narsani o‘ylagan, lekin yasashida kamchiliklari bo‘lsa;  
10 ball – agar o‘ylab topilgan narsa original va puxta, estetik did bilan yasalgan bo‘lsa.

#### Rivojlanish darajasi haqida xulosa

10 ball – bola maktab ta'limiga tayyor.  
8-9 ball – maktab ta'limiga tayyor desa bo‘ladi.  
6-7 ball – maktabga tayyorgarligi o‘rtacha  
4-5 ball – bolaning maktab ta'limiga tayyorgarligi etarli emas.  
3 balldan past - bola maktab ta'limiga umuman tayyor emas.

SHunday qilib, ushbu mavzuda bilish jarayonlaridan, diqqat, xotira va tafakkur psixodiagnostikasi haqida ma'lumotlarga ega bo‘ldik.

#### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Segen doskasi metodikasi orqali nimalarni o‘rganish mumkin?
2. P'eron-Ruzer metodikasining mazmuni qanday?

3. Landolt halqachalari metodikasi orqali nimalarni o'rganish mumkin?
4. Burdon korrektur sinovi metodikasi orqali nimalar o'rganiladi? Uning qanday o'zgartirilgan variantlarini bilasiz?
5. Ko'rish xotirasini qanday metodika yordamida o'rganish mumkin?
6. Eshitish xotirasini qanday metodika yordamida o'rganish mumkin?
7. Piktogramma metodi orqali nimani o'rganish mumkin?
8. Hikoyani qayta esga tushirish metodikasining mazmunini aytib bering?
9. "Rasm" metodikasi orqali nimalarni aniqlash mumkin?
10. "Haykaltaroshlik" metodikasining mazmunini aytib bering.
11. "Nutqiy fantaziya" metodikasi qanday o'tkaziladi?

*Nazorat uchun test savollari*

**1. Diqqat psixodiagnostikasi uchun ishlatiladigan metodikalar qatorini toping**

- A. Burdon korrektur sinovi, Myunstenberg metodikasi, Gorbov jadvallari
- B. Landolt uzukchalari, Segen doskalari, Koss kubiklari
- V. Shulte jadvallari, Raven matritsalarini
- G. Ayzenk so'rovnomasi, Bine testi

**2. Xotira psixodiagnostikasida qo'llaniladigan metodikalar qatorini ko'rsating**

- A. Raven matritsalarini, Lichko so'rovnomasi
- B. Benton testi, Veksler shkalasi, Meyli testi
- V. Qo'l testi, Meyli testi, Lyusher testi
- G. TAT, Lyusher testi, MMRI

**3. Veksler intellekt shkalasini 5-subtestidan bir qator sonlarni eslab qolish, so'ngra ularni to'g'ri ketma-ketlikda va teskari ketma-ketlikda qaytarish talab qilinadi. Bu subtest xotiraning qaysi turini o'rganishga mo'ljallangan.**

- A. Emotsional xotira
- B. Qisqa muddatli xotira
- V. Uzoq muddatli xotira
- G. Operativ xotira

**4. Korrektur sinov metodikasi qanday turdagi testlarga misol bo'la oladi.**

- A. Intellekt testlar
- B. Shaxs testlar
- V. Verbal testlar
- G. Tezlik testlari

**5. "Piktogramma" metodikasi xotira psixodiagnostikasiga mo'ljallangan metodlarning qaysi guruxiga mansub.**

- A. Yodlash jarayonini diagnostika qilish metodi
- B. Juft assotsiatsiyalar metodi
- V. Qatordagi elementlarni eslab qolish metodi
- G. Tanib qolish metodi

**6. "Veksler xotira shkalasi"ning 1-2-subtestlari qanday vaziyatda qo'llaniladi.**

- A. Tekshiriluvchida metodikadagi topshiriqlarni bajarmaslik istagi kuzatilganda
- B. Tekshiriluvchining yoshi ancha keksa bo'lganda
- V. Tekshiriluvchi boshqa subektlardan yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lganda
- G. Tekshiriluvchida xotira defektlari namoyon bo'ladi

**7. Quyidagi intellekt testlarining qaysi birida diqqat psixodiagnostikasi uchun mo'ljallangan maxsus subtest yo'q.**

- A. Rossolimo intellekt testi
- B. SHTUR
- V. Veksler intellekt shkalasi
- G. MMPI intellekt testlari

**8. Quyidagi intellekt testlarining qaysi birida diqqat psixodiagnostikasi uchun mo'ljallangan maxsus subtest yo'q.**

- A. Rossolimo intellekt testi

B.Veksler intellekt shkalasi

V.SHTUR

G.Mazkur testlarning barchasida diqqat psixodiagnostikasi uchun qo'llanadigan maxsus subtestlar mavjud

**9. Quyidagi metodikalarning qaysi biri xayol psixodiagnostikasida qo'llaniladi?**

A.Nutqiy fantaziya

B.Piktogramma

V.SHTUR

G.Meyli testi

**10. "Piktogramma" metodikasining muallifi kim?**

A. L.V.Zankov

B. A.R.Luriya,

V. B.G.Xersonskiy

G. S.V.Longinova

**Talabalarning mustaqil ta'lim mavzulari:**

1. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarida diqqat xususiyatlarining psixodiagnostikasi
2. Maktabgacha tarbiya yoshida xotira psixodiagnostikasining o'ziga xos jihatlari.
3. Bolada xayol jarayonlarini rivojlanishini psixodiagnostika qilish muammosi
4. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda xotira psixodiagnostikasi
5. Maktabgacha tarbiya yoshida diqqat psixodiagnostikasining o'ziga xos jihatlari

**Laboratoriya mashg'uloti uchun topshiriqlar:**

1. O'smirlarda "Burdon korrektur sinovi" metodikasi orqali quyidagi jihatlarni aniqlang: diqqatning ko'chuvchanligi, diqqatning barqarorligi. Olingan ma'lumotlar asosida quyidagi tartibda psixologik karakteristikani yozing: tadqiqot maqsadi, tadqiqot ob'ekti, tadqiqotning miqdor tahlili, sifat tahlili, xulosa va tavsiyalar.
2. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda "Ko'rish operativ xotirasini aniqlash testi"ni o'tkazib psixologik tavsifnoma yozing. Quyidagi jadvalni to'ldiring.

Kartochkalardan topilgan figuralarning tartib raqami	Har bir kartochkadagi figurani topishga sarflangan vaqt
1-kartochka:	
2-kartochka:	
3-kartochka:	
4-kartochka:	
Miqdoriy tahlil:	
Xulosa:	

## VI. INTELLEKT PSIXODIAGNOSTIKASI

**Reja:**

- 1 Bolalar tafakkurini diagnostika qilish metodlari
- 2.Intellekt koeffitsenti haqida umumiy ma'lumot.
- 3.R.Amtxauer intellekt strukturalari testi haqida.
4. D.Veksler intellekt shkalalari haqida.
5. J.Raven progressiv matritsalar testi.
6. Maktab aqliy taraqqiyoti testi

**Maqsad:**

*Talabalarda bolalar tafakkuri va intellekt psixodiagnostikasi haqida tushuncha hosil qilish.*

**Vazifa:**

*Talabalarda bolalar tafakkuri va intellekt psixodiagnostikasi haqida dunyoqarashini rivojlantirish orqali mutaxassis shaxsini shakllantirish.*

**Tayanch tushunchalar:**

1. **Intellektual xatti-harakatlar** – tashqi muhit va nutqqa suyangan holda idrokning ichki rejalarida bajariladigan xatti-harakat.

2. **Intellektual rivojlanish mezon** (ong IQ – aqliy yosh (AYO) va xronologik yosh (XYO) orasidagi munosabatni bildiruvchi mezon:  $IQ = AYO/XYO \times 100$ . Intellektning biror bir yosh shkalasiga suyanan holda test natijalari orqali rivojlanishini aniqlash mumkin.
3. **Tafakkur** - inson aqliy faoliyatining Yuksak shakli. Sezgi idrok va tasavvurlar orqali bevosita bilib bo'lmaydigan narsa va hodisalar T.da ongli ravishda aks etadi. T. jarayonida fikr vujudga keladi, bu fikrlar inson ongida hukm, tushuncha, xulosa shakllarida Yuzaga keladi.
4. **Klassifikatsiya** - tevarak-atrofdagi olamni o'rganishda birgina narsa bilan emas, balki ko'p va xilma narsalar bilan ish ko'rishga to'g'ri keladi, ya'ni narsalarni o'rganish maqsadida guruhlariga, sinflarga ajratishdir.
5. **Assotsiativ** - XVII-XIX asrlarda maydonga kelgan psixologiya fani yo'nalishi bo'lib, ko'proq Angliyada tarqalgandir, ya'ni psixik hodisalarning o'zaro bog'lanishi bo'lib, ma'lum qonunlar bo'yicha tarkib topishdir.
6. **Analiz-tahlil** - murakkab ob'ektni turli tarkibiy qismlarga ajratish yoki tavsifnoma berishdan iborat fikrlesh operatsiyasidir.
7. **Ko'rgazmali obrazli tafakkur** –bu tafakkur turlaridan bo'lib, bu tasavvur qilinayotgan narsa va hodisalar haqida fikrlashni tavsiflab beradi.
8. **Aql-farosat** - voqelikni nazariy tomonidan o'zlashtirishning Yuksak formasi bo'lib, kishining fikrlash qobiliyatida namoyon bo'ladi.
9. **So'z - mantiqiy tafakkur** – tafakkur turlaridan bo'lib, bu mantiqiy operatsiyalar, amallar yordamida tushunchalar orqali ifodalanadi.

### 6.1. Bolalar tafakkurini diagnostika qilish metodlari

Tafakkur ijtimoiy hayot sharoitida shakllanadigan jarayon bo'lib, u dastavval keng predmetli faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Keyinchalik u «aqliy» xatti-harakat xarakterini oluvchi shaklga aylanadi. Tafakkur inson bilish faoliyatining oliy shakli sifatida atrof olamni umumlashtirgan holda vositali aks ettirish imkonini beradi, predmetlar bilan hodisalar o'rtasida aloqa va munosabatlarni tashkil qiladi.

Tafakkur — yangilikni qidirish va ochishdan iborat psixik jarayondir. Bu yangilik sub'ektiv bo'lishi, ya'ni uni kimlardir qachonlardir topgan bo'lishi mumkin, lekin sub'ekt tafakkur jarayoni yordamida o'zi uchun uni yangidan kashf etadi, aks holda biz ko'proq xotira, o'tgan tajribalarimizni qayta tiklagan bo'lamiz. Bolalarni o'qitishda tafakkurning shu muhim xususiyatini asos qilib olish mumkin.

Maktabgacha tarbiya yoshi — psixik rivojlanishning intensiv bosqichi hisoblanadi. Aynan mana shu yoshdan bolada juda katta o'zgarishlar ro'y beradi, ya'ni psixofiziologik funktsiyalarning takomillashuvidan boshlab, to murakkab yangi shaxsiy obrazlarning paydo bo'lishigacha bo'lib o'tadigan jarayonlar sodir bo'ladi. Yangi obrazlarni, xayoliy hodisalarni analiz qilish maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga xosdir, ammo natijalar hamisha ijobiy bo'lmasa ham, bolalar faoliyatini tahlil qilganimizda, biz shu narsaga amin bo'ldikki, bolalar predmetlarni tasavvur qilibgina qolmay, ularning o'zaro bog'liqligini ham xayolan tasavvur qilar ekan.

Tasavvurning rivojlanishi, tafakkurning shakllanayotgan jarayoni bilan tavsiflanadi, bu shakllanish bolaning xayoliy tasavvurlarining ixtiyoriy ko'rsatkichlari bilan bog'liqdir. Bunday imkoniyat 5-6 yoshli bolalarda yanada Yuqoriroq bo'ladi, chunki bola yangi aqliy harakat usullarini juda tez o'zlashtirib oladi. Aqliy faoliyatda yangi usullarning shakllanib borishi, tashqi predmetlarning harakatini o'zlashtirib olishdagi bola xatti-harakati, ta'lim va tarbiya jarayonida muhim ahamiyatga ega. Bu, o'z navbatida, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning obrazli tafakkuri rivojlanishi uchun eng maqbul imkoniyat davridir.

4-5 yoshli bolalarda ko'nikma va malakalarning rivojlanishi hamda shakllanishida intensivlik ko'zga tashlanadi, bu esa tashqi muhitni o'rganishga zamin yaratadi. Aql rivojlanishidagi bunday ko'rsatkich, ko'rgazmali harakatli tafakkurga «tayyorgarlik davri» hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, bolaning o'rab turgan atrof-muhitni o'rganish jarayonida faktlarga asoslangan holda tasavvur va tushunchaga ega bo'la olishiga ko'mak beradi. Ko'rgazmali-harakatli tafakkur turi, tafakkurning yangi turlari shakllanishiga, ya'ni ko'rgazmali-obrazli tafakkurning rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu shu bilan ta'riflanadi-ki, bola muammoli vaziyatlarning echimini tasavvurlar

shaklida qabul qilgan holda amaliy harakatlarni qoʻllamaydi. Maktabgacha tarbiya yoshining soʻngida koʻrgazmali-obrazli tafakkurning eng Yuqori formasi–koʻrgazmali-sxematik tafakkurning rivojlanishi koʻzga tashlanadi.

Koʻrgazmali-sxematik tafakkur tashqi muhitni oʻzlashtirib olish uchun juda katta imkoniyatlar yaratadi, yaʼni har xil predmetlarni va hodisalarni umumlashtirishning modeli uchun manba boʻlib xizmat qiladi. Bundan tashqari, tafakkurning koʻrgazmali-sxematik formasi, mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning asosiy negizi hamdir.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, 5–7 yoshli bolalar muammoli vaziyatlarning echimini topishda masalaga tafakkurning uch xil formasi bilan yondashar ekan. Bular:

koʻrgazmali - harakatli tafakkur;

koʻrgazmali - obrazli tafakkur;

mantiqiy tafakkur.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda asosan obrazli, soʻz-mantiqli va koʻrgazmali-harakatli tafakkur turi rivojlangan boʻladi. Soʻz-mantiqli tafakkur turi esa maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda endi rivojlanish davrida boʻladi. Mana shuning uchun ham maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning intellektini diagnostika qilish uchun, birinchi navbatda obrazli, soʻz-mantiqli va koʻrgazmali-harakatli tafakkur turlariga eʼtibor qaratish kerak.

Biz bayon qilayotgan psixodiagnostik metodikalar tafakkurning aynan mana shu ikki turiga taalluqlidir.

Obrazli – soʻz-mantiqli tafakkur ham, koʻrgazmali-harakatli tafakkur ham oʻziga xos bir qancha xususiyatlarga ega. Ushbu xususiyatlar har xil topshiriqlar echimini izlash bosqichlarida namoyon boʻladi. Mana shu bogʻlanishlar va munosabatlar tufayli bolalardagi obrazli – soʻz-mantiqli va koʻrgazmali-harakatli tafakkurni diagnostikalash uchun, biz har ikkala tafakkur turining muhim jihatlarini inobatga olgan holda, ushbu tafakkur turlariga beshtadan metodika tavsiya qilamiz.

Kichik va katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning intellektual taraqqiyot koʻrsatkichlari yosh davrlari bilan bir-biridan farqlanishi sababli, ushbu metodik majmuuga 3 yoshdan 4 yoshgacha va 4 yoshdan 5 yoshgacha bolalarning yoshidagi farqlarni inobatga olgan holda alohida har xil variantlar kiritilgan.

Endi har ikkala tafakkur turiga tavsiya qilingan metodikalarga toʻxtalib oʻtamiz.

## **OBRAZLI, SOʻZ-MANTIQLI TAFAKKUR TURINI BAHOLASH UCHUN METODIKALAR**

### **«Mantiqsiz tasvirlar» metodikasi**

Ushbu metodika yordamida bolaning atrofidagi borliq hamda ushbu moddiy dunyodagi bir qancha ob'ektlarning orasida oʻzaro bogʻlanishlar va munosabatlar haqida elementar obrazli tasavvurlari: hayvonlar bilan, ularning hayotiy koʻrinishlari bilan, tabiat bilan baholanadi.

Ushbu metodika yordamida bolaning mantiqiy mulohazasi va oʻz fikrini grammatik jihatdan toʻgʻri ifodalay olishi aniqlanadi. Metodikani tashkil qilish jarayoni quyidagicha olib boriladi:

5-rasmda tasvirlangan koʻrinishlar bolaga tavsiya qilinadi, unda hayvonlar bilan bogʻliq bir qancha «mantiqsiz» hodisalar mavjud.



5-rasm

Bolaga rasmni ko'rsatish jarayonida, unga quyidagi ma'noda ko'rsatma beriladi: «Diqqat bilan ushbu rasmdagi tasvirlarni ko'rib chiq hamda bizga shuni ayt-chi, rasmda hamma narsa o'z joyida chizilganmi va ushbu ob'ektlar to'g'ri tasvirlanganmi? Agar sen qaysidir ob'ektni o'z joyida tasvirlangan emas, deb hisoblasang, nima uchun shunday bo'lishi kerakligini tushuntirib ber va sen bizga aslida qanday bo'lishi kerakligini aytib ber?».

Ko'rsatmaning ikkala qismi ham ketma-ketlik bilan bajariladi. Birinchi navbatda bola xatolarni aytib, rasmlarda ko'rsatib beradi, so'ngra haqiqatda qanday bo'lishi lozimligini izohlaydi.

Rasmlarni ko'rish va topshiriqni bajarish vaqti chegaralangan, ya'ni uch daqiqa vaqt beriladi. Bu vaqt mobaynida bola iloji boricha mantiqsiz voqelikni ko'proq topishi va haqiqatdan qanday bo'lish kerakligini tushuntirib berishi kerak.

#### Natijalarni baholash

10 ball – agar bola berilgan 3 daqiqa mobaynida rasmdagi hamma mantiqsiz tasvirlarni (jami 7 ta) aniqlab hamda qoniqarli tushuntirib bera olishga ulgursa va haqiqatdan qanday bo'lishini sharhlab bera olsa, ushbu baho qo'yiladi;

8 - 9 ball – bola hamma mantiqsiz tasvirlarni aniqlab va belgilab chiqsa, ammo birdan uchtagacha tasvirni haqiqatdan qanday bo'lishini sharhlab bera olmasa qo'yiladi;

6 - 7 ball – bola hamma mantiqsiz tasvirlarni aniqlab va belgilab chiqsa, ammo 3 - 4 tagacha tasvirni haqiqatdan qanday bo'lishini sharhlab bera olmasa qo'yiladi;

4- 5 ball – bola hamma mantiqsiz tasvirlarni aniqlasa-yu, ammo 5 - 7 tagacha tasvirni chegaralangan vaqt mobaynida sharhlab berishga ulgura olmasa qo'yiladi;

2 - 3 ball bola chegaralangan vaqt mobaynida 1 - 4tagacha tasvirni aniqlab bera olmadi va sharhlashga vaqti etmasa;

0-1 ball — chegaralangan vaqt mobaynida bola rasmdagi 7 ta mantiqsiz tasvirlardan 4 tasini topsa qo'yiladi.

Izoh: 4 va undan yuqori ball, agar bola berilgan 3 daqiqa mobaynida topshiriqning birinchi qismini to'liq bajara olsa, ammo ularni tushuntirib va sharhlashga ulgura olmasa qo'yish mumkin.

Taraqqiyot darajasi haqida xulosa chiqarish:

10 ball — juda Yuqori

8- 9 ball — Yuqori

4 - 7 ball — o‘rtacha  
2- 3 ball — past  
0-1 ball — juda past

### «Yil fasllari» metodikasi

Ushbu metodika 3 yoshdan 4 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan. Bolaga 6-rasm ko‘rsatiladi va ushbu rasmlarga diqqat bilan qarab, rasmning har bir qismida yilning qaysi fasli tasvirlanganligi so‘raladi. Topshiriqni bajarish uchun 2 daqiqa vaqt beriladi. Berilgan vaqt mobaynida bola nafaqat yil fasllarini aytib berishi, balki nima uchun shunday ekanligini va fasllarning belgilarini ko‘rsatib bera olishi hamda ushbu qism aynan mana shu faslga tegishli ekanligini asoslab berishi kerak.

### Natijalarni baholash

10 ball – berilgan vaqt mobaynida bola rasmdagi yil fasllarini bir-biri bilan bog‘liq holda to‘g‘ri aytib bera olsa va har bir faslning ikkitadan belgisini ko‘rsatib bera olsa (jami har bir faslning 8 ta belgisi ko‘rsatilsa) qo‘yiladi;

8 - 9 ball – bola rasmdagi har bir yil faslini bir-biriga bog‘liq holda to‘g‘ri aytib bersa va yil fasllarining umumiy olganda 5- 7 tagacha belgisini to‘g‘ri ko‘rsatib bera olsa qo‘yiladi;

6-7 ball – bola yil fasllarini to‘g‘ri aniqlab, ammo o‘z fikrini tasdiqlovchi jami 3 - 4 ta fasl belgisini ko‘rsata olsa qo‘yiladi;



6-rasm

4 - 5 ball – bola faqat yil fasllarining faqat 2 tasini aniqlab bera olsa va o‘z fikrini tasdiqlovchi jami 1 - 2 tagacha yil fasli belgisini ko‘rsatib bersa qo‘yiladi;

0 - 3 ball – bola yil fasllarining birortasini ham to‘g‘ri aniqlay olmasa va birorta ham fasl belgisini ko‘rsatib bera olmasa (ushbu ballar bolaning yil fasllarini topishga harakat qilganligiga bog‘liq holda) qo‘yiladi.

Taraqqiyot darajasi haqida xulosa chiqarish.

10 ball — juda yuqori

8 - 9 ball — yuqori

6 - 7 ball — o‘rtacha


4 - 5 ball — past

0- 3 ball — juda past

### «Bu erda nima ortiqcha?» metodikasi



Ushbu metodika 4 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalarga mo'ljallangan va bundan oldingi metodikaga o'xshashdir. Bu metodika bolalarning obrazli, so'z-mantiqli tafakkur jarayonini analiz va umumlashtirish operatsiyalarini tadqiq qiladi. Metodikada bolalarga har xil predmetlar tasvirlangan rasmlar tavsiya qilinadi va quyidagicha ko'rsatma beriladi: «Har bir rasmda tasvirlangan 4 ta predmetdan biri ortiqcha. Diqqat bilan rasimga qarab, qaysi predmet ortiqcha va nima uchun ortiqcha ekanligini tushuntirib ber». Topshiriqni bajarish uchun 3 daqiqa vaqt beriladi.



7-rasm

### Natijalarni baholash

- 10 ball – bola o'ziga berilgan topshiriqni 1 daqiqadan kam vaqtda bajarib, har bir rasmdagi ortiqcha predmetning nima uchun ortiqcha ekanligini sharhlab bera olsa qo'yiladi;
- 8 - 9 ball – bola topshiriqni 1 daqiqadan 1,5 daqiqagacha to'g'ri bajara olsa qo'yiladi;
- 6 - 7 ball – bola topshiriqni 1,5 daqiqadan 2 daqiqagacha to'g'ri bajara olsa qo'yiladi;
- 4 - 5 ball — bola topshiriqni 2 daqiqadan 2,5 daqiqagacha to'g'ri bajara olsa;
- 2 - 3 ball – bola topshiriqni 2,5 daqiqadan 3 daqiqagacha to'g'ri bajara olsa qo'yiladi;
- 0-1 ball – bola 3 daqiqa mobaynida topshiriqni to'g'ri bajara olmasa qo'yiladi.


Taraqqiyot darajasi haqida xulosa chiqarish:

- 10 ball — juda yuqori
- 8 - 9 ball — yuqori
- 4 - 7 ball — o'rtacha
- 2 - 3 ball — past
- 0-1 ball — juda past

### Rasmlarga qanday predmet etishmaydi» metodikasi

Bu metodika 3 yoshdan 4 yoshgacha bo‘lgan bolalarning tafakkurini diagnostik tadqiq qilish uchun mo‘ljallangan. Topshiriqni bajarishdan oldin bola bilan tushuntirish ishlari olib boriladi, ya‘ni unga rasmlar ko‘rsatilib, bu rasmlarda bolalar tasvirlanganligi, ushbu tasvirlar to‘liq bo‘lishi uchun qanday predmetning etishmasligi, bu predmetlar rasmning pastki qismida tasvirlanganligi aytib o‘tiladi.

Bolaga beriladigan topshiriqning asosiy mohiyati shundan iboratki, u iloji boricha rasmdagi tasvirlar to‘liq bo‘lishi uchun zarur predmetlarni topib ko‘rsatib berishi kerak.



8-rasm


#### **Natijalarni baholash.**

- 10 ball— topshiriqqa ketgan vaqt 30 soniyadan kam bo‘lsa qo‘yiladi;  
 8 - 9 ball — topshiriqni bajarishga ketgan vaqt 31 soniyadan 49 soniyagacha bo‘lsa qo‘yiladi;  
 6 - 7 ball — topshiriqni bajarishga ketgan vaqt 50 soniyadan 69 soniyagacha bo‘lsa qo‘yiladi;  
 4 - 5 ball — topshiriqni bajarishga ketgan vaqt 70 soniyadan 89 soniyagacha bo‘lsa qo‘yiladi;  
 2 - 3 ball — topshiriqni bajarishga ketgan vaqt 90 soniyadan 109 soniyagacha bo‘lsa qo‘yiladi;  
 0 - 1 ball — topshiriqni bajarishga ketgan vaqt 110 soniya va undan ko‘p bo‘lsa qo‘yiladi.  
 Taraqqiyot darajasi haqidagi xulosa 1.3 - metodika singari chiqariladi.

#### **«Guruhlarga bo‘lib ko‘r-chi» metodikasi**

Ushbu metodika 4 yoshdan 5 yoshgacha bo‘lgan bolalarning obrazli so‘z-mantiqli tafakkurini baholash uchun mo‘ljallangan. Bolaga 9-rasmdagi tasvirlar ko‘rsatilib, quyidagi yo‘riqnoma beriladi:

«Diqqat bilan ushbu rasmdagi tasvirlarni ko‘rib chiq va ularni iloji boricha ko‘p guruhlarga bo‘l. Har bir guruhga, umumiy belgisi bir xil bo‘lgan figuralarni kirit va har bir figuraning nomini ayt hamda qanday belgilar asosida bo‘lib chiqqaningni tushuntirib ber».



9-rasm

Topshiriqni bajarishga 3 daqiqa vaqt berilgan.

Natijalarni baholash.

10 ball — bola hamma figuralarni 2 daqiqadan kam vaqtda guruhlariga bo‘lib chiqsa qo‘yiladi.

Bu figuralar guruhi quyidagicha: uchburchak, aylanalar, kvadratlar, romblar, qizil figuralar (rasmda ular qora rangda berilgan), ko‘k figuralar (ular to‘g‘ri chiziq bilan shtrix qilingan), sariq figuralar (katakalar bilan belgilangan), katta figuralar, kichik figuralar;

8 - 9 – ball bola hamma figuralarni 2,0 daqiqadan 2,5 daqiqagacha bo‘lib chiqsa qo‘yiladi;

6 - 7 ball – bola hamma figuralarni 2,5 daqiqadan 3,0 daqiqagacha bo‘lib chiqsa qo‘yiladi;

4 - 5 ball – 3 daqiqa mobaynida bola 5 dan 7 tagacha guruhga bo‘lib chiqsa qo‘yiladi;

2- 3 ball – 3 daqiqa mobaynida bola 2 dan 3 tagacha guruhga bo‘lib chiqsa qo‘yiladi;


0-1 ball – 3 daqiqa mobaynida bola 1ta guruhdan ko‘p guruhga bo‘la olmasa qo‘yiladi.

Taraqqiyot darajasi haqida xulosa Yuqoridagi metodika singari chiqariladi.

### **KO‘RGAZMALI - HAKATLI TAFAKKUR TURINI BAHOLASH UCHUN METODIKALAR**

#### **«Konturlarni birlashtirish» metodikasi**

Bolalarga 10- rasm ko‘rsatiladi va ushbu metodikadagi topshiriqning maqsadi tushuntirib beriladi, ya'ni qalam ruchka yordamida imkoni boricha tez va aniq chap tomondagi konturlarni o‘ng tomonda berilgan rasmlarga ko‘chirib chiqish zarur. Bunda bolaning chiziqlarni to‘g‘ri chizganligiga va figuralarning burchaklarini aniq birlashtira olishiga e‘tibor qaratish zarur. Topshiriq bajarib bo‘lingandan so‘ng vazifaning toza, aniq va tez bajarilganligi baholanadi.



10-rasm

### Natijalarni baholash

Topshiriq bajarish tezligi va sifatiga qarab ballarda baholanadi.

10 ball – bola hamma topshiriqni bajarishga 90 soniyadan kam vaqt sarflab, figuralarning burchaklarini to‘g‘ri va aniq birlashtira olsa hamda chiziqlar berilgan konturlarga aniq mos kelsa qo‘yiladi;

8 - 9 ball – topshiriqni bajarishga 90 soniyadan 109 soniyagacha vaqt sarflansa, ammo quyidagi kamchiliklarning birortasi mavjud bo‘lsa: bir ikkita chiziqning to‘g‘ri emasligi; ikki yoki uchta chiziq figura burchaklari noto‘g‘ri birlashtirilgan bo‘lsa; ikkitadan to‘rttagacha chiziqlar konturdan tashqariga chiqib ketgan bo‘lsa; to‘rttadan beshtagacha figura burchaklarini birlashtirishda noaniqlikka yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa qo‘yiladi;

6- 7 ball – hamma topshiriqni bajarishga 105 dan 120 soniyagacha vaqt sarflansa, ammo quyidagi kamchiliklarning birortasi mavjud bo‘lsa: uch yoki to‘rtta chiziqning egriligi; to‘rttadan oltitagacha figura burchaklarining noto‘g‘ri birlashtirilganligi; beshtadan oltitagacha chiziqlar konturdan tashqariga chiqib ketganligi; oltitadan ettitagacha figura burchaklarini birlashtirishdagi noaniqlik bo‘lsa qo‘yiladi;

4-5 ball – topshiriqni bajarishga 120 dan 135 soniyagacha vaqt sarflansa, ammo quyidagi kamchiliklarning birortasi mavjud bo‘lsa qo‘yiladi: besh yoki oltita chiziqning egriligi; ettitadan o‘ntagacha burchaklarning noto‘g‘ri birlashtirilganligi; ettita sakkizta chiziqning konturdan chiqib ketganligi; sakkiztadan o‘ntagacha burchaklarning noaniq birlashtirilganligi;

2 - 3 ball – topshiriqni bajarishga 135 dan 150 soniyagacha vaqt sarflansa, quyidagi kamchiliklardan birortasi mavjud bo‘lsa qo‘yiladi: 7 tadan 10 tagacha chiziqning egriligi; 11 tadan 20 tagacha burchaklarning noto‘g‘ri birlashtirilganligi; 9 tadan 10 tagacha chiziqlarning konturdan tashqariga chiqib ketganligi; 11 tadan 17 gacha burchaklarning noaniq birlashtirilganligi;

0-1 ball – topshiriqni bajarishga 150 soniyadan ko‘p vaqt sarflansa, bir yoki ikkita chiziqdan tashqari, qolgan chiziqlarning noto‘g‘ri chizilganligi; bir yoki ikkita burchakdan tashqari, qolgan burchaklarni birlashtirishdagi xatoliklar uchun qo‘yiladi.;

Taraqqiyot darajasi haqida xulosa chiqarish.

10 ball – juda Yuqori

8 - 9 ball – Yuqori

4 - 7 ball – o‘rtacha

2 - 3 ball – past

0-1 ball – juda past

### «Labirintdan chiqish, yo'lini top» metodikasi

Ushbu topshiriqda bolalarga 11-rasm ko'rsatilib, topshiriqda labirintning tasvirlanganligi, unda strelka bilan labirintga kirish nuqtasi va chiqish joylari ko'rsatilganligi tushuntirib o'tiladi. Bunda bola uchli tayoqchani olib, rasm ichidan Yurgizib, labirintdan imkoni boricha tez chiqib ketishi hamda tayoqchani imkoni boricha aniq Yurgizib, labirint devoriga tegib ketmasligi kerak.



11-rasm

#### Natijalarni baholash

10 ball – topshiriq bola tomonidan 45 soniyadan kam vaqt mobaynida bajarilsa, ammo bola tayoqcha bilan labirint devoriga biror marta ham tegib ketmasa qo'yiladi;

8 - 9 ball – topshiriq bola tomonidan 45 soniyadan 60 soniyagacha vaqt mobaynida bajarilsa, o'tish jarayonida 1-2 marta labirint devoriga tegib ketsa qo'yiladi;

6 - 7 ball – topshiriq 60 soniyadan 80 soniyagacha vaqt mobaynida bajarilsa va labirintdan o'tish jarayonida 3 - 4 marta labirint devoriga tegib ketsa qo'yiladi;

4 - 5 ball – topshiriq 80 soniyadan 100 soniyagacha bajarilsa, bola labirintdan o'tish jarayonida, labirint devoriga 5 - 6 marta tegib ketsa qo'yiladi;


2 - 3 ball – topshiriq 100 soniyadan 120 soniyagacha bajarilsa, bola labirintdan o'tish jarayonida, labirint devoriga 7- 9 marta tegib ketsa qo'yiladi;

0-1 ball – topshiriqni bajarishda 120 soniyadan ko'p vaqt sarflasa yoki umuman bajara olmasa qo'yiladi.

Taraqqiyot haqidagi xulosa 6 - metodikadagi kabi chiqariladi.

#### «Figuralarni qirqib chiq» metodikasi

Ushbu metodika 4-5 yoshli bolalarning ko'rgazmali - harakatli tafakkurini o'rganishga mo'ljallangan. Topshiriqning maqsadi, qog'ozga chizilgan figuralarni tez va aniq qirqib olishdan iborat. 12-rasmda berilgan 6 ta kvadratda har xil figura tasvirlangan. Ushbu rasmlar bolaga bir butun holatda berilmaydi, balki har bir kvadratdagi rasmlar alohida beriladi. Buning uchun tadqiqotchi rasmlarni oltita kvadratga qirqib chiqadi. Bolaga har bir kvadratdagi tasvirlar ketma-ketlikda beriladi. (Rasmlar tartib raqami bilan belgilangan) va qaychi bilan figuralarni imkoni boricha tez va aniq qirqib olish kerak.



12-rasm

### Natijalarni baholash

Metodika natijalarini baholashda, bola topshiriqni bajarishga sarflangan vaqt va aniqlikka e'tibor qaratiladi.

10 ball – hamma figuralar bola tomonidan 3 daqiqadan kam vaqtda qirqib olinsa hamda figuralar konturi andazadan 1 mm.dan ko'p farq qilmasa qo'yiladi;

8-9 ball – hamma figuralar 3 daqiqadan 4 daqiqagacha qirqib olinsa hamda figuralar konturi aslidan 1.mm dan 2 mm.gacha farq qilmasa qo'yiladi;

6-7 ball – hamma figuralar 4 daqiqadan 5 daqiqagacha qirqib olinsa hamda figuralar konturi aslidan 2.mm dan 3.mm gacha farq qilmasa qo'yiladi;

4-5 ball – hamma figuralar 5 daqiqadan 6 daqiqagacha qirqib olinsa hamda figuralar konturi aslidan 3 mm.dan 4 mm.gacha farq qilmasa qo'yiladi;

2-3 ball – hamma figuralar 6 daqiqadan 7 daqiqagacha qirqib olinsa hamda figuralar konturi aslidan 4 mm.dan 5 mm.gacha farq qilmasa qo'yiladi;


0-1 ball – bola topshiriqni 7 daqiqadan ko'p vaqt mobaynida bajara olmasa hamda qirqib olingan figuralar konturi aslidan 5 mm.dan ko'p farq qilsa qo'yiladi.

### «Tasvirlarni ko'chirish» metodikasi

Ushbu metodika 3 yoshdan 4 yoshgacha bo'lgan bolalarga mo'ljallangan. Topshiriqning mohiyati shundan iboratki, 13-rasmda o'ng tomondagi maxsus tayyorlab qo'yilgan kvadratlar ichiga, shu rasmdagi, chap tomonda berilgan kataklar ichidagi tasvirlarni ko'chirish kerak. Buning uchun bolaga qora flomaster hamda quyidagicha ko'rsatma beriladi:

«O'ng tomondagi kataklarga, aynan chap tomondagi figuralarga o'xshash rasmlarni chizish kerak. Bunda iloji boricha toza va bo'yaladigan joylarda bo'shliq qoldirmaslikka hamda figuralar konturidan chiqib ketmaslikka harakat qilish lozim».

Topshiriqni bajarishga ajratilgan vaqt – 5 daqiqa.



13-rasm.

### Natijalarni baholash.

10 ball – bola hamma topshiriqni 5 daqiqa mobaynida bajarib bo‘ldi. Unda bo‘yaladigan joylarda bo‘shliq qolmasa, chizilgan figuralar konturi esa topshiriq andozasidan 1 mm.dan ko‘p farq qilmasa qo‘yiladi;

8 - 9 ball – bola topshiriqni bajarishga 5 daqiqa vaqt sarflasa, bo‘yaladigan har bir figuralarning 1-2 joylarida bo‘shliq qolsa, chizilgan figuralar konturi aslidan 1 mm.dan ko‘p farq qilmasa qo‘yiladi;

6 - 7 bal – bola topshiriqni bajarishga 5 daqiqa vaqt sarflasa, bo‘yaladigan har bir figuralarning 3 - 4 joyida bo‘shliq bo‘lsa, chizilgan bir necha figuralar konturi aslidan 1,5 mm.dan ko‘p farq qilmasa qo‘yiladi;

4 - 5 ball – bola 5 daqiqada 4 - 5 figurani bo‘yashga ulgursa, ammo bo‘yalgan figuralarning 5 dan 1 qismidan kam joylarida bo‘shliq bo‘lsa va aslidan 2 mm.gacha farq qilmasa qo‘yiladi;

2 - 3 – ball bola 5 daqiqada 2 - 3 figurani bo‘yashga ulgursa, ammo bo‘yalgan figuralarning 5 dan 1 qismidan kam joylarida bo‘shliq bo‘lsa va aslidan 2 mm.gacha farq qilmasa qo‘yiladi;

0-1 ball – bola 5 daqiqada bitta figurani bo‘yashga ulgursa hamda bo‘yalgan figuraning 4 dan 1 qismida bo‘shliq bo‘lsa va figura aslidan 3 mm.gacha farq qilmasa qo‘yiladi;

Taraqqiyot darajasi haqida xulosa chiqarish.

10 ball — juda yuqori

8- 9 ball — yuqori

4- 7 ball — o‘rtacha

2 - 3 ball — past

0 - 1 ball — juda past

Bolalar topshiriqni bajarishda xatoga yo‘l qo‘yadilar. Lekin ular bu topshiriqni tezroq bajarish. 10-11 yoshli bolalar qo‘llanmani yaxshi tushunadilar, o‘z xatolarini o‘zlari tuzatishadi.

### KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILAR PSIXODIAGNOSTIKASINING O‘ZIGA XOSLIGI

Bolalarda maktabga chiqish vaqtida psixologik rivojlanish darajasiga ko‘ra o‘ziga xos xususiyatlar paydo bo‘ladi. Bu xususiyatlar shundan iboratki, bolalar bir-birlaridan intellektual-axloqiy jihatdan farqlanadilar. Ular bir xil ko‘rsatma va psixodiagnostik holatga har xil javob berishlari mumkin. Ba'zi maktabga kirayotgan bolalarga kattalar uchun mo‘ljallangan psixodiagnostik testlar mos keladi. Ayrim rivojlanishi past bo‘lganlariga bog‘cha yoshidagi bolalar uchun mo‘ljallangan testlar to‘g‘ri keladi. Asosan, o‘z-o‘zini verbal baholash, tashqi

muhitni ongli baholash holatidagi testlarda bu aniq bilinadi. Shuning uchun kichik maktab yoshidagi bolalar bilan u yoki bu psixodiagnostik testni o'tkazishdan avval bolaning real psixologik rivojlanishiga mos keluvchi testni tanlab olish kerak. 6-7 yoshdagi bolalarning maktab ta'limiga tayyorgarligiga oid empirik ma'lumotlarga ko'ra, 50 foizdan 80 foizgacha bolalar u yoki bu jihatdan boshlang'ich ta'lim dasturini o'zlashtirishga tayyor emas. Ko'p bolalar maktabga chiqishga tayyor bo'lsalar-da, aqlan 5-6 yosh darajasida rivojlangan bo'ladi. Agar bunday bolaga uning uchun murakkab va qiziqarsiz psixologik testlar berilsa, bu testlar rivojlangan aql, diqqat-e'tibor va xotira talab qilganligi sababli, ular testni bajara olmaydilar. Bu intellektual qobiliyatning yo'qligi emas, shaxsiy psixologik rivojlanish etarli bo'lmaganligi sababli sodir bo'ladi.

Agar vazifa o'yin sifatida qiziqarli qilib berilsa, test natijasi yuqori bo'lishi mumkin. Mazkur holatlar bolalar psixodiagnostikasida amaliy psixologlar tomonidan hisobga olinishi kerak.

3-4 - sinf o'quvchilari uchun qiziqarli va kattalarga mo'ljallangan testlar to'g'ri kelishi ham mumkin. Test o'tkazishda faollik, ruhiy qiziqish Yuqori bo'lsa, natija ham Yuqori bo'ladi. Agar kattalar test vaqtida ongli ravishda irodasini ishga solib o'zini boshqara olsalar, kichik yoshdagi maktab bolalari va hatto o'smirlar ham buni bajara olmaydilar.

Kattalar uchun mo'ljallangan testlarni kichik maktab yoshidagi bolalarga qo'llashda ma'lum cheklashlar mavjud. Bu cheklanishlar shaxslararo munosabatlar, shaxs va idrokni tahlil qilishga mo'ljallangan testlarga tegishlidir. Kattalar uchun qo'llanilayotgan intellektual (aqliy) testlarning ko'pchiligi so'z-mantiqiy tafakkurning rivojlanish darajasini aniqlash uchun ishlatiladi. Bu xususiyat kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida taraqqiy etib, o'smirlik davriga kelib rivojlanishi tugallanadi. Amaliyot va hayotdagi o'rniga ko'ra, kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida ko'rgazmali-harakat va ko'rgazmali-obrazli tafakkur so'z-mantiqiy tafakkurdan ustun turadi. Bundan tashqari, katta odamlar uchun mo'ljallangan testlar ularning hayotiy tajribasini hisobga olgan holda tuziladi. Shuning uchun bu testlar kichik bolalarda qo'llanganda jiddiy yondashish va soddalashtirilishi lozim. Ba'zan kichik maktab yoshidagi bolalar uchun yangi variantdagi testlar tuzishga to'g'ri keladi. Bu holatda yangi muammo tug'iladi, ya'ni bir psixologik sifatni, tuzilishi va ma'nosi har xil testlarning natijasini solishtirish orqali aniqlash lozim bo'ladi. Kattalarni turli testlar yordamida baholash, ularni solishtirishni talab qiladi va doimo bir xil natija bermaydi. Testlararo solishtirishning natijasi o'tkazish koeffitsienti bilan baholanadi. Bunda bir testdan ikkinchi testga o'tishda mumkin bo'lgan xato ko'zda tutiladi. O'tkazish koeffitsienti bir psixologik xususiyatni baholash uchun mo'ljallangan ikki usul natijalari sifatida qaraladi.

O'tkazish koeffitsienti uchun tekshiriluvchilarning soni etarli darajada ko'p bo'lishi, shaxsiy ko'rsatkichlar dispersiyasi esa juda kichik bo'lishi kerak. Masalan; o'smirlar Vekslning bolalar va kattalar uchun mo'ljallangan testlaridan, 1- da 100 foiz ko'rsatkich, 2 - da esa 85 foiz ko'rsatkich bilan baholanishdi. O'tkazish koeffitsienti 1,25 ni tashkil qiladi. Bu koeffitsient kichik maktab yoshidagi bolalar uchun mo'ljallangan test natijasini katta yoshdagilar uchun mo'ljallangan test natijasiga bo'lib olinadi. Olingan 1,25 natija amaliy psixolog uchun bolalarni kichik yoshdagi bolalar test varianti bilan tekshirib, o'smirlarni katta yoshdagi odamlar testi bilan tekshirish, bu bevosita ko'rsatkichlarni 1,25 ga bo'lib yoki ko'paytirib katta yoshlilar testi natijasiga solishtirish imkonini beradi.

Katta yoshlilar uchun mo'ljallangan shaxsni o'rganuvchi testlarni bolalar psixodiagnostikasida qo'llashdagi cheklanishlar jiddiy ahamiyatga ega, chunki kattalardagi sifatlar kichik bolalarda, aksincha, kichik bolalardagi o'ziga xos xususiyatlar kattalarda bo'lmasligi ham mumkin. Shuning uchun katta yoshlilar testi etarli darajada validlikka ega bo'lmasligi ehtimoli mavjudligidan, birinchi tomondan, hali boladagi yo'q xususiyatni baholash kerak bo'ladi. Ikkinchi tomondan, ulardagi biror-bir xususiyat baholanmay qolishi mumkin.

Bu holatdan chiqish uchun katta yoshlilar testini bolalar uchun qo'llashda uning psixologik o'sishini va yoshga bog'liq psixologik xususiyatlarni bilish lozim. Bularni bilgan holda test natijalarini baholash mumkin. Bolalar va kattalarning shaxsiy rivojlanish darajasini bevosita solishtirish, baholash juda qiyin, kattalar shaxsini miqdoriy baholashdan ko'ra sifat jihatdan baholash muhimrokdir. Lekin miqdorni baholashning ham alohida o'рни mavjud.



Tavsiya etilayotgan psixodiagnostik metodlar tizimidan maktabga kirayotgan kichik yoshli bolalarning va boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy jarayonlarini, shaxsiy va shaxslararo munosabatlarini, ulardagi amaliy ko'nikmalarni baholash maqsadida foydalaniladi. Bu tizim asosida bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligini, ularning boshlang'ich sinflarda o'zlashtirish darajasini baholash mumkin. Bunday psixodiagnostik baholash kompleksiga quyidagilar kiradi:

1. Atrof-muhitda umumiy mo'ljal olish.
2. Bolalarning maktab ta'limiga munosabati.
3. Diqqat-e'tibor.
4. Xotira.
5. Tafakkur.
6. Nutq.
7. Badiiy-tasviriy qobiliyat.
8. Maktab malakasi va ko'nikmalari.
9. Muvaffaqiyatga erishish motivlari.
10. Shaxs xususiyatlari.
11. Shaxslararo munosabatlar.

Bu to'plamga kiritilgan metodikalardan foydalanib, bolaning maktabga tayyorligi yoki tayyor emasligini baholash va rivojlanishdan oldinda borayotganligini aniqlash mumkin. Bu usullar bolaning qobiliyatlarini aniqlash va u bilan maqsadga muvofiq holda mashg'ulot olib borishga yordam beradi. Metodikalar to'plami maktabdagi muayyan bir tarbiyaviy ishlarning samaradorligini to'g'ri baholash imkonini berish bilan birga 6–7 yoshdan 10–11 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'rganishda qo'llash mumkin bo'lgan usullarni ham o'z ichiga oladi. Bu usullar yordamida olingan baholar bitta yagona standart tizimga o'tkaziladi va kichik maktab yoshidagi maktab o'quvchisining psixologik rivojlanishi individual xaritasiga yoziladi.

To'plamga 3 xil tipdagi metodikalar kiritilgan.

1. Bola endi maktabga kirayotganda qo'llaniladigan uslublar.
2. Maktab ta'limiga tayyorgarligini va ruhiy rivojlanganligini baholovchi testlar.
3. Bolaning ruhiy rivojlanishini aniqlovchi testlar.

Bolalar uchta asosiy sohada – bilish jarayonlari, shaxs xususiyatlari, shaxslararo munosabatlar asosida psixologik jihatdan o'rganiladi. Agar bolaning ruhiy rivojlanish darajasi baholanishi zarur bo'lsa, ularning har biri maxsus usullar bilan baholanishi mumkin.

Bu to'plamdagi metodikalar diqqat, tafakkur, xotira, nutq va idrokning rivojlanish darajasini aniqlaydi. O'quv faoliyati motivatsiyasi, muvaffaqiyatga erishish, o'rtoqlari va katta yoshlilar bilan munosabat xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan. Psixologiyada har bir bilish jarayonlarini o'rganishda turli-tuman natijalar olinganligi sababli metodikalarning minimal aniqligiga e'tibor berilgan. Birinchidan, bola tarbiyasiga ta'sir etuvchi holatlar, ikkinchidan, o'qitish va tarbiya ta'sirida shakllanadigan xususiyatlar, masalan: diqqat - e'tibor, xotira, idrok, tafakkur, nutq, tasavvur, muvaffaqiyat motivatsiyasi va shu kabilar. Har bir metodika bitta ko'rsatkichni baholash imkonini beradi va 5–10 daqiqa vaqt talab qiladi. Har bir bolani har tomonlama tekshirish uchun 3–6 soat vaqt kerak bo'ladi. Tavsiya etilayotgan uslublar yordamida bolani psixodiagnostika qilish quyidagi vazifalar echimini ta'minlaydi:

1. Mazkur bola qanday rivojlanayotganligini aniqlash.
2. Boladagi layoqat va qobiliyatni o'z vaqtida aniqlash.
3. O'qishdan ortda qolish noto'g'ri tarbiyaning sababini topish.
4. Kelajakda tanlanadigan kasbga tayyorlanish va tanlash uchun bolaga, o'qituvchiga va ota-onalarga ilmiy asoslangan tavsiyalar berish.

Bu metodikalar yordamida bolani tekshirishda vaqtni tejashning yana bir usuli yakka tartibda emas, balki guruhviy tekshirish olib borishdir. Bu shart-sharoitlar to'g'risida har bir uslubdan keyin yozma izohlar berilgan. Agar izohlar yo'q bo'lsa, bu uslubni ham yakka tartibda, ham guruh sharoitida qo'llash mumkin.

Psixodiagnostik tekshirishga kirishishdan oldin quyidagilarni bajarish lozim:

1. Metodika matnini diqqat bilan o'qib, tanishib chiqish kerak.

2. Izohlar mavjud bo'lsa, uni o'qish lozim.
3. Metodikani qo'llash uchun kerakli narsalarni tayyorlash.
4. Metodika yordamida hech bo'lmasa bir bolani sinov uchun mukammal tekshirib, natijalarni tahlil qilib ko'rish lozim.

### **Bolaning maktab ta'limiga tayyorgarligi va bilish jarayonlari rivojlanish darajasini aniqlash metodlari**

Bolalarning maishiy turmush haqidagi tushunchalarini aniqlash, atrof-muhitda mo'ljal ola bilishini o'rganish. Bolaning turmush haqidagi tushunchalar boyligiga: o'zi, yaqinlari, qarindoshlari, atrofdagilari, u yashayotgan hududdagi kishilar, bu Yumlar haqidagi tushuncha va bilimlari kiradi. Bunday bilimlar bola ulg'aygan sari ortib boradi.

Turmush haqidagi tushunchalar boyligini tadqiq etish uchun 6–7 yoshdan 10–11 yoshgacha bolalarga beriladigan savollar 10 tadan oshmasligi kerak. Har bir yosh uchun savollar ma'no jihatidan bir xil bo'lsa ham, lekin asta-sekin murakkablashib boradi. Masalan: maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaga «Isming nima?» deb savol bersak, 1-sinf o'quvchisiga bu savol biroz boshqacha beriladi: «Isming va familiyang kim?», 2-sinf: «Ota-onangning ismi va familiyasi qanday?», 3-sinf: «Buving va buvangning familiyasi va ismi qanday?» tarzida o'zgarib boradi. Savollarning har bir yosh xususiyatlarini, shu yoshdagi turmush haqidagi tushunchalar boyligini, shu savollarga javob bera olish qobiliyatini hisobga olib tuzilganligi Yuqoridagi misoldan ham ko'rinib turibdi. Har bir yoshdagi bola shu savollarga javob bera olishiga qarab ball bilan baholanadi.

Quyidagi metodikada javoblar 0-1 ball bilan baholanadi. Lekin ba'zan shunday holatlar xam bo'ladi, bolaning javobini 0 - 1 ball bilan baholab bo'lmaydi, shuning uchun mezonga 0,5 ballni kiritishga to'g'ri keladi. Ba'zan savollarga javob berish jarayonida bola savolga bilmagani uchun emas, bu savolga javob berish imkoniyati yo'qligi yoki xohlamagani uchun javob bermasligi ham mumkin va tadqiqotchi bunday holatni e'tiborga olishi kerak.

#### **TAFAKKURNI DIAGNOSTIKA QILISH METODLARI**

#### **«Ob'ektlarning o'xshashligi va farqini aniqlash, sababini tushuntirish, tushunchalarni ta'riflash» metodikasi**

Biz tushunchani ta'riflash, sabablarini izohlash, predmetlarning o'xshashlik va farqini aniqlash kabi tafakkur jarayonlarini baholash orqali bolaning aqliy rivojlanish darajasini o'rganishimiz mumkin.

Bu tafakkur jarayonlari bolaning quyidagi savollarga to'g'ri javob berishiga qarab aniqlanadi.

1. Bu hayvonlarning qaysi biri katta? Otmi it?
2. Ertalab odamlar nonushta qiladi. Kunduzi va kechqurun ovqatlanganda-chi? (To'g'ri javob: Tushlik va kechki ovqat)
3. Kunduzi ko'chada yorug', kechqurun-chi? (To'g'ri javob – qorong'i).
4. Osmon ko'm-ko'k, o'tlar-chi? (To'g'ri javob: yashil rangda).
5. Gilos, nok, olxo'ri va olma – bu ... (To'g'ri davom ettirish – mevalar).
6. Poezd o'tayotganda nega shlagbaum tushiriladi?
7. Toshkent, Xiva, Samarqand – nima? (To'g'ri javob –shaharlar).
8. Soat necha bo'ldi? (Bolaga soatni ko'rsatib, vaqtni aytib berish so'raladi) (To'g'ri javob: soat millari ko'rsatgan vaqt).
9. Sigirning kichigini buzoq deyiladi. Kichik it va qo'yni nima deyiladi? (To'g'ri javob: kuchuk va qo'zi).
10. It ko'proq nimaga o'xshaydi? Mushukkami tovuqqa? Javob ber va tushuntirib ber, nima uchun shunday deb o'ylaysan?
11. Avtomobilga tormoz nima uchun kerak? (Kerak bo'lganda avtomobil tezligini pasaytirishni ko'rsatuvchi biror-bir javob to'g'ri deb topiladi).
12. Bolta va arra bir-biriga qay jihatdan o'xshash? (Bajariladigan ishlarni ko'rsatuvchi javob to'g'ri).

13. Olmaxon bilan mushuk orasida qanday o'xshashlik bor? (Kamida ikkita o'xshash belgilarni to'g'ri ko'rsatilgan javob to'g'ri. Masalan, bular – hayvonlar daraxtga chiqa oladilar, qalin yung bilan qoplanganligi, dumi va to'rtta oyog'i borligidir).

14. Mix, vint, shurup bir-biridan nimasi bilan farq qiladi? (To'g'ri javob – mixning yuzasi tekis, vint va shurup burama kertikli; mix bolg'a bilan uriladi, vint va shurup buraladi; shurup konus shaklida, vint va mix yumaloqdir).

15. Futbol, uzunlikka va balandlikka sakrash, tennis, suzish nima? (To'g'ri javob – bular sport turlari, jismoniy mashqlar turi).

16. Transportning qanday turlarini bilasiz?

(transport vositasining kamida ikki turini aytishi kerak).

17. Yoshlar katta odamdan qanday farqlanadi? (Javobda keksalar bilan yoshlar o'rtasidagi kamida ikkita farq sanaladi).

18. Nima uchun odamlar jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanadi? (Quyidagi javoblar to'g'ri deb topilishi mumkin – o'zining salomatligini saqlab turish, kuchli bo'lish, qaddi-qomati kelishgan bo'lishi, chiroyli bo'lish, sportda muvaffaqiyat qozonish va musobaqalarda Yutish uchun).

19. Nima uchun ishlamaslik yomon deyiladi? (To'g'ri javob variantlari – chunki hamma odamlar ishlashlari kerak, negaki, yaxshi yashab bo'lmaydi; chunki bu odam o'rniga boshqalar ishlashi kerak bo'ladi; ishlamas, kerakli narsalarni sotib ololmaydi; oziq-ovqat, turar joy va boshqalar)

20. Nima uchun konvertga marka yopishtiriladi?

(To'g'ri javob – pochta orqali jo'natilayotgan xabarlar uchun to'lanadigan haq)

Natijalarni qayta ishlash

Har bir to'g'ri javob uchun 0,5 ball beriladi, bolaning to'plashi mumkin bo'lgan Yuqori ballar 10 ga teng bo'ladi.

Izoh. Bolaning mustaqil fikr yuritib, savolning mohiyatiga mos keladigan javobi ko'rsatilgan javobda bo'lmasa ham to'g'ri hisoblanadi.

Yuqoridagi metodika maktabga kirayotgan bolaning so'z-mantiqiy fikr Yuritish qobiliyatini psixologik tashxis qilish uchun qo'llaniladi. Bu metodika Yuqorida aytilgan aqliy, xulosa chiqara olish qobiliyatidan tashqari bolaning aqliy fikrlay olish faoliyati to'g'risida ham ozmi-ko'pmi xulosa qilish imkonini beradi.

Tekshiruvchida bola javobining to'g'riligiga ishonch noto'g'ri deb xulosa chiqarish uchun asos bo'lmasa, u holda bunday javobga 0,5 ball beriladi.

Bolaning javobini to'g'ri noto'g'ri deb baholashdan avval bola savolni to'g'ri tushunganligiga ishonch hosil qilmoq kerak. Masalan: hamma bolalar ham shlagbaum nimaligini bilavermaydi va bu savolning ma'nosini anglab eta olmaydilar.

Ba'zan «ishlamoq» so'zi ham qo'shimcha tushuntirish talab qiladi, chunki maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning hammasi ham buni bila olmaydilar.

Rivojlanish darajasi haqida xulosa:

10 ball – juda yuqori

8-9 ball – yuqori

4-7 ball – o'rtacha

2-3 ball – quyi

0-1 ball – juda past

#### «Miyada hisoblay olish» metodikasi

Ushbu metodika yordami bilan bolaning arifmetik amallarni va turli xil kasr sonlar ya'ni, oddiy, o'nli, butun kasrlarni tezlik bilan ishlay olish qobiliyatini psixodiagnostika qilish mumkin. Agar bolaga sanoq maktab yoshiga qadar o'rgatilgan bo'lsa, unda berilgan metodikani maktabgacha tarbiya yoshidan boshlab qo'llash mumkin. Asosan, bu metodika maktab yoshidagi o'quvchi bolalarning qobiliyatlarini baholashga xizmat qiladi.

Jadvalda berilgan misollar namunasini bolaga tartib bilan oddiydan murakkabga qarab o'qib eshittiriladi. Bola tezlik bilan o'qilgan misollarni miyasida ishlab, og'zaki javob berishi lozim. Jadvalning o'ng va chap tomoniga to'g'ri ishlangan arifmetik misolning ballari keltirilgan.

Jadvaldagi keltirilgan barcha namunalar guruhlarga ajratilgan. Agar berilgan guruhlardagi 3 misoldan, 2 tadan kam bo‘lmagan misolni echa olmasa, unda bolaga aniq bali yozib qo‘yiladi. Jadvaldagi namunada ballar miqdoriga mos keluvchi baholar bir-biridan gorizontal yo‘nalishdagi chiziqlar bilan ajratilgan. Ular orasida bolaning berilgan misollarga to‘g‘ri javobi uchun oladigan ballari joylashgan. Topshiriqni to‘la bajarishga ketgan umumiy vaqt 5 daqiqaga teng. Topshiriq mohiyati bola shu vaqt ichida qancha ko‘p misol ishlashi bilan belgilanadi. Namunada berilgan to‘g‘ri javoblar faqatgina tadqiqotchiga ma‘lum bo‘lishi kerak, bu unga bolaning javoblarini tekshirib borishda qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

### 16-jadval

«Miyada hisoblay olish» metodikasiga misollar

Baholar ballda		Misollar		Baholar ballda	
00,8	0 0 ,1	1. $5+2=7$ 2. $4+5=9$ 3. $6-2=4$	25. $0,83+0,12=0,95$ 26. $0,47+0,35=0,82$ 27. $0,22-0,13=0,09$	0 0 ,7	3,2
	00,2	4. $9-6=3$ 5. $3*2=6$ 6. $2*4=8$	28. $0,87-0,43=0,44$ 29. $0,22 0,1=0,022$ 30. $0,15*02=0,03$	0 0 ,8	
	00,2	7. $9/3=3$ 8. $6/2=3$ 9. $10+6=16$	31. $0,21:0,1=2,1$ 32. $0,48:0,24=2,0$ 33. $\%+1/4=1/2$	00,8	
	00,3	10. $12+4=16$ 11. $16-4=12$ 12. $19-7=12$	34. $1/4+2/4=3/4$ 35. $3/5+1/8=29/40$ 36. $9/6-5/16=1/4$	00,9	
11,6	00,3	13. $4*3=12$ 14. $6*3=18$ 15. $18/3=6$	37. $1/3*1/3=1/9$ 38. $2/8*3/8=3/32$ 39. $4/5:2/5=2,0$	00,9	2,0
	00,4	16. $15/5=3$ 17. $25+32=57$ 18. $41+23=64$	40. $5/16:3/16=5/3$ 41. $1/2+2/4=1,0$ 42. $8/32+3/4=1,0$	11,1	
	00,4	19. $43-17=26$ 20. $67-21=46$ 21. $16*5=80$	43. $9/10-2/5=1/2$ 44. $9/16-3/4=3/16$ 45. $2/6:1/2=1/6$	11,1	2,4
	00,5	22. $22*4=88$ 23. $48/12=4$ 24. $84/14=6$	46. $3/16: U_4=9/64$ 47. $4/12:2/3=1/2$ 48. $8/32:4/16=1$	11,3	

Bola tomonidan 5 daqiqa vaqt ichida to‘plagan ballarning yig‘indisi keyinchalik 10 ballik shkala asosida standartlashtirilgan ballarga o‘tkaziladi.

#### Rivojlanish darajasi haqida xulosa:

7,7 ball va undap ko‘p – juda Yuqori; 5,7-7,6 ball – Yuqori; 2,5-5,6 ball – o‘rtacha; 0,9 - 2,4 ball – past; 0,8 baldan kam– juda past.

Bunda 7,7 – 10.0 gacha oraliqdagi ballar yig‘indisi juda yaxshi natijani ko‘rsatib, bolaning matematik qobiliyati kuchli ekanligidan dalolatdir.

5,7-7,6 gacha oraliqdagi ballar ko‘rsatkichi yaxshi natijani bildirib, bolaning matematik qobiliyati o‘rtacha ekanligini ko‘rsatadi.

2,5-5,6 gacha oraliqdagi ballar bolaning matematik qobiliyatlarini kuchsiz ekanligini ko‘rsatadi.

0,9-2,4 gacha oraliqdagi ballar natijasi bolaning matematikani o‘zlashtirish uchun qobiliyatsizligidan dalolat beradi.

0,8 dan oz natija ko'rsatkichi bolaning matematik tafakkuri rivojlanishdan orqada qolganini bildiradi.

### «Rubik kubiklari»

Bu metod bolaning ko'rgazmali-harakat tafakkurining rivojlanish darajasini tashxis qilish uchun mo'ljallangan. Bizga tanish bo'lgan Rubik kubiklaridan foydalanib, bolaga murakkablik darajasi har xil bo'lgan amaliy vazifalar beriladi, bu vazifalarni tig'iz vaqt sharoitida echish taklif qilinadi. Quyida shunday topshiriqlardan 9 tasi keltirilgan va so'ngida qavs ichida ballar miqdori ko'rsatilgan. Ushbu ballar bola 1 daqiqada echgan topshiriq soni bilan belgilanadi. 9 ta masalani echish uchun 9 daqiqa vaqt beriladi.

**Eslatma:** 1 topshiriqni echgandan so'ng ikkinchisiga o'tishda Rubik kubiklari rangi o'zgartirilib beriladi.

1-topshiriq: Bir xil rangdagi 3 ta kvadratdan xohlagan Yuzasi bilan ustuncha chiziqcha shaklini yasash (0,3 b).

2-topshiriq: Bir xil rangdagi kvadratlardan xohlagan Yuzasi bilan 2 ta ustuncha 2 ta chiziqcha yasash (0,5 b).

3-topshiriq: Bir xil rangdagi kvadratchalardan kubikning bir tomonini yasash (0,7 b).

4-topshiriq: Ma'lum bir rangda yuza yasash va unga 1 ta chiziqchani ustunchani 3 ta kvadratlardan yasab yondashtirish (0,9 b).

5-topshiriq: Kubikning yuzasini to'la yig'ib, unga qo'shimcha xuddi shu rangda 2 ta chiziqcha ustuncha yasab yondashtirish (1,16).

6-topshiriq: Kubikning 2 ta yuzasini bir xil rangdagi kvadratlardan yasash (1,3 b).

7-topshiriq: 2 ta yuzasi bir xil 2 ta kubik yasash va undan tashqari xuddi shu rangdagi kvadratlardan bir ustun bir chiziqcha yasash (1,5 b).

8-topshiriq: Bir xil rangdagi kvadratlardan 2 ta kubik yuzasi yasab, yoniga o'sha rangda bir xil 2 ta chiziqcha ham qo'yish (1,7 6).

9-topshiriq: Kubikning 3 ta yuzasini bir xil rangda yasash (2,0 b).

### Natijani baholash

Agar to'plangan ballar 10 ga teng bo'lsa, ko'rgazmali-harakat tafakkuri juda Yuqori darajada rivojlangan.

Berilgan vaqt davomida bola vazifani to'g'ri hal qilib, 4,8-8,0 ball to'plagan bo'lsa bu tafakkur turi yuqori darajada rivojlangan.

1,5-3,5 ball – bu tafakkur turining o'rtacha rivojlanganligini bildiradi, bola maktab ta'limiga tayyor hisoblanadi.

1,5 ballgacha – ko'rgazmali-harakat tafakkuri yaxshi rivojlanmagan, bola maktab ta'limiga tayyor emas.

### Klassifikatsiya

Guruhlar bo'yicha klassifikatsiya qilish metodikasi birinchi marta K.Goldstein (1920) tomonidan taklif etilgan bo'lib, keyinchalik L.S.Vigotskiy (1934) va B.G.Zeygarnik (1958) tomonidan o'zgartirilgan. Metodika umumlashtirish va mavhumlashtirish jarayonlari darajasini o'rganish uchun qo'llaniladi. Shu bilan tajriba vaziyatida topshiriqni bajarayotganda sinaluvchi xulq-atvor xususiyatlari, uning xatolarga munosabati hamda yordam berilganda, ularni kuzatish qobiliyatlari ko'rinadi.

Tajriba o'tkazish uchun har xil predmetlarning, o'simliklarning, hayvonlarning rasmlari tasvirlangan kartinkalar kerak bo'ladi. Bunda rasmlarda B.V.Zeygarnik (1958) taklif etgan rangli bezash, turli umumlashtirish darajalari aks etgan bo'lishi kerak. Bog'cha bolalarini tekshirishda (S.YA.Rubinshteyn, 1970) kartochozalarning ba'zilaridan (o'lchash asboblari, o'quv qurollari) foydalanmaslik kerak, chunki bolalar ular haqida hech qanday tasavvurga ega emaslar. Bu metodikalarning boshqa variantida predmetlarning, o'simliklarning, hayvonlarning nomlari kartochozalarga yozilgan bo'lishi mumkin. Bu (og'zaki) variantini kattaroq bolalarni (3–4-sinf o'quvchilarini) tekshirishda qo'llash mumkin.

Shunday qilib, metodikaning birinchi varianti predmetli klassifikatsiya, ikkinchi varianti – og‘zaki klassifikatsiyadir, ikkala variant ham bolalarning umumlashtirish, yangi tushunchalarni shakllantirish qobiliyatini aniqlaydi.

Sinaluvchiga quyidagi qo‘llanma beriladi: «Hozir siz turli predmetlar, o‘simliklar, hayvonlar, tevarak atrofdagi barcha narsalar tasvirlangan kartochkalar to‘plamini olasiz. Siz ularni qaysi narsa nimaga kirishiga qarab guruhlariga ajratasiz». Keyin tadqiqotchi bir kartochkani olib sinaluvchidan unda nima tasvirlanganini so‘raydi. To‘g‘ri javob olgach, uni bir tomonga qo‘yib qo‘yadi. Keyin navbatdagi kartochkani olib, unda nima tasvirlanganini ham aniqlaydi. Bu tasvirlar bir-biriga qanchalik o‘xshashligi va farq qilishi ularni bir guruhga kiritish mumkinligini aniqlaydi. Sinaluvchi ko‘rsatmani tushunib, kartochkalarni mustaqil guruhlariga ajrata boshlaganidan so‘ng, tadqiqotchi tomonidan ko‘rsatiladigan yordam to‘xtatiladi. Klassifikatsiya metodida og‘zaki metodni qo‘llashda ham Yuqoridagi kabi ko‘rsatma beriladi. Bunda tadqiqotchi sinaluvchiga predmetlarning belgilari va xususiyatlarini ko‘rsatib, bir guruhga kiritish kerakligi haqida yo‘l-yo‘riq bermasligi kerak. Predmetli klassifikatsiya bo‘yicha tajribalar 3 guruhda bajariladi. Birinchi bosqichda sinaluvchi kartochkalarni ko‘rsatma bo‘yicha ajratadi. «Tadqiqotchi tadqiqot qarorida sinaluvchi harakatlarini, ajratish xususiyatlari (masalan, «shkaf», «pal‘to» «velosiped» va «sportchi» kartochkalarini qaysi guruhga kiritganligi)ni yozib boradi. Barcha kartochkalar guruhga ajratib bo‘linganidan so‘ng ikkinchi bosqichga o‘tiladi. Bir turdagi belgilariga ko‘ra kartochkalarni kattaroq guruhlariga birlashtirish haqida sinaluvchiga qo‘llanma beriladi. Ikkinchi bosqich sinaluvchi o‘z harakatlarni to‘g‘rilashga kirishganidan boshlanadi. Sinaluvchi ko‘rsatilgan yordamni qanday qabul qilishiga, o‘xshash xatolarni to‘g‘rilay olishiga e‘tibor qaratiladi. Bu bosqich eng uzoq davom etadi, chunki bu bosqichda topshiriqni bajarish davomida nima uchun har bir kartochka u yoki bu guruhga kiritilganligi aniqlanib, barcha harakatlar batafsil yozib boriladi. Sinaluvchi u yoki bu kartochkani bir guruhga kiritilganligiga emas, sinaluvchining tushunchalarni umumlashtirish qobiliyati ham aniqlanadi. («mebel’», «uy hayvonlari», «transport» va boshqalar). Sinaluvchi uchinchi bosqichda rasmlar guruhini birlashtirib, yanada kamroq guruhlar qolishi kerak va ularni qandaydir tushuncha bilan umumlashtirish kerak. Ba‘zan qo‘llanmada «o‘simliklar», «hayvonlar», «jonsiz predmetlar», «odamlar» deb guruhlar soni aniq ko‘rsatiladi.

Tadqiqotchi sinaluvchi topshiriqni bajarayotgan vaqtda tadqiqot qarorini to‘ldirib borishi zarur (17-jadval).

### 17-jadval

Predmetli klassifikatsiya bo‘yicha tadqiqot qarori

Tadqiqotchi harakatlari	Sinaluvchi harakatlari	Sinaluvchi tushuntirishlari

Klassifikatsiya metodikasidagi og‘zaki usul qo‘llanganda sinaluvchi aniq tushunchalar, so‘zlarni guruhlariga ajratishi kerak. Bu erda rasmning ta‘siri yo‘q bo‘lib, sinaluvchi so‘zlarning mazmunini yaxshi tushunadi, atrofdagi predmet va hodisalar haqida ma‘lum bilimlarga ega bo‘ladi. Shu bilan bir vaqtda klassifikatsiyaning bu usulida sinaluvchi predmetlarni o‘ziga ma‘lum guruhlariga ajratish qobiliyati osonlik bilan aniqlanadi. Tadqiqotchi sinaluvchi bilan birga tadqiqot natijalarini muhokama qilganda uning tafakkur jarayonlari xususiyatlari haqida qo‘shimcha ma‘lumot oladi.

Yuqorida qayd etilgan usullardan tashqari umumlashtirish geometrik figuralarni klassifikatsiya qilish metodikasi (Yu.F.Polyakov, 1954) ham qo‘llanishi mumkin. Tajriba o‘tkazish uchun 3 belgisiga: rangiga, shakliga, kattaligiga ko‘ra farqlanadigan geometrik figuralar tasvirlangan 2 ta to‘plam (har birida 24 tadan kartochka bor) kerak bo‘ladi. Geometrik figuralarning birinchi to‘plami erkin jadval sifatida bo‘lishi mumkin (8-ilova). Ikkinchi to‘plamda xuddi shu geometrik figuralar tasvirlangan alohida kartochkalar bo‘lib, bolaga belgilari bo‘yicha guruhlash uchun beriladi.

Tajriba boshida sinaluvchiga namuna 30 soniya ko‘rsatiladi va unga berilgan alohida kartochkalarni o‘xshash belgisiga ko‘ra 2 guruhga ajratish kerakligi aytiladi. Tadqiqot qarorida

ajratishga ketgan vaqt, xatolar xarakteri qayd etiladi. Tajriba jarayonida umumlashtirish qobiliyatini shakllantirish bo'yicha o'rgatuvchi dars elementlaridan foydalanish mumkin.

### Ortiqchasini o'chirish

Ortiqchasini o'chirish metodikasi umumlashtirish va chalg'ish, muhim belgini ajratish kabi tafakkur jarayonlari darajasini o'rganish uchun qo'llaniladi. Bu metodikaning ham ikki turi bor: predmetli va so'zli.

Metodikaning predmetli turida qo'zg'atuvchi material alohida qog'ozlarda berilishi zarur. Har bir qog'ozda (kartochkada) 4 ta predmet tasvirlangan (8-ilova). Rasmlar oq-qora rangli bo'lishi mumkin. Sinaluvchi 4 ta predmetdan, umumiy belgi bo'yicha birlashuvchi 3 tasini tanlashi kerak. Odatda quyidagi ko'rsatma beriladi:

«Bu rasmlarga diqqat bilan qarang. Bu erda 4 ta predmet tasvirlangan, siz 3 ta predmetni birlashtirib turadigan narsani topib, unga nom berishingiz kerak, bir predmet bu guruhga kirmaganligi uchun uni o'chirish kerak». Tadqiqotchi birinchi topshiriqni sinaluvchi bilan birga bajaradi, keyin u mustaqil ishga kirishadi. Bu metodikadan bolalarni va kattalarni tekshirishda foydalanish mumkin. Metodikaning og'zaki variantini 11-12 yoshdan katta bolalar uchun qo'llash mumkin. Tajriba o'tkazish uchun so'zlar qatori yozilgan maxsus toza varaq kerak bo'ladi. Qo'llanma: «Har bir qatorda 5 ta so'z bor, 4 ta so'zni bir guruhga kiritib, bu guruhga nom bering, bir so'z ortiqcha bo'lib, uni o'chirish kerak».

Stol, stul, karovat, pol, shkaf.

Sut, qaymoq, qatiq, suzma, go'sht.

Botinka, etik, bog'ich, tufli, shippak.

Bolg'a, arra, mix, bolta, randa.

Shirin, issiq, achchiq, nordon, sho'r.

Terak, tol, daraxt, archa, shaftoli.

Samolyot, arava, odam, kema, velosiped

Abror, Murod, Aziz, Asqarov, Nabi.

Santimetr, metr, kilogramm, kilometr, millimetr.

Pal'to, plash', ko'ylak, tugma, shim.

Uy, orzu, mashina, sigir, daraxt.

Tajriba natijalari tadqiqot qarorida qayd etiladi (18-jadval).

*18-jadval*

Ortiqchasini o'chirish metodikasi bo'yicha topshiriqlarni bajarish qarori sxemasi

Kartochka №	O'chirilgan predmet	Ajratilgan guruh (umumlashtiruvchi so'z)

To'g'ri va noto'g'ri echimlar bilan birga sinaluvchi qo'llanmani qanday tushunganligi, o'rgatuvchi darslardan so'ng o'z xatolarini to'g'rilanganligi haqida ham qayd etiladi. Sinaluvchining topshiriqni echishda o'z usulini tushuntirishiga ham e'tibor berish zarur.

### Muhim belgini ajratish

Bu metodika tafakkur xususiyatlarini, predmetlarning muhim belgilarini ajratish qobiliyatini tekshirishda foydalaniladi. Ajratiladigan belgilarni xarakteriga ko'ra, tafakkur uslubi, ya'ni aniq va mavhum tafakkurning ustunligi haqida bilish mumkin. Bu metodikani 3–4-sinf o'quvchilarini tekshirishda qo'llash mumkin.

Tajriba o‘tkazish uchun maxsus toza varaqqa yozilgan so‘zlar kerak bo‘ladi. Ko‘rsatma: «Har bir qatorda bir asosiy so‘z va 5 ta unga tegishli so‘z qavs ichida beriladi. Bu so‘zlardan qavs oldida turgan so‘zga ko‘proq aloqador bo‘lgan ikki so‘zning tagiga chizish kerak».

1. Bog‘ /daraxt, bog‘bon, qo‘rg‘on, er/
2. Daryo /sohil, baliq, baliqchi, suv, suv o‘tlari/
3. Shahar /avtomobil‘, bino, velosiped, ko‘cha, olomon/
4. Omborxonona /pichanxonona, ot, tom, mol, devorlar/
5. Kitob /rasmlar, urush, qog‘oz, sevgi, matn/
6. O‘yin /shaxmat, o‘yinchilar, jarimalar, jazo, qoida/
7. Musiqa /ovoz, san‘at, jarang, olqishlar, kuy/
8. O‘qish /ko‘z, asar, kitob, rasm, so‘z/
9. Kubik /burchaklar, chizma, tomonlar, tosh, daraxt/
10. Kasalxonona /xonona, bog‘, vrach, radio, bemorlar/
11. Bo‘lish /sinf, bo‘linuvchi, qalam, bo‘luvchi, qog‘oz/
12. Sport /medal‘, orkestr, musobaqa, g‘alaba, stadion/

Topshiriqni bajarishda sinaluvchining ko‘rsatmani tushunganligi, yo‘l qo‘ygan xatolariga e‘tibor qilinadi. Agar sinaluvchi topshiriqni bajarish shartlarini tushunmagan bo‘lsa, tadqiqotchi dastlabki ikki misolda topshiriqni qanday bajarish zarurligini ko‘rsatib beradi. Barcha hollarda sinaluvchining topshiriqni qanday bajarganligini muhokama qilish zarur. Ba‘zi muhokama jarayonida sinaluvchi qo‘shimcha fikrlar bildiradi, xatolarni to‘ldiradi. Sinaluvchining xatolari aniq-vaziyatli tafakkur xususiyatlarini aks ettirishi bilan, shoshmashosharlik natijasi bo‘lishi mumkin.

## **IJODIY TAFAKKURNI ANIQLASH METODIKALARI**

### **“Tasniflash” metodikasi<sup>2</sup>**

Mazkur metodika semantik materialda divergent tafakkur mahsuldorligini tekshirish uchun qo‘llanadi. Metodikaning qo‘llanish tartibi. Sinaluvchilarga narsa-bu Yumlarning bir guruhi – o‘q, ari, timsoh, baliq, ilon, qayiq, musicha kabilarni turli belgi va xususiyatlariga ko‘ra imkon qadar ko‘proq (xilma- xilroq) tasniflarga ajratish taklif qilinadi.

Ish uchun ajratilgan vaqt – 8 daqiqa.

Natijalarni qayta ishlash. Sinaluvchi tomonidan narsa-buyumlarni tasniflash orqali hosil qilingan guruhlar miqdori hisoblanadi hamda ushbu ko‘rsatkich semantik material bilan ishlashda divergent tafakkur mahsuldorligi ko‘rsatkichi sifatida talqin etiladi.

### **“Gaplar” metodikasi<sup>3</sup>**

Mazkur metodika ramziy material bilan ishlashda divergent tafakkur mahsuldorligi (verbal kreativlik) darajasini aniqlash uchun qo‘llanadi.

Metodikaning qo‘llanish tartibi. Sinaluvchilarga uch harf – D, M, T harflari bilan boshlanuvchi so‘zlardan tashkil topadigan gaplar tuzish taklif qilinadi.

Ish uchun ajratilgan vaqt – 8 daqiqa.

Natijalarni qayta ishlash. Sinaluvchi tomonidan ajratilgan vaqt ichida qoidaga binoan tarzda nechta gap tuzilgani hisoblanadi hamda ushbu ko‘rsatkich ramziy material bilan ishlashda divergent tafakkur mahsuldorligi (verbal kreativlik) ko‘rsatkichi sifatida talqin etiladi.

### **“Vartega doiralari” metodikasi<sup>4</sup>**

<sup>2</sup> Golovey L.A., Ribalko E. F. Praktikum po vozrastnoy psixologii. SPb., 2001. S. 234–238.


<sup>3</sup> Golovey L.A., Ribalko E. F. Praktikum po vozrastnoy psixologii. SPb., 2001. S. 234–238.

<sup>4</sup> Golovey L.A., Ribalko E. F. Praktikum po vozrastnoy psixologii. SPb., 2001. S. 234–238.



Mazkur metodika ijodiy tafakkurning uch asosiy sifati – tezligi, egiluvchanligi va originalligi darajasini aniqlash uchun qo'llanadi.

Ko'rsatma: "Hurmatli ishtirokchi! Ushbu test sizga o'z ijodiy qobiliyatlaringizni sinovdan o'tkazish imkonini beradi. Buning uchun sizga berilgan varaqda tasvirlangan 20 ta doiraning tasviridan asos sifatida foydanib, turli narsa-hodisalarni chizishingiz zarur bo'ladi. Rasmlarni doiralar ichida ham, ulardan tashqariga chiqib ham chizish mumkin. Rasmlar chapdan o'ngga qarab chizilishi kerak. Ish uchun sizga jami 5 daqiqa vaqt ajratiladi. Unutmang rasmlar imkon qadar original (betakror) bo'lishiga intilish lozim".



#### Natijalarni hisoblash

1. Tafakkur tezligi bo'yicha: rasmlarning jami miqdori hisoblanadi va har bir rasm uchun 1 balldan baho qo'yiladi.
2. Tafakkur egiluvchanligi bo'yicha: rasmlarning guruhleri miqdori (necha xil toifadagi narsa chizilgani) hisoblanadi va har bir guruh uchun 1 balldan baho qo'yiladi. Rasmlar quyidagi guruhlar bo'yicha tasniflanadi – tabiat, maishiy buyumlar, fan va texnika, sport, bezak buyumlari, odam, iqtisod, olam.
3. Tafakkur originalligi bo'yicha: har bir kamyob rasm uchun 2 balldan baho qo'yiladi.

#### **6.2. Intellekt koeffitsenti haqida umumiy ma'lumot**

Intellekt (lat. intellectus – tushunish, bilish)- keng ma'noda insonning barcha bilish funksiyalarining majmuasi, tor ma'noda tafakkuri. Intellekt inson tomonidan borliqni bilishning asosiy shaklidir. Intellekt koeffitsenti sinaluvchining aql yoshini xronologik yoshga nisbatining foizda ifodalanganiga teng.

$$IQ = \frac{\text{Aql yoshi} \times 100}{\text{Pasport yoshi}}$$

Aql yoshi insonning test topshiriqlarini bajarishi natijalarini matematik qayta ishlashda paydo bo'ladigan son bo'lib, bu natijalar aqliy taraqqiyotning qaysi o'rta statistik yosh darajasida ekanligini ko'rsatadi. Aql yoshi xronologik darajaga mos bo'lganda shaxsning intellekti yoshiga mos bo'ladi. Aql yoshi xronologik darajaga mos bo'lmaganda quyi yoki Yuqori bo'lishi



80									
70									

	RW	SW
LS	15	110
GE	11	101
AN	14	109
KL	21	109
RA	16	11
ZR	6	91
FS	5	90
WU	5	87
ME	7	94
Summa	100	99

1-topshiriq. Mantiqiy tanlash.

Quyida sizga taklif etiladigan topshiriqlarda bittadan soʻz etishmaydi. Siz ularni topib toʻldirishingiz lozim. Buning uchun sizga taklif etilgan besh soʻzning birini harfini yozishingiz lozim.

Misol:

Quyuncha koʻproq ..... ga oʻxshaydi?

a) mushuk; b) olmaxon c) quyon ; d) tulki; e) tipratikan.

Bu topshiriqda quyon (c)\* toʻgʻri javob.

Boshqa bir misol:

“Umid” soʻzining qarama-qarshisi ..... hisoblanadi?

a)xafagarchilik; b)tushkunlik; c) ehtiyoj d) muxabbat; e) gʻazab.

Bu erda “tushkunlik” (b)\* toʻgʻri javob .

Boshladik!

1.Avtomobilni haydash uchun eng avvalo ..... kerak?

a)epchillik; b) ehtiyotkorlik; c) sabr; d) kuch; e)eʻtiborlilik.

2.Televizorning zarur qismi .... hisoblanadi?

a)tranzistor; b)perekIYuchatel; c) antenna; d) kineskop; e) kontrastni boshqaruvchi.

3. Trener – ....?

a)suzadi; b)mashqlarga oʻrgatadi; c) sakraydi; d) undaydi; e) gimnastika bilan shugʻullanadi.

4..... hayotligida mashxurlikka sazovor boʻladi?

a) rassom; b)haykaltarosh; c) shoir; d) artist; e)kompozitor.

5. Asabiylashish holatining qarama-qarshisi ....?

a) umidsizlik; b) chorasizlik; c) xursandlik; d) qoniqish; e) maʼYuslik.

6. Uzoq vaqt davomida ... yashash qiyin?
- a) suvsiz; b) ovqatsiz; c) harakatsiz; d) gaplashmasdan; e) uyqusiz.
7. Simob .... hisoblanadi?
- a) metall; b) mineral; c) suyuqlik; d) ximik birikma; e) qotishma.
8. .... shaxrida eng ko'p axoli yashaydi?
- a) CHikago; b) Osaka; c) London; d) Parij; e) Rim.
9. Zahar har doim....?
- a) o'limga olib keladi; b) og'ritadi; c) xavfli; d) makrli; e) zararli.
10. Otalar o'z o'g'illaridan .... tajribali?
- a) har doim; b) odatda; c) ko'pincha; d) ba'zan; e) asosan.
11. Eshakda har doim ..... bor?
- a) molxona; b) taqa; c) egar-jabduq; d) tuyuq; e) yol.
12. Qiyin vaziyatlarda hech qachon .... harakat qilish mumkin emas
- a) tartibsiz; b) o'ylamasdan; c) chalkash; d) qo'rqib; e) ishonmasdan.
13. Etiketka (yorliq) – bu ko'p hollarda ...?
- a) farq qiluvchi belgi; b) ko'rsatma; c) yozuv; d) reklama; e) nomi.
14. Og'zaki imtixon topshirayotgan paytda .... bo'lishi zarur?
- a) qobiliyat; b) dastur; c) bilim; d) savolnoma; e) imtixon oluvchi.
15. Qaysi so'z ortiqcha?
- a) muallif; b) darslik; c) o'quv qo'llanma; d) metodik qo'llanma; e) monografiya.
16. Lotoreyadagi bor biletlarning umumiy biletlar soniga nisbatini bilish orqali .... hisoblash mumkin?
- a) Yutish imkoniyatini; b) ishtirokchilar sonini; c) Yutuqlar hajmini; d) Yutuq bor biletlar sonini; e) lotereya solig'ini.
17. ... territoriyasi eng katta?
- a) O'zbekiston; b) Rossiya; c) Qozog'iston; d) Yaponiya; e) Kuba.
18. Ishlaydigan odamga ... kerak?
- a) izzatlablik; b) topshiriq; c) boshliq; d) asbob; e) intellekt.
19. Odamlarga nisbatan .... bo'lish kerak?
- a) ehtiyotkor; b) ziyrak; c) vazmin; d) muloqatchan; e) quvnoq.
20. Bir xil hajmda .... da ko'proq kaloriya bor?
- a) baliq; b) yog'; c) go'sht; d) pishloq; e) sabzavot.

R.Amtxauer intellekt strukturalari testining uch parallel(A, B,S) shakli mavjud bo'lib, kasb tanlash, kasbga yaroqlilik muammolari bo'yicha umumiy qobiliyatlarni aniqlash diagnostikasida foydalaniladi. Amtxauer testni yaratishda intellektni shaxsning bir butun tuzilishida maxsus tarkibiy qism sifatida qarovchi nazariyaga tayangan. Bunda psixik qobiliyatlarning bir butunligi turli faoliyatlarda namoyon bo'ladi, deb tushuniladi.

Amtxauer(1953) intellektni shaxsning boshqa komponentlari irodaviy- emotsional soha, ehtiyojlar va qiziqishlar bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlagan.

R.Amtxauer intellekt strukturalari testining moslashtirilgan varianti «SU –testi» Estoniyada maktab o'quvchilarining intellectual darajasini aniqlash uchun keng foydalanildi.(X. I. Liymets va mualliflar.1974)

#### 6.4. D.Vekslerni intellekt shkalalari

Psixometrikaga asoslangan testlar qo'llaniladigan aniq metodikalardan farq qiladi. Bu testlarni ishlab chiqishda asosan bolaning psixik taraqqiyoti darajasini aks ettiruvchi, o'rnatilgan me'yordan chetga chiqishlar, tengdoshlar guruhini taqqoslovchi miqdoriy ko'rsatkichlarga e'tibor beriladi. (V.M.Bleyxer, L.F.Burlachuk, 1978). Ularning murakkabligi bir xil yoshdagi sinaluvchilarning katta guruhlarida amalga oshiriladi (V.V.Stolin, A.G.Shmelev, 1984).

Bolalarni tekshirishga mo'ljallangan xorijiy testlar asosan Bine-Simon Stenford-Binening aqliy taraqqiyot shkalalari tipi bo'yicha tuzilgan.

Intellektni tekshirishning eng keng tarqalgan metodlaridan biri amerikalik psixolog va psixiatr D.Wechsler /1949/ tomonidan ishlab chiqilgan bolalar intellektini o'lchash shkalasidir /Wechsler Intelligence Scale for children WISC/. Bu metodikaga 1974 yilda so'nggi marta 5 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarni tekshirish uchun o'zgartirishlar kiritildi. /WPPSI/

Rossiyada birinchi bo'lib Veksler shkalasi V.M.Bexterev nomli Leningrad psixonevrologik ilmiy tadqiqot institutida moslashtirilgan. Metodika B.G.Anan'ev (1969) maktabi psixologlari tomonidan intellekt taraqqiyotini uzoq yillar o'rganishda, jumladan bolalarda psixik taraqqiyotdan chetga chiqishlar va orqada qolishlarni differentsial-diagnostika qilishda keng qo'llanilgan.

WISC moslashtirilgan variantining subtestlarini keltiramiz. (A.YU.PanasYuk, 1973). Tadqiqot o'tkazishda maxsus qarordan foydalanish zarur.

D.Veksler metodi bo'yicha tadqiqot qarori (bolalar varianti)

Familiyasi, ismi \_\_\_\_\_

Tug'ilgan yili \_\_\_\_\_ tug'ilish tartibi \_\_\_\_\_

Jinsi \_\_\_\_\_ Onasi \_\_\_\_\_ ma'lumoti \_\_\_\_\_

Yoshi \_\_\_\_\_ oy \_\_\_\_\_

Tadqiqot o'tkazilgan kun \_\_\_\_\_

Tadqiqot natijalari

Subtestlar	Verbal						Noverbal					
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Dastlabki baholar												
Shkala baholari												
Intellektual ko'rsatkichlari /IK/	VIK=						NIK=					
	UIK=											

#### Verbal shkala

1. Umumiy bilimdonlik subtesti. Nisbatan sodda ma'lumotlar va bilimlardan xabardorlikni tekshiradi. 30 ta savol beriladi, har bir to'g'ri javob 1 ball bilan baholanadi.  
Masalan: haftada necha kun bor?... Yilning to'rt faslini ayting?... Oshqozon nima uchun kerak?...
2. Umumiy ziyraklik subtesti. Iboralarning mazmunini to'liq tushunishni, fikrlash qobiliyatini, ijtimoiy me'yorlarni anglashni baholaydi. Sinaluvchidan tasvirlangan vaziyatda mumkin bo'lgan echimlar haqida javob berish talab qilinadi. 14 ta savol beriladi, javobning aniqligiga qarab baho qo'yiladi: 0, 1, 2.  
Masalan, barmog'ingizni kesib olsangiz nima qilasiz? Do'konga non olish uchun kelsangiz, u erda non yo'q ekan, nima qilasiz? Nima uchun jinoyatchilarni qamoqqa qamaydilar?
3. Arifmetik subtest. Sinaluvchi diqqatining to'planishini, sonli ifodalarni tez echishini tekshiradi. Sinaluvchidan arifmetik masalalar seriyasini og'zaki echish talab qilinadi. Javobning aniqligiga, ketgan vaqtga bog'liq ravishda baho qo'yiladi.  
Masalan, sizda 8 ta koptok bor edi, yana 6 ta sotib olib berishdi, koptoklaringiz nechta bo'ldi?
4. O'xshashlikni topish subtesti. Tushunchalarning shakllanganligi, klassifikatsiya, taqqoslash, mavhumlashtirish qobiliyatlari tekshiriladi. 16 juft tushuncha beriladi. Sinaluvchidan tushunchalar jufti o'rtasidagi umumiylikni topish talab etiladi. Umumlashtirish darajasiga bog'liq ravishda 0 dan 2 ballgacha baho qo'yiladi.  
Masalan, «Kuchuk-mushuk» tushunchalari o'rtasidagi umumiylikni topishda javoblar quyidagicha baholanishi mumkin: Tez chopadi, chaqqon /0 ball/; 4 ta oyog'i, juni, quloqlari bor /1 ball/; Hayvonlar, tirik mavjudot, sut emizuvchilar /2 ball/.
5. So'zlar subtesti. Og'zaki tajribani o'rganishga mo'ljallangan /so'zning ma'nosini aniqlash va tushunish/. 40 ta so'z ma'nosini tushuntirish uchun beriladi. 0 dan 2 ballgacha baho qo'yiladi.
6. Sonlar qatorini takrorlash subtesti. Qisqa muddatli xotira va diqqatni o'rganishga mo'ljallangan, ikki qismdan iborat: sonlarni to'g'ri va teskari tartibda eslab qolish va takrorlash. O'ng va teskari takrorlashlarni baholash qatordagi to'g'ri esga tushirilgan raqamlar soniga teng. Subtestning umumiy bahosi o'ng va teskari takrorlashning umumiy bahosiga teng.

### **Noverbal shkala**

Noverbal shkalaning qo'zg'atuvchi materiali 12- ilovada keltiriladi.

7. Etishmaydigan qismni topish subtesti. Ko'rish idroki xususiyatlarini, kuzatuvchanlikni, muhim qismlarni farqlay olish qobiliyatini o'rganishga mo'ljallangan. Sinaluvchiga 20 ta rasm ko'rsatiladi, ularning har birida etishmaydigan qismni yoki mos emaslikni topish zarur. To'g'ri javob 1 ball bilan baholanadi /15 soniyadan kam vaqtda/.
8. Rasmlar ketma-ketligi subtesti. Parchalarni mantiqiy bir butun qilib birlashtirish, vaziyatni tushunish, hodisalarni oldindan bilish qobiliyatlarini tekshirishga mo'ljallangan. Rasmlarning 2 seriyasi beriladi. Har bir seriyada rasmlar sYujet bilan birlashtirilgan bo'lib, sinaluvchi sYujetga mos ravishda ularni ma'lum ketma-ketlikda joylashtirishi kerak. Topshiriq vaqtga va to'g'ri bajarilishiga bog'liq ravishda baholanadi.
9. Koss kubiklari testi. Metod qismlardan butunni birlashtirish qobiliyatini, sensomotor koordinatsiyani tekshirishga qaratilgan. Sinaluvchi berilgan namunaga qarab har xil rangli kubiklardan shunday figuralar yasash kerak. 10 figura beriladi. Har bir topshiriq bo'yicha vaqt chegaralangan bo'ladi. Baholar aniqlikka va ketgan vaqtga bog'liq bo'ladi.
10. Figuralar yasash subtesti. Yo'nalishiga ko'ra 9-subtestga o'xshaydi. Sinaluvchiga ma'lum ketma-ketlikda 4 ta figuraning qismlari beriladi. /«maneken», «ot», «odam boshi», «mashina»/. Sinaluvchiga bu qismlardan nima yasash kerakligi aytilmaydi. Topshiriqni to'g'ri bajarish va ketgan vaqtga bog'liq holda sinaluvchiga baho qo'yiladi.
11. Raqamlarni shifrlash subtesti. Ko'rish-harakat malakalarini o'zlashtirganlik darajasini aniqlashga mo'ljallangan. Topshiriq har bir raqamning tagida katakchaga ularga mos belgini yozishdan iborat. Bajarish vaqti 120 soniya. To'g'ri shifrlangan raqamlar soni – sinaluvchining bahosiga teng bo'ladi. Dastlab «A» shakl, so'ngra «V» shakl ko'rsatiladi.
12. Labirintlar subtesti. Bu yo'nalishiga ko'ra II subtestga o'xshaydi. 9 ta labirintni o'z ichiga oladi, «chiqish» vaqti hisobga olinadi.

WISC metodikasida qo‘shimcha subtestlar /«raqamlarni eslab qolish» va «labirintlar»/ topshiriqning asosiy guruhlar bilan birga o‘tkazilishi mumkin. Bu holda intellekt koeffitsienti/IQ/ni aniqlashda ularning ko‘rsatkichlari hisobga olinadi.

Test natijalarini qayta ishlashda verbal va noverbal subtestlarning har biri bo‘yicha olingan ballar yig‘indisi topiladi. «Olingan» ballni shkala ballariga aylantirish jadvaliga muvofiq har bir subtestni bajarish natijalarining standart baholarini olish mumkin. «Olingan» ballar yig‘indisi /testning alohida verbal va noverbal qismlari bo‘yicha/ va jadvaldagi natijalar bo‘yicha IQ-verbal shkala baholari, IQ-noverbal shkala baholari va umumiy IQ ko‘rsatkichlari aniqlanadi. Veksler testi bo‘yicha IQ ko‘rsatkichlari talqini yosh me‘yorlarini hisobga olgan holda o‘tkaziladi. 1963 yilda 4–6,5 yoshli bolalarning intellektini tekshirish uchun shkala ishlab chiqildi. /Wechsler Preschool and Primary Scale of intelligence, WPPSI/. Intellekt shkalasining bu varianti bizning mamlakatimizga moslashtirilmagan.

WPPSI shkalasi subtestlarining tarkibi quyidagicha:

Verbal subtestlar:

1. Bilimdonlik.
3. So‘z boyligi.
5. Arifmetika.
7. O‘xshashini topish.
9. Tushunish.
11. Gaplar (o‘xshash).

Noverbal subtestlar

2. Hayvon uyi.
4. Rasmlarni tugatish.
6. Labirintlar.
8. Geometrik sxemalar.
10. Koss kubiklari.

«Hayvon uyi» subtesti raqamlarni shifrlash subtestiga o‘xshaydi. Bu topshiriqni bajarishda bolaga kuchuk, jo‘ja, baliq va mushuk tasvirlangan karta ko‘rsatiladi. Kartaning Yuqori qismida turli rangdagi tsilindr rasmcha – kalit /hayvon uyi/ joylashtiriladi. Bola rasmlarga mos hayvon uylarini qo‘yib chiqishi kerak. Bolaga topshiriqni to‘g‘ri bajarganiga va ketgan vaqtga bog‘liq ravishda baho qo‘yiladi.

«Geometrik sxemalar» subtestida rangli qalamlar yordamida 10 ta sodda tasvirni chizish kerak.

«Gaplar» subtesti sonlar qatorini takrorlash subtestiga o‘xshaydi. Sinaluvchi eksperimentator aytgan gaplarni takrorlashi kerak.

WISC, WPPSI shkalasi subtestlari birgalikda intellekt funksiyalari xususiyatlari haqida, turli omillar ta‘sirida ularning rivojlanish xususiyatlari to‘g‘risida bilib olish imkonini beradi (19-jadval).

### 19-jadval

Veksler shkalasi subtestlari yordamida aniqlanadigan intellektual funksiyalar

Subtest	O‘rganilayotgan funktsiya	Natijaga ta‘sir etadigan omil
Bilimdonlik	Xotirada materialni uzoq vaqt saqlash. Tajribaning mavjudligi va assotsiatsiyalari	Madaniy muhit, qiziqishlar
Ziyraklik	Mavhum tafakkur. Bilimlarning mavjudligi, tushunchalarning shakllanganligi	Madaniyatli muloqot qilish qonuniyati. Real vaziyatlarga munosabat. Diqqat hajmi
Arifmetika	Xotirada arifmetik amallarni saqlash	Asosiy arifmetik amallarni egallash mumkinligi
O‘xshashini topish	Aloqalar, o‘zaro bog‘lanishlar tahlili, verbal tushunchalarning shakllanganligi	Madaniyatli muloqot qilish
So‘z boyligi	Nutqning rivojlanganligi, tushunchalarning shakllanganligi	Madaniyatga aralashish imkoniyati
Sonli qatorlar	Tez qayta esga tushirish, eshitish	Diqqat hajmi

	obrazlari	
Rasmlar ketma-ketligi	Munosabatlarni ko'rib idrok etish	Madaniyatga aralashish imkoniyati
Etishmayotgan qismlar	Ko'rish idroki, analiz. Ko'rish obrazlari	Atrof-muhitni idrok qilish tajribasi
Figuralar yasash	Ko'rish idroki, sintez. Ko'ruv harakat tahlili	Harakat faolligi va aniqligi
Koss kublari	Shaklni idrok qilish, ko'rish idroki, analiz	Harakat faolligi darajasi. Rangli ko'rish darajasi
Shifrlash	Tez idrok qilish, ko'rish obrazlari	Harakat faolligi darajasi

Sinaluvchining aqliy taraqqiyot darajasini aniqlashda IQning oxirgi natijasi emas, balki har bir subtest bo'yicha olingan natijalarni ham tahlil qilish katta ahamiyatga ega. Shu bilan bir vaqtda umumiy xulosa tuzishda, alohida subtestlar bo'yicha olingan natijalarnigina emas, boshqa metodikalardan olingan natijalarni ham hisobga olish zarur.

### Umumiy ziyraklik subtesti

1. Biz nima uchun kiyimlarni Yuvamiz?
2. Nima uchun poezdning motori /harakatlantirgichi/ bor?
3. Agar siz ko'chada manzili yozilgan, marka yopishtirilgan, yopiq, elimlangan xatjild/konvert/ni topib olsangiz, nima qilardingiz?
4. Insonlar nima uchun yomon ulfatlardan qochishga harakat qiladi?
5. Kino teatrda o'tirganingizda, yong'inni sezib qoldingiz, siz nima qilasiz ?
6. Rejalashtirish nima uchun kerak?
7. Quyidagi ifoda nimani anglatadi: «Temirni issig'ida bos»?
8. Nima uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida o'smirlapning ish kuni qisqartirilgan?
9. Agar siz kunduzi o'rmonda adashib qolsangiz, o'rmondan chiqib olish uchun qanday yo'l tutardingiz?
10. Nima uchun garang bo'lib tug'ilgan bolalar odatda gapira olmaydilar?
11. Nega qishloqqa nisbatan shaharda havo yomon?
12. Nima uchun davlat 17 yoshgacha nikohdan o'tish uchun ruxsat bermaydi?
13. Quyidagi ifoda nimani bildiradi: «Jo'jani kuzda sanaydilar»?
14. Quyidagi ifoda nimani bildiradi: «Bitta qaldipg'och kelgani bilan bahor bo'lmaydi»?

### So'z boyligi subtesti

Ko'rsatma: «Ba'zi so'zlarning mazmunini tushuntirib bering. Bu so'z qanday ma'noni bildiradi?». Bu usulni hamma so'zlar uchun qo'llang. To'rtinchi so'zdan boshlang. /qish/, agar sinaluvchi javob berishga qiynalsa, birinchi so'z – karovatdan boshlang. Agar 4-8 so'zlar har biri 0 ball bilan baholansa, zudlik bilan 1,2,3-so'zlarni tekshiring. Keyin 8,9-so'zlarni o'qib eshittiring. Bu ishni 5 ta ketma-ket urinishlar bajapilmaguncha davom ettiring.

Tez ilg'ab oladigan intellektual sinaluvchilarga 3 yoki 4-so'zdan keyin rasmiy savol ko'rsatmani aytmaslik ham mumkin, faqat so'zlarni bir xil aniq aytish kerak. Ba'zan sinaluvchi tushunmagan holda tadqiqotchi bunday deyishi mumkin: «Bu haqida menga to'liqroq gapirib bering» «to'liqroq tushuntirib bering». Tadqiqot ketma-ket 5 ta muvaffaqiyatsizlikdan keyin, javoblar 0 ball bilan baholangandan so'ng to'xtatiladi. 1 – 2-savollarning har biri 2 va 0 ballar bilan baholanadi. 1-3 savollar berilmagan sinaluvchilarga 3 ball qo'yiladi. Maksimal baho – 80.

Baholash mezonlari va to'g'ri javoblarning mezonlari. Umuman so'zning har bir to'g'ri ma'nosi qabul qilinadi, bunda ta'rif go'zal bo'lishiga unchalik e'tibor berilmaydi. Lekin unchalik to'g'ri bo'lmagan ta'rif bahoni tushiradi.

**ESINGIZDA TUTING !!!** Keltirilgan misollar javoblarning barcha variantlarini qamrab olmaydi va ba'zi hollarda original, o'ziga xos javobga duch kelganda shaxsiy qaror qabul qilishga



to'g'ri keladi. Sinaluvchining javoblarida so'z boyligining kamligi uning javobini baholashga ta'sir etmasligi kerak !

So'zlar testini baholashning umumiy tamoyillari quyidagilar: 2 ball

1. Yaxshi sinonim.
2. So'zdan to'g'ri foydalanish.
3. So'zning asosiy bir necha xususiyatlariga ta'rif berish.
4. So'z mansub bo'lgan turkumni umumiy tasniflash.
5. Bir necha to'g'ri tavsifiy xususiyatlarni bayon etish, ularning majmui so'zning ma'nosini tushuntirishga yordam beradi.

1 ball – to'g'ri javoblar, lekin ma'nosiga ko'ra sodda.

1. Tushunarsiz aniq bo'lmagan sinonim.
2. So'zning tilda kamdan-kam ishlatilishi.
3. So'zning tilda ishlatilishi mumkin bo'lgan misoli.

0 ball – noto'g'ri javoblar, savollarni aniq tushunmaslik, hatto tadqiqotchi takrorlagandan so'ng ham.

### **Misollar:**

1. Karovat.
2. – Odamlar uxlaydigan dam oladigan mebel' qismi. 0 – temir narsa,... yog'ochdan ham bo'ladi... oyoqlari bo'ladi...
3. Kema.  
2- suvda havoda odamlarni Yuklarni tashiydigan qurilma /texnik moslama/ paroxod, kema, transport turi...  
0 – odamlar unga o'tiradi... u narsalarni tashiydi...
3. Pul.  
1- umumiy ekvivalent... unga hamma narsa sotib olsa bo'ladi...  
0- qog'ozdan... katta, turli rangda... .
4. Qish.  
2- yilning sovuq fasli ... mavsum... yilning kuz va bahop oralig'idagi fasli.  
1- sovuq havo mavsumi: yil fasli... sovuq.  
0- iqlim... havo o'zgaradi yozning teskarisi.
5. Tuzatish.  
2-yasash ... yangilash ... qayta tiklash ... dastlabki holatiga keltirish ...singanni to'g'rilash...  
1- qandaydir aniq narsani to'g'rilash: stulni tuzatish... nimadir sinib qolganda to'g'rilashingiz kerak.  
0- qaytadan qilish. ...joyiga qo'yish..
6. Nonushta.  
2- birinchi taomni eyish... ertalab eyiladigan taom... ertalabki taom.  
1- ovqatlanish ...taom... eyish... biz eydigan narsa.  
0- taomning aniq turi: tuxum sut ...choy... kofe.
7. Fabrika.  
2- engil sanoat korxonasi ...zavod... tashkilot... moddiy boyliklar yaratiladigan tashkilot.  
1- odamlar gazlama chiqaradigan joy... u erda mahsyot ishlab chiqariladi. ...u erda odamlar ishlaydi.  
0- hammaga kerak... ertalab u erga borishadi.
8. Detal'.  
2- butunning qismi... qandaydip tuzilmaning qismi... nimaningdir qismi... dastgohda ishlov beriladigan mahsyot...  
1- dastgohning /mexanizmning/ qismi... qismi... yarim mahsulot.  
0- narsalarga kerak bo'ladi... ..bajarilgan narsa. ..nimanidir ishlab chiqish
9. Majlis.

2- miting... anjuman... ma'lum sistemaga mos ravishda tashkiliy uchrashuv ...kengash... ko'pchilik odamlarning maslahatlashishi... qandaydip muammolarni hal qilish uchun odamlarning uYushgan yig'ilishi.

1- o'quvchilarning uYushgan uchrashuvi... nima haqidip bahclashishadi va nimanidir muhokama qilishadi... odamlar nimanidir hal qilishga yig'ilishadi.

0- halqning ma'lum qismi ...juda ko'p odamlar... insonlar...

10. Yashirmoq.

2- bekitmoq... sir saqlamoq... hech kimga aytmalik ...yashirin saqlamoq... panaga olmoq.

1- nimanidir yashirishga yrinmoq... o'zi bilgan narsalarni boshqalap bilishiga yo'l qo'ymaslik, niqoblamoq... ko'rsatmaslik...

0- nimanidir... kimdandir... hech kim bilmasin... haqiqatni aytish mumkin emas.

11. Ulkan.

2- juda katta... bahaybat ...

1- katta ...katta... hajmdagi...

0- kichik bo'lmagan... uy...

12. Shoshilmoq.

2- oshiqmoq... tez bajarmoq... harakatni, ishni, tezlatmoq... tez qilmoq.

1- tez - ... yaqin ... chopmoq ... tez ishlamoq ...

0- kechikmoq ... kechikayotganda, doimo shoshiladi.

13. Hukm.

2- so'nggi qaror ... sud hukmi ...xulosa ... huquqiy akt.

1- jazolash ... jazoladi ... mahkum.

0- qamoq ...

14. Bajarmoq.

2- rahbarlik qilmoq ... tashkil qilmoq... tuzatmoq ... tartib o'rnatmoq ... mos qilmoq.

1- ishni, mashinani boshqarmoq ... harakatni boshqarmoq ... o'rnatmoq ... joyini almashtirmoq...

0- lavozimiga ko'ra nimanidir buYurmoq ... yo'l ko'rsatmoq... yo'naltirmoq.

15- Boshlamoq.

2- kirishmoq ... ishga kirishmoq ... nimanidir boshidan qilmoq...

1- qandaydir ishni qilmoq ... qabul qilinmoq...

0- darslarning boshlanishi ... harakatning boshlanishi.

16. O'ylamoq.

2- fikrlamoq ... har tomonlama tahlil qilmoq ... o'ylash, ... mulohaza qilmoq 1- reja tuzish ... rejalashtirish, ... o'rganmoq, ... nimaningdir ustida ishlamoq.

0- sekin fikrlamoq ... savol ... intilmoq ... xavotirlanmoq...

17. G'or.

2- Tabiatdagi tabiiy chuqurlik ... erdagi tabiiy chuqurlik ... tog' ichidagi teshik ... qadimgi odamlarning yashash joyi.

1- Teshik ... qandaydir chuqurlik ... erdagi xona ... tog'dagi teshik ... tog'dagi bo'sh joy.

0- toshlardan qurilgan qurilma ... sovuqdan saqlanish mumkin bo'lgan joy ... tog'dagi joy.

18. Belgilamoq.

2- shartli belgilar bilan belgilamoq... nimanidir aniqlash uchun belgi kiritmoq ... nimanidir belgilar bilan belgilamoq... belgilar bilan aniqlamoq ... ahamiyat bermoq.

1- aytmoq ... qandaydir tasvirlamoq ... harflar bilan ko'rsatmoq nimanidir rejada belgilamoq ... nom bermoq ....

0- bezamoq ... nima qaerdaligini bilib olmoq...

19. Uyniki.

2- uyga tegishli narsalar ... xonaki o'rgatilgan ... uy sharoitida tarbiyalangan ... qo'lda yasalgan.

1- shinam ... uy hayvoni ... o'ziniki...

0- o'zi qilgan ... uydagi ish ...

20. Sarflamoq.

2- Ketkazmoq... foydalanmoq ... ishlamoq ... iste'mol qilmoq

- 1- yo‘qotmoq... kamaymoq.  
 0- pul ... nimanidir sotmoq...
21. Tugatmoq.  
 2- oxiri, tamomlamog, ... oxiriga kelmoq... to‘xtamoq ... ishni oxiriga etkazmoq... tugallamoq.  
 1- davom ettirmaslik ... oxirida tugatish.  
 0- ishni ... ishni tashlamoq.
22. To‘sqinlik qilmoq.  
 2- xalaqit bermoq... yo‘lini to‘smoq... to‘siq... to‘smoq, nimagadir qarshi bermoq.  
 1- yo‘l bermaslik ... o‘tishga qo‘ymaslik... ushlab qolmoq.  
 0- teskarisini qilmoq, ... taqiqlamoq.
23. Afsuslanish.  
 2- ishining noto‘g‘riligini anglamoq... xatosini tan olmoq... aybini tan olmoq... vijdoni qiynalmoq.  
 1- tan olish ... inson ishidan afsuslandi ...  
 0- xato qilmoq – xatoni tan olmoq
24. Muqaddas joy.  
 2- machit... Xudoga iltijo qiladigan joy ...  
 1- muqaddas joy.  
 0- bino ... uy ... qadimiy haykal... xona ...
25. Tengri yo‘q.  
 2- hech kim bilan taqqoslab bo‘lmaydigan ... o‘xshashi yo‘q... bebaho ... hech kimga o‘xshamaydigan.  
 1- hammadan yaxshi... eng a‘lo ... betakror... sifati bo‘yicha... kim bilandir solishtirish qiyin.  
 0- chegarasi yo‘q... buYuk ... chiroyli ... o‘ziga xos.
26. Rozi emas.  
 2- berilmaydigan... hech narsa bilan kelishmaydigan ... o‘z huquqini talab qiladigan... qarshilik ko‘rsatadigan...  
 1- o‘zini xafa qilmaydigan... to‘sqinlik qiluvchi ... nimadir qilishga xalaqit beruvchi...  
 0- o‘zidan soqit qilmoq ... urishishda suhbatda ... g‘alaba qiluvchi...
27. Kulfat.  
 2- baxtsizlik... halokat... baxtsiz hodisa.  
 1- halokatga uchragan odam... ochlik ... qurg‘oqchilik...  
 0- tabiiy ofat... urilish...
28. Barqaror.  
 2- mustahkam ... tirishqoqlik... xarakterning irodaviy xislati... xarakter kuchi ... o‘z fikrida qat’iy turadigan... inson xulq-atvori...  
 1- Mardlik... epchillik... o‘z fikrida qolmoq...  
 0- botirlik... qat’iylik.
29. Bino.  
 2-uy ... qurilma ... arxitektura qurilmasi ... qurilish.  
 1- qurilmaning maxsus tipi... maxsus tipdagi qurilish... boshpana...  
 0- uyga o‘xshash muassasa.
30. Achinmoq.  
 2- boshqaga hamdardlik... hamdardlik... o‘zganing baxtsizligiga munosabat bildirmoq... o‘zganing baxtsizligini tushunish.  
 1- o‘zgani tushunish, tinchlantirmoq... hissiyot.  
 0- kim haqidadir g‘amxo‘rlik qilmoq... insonga achinmoq... insonni ruhiy tushunmoq.
31. Sezilarli.  
 2- bilinarli ... barmoqlar bilan his qilmoq.  
 1- ushlasa bo‘ladigan, sezsa bo‘ladigan.  
 0- sovuq... taqqoslanadigan.
32. Kuchli.  
 2- botir, ... qo‘rqmas... hech narsadan qo‘rqmaydigan.  
 1- qat’iy, g‘alabaga ishonadigan.

- 0- urishadigan... qo‘rqinchli.
33. Perimetr.
- 2- uchburchakning barcha tomonlari yig‘indisi ... tashqi tushuncha.
- 1- geometrik tushuncha.
- 0- radius.
34. Vahimali.
- 2- yomonlikdan /kulfat, baxtsizliklardan/ xabar bermoq... yomonlikdan xabardor qilmoq...
- 1- qo‘rqinchli... dahshatli... nimadir qo‘rqinchli...
- 0- juda jahldor... yaxshi emas... qasoskor... yomonlikni eslab qolish...
35. Balandparvoz gaplar.
- 2- uzun nutq – uzun ibora... chuqur ma’noli ibora... katta ibora...
- 1- so‘zning ko‘pligi... nutq... so‘zlar qatori...
- 0- tsitata. ..nutqdan ko‘chirma. ..
36. Tiqishtirmoq.
- 2- majbur qilmoq... kerakmas narsalar bilan to‘ldirmoq... yo‘lga to‘kib qo‘ymoq...
- 1- yo‘lni to‘smoq... narsalarni to‘kmoq...
- 0- joyni egallamoq. ..devor bilan to‘smoq. ..
37. Ko‘chirmachilik /plagiat/.
- 2- ma’naviy qadriyatlar dunyosida o‘g‘rilik... o‘zgalarning asarlarini o‘ziniki qilib olish... boshqalarning mehnatidan /g‘oyalaridan/ foydalanish... kimningdir ismidan foydalanish... uni o‘ziniki qilib olish...
- 1- o‘zlashtirilgan so‘z... o‘g‘rilash... kimningdir g‘oyasidan, ishidan foydalanish...
- 0- o‘g‘ri...
38. Sanchmoq.
- 2- teshik qilmoq... suqmoq... orasidan o‘tmoq... tuynuk qilmoq ...
- 1- o‘tkir narsani kirgizmoq... pichoq bilan /tez/ urish...
- 0- harakatlanmoq.
39. Parodiya /o‘xshatish/.
- 2- adabiy janr... kuldirish... maqsadida hajviy taqlid...
- 1- nimanidir kulgili narsa qilish... hazil... taqlid...
- 0- ashula.
40. Xotirjam.
- 2- muvozanatli... tinch... og‘ir.
- 1- kam hayajonlanadigan kishi... o‘ziga ishonadigan... xarakter xislati...
- 0- o‘z sog‘lig‘ini saqlaydigan... yaxshi odam... baqirmaydi...

### **“Veksler kattalar intellektini o‘lchash shkalasi” ning 7-subtesti (“Raqamlarni shifrlash” testi)<sup>5</sup>**

Mazkur subtest vizual pertsepiyaning mustahkamlik, ko‘z-motor koordinatsiyasining rivojlanganlik, malakaning hosil bo‘lish tezligi darajasini aniqlashda qo‘llanadi. Metodika psixomotor nuqsonlar, ko‘rish xotirasi kuchi, o‘rganishga uquvlik darajasiga ta’sirchanlik bilan tavsiflanadi.

**Ko‘rsatma:** “Hurmatli ishtirokchi! Sizga ikki satrdan iborat jadvallar taqdim etilgan. Har bir jadvalning Yuqori satrida aralash ketma ketlikda 1 dan 9 gacha bo‘lgan raqamlar yozilgan. Har bir raqam ostida bo‘sh katakcha keltiriladi. Sizing vazifangiz 90 soniya davomida ushbu bo‘sh

<sup>5</sup> Drujinin V.N. Psixologiya obshix sposobnostey. – SPb.: Piter, 1999. – 356 s.

katakchalarga namunada keltirilgani kabi har bir songa mos shartli belgini qo'yib chiqishdan iborat".

---

1	2	3	4	5	6	7	8	9	
—	⊥	⌈	└	⌒	○	△	×	=	

2	1	3	7	2	4	8	1	5	4	2	1	3	2	1	4	2	3	5	2	3	1	4	6	3

1	5	4	2	7	6	3	5	7	2	8	5	4	6	3	7	2	8	1	9	5	8	4	7	3

6	2	5	1	9	2	8	3	7	4	6	5	9	4	8	3	7	2	5	1	5	4	6	3	7

9	2	8	1	7	9	4	6	8	5	9	1	1	8	3	2	9	4	8	5	3	7	9	8	6

### 6.5. «Raven matritsasi»

Ushbu metodika kichik maktab yoshidagi bolalarning ko'rgazmali-obrazli tafakkurini o'rganishga mo'ljallangan bo'lib, uning asosiy vazifalari mashhur Raven testidan olingan. U 10 ta asta-sekin murakkablashib boruvchi Raven matritsalaridan iborat.

Bolaga asta-sekin murakkablashib boruvchi 10 qismdan iborat vazifa beriladi. Masalan: Matritsada bo'laklarning joylashishidagi qonuniyatni topish va quyida berilgan 8 ta rasm ichidan shu matritsaga mos keluvchi qismlarni topish kerak. (Matritsaning shu qismi ichida har xil rasmlari bor bayroqchalar sifatida berilgan). Katta matritsa tuzilishini o'rganib, bayroqchalar ichidan bola katta matritsaga joylashishi uchun mantiqan mos keluvchi qismni aniqlashi kerak.

Bolaning 10 ta topshiriqni bajarishi uchun 10 daqiqa vaqt beriladi. Vaqt tugagach, tadqiqotchi tajribani to'xtatadi va to'g'ri aniqlangan matritsalar soni hamda vazifani bajarishda to'plangan umumiy ball hisoblanadi, har bir to'g'ri bajarilgan matritsa uchun 1 baldan baholanadi.

1



Options for puzzle 1:

- 1: Triangle with a dot inside a square.
- 2: Square with a dot inside a square.
- 3: Triangle with a dot inside a triangle.
- 4: Square with a dot inside a circle.
- 5: Circle with a dot inside a circle.
- 6: Triangle with a dot inside a square, with a circle around the square.
- 7: Triangle with a dot inside a triangle.
- 8: Triangle with a dot inside a triangle.










2

Options for puzzle 2:


- 1: Two circles with dots.
- 2: Two circles with dots.
- 3: Four circles with dots.
- 4: Four circles with dots.
- 5: One circle with a dot.
- 6: Four circles with dots.
- 7: Concentric circles.
- 8: Four circles with dots.




**6**


1




2




3




4




5




6












7




8




**5**


1




2




3




4




5




6







7





8







8



## 6.6. Maktab aqliy taraqqiyoti testi /Matt/

Bu metodika M.K.Akimova, E.M.Borisova, V.T.Kozlova, G.P.Loginova tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘smirlarning intellektual darajasini aniqlashga mo‘ljallangan.

### I TOPSHIRIQLAR TO‘PLAMINING TAVSIFI VA MISOLLARI

Topshiriq savol xarakteridagi gaplardan tuzilgan. Ularning har birida bir so‘z etishmaydi. Siz keltirilgan 5 ta so‘zdan berilgan gapga to‘g‘ri keladigan so‘zning tagiga chizishingiz kerak. Faqat bir so‘zning tagiga chizishingiz mumkin.

Misol:

Biografiya va ..... so‘zlari ma’nosi jihatidan bir xil hisoblanadi.

a) tasodif, b) qahramonlik, v) tarjimai hol, g) Yurish, d) yozuvchi.

«Tarjimai hol» so‘zi to‘g‘ri keladi, shuning uchun uning tagiga chizilgan.

Keyingi misol:

Salbiy so‘ziga . . . . . so‘zi qarama-qarshi bo‘ladi.

a) muvaffaqiyatsiz, b) janjalli, v) muhim, g) tasodifiy, d) ijobiy.

Bu holda to‘g‘ri javob «ijobiy» so‘zi bo‘ladi, uning tagiga chizilgan.

### I TOPSHIRIQLAR TO‘PLAMI

1. Ism va otasining ismi bosh harflari ..... deb ataladi?

a) tug‘ro/ ism va familiya bosh harflarini birlashtirib

ishlangan bezak/, b) initsial, v) avtograf, g) indeks,

d) anagramma.

2. Insonparvar – bu .....

a) ijtimoiy, b) odamiy, v) kasbiy, g) bosqinchi, d) mensimaslik.

3. Tabiatga va jamiyatga qarashlar sistemasi .....?

a) orzu, b) baho, v) dunyoqarash, g) ong-bilim darajasi, d) xomxayol.

4. Demokratiya va .... so‘zlari ma’nosiga ko‘ra bir xildir.

a) hokimiyatsizlik, b) yakka hokimiyatchilik, v) xalq hokimiyati, g) avlod,

d) sinflar.

4. O‘simlik navlarini va hayvonlarning eng yaxshi zotlarini bilish haqidagi fan . . . . .

deb ataladi.

a) bionika, b) ximiya, v) selektsiya, g) botanika, d) fiziologiya.

5. Kitob, doklad, lektsiyaning mazmunini qisqartirib yozib olish bu . . . dir.

- a) satr boshi, b) tsitata, v) bo‘lim, g) pochta, d) konspekt.
6. Ko‘p o‘qiganlik chuqur va keng bilim bu – . . . . . dir.  
a) ziyolilik, b) tajribalilik, g) talant, d) o‘zini hammadan Yuqori qo‘yish.
7. Atrofga faol ishtirokning va qiziqishning yo‘qligi bu . . . . . dir.  
a) aqlga muvofiqlik, b) sustlik, v) sezgirlik, g) qarama-qarshilik, d) rahmsizlik.
8. Inson hayot va faoliyatining qandaydir sohasiga tegishli qonunlarning to‘plami . . . . . deb ataladi?  
a) rezolYutsiya, b) qaror, v) an‘ana, g) kodeks, d) loyiha.
9. Ikki Yuzlamachi (munofiq) tushunchasining qarama -qarshisi . . . . . tushunchasi bo‘ladi.  
a) sofdil, b) zid, v) qalbaki, g) xushmuomala, d) dovYurak.
10. Agar bahs o‘zaro yon berish bilan tugasa, u holda . . . . . haqida gapiriladi.  
a) murosa, b) muloqot, v) birlashish, g) muzokara, d) qarama-qarshilik.
11. Etika – bu . . . . . haqidagi ta’limotdir.  
a) psixika, b) axloq, v) tabiat, g) jamiyat, d) san’at.
12. Bir xil tushunchasiga . . . . . tushunchasi qarama-qarshi bo‘ladi.  
a) aynan o‘xshash, b) yagona, v) haybatli, g) har xil, d) alohida.
13. Tobelikdan, xurofotdan xalos bo‘lish, huquqlarda teng bo‘lish – bu . . . . dir  
a) qonun, b) muhojirlik, v) nuqtai nazar, g) harakat, d) ozodlik.
14. Oppozitsiya – bu . . . . . dir.  
a) qarshi harakat, b) rozilik, v) fikr, g) siyosat, d) echim.
15. Tsivilizatsiya – bu . . . . . dir.  
a) formatsiya, b) uzoq o‘tmish, v) ishlab chiqarish, g) madaniyat, d) muloqot.
16. Ustunlik va . . . . . so‘zlari ma’nosiga ko‘ra bir xildir.  
a) kashfiyot, b) g‘oya, v) saylov, g) birinchilik, d) rahbarlik.
16. Ittifoq – bu . . . . . dir.  
a) raqobat, b) siyosat, v) dushmanlik, g) uzilish, d) birlashish.
17. Al’truizm va . . . . . so‘zlari ma’nosiga ko‘ra bir xildir.  
a) insonparvarlik, b) o‘zaro munosabat, v) xushmuomalalik, g) egoizm, d) odoblilik.
18. Taraqqiyotga ishonchsizlik bilan qaraydigan odam . . . . . hisoblanadi.  
a) demokrat, b) radikal, v) konservator, g) liberal, d) anarxist.

## II TOPSHIRIQLAR TO‘PLAMINI TAVSIFLASH VA MISOLLARI

Qog‘ozning chap qismiga yozilgan so‘zlar berilgan 4 so‘zdan ma’nosiga ko‘ra to‘g‘ri keladigan so‘zni, ya’ni sinonimni tanlash kerak.

Misol:

Asr – a) Yuz yil, v) hodisa, g) taraqqiyot. To‘g‘ri javob «Yuz yil», shuning uchun tagiga chizilgan.

Keyingi misol:

Prognoz – a) ob-havo, b) xabar, v) oldindan aytish, g) sabab.

Bu erda to‘g‘ri javob «oldindan aytish», uning tagiga chizilgan.

## II TOPSHIRIQLAR TO‘PLAMI

1. Ilg‘or – a) zakovatli, b) oldingi, v) epchil, g) qoloq.
2. Bekor qilish – a) imzo chekish, b) yo‘q qilish, v) xabar, g) keyinga qoldirish.
3. Oliy maqsad – a) xayol, b) kelajak, v) donishmandlik, g) barqarorlik.
4. Dalil – a) isbot, b) moslashuv, v) bahs, g) ibora.
5. Afsona – a) qadimiy, b) ijod, v) rivoj, g) fan.

6. Axloqsizlik– a) barqarorlik, b) qiyin, v) rivoyat, g) beaxloq.
7. Analiz – a) faktlar, b) tahlil, v) tanqid, g) malaka.
8. Etalon – a) nusxa, b) shakl, v) asos, g) namuna.
9. Dumaloq – a) cho‘zinchoq, b) sharsimon, v) bo‘sh, g) hajmi.
10. Sotsial – a) odat tusiga kirgan, b) ozod, v) rivojlantirilgan, g) ijtimoiy.
11. Gravitatsiya – a) tortishish, b) itarish, v) vaznsizlik, g) ko‘tarish.
12. Tez ta’sirlanadigan – a) she’riy, b) sezgir, v) quvnoq, g) ajoyib.
13. Eksport – a) sotish, b) tovarlar, v) chetga mol chiqarish, g) savdo.
14. Samarali – a) zarur, b) ta’sirli, v) dovYurak, g) o‘tkir.
15. Axloq – a) etika, b) taraqqiyot, v) qobiliyat, g) xulq.
16. O‘zgartirmoq – a) ishlamoq, b) kuzatmoq, v) o‘rganmoq, g) turlamoq.
17. Radikal – a) keskin chora-tadbirlar ko‘rish tarafdori, - b) tub, v) javob, g) oxirgi, d) qoloq.
18. Salbiy – a) muvaffaqiyatsiz, b) yolg‘on, v) manfiy, g) ehtiyotsiz.
19. Agrar – a) mahalliy, b) xo‘jalik, v) er, g) dehqon.

### III TOPSHIRIQLAR TO‘PLAMINI TAVSIFLASH VA MISOLLARI

Sizga uchta so‘z beriladi. Birinchi va ikkinchi so‘z o‘rtasida aniq bog‘liqlik bor. Uchinchi va besh so‘zdan biri bilan ana shunday bog‘liqlik bor. Siz ana shu so‘zning tagiga chizishingiz kerak.

Misol:

Qo‘shiq: kompozitor = samolyot:?

a) aeroport, b) uchuvchi, v) konstruktor, yoqilg‘i, d) qiruvchi.

To‘g‘ri javob, «konstruktor», shuning uchun uning tagiga chizilgan.

Keyingi misol:

Yaxshi: yomon = kun:?

a) quyosh, b) tun, hafta, g) chorshanba, d) bir-kecha kunduz.

Bu erda to‘g‘ri javob «tun», shuning uchun uning tagiga chizilgan.

### III TOPSHIRIQLAR TO‘PLAMI

1. Fe‘l: tuslamoq = ega:?  
a) o‘zgartirmoq, b) yaratmoq, v) foydalanmoq, g) turlamoq, d) yozmoq
2. Sovuq: issiq = harakat:?  
a) inertsiya, b) tinch holat, v) molekula, g) havo, d) o‘zaro harakat.
3. Kolumb: sayohatchi = zilzila:?  
a) birinchi bo‘lib kashf etgan, b) tog‘ hosil bo‘lish, otilish, g) qurbonlik, d) tabiiy hodisa
4. Qo‘shiluvchi: yig‘indi = ko‘paytuvchi:?  
a) ayirma, b) bo‘luvchi, v) ko‘paytma, g) ko‘paytirish, d) son.
5. Quldorlik: burjuaziya = qullar:?  
a) quldorlik tuzumi, b) burjuaziya, v) quldorlar, g) yollanma ishchilar, d) asirlar.
6. Qirqquloqlar – sporalar = qarag‘ay:?  
a) g‘udda (shishka), b) nina, g) o‘simlik, d) urug‘, d) qora qarag‘ay.
7. She‘r: poeziya = hikoya:?  
a) kitob, b) yozuvchi, v) povest, g) gap, d) proza
8. Tog‘lar: balandlik = iqlim:?  
a) rel‘ef, b) harorat, v) tabiat, g) geografik kenglik, d) o‘simliklar.
9. O‘simlik: poya = hujayra:?  
a) yadro (o‘zak), b) xromosoma, v) oqsil, g) ferment, d) bo‘linish.
10. Boylik: kambag‘allik = krepostnoy qaramlik:?  
a) Krepostnoy dehqonlar, b) shaxsiy erkinlik, v) tengsizlik, g) shaxsiy mulk, d) feodal tuzum.
11. Start: finish = muqaddima:?  
a) sarlavha, b) kirish, v) eng Yuqori nuqtasi, g) harakat, d) xotima.

12. Chaqmoq: yorug'lik = tortishish hodisasi:?  
a) tosh, b) harakat, v) og'irlik kuchi, g) mezon, d) er.
13. Ibtidoiy jamoa tuzumi: quldorlik tuzumi= quldorlik tuzumi:?  
a) sotsializm, b) kapitalizm, v) quldorlik, g) davlat, d) feodalizm.
14. Roman: bob = she'r:?  
a) poema, b) qofiya, v) band, g) vazn, d) janr
15. Issiq: organizm faoliyati = kislorod:?  
a) gaz, b) suv, v) o'simlik, g) taraqqiyot, d) nafas olish.
16. Figura: uchburchak = jismlarning holati:?  
a) suyuqlik, b) harakat, v) harorat, g) suv, d) molekula.
17. Atirgul: gul = kapitalistlar:?  
a) ekspluatatsiya, b) ishchilar, v) kapitalizm, g) sinf, d) fabrika.
18. Atmosfera bosimining pasayishi: yog'in-sochin = antitsiklon:?  
a) ochiq havo, b) tsiklon, v) iqlim, g) namgarchilik, d) meteorologiya xizmati
19. To'g'ri burchak: tekislik = kub:?  
a) fazo, b) qirra, v) balandlik, g) uchburchak, d) tomoni.
20. Urush: o'lim = xususiy mulk:?  
a) feodallar, b) kapitalizm, v) tengsizlik, g) qullar, d) krepostnoy dehqonlar.
21. Son: sanoq = fe'l:?  
a) barmoq, b) harakat, v) sinfdosh, g) gap bo'lagi, d) tushamoq.
22. Shimol: janub = yog'in-sochin:?  
a) cho'l, b) qutb, v) yomg'ir, g) qurg'oqchilik, d) iqlim.
23. Diametr: radius = aylana:?  
a) yoy, b) segment, v) kesma, g) chiziq d) doira.
24. Epiteliy: to'qima = aorta:?  
a) Yurak, b) ichki organ, v) arteriya, g) vena, d) qon.
25. Bolg'a: qoqmoq = generator:?  
a) birlashtirmoq, b) ishlab chiqarish, v) ulamoq, g) o'zgartirmoq, d) isitmoq.

#### **IV TOPSHIRIQLAR TO'PLAMINI TAVSIFLASH VA MISOLLARI**

Sizga beshta so'z beriladi. Ularning to'rttasi umumiy belgi bilan birlashtirilgan. Beshinchi so'z ularga to'g'ri kelmaydi. Uni topib tagiga chizish kerak. Faqat bir so'z ortiqcha bo'lishi mumkin.

Misol:

A) tarelka, b) piyola, v) stol, g) kastrYulka, d) choynak.

Birinchi, ikkinchi, to'rtinchi, beshinchi so'zlar idishni bildiradi. Uchinchi so'z mebel', shuning uchun uning tagiga chizilgan.

Keyingi misol:

A) bormoq, b) sakramoq, v) o'ynamoq, g) o'tirmoq, d) qochmoq.

To'rtta so'z harakat holatini bildiradi. «O'tirmoq» so'zi esa tinch holatni bildiradi, shuning uchun tagiga chizilgan.

#### **IV TOPSHIRIQLAR TO'PLAMI**

1. a) qo'shimcha, b) bahona, v) so'z yasovchi qo'shimcha, g) tugallanma, d) o'zak.
2. a) to'g'ri chiziq, b) romb, v) to'g'ri to'rtburchak, g) kvadrat, d) uchburchak.
3. a) barometr, b) filyuger, v) termometr, g) kompas, d) azimut.
4. a) quldor, b) qul, v) dehqon, g) ishchi, d) hunarmand.
5. a) maqol, b) poema, v) she'r, d) povest'.
6. a) tsitoplaza, b) oziqlanish, v) o'sish, g) ta'sirlanish, d) ko'payish.
7. a) yomg'ir, b) qor, v) cho'kindi, g) qirov, d) do'l.
8. a) uchburchak, b) kesma, v) uzunlik, g) kvadrat, d) doira.
9. a) manzara, b) mozaika, v) but, g) devorga ishlangan suratlar, d) rassomlik san'ati.

10. a) ocherk, b) roman, v) hikoya, g) sYujet, d) povest'.
11. a) parallel, b) xarita, v) meridian, g) ekvator, d) qutb.
12. a) adabiyot, b) san'at, v) rassomlik, g) me'morlik, d) badiiy hunar.
13. a) uzunlik, b) metr, v) massa, g) hajm, d) tezlik.
14. a) karbonat angidrid gazi, b) yorug'lik, v) suv, g) kraxmal, d) xlorofill.
15. a) muqaddima, b) kul'minatsiya, v) informatsiya, g) echim, d) xotima.
16. a) tezlik, b) tebranish, v) kuch, g) og'irlik, d) zichlik.
17. a) Kuba, b) Yaponiya, v) V'etnam, g) BuYuk Britaniya, d) Islandiya.
18. a) tovar, b) shahar, v) yarmarka, g) tabiiy xo'jalik, d) pul
19. a) tavsiflash, b) taqqoslash, v) xarakteristika, g) ertak, d) doston.
20. a) aorta, b) vena, v) Yurak, g) arteriya, d) kapillyar.

### V TOPSHIRIQLAR TO'PLAMINI TAVSIFLASH VA MISOLLARI

Sizga ikki so'z beriladi. Ular o'rtasida umumiylikni topish kerak. Har bir holatda muhimroq umumiy belgini umumiy so'z bilan ifodalashga intiling. Javobingizni juft so'zlar yoniga yozing.

Misol:

Qora qarag'ay - qarag'ay.

To'g'ri javob «ignabargli daraxt» bo'ladi. Bu so'zni berilgan ikki so'zning yoniga yozish kerak.

Keyingi misol: yomg'ir - do'l.

To'g'ri javob «yog'in-sochin» bo'ladi. Bu so'zni yozish kerak.

### V TOPSHIRIQLAR TO'PLAMI

1. Osiyo – Afrika.
2. Botanika – zoologiya.
3. Feodalizm – kapitalizm.
4. Ertak – doston.
5. Gaz – suYuqlik.
6. Yurak – arteriya.
7. Tallin–Baku.
8. Atom – molekula.
9. Yog'lar – oqsillar.
10. Fan – san'at.
11. Barqarorlik – mardlik.
12. Amper – vol't.
13. Kanal – to'g'on.
14. Mozaika – but (ikona).
15. Bulutli – yog'in-sochin.
16. Yig'indi – ko'paytma.
17. Kinoya – tavsiflash.
18. Klassitsizm – realizm.
19. Sunami – bo'ron.

### VI TOPSHIRIQLAR TO'PLAMINI TAVSIFLASH VA MISOLLARI

Sizga ma'lum qoida bo'yicha joylashgan sonlar qatori beriladi. Sizning vazifangiz qatorning davomini bildiradigan sonni topish va uni yozishdan iborat. Har bir qator o'ziga xos qoidaga asosan tuzilgan. Ayrim topshiriqlardan qatorning tuzilish qoidasini topish uchun ko'paytirish, bo'lish va boshqa amallardan foydalanishingizga to'g'ri keladi.

Misol:

2      4      6      8      10      ...

Bu qatorda har bir keyingi son oldingisidan ikkita ortiq. Shuning uchun keyingi son 12 bo'ladi.

Uni yozish kerak.

Navbatdagi misol:

9      7      10      8      11      9      12      ...

Bu qatorda navbat bilan 2 ayrilib, 3 qo‘shilyapti, keyingi son 10, uni yozish kerak.

### 6-TOPSHIRIQLAR TO‘PLAMI

1.	6	9	12	15	18	21	...
2.	9	1	7	1	5	1	...
3.	2	3	5	6	8	9	...
4.	10	12	9	11	8	10	...
5.	1	3	6	8	16	18	...
6.	3	4	6	9	13	18	...
7.	15	13	16	12	17	11	...
8.	1	2	4	8	16	32	...
9.	1	2	5	10	17	26	...
10.	1	4	9	16	25	36	...
11.	1	2	6	16	31	56	...
12.	31	24	18	13	9	6	...
13.	147	171	57	54	18	15	...
14.	54	19	18	14	6	9	...
15.	301	294	49	44	11	8	...

Bu testning oltita topshirig‘ini bajarish uchun 40–45 daqiqa vaqt kerak bo‘ladi.

1-topshiriq – 7-8 daqiqa.

2-topshiriq – 5-6 daqiqa.

3-topshiriq – 11-12 daqiqa.

4-topshiriq – 5 daqiqa.

5-topshiriq – 5-6 daqiqa.

6-topshiriq – 7-8 daqiqa.

Har bir o‘quvchi qo‘liga alohida savolnoma va to‘g‘ri javoblarning harfini belgilash uchun karta beriladi. Biz quyida har bir berilgan savolga to‘g‘ri javoblar kalitini keltiramiz.

F.I.O.				Kalit	Sinf
1-t	2-t	3-t	4-t	5-t	6-t
1.b	1.b	1.g	1.b	1. Dunyo qismlari	1.24
2.b	2.b	2.b	2.a	2. Jonli tabiat haqida fan, 2.3	
3.v	3.g	3.d	3.d	3. Ijtimoiy tuzum	3.11
4.v	4.a	4.v	4.A	4. Xalq og‘zaki ijodi	4.7
5.v	5.v	5.g	5.a	5. Jismlarning holati	5.36
6.d	6.g	6.g	6.a	6. Qon aylanish organlari	6.24
7.v	7.b	7.d	7.v	7. Poytaxtlar	7.18
8.b	8.g	8.b	8.v	8. Qismlar	8.64
9.g	9.b	9.a	9.d	9. Organik jismlar	9.37
10.a	10.b	10.b	10.t	10. Madaniyat, faoliyat	10.49
11.a	11.a	11.d	11.b	11. Xarakterning ijobiy xislatlari	11.92
12.b	12.b	12.v	12.b	12. Elektrni o‘lchash birliklari	12.4
13.g	13.v	13.d	13.b	13. Sun‘iy suv inshootlari	13.5



14.d	14.b	14.v	14.g	14. Tasviriy san'at	14.2
15.a	15.a	15.d	15.v	15. Atmosfera hodisalari	15.4
16.g	16.g	16.a	16.b	16. Matematik amallar	
natijasi					
17.g	17.a	17.g	17.v	17. Adabiy uslublar	
18.d	18.v	18.a	18.g	18. San'atdagi yo'nalish	
19.a	19.v	19.a	19.g	19. Tabiiy ofat	
20.v	20.v	20.v	20.v		
		21.b			
		22.g			
		23.a			
		24.v			
		25.b			

### OLINGAN NATIJALARNI QAYTA ISHLASH

1-subtest bo'yicha har bir to'g'ri javob – 1 ball, sinaluvchi eng ko'pi bilan – 20 ball yig'ishi mumkin.

2-subtest bo'yicha har bir to'g'ri javob – 1 ball, o'quvchilar yig'ishi mumkin bo'lgan eng ko'p ball – 20.

3-subtest bo'yicha har bir to'g'ri javob – 1 ball, eng ko'p ball – 25.

4-subtest bo'yicha har bir to'g'ri javob – 1 ball, bolalar eng ko'pi bilan 20 ball olishlari mumkin.

5-subtest bo'yicha juda aniq javob – 2 ball, to'liqmas javoblar – 1 ball, eng ko'pi bilan 38 ball olishlari mumkin.

6-subtest bo'yicha har bir to'g'ri javob – 1 ball, 15 ball yig'ishi mumkin. MATT bo'yicha eng ko'p ball – 138 ga teng.

### T-chizma grafik organayzerlari

1)

Intellekt testlarining afzalliklari	Intellekt testlarining kamchiliklari

2)

D.Vekslerni intellekt shkalalari afzalliklari	D.Vekslerni intellekt shkalalari kamchiliklari

3)

R.Amtxauer intellekt strukturalari testi afzalliklari	R.Amtxauer intellekt strukturalari testi kamchiliklari

4)

Maktab aqliy taraqqiyoti testining afzalliklari	Maktab aqliy taraqqiyoti testining kamchiliklari

Shunday qilib, ushbu bo'limda intellekt koeffitsenti haqida tushuncha, intellektni psixometrik tekshirish, shu bilan birga turli yosh davrlarida shaxs tafakkurini aniqlash usullari, jumladan, Amtxauer, Veksler, Raven, MATT kabi metodikalar bilan tanishdik.

### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tafakkurining individual xususiyatlari?
2. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning obrazli tafakkurini tadqiq qilishning qanday metodikalarini bilasiz?

3. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning ko'rgazmali-harakat tafakkurini tadqiq qilishning qanday metodikalarini bilasiz?
4. Vekslarning verbal subtestlari haqida nimalarni bilasiz?
5. Vekslarning noverbal subtestlari haqida nimalarni bilasiz?
6. Amtauer metodikasining mohiyati?
7. MATTning har bir topshirig'i haqida gapirib bering?
8. Raven metodikasi orqali nimalarni o'rganish mumkin?

## VII.QOBILIYATLAR PSIXODIAGNOSTIKASI

### **Reja:**

- 1.Qobiliyat psixodiagnostikasi va uning o'ziga xos jihatlari.
- 2.Xissiy irodaviy sohaning diagnostikasi.
- 3.Motivatsion sohani diagnostika qilish.

### **Maqsad:**

Talabalarda qobiliyatlar, hissiy-irodaviy hamda motivatsion soha psixodiagnostikasi haqida tushuncha hosil qilish.

### **Vazifa:**

Talabalarda qobiliyatlar, hissiy-irodaviy hamda motivatsion soha psixodiagnostikasi haqida dunyoqarashini shakllantirish.

### **Tayanch tushunchalar:**

**Qobiliyat** – shaxsning ma'lum faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual xususiyatlar

**Hissiyot** –insonning ehtiyojlarining qondirilishi yoki qondirilmagligiga nisbatan tevarak olamga bo'lgan munosabati.

**Iroda** – shaxsning muayan qiyinchiliklarni engib o'tish bilan bog'liq ichki kuchidir

**Motivatsiya** – odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmui

## 7.1. Qobiliyat psixodiagnostikasi va uning o'ziga xos jihatlari

Har bir inson yoshligidanoq kamchiligu yutuqlari, o'z imkoniyatlari haqida oz bo'lsa-da tasavvurga ega bo'la boshlaydi. Yoshligidanoq bolalar fe'l-atvori haqida oldin ota-onalar, keyin esa atrofdagilar o'z munosabatini bildira boshlaydi. Tashqi ta'sir natijasi o'laroq, har bir insonda o'z-o'ziga baho berish qobiliyati shakllana boshlaydi. Kimdir o'ziga juda yuqori baho bersa, yana kimdir o'zi haqida salbiy fikrda bo'ladi.

O'zi haqidagi juda yuqori fikrdagi insonlar atrofdagilardan doim qusur izlashga harakat qilishadi. Uning o'zi haqidagi fikri real imkoniyatlardan ko'ra ilgari lab ketgan. Bunday insonlarning baxtli bo'lishi qiyin, sababi ular doim nimadandir norozi bo'lib Yurishadi: yo hayot tarzidan yoki atrofdagilardan... ularning o'zi haqidagi fikrlarini o'zgartirish ham qiyin kechadi. Buning uchun o'zgalarning yutug'ini ko'rib, o'z imkoniyatlarini taqqoslash, atrofdagilarning unga nisbatan to'g'ri muomala qila olishi muhim ahamiyatga ega.

O'zi haqida salbiy fikrda bo'lgan insonlarga ham oson emas. Ularning boshqalar bilan muomalaga kirishishlari, yangi tanishlar orttirishlari qiyin kechadi. Ularni doim biror ishni boshlashdan oldin «men to'g'ri yo'l tutayapmanmikan?» kabi shubhali savollar qiynaydi. Bunday shubha gumonlardan qutilish uchun avvalambor o'zingizga chetdan nazar tashlang. Siz hech kimdan kam emassiz va shuning barobarida boshqalardan ustun jihatlaringiz ham mavjud. Bu jixatlarni xis qila biling. Shundagina xayotda o'z o'rningizni topib, ishingizda yaxshi natijalarga erisha olasiz.

### Qobiliyatni aniqlash testi

Ushbu qobiliyatni aniqlash metodikasi Ayzenk test so'rovnomasi asosida tuzilgan.

Bu metodikani qaerda qo'llash mumkin?

*Birinchidan*, ular akademik litsey yoki kasb xunar kollejiga o'qish uchun kelgan talabalarga o'z shaxsiy yo'nalishini to'g'ri belgilashlariga yordam berishda qo'l keladi.

*Ikkinchidan*, ularni o'qitish samaradorligini oshirish maqsadida qo'llanilishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilar qobiliyatini, qiziqishlarini aniqlab, undan o'z darslarida foydalanishi mumkin.

Testni to'g'ri qo'llash uchun quyidagi shartlarga qat'iy amal qilinadi:

1. Ajratilgan vaqt birligiga (80 ta savol uchun 40 daqiqa) qat'iy rioya qilish.
2. Sinaluvchining savol mazmunini to'g'ri idrok etishga va tushunilishiga erishish.
3. Javoblar sinaluvchining mustaqil fikriga asoslanganligiga erishish.
4. Savollarga berilgan javoblarni ishlab chiqish (100 ballik tizim asosida)

Sinaluvchi savollarni diqqat bilan o'qib chiqadi. Qaysi savol o'zi haqida ketayotganiga ishonch hosil qilsa, shu savolga belgi qo'yadi, qolgan savollarga xech qanday belgi qo'ymaydi. Sinaluvchi savollarga shoshilmasdan ochiq oydin va to'g'ri javob berishi lozim. Belgilangan savollarning kam yoki ko'pligi muhim emas. Sinaluvchida «qancha ko'p savollarni belgilasam, shuncha ijobiy javob olaman» degan fikr tug'ilmasligi kerak.

Savollar.

1. O'ylayotganlaringizni yaxshi bayon etib bera olasizmi?
2. Tajriba va sinovlar o'tkazishni yaxshi ko'rasizmi?
3. Karta yoki sxema yordamida istalgan manzilgohni qiynalmasdan topa olasizmi?
4. O'zingizga tanish kuy ostida qo'shiq kuylay olasizmi?
5. Arg'imchoqda uchishni yoqtirasizmi?
6. Uyda yolg'iz o'tirishdan ko'ra do'stlaringiz bilan suhbatlashish afzalmi?
7. Hayvonlarga ozor bermay, yaxshi munosabatda bo'lasizmi?
8. Yolg'izlikni xayol surib Yurishni yoqtirasizmi?
9. Siz adabiyotga qiziqasizmi?
10. Suratga tushirishni yoqtirasizmi?
11. Qiladigan ishlaringizni oldindan yon daftaringizga yozib qo'yasizmi?
12. O'zingiz yoqtirgan qo'shiqlarni tez-tez xirgoyi qilib Yurasizmi?
13. O'zingizni kuchli va kuchsiz tomonlaringizni yaxshi bilasizmi?
14. Boshqalarning maslahatiga quloq tutmay, mustaqil qaror qabul qila olasizmi?
15. Ko'pgina masalalarda boshqalarga maslahat bera olasizmi?

16. Psixologiya bilan qiziqasizmi?
17. Hazil mutoyibani yoqtirasizmi?
18. Rang- barang bezatilgan kitoblarni yaxshi ko'rasizmi?
19. Odamlarning xatti-harakatlarini kuzatib Yurasizmi?
20. Har xil imo- ishoralar va harakatlarni yaxshi eslab qolasizmi?
21. Sportga qiziqasizmi?
22. Qiynalmasdan bir guruh odamlarni boshqara olasizmi?
23. Dunyoviy muammolarga masalan ekologiyaga qiziqasizmi?
24. Sayoxatga baliq oviga borishni yoqtirasizmi?
25. Har xil so'z o'yinlarini va topishmoqlar topishni yoqtirasizmi?
26. Narsalar bilan raqamlar orasidagi bog'lanishni aniqlay olasizmi?
27. Yosh bolalar bilan o'yin o'ynashni yoqtirasizmi?
28. Yugurishdan ko'ra futbol, voleybol, basketbol o'ynash ma'qulmi?
29. Gullarni nomini yoddan bilasizmi?
30. Toqqa chiqishni yoqtirasizmi?
31. Tez-tez musiqa eshitib turasizmi?
32. Narsalarni buzib boshqatdan terishni yaxshi ko'rasizmi?
33. Radio, televizordan eshitgan ma'lumotlarni yaxshi eslab qolasizmi?
34. O'z fikringizni bayon qilganda rasm va sxemalardan foydalanasizmi?
35. Hisob-kitob ishlarini yaxshi olib borasizmi?
36. O'yinga tushishni yaxshi ko'rasizmi?
37. Tez-tez barmoqlaringiz yordamida musiqa chalib turasizmi?
38. Eng yaqin do'stlaringiz bormi?
39. Hayotingiz haqida o'ylab turasizmi?
40. O'zingizni fermer sifatida tasavvur qila olasizmi?
41. Shaxsiy tashvishlar sizni ko'proq qiziqtiradimi?
42. Biror narsani xal etishda do'stlaringiz bilan maslaxatlashasizmi?
43. Shaxmat o'ynashni yoqtirasizmi?
44. Narsalarning kelajakda qanday bo'lishini tasavvur qila olasizmi,?
45. Musiqa asbobida kuy ijro eta olasizmi?
46. Narsa haqida to'la tasavvurga ega bo'lishingiz uchun uni ushlab ko'rishingiz shartmi?
47. Bahslashganda o'z fikringizni qat'iyat bilan himoya qilasizmi?
48. Yo'lda biror kuyni xushtak orqali chalib Yurasizmi?
49. Ekologiya hozirgi kunning eng asosiy muammosimi?
50. Biror jamoa guruh yoki qo'mita tarkibida bo'lishni xohlaysizmi?
51. Boshqalar bilmaydigan qiziqish ermagingiz bormi?
52. Narsalarning mohiyatini baholash uchun ularni turli guruhlarga ajratasizmi?
53. Siz rasmlar tomosha qilishni yoqtirasizmi?
54. So'zlashayotganda imo-ishoralarni ko'p ishlatasizmi?
55. Ko'zingiz tushgan hamma yozuvlarni xatto bu Yumlarning etiketkalarini ham o'qiyasizmi?
56. Mantiqiy o'yinlarni yaxshi ko'rasizmi?
57. Tushuntirganda misollar keltirasizmi?
58. Odamning hamma a`zolari qerda joylashganini yaxshi bilasizmi?
59. Kelishmovchilik va janjallarni hal qila olasizmi?
60. Doim biror narsani o'rganishni o'ylab Yurasizmi?
61. Bir marta eshitgan kuyingizni eslab qolasizmi?
62. Bilimlarni tajriba va sinov orqali o'zlashtirasizmi?
63. So'zlashganda kitoblarni o'qigan obrazlardan foydalanasizmi?
64. Algebradan ko'ra geometriya sizga ko'proq yoqadimi?
65. Kompyuter bilan ishlashni yoqtirasizmi?
66. Mashhur aktyorlarning gaplarini o'zlariga o'xshatib aytishni yani taqlid qilishni yoqtirasizmi?
67. Hayotingizni qo'shiqsiz tasavvur qila olasizmi?

68. To'ylarda qatnashishni yoqtirasizmi?
69. Planetalarning nomlarini bilasizmi?
70. Kundalik yuritasizmi?
71. Uy xayvonlariga ovqat berishni yoqtirasizmi?
72. Hayotingizda biror narsaga erishish uchun hamma narsaga tayyormisiz?
73. O'simliklarga suv qo'yishni yoqtirasizmi?
74. Tez-tez kontsertlarga borib turasizmi?
75. Yo'lda o'z shaxsiy muammolaringiz haqida o'ylab Yurasizmi?
76. Matematikani yaxshi ko'rasizmi?
77. Dars paytida daftaringizga ba'zi narsalarning rasmini chizib o'tirasizmi?
78. Juda ko'p so'zlarning ma'nosini bilasizmi?
79. Ovoz chiqarib fikrlashni yoqtirasizmi?
80. Odamlar qiynalganda sizdan maslahat so'rab turishadimi?

Endi bu savollarga javoblarni baholash ustida to'xtalamiz. Sinaluvchi o'zi belgilagan savol nomerlarni quyidagi jadvalda doira ichiga olib chiqadi.

Qaysi ustunda 8-10 doiralari bo'lsa sinaluvchida o'sha qobiliyat ustun bo'ladi. Qaysi qobiliyatning ustunligiga qarab o'quvchining nimaga qiziqishi haqida so'z Yuritish mumkin.

A – lingvistik qobiliyat. Bunday qobiliyatli kishilarda o'qishga she'riyatga baxs munozaraga hazil hajv va hikoyalarga qiziqish kuchli bo'ladi.

V – matematik qobiliyat. Bu qobiliyati ustun bo'lgan kishilar abstrakt belgilar, formulalar, raqamlar bilan ishlashni yoqtirishadi.

S- ko'rish qobiliyati. Bu qobiliyatga ega kishilarda tasviriy san'atga, xaykaltaroshlik va chizmachilikka qiziqish katta bo'ladi.

D -kinetik qobiliyat. Bu qobiliyat egalari raqs, rol ijro etish, jismoniy mashqlar, sport o'yinlari va dramaga qiziqadilar.

E – tabiatsevarlik qobiliyati. Bu qobiliyat egalari sayru-sayohatga, ekskursiyalarga ko'proq qiziqadi.

F- musiqiy qobiliyat. Bu qobiliyat egalari qo'shiq aytishni, musiqa tinglashni, jo'r bo'lishni yaxshi ko'radilar.

G- suhbatdoshlik qobiliyati. Bu qobiliyat sohiblari hamdard, hamkor, xushmuomala bo'lishni, birgalikda turli loyihalar yaratishni xush ko'rishadi.

H – fikrlash qobiliyati. Bu qobiliyat egalari doim fikrni bir joyga yig'ib to'play oladi, yaxshi va chuqur fikrlaydi, xayol surib Yurishni yaxshi ko'rishadi.

A	B	C	D	E	F	G	H
1	2	3	4	5	6	7	8
9	11	10	14	12	13	15	16
17	19	18	21	20	24	22	23
25	26	32	27	31	30	28	29
33	35	34	36	37	39	38	40
47	43	44	46	45	41	42	49
55	52	53	54	48	51	50	58
63	57	56	61	62	60	59	69
78	65	64	66	67	70	68	71
79	76	77	75	74	72	80	73

### “Ijodiy qobiliyatlarni baholash so'rovnomasi” (E.E.Tunik)<sup>6</sup>

<sup>6</sup> Fetiskin N.P., Kozlov V.V., Manuylov G.M. Sotsialno-psixologicheskaya diagnostika razvitiya lichnosti I malix grupp. – M., 2002. S.59-64.

Mazkur so'rovnoma shaxsda ijodiy faollik bilan bog'liq bo'lgan to'rt asosiy xususiyat – qiziquvchanlik, yaxshi rivojlangan xayol, murakkablik (murakkab hodisa va tushunchalarni anglashga intiluvchanlik, murakkab masalalarni mustaqil echishga intiluvchanlik, murakkab topshiriqlarni xush ko'rish), tavakkalchilikka moyillik darajasini aniqlashga xizmat qiladi.

**Ko'rsatma:** “Hurmatli ishtirokchi, quyidagi so'rovnoma sizga o'zingizning ijodiy qobiliyatlaringiz darajasini baholashingiz uchun imkoniyat beradi. Buning uchun sizdan so'rovnomada keltirilgan ta'kidlarga munosabat bildirishingiz talab etiladi. Bunda siz ta'kidlarda ifodalangan xususiyat sizga qanchalik xosligini bildirishingiz lozim bo'ladi. Buning uchun siz javob varaqasida keltirilgan to'rt xil javob varianti – “umuman olganda to'g'ri” (ha), “qisman to'g'ri”(ehtimol), “umuman olganda noto'g'ri” (yo'q), “bilmayman” variantidan birini tanlab, tegishli ta'kid raqami ro'parasida tanlangan javob varianti ostida belgi qo'yishingiz kerak. Unutmang, bu erda to'g'ri yoki xato javoblar bo'lmaydi, o'zingiz uchun tegishli xususiyat qanchalik xos bo'lsa, uni ko'p o'ylamay belgilang. So'rovnoma bilan ishlash vaqti cheklanmagan, ammo javoblaringizni imkon qadar tezroq berishga harakat qiling”.

### **So'rovnoma matni.**

1. Agar to'g'ri javobni aniq bilmasam, uni chamalab topishga harakat qilaman.
2. Narsa-buyumlarni ularning avval ko'zga tashlanmagan detallarini payqash uchun batafsil ko'zdan kechirishni yoqtiraman.
3. Bilmagan narsamni odatda so'rab bilishga intilaman.
4. Ishni avvaldan rejalashtirish menga yoqadi.
5. Yangi o'yinda ishtirok etishdan avval men unda g'alaba qozonishimga amin bo'lib olishim kerak.
6. Menga o'zim bilib olishim yoki bajarishim kerak bo'ladigan narsalar haqida o'ylash yoqadi.
7. Agar biror ishni bir urinishda amalga oshira olmasam, to maqsadimga erishguncha urinaveraman.
8. Boshqalarga tanish bo'lmagan o'yinni unda ishtirok etish uchun hech qachon tanlamayman.
9. Biror ishni bajarishning yangicha usullarini o'ylab topgandan ko'ra hammasini har doimgidek bajaraveraman.
10. Qandaydir ma'lumot to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini tekshirishni yoqtiraman.
11. Menga o'zim uchun yangi bo'lgan ish bilan shug'ullanish yoqadi.
12. Yangi do'stlar orttirishni yaxshi ko'raman.
13. Menga o'zim bilan hech qachon ro'y bermagan hodisalar haqida o'ylash yoqadi.
14. Men qachonlardir mashhur san'atkor, shoir yoki artist bo'lish haqidagi xomxayollarga berilmayman.
15. Ayrim g'oyalarim meni shunchalik o'ziga jalb etib ketadiki, dunyodagi barcha narsani unitib qo'yaman.
16. Menga erdan ko'ra ko'proq kosmik stantsiyada yashash va ishlash yoqar edi.
17. Keyinchalik nima ro'y berishini bilmaganimda asabiylashaman.
18. Noodatiy narsalarni yoqtiraman.
19. Men ko'pincha boshqa odamlar nima haqida o'ylayotganini tasavvur qilishga intilaman.
20. Menga o'tmishda ro'y bergan hikoyalarni o'qish va teleko'rsatuvlarni tomosha qilish yoqadi.
21. Menga o'z g'oyalarimni do'stlarim davrasida muhokama qilish yoqadi.
22. Biror xatolikka yo'l qo'yganimda ham men asabimni buzmayman.
23. Kelajakda mengacha hech kimning qo'lidan kelmagan ishni amalga oshirishni xohlar edim.
24. Men hamma narsani odatiy yo'l bilan qiladigan odamlar bilan do'stlashishni ma'qul ko'raman.
25. Ko'pchilik mavjud qoidalar meni odatda qoniqtirmaydi.
26. Menga hatto to'g'ri javobi mavjud bo'lmagan masalani echishga urinish yoqadi.
27. Men ko'p narsalar bilan tajribalar o'tkazib ko'rishni xohlayman.
28. Agar biror marta to'g'ri javobni topgan bo'lsam, keyinchalik boshqa variantlarni qidirib o'tirmayman.
29. Guruh oldida chiqish qilishni xushlamayman.

30. Badiiy asar o'qiganimda yoki kinofilm tomosha qilganimda o'zimni undagi qahramonlardan birining o'rnida tasavvur qilaman.
31. Menga uzoq o'tmishda odamlar qanday yashaganini tasavvur qilish yoqadi.
32. Menga do'stlarimning qat'iyatsizlik qilishi yoqmaydi.
33. Menga eski quti va sandiqlarni ularda nimalar borligini bilish uchun tekshirib chiqish yoqadi.
34. Men ota-onam va o'qituvchilarim o'zgaruvchan bo'lmay doim bir xil bo'lib turishini xohlar edim.
35. Men o'zimning ichki sezgimga ishonaman.
36. Menga biror farazni ilgari surib, qanchalik haq ekanimni tekshirish qiziqarlidir.
37. Keyingi bir necha qadamni oldindan bilib ish tutish talab qilinadigan o'yinlarni yoqtiraman.
38. Meni turli mexanizmlar, ularning ichi qanday tuzilgani va ular qanday qilib ishlashi qiziqtiradi.
39. Mening eng yaqin do'stlarimga axmoqona fikrlar yoqmaydi.
40. Menga yangi narsalarni, hatto, ularni, amaliyotda qo'llab bo'lmasa ham, o'ylab topish yoqadi.
41. Men hamma narsa o'z joyida turishini yoqtiraman.
42. Kelajakda paydo bo'ladigan savollarning javobini qidirish menga qiziqarli bo'lishi mumkin.
43. Men yangi ishga uning oqibati qanday bo'lishini bilish uchun qo'l urishni yoqtiraman.
44. Menga o'zim yoqtirgan o'yinlarni shunchaki ko'ngilocharlik uchun Yutuq haqida o'ylamay o'ynash qiziqarlidir.
45. Menga hech kimning xayoliga kelmagan narsalar haqida o'ylash yoqadi.
46. Men notanish odam aks etgan fotosuratni ko'rganimda undagi odamning kimligini bilishga qiziqaman.
47. Menga kitob va jurnallarni shunchaki ularda nimalar borligini bilish uchun varaqlab ko'rish yoqadi.
48. Menimcha, ko'pchilik savollarga yagona to'g'ri javob mavjud.
49. Boshqalar o'ylab ko'rmagan narsalar haqida savol berishni yoqtiraman.
50. O'qishda ham, uyda ham juda ko'p qiziqarli mashg'ulotlarim bor.

### **Natijalarni qayta ishlash va baholash.**

Natijalarni baholash sinaluvchi javoblarini quyidagi kalit bilan solishtirish asosida amalga oshiriladi.

#### **Kalit**

1. Qiziquvchanlik shkalasi bo'yicha:

1) "ha" javobi – 2, 3, 11, 12, 19, 27, 33, 37, 38, 47, 49 (har bir moslik uchun 2 balldan);

2) "yo'q" javobi – 28 (har bir moslik uchun 2 balldan);

3) barcha "ehtimol" degan javoblar – 1 balldan;

4) barcha "bilmayman" degan javoblar – -1 balldan.

2. Murakkablik shkalasi bo'yicha:

1) "ha" javobi – 7, 15, 18, 26, 42, 50 (har bir moslik uchun 2 balldan);

2) "yo'q" javobi – 4, 9, 10, 17, 24, 41, 48 (har bir moslik uchun 2 balldan);

3) barcha "ehtimol" degan javoblar – 1 balldan;

4) barcha "bilmayman" degan javoblar – -1 balldan.

3. Xayol shkalasi bo'yicha:

1) "ha" javobi – 13, 16, 23, 30, 31, 40, 45, 46 (har bir moslik uchun 2 balldan);

2) "yo'q" javobi – 14, 20, 39 (har bir moslik uchun 2 balldan);

3) barcha "ehtimol" degan javoblar – 1 balldan;

4) barcha "bilmayman" degan javoblar – -1 balldan.

### **Natijalarni umumlantirish.**

Sinaluvchining barcha javoblari kalitning "ha" va "yo'q" javob variantlariga mos kelsa jami 100 ball to'planishi mumkin.


Agar sinaluvchi barcha ta'kidlarga "ehtimol" degan javob varianti orqali munosabat bildirgan bo'lsa, uning yakuniy natijasi 50 ballga teng keladi.

So'rovnomadagi "bilmayman" javobi diagnostik qiymatga ega bo'lmay qat'iyatsiz, ijodiy yondashuvdan o'zini to'liq olib qochadigan sinaluvchini jazolash uchun xizmat qiladi. Sinaluvchining natijasi qanchalik baland bo'lsa, unda ijodiy faollik bilan bog'liq shaxsiy sifatlar (qiziquvchanlik, ijodiy xayol, murakkablik, tavakkalga moyillik) darajasi shunchalik Yuqori ekani haqida xulosa chiqariladi.

### “Gottshald shakllari” metodikasi<sup>7</sup>

Mazkur metodika shaxsning bilish faoliyatida ikki kognitiv uslub – maydonga tobe va maydondan mustaqil uslubning qaysi biri ustunligini aniqlash uchun qo'llanadi. Bunda maydonga tobelik odamning olamni bilish jarayonida tashqi chalg'ituvchi omillar ta'siriga kuchli berilishini, maydondan mustaqil uslub esa bunday ta'sirdan etarlicha holi ekanligini anglatadi.


Ko'rsatma: “Hurmatli ishtirokchi! Sizga quyida har xil shakllarning tasviri ko'rsatiladi. Shakllar 6 tadan to'plam qilib joylashtirilgan. Har bir to'plamdan avval A, B, C, D, E harflari bilan shifrlangan alohida sodda shakllar qatori keltiriladi. Sizing vazifangiz ushbu namunadagi sodda shakllarning qaysilari to'plamdagi murakkab (chalkash) shakllar ichida mavjudligini aniqlash. Namunadagi qaysi shakl tegishli murakkab shakl ichida mavjudligini aniqlaganingizda uning shartli shifri (A, B, C, D, E harflaridan biri)ni shakllar to'plamlarining o'ng tarafidagi bo'sh katakchalarga yozib quyding. Unutmang, har bir murakkab shakl tarkibida namunada keltirilgan shakllardan faqat biri va aynan namunada ko'rsatilgan o'lcham va joylashuv o'rni kabi ko'rinishda ak ettirilgan.




1	2	3	1	
4	5	6	2	
			3	
			4	
			5	
			6	

<sup>7</sup> Zinchenko T. P. Kognitivnaya I prikladnaya psixologiya. – M.: MODEK, 2000 . - 608 s.







7	8	9	7
			8
			9
10	11	12	10
			11
			12



19	20	21	19
			20
			21
22	23	24	22
			23
			24



13		14		15		13
						14
						15
16		17		18		16
						17
						18



25		26	27	28	29	25
						26
						27
28		29	30	31	32	28
						29
						30

### Natijalarni hisoblash

Sinaluvchilarning javoblari quyidagi kalit bilan solishtirib tekshiriladi, har bir moslik uchun 1 balldan baho qo'yiladi.

1. A	6. V	11. B	16. D	21. G	26. B
2. B	7. A	12. A	17. A	22. B	27. A
3. V	8. V	13. A	18. D	23. G	28. D
4. G	9. D	14. V	19. B	24. A	29. V
5. V	10. D	15. B	20. V	25. D	30. B

Yakuniy natija quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$I = \frac{N}{t}$  bu erda: N - umumiy ball yig'indisi (sinaluvchining barcha to'g'ri javoblari miqdori); t – butun test bilan ishlash davomida sarflangan vaqt (daqiqqa hisobida).

Agar yakunda I ning ko'rsatkichi 2,5 dan katta bo'lsa, sinaluvchida maydondan mustaqil kognitiv uslub ustunligi ma'lum bo'ladi.

Agar yakunda I ning ko'rsatkichi 2,5 dan kichik bo'lsa, sinaluvchida maydonga tobe kognitiv uslub ustunligi ma'lum bo'ladi. Demak, testda sinaluvchi qanchalik ko'p to'g'ri javoblarni topsa, uning bilish sohasida maydondan mustaqil kognitiv uslub darajasi shunchalik yuqori bo'ladi.

## 7.2.Xissiy irodaviy soha diagnostikasi

### A.Assingerning agressiyani diagnostika qilish metodikasi

A.Assingerning ushbu testi shaxsning o'z hamkasblari bilan munosabatda qanchalik darajada to'g'riligini (ochiqligini) va ularning u bilan muloqot qilishlarini osonligini aniqlashda yordam beradi.

Javoblarning xosligini aniqlash uchun hamkasabalar orasida bir-birini baholovchi suhbat o'tkazish mumkin.

Bu esa ularning o'z-o'zlarini baholashlari qanchalik to'g'riligini aniqlashda yordam beradi.

Javobning tagiga chizing.

1. Siz ishxonangizda navbatdagi nizodan so'ng yarashish yo'llarini qidirishga moyilmisiz?
  - 1) Har doim.
  - 2) Gohida.
  - 3) Hech qachon.
2. Siz o'zingizni mushkul vaziyatda qanday tutasiz?
  - 1) Ich-ichingizdan g'azablanasiz.
  - 2) Xotirjamligingizni saqlaysiz.
  - 3) O'zingizni tuta olmaysiz
  - 4) Dadilligingizni yo'qotmaysiz.
3. Hamkasblaringiz sizni qanday odam deb hisoblashadi?
  - 1) Kekkaygan hasadchi.
  - 2) Samimiy.
  - 3) Xotirjam va hasadchi emas.
4. Agar sizga mas'ul lavozim taklif qilinsa, siz qanday munosabat bildirasiz?
  - 1) Uni bir muncha xavotirlanish bilan qabul qilasiz.
  - 2) Ikkilanmasdan rozi bo'lasiz.
  - 3) Undan o'zingizni xotirjamligingiz uchun voz kechasiz.
5. Agar hamkasblaringizdan birontasi ruxsatsiz sizning stolingizdan qog'oz olsa o'zingizni qanday sezasiz.
  - 1) Unga kimligingizni ko'rsatib qo'yasiz.
  - 2) Qaytarishga majbur qilasiz.
  - 3) Unga yana biror narsa kerak emasligini so'raysiz.
6. Agar eringiz (xotiningiz) ishdan odatdagidan kech qolsa qanday so'zlar bilan kutib olasiz.
  - 1) Nima seni shunchalik ushlab qoldi?
  - 2) Kechgacha qaerda eding?
  - 3) Men xavotir ola boshlayotgan edim.
7. Siz o'zingizni mashina boshqarayotganda qanday tutasiz?

- 1) Sizni “Quvib kelayotgan” mashinani quvib o’tishga harakat qilasiz
  - 2) Sizni qancha mashina quvib o’tsa ham sizga baribir.
  - 3) Shunaqangi tezlikda ketasizki, sizga hech kim etolmaydi.
8. Sizni hayotga qarashingiz qanday deb hisoblaysiz?
- 1) Uyg’unlashgan
  - 2) Engiltak
  - 3) Juda ham qattiq (og’ir)
9. Agar isharingiz yurishmayotgan bo’lsa nima qilasiz?
- 1) Aybni birovga ag`darishga harakat qilasiz.
  - 2) Ko`nikasiz.
  - 3) Kelgusida ehtiyotkorroq bo`lasiz
10. Siz zamonaviy yoshlarning orasida axloqsizlik haqidagi feletonga qanday munosabat bildirasiz?
- 1) “Bunday vaqti chog`likni ta`qiqlash kerak”
  - 2) Ularga uyushgan va madaniy tarzda dam olishi uchun imkoniyat  
yaratish lozim.
  - 3) Nimaga endi biz ular bilan shunchalar ovoramiz.
11. Agar siz egallamoqchi bo’lgan lavozim boshqa birovga nasib qilsa, nimani his qilasiz?
- 1) Nimaga bu uchun shuncha asabiylashaman.
  - 2) Chamasi, xo`jayinga uning ko`rinishi yoqimliroq bo`lsa kerak.
  - 3) Balki, men buni keyingi safar uddasidan chiqarman.
12. Qo`rqinchli film ko`rayotganda qanday holatda bo`lasiz?
- 1) Qo`rqasiz
  - 2) Zerikasiz
  - 3) Chin dildan zavqlanasiz
13. Agar siz yo`ldagi tiqilinch tufayli muhim majlisga kechikayotgan bo`lsangiz...
- 1) Majlis vaqtida asabiylashasiz
  - 2)Hamkorlaringizga iltifot ko`rsatishga harakat qilasiz
  - 3)Ranjisiz
- 14.O`zingizni sportdagi yutuqlaringizga qanday qaraysiz?
- 1) Albatta yutishga harakat qilasiz
  - 2) O`zingizni yana yosh his qilishingiz lazzatini  
qadrlaysiz
  - 3) Agar omad kelmasa, judayam jahlingiz chiqadi.
15. Agar sizga restoranda yomon xizmat qilishsa nima qilasiz?
- 1) Janjaldan qochib, chidaysiz
  - 2) Ofitsiantni chaqirasiz va tanbeh berasiz
  - 3) restoran direktoriga arz qilasiz.
16. Agar bolangizni maktabda xafa qilishsa, o`zingizni qanday tutasiz?
- 1) O`qituvchi bilan gaplashasiz.
  - 2) “Voyaga etmagan jinoyatchining” ota-onasi bilan janjallashasiz
  - 3) Bolangizga javob qaytarishni maslahat berasiz.
17. Sizningcha, siz qanday odamsiz?
- 1)O`rtacha
  - 2)O`ziga ishongan
  - 3)Uddaburon
18. Sizning xodimingiz idora eshigida sizga urilib ketsa va kechirim so`ray boshlasa, siz nima deb javob berasiz?
- 1) “Uzr, bu meni aybim”
  - 2) “Hechqisi yo`q”
  - 3) “E`tiborliroq bo`lsangiz, bo`lmaydimi?”
19. Yoshlar orasidagi bezorilik haqidagi maqolaga siz qanday munosabat bildirasiz?
- 1) “Qachon axir, jiddiy choralar ko`riladi”

2) “Jismoniy jazo choralarini kiritish kerak”

3) “Hammasini yoshlarga ag`darish to`g`ri emas, tarbiyachilar ham aybdor”

20. Tasavvur qiling sizda boshqatdan tug`ilish imkoni tug`ildi, lekin hayvon bo`lib, qaysi hayvonni ma`qul ko`rasiz?

1) Sher yoki leopard

2) Uy mushugi

3) Ayiq

### **Natijalar tahlili**

36-44 ball. Siz o`rtacha darajada tajavvuzkorsiz, lekin hayotda muvaffaqiyatli qadam tashlayapsiz. Sizda samimiy izzattalablik va ishonch bor.

45 va undan ortiq. Siz ortiq darajada tajavvuzkorsiz va ko`pincha boshqalarga nisbatan betayin va judayam shavqatsizsiz, siz o`zingizni metodlaringizga ishongan holda rahbarlikka ko`tarilishga umid qilasisz, bunda oila a`zolaringiz va atrofingizdagilar manfaatlarini qurbon qilasisz.

35 va undan past. Siz haddan ziyod tinchliksevarsiz, bu esa sizda o`zingizning kuchingizga va imkoniyatlaringizga ishonch etarli emasligini anglatadi. Bu albatta sizni har doim egilishingizni bildirmaydi. Baribir sizga ko`proq qat`iylilik bo`lishi halaqit bermaydi.

Agar siz 7 ta va undan ko`p savollarga 3 balldan va 7 tadan kam savollarga 1 tadan ball to`plagan bo`lsangiz, unda sizning tajavvuzkorona portlashlaringiz yaratuvchanlikdan ko`ra buzg`unchilik xarakteriga ega.

Siz o`ylab ko`rilmagan ishlarga va ayovsiz munozaralarga moyilsiz. Siz odamlarga mensimaslik bilan qaraysiz va o`z xulqingiz bilan janjalli murosasizlik holatlariga undaysiz, vaholanki ularni oldini olishingiz mumkin.

Agar siz 7 ta va ko`proq savollarga bir ochkodan va 7 tadan kam savollarga 3 ochkodan olsangiz, unda siz haddan ziyod odamovisiz. Bu degani sizda tajavvuzkorlik, shoshilishlik begona emas, lekin siz uni judayam bostira olasiz.

### **GISSEN SO`ROVNOMASI**

Bexterev nomidagi psixonevrologiya institutida moslashtirilgan. Bu so`rovnoma kishi kayfiyatidagi hissiy o`zgarishdagi shikoyatlar intensivligini aniqlab beradi.

Odamning tabiiy holati uning xulqini hissiy stereotipiga ta`sir qiladi. Bu somatikaning psixikaga ta`siri natijasidir. Buning aksi ham bo`lishi mumkin, insonda bo`lgan hissiy sterotip insonning tabiiy holatidagi ichki kechinmalariga ta`sir qiladi.

Xulqning hissiy stereotipi organik holatlarning qabul qilishiga ta`sir qiladi. Tibbiyotda “kasallikning sub`ektiv darajasi” degan tushuncha bor. Somatik buzilishlarning ob`ektiv ko`rinishidan farqli, sub`ektiv daraja inson sog`ligini emotsional holatini ko`rsatadi. Har bir sezgi sub`ektiv his qilish bilan bo`ladi. Bunday sezgilar yig`indisi sub`ektiv darmonsizlik intensivligini aniqlaydi.

Kishi sog`lig`i Yuzasidan bo`ladigan shikoyatlarning intensivligining jami bola shaxsi ruhiy holatining mustaqil omilini hosil qiladi. Bu erda har qanday shaxs kasal yoki vrachga murojaat qilgan shaxs haqida ketyapti. Har birimiz u yoki bu darajada sog`ligimiz haqida qayg`uramiz. Ushbu so`rovnomada kayfiyatning hissiy shikoyat intensivligi berilgan. Kasallik darajasi shkala bo`yicha baholanadi: 0-yo`q, 1-engil, 2-bir necha, 3-ancha, 4-kuchli.

Ma`lumotlarning ishlanishi shkalalar bo`yicha quyidagi ballar hisoblanadi.

1. “Xolsizlik” – X:  $1+4+15+16+17+19$ . Bu shkala xolsizlikning nospetsifik omili ko`rsatkichi, kishi hayoti energiyasini yo`qotilganligi va uning yordamiga muxtojligini ko`rsatadi.

2. Oshqozon shikoyatlari – 0:  $3+9+10+12+13+21$ . Bu shkala asab oshqozon kasalliklarini aks ettiradi.

3. “Tananing har xil qismlaridagi og`riqlar” yoki “revmatik omil” R:  $- 5+7+8+14+18+23$ . Shkala mijozning spastik xarakterdagi sub`ektiv dardlarini ifodalaydi.

4. “Yurak shikoyatlari” 10:  $2+6+11+20+22+24$ . Shkala ko`proq qon tomir doirasidagi kasalliklar lokalizatsiyasini ko`rsatadi.

5. “Bosim (intensivlik) shikoyatlar”-B. Bu shkala yuqoridagi 24 shikoyatlarni o`z ichiga oladi. 4 ta ilgarigi shkalalarni integral bahosini tashkil qiladi. SHkala umumiy hissiy shikoyatlarning intensivligini xarakterlaydi.

Aytish kerakki, shkala klinik sindromlar u yoki bu kasallikni aniqlab bermaydi. Ular tomonidan seziladigan darmonsizlikning umumiy birikmasini tashkil qiladi. Natijalarni baholash. Birinchi 4 shkala 0 dan 24 ballgacha (har bir shkala 6 punktdan iborat) 5 shkala uchun 0 dan 96 ballgacha bo'lishi mumkin.

№	Men quyidagi dardlarni his qilaman	00	1	2	33	44
		Y yo'q	engil	bir necha	aancha	kuchli
	1	22	3	4	55	66
11	Zaiflik sezish					
22	Yurak urishi to'xtab-to'xtab					
33	Qorinda bosim bo'lishi					
44	Uyquning ko'pligi					
55	Bo'g'imlardagi og'riqlar					
66	Bosh aylanishi					
77	Bel yoki elka og'rig'i					
88	Bo'yin og'rig'i					
99	Qusish					
110	Ko'ngil aynishi					
111	Spazma					
112	E'tiroz bildirish					
113	Kuyish					
114	Bosh og'riqlari					
115	Tez charchash					
116	Charchash					
117	Qaridek his qilish					
118	Oyoqda og'riq, charchoq					
119	Bo'shashganlik (lanjlik)					
220	Ko'krakda sanchiq turish					
221	Oshqozondagi og'riqlar					
222	Bo'g'ilish					
223	Boshda bosimni his qilish					
224	Yurak huruji					

### C.D.Spilberger - Y.L.Xaninning "Xavotirlanish darajasini aniqlash" metodikasi

Mazkur so'rovnomaga C.D.Spilberger tomonidan ishlab chiqilgan bog'liq vaziyat bilan bog'liq xavotirlanuvchanlik (VX) hamda shaxs bilan bog'liq xavotirlanuvchanlik (SHX) darajasini aniqlashga xizmat qiladi (so'rovnomaga Y.L.Xanin tomonidan modifikatsiya qilingani tufayli ko'pincha «Spilberger – Xanin so'rovnomasi» deb yuritiladi). So'rovnomaga 40 ta ta'kid – hukmdan iborat (20 ta ta'kid – hukm VX darajasini, 20 ta ta'kid – hukm SHX darajasini o'lchashga xizmat qiladi).

#### Vaziyat bilan bog'liq xavotirlanuvchanlik shkalasi (VX)

Ko'rsatma: Berilgan ta'kid – hukmlarga qanchalik qo'shilishingizni bildiring. Buning uchun har bir ta'kid – hukm qatorida keltirilgan va tegishli javob variantining ustunida berilgan raqamlar (1,2,3,4) dan birini o'chirib qo'ying.

№	Ta'kid – hukmlar	Javoblar			
		Bunday emas	SHunday shekilli	SHunday	Aynan shunday
1	Men xotirjamman	1	2	3	4

2	Menga hech narsa xavf solmayapti	1	2	3	4
3	Asablarim juda tajang bo'lib turibdi	1	2	3	4
4	Men ich - ichimdan siqilayapman	1	2	3	4
5	Men o'zimni erkin his etayapman	1	2	3	4
6	Men xafaman	1	2	3	4
7	Men ro'y berishi mumkin bo'lgan omadsizliklardan xavotirdaman	1	2	3	4
8	Men ruhiy taskinlik his etayapman.	1	2	3	4
9	Men bezovtaman	1	2	3	4
10	Qoniqish hissi ich-ichimdan meni qamrab olgan	1	2	3	4
11	Men o'zimga ishonayapman	1	2	3	4
12	Men asabiylashayapman	1	2	3	4
13	Men o'zimni qo'yarga joy topa olmayapman	1	2	3	4
14	Men qiziqib ketdim	1	2	3	4
15	Men siqilmayapman, asablarim joyida	1	2	3	4
16	Men xursandman	1	2	3	4
17	Men tashvishdaman	1	2	3	4
18	Halovatim yo'q	1	2	3	4
19	Men quvonayapman	1	2	3	4
20	Yoqimli hislar meni chulg'ab olgan	1	2	3	4

Shaxs bilan bog'liq xavotirlanuvchanlik shkalasi (SHX)

Ko'rsatma. Berilgan ta'kid – hukmlar haqiqatga qanchalik yaqin ekanini bildiring. Buning uchun har bir ta'kid – hukm qatorida keltirilgan va tegishli javob variantining ustunida berilgan raqamlar (1,2,3,4) dan birini o'chirib qo'ying.

№	Ta'kid – hukmlar	Javoblar			
		HHech qachon	Deyarl i hech qachon	Shun-day	Aynan shunday
11	Kayfiyatim ko'tarinki bo'lib turadi	11	2	3	4
22	Asablarim tajang bo'lib turadi	11	2	3	4
33	Arzimagan narsadan hafa bo'lib qolaman	11	22	3	4
44	Boshqalar singari omadli bo'lishni istayman	11	22	3	4
55	Ko'ngilsizliklarni uzoq vaqt esimdan chiqara olmayman	11	22	3	4
66	Men kuchimga kuch qo'shilganini sezaman	11	22	3	4
77	Men bosiq va vazminman	11	22	3	4
88	Men oldimdan chiqishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni o'ylab bezovtalanaman	11	22	3	4
99	Men arzimagan narsalarni deb qattiq siqilib Yuraman	11	22	3	4
110	Men o'zimni juda baxtiyor his etaman	11	22	3	4
111	Men hamma narsani yuragimga yaqin olaman	11	22	3	4
112	O'z-o'zimga bo'lgan ishonch etishmasligidan qiynalaman	11	22	3	4
113	Men o'zimni himoyasiz his etaman	11	22	3	4

114	Men xatarli vaziyat va narsalardan uzoqroq yurishga harakat qilaman	11	22	3	4
115	Yuragim g`ash bo`lib turadi	11	22	3	4
116	Men xursand bo`lib turaman	11	22	3	4
117	Har xil mayda-chuydalar meni chalg`itadi va bezovta qiladi	11	22	3	4
118	O`zimni omadsiz insondek his etaman.	11	22	3	4
119	Men o`zimni qo`lga ola bilaman	11	22	3	4
220	Ish va yumushlarim haqida o`ylaganimda halovatim yo`qoladi	11	22	3	4

### **7.3. Motivasion sohani diagnostika qilish «Bolaning maktab ta'limiga munosabati» metodikasi**

Bu metodikaning maqsadi maktabga yangi qabul qilinayotgan o`quvchilarda o`qish motivi yoki o`qishga qiziqish bor-yo`qligini aniqlashdan iborat. Bolaning o`qishga munosabati, boshqa ruhiy belgilar bilan bir qatorda o`qishga va maktabga tayyor yoki tayyor emasligini belgilovchi holatdir. Bolaning bilish jarayonlari normal, boshqa bolalar bilan o`zaro munosabatlari qoniqarli bo`lsa ham uni maktab ta'limiga tayyor, deb aytish qiyin. O`qishga qiziqish bo`lmasa ham ikkita ruhiy tayyorgarlik belgisi – ya'ni bilish jarayonlari, kommunikativlik qobiliyatlari yaxshi rivojlangan bo`lsa, o`qishning dastlabki bosqichida maktabga va bilim olishga bo`lgan qiziqish uyg`onishi mumkin. Amaliyot shuni ko`rsatadiki, ayni shu kichik maktab yoshidagi bolalarni 0 ballik va 1 ballik mezon orqali baholash bilan cheklanmaslik kerak.

Birinchidan, bu erda qiyin savollar bo`lishi mumkin, shuning uchun bolalar biriga to`g`ri, biriga noto`g`ri javob berishi ehtimoli bor.

Ikkinchidan, berilayotgan javoblarning bir qismi to`g`ri, bir qismi noto`g`ri bo`lishi ham mumkin. Agar bola qiyin savollarga to`liq javob bera olmasa, 0,5 ball bilan baholanadi, to`g`ri, shubha uyg`otmaydigan to`liq, yaxshi bahoga loyiq javob bersa 1 ball bilan baholanadi, javob bir tomonlama to`liq bo`lmasa 0,5 ball bilan baholanadi. Masalan, 2-savol: «Nima uchun maktabga borish kerak?» – degan savolga to`liq bo`lishi uchun shunday javob berishi kerak:

«Kerakli bilim, ko`nikma va malakalar hosil qilish uchun». Noto`liq javob «O`qish uchun». Noto`g`ri javoblarda bilim olish, ko`nikma va malakalarni o`zlashtirish haqida hech qanday ma'lumot yo`q. Masalan, «Maktabda maza qilib o`ynaymiz». Agar qo`shimcha savoldan keyin bola to`liq javob bersa 1 ball, qo`shimcha savollardan keyin ham o`z fikrlariga hech qanday o`zgartirish kiritmasa 0,5 ball.

Natijalar tahliliga ko`ra 8 balldan Yuqori ball to`plagan bolalar maktab ta'limiga to`liq tayyor, 5–8 ball to`plaganlar to`liq tayyor emas, 5 balldan kam to`plaganlar esa maktab ta'limi uchun tayyor emas deb topiladi.

Bolalarga tavsiya etiladigan savollar

1. Maktabga borishni xohlaysanmi?
2. Nima uchun maktabga borish kerak?
3. Maktabda nima bilan shug`ullanasan? (Odatda maktabda nima qilishadi).
4. Maktabga borishga tayyor bo`lish uchun nima qilish kerak?
5. Dars nima? Unda nima bilan shug`ullanishadi?
6. Maktabdagi darslarda o`zini qanday tutish kerak?
7. Uy vazifasi nima?
8. Nima uchun uy vazifasi bajariladi?
9. Maktabdan uyga kelib nima bilan shug`ullanasan?
10. Maktabga borib o`qiy boshlasang, hayotingda qanday o`zgarishlar ro`y beradi?

Savolning mazmuniga mos keluvchi javoblar to`g`ri deb qabul qilinadi. Agar noto`liq bo`lsa, qo`shimcha savollar beriladi. Har bir savolning ma'nosini bola to`g`ri tushunganligiga ahamiyat berish kerak.



Ushbu metodika bo'yicha bolalar to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ball – 10 ball bo'lib, bu bolaning ruhiy jihatdan maktab ta'limiga to'la tayyor ekanligini bildiradi.

### **“Bilimlarni egallashga intilish” metodikasi**

Metodika E.P.II'in va N.A.Kurdyukovalar tomonidan tavsiya qilingan.

Ko'rsatma: berilgan savollar qatoriga juft javoblar ko'rsatilgan. Ikki javobdan savolning holatiga ko'ra keraklisini tanlab olib “a” “b” harfi bilan belgilaysiz. Javoblar ichidan o'zingizga muvofiq keladiganini tanlashingiz shart.

1. Darsda yomon baho olganimdan so'ng uyga kelib:
  - a) tezda dars qilishga o'tiraman, javob bera olmagan materialni takrorlayman;
  - b) bu fandan dars berilmaganini bilganim holda televizor ko'raman, komp'yuter o'ynayman.
2. Yaxshi baho olganimdan so'ng:
  - a) dars tayyorlashni ich-ichimdan xohlagan holda davom ettiraman;
  - b) diqqat bilan tayyorlayman, chunki bilganim bilan mendan so'ramasligini bilaman.
3. Sizda bahodan emas, javobingizdan qoniqmaslik holati bo'lganmi?
  - a) ha ; b) yo'q.
4. Sizning tasavvuringizda o'qish:
  - a) yangiliklarni bilish
  - b) birozgina qiyin mashg'ulot.
5. Darsga puxta tayyorgarlik sizning bahoingizga ta'sir etadimi?
  - a) ha; b) yo'q.
6. Siz past baho olganingizdan so'ng buni noto'g'ri qildim, deb o'zingizni tahlil qilaysizmi?
  - a) ha ; b) yo'q.
7. Sizning uy vazifalarini bajarishga bo'lgan intilishingiz unga baho qo'yilishiga bog'liqmi?
  - a) ha; b) yo'q.
8. Siz o'qituvchi kasal bo'lmasligini xohlaysizmi?
  - a) ha; b) yo'q.
9. Sizga kanikuldan so'ng o'qishga kelish oson kechadimi?
  - a) ha ; b) yo'q.
10. Siz sinfdan-sinfga o'tganda yangi kitoblar sotib oldingiz, ularda nimalar haqida yozilgani bilan qiziqasizmi?
  - a) ha ; b) yo'q.
11. Sizningcha, kasal bo'lish yaxshimi yoki o'qish?
  - a) o'qish                      b) kasal bo'lish.
12. Siz uchun qaysi biri muhim: baho yoki bilim?
  - a) baho                      b) bilim.

### **Natijalar tahlili**

Har bir kalitga mos tushgan javobga 1 ball beriladi.

### **So'rovnoma kaliti**

Bilimlarni egallash motivatsiyasini aniqlash 1 – 6, 8 – 11 savollarning “a” javoblariga 7 – 12-savollarning “b” javoblariga e'tibor beriladi.

### **Xulosa**

To'plangan ballar 10 dan 12 gacha bo'lsa, bilimlarni egallash motivatsiyasi Yuqori darajadaliqidan dalolat beradi.

### **“Bahoga intilish” metodikasi**

Metodika E.P.II'in va N.A.Kurdyukovalar tomonidan tavsiya qilingan.

Ko'rsatma: berilgan savollar qatoridan mos javoblarning har biriga "ha" yoki "yo'q" belgisini qo'ying.

### So'rovnoma matni

1. Siz hayotingizda birinchi marta olgan "2" bahoingizni eslaysizmi?
2. Sizning bahoingiz sinfdagi boshqa o'quvchilarga nisbatan yomonroq, bu narsa sizni tashvishlantiradimi?
3. Yozma ishdan oldin yuragingizning urishi tezlashgandek bo'ladimi?
4. Yomon baho olganingizni e'lon qilishsa, qizarib ketasizmi?
5. Agar hafta oxirida yomon baho olsangiz, dam olish kunlarini noxush kayfiyatda o'tkzasizmi?
6. Agar sizdan uzoq vaqt so'rashmasa, bu sizni tashvishlantiradimi?
7. Olgan bahoingizga o'rtoqlaringizning munosabati sizni hayajonga soladimi?
8. Siz yaxshi baho olganingizdan so'ng navbatdagi darsda so'ramasligini bilsangiz ham astoydil tayyorgarlik ko'rasizmi?
9. Sizdan o'tilgan mavzu so'ralishi hayajonlantiradimi?
10. O'qishda baho olinmasa, siz uchun qiziqarli bo'ladimi?
11. Baho berilgan javobga qo'yilmasligini bilsangiz, sizdan o'tilgan mavzuni so'rashlarini xohlarmidingiz?
12. Darsda a'lo baho olganingizdan so'ng ham faol ishlashni davom ettirasizmi?

1 – 9 savollariga "ha" javoblar uchun, 10 – 12 savollardagi "yo'q" javoblar uchun bir balldan qo'yiladi. Umumiy ballar hisoblab chiqiladi. Agar to'plangan ballar qanchalik ko'p bo'lsa, o'quvchida shunchalik bahoga intilish kuchli bo'ladi. "Bilimlarni egallashga intilish" metodikasidan yig'ilgan ballarni taqqoslab, bilim olish bahoga intilish kuchliligini aniqlash mumkin.

### O'QUV MOTIVATSIYASINING YO'NALGANLIGINI TASHXIS QILISH METODIKASI

Metodika haqida ma'lumot. Test – so'rovnoma shaklidagi mazkur metodika muayyan fanlarni o'rganishga qaratilgan, o'quv faoliyati motivatsiyasining yo'nalganligini va ta'lim oluvchi shaxs ichki motivatsiyasining darajasini o'lchash uchun xizmat qiladi. Ushbu metodika ta'lim oluvchilarning barcha guruhlari bilan (12 yoshdan boshlab) – o'z- o'zini tahlil qilishga va o'zi haqida xulosa chiqarishga qodir bo'lgan har qaysi ta'lim oluvchi inson bilan o'tkazilishi mumkin.

Metodika T.D. Dubovitskaya tomonidan tuzilgan bo'lib, uning stimuly materiallari 20 ta ta'kiddan iborat. Mazkur ta'kidlar bo'yicha tekshiriluvchilar ma'lum fanlarga nisbatan o'z munosabatini bildirib, maxsus javob varaqasi (1 - jadval) ning muayyan ustun va startlarida tegishli belgilarni qo'yadilar: «to'g'ri» - (+ +); «to'g'ri, shekilli» - (+); «noto'g'ri, shekilli» - (+); «noto'g'ri, shekilli» - (-); «noto'g'ri» - (- -).

#### Javob raqasi

	O'rganilayotgan fanlar			
	Matematika	Psixologiya	...	...
1				
2				
...				
19				
20				

Qanday fanlarni tanlashi eksperimentator ixtiyorida

#### Ta'kidlar.

1. Ushbu fanni o'rganish orqali o'zim uchun ko'p kerakli narsalarni o'rganib olayapman, o'z qobiliyatlarimni namoyish etish imkoniyatiga ega bo'lib turibman.
2. Bu fan menga qiziq va men shu fan yuzasidan imkon qadar ko'proq narsa bilishni xohlayman.
3. Mazkur fanni o'rganishimizda menga darsda beriladigan bilimlarning o'zi kifoyadir.

4. Ushbu fan bo'yicha beriladigan topshiriqlar menga qiziq emas, men ularni o'qituvchi talab qilgani uchungina bajaraman.
5. Bu fanni o'rganishda oldimda paydo bo'luvchi qiyinchiliklar fanga bo'lgan qiziqishimni yanada orttirib Yuboradi.
6. Mazkur fanni o'rganishda darslik va tavsiya etilgan adabiyotlardan tashqari mustaqil ravishda qo'shimcha adabiyotlar bilan tanishib boraman.
7. Ushbu fanga tegishli murakkab nazariy masalalarni o'rganmasa ham bo'ladi, deb hisoblayman.
8. Bu fanni o'rganishda biror ishning uddasidan chiqolmasa, men muammoning tagiga etishga harakat qilaman.
9. Mazkur fandan dars o'tilganda negadir umuman o'qishni istamay qolaman.
10. Ushbu fan yuzasidan beriladigan topshiriqlar ustida faqat o'qituvchi nazorat qilib turgandagina ishlayman.
11. Bu fanga taalluqli ma'lumotlarni bo'sh vaqtda (tanaffusda, uyda) sinfdoshlarim (do'stlarim) bilan muhokama qilish menga qiziq tuYuladi.
12. Mazkur fandan topshirilgan vazifalarni mustaqil bajarishga harakat qilaman, kimdirning maslahat va yordam berib turishini yoqtirmayman.
13. Ushbu fanga tegishli topshiriqlarni boshqalardan ko'chirib olishga harakat qilaman yoki kimdandir vazifani o'rnimga qilib berishni iltimos qilaman.
14. Bu fan bo'yicha beriladigan barcha bilimlar kerak deb hisoblayman, shuning uchun bu fandan imkoni boricha ko'proq narsa bilish kerak degan fikrdaman.
15. Mazkur fan bo'yicha qo'yiladigan baho menga bu fandan beriladigan bilimdan muhimroq.
16. Ushbu fandan o'tkaziladigan darsga yaxshi tayyorgarlik ko'rmagan bo'lsam, bundan unchalik qattiq xafa bo'lmayman.
17. Bu fan bilan shug'ullanish uchun men bo'sh vaqtimning ham katta qismini unga sarflayman.
18. Mazkur fanni qiyinchilik bilan o'zlashtiraman, shu fan bo'yicha beriladigan topshiriqlarni o'z-o'zimni majburlab bajaraman.
19. Ushbu fan bo'yicha o'tkaziladigan darsda kasallik yoki boshqa sabab bilan qatnasha olmasam, xafa bo'lishim mumkin.
20. Agar imkoniyatim bo'lganda, men bu fanni dars jadvali (o'quv rejasi) dan olib tashlagan bo'lardim.

#### **Natijalarni qayta ishlash va baholash.**

Natijalar quyidagi kalit yordamida qayta ishlanadi:

«to'g'ri», «to'g'ri, shekilli» - 1, 2, 5, 6, 8, 11, 12, 14, 17, 19.

«noto'g'ri», noto'g'ri shekilli» - 3, 4, 7, 9, 10, 13, 15, 16, 18, 20.

Kalitga mos kelgan har bir holat uchun 1 balldan qo'yiladi. Barcha ballar yig'indisi qanchalik katta bo'lsa, tegishli fanni o'rganishda ichki motivatsiya shunchalik baland bo'ladi. Ballar yig'indisi qanchalik kichik bo'lsa, ichki motivatsiya darajasi shunchalik sust bo'ladi. Umumiy natijalarni baholashda quyida keltirilgan me'yoriy ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin:

0 – 10 ball – tashqi motivatsiya ustun;

11 – 20 ball – ichki motivatsiya ustun.

Ichki motivatsiya darajasini baholash uchun quyidagi me'yoriy ko'rsatkichlarga tayanish mumkin:

0 – 5 ball – ichki motivatsiya past darajada;

6 – 14 ball – ichki motivatsiya o'rta darajada;

15 – 20 ball – ichki motivatsiya yuqori darajada.

Eslatma: ilmiy tadqiqot o'tkazish maqsadida birlamchi («xomaki») natijalardan foydalanish tavsiya etiladi.

*Metodika manbasi: Dubovitskaya T.D. K probleme diagnostiki uchebnoy motivatsii. Voprosy psixologii. – 2005. – S 73 – 78.*

#### **O'QUV MOTIVINI BAHOLASH METODIKASI**

Mazkur metodika 6 – 8 yoshdagi bolalarning o'quv motivatsiyasi, maktabga bo'lgan munosabati, o'qish bilan bog'liq vaziyatga nisbatan emotsional reaksiyasini aniqlashga qaratilgan. (metodika N.G.Luskanova tomonidan taklif etilgan).

Anketa savollari.

1. Senga maktab yoqadimi yoki unchalik yoqmaydimi?
  - unchalik yoqmaydi.
  - yoqadi
  - hecham yoqmaydi.
2. Ertalab uyg'onib, doim xursandchilik bilan maktabga kelasanmi yoki ko'pincha uyda qolishni istaysanmi?
  - ko'pincha uyda qolishni istayman
  - ba`zida borishni, ba`zida qolishni istayman
  - xursandchilik bilan maktabga boraman
3. Agar o'qituvchi ertaga xohlaganlar kelib, xohlaganlar kelmasligi mumkin desa, sen maktabga borarmiding?
  - bilmadim
  - uyda qolardim
  - maktabga borardim
4. Biror bir dars bo'lmasligi senga yoqadimi?
  - yoqmaydi
  - ba`zida yoqadi, ba`zida yoqmaydi
  - yoqadi
5. Uy vazifalaring yo'q bo'lishini xohlarmiding?
  - xohlardim
  - xohlamasdim
  - bilmadim
6. Maktabda faqat tanaffus bo'lishini xohlarmiding?
  - bilmadim
  - xohlamasdim
  - xohlardim
7. Sen ota- onangga maktab haqida ko'p gapirib berasanmi?
  - ko'p gapirib beraman
  - kam gapirib beraman
  - umuman gapirib bermayman.
8. O'qituvching o'rniga boshqa mehribonroq o'qituvchi kelishini xohlarmiding?
  - bilmadim
  - xohlardim
  - xohlamasdim
9. Sinfda o'rtoqlaring ko'pmi?
  - kam
  - ko'p
  - umuman yo'q
10. Senga sinfdoshlaring yoqadimi?
  - yoqadi
  - unchalik yoqmaydi
  - yoqmaydi.

Eslatma: mazkur anketa individual tashxis davomida ham, guruhiy tashxis maqsadida ham qo'llanilishi mumkin.

Natijalarni qayta ishlash uchun quyidagi kalitdan foydalaniladi.

Savollar	1-javob uchun ball	2-javob uchun ball	3-javob uchun ball
1	1	3	0
2	0	1	3
3	1	0	3

4	3	1	0
5	0	3	1
6	1	3	0
7	3	1	0
8	1	0	3
9	1	3	0
10	3	1	0

#### Natijalarni baholash:

1. 25 – 30 ball. O'quv motivatsiyasi yuqori. Bunday bolalar o'zining bilish motivi kuchli ekanligi, barcha topshiriqlarni yaxshi bajarishga intilish bilan ajralib turadi.

2. 20 – 24 ball. O'quv motivatsiyasi o'rtacha. Bunday o'quvchilar guruhi o'quv faoliyatini ancha muvaffaqiyatli amalga oshirilgan bolalardan tashkil topadi.

3. 15 – 19 ball. Maktabga munosabat ijobiy, ammo bolani ko'proq o'qish bilan bog'liq bo'lmagan tomonlar qiziqtiradi. Bunday o'quvchilar maktabda o'zlarini yaxshi his etadilar, biroq maktabga asosan o'rtoqlar, o'qituvchilar bilan suhbatlashishi, chiroyli o'quv qurollariga ega bo'lish uchun boradilar.

4. 10 – 14 ball. O'quv motivatsiyasi past. Bunday bolalar maktabga borishni xohlamaydilar, darslarda bekorchi narsalar bilan shug'ullanib, o'ynab o'tiradilar.

5. 10 balldan past. Maktabga nisbatan salbiy munosabat, dezadaptatsiya moslashmaganlik mavjud. Bunday o'quvchilar o'quv faoliyatini bajarishga qiynaladilar, tengdoshlar va o'qituvchilar bilan bo'lgan munosabatda muammolarga duch keladilar, ularda ayrim hollarda nerv-psixik salomatlikning buzilishi kuzatiladi.

Eslatma: Anketani ikki usulda qo'llash mumkin.


1 – usul. Savollar eksperimentator tomonidan o'qib eshittiriladi va javob variantlari taqdim etiladi, bolalar o'zi tanlangan javobni yozib qo'yadi.

2 – usul. Savollar har bir bolaga alohida-alohida yozma ko'rinishda tarqatiladi, bolalar tegishli javoblarni belgilaydilar.

Metodika haqida qo'shimcha ma'lumot: so'rovnomadagi savollar 200 nafar 6 – 8 yoshdagi o'quvchi bilan o'tkazilgan so'rov asosida bolalarning maktabga, o'qish jarayonida bo'lgan munosabatini to'liqroq aks ettiruvchi savollar sifatida ajratib olingan.

Metodika manbasi: Ratanova T.A., SHlyaxta N.F. *Psixodiagnosticheskie metody izucheniya lichnosti: Uchebnoe posobie. – Pererabotannoe i dopolnennoe izdanie posobiya: T.A.Ratanova, L.I. Zolotareva, N.F.SHlyaxta «Metody izucheniya i psixodiagnostika lichnosti» - M.: Moskovskiy psixologo – sotsialnyy institut: Flinta, 1998. S.60 – 64.*

#### «Eslab qol va rasmlarni qayta chiz» metodikasi



14-rasm

Bolaga ketma-ketlik bilan ikkita rasm ko'rsatiladi, uni bola bir daqiqa mobaynida ko'rib chiqib, eslab qolishi zarur, so'ngra esa xuddi shunday kattalikdagi oq qog'ozga qaytadan chizib berishi tushuntirib beriladi.

Bola tomonidan bajarilgan ish ballar bilan baholanadi va tahlil qilinadi.

Bola tomonidan bajarilgan ishning sifatli tahlili

1-rasmdagi chiziqlarning birlashuvi


1a. Har qanday bir-biri bilan birlashib ketmagan chiziqlar guruhi "+ 1" ball bilan baholanadi.

1b. Har qaysi chiziqlar guruhi boshqa chiziqlar bilan birlashib ketgan bo'lsa, "- 1" ball bilan baholanadi.



2a. Har qaysi parallel chiziqlar, 3 yoki 1 tadan ortiq chiziqlar "+ 1" ball bilan baholanadi.

2b. Agar parallel chiziqlar bir-biri bilan birlashib ketgan bo'lsa, "- 1" ball bilan baholanadi.



Izoh:

3a. Har qaysi ikki va undan ko'p to'liqsimon chiziqlar, agar ularning uzunligi balandliklaridan 3 marta katta bo'lmasa hamda ular bilan kesishmasa "+ 1" ball bilan baholanadi.

3b. Buning aksi bo'lsa "- 1" ball bilan baholanadi.

Masalan: → (+1)

→ (-1).


4. Rasmda geometrik figuralarga o'xshash chiziqlar "+ 1" ball bilan baholanadi.

Masalan:



5. Har qanday 3 va undan ortiq geometrik figuralardan tuzilgan va jamlangan rasmlar "+ 1" ball baholanadi.


Masalan:



6a. Har bir aylana shaklidagi va bir necha marta takrorlangan, ammo o'rtasida bo'shliq bo'lgan chiziqlar "+ 1" ball bilan baholanadi.

Buning aksi bo'lsa "- 1" ball bilan baholanadi.

Masalan:



7a. Har qaysi alohida joylashtirilgan nuqta "+ 1" ball bilan baholanadi;

7b. Har qaysi o'z tabiiy shaklidan kattalashtirilgan va ikki marta nuqta ustida Yuritilgan bo'lsa - 1 ball bilan baholanadi.

Masalan:



8a. 3 va undan ortiq nuqtalar jamlanmasi +1;

8b. Agar ular bir-biri bilan birlashib ketgan bo'lsa "- 1" ball bilan baholanadi.

Yuqoridagi rasmlar tahliliga umumiy izoh:

1. Agar 3 va undan ortiq parallel chiziqlar, bir xil masofada va bir xil shaklda



tasvirlangan bo'lsa, ya'ni guruh chiziqlar deb qabul qilinib, "+1" ball bilan baholanadi yoki guruh chiziqlari deb Yuritilmaydi. Ular alohida yakka chiziqlar deb

Yuritilib, "+1" ball bilan baholanadi


Har qaysi sinalluvchining natijalari algebrik usul bilan umumlashtiriladi.

II. rasmda foydalanilmagan masofalar

Rasmda grafik tasvirlar bilan to'ldirilmagan masofa hisoblab chiqiladi, eng quyi qismdan eng chekka qismigacha sm hisobida o'lchab boriladi, ya'ni 1 sm 1 va «+» belgisi bilan olinadi.


III. diagonal konfiguratsiyalar

Diagonal konfiguratsiyalar deb,  $15^\circ - 75^\circ$  cha masofada to'g'ri chiziqlar bir-biri bilan tutashirishiga aytiladi.



Masalan:

Quyidagi figura diagonal konfiguratsiya deb Yuritilmaydi, sababi u parellelogramm asosi bo'lib



qolayapti. Bu ham Yuqoridagi kabi baholanadi.

Izoh: Har qaysi diagonal konfiguratsiya alohida baholanadi. Har bir diagonal chiziq alohida baholanmaydi.


Masalan: + 1ball; + 1 ball + 1 ball bilan baholanadi, ammo +2 ball bilan baholanadi, chunki bu figura ikkita alohida konfiguratsiyadan iborat.

IV. S shakldagi chiziqlar

Ikki xil egilishdan tashkil topgan va ular qarama-qarshi yo'nalishga yo'naltirilgan bo'lsa, alohida baholanadi.

Masalan: va +1 ball baholanadi.

V. To'liqinsimon chiziqlar



Har bir ikki va undan ortiq to'liqinsimon chiziqlar bir yo'nalishda tasvirlanmagan bo'lsa, alohida baholanib, +1 ball beriladi.

Umumiy ballar jamlanib, bolaning yutuqqa erishish motivi, taraqqiyot ko'rsatkichi va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivi ko'rsatkichi aniqlanadi.

### “Ehtiyojlar ierarxiyasini o'rganish metodikasi”<sup>8</sup>

<sup>8</sup> Akindova I.A. Osobennosti samoaktualizatsii lichnosti v professiyax razlichnogo urovnya sotsialnogo prestija: Avtoref. dis. ... kand. psixol. nauk. –SPb.: SPbGU, 2000. – 24 s.







### Kalit

I shkala	moddiy ta`minlanganlik	4, 8, 13
II shkala	xavfsizlik,	3, 6, 10
III shkala	muloqot va munosabat	2, 5, 15
IV shkala	hurmat qozonish	1, 9, 12
V shkala	shaxsiy salohiyatni ro'yobga chiqarishga	7, 11, 14

### Umumiy baholar shkalasi

To'liq qoniqish 0-13 ball

Qisman qoniqish 13-26 ball

To'liq qoniqmaslik 26-39 ball

Shunday qilib, ushbu mavzuda qobiliyat, hissiy irodaviy sohalar, motivatsiya, ijodiy tafakkurni aniqlash metodikalari bilan tanishdik.

### Laboratoriya mashg`uloti uchun topshiriqlar:

“Qobiliyatni o`rganish metodikasi” va “ijodiy qobiliyatni aniqlash testi”ni 5 nafar sinaluvchida o`tkazib, psixologik tavsif yozish

### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Qobiliyatlarni aniqlovchi qanday metodikalarni bilasiz?
2. Hissiy-irodaviy sohani aniqlovchi qanday metodikalarni bilasiz?
3. Motivatsion sohani aniqlovchi qanday metodikalarni bilasiz?
4. Ehtiyojlarni aniqlovchi metodikalar?

## **VIII.SHAXS PSIXODIAGNOSTIKASI**

### **Reja:**

- 8.1.Shaxs haqida umumiy tushuncha, shaxsning dinamik strukturasi (Platonov bo'yicha).
- 8.2. Shaxs psixodiagnostikasida qo'laniluvchi metodik vositalarning turlari.
- 8.3. Shaxs so'rovnomalarining keng tarqalgan namunalri haqida.

8.4. Shaxs psixodiagnostikasida ob'ektiv va situatsion testlardan foydalanish muammolari.

8.5. Shaxsni qadriyatlar yo'nalganligini diagnostika qilis.

**Maqsad:**

Talabalarda shaxs psixodiagnostikasi haqida tushuncha hosil qilish.

**Vazifa:**

Talabalarda shaxs psixodiagnostikasi haqida dunyoqarashini shakllantirish orqali mutaxassis shaxsini rivojlantirish.

**Tayanch tushunchalar:**

**Motiv** – muayyan ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatga undovchi sabab.

**Motivatsiya** – insonni faol faoliyatga undovchi sabablar majmui.

**Ekstrovertsiya** – shaxsning tevarak-atrofdagi odamlarga, tashqi hodisalarga yo'nalishi.

**Introvertsiya** – shaxsning o'z fikrlari, sezgilari, kechinmalarining o'z-o'ziga tayanishi.

**Sotsiometriya** – o'zaro munosabatlar tizimi bilan psixologik qovushuvchanlikni aniqlash maqsadida guruh va jamoalardagi shaxslararo munosabatlarni o'rganishdan iborat psixologik tadqiqot metodi.

**Temperament** – ruhiy jarayonlar dinamikasini belgilovchi barqaror xususiyat

**Xarakter** – shaxsning o'ziga, atrof-muhitga, boshqalarga va mehnatga munosabatini ifodalovchi xususiyatlari yig'indisi.

**8.1. Shaxs haqida umumiy tushuncha, shaxsning dinamik strukturasi (Platonov bo'yicha)**

SHaxs- insonni ongli faoliyat yoki munosabatlar sub'ekti sifatida tavsiflaydi. SHaxs – bu o'z menligini anglagan, jamiyatda biror ijtimoiy rol bajaradigan, ongli mehnati bilan o'z ehtiyojlarini qondiradigan insondir. K.K. Platonovning talqiniga binoan: jamiyatda o'z rolini anglovchi, ishga layoqatli, yaroqli a'zosi shaxs deyiladi. K.K. Platonov ta'limotiga ko'ra shaxs tuzilishi quyidagi shaklga ega:

1. Yo'nalganlik – shaxsning axloqiy qiyofasi va munosabatlarini birlashtiradi. Undan harakatchanlik, barqarorlik. Jadallik, ko'lam darajalarini farqlash lozim.

2. Ijtimoiy tajriba – ta'lim vositasida, shaxsiy tajribada egallangan bilimlar, ko'nikmalar va odatlarni qamrab oladi.

3. Psixologik aks ettirish shakllari – ijtimoiy turmush jarayonida shakllanuvchi bilish jarayonlarining individual xususiyatlari.

4. Biologik shartlangan osttuzilish – miya morfologik va fiziologik xususiyalariga muayyan darajada bog'liq bo'lgan patologik o'zgarishlarni, shaxsning yosh, jins xususiyatlarini va uning tipologik xislatlarini birlashtiradi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy tushunchalaridan biri shaxs tushunchasi bo'lib, uning maqsadi ham mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalashdir. Shaxsning his-tuyg'ularini trabiyalash, estetik va badiiy didini o'stirish, go'zallikka mehr uyg'otish insonparvar jamiyatning asosiy vazifalaridan biri bo'lib kelgan. SHaxs ma'naviyatini shakllantirishda bevosita ta'sir qiladigan muhim hayotiy omillardan biri ta'lim va tarbiya tizimi ekanligini I.A. Karimovning "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch" asarida ilmiy asoslab berilgan. Darhaqiqat, milliy ma'naviyatni yoshlar ongiga singdirish hamda ma'naviy qadriyatlarni qaror toptirishda tarbiya muhim omil hisoblanadi.

**8.2. Shaxs psixodiagnostikasida qo'laniluvchi metodik vositalarning turlari**

Shaxs psixodiagnostikasida psixologiyaning barcha metodlaridan foydalanish mumkin, ya'ni kuzatish, eksperiment, test, suhbat, anketa, faoliyat natijalarini tahlil qilish, sotsiometriya metodlari. Ular orasida ko'proq so'rovnomalar va test metodlaridan foydalanish keng tarqalgan. Bolalar psixodiagnostikasi ixtiyorida faqat maxsus proektiv metodlar, ya'ni bolaning Yutuqqa erishish motivlari va xavotirlanish holatlarini o'rganish metodlari mavjud shaxs sifatlarini baholashda ekspert baholash metodlaridan foydalanish mumkin. Bunda ekspert sifatida bolani yaxshi biladigan kattalar, tarbiyachilar, ota-onalar maydonga chiqadi. Faqat ana shunday tarzda bolaning shaxs sifatlariga baho bera olish imkoniyatlariga ega bo'lamiz.

**«Men kimman» metodikasi**

Ushbu metodika yordamida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning o'z-o'zini baholashi tashxislanadi. Tadqiqotchi 10 xil shaxs sifatleri haqida savol berib, qaydnomada belgilab boradi va ular ballarga aylantiriladi.

Natijalarni baholash

«Ha» shaklidagi javoblar 1 ball bilan, «Yo'q» shaklidagi javoblar 0 ball bilan baholanadi. «Bilmayman» va «Ba'zan» javoblariga 0,5 ball beriladi. Bolaning o'z-o'zini anglashi umumiy ballar yig'indisi bilan aniqlanadi.

Bola taraqqiyoti haqida xulosa:

10 ball – juda Yuqori

8-9 ball – Yuqori

4-7 ball – o'rtacha

2-3 ball – past

0-1 ballgacha – juda past

№	Shaxs sifatlarini sharhlash	Og'zaki javoblar shkalasini baholash			
		Ha	Yo'q	Ba'zan	Bilmayman
1	Yaxshi				
2	Mehribon				
3	Aqli				
4	Tartibli				
5	Gapga kiruvchan				
6	E'tiborli				
7	Muloyim				
8	Qobiliyatli				
9	Mehnatsevar				
10	Rostgo'y				

### 8.3. Shaxs so'rovnomalarining keng tarqalgan namunali

Shaxsni o'rganishda turli maxsus metodikalardan foydalanish bilan birga shaxsning qiziqishlariga, ehtiyojlariga, uning atrofdagi odamlar bilan munosabatiga tegishli va boshqa savolnomalar ham keng qo'llaniladi. Savolnomalar yordamida tadqiqot o'tkazish eksperimental psixodiagnostik tekshiruv o'rnini bosmaydi, ularni to'ldiradi, chuqurlashtirishi mumkin.

Bolalarni tekshirishda savolnomalardan foydalanish o'z xususiyatlariga ega. Masalan, bola mustaqil ravishda savolnoma qog'ozini to'ldirishi mumkin emas, chunki savolni noto'g'ri tushunib, noto'g'ri javob berishi mumkin. Tadqiqotchi bolani savol bilan tanishtirishda, uning ma'nosini tushuntiradi, shundan so'ng javobni maxsus qog'ozga belgilab qo'yadi.

### R.Kettell testining bolalar varianti

Bu metodika bog'cha bolalari va boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun maxsus mo'ljallangan bo'lib, Kettellning kattalar uchun mo'ljallangan 16-omilli shaxsni o'rganish testining moslashtirilgan variantidir.

**Testning tuzilishi.** Test bola shaxsining asosiy xususiyatlarini ifodalovchi shkalani o'z ichiga oladi. Har bir xususiyatning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Masalan, aqliy rivojlanganlik – aqliy rivojlanmaganlik. Shkalaning eng minimal va eng maksimal nuqtalari oralig'i 10 ballni tashkil etadi. O'rtachasi esa 5,5 ball. Quyida 11 ta shaxs xususiyatlari tavsifi berilgan. Metodika bo'yicha shaxs xususiyatlarining 3 xil rivojlanish darajasi bor: quyi (1-3 ball), o'rtacha (4-7 ball), Yuqori (8-10 ball).

Har turli shaxs xususiyatlarining rivojlanishini aniqlashda ikki oxirgi qutb hisobga olinadi va quyi miqdori qabul qilingan shkala bo'yicha ularga mos miqdoriy baholar va qisqacha ta'riflar beriladi.

### I. Ekstroverziya

Bu shkala bo'yicha yuqori ball 8-10 ball bo'lib, bolaga – ochiq ko'ngil, ko'ngilchan, kirishuvchan, hamma narsada qatnashuvchan na odamlarga e'tiborli deb ta'rif beriladi.

Bu shkala bo'yicha past ballar 1 dan 3 gacha. Bunday bolalar esa kamgap, «ichimdagini top», birovga ishonmaydigan, atrofdagilarga beparvo bolalardir. Mazkur shkala bo'yicha Yuqori ball to'plagan bola ijobiy his-tuyg'ularga ega, quvnoq, kirishimli, tez til topishadigan, deb tavsiflanadi.

Xuddi shu shkala bo'yicha past balli bola birovga ishonmaydigan, arazchi, ichki his-tuyg'ularini yashira olmaydigan va atrofdagilar bilan til topisha olmaydigan, deb hisoblanadi. Ular ko'pincha qaysar va xudbindirlar.

## **II. O'z-o'ziga ishonch**

Bu shkala bo'yicha yuqori ball (8–10 ball) to'plagan bola past xavotirlikka ega.

Bu shkala bo'yicha past balli (1–3 ball) bola o'ziga ishonadi va tez xafa bo'ladi, arazlaydi.

Bunday shaxs xususiyatining pastligi aniqlangan bolalar o'z muvaffaqiyatsizliklariga qattiq e'tibor beradi, boshqalarga nisbatan o'zini kam qobiliyatli, kuchsiz deb hisoblaydi, o'z his-tuyg'ularini yomon nazorat qiladi, yangi muhit va turmush sharoitlariga moslashishi qiyin kechadi.

Bu shkala bo'yicha yuqori natijaga ega bo'lganlar – yaxshi ijtimoiy moslashuvchan bolalardir.

## **III. Hissiy barqarorlik**

Bu shkala bo'yicha yuqori ball (8–10 ball) to'plagan bola – chidamli, sabr-toqatli, tez qo'zg'aluvchan va ta'sirchandir.

Past balli bolalar esa (1–3 ball) ko'pincha xotirjam, bosiq, kam kuzatuvchan va flegmatiklardir. Kuchli ta'sirlanadigan bolalarning diqqat-e'tibori bir joyda turmaydi, tez harakat qilib turadi. Bu sifat bo'yicha past baholanganlar esa bosiqlik va muvozanatlilik bilan ajralib turadilar.

## **IV. Mustaqillik**

Bu shkala bo'yicha Yuqori natijaga ega bola (8–10 ball)–mustaqil, hech kimga tobe bo'lmaydigan, o'z aytganida turadigan, atrofdagilardan ustun bo'lishga harakat qiladigan bolalardir.

Past ko'rsatkichli bola esa (1–3 ball)–ko'proq tavakkal qiladi va loqayddir.

## **V. Fahm-farosot**

Bu ko'rsatkich bo'yicha Yuqori natija egalari (8–10 ball)–jiddiy, ehtiyotkor, aqlli-zakovatli, turli xulosa chiqara oladigan bolalardir.

Past ko'rsatkichlilar (1–3 ball) esa – tavakkal qiluvchilar, loqaydlar. Ular mas'uliyatsiz, avantyurist, o'ziga yuqori baho beruvchilardir.

Yuqori ball to'plagan bolalar esa o'zlarini yaxshi tutishadi, xavf-xatardan yiroq Yurishga harakat qilishadi.

## **VI. Vijdonlilik**

Bu shkala bo'yicha yuqori baholi (8–10 ball) bolalar – vijdonli, samimiy, buyurilgan ishni vaqtda bajaradigan, ma'suliyatlidirlar.

Past ko'rsatkich egalari esa —vijdonsiz, ma'suliyatsiz bolalardir.

Shaxsning bu xususiyati insonlarning Yurish-turish qoidalari normalarini bola qanday qabul qilayotganini aks ettiradi. Odatda bu shkala bo'yicha past ko'rsatkichga ega bo'lganlar ishonch qozona olmaydigan, o'qituvchi va ota-onalar bilan tez-tez urishib turadigan bolalar hisoblanadi. Yuqori ballilar esa tartib-intizomli, ma'suliyatni chuqur his qiluvchilardir.

## **VII. Dadillik**

8–10 ball yuqori ko'rsatkich – jasur, qat'iyatli, tez qarorga keladiganlarga xos, 1–3 balli past ko'rsatkich egalari – uyatchan, o'z ish va harakatlarida ikkilanadiganlardir.

## **VIII. Uddaburonlik**

Bu shkala bo'yicha yuqori ballilar (8–10 ball) – xayolparast, uquvsiz, «haqiqatdan yiroqda» Yuruvchilardir.

Bu shkala bo'yicha past ballilar (1–3 ball) – aksincha, realist, uddaburon, o'ziga ishonadiganlardir. Bunday bola ko'pincha o'zini mustaqil tutadi, birovdan yordam kutmaydi,

aksincha, Yuqori ballilar esa ishonuvchan, laqma, birovlarining qo‘llab-quvvatlashiga muhtoj, muhit ta’sirlariga beriluvchandir.

### **IX. Optimizm**

Yuqori baholi (8–10 ball) bola ko‘pincha past kayfiyatda yuradi, qalb xotirjamligidan tez chiqadi. Past baholi (1–3 ball) bola esa, odatda, xotirjam va tushkunlikka kam beriladi.

### **X. O‘z-o‘zini nazorat**

Yuqori balli (8–10 ball) bolalar o‘z xulq-atvorini yaxshi nazorat qiladi, ijtimoiy jihatdan moslashuvchandir.

Shaxsning bu xususiyati bo‘yicha past ballar (1–3 ball) o‘z xulq-atvorini idora qila olmaslikdan dalolat beradi.

### **XI. Xotirjamlik**

Bu shkala bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichli (8–10 ball) bola yuqori darajadagi asab tarangligi bilan ajralib turadi.

Past balli bola esa (1–3 ball), odatda, xotirjam va kam qo‘zg‘aluvchandir.

Kettel testining bolalar varianti savolnomasi 110 savoldan iborat bo‘lib, ular bolaning boshqa odamlar bilan munosabati va hayotining turli tomonlariga aloqadordir. Unda bevosita va bilvosita savollar bor, bu savollar sinaluvchining shaxsiyatiga, boshqa sifatlariga ham tegishli.

Har bir test savoliga ikkitadan javob berilgan, ularning bittasini tanlash kerak bo‘ladi.

Savolnoma 55 savoldan iborat bo‘lib, 2 qismga bo‘lingan. Undagi barcha 11 ta shkala 10 tadan fikr(har birida 5 tadan)ni o‘z ichiga olgan va har bir javob 1 ball bilan baholanadi. Har bir shkala bo‘yicha olingan ballar yig‘indisi jadval yordamida 10 ballik baho shkalasiga o‘tkaziladi.

1 va 10 ballar amaliyotda kam uchraydi, chunki ular favqulodda uchraydigan xususiyatdir.

Bu metodika bo‘yicha psixologik tashxisni yakka va guruh holatida o‘tkazish mumkin. Guruhda psixologik tashxis o‘tkazish uchun har bir bolaga alohida savollar ro‘yxati beriladi. Ular o‘g‘il bola va qiz bolalar uchun alohida bo‘ladi. Javoblar uchun ham blankalar tarqatiladi.

Dastlab sinaluvchilarga quyidagi ko‘rsatma beriladi. “Hurmatli bolalar!. Biz bu metodika yordamida Sizning xarakteringizni o‘rganamiz, shuning uchun bir qator savollarga javob bershingizni so‘raymiz. Ular oldingizda turibdi yoki Sizga o‘qib eshittiriladi. Bu savollarga «to‘g‘ri» va «noto‘g‘ri» javoblar yo‘q, ular ahamiyati jihatidan bir xil. Har biringiz o‘zingizga ko‘proq mos keladigan javobni tanlashingiz kerak. Hamma savollar ikki qismdan iborat bo‘lib, ular bir-biridan yoki so‘zi bilan ajralib turadi. Savol bilan tanishib, o‘zingizga ko‘proq mos keladigan javobni tanlashingiz kerak. So‘rov varaqasida har bir nomer ro‘parasida 2 ta kvadrat bor. Siz javobingizning o‘ng yoki chap tomonda joylashganligi bo‘yicha mos keladigan kvadratga plyus ishorasini qo‘ying. Agar savolga mos javobingiz bo‘lmasa, o‘ylab, ikki javobdan o‘zingizga yaqinrog‘ini tanlang. Savolni tashlab ketish berilgan 2 ta javobdan birini tanlamaslikka ruxsat etilmaydi”.

### **Kettel shaxs so‘rovnomasining o‘g‘il bolalar varianti savollari**

1.	Sen uy vazifasini tez bajarasan.	yoki	Sen uy vazifasini uzoq bajarasan.
2.	Agar senga hazil qilishsa jahling chiqadi.	yoki	Agar senga hazil qilishsa sen ham hazil bilan kulasan.
3.	Sen deyarli hamma narsani o‘zing to‘g‘ri hal qilishingga ishonasan.	yoki	Ba’zi topshiriqlarni o‘zing bajara olasan.
4.	Sen ko‘p xato qilasan.	yoki	Hech qachon xato qilmaysan.
5.	Sening do‘stlaring ko‘p.	yoki	Do‘stlaring unchalik ko‘p emas.

6.	Boshqa bolalar sendan ko'ra ko'proq ishlarni bajara oladilar.	yoki	Sen boshqa bolalar qancha ishni bajara olsa, shuncha ishni bajara olasan.
7.	Sen odamlar ismini yaxshi eslab qolasan.	yoki	Odamlar ismini esdan chiqarib qo'yasan.
8.	Sen ko'p o'qiysan.	yoki	Bolalar senga ko'ra ko'proq o'qishadi.
9.	Sen bajarmoqchi bo'lgan vazifani o'qituvchi boshqa bolaga bersa xafa bo'lasan.	yoki	Sen bajarmoqchi bo'lgan vazifani o'qituvchi boshqa bolaga bersa, buni tez esdan chiqarasan.
10.	Taklif etgan g'oyalaring, o'ylagan narsalaringning hammasini to'g'ri deb hisoblaysan.	yoki	O'ylagan narsalaringning hammasi yaxshi ekanligiga ishonching komil emas.
11.	Sen odatda kam gapirasan.	yoki	Sen odatda ko'p gapirasan.
12.	Agar onang sendan xafa bo'lsa, bu uning xatosi hisoblanadi.	yoki	Agar onang sendan xafa bo'lsa, sen biror narsada xato qildim, deb o'ylaysan.
13.	Senga kutubxonada kitoblar bilan ishlash yoqadi.	yoki	Senga uzoq masofalarga suzish bo'yicha kapitan bo'lish yoqadi.
14.	Sen kechqurun uzoq vaqt jim o'tira olasan.	yoki	Kechqurun uzoq vaqt jim o'tira olmaysan.
15.			
16.	Agar bolalar sen yaxshi bilgan joy haqida suhbatlashayotgan bo'lsa, darrov suhbatga qo'shilib gapira boshlaysan.	yoki	Agar bolalar sen yaxshi bilgan joy haqida suhbatlashayotgan bo'lsa, darrov suhbatga qo'shila olmay, ularning gapi tugashini kutib turasan.
17.	Sen kosmonavt bo'lishing mumkinmi?	yoki	Sen kosmonavt bo'lish juda qiyin deb o'ylaysan.
18.	Onangning fikricha, sen juda tinib-tinchimas va ta'sirchansan.	yoki	Onang seni muloyim va Yuvosh deydi.
19.	Bolalarning gapini jon deb eshitasan	yoki	Senga eshitish emas, gapirish yoqadi
20.	Bo'sh vaqtingda, yaxshisi, kitob o'qiganing ma'qul.	yoki	Bo'sh vaqtingda, yaxshisi, koptok o'ynaganing ma'qul.

21.	Sen doimo ehtiyotkorlik bilan harakat qilasan.	yoki	Shunday bo'ladiki, Yugurayotib, odamlarni va narsalarni turtib ketasan
22.	Seni jazolashlari mumkinligidan xavotirlanasan.	yoki	Seni jazolashlari bezovta qilmaydi.
23.	Katta bo'lganingda uylar qurish ko'proq yoqadi.	yoki	Katta bo'lsang quruvchi bo'lish ko'proq yoqadi
24.	O'qituvchi darsda senga tez-tez tanbeh beradi.	yoki	O'qituvchi darsda seni o'zini yaxshi tutadi deb hisoblaydi.
25.	Do'stlaring bahslashganda sen ham bahsga qo'shilasan.	yoki	Do'stlaring bahslashganda sen odatda sukut saqlaysan.
26.	Sinfdoshlaring nimagadir kulayotganda ham sen xotirjam dars tayyorlashing mumkin.	yoki	Sen shug'ullanayotganda atrofda sukunat darkor.
27.	Sen «Yangiliklar» ko'rsatuvini tez-tez ko'rib turasan.	yoki	Televizorda «Yangiliklar» ko'rsatuvini boshlansa, zerikib boshqa narsa bilan shug'ullanib ketasan
28.	Seni kattalar xafa qilishadi.	yoki	Seni kattalar yaxshi tushunishadi.
29.	Transport ko'p joyda ko'chani bemalol kesib o'tasan.	yoki	Transport ko'p joyda ko'chani kesib o'tayotganda biroz xavotirlanasan.
30.	Sen bilan ko'pincha katta ko'ngilsizliklar bo'lib turadi.	yoki	Sen bilan ko'pincha kichik ko'ngilsizliklar bo'lib turadi.
31.	Darsda savolga javobni bilsang, qo'lingni darrov ko'tarasan	yoki	Darsda savolga javobni bilsang, qo'lingni ko'tarmaysan, sendan so'rashlarini kutib turasan.
32.	Sinfga yangi bola kelsa, u bilan boshqalar qatori tez tanishib olasan.	yoki	Sinfga yangi bola kelsa, sen uni kuzatasan va darrov tanishmaysan.
33.	Sen biror (avtobus, taksi)transport haydovchisi bo'lishni orzu qilasan.	yoki	Shifokor bo'lishni orzu qilasan.
34.	O'ylagan narsang amalga oshmasa xafa bo'lasan.	yoki	O'ylagan narsang bo'lmasa kamdan-kam xafa bo'lasan.
35.			
36.	Agar sinfda yozma ish vaqtida yordam so'rasa o'rtog'ingga «o'zing ech» deb aytasan.	yoki	Agar sinfda yozma ish vaqtida yordam so'rasa o'rtog'ingga o'qituvchi ko'rmasa yordam berasan.
37.	Kattalar o'zaro gaplashib turishganda senga e'tibor berishmaydi.	yoki	Kattalar seni ko'rib o'zaro suhbatni to'xtatishadi va senga e'tibor berishadi.



38.	Agar g'amgin voqeani eshitsang, ko'zingda yosh paydo bo'ladi.	yoki	Agar g'amgin voqeani eshitsang, u senga ta'sir qilmaydi.
39.	Ko'p rejalarini amalga oshirasan.	yoki	Ko'p rejalarini amalga oshmay qoladi
40.	O'ynayotganingda onang chaqirsa, darrov kelmay, biroz o'yinni davom ettirasan.	yoki	O'ynayotganingda onang chaqirsa, o'yinni to'xtatib darhol uning oldiga kelasan.
41.	Sinfda erkin turib nimanidir gapira olasan.	yoki	Agar biror gapni aytish kerak bo'lsa, sen uyalasan.
42.	Uyda yosh bolalar bilan qolish senga yoqadi.	yoki	Uyda yosh bolalar bilan qolish senga yoqmaydi
43.	O'zingni ba'zan yolg'iz va g'amgin his qilasan.	yoki	O'zingni yolg'iz va g'amgin his qilmaysan.
44.	Uy vazifalarini har xil vaqtda bajarasan	yoki	Uy ishlarini doimo bir vaqtda bajarasan.
45.	Sen yaxshi yashayapsan.	yoki	Sen unchalik yaxshi yashamayapsan.
46.	Sen jon deb shahar tashqarisiga sayrga borasan	yoki	Jon deb zamonaviy mashinalar ko'rgazmasiga borasan.
47.	Agar seni urishishsa, tanbeh berishsa, xotirjam turib yaxshi kayfiyatingni buzmayasan.	yoki	Agar seni urishishsa, tanbeh berishsa qattiq xafa bo'lasan.
48.	Senga ko'proq qandolat fabrikasida ishlash yoqadi	yoki	Senga ko'proq uchuvchi bo'lish yoqadi.
49.	Sinfda bolalar to'polon qilishsa sen jim o'tirasan	yoki	Sinfda bolalar to'polon qilishsa, sen ham ular bilan birga bo'lasan.
50.	Agar seni avtobusda turtib yuborishsa, buni jiddiy narsa deb qabul qilmaysan va e'tibor bermaysan.	yoki	Agar seni avtobusda turtib yuborishsa, bundan jahling chiqadi.
51.	Sen bajarishing kerak bo'lmagan ishni qilishga to'g'ri kelgan	yoki	Senda bunday hol bo'lmagan.
52.	Sho'x, chopib yuruvchi do'stlarni yoqtirasan.	yoki	Jiddiy do'stlarni yoqtirasan.
53.	Biror narsaning boshlanishini jim o'tirib kutganingda jahling chiqadi.	yoki	Kutganingda hech qanday o'zgarish bo'lmaydi.
54.	Maktabga jon deb borasan.	yoki	Hozir jon deb avtomobilda sayr qilgani borasan.

55.	Ba'zida hammadan xafa bo'lasan.	yoki	Har doim hammadan xursandsan.
56.	Senga, yumshoq, ko'ngilchan o'qituvchi ko'proq yoqadi.	yoki	Senga ko'proq qattiqqo'l o'qituvchi yoqadi.
57.	Senga uyda berilgan hamma ovqatni eysan.	yoki	Senga yoqmagan ovqatni berishsa, norozilik bildirasan.

## 2-QISM

1.	Hamma senga yaxshi munosabatda bo'ladi	yoki	Faqat ba'zilargina senga yaxshi munosabatda bo'ladi
2.	Ertalab o'zingni lanj va uyqusiragan kabi his qilasan	yoki	Ertalab o'zingni tetik va quvnoq his qilasan.
3.	O'z ishingni boshqalarga qaraganda tezroq bajarasan.	yoki	Senga o'z ishingni bajarishing uchun ko'proq vaqt kerak.
4.	Ba'zan o'zingga ishonmaysan.	yoki	Doimo o'zingga ishonasan.
5.	Maktabdoshlaringni ko'rganingda doimo xursand bo'lasan.	yoki	Ba'zan hech kimni ko'rging kelmaydi.
6.	Onang senga sekin harakat qilishingni aytgan.	yoki	Har doim hamma narsani tez bajarasan.
7.	Sen taklif qilgan narsa boshqa bolalarga yoqadi.	yoki	Sen taklif qilgan narsa boshqa bolalarga doim ham yoqavermaydi.
8.	Sen maktabda qanday talab qilishsa, shunday bajarasan.	yoki	Sinfdoshlaring talab qilingan narsani sendan yaxshiroq bajarishadi.
9.	Boshqalar meni aldamoqchi bo'lishadi, deb o'ylaysan.	yoki	Ular menga do'stona munosabatda bo'lishadi deb o'ylaysan.
10.	Doimo hamma narsani yaxshi bajarasan.	yoki	Ba'zi kunlarda hech narsa ko'ngildagidek bo'lmaydi.
11.	Ba'zan onangga e'tiroz bildirasan.	yoki	Onangdan qo'rqasan.
12.	Senga bog' va o'rmonda chang'ida uchish yoqadi.	yoki	Senga tog'da chang'ida uchish yoqadi.
13.	O'zingni xushmuomalaman deb hisoblaysan.	yoki	Ba'zan qo'pollik qilasan.
14.	Sen bilan biror narsani kelishib olish qiyin deyishadi. (O'z fikringdan qaytmaysan).	yoki	Sen bilan kelishish oson.

15.	Bolalar bilan biror bu Yum (ruchka, qalam) almashganmisan?	yoki	Hech qachon o'rtloqlaring bilan narsa almashmagansan.
16.	Ba'zan quloqsiz bo'lishni xohlaganmisan?	yoki	Bunday istak hech qachon paydo bo'lmagan.
17.	Onang hamma narsani senga nisbatan yaxshi bajaradi.	yoki	Ba'zi narsalarni onangdan yaxshiroq bajarasan.
18.	Agar hayvon bo'lishga to'g'ri kelsa, tez chopar ot bo'larding.	yoki	Sher yoki yo'lbars bo'larding.
19.	Senga xushxabar aytishsa biroz quvonasan.	yoki	Senga xushxabar aytishsa suYunganingdan sakraging keladi.
20.	Kimdir senga yaxshi munosabatda bo'lmasa, uni kechirasan.	yoki	Kimdir senga yaxshi munosabatda bo'lmasa, sen ham shunday munosabatda bo'lasan.
21.	Senga basseynda suzish ko'proq yoqadi.	yoki	Senga ko'proq basseynga sakrash yoqadi
22.	O'qituvchi senga e'tiborsiz va daftarda ko'p xato qilishingni aytadi.	yoki	O'qituvchi bu haqda hech qachon gapirmagan.
23.	Tortishuvlar bo'lsa o'z fikringni isbotlashga harakat qilasan.	yoki	Tortishuvlarda xotirjam yon berishing mumkin.
24.	Urush haqidagi tarixni eshitish yoqadi	yoki	Hayvonlar haqida eshitishni yoqtirasan
25.	Singga kelgan yangi o'quvchilarga yordam berasan.	yoki	Odatda buni boshqalar qilishadi.
26.	Boshdan kechirgan ko'ngilsizliklarni uzoq vaqt eslab Yurasan.	yoki	Ko'ngilsizliklarni tez esdan chiqarasan.
27.	O'yinda samolyot haydovchisini bajonidil tavsiflab berasan.	yoki	O'yinda mashhur yozuvchini tavsiflab berasan.
28.	Onang koyiganda ma'Yus bo'lib qolasan.	yoki	Onang koyiganda kayfiyating buzilmaydi.
29.	Doimo portfelingni tayyorlab qo'yasan.	yoki	Ba'zan portfelingni ertalab yig'ishtirasan.
30.	Seni o'qituvchi ko'pinch maqtaydi.	yoki	Seni o'qituvchi ba'zan maqtaydi.
31.	O'rgimchakni ushlay olasan.	yoki	O'rgimchakni ushlay olmaysan.

32.	Tez-tez xafa bo'lib turasan.	yoki	Ba'zan xafa bo'lasan.
33.	Ota-onang «uxla» desa darrov uxlagani ketasan.	yoki	Ota-onang «uxla» desa o'ynashni davom ettirasan.
34.	Begona kishi bilan gaplashganingda xijolat bo'lasan.	yoki	Begona kishi bilan gaplashganingda xijolat bo'lmaysan.
35.	Rassom bo'lishni orzu qilasan.	yoki	Ovchi bo'lishni orzu qilasan.
36.	Sen omadlisan.	yoki	Sen omadsizsan.
37.	Agar masala shartini tushunmasang, o'rtog'ingga murojaat qilasan.	yoki	Agar sen masala shartini tushunmasang, o'qituvchingga murojaat qilasan.
38.	Kulgili voqea aytib hammani kuldira olasan.	yoki	Hamma kuladigan qilib kulgili voqea aytib berolmaysan.
39.	Darsdan so'ng biroz vaqt o'qituvchining yonida bo'lgini keladi.	yoki	Darhol koridorga chiqib sayr qilging keladi.
40.	Ba'zan hech narsa qilmay o'tirganingda o'zingni yomon his qilasan.	yoki	Sen bilan bunaqasi hech qachon bo'lmagan.
41.	Maktabdan keta turib biroz o'ynaysan.	yoki	Darsdan so'ng darhol uyga qaytib kelasan.
42.	Senga ota-onalaring doimo quloq solishadi.	yoki	Senga ota-onalaring hech qachon quloq solishmaydi.
43.	Uydan chiqa olmasang xafa bo'lasan.	yoki	Bu senga ta'sir qilmaydi.
44.	Sen kam qiynalasan.	yoki	Ko'p qiynalasan.
45.	Bo'sh vaqtingda jon deb kinoga borasan.	yoki	Bo'sh vaqting bo'lsa hovliga ko'chat ekasan.
46.	Onangga maktabdagi voqealar haqida bajonidil gapirib berasan.	yoki	Jon deb sayohat haqida gapirasan.
47.	Agar do'sting narsangni so'ramay olsa, bunga e'tibor qilmaysan.	yoki	Agar do'sting narsangni so'ramay olsa, undan xafa bo'lasan.
48.	Kutilmagan tovushdan cho'chib ketasan.	yoki	Xotirjam u yoq, bu yoqqa qarab nima bo'lganini aniqlaysan.

49.	Bolalar bilan bir-biringizga nimanidir berish ko'proq yoqadi.	yoki	Senga o'rtoqlaring bilan o'ynash yoqadi.
50.	Hayajonlanganda qattiq gapirasan.	yoki	Hech qachon suhbatlashayotganda ovozingni baland qilmaysan.
51.	Darsga jon deb borasan.	yoki	Jon deb televizorda futbol o'yinini ko'rasan.
52.	Radio eshitayotganda televizor ko'rayotganda senga boshqa ovozlari xalaqit beradi.	yoki	Radio eshitayotganda televizor ko'rayotganda senga boshqa ovozlari xalaqit bermaydi
53.	Maktabda senga qiyin bo'ladi.	yoki	Maktabda senga qiyin bo'lmaydi.
54.	Agar uyda nimadandir jahling chiqsa sekingina xonadan chiqib ketasan.	yoki	Xonadan chiqib ketayotib eshikni qattiq yopasan

**QIZ BOLALAR UCHUN KETTELL TESTNING SO'ROVNOMASI MATNI**  
**1-qism**

1.	Uy vazifasini tezda bajarasan.	yoki	Uy vazifasini uzoq vaqtda bajarasan.
2.	Agar sening ustingdan hazil qilishsa, birozgina jahling chiqadi.	yoki	Agar sening ustingdan hazil qilishsa, buni kulgu bilan qabul qilasan va birgalashib kulishasan.
3.	Sen barcha narsani me'yorida qila olishingga ishonasan.	yoki	Sen ba'zi bir narsalarni qila olishingga ishonasan.
4.	Tez-tez xato qilasan.	yoki	Deyarli xato qilmaysan.
5.	Do'stlaring ko'p.	yoki	Do'stlaring oz.
6.	Boshqa qizlar senga nisbatan ko'p ishlarni bajara oladi.	yoki	Boshqa qizlar ham sen qiladigan ishlarni bajara oladilar.
7.	Har doim insonlar ismini esda yaxshi saqlab qolasan.	yoki	Shunday hollar bo'ladiki, insonlar ismini esda saqlay olmaysan.
8.	Ko'p o'qiysan.	yoki	Qizlarning ko'pchiligi sendan ko'ra ko'p o'qishadi.
9.	Sen bajarishni xoxlaydigan ish uchun o'qituvchi boshqa qizni tanlasa xafa bo'lasan.	yoki	Sen bajarishni xoxlaydigan ish uchun o'qituvchi boshqa qizni tanlasa, bu haqida tez esdan chiqarasan va xafa bo'lmaysan.
10.	O'z takliflaring, g'oyalaring, fikrlaringni doimo to'g'ri va ma'qul deb hisoblaysan.	yoki	O'z takliflaring, g'oyalaring, fikrlaringni doimo to'g'ri emas deb hisoblaysan.

11.	Odatda kam gapirasan	yoki	Sen odatda ko'p gapirasan.
12.	Agar onang sendan xafa bo'lsa u nohaq bo'ladi.	yoki	Agar onang sendan xafa bo'lsa, biror narsada xato qildim deb o'ylaysan.
13.	Senga kutubxonada kitoblar bilan ishlash yoqadi.	yoki	Senga uzoq dengiz safarlarida kapitan bo'lish yoqadi.
14.	Kechqurun uzoq vaqt tinch o'tira olasan.	yoki	Kechqurun uzoq vaqt tinch o'tira olmaysan va betoqat bo'lasan.
15.	Agar qiz bolalar sen yaxshi bilgan joy haqida suhbatlashayotgan bo'lsa, suhbatga kirishib ketasan.	yoki	Agar qiz bolalar sen yaxshi bilgan joy haqida suhbatlashayotgan bo'lsa, ularning gapini bo'lmaysan, tugatishini kutib turasan.
16.	Fazogir bo'la olarding.	yoki	Fazogir bo'la olmas eding.
17.	Onang seni uyda betoqat va tartibsiz deb ta'kidlaydi.	yoki	Sening sabrliliging va kamgapliliging haqida onang gapirib turadi.
18.	Boshqalar gapirayotganda ishtiyoq bilan tinglaysan.	yoki	Senga ko'proq gapirish yoqadi.
19.	Bo'sh vaqtingda kitob o'qishni ma'qul ko'rasan.	yoki	Bo'sh vaqtingda ko'ptok o'ynashni ma'qul ko'rasan.
20.	Sen ehtiyotkorlik bilan harakat kilasan	yoki	Ba'zan Yugura turib, boshqa odamlar va narsalarga tegib ketasan.
21.	Seni jazolashlaridan qo'rqasan.	yoki	Seni jazolashlari to'g'risida o'ylamaysan.
22.	Ulg'ayganingda senga uylar qurish ko'proq yoqqan bo'lardi.	yoki	Ulg'ayganingda uchuvchi yoki stYuardessa bo'lishni xohlar eding.
23.	O'qituvchi darsda ko'pincha senga tanbeh berar edi.	yoki	O'qituvchi ba'zan senga tanbeh beradi.
24.	Agar do'stlaring biron-bir narsa haqida tortishayotgan bo'lishsa, sen ham ularning bahsiga aralashasan.	yoki	Agar do'stlaring biron-bir narsa haqida tortishayotgan bo'lishsa, sen odatda aralashmaysan.
25.	Boshqalar sinfda gaplashayotgan yoki kulayotgan bo'lsa ham sen shug'ullanishing mumkin.	yoki	Boshqalar sinfda gaplashayotgan yoki kulayotgan bo'lsa ham sen shug'ullana olmaysan.
26.	Sen «Yangiliklar»ni televizor orqali eshitishni yoqtirasan.	yoki	«Yangiliklar» eshittirilayotganda sen televizor ko'rmaysan va boshqa narsa bilan shug'ullanishni afzal ko'rasan.
27.	Seni kattalar xafa qilishadi.	yoki	Seni kattalar yaxshi tushunishadi.

28.	Transport qatnovi ko'p bo'lgan ko'chadan xotirjam o'tasan.	yoki	Transport qatnovi ko'p bo'lgan ko'chadan o'tishga biroz qo'rqasan.
29.	Sen bilan ko'pincha katta ko'ngilsizliklar bo'lib turadi.	yoki	Sen bilan ba'zan katta ko'ngilsizliklar bo'lib turadi.
30.	Agar sen javobni bilsang, qo'lingni darhol ko'tarasan.	yoki	Agar sen javobni bilsang qo'lingni darhol ko'tarmaysan, so'raganda javob berasan.
31.	Sinfga yangi o'quvchi kelsa, boshqalar singari u bilan tanishasan.	yoki	Sinfga yangi o'quvchi kelsa, tanishishga shoshilmaysan.
32.	Sen jon deb qandaydir transport vositasining (avtobus, trolleybus, taksi) haydovchisi bo'lar eding.	yoki	Sen jon deb shifokor bo'lar eding.
33.	Ko'p hollarda biron narsa amalga oshmasa, xafa bo'lasan.	yoki	Biron narsa amalga oshmasa xafa bo'lasan.
34.	Bolalardan birontasi yozma ishda yordam berishni so'rasa, o'zi hammasini bajarishi kerakligini aytasan.	yoki	O'rtoqlaringdan biri yozma ish vaqtida yordam berishni so'rasa, agar o'qituvchi ko'rmayotgan bo'lsa yordam berasan.
35.	Kattalar senga e'tibor bermay sening oldingda ham suhbatlashishadi.	yoki	Kattalar sen borligingga e'tibor berib, sen bilan suhbatlasha boshlaydilar.
36.	Agar g'amgin hikoyani eshitsang, ko'zlaringga yosh keladi.	yoki	Agar g'amgin hikoyani eshitsang, bu senga ta'sir qilmaydi.
37.	Rejalaringning ko'pini amalga oshirishga muvaffaq bo'lasan.	yoki	Rejalaringning ko'pi sen xohlaganingdek amalga oshmaydi.
38.	Ko'chada o'ynayotganingda onang chaqirsa darhol kelmay, o'ynashni davom ettirasan.	yoki	Ko'chada o'ynayotganingda onang chaqirsa, darhol kelasan.
39.	Hech kimdan uyalmay sinfda o'rningdan turib hamma bolalar oldida qandaydir hikoyani aytib bera olasan.	yoki	Butun bir sinf oldida turib biron-bir narsa haqida gapirib berish kerak bo'lsa, har doim uyalasan va xijolat bo'lasan.
40.	Senga uyda kichkina bolalar bilan qolish yoqadi.	yoki	Senga kichkina bolalar bilan qolish yoqmaydi.
41.	Ba'zan o'zingni yolg'iz va xafa qilinganday sezasan.	yoki	O'zingni hech qachon yolg'iz va xafa qilinganday sezmayasan.
42.	Uy vazifalarini har doim turli vaqtlarda bajarasan.	yoki	Uy vazifalarini har doim bir xil vaqtda bajarasan.
43.	Sen yaxshi yashayapsan.	yoki	Yomon yashayapsan.
44.	Bajonidil shahar tashqarisiga tabiatni tomosha qilishga borar eding.	yoki	Bajonidil yangi tovarlar ko'rgazmasiga borar eding.
45.	Agar senga tanbeh berishsa, jazolashsa, xafa bo'lmaysan, yaxshi	yoki	Agar senga tanbeh berishsa, jazolashsa, xafa bo'lasan.

	kayfiyat va xotirjamlikni saqlaysan.		
46.	Senga ko'proq qandolat fabrikasida ishlash yoqadi.	yoki	Senga ko'proq uchuvchi bo'lish yoqadi.
47.	Sinfda bolalar to'polon qilishsa, sen jim o'tirasan.	yoki	Sinfda bolalar to'polon qilishsa, sen ham ular bilan birga bo'lasan.
48.	Agar seni avtobusda turtib Yuborishsa bunga e'tibor bermaysan va hech narsa bo'lmagan deb hisoblaysan.	yoki	Agar seni avtobusda turtib Yuborishsa bundan jahling chiqadi.
49.	Sen bajarishing kerak bo'lmagan narsani qilishga to'g'ri kelgan.	yoki	Sen bajarishing kerak bo'lmagan narsani bajarmaysan.
50.	Sho'xlik qilish, Yugurish, hazillashishni afzal ko'rasan.	yoki	O'zlarini jiddiy tutadigan do'stlarni afzal ko'rasan.
51.	Biror narsa boshlanishidan oldin jim kutishga to'g'ri kelsa, besabrlilik, asabiylilikni his etasan.	yoki	Biron narsani uzoq vaqt kutish senda hech qanday noxushlik uyg'otmaydi.
52.	Hozir bajonidil maktabga borar eding.	yoki	Hozir bajonidil avtomobilda sayohatga borgan bo'lar eding.
53.	Shunday bo'ladiki, sen hammadan xafa bo'lasan.	yoki	Har doim va hamma narsadan qoniqasan.
54.	Senga ko'proq bosiq, muloyim o'qituvchi yoqadi.	yoki	Senga ko'proq talabchan o'qituvchi yoqadi.
55.	Uyda senga taklif qilishayotgan hamma taomni eysan.	yoki	Uyda sen faqat o'zing yoqtirgan ovqatnigina iste'mol qilasan.

## 2-QISM

1.	Senga hamma yaxshi munosabatda bo'ladi.	yoki	Senga ba'zi odamlargina yaxshi munosabatda bo'lishadi.
2.	Ertalab uyg'onganingda o'zingni lanj va uyqusiragandek his qilasan.	yoki	Ertalab uyg'onganingda o'zingni tetik va quvnoq his qilasan.
3.	Odatda ishingni boshqalarga nisbatan tez bajarasan.	yoki	Odatda ishlaringni boshqalar bajarib bo'lgandan so'ng tugatasan.
4.	Ba'zida o'zingga ishonmaysan.	yoki	Doimo o'zingga ishonasan.
5.	Maktabdagi do'stlaringni ko'rganda har doim quvonasan.	yoki	Ba'zida hech kimni ko'rishni xohlamaysan.
6.	Onang seni o'ta sustkash deb ta'kidlaydi.	yoki	Onang seni xamma narsani tez bajaradi deb ta'riflaydi.
7.	Boshqa bolalarga sen taklif qilayotgan fikrlar ma'qul bo'ladi.	yoki	Boshqa bolalarga sen taklif qilayotgan fikrlar har doim ham yoqavermaydi.



8.	Maktabda hamma narsani talab darajasida bajarasan.	yoki	Maktabda sinfdoshlaringning ko'pi talab qilingan narsani sendan yaxshi bajarishadi.
9.	Hamma bolalar seni aldashga harakat qilishadi, deb o'ylaysan.	yoki	Hamma bolalar seni aldashga harakat qilishmaydi va senga do'stona munosabatda bo'lishadi, deb o'ylaysan.
10.	Har doim hamma narsani yaxshi bajarasan.	yoki	Ba'zan qo'lingdan hech narsa kelmaydi.
11.	Dars paytida jim o'tirasan.	yoki	Dars paytida qimirlab o'tirishni yoqtirasan.
12.	Ba'zida onangga e'tiroz bildirasan.	yoki	Har doim onang bilan kelishasan, chunki ko'rqasan.
13.	Senga parkda sayr qilish yoqadi.	yoki	Senga tog'dan chang'ida tushish ko'proq yoqadi.
14.	Har doim muloyimman deb o'ylaysan.	yoki	Ba'zan etarlicha muloyim bo'lmayman, deb hisoblaysan.
15.	Sen bilan kelishish qiyin, o'z fikringda qat'iy turasan, deb o'ylashadi.	yoki	Sen bilan ishlash oson, hamma narsaga rozi bo'lasan, tushunasan.
16.	BuYumlaringni boshqa bolalar bilan almashtirgansan.	yoki	Hech qachon o'rtoqlaring bilan narsa almashmagansan.
17.	Ba'zan quloqsiz bo'lishni xohlaganmisan?	yoki	Sen buni hech qachon qilmagansan.
18.	Onang hamma narsani sendan ko'ra yaxshi bajaradi.	yoki	Ba'zi sening takliflaring onangnikidan ko'ra yaxshi bo'ladi.
19.	Agar sen yovvoyi hayvon bo'lganingda chopqir ot bo'lishni xohlar eding.	yoki	Agar sen yovvoyi hayvon bo'lganingda yo'lbars bo'lishni xohlar eding.
20.	Senga xushxabarni etkazishsa, xursand bo'lasan.	yoki	Senga xushxabar etkazishsa, xursandligingdan sakraging keladi.
21.	Agar senga kimdir yaxshi munosabatda bo'lmasa, sen xafa bo'lmaysan va uni kechirasan.	yoki	Agar senga kimdir yaxshi munosabatda bo'lmasa, shunga yarasha javob qaytarasan.
22.	Senga basseynda cho'milish ko'proq yoqqan bo'lar edi.	yoki	Senga basseynga balandlikdan sakrash ko'proq yoqqan bo'lar edi.
23.	O'qituvchi sening etarlicha e'tiborsizligingni va daftaringda ko'pxato qilishingni ta'kidlaydi.	yoki	O'qituvchi sen har doim e'tiborliligingni va daftaringda ko'pxato qilmasligingni ta'kidlaydi.
24.	Bahslarda nima qilib bo'lsa ham o'zingning haqligingni isbotlashga harakat qilasan.	yoki	Bahslarda o'zingning haqligingni isbotlashga harakat qilmaysan va ularga yon berasan.
25.	Urush haqidagi qandaydir hikoyani eshitgan bo'lar eding.	yoki	Hayvonlar haqidagi hikoyani eshitgan bo'lar eding.

26.	Sinfingga kelgan yangi o'quvchilarga har doim yordam berasan.	yoki	Odatda sinfingizdagi yangi o'quvchilarga sen emas, balki boshqalar yordam beradi.
27.	Ko'ngilsizliklarni uzoq vaqt esingdan chiqara olmaysan.	yoki	Ko'ngilsizliklarni tezda esdan chiqarasan.
28.	Senga kiyimlar tikish ko'proq yoqqan bo'lar edi.	yoki	Senga balet raqqosasi bo'lish ko'proq yoqqan bo'lar edi.
29.	Agar onang seni koyisa xafa bo'lib qolasan.	yoki	Agar onang seni koyigan bo'lsa hech qachon kayfiyating buzilmaydi
30.	Har doim sumkangni kechqurun tayyorlaysan.	yoki	Sumkangni ertalab maktabga ketishdan oldin tayyorlaysan.
31.	Seni o'qituvchi doimo maqtaydi.	yoki	Seni o'qituvchi onda-sonda maqtaydi
32.	O'rgimchakni bemalol ushlab mumkin.	yoki	O'rgimchakni yoqtirmaysan, uni ushlay olmaysan.
33.	Ko'p xafa bo'lasan.	yoki	Biron-bir kishidan kamdan-kam xafa bo'lasan
34.	Ota-onang uxlashing kerakligini aytishsa, darhol uxlashga ketasan.	yoki	Ota-onang uxlashing kerakligini aytishsa, darhol uxlangani ketmaysan va o'ynashni davom ettirasan.
35.	Notanish insonlar bilan gaplashishga to'g'ri kelsa, har doim uyalasan.	yoki	Notanish insonlar bilan gaplashishga to'g'ri kelsa, hech qachon uyalmayasan.
36.	Rassom bo'lishni ko'proq xohlaysan.	yoki	Ko'proq yaxshi sartarosh bo'lishni afzal ko'rasan.
37.	Hamma narsalarni muvaffaqiyatli bajarasan.	yoki	Senda omadsizliklar ham bo'lib turadi.
38.	Agar sen masala shartini tushunmagan bo'lsang, bolalardan birontasiga murojaat qilasan.	yoki	Agar masala shartini tushunmasang, o'qituvchingga murojaat qilasan.
39.	Sen kulgili hikoyalarni hamma kuladigan qilib gapirib bera olasan.	yoki	Sen kulgili hikoyalarni hamma kuladigan qilib gapirib bera olmaysan.
40.	Darsdan so'ng ma'lum bir vaqt davomida o'qituvchi oldida bo'lishni xohlaysan.	yoki	Darsdan so'ng har doim sinfdan chiqib ketishni, koridorda Yurishni xush ko'rasan.
41.	Ba'zan bekorchi bo'lib o'tirganingda o'zingni noxush sezasan.	yoki	Sen bilan bunday holat hech qachon bo'lmagan.
42.	Maktabdan uyga ketayotib o'ynash uchun to'xtaysan.	yoki	Maktabdan so'ng darhol uyga borasan.
43.	Ota-onang har doim seni tinglashadi.	yoki	Ota-onang o'ta band va seni tinglashmaydi.
44.	Uydan chiqa olmaganingda qattiq xafa bo'lasan.	yoki	Uydan chiqa olmaganingda bu sening kayfiyatingni tushirib Yubormaydi.

45.	Hayotingda qiyinchiliklar kam.	yoki	Sening hayotingda qiyinchiliklar ko'p.
46.	Bo'sh vaqtingda sen yaxshisi kinoga borgan bo'lar eding	yoki	Bo'sh vaqtingda, yaxshisi, hovlida gullar va daraxtlar ekan bo'lar eding.
47.	Onangga bajonidil maktabdagi voqealar haqida gapirib berasan.	yoki	Onangga bajonidil sayr, ekskursiya haqida gapirib berasan.
48.	Agar do'stlaring so'roqsiz buYumlaringni olishsa, sen buni hech qanday hayratlanadigan joyi yo'q deb hisoblaysan.	yoki	Agar do'stlaring so'roqsiz buYumlaringni olishsa, jahling chiqadi.
49.	Odatda kutilmagan tovushdan seskanib ketasan.	yoki	Kutilmagan tovushga oddiygina qarab qo'lasan.
50.	Qizlar bilan bir-biringizga biron narsa aytib berish senga yoqadi.	yoki	Senga qizlar bilan biron-bir o'yin o'ynash ko'proq yoqadi.
51.	Hayajonlanganingda ovozingni ko'tarasan.	yoki	Har doim xotirjam gapirasan.
52.	Bajonidil darsga borgan bo'lar eding.	yoki	Bajonidil figurali uchish chiqishlarini ko'rgan bo'lar eding.
53.	Agar radio eshitayotgan yoki televizor ko'rayotgan bo'lsang senga tashqaridagi ovozlar xalaqit beradi.	yoki	Agar radio eshitayotgan yoki televizor ko'rayotgan bo'lsang, tashqaridagi ovozlarni eshitmaysan.
54.	Maktabda senga qiyin bo'ladi.	yoki	Maktabda senga har doim oson bo'ladi.
55.	Agar uyda jahlingni chiqarishsa, sekingina xonadan chiqib ketasan.	yoki	Agar jahlingni chiqarishsa, eshikni qattiq yopib ketasan.

### Test natijalarini qayta ishlash bo'yicha ko'rsatmalar

Bolalar to'plagan ballar miqdorini aniqlashda standart kalit (jadval) ko'llaniladi. Bu standart kalit so'rovnoma javoblar varag'i ustiga qo'yiladi. Kalit shunday qolipki, uning yordamida kerakli ballar tezda topiladi va hisoblanadi. Qolipda shaxsning har bir xususiyati raqamlar bilan ifodalangan va qolip bilan mos kelayotgan javoblar 1 ball bilan hisoblanadi. So'ngra so'rovnomaning 1- va 2- qismi bo'yicha olingan hamma ballar har bir shaxs xususiyatlari uchun alohida hisoblanadi. Olingan ballar yig'indisi shaxs xususiyatining dastlabki bahosi bo'lib, u maxsus jadvalga yoziladi.

### 20-jadval

Kettell testi so'rovnomasi bo'yicha tekshiriluvchining javoblar varag'i.

A

Familiyasi, ismi		vaqti						1- qism	
1 □ □	2 □ □	3 □ □	4 □ □	5 □ □	6 □ □	7 □ □	8 □ □	9 □ □	
10 □ □	11 □ □	12 □ □	13 □ □	14 □ □	15 □ □	16 □ □	17 □ □	18 □ □	
19 □ □	20 □ □	21 □ □	22 □ □	23 □ □	24 □ □	25 □ □	26 □ □	27 □ □	
28 □ □	29 □ □	30 □ □	31 □ □	32 □ □	33 □ □	34 □ □	35 □ □	36 □ □	

37 □ □	38 □ □	39 □ □	40 □ □	41 □ □	42 □ □	43 □ □	44 □ □	45 □ □
46 □ □	47 □ □	48 □ □	49 □ □	50 □ □	51 □ □	52 □ □	53 □ □	54 □ □
55 □ □								

*22-jadval*  
2-qism

1 □ □	2 □ □	3 □ □	4 □ □	5 □ □	6 □ □	7 □ □	8 □ □	9 □ □
10 □ □	11 □ □	12 □ □	13 □ □	14 □ □	15 □ □	16 □ □	17 □ □	18 □ □
19 □ □	20 □ □	21 □ □	22 □ □	23 □ □	24 □ □	25 □ □	26 □ □	27 □ □
28 □ □	29 □ □	30 □ □	31 □ □	32 □ □	33 □ □	34 □ □	35 □ □	36 □ □
37 □ □	38 □ □	39 □ □	40 □ □	41 □ □	42 □ □	43 □ □	44 □ □	45 □ □
46 □ □	47 □ □	48 □ □	49 □ □	50 □ □	51 □ □	52 □ □	53 □ □	54 □ □
55 □ □								

**Izoh:** Kalit tekshiriluvchilar javob varag'i formatiga mos holda tayyorlanadi va 1 va 2-qismlarni ketma-ket qo'yish orqali qo'llaniladi. Kalitdagi qora kvadratchalar mavjud joylarda teshikchalar bo'lishi kerak. So'ngra har bir shunga o'xshash baho standart 10 balli jadvalga o'tkaziladi. Tekshirilayotganlarning jinsi va yoshiga mos holda jadvalda har bir shaxs xususiyati uchun o'rtacha topiladi. Bu interval dastlabki baholarni o'z ichiga oladi va ular jadvalning birinchi qatorida belgilangan me'yorlar qiymati bilan almashtiriladi. Ularning har biri yakuniy o'n balli shkalaning birliklarida ifodalangan baho hisoblanadi.

*22-jadval.*

Kettell testining yosh bolalar varianti bo'yicha me'yoriy ma'lumotlar.

8–10 yoshdagi o'g'il bolalar uchun me'yorlar										
Shaxs xususiyati	10 balli shkaladagi ballar									
	1.	2	3	4	5	6	7	8	9	10
<b>I</b>	0	1-2	3	4	5	6	7 ; 8		9	10
<b>[I</b>	0	1	2	3	4-5	6	7	8	9	10
<b>III</b>	0	1	2	3	4-5	6	7	8	9	10
<b>IV</b>	0	.	1	2	3	4	6	6	7-8	9-10

<b>V</b>	0-1	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	6	7	.	8	1-10
<b>VI</b>	0	<b>1</b>	2	3-4	5	6	7	8	9	10
<b>VII</b>	0-2	<b>3</b>	<b>4</b>	5	<b>6</b>	7	8	-	9	10
<b>VIII</b>	_	<b>0</b>	<b>1</b>	2	3	4	5	6	7	7-10
<b>IX</b>	_	<b>0</b>	<b>1</b>	2	3	4-5	6-7	7	8	1-10
<b>X</b>	0	<b>1</b>	2	3	4-5	6	7	8	9	10
<b>XI</b>	0	<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	5]	6	7	8	1-10
8–10 yoshdagi qiz bolalar uchun me'yorlar										
<b>Shaxs xususiyati</b>	10 balli shkaladagi ballar									
	<b>1</b>	2	3	4	5	6	7	8	9	<b>10</b>
<b>I</b>	<b>0-1</b>	2-3	4	5	6	7	8	9		10
<b>II</b>	0	<b>1</b>	2	3-4	5	6	5	8	9	<b>10</b>
<b>III</b>		0	1	2	3	4	5-6	7-8	9	10
<b>IV</b>	_	0	<b>1</b>	2	3	4	5	7	8	8-10
<b>V</b>	0	<b>1</b>	2	3	4	5	6	7	8	9-10
<b>VI</b>	<b>0-1</b>	2	3-4	5	6	7	8		9	10
<b>VII</b>	<b>0-1</b>	2-3	4	5	6	7	8	-	9	<b>10</b>
<b>VIII</b>	<b>0-1</b>	<b>2</b>	<b>3-4</b>	5	6	7	8	9	-	10
<b>IX</b>	_	<b>0</b>	<b>1</b>	2	3	4	5	6	7	<b>8-10</b>
<b>X</b>	<b>0-1</b>	<b>2</b>	<b>3-4</b>	5	6	7	8	9		<b>10</b>
<b>XI</b>	-	<b>0</b>	<b>1</b>	2	3	4	<b>0</b>	6-7	8	9-10

11–12 yoshdagi o'g'il bolalar uchun me'yorlar										
10 balli shkaladagi ball										
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
<b>I</b>	-	<b>I</b>	2	3	4-5	7	8	9	_	10
<b>II</b>	0	1	2	3	4-5	6	7	8	9	10
<b>III</b>	0	1	2-3	4	5	6	7	8		10
<b>IV</b>	0-1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
<b>V</b>	0-1	2-3	4	5	6	7	8	9	_	10
<b>VI</b>	0	<b>I</b>	.	2	3	4	5	6-7	<b>8</b>	9-10
<b>VII</b>	0-1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
<b>VIII</b>	0	.	1	2	3	4	5	6	7	8-10
<b>IX</b>	-	0	<b>1</b>	2	3	4	<b>5-6</b>	7	8	9-10
<b>X</b>	-	0	1	2	3	4	5	7	8	8-10
<b>XI</b>	0	1	2	3-4	5	6	7	8	9	10
11–12 yoshdagi qiz bolalar uchun me'yorlar										
<b>Shaxs xususiyati</b>	10 balli shkaladagi ballar									
	<b>I</b>	2	3	4	5	6	7	8	9	10
<b>I</b>	0-2	3	4	5	6	7	8	9	9	10
<b>II</b>	0	1	2	3	4-5	6	7	8	9	10
<b>III</b>	0	1	2	3-4	5	7	8	9	10	10
<b>IV</b>	0-1	2	3	4	5	6	8	9	10	10
<b>V</b>	0-1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
<b>VI</b>	0	1	2	3	4	5	6-7	8	9	10

<b>VII</b>	0-2	2	3	4	5- .0	7	8	9	10	
<b>VIII</b>	0-2	3		4	5	6	7	8	9	10
<b>IX</b>	0-1	I	2	3	4	5	6-7	8	9	10
<b>X</b>	0	1	2	3	4	5	6-7	8	9	10
<b>XI</b>	0	1	2-3	4	5	6	7	8	9	10

### Ota-ona, tarbiyachi va o'qituvchilar uchun so'rovnoma

Bolalarning muloqotchanlik sifatlarining ekspertlar tomonidan baholanishini o'rganishga xizmat qiluvchi ushbu metodika ota-ona, o'qituvchi va tarbiyachilarga mo'ljallangan. So'rovnoma bilan yaxshiroq tanishish maqsadida alohida jadval tayyorlangan bo'lib, uning chap tomonidan shaxs sifatleri, o'ng tomonidan esa savolning tartib raqami o'rin oladi.

Shaxsning baholanayotgan sifati	So'rovnomaning mos keluvchi savollari tartib raqami
Muloqotchanlik	2,3,4
Tashkilotchilik qobiliyati	5
Boshqa bolalar bilan o'zaro munosabatlari	6
Al'truizm (boshqalarga yordam berish)	7
Empatiya (hamdard bo'la olish)	8
Tajovuzkorlik	9
Yordamga muhtojlik	10
Tez xafa bo'lish	11
Rostgo'ylik	13
Adolatparvarlik	12
Xushmuomalalik	14
Itoatkorlik	16
Mustaqillik	17
Qat'iyatlilik	18
Mehnatsevarlik	19
O'ziga ishonch	20

### SO'ROVNOMA MATNI

- Bolaning ismi va familiyasi, tug'ilgan yili.
- Farzandingiz kattalar bilan tez muloqotga kirishadimi?
  - juda
  - unchalik emas
  - umuman muloqotchan emas.
- Farzandingiz bolalar bilan yaxshi muloqotga kirishadimi?
  - juda muloqotga kirishuvchan, ko'p hollarda yolg'iz emas, ular bilan o'ynashni afzal ko'radi.
  - unchalik emas, ko'p hollarda yolg'iz o'ynashni afzal ko'radi.
  - ba'zan bolalar bilan, ba'zan yolg'iz o'ynaydi.
- Agar farzandingiz muloqotchan bo'lsa,
  - o'zidan katta bolalar bilan
  - tengdoshlari bilan
  - o'zidan kichiklar bilan o'ynashni xush ko'radi.
- O'yinda farzandingiz o'zini qanday tutadi?
  - turli o'yinlar tashkil qiladi, boshqa o'yinlarda o'z rolini oladi,

etakchi va ikkinchi darajali rollarga birday qaraydi.

v) ko'pincha ikkinchi darajali rollarni bajaradi.

6. Farzandingiz boshqa bolalar bilan qanday munosabatda bo'ladi?

a) tez do'stlasha oladi va janjallashmay o'ynaydi

b) tez-tez janjallashib turadi.

7. Farzandingiz o'yinchoqlarini boshqa bolalarga o'ynashga beradimi?

a) bajonidil beradi.

b) ba'zan beradi, ba'zan esa yo'q.

v) bermaydi.

8. Farzandingiz boshqalarga hamdard bo'ladimi?

a) boshqalarga hamdardlik bildiradi, biror narsadan xafa bo'lganlarni ovutishga harakat qiladi.

b) ba'zan.

v) deyarli hech qachon hamdard bo'lmaydi.

9. Boshqa bolalarni xafa qiladimi?

a) ko'p hollarda. b) ba'zan v) hech qachon.

10. Kattalardan tez-tez xafa bo'lib turadimi?

a) ko'p hollarda.

b) ba'zan.

v) hech qachon.

11. Bolangiz tez xafa bo'ladimi?

a) juda arazchi

b) ba'zan

v) arazchi emas.

12. Farzandingiz har doim ham adolatparvarmi?

a) har doim

b) ba'zan

v) ko'p hollarda adolatparvar emas.

13. Farzandingiz har doim rost so'zlaydimi?

a) har doim

b) ba'zan

v) ko'pincha yolg'on gapiradi, aldaydi.

14. Farzandingiz doimo xushmuomalami?

a) har doim

b) ba'zan

v) hech qachon.

15. Farzandingiz har doim itoatkormi?

a) har doim

b) ba'zan

v) hech qachon.

16. Farzandingiz mustaqilmi?

a) to'la mustaqil, hamma narsani o'zi qilishni ho'xlaydi.

b) ba'zan.

v) mustaqil emas, ko'p hollarda uning uchun boshqalar qilishini ho'xlaydi.?

17. Farzandingiz qat'iyatlimi ?

a) Har doim boshlagan ishini oxiriga etkazadi, qat'iyatli.

b) Ba'zan.

v) Yuq, odatda boshlagan ishini oxiriga etkazmaydi.

18. Farzandingiz mehnatsevarmi?

a) juda mehnatsevar, unga topshirilgan ishni o'z vaqtida bajaradi.

b) ba'zan.

v) ko'p hollarda dangasalik qiladi.

19. Farzandingiz o'ziga ishonadimi?

a) O'ziga ishonadi.







	46	49	53	57	15			
Turg'unlik	2	5	7	10	13	34	18	21
	23	26		26	31	52	37	39
	42	45		47	50		54	56
	58	60						
Samimiy emaslikka moyillik (yolg'onchilikka)	8	16	24	28	44			
						4	2	20
						40	46	32
								36

Tipik ekstrovert – boshqa odamlarga tez kirishib ketadigan inson, boshqa odamlar bilan muloqat qilishga, yangi ta'assurotlarga doimo intiluvchi odam. U ulfatlarni yoqtiradi, ko'p do'stlari va tanishlari bor, beparvo, umid-ishonch bilan to'lgan, kulishni yoqtiradigan odam. Tajavuzkor, serjahl, ta'sirchan inson bo'lib, ko'pincha daqiqa ta'sirida harakat qiladi. His-tuyg'ularini qattiq nazorat qila olmaydi, tanishish uchun odatda yaqinlashish uchun birinchi so'z boshlaydi. Yolg'iz ishlashni va shug'ullanishni yoqtirmaydi.

Tipik-introvert – qiyinchilik bilan muloqotga kirishuvchi, uyatchan, og'ir, o'z ichki dunyosiga ko'milgan, o'z-o'zini kuzatadigan, tuYuq odam. Yaqin odamlaridan boshqa hammadan ajralgan inson. U o'z harakatlarini oldindan rejalashtirib oladi, kutilmagan natijalarga ishonmaydi. U qo'zg'alishni, tartibni yoqtiradi, hayotda jiddiy. U his-tuyg'ularini qattiq nazorat ostiga olgan, kamdan-kam jahli chiqadi, qizishib ketmaydi, muloqotdagi va janjallardagi kelishmovchiliklarni jim turib to'xtatishga intiladi. U diqqatni kuchli bir joyga to'playdigan va kam harakat talab qiladigan faoliyat turlarini yoqtiradi.

Tipik ekstrovert va introvert qolgan boshqa ko'pchilik odamlar joylashadigan qutblar hisoblanadi. Ayzenk savolnomasi bo'yicha tipik nevrotik qisman Freyd g'oyalari asosida ishlangan bo'lib, onglilik va ongsizlik o'rtasida yorqin nizolar xarakterlaydi, shuning uchun xam salbiy his-tuyg'ularni yomon boshqaradi. Hissiy noturg'unlik odatda insonning gap ko'tara olmasligi bilan bog'langan bo'lib, u o'ziga ishonmaydi, boshqa odamlarning yordamiga qo'llab quvvatlashiga doimo muhtoj, uning kayfiyati o'zgaruvchan. U ko'pincha boshqa jiddiy asos bo'lmasa-da, o'zini baxtsiz, boshqalardan yomon his qiladi, ba'zan o'zini aybdor hisoblaydi. U orzu qilingan har narsadan shubhalanishni yoqtiradi, jizzaki bo'lib turadi. Nevrotik odatda boshidan kechirgan ko'ngilsizlikni uzoq vaqt eslab Yuradi, muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqadi. Unga qaror qabul qilish qiyin, vaziyat shuni talab etsa-da, o'z niyatlaridan voz kechishi ham qiyin. Nevrotik uchun tashqi psixik funktsiyalarni to'liq saqlash xos.

Hissiy turg'un inson o'z hissiy holatini boshqara oladi, odamlar bilan bir xil muloqatga kirishadi, uni muvozanatdan chiqarish qiyin. U boshqalar tomonidan doimiy qo'llab quvvatlashga muhtoj emas, jizzaki emas.

"Yolg'onchilik" shkalasi bo'yicha samimiy emaslik – bu o'ziga xos da'vogarlik bo'lib, o'z ijobiy xislatlarini ortiqcha baholash, o'zini yaxshi ko'rsatishga intilishdir. Ko'pincha anglanmasdan sodir bo'ladi.

#### Noturg'unlik

Tez xafa bo'ladigan

Tashvishli

Ko'p o'ylaydigan

Umidsizlangan

Muloyim

Odamga qo'shilmaydigan

Yuvosh

Sezgir

Notinch

Jahli tez

Ta'sirchan

O'zgaruvchan

Umid-ishonch bilan to'lgan

Tashqi ta'sirlarga beriluvchan

Melonxolik

**Introvertlik** \_\_\_\_\_

xolerik

\_\_\_\_\_ **Ekstrovertlik**

Flegmatik	sangvinik
Sust	Muloqatga kirishuvchan
Ehtiyotkor	Aloqa qiluvchi
Aqli	Ko‘p gapiruvchi
Xayrixoh	Ko‘ngilchan
Tinchlikni istovchi	Erkin
O‘zini nazorat qiluvchi	Quvnoq
Ishonuvchan, boshqaruvchi	Xavotirlanmaydigan
Umid qiluvchi, bosiq	Peshqadamlikka intiluvchi
Turg‘unlik	

Yuqorida qayd etilgan shaxs xulq-atvori stereotiplari faqatgina tug‘ma xislatlar natijasi emas, balki muhit ta‘sirining ham natijasidir.

### **AYZENK SHAXS SAVOLNOMASI (Bolalar varianti)**

1. Atrofingizda shovqin va betartib harakatlarini yoqtirasizmi?
2. Sizni qo‘llab-quvvatlaydigan do‘stlarga ko‘pincha muhtoj bo‘lasizmi?
3. Darsda nima haqidadir so‘rasha, doim tez javob topa olasizmi?
4. Ba‘zan jahlingiz chiqib, qo‘zg‘aluvchan bo‘lganmisiz?
5. Kayfiyatingiz ko‘pincha o‘zgarib turadimi?
6. Boshqa bolalar bilan uchrashgandan ko‘ra, yolg‘iz o‘zingiz bo‘lganingiz ko‘proq yoqadimi?
7. Ba‘zan turli fikrlar sizga uxlashga xalaqit beradimi?
8. Har doim sizga aytilgan narsani darrov bajarasizmi?
9. Hazillashishni yoqtirasizmi?
10. Buning uchun sabab bo‘lmasa-da, siz o‘zingizni baxtsiz his qilgansizmi?
11. Siz quvnoq odammisiz?
12. Siz qachondir maktabdagi tartibni buzganmisiz?
13. Sizga ko‘p narsa ta‘sir qiladimi?
14. Sizga hamma narsani tez bajaradigan ish ko‘proq yoqadimi?
15. Haqiqatda ro‘y bermasdan, oxiri yaxshilik bilan tugasa-da, har qanday qo‘rqinchli hodisalardan hayajonlanasizmi?
16. Sizga har qanday sirni ishonib aytish mumkinmi?
17. Zerikib o‘tirgan bolalarni kuldira olasizmi?
18. Ba‘zan hech qanday sababsiz Yuragingiz tez urib ketadimi?
19. Kim bilandir do‘stlashish uchun birinchi harakat qilasizmi?
20. Qachondir yolg‘on gapirasizmi?
21. Siz bajargan ishdan odamlar kamchilik topishsa, qattik xafa bo‘lasizmi?
22. Do‘stlaringiz bilan hazillashishni, kulgili voqealar aytib berishni yoqtirasizmi?
23. Ko‘pincha hech qanday sababsiz o‘zingizni charchaganday his qilasizmi?
24. Siz avval darslaringizni tayyorlab olib, keyin o‘ynaysizmi?
25. Odatda siz quvnoq va hammadan xursandsiz?
26. Siz tez xafa bo‘lasiz?
27. Boshqa bolalar bilan o‘ynashni va gaplashishni yoqtirasizmi?
28. Yaqinlaringizning uy ishlariga yordamlashish haqidagi iltimoslarini har doim bajarasizmi?
29. Ba‘zan boshingiz qattiq aylanadimi?
30. Kimningdir ustidan kulishni, qiyin ahvolga solib qo‘yishni yoqtirasizmi?
31. Ko‘pincha siz o‘zingizni nimadir joningizga tekkandek his qilasizmi?
32. Ba‘zan siz maqtanishni yaxshi ko‘rasiz?
33. Boshqa odamlar orasida ko‘pincha jim turasiz?
34. Ba‘zan siz kuchli hayajonlanganingizdan joyingizda o‘tira olmaysiz?
35. Nimanidir hal qilishga tez kirishasiz?
36. Ba‘zan o‘qituvchi sinfda bo‘lmaganida to‘polon qilasiz?

37. Ko‘pincha qo‘rqinchli tushlar ko‘rasiz?
38. Do‘stlaringiz, tanishlaringiz, dugonalarinigiz orasida hamma narsani unutib chin Yurakdan kula olasiz.
39. Sizni nima bilandir osonlikcha xafa qilish mumkin.
40. Kim haqidadir yomon gapirishga to‘g‘ri kelganmi?
41. O‘zingizni beparvo, beg‘am insonman deya olasizmi?
42. Yomon ahvolga tushib qolganingizdan, ko‘pincha hayajonlanib Yurasizmi?
43. Shovqinli, quvnoq o‘yinlarni yoqtirasizmi?
44. Sizga berilgan hamma narsani eysizmi?
45. Nima haqidadir iltimos qilishsa, yo‘q deya olmaysiz.
46. Tez-tez mehmonga borishni yoqtirasiz.
47. Shunday daqiqalar bo‘ladiki, yashagingiz kelmaydi.
48. Qachondir ota-onangizga qo‘pol gapirganmisiz?
49. Sizni quvnoq bola deb hisoblashadi.
50. Dars tayyorlayotganingizda ko‘pincha chalg‘iysiz?
51. Umumiy xursandchilikda ishtirok etishdan ko‘ra, chetda o‘tirib tomosha qilishni yoqtirasiz.
52. Har xil fikrlardan odatda uyqungiz kelmaydi?
53. Odatda sizga topshirilgan ishni yaxshi bajara olishingizga ishonasiz?
54. Ko‘pincha o‘zingizni yolg‘iz his qilasiz?
55. Notanish kishiga birinchi bo‘lib gap boshlashga uyalasiz?
56. Ko‘pincha kech bo‘lganda nimanidir bajarishga kirishasiz?
57. Qachondir bolalar sizga baqirishsa, siz ham ularga javoban baqirasiz.
58. Ba‘zan hech qanday sababsiz o‘zingizni juda xursand yoki xafa sezasiz?
59. Mehmonda, archa bayramda chin dildan xursand bo‘lish mumkin emas, deb hisoblaysizmi?
60. Ko‘pincha sizga nimanidir o‘ylamasdan bajarganingiz uchun xavotirlanishga to‘g‘ri keladi?

### **KETTELL so‘rovnomasi «S» shakli**

1. Oldingiga qaraganda hozir xotiram yaxshi deb o‘ylayman:
  - a) ha
  - v) aytish qiyin
  - s) yo‘q
2. Men odamlardan uzoqda yolg‘iz yashay olaman:
  - a) ha
  - v) ba‘zan
  - s) yo‘q
3. Osmonni pastda deb, qishda issiq bo‘ladi deb faraz qilsak, men jinoyatchini ... deya olaman:
  - a) bosqinchi
  - v) begunoh
  - s) bulut
4. Men:
  - a) tez uxlayman
  - v) har dom har xil
  - s) zo‘rg‘a uxlayman
5. Ko‘p avtomobillar Yurayotgan ko‘chada mashina haydab ketayotgan bo‘lsam, shunday qilardim:
  - a) ko‘pchilik mashinalarni oldinga o‘tkazib Yuboraman
  - v) bilmayman
  - s) oldinda ketayotgan hamma mashinalarni quvib etaman
6. Men ulfatlarga boshqalarga hazillashish va turli voqealarni aytib berish uchun imkon beraman:
  - a) ha
  - v) ba‘zan
  - s) yo‘q

7. Men uchun tevarak atrofda tartibsizlik bo'lmisligi muhim:

- a) to'g'ri
- v) aytish qiyin
- s) noto'g'ri

8. Ulfatchilikda birga bo'ladigan ko'pchilik kishilar meni ko'rganlaridan xursand bo'lishadi:

- a) ha
- v) ba'zan
- s) yo'q

9. Menga ko'proq yoqadi:

- a) figurali uchish va balet
- v) aytish qiyin
- s) kurash va regbi

10. Odamlarning gapi bilan ishi mos emasligi meni ajablantiradi.

- a) ha
- v) ba'zan
- s) yo'q

11. Men qandaydir voqea haqida o'qiyotib, barcha tafsilotlariga qiziqaman.

- a) har doim
- v) ba'zan
- s) kamdan-kam

12. Do'stlarim mening ustimdan kulishganda, hamma bilan birga kulaman, xafa bo'lmayman.

- a) to'g'ri
- v) bilmadim
- s) noto'g'ri

13. Agar menga kimdir qo'pollik qilsa, bu haqda tez unutib Yuboraman.

- a) to'g'ri
- v) bilmadim
- s) noto'g'ri

14. Qandaydir ishni bajarayotganda, sinalgan usul bilan ishlashdan ko'ra, yangi usulni o'ylab topish menga ko'proq yoqadi:

- a) to'g'ri
- v) ba'zan
- s) yo'q.

15. Kimningdir yordamisiz, mustaqil nimanidir rejalashtirishni yoqtiraman:

- a) to'g'ri
- v) ba'zan
- s) yo'q

16. Boshqa odamlarga qaraganda, o'zimni unchalik sezgir va ta'sirchan emas deb o'ylayman:

- a) to'g'ri
- v) ba'zan
- s) noto'g'ri

17. Tez qaror qabul qila olmaydigan kishilar mening jahlimni chiqaradi.

- a) to'g'ri
- v) ba'zan
- s) noto'g'ri

18. Ba'zan menda ota-onamga nisbatan vaqtinchalik bo'lsa ham achchiqlanish hissi paydo bo'lgan.

- a) ha
- v) ba'zan
- s) yo'q

19. O'zimning Yurakdagi sirlarimni aytar edim:

- a) yaxshi do'stlarimga
- v) bilmadim

- s) kundaligimga yozar edim
20. Menimcha, «noaniq» soʻziga mazmunan quyidagi soʻz qarama- qarshisining qarama-qarshisi boʻladi:
- a) «beparvo»  
v) «puxta»  
s) «taxminiy»
21. Koʻpincha menga kuch zarur boʻlganda, u menga etadi:
- a) ha  
v) baʼzan  
s) yoʻq
22. Bunday odamlar jahlimni chiqaradi:
- a) oʻzlarining qoʻpol hazillari bilan odamni noqulay ahvolga solib qoʻyadiganlar  
v) javob berishga qiynalaman  
s) men bilan oldindan kelishilgan uchrashuvga kechga qolib, noqulaylik yaratadiganlar
23. Menga mehmonlarni chaqirish va ularni zeriktirmaslik yoqadi:
- a) toʻgʻri  
v) har doim har xil  
s) notoʻgʻri
24. Men oʻylaymanki...
- a) hamma narsani bir xil puxta bajarimaslik mumkin  
v) javob berishga qiynalaman  
s) hamma ishni bir xilda puxta bajarish kerak
25. Odatda menga uyalishni engishga toʻgʻpi keladi
- a) ha  
v) baʼzan  
s) yoʻq
26. Doʻstlarim koʻpincha:
- a) men bilan maslahatlashishadi  
v) bunday ham, boshqacha ham qilishadi  
s) menga maslahat berishadi
27. Agar tanishim meni arzimasa narsa uchun aldasa, uni uyaltirishdan koʻra, buni sezmaslikka olaman.
- a) ha  
v) baʼzan  
s) yoʻq
28. Bunday doʻstlarni yoqtiraman:
- a) amaliy va ish boʻyicha qiziqishlarga ega  
v) bilmadim  
s) hayotga falsafiy qarash bilan ajralib turadigan
29. Men qattiq ishongan gʻoyaga qarama-qarshi fikrlarni bildirayotgan boshqa odamlarni jim turib eshita olmayman.
- a) toʻgʻri  
v) aytish qiyin  
s) notoʻgʻri
30. Ilgarigi xatolarim va harakatlarimdan uyalam.
- a) ha  
v) bilmadim  
s) yoʻq
31. Agar men har ikkalasini birday oʻynashni bilganimda, men afzal koʻrardim:
- a) shaxmat oʻynashni  
v) javob berish qiyin  
s) shahar qurish oʻyini
32. Menga odamshavanda, kirishib ketuvchi kishilar yoqadi:

- a) ha  
v) aytish qiyin  
s) yo‘q
33. Mening shunchalik ehtiyotkorligimdan, boshqa odamlarga nisbatan yoqimsiz tasodiflar men bilan kam ro‘y beradi.  
a) ha  
v) aytish qiyin  
s) yo‘q
34. Zarur bo‘lsa, o‘zinning burch va majburiyatlarimni esdan chiqarib Yuboraman:  
a) ha  
v) ba‘zan  
s) yo‘q
35. O‘zinning nohaq ekanligimni tan olish men uchun qiyin  
a) ha  
v) ba‘zan  
s) yo‘q
36. Ishxonada men uchun qiziq:  
a) mashina va mexanizmlar bilan ishlash va asosiy ishlab chiqarishda ishtirok etish  
v) aytish qiyin  
s) jamoat ishlari bilan shug‘ullanib, odamlar bilan suhbatlashish
37. Qaysi so‘z qolgan ikkitasi bilan bog‘lanmagan:  
a) «mushuk»  
v) «yaqin»  
s) «quyosh»
38. Ozgina diqqatimni chalg‘itadigan narsalar:  
a) jahlimni chiqaradi  
v) o‘rtacha  
s) mutlaqo ta‘sir qilmaydi
39. Pulim ko‘p bo‘lganda men:  
a) o‘zimni hech narsadan kam qilmay yashar edim  
v) bilmadim  
s) o‘zimga havas uyg‘otmaslikka intilar edim
40. Men uchun eng yomon jazo:  
a) og‘ir ish  
v) bilmadim  
s) yolg‘iz bir xonada qolish
41. Odamlar hozirgidan ham ko‘proq axloq normallariga amal qilishlari kerak.  
a) ha  
v) bilmadim  
s) yo‘q
42. Bolaligimda men haqimda aytishgan:  
a) Yuvosh bola bo‘lib, yolg‘iz qolishni istashimni  
v) aytish qiyin  
s) harakatchan va yolg‘iz qoldirish mumkin bo‘lmaganligini aytishgan.
43. Men asboblardan ham ko‘proq foydalanishni yoqtiraman.  
a) ha  
v) bilmadim  
s) yo‘q
44. Menimcha, ko‘pchilik guvohlar sudda bu ular uchun oson bo‘lmasa-da, haqiqatni gapirishadi:  
a) ha  
v) aytish qiyin  
s) yo‘q

45. Ba'zan men o'z g'oyalarimni hayotga tatbiq qilaman, chunki ular menga amalga oshirib bo'lmaydiganday tuyuladi.
- a) to'g'ri
  - v) aytish qiyin
  - s) yo'q
46. Hazillarda boshqa odamlarga qaraganda sekinroq kulishga harakat qilaman:
- a) to'g'ri
  - v) bilmadim
  - s) noto'g'ri.
47. O'zimning baxtsizligimdan hech qachon yig'lagim kelmagan.
- a) to'g'ri
  - v) bilmadim
  - s) noto'g'ri
48. Menga ko'proq yoqadi:
- a) karnay-surnay navolari
  - v) bilmadim
  - s) dutorda chalinadigan musiqa
49. Ta'tilni o'tkazishni yoqtiraman:
- a) bir-ikki do'stlarim bilan qishloqda
  - v) aytish qiyin
  - s) turistik lagerda guruhni boshqarish
50. Reja tuzishga sarflangan kuch:
- a) ba'zan ortiqcha emas
  - v) aytish qiyin
  - s) bunga arzimaydi
51. Tanishlarimning menga nisbatan o'ylamay aytgan gaplaridan va harakatlaridan xafa bo'lmayman va jahlim chiqmaydi:
- a) to'g'ri
  - v) ba'zan
  - s) kamdan-kam
52. Bajarayotgan ishlarim muvaffaqiyatli chiqayotganda, ular menga osondek tuyuladi:
- a) har doim
  - v) ba'zan
  - s) kamdan-kam
53. Men shunday ishlashni yoqtiraman:
- a) tashkilotda menga odamlarni boshqarish va har doim ular orasida bo'lish yoqadi
  - v) javob berishga qiynalaman
  - s) yolg'iz ishlashni, masalan, o'z loyihamni ishlab chiqadigan arxitektor bo'lib ishlashni yoqtiraman
54. «Uy» so'zi «xona» so'ziga qanday munosabatda bo'lsa, «daraxt» so'zi quyidagi so'zlardan biriga xuddi shunday munosabatda bo'ladi:
- a) o'rmon
  - v) o'simlik
  - s) barg
55. Men bajarayotgan ishlar yaxshi chiqmaydi.
- a) kamdan-kam
  - v) vaqti-vaqti bilan
  - s) ko'pincha
56. Men ko'p ishlarda:
- a) tavakkal qilishni yoqtiraman
  - v) hap doim hap xil
  - s) yanglishmay harakat qilishni yoqtiraman
57. Ehtimol, ba'zi kishilar meni juda ko'p gapiradi, deb hisoblashadi.



- a) shunday bo'lsa kerak  
v) bilmadim  
s) bunday emas deb o'ylayman
58. Menga shunday odamlar yoqadi:  
a) doimiy va ishonchli bo'lmasa-da, aqli ko'p kishilar  
v) aytish qiyin  
s) barcha qiyinchiliklarga qarshi tura oladigan o'rtacha qobiliyatli kishilar yoqadi.
59. Men qaror qabyl qilaman:  
a) ko'pchilik odamlarga qaraganda tez  
v) bilmadim  
s) ko'pchilik odamlarga qaraganda sekin
60. Menda ko'p taassurot qoldiradi:  
a) mahopat va nafosat  
v) aytish qiyin  
s) kuch va quvvat
61. O'zimni xamkorlikka moyil inson deb hisoblayman:  
a) ha  
v) o'rtacha  
s) yo'q
62. Ochiq va to'g'ri so'z odamlarga qaraganda go'zal va nazokatli odamlar bilan gaplashish menga ko'proq yoqadi.  
a) ha  
v) bilmadim  
s) yo'q
63. Men shunday qilishni yoqtiraman:  
a) menga tegishli ishlarni o'zim hal qilishni yoqtiraman  
v) javob berishga qiynalaman  
s) do'stlarim bilan maslahatlashishni
64. Agar kimdir mening so'zlarimga javob qaytarmasa, qandaydir yomon gap aytib qo'ydim, deb o'ylayman.  
a) to'g'ri  
v) bilmadim  
s) noto'g'ri
65. O'quvchilik yillarimda men ko'proq bilim olganman:  
a) darslarda  
v) bilmadim  
s) kitoblardan
66. Men jamoat ishlaridan va ular bilan bog'liq javobgarlikdan o'zimni olib qochaman.  
a) to'g'ri  
v) ba'zan  
s) noto'g'ri
67. Agar qiyin savolga javob topishga juda qiynalsam:  
a) boshqa masala bilan shyg'yllanaman,  
v) javob berishga qiynalaman,  
s) yana bir marta bu masalani echishga harakat qilib ko'raman.
68. Menda aniq bir sabablarsiz kuchli hissiyotlar: qo'rqinch, g'azab, qattiq kulish va boshqalar paydo bo'ladi:  
a) ha  
v) ba'zan  
s) yo'q
69. Ba'zan men odatdagidan yomon fikrlayman:  
a) to'g'ri  
v) ba'zan

s) yo‘q

70. Menga ozroq noqulay bo‘lsa-da, boshqa kishi uchun qulay vaqtda uchrashuv belgilab, unga yaxshilik qilish menga yoqadi.

a) ha

v) ba‘zan

s) yo‘q

71. Sonlar qatorining davomi bo‘ladigan son: 1,2,4,0,5

a) 10

v) 5

s) 7

72. Ba‘zan hech qanday sabablarsiz ozroq ko‘nglim aynib va boshim aylanib turadi.

a) ha

v) juda kam

s) hech qachon

73. Ofitsiantga ortiqcha ish bo‘lmasligi uchun o‘z bu Yurtmamdan voz kechishni afzal ko‘raman.

a) ha

v) ba‘zan

s) hech qachon

74. Boshqa odamlarga qaraganda, ko‘proq bugungi kun bilan yashayman.

a) to‘g‘ri

v) aytish qiyin

s) noto‘g‘ri

75. Kechada menga yoqadi:

a) ish bo‘yicha qiziqarli suhbatda ishtirok etish

v) javob berishga qiynalaman

s) barcha bilan birga dam olish

76. Meni tinglashayotganiga bog‘liq bo‘lmagan holda, o‘z fikrimni bayon etaman.

a) ha

v) ba‘zan

s) yo‘q

77. Agar o‘tmishga qaytish imkoni bo‘lganda, men uchrashishni istardim:

a) Al-Xorazmiy bilan

v) bilmadim

s) Navoiy bilan

78. Boshqalarning ishlariga to‘sqinlik qilmaslik uchun o‘zimni tutishga majburman.

a) ha

v) ba‘zan

s) yo‘q

79. Do‘konda ishlaganda men yoqtiraman:

a) vitrinalarni bezashni

v) bilmadim

s) kassir bo‘lishni

80. Agar odamlar men haqimda yomon fikrga borishsa, ularni fikridan qaytarishga intilmasdan, nimani zarur topsam, shunday harakat qilishni davom ettiraman.

a) ha

v) aytish qiyin

s) yo‘q

81. Qadrdon do‘stim, mendan qochayotganini va menga sovuq munosabatda bo‘layotganini sezsam, odatda:

a) uning kayfiyati yomon deb o‘ylayman

v) bilmadim

s) nimani xato qildim deb o‘ylayman

82. Barcha baxtsizliklar shunday odamlar tufayli sodir bo‘ladi:

- a) hamma narsaga o'zgartirish kiritishga intiluvchi odamlar tufayli  
v) bilmadim
- s) ko'p narsalar va'da qiluvchi odamlar tufayli
83. Yangiliklarni aytib berishdan zavqlanaman:  
a) ha  
v) ba'zan  
s) yo'q
84. Tartibli, talabchan odamlar men bilan chiqishmaydi:  
a) to'g'ri  
v) ba'zan  
s) noto'g'ri
85. Boshqa odamlarga nisbatan jahlim kam chiqadi.  
a) to'g'ri  
v) ba'zan  
s) hech qachon
86. Boshqa odamlar men bilan hisoblashganlaridan ko'ra, men ular bilan hisoblashishim oson.  
a) to'g'ri  
v) ba'zan  
s) hech qachon
87. Ertalablari hech kim bilan gaplashgim kelmaydi.  
a) ko'pincha  
v) ba'zan  
s) hech qachon
88. Agar soat strelkalari to'g'ri soatda o'lchanganiga qaraganda hap bir 65 daqiqadan so'ng ustma-ust tushsa, bu soat:  
a) qolib ketgan  
v) to'g'ri Yurgan  
s) oldinda ketayotgan bo'ladi
89. Men zerikaman:  
a) ko'pincha  
v) ba'zan  
s) kamdan-kam
90. Odamlar menga hamma narsani o'zimga xos uslubim bilan bajarishim yoqishini aytishgan:  
a) to'g'ri  
v) ba'zan  
s) noto'g'ri.
91. Charchamaslik uchun ortiqcha hayajonlanishdan qochish kerak, deb hisoblayman.  
a) ha  
v) ba'zan  
s) yo'q
92. Bo'sh vaqtimda uyda men:  
a) barcha ishlarni yig'ishtirib qo'yib, dam olaman  
v) aytish qiyin  
s) meni qiziqtirgan narsalar bilan shug'yllanaman
93. Yangi odamlar bilan do'stona munosabatda bo'lishda ehtiyot bo'laman:  
a) ha  
v) ba'zan  
s) yo'q
94. Odamlar she'r bilan aytgan narsani so'z bilan aytish mumkin, deb hisoblayman.  
a) ha  
v) aytish qiyin  
s) yo'q
95. Men do'stona munosabatda bo'lgan odamlar orqamdan meni yomonlaydigandek tuYuladi:

- a) ha,  
v) ba'zan  
s) yo'q
96. Eng fojiali hodisalarni ham bir yildan keyin umuman unutib Yuboraman, deb o'ylayman.  
a) ha  
v) ba'zan  
s) yo'q
97. Men uchun qiziqarli, deb o'ylayman:  
a) o'simliklar bilan ishlash  
v) bilmadim  
s) sug'urta xodimi
98. Ba'zi narsalardan, masalan: ba'zi hayvonlardan, joylardan, sanalardan sababsiz qo'rqish kabi irimlarga ishonaman.  
a) ha  
v) ba'zan  
s) yo'q
99. Dunyoni qanday qilib yaxshilash mumkinligi haqida o'ylashni yoqtiraman.  
a) ha  
v) aytish qiyin  
s) yo'q
100. Bunday o'yinlarni afzal ko'raman:  
a) komanda bo'lib, sherik bo'lib o'ynaladigan o'yinlarni  
v) bilmayman  
s) har kim o'zi uchun o'ynaydigan o'yinlarni
101. Kechasi men sarguzasht va yomon tushlar ko'raman.  
a) ha  
v) ba'zan  
s) yo'q
102. Uyda bir o'zim qolsam, birozdan so'ng qo'rqa va xavotirlana boshlayman.  
a) ha  
v) ba'zan  
s) yo'q
103. Menga yoqmaydigan odamlar bilan ham do'stona munosabatda bo'la olaman:  
a) ha  
v) ba'zan  
s) yo'q
104. Qaysi so'z ikkitasidan farqlanadi:  
a) «o'ylamoq»  
v) «ko'rmoq»  
s) «eshitmoq»
105. Agar Ma'muraning onasi Dilmurodning otasining singlisi bo'lsa, Dilmurod Ma'muraning otasiga kim bo'ladi?  
a) tog'a  
v) jiyan  
s) amaki

KETTELL SHAXS SAVOLNOMASI KALITI «S» SHAKL

MD=1A=2b	A=	B=	S=
1V=1b	2V=1b	3V=1b	4A=2B
18V=1b	2S=2b	20S=2b	4V =1b
	19A=2b	37V=1b	24A=2b

18S=2b 35S=1b 52A=2b 69S=2b 86V=1b 86S=2b	19V=1b 36V=1b 36S=2b 53A=2b 53V=1b 70A=2b 70V=1b 87S=2b 103V=1b 103S=2b	54S=2b 71A=2b 88S=2b 104A=1b 105V=1b	24V=1b 38V=1b 38S=2b 55A=2b 55V=1b 72V=1b 72S=2b 89V=1b 89S=2b	
E= 5V=1b 5S=2b 22V=1b 22S=2b 39A=2b 39V=1b 73V=1b 56V=1b 73V=1b 73S=2b 90V=1b 90S=2b	F= 6V = 1b 6S=2b 23A=2b 23V=1b 40V=1b 40S=2b 57A=2b 57V=1b 74A=2b 74V=1b 91V=1b 91S=2b	G= 7A=2b 7V=1b 24V=1b 24S=2b 41A=2b 14V=1b 58V=1b 58S=2b 75A=2b 75V=1b 92V=1b 92S=2b	H= 8A=2b 8V=1b 25V=1b 25S=2b 42V=1b 42S=2b 59A=2b 59A=2b 59V=1b 76A=2b 76V=1b 93V=1b 93S=2b	
I 9A=2b 9V=1b 26A=2b 26V=1b 43V=1b 43V=2b 60A=2b 60V=1b 77V=1b 77S=2b 94S=2b	L= 10A=2b 10V=1b 27V=1b 27S=2b 44V=1b 44S=2b 61V=1b 61S=1b 78A=2b 78V=1b 95A=2b 95V= 1b	M= 11V=1b 11S=2b 28V=1b 28S=2b 45A=2b 45V=1b 62A=2b 62V=1b 79A=2b 79V=1b 96V=1b 96A=2b	N= 12B=1b 12S=2b 29A=2b 29V=1b 46A=2b 46V=1b 63A=2b 63V=1b 80V=1b 80S=2b 97V=1b 97S=2b	
0 13V=1b 13S=2b 30A=2b 30V=1b 47V=1b 47S=2b 64A=2b 64V=1b 81V=1b 81S=2b 98A=2b 98V=1b	Q <sub>1</sub> 14A=1b 14V=1b 31A=2b 31V=1b 48V=1b 48S=2b 65V=1b 65S=2b 82V=1b 82S=2b 99A=2b 99V=1b	Q <sub>2</sub> 15A=2b 15V=1b 32V=1b 32S=2b 49A=2b 49V=1b 66A=2b 66V=1b 83V=1b 83S=2b 100V=1b 100S=2b	Q <sub>3</sub> 16A=2b 16V=1b 33A=2b 33V=1b 50A=2b 50V=1b 67V=1b 67S=2b 84V=1b 84S=2b 101V=1b 101S=2b	Q <sub>4</sub> 17A=2 17V=1b 34V=1b 34S=2b 51V=1b 51S=2b 68A=2b 68V=1b 85V=1b 85S=2b 102A=2b 102V=1b

## **FRAYBURG SAVOLNOMASI YORDAMIDA SHAXS XUSUSIYATLARINI O'RGANISH METODIKASI**

Frayburgning test savolnomasi /FR1/ 1903 yili Y.Farenberg, X.Zarg, R.Rampi kabi tadqiqotchilar tomonidan amalda qo'llanildi. Test birinchi marta 1970 yili, ikkinchi marta 1973 yili nashr qilindi, uchinchi nashri esa 1978 yilda chiqdi.

Bu metodika inson shaxsining ba'zi bir xususiyatlarini tashxis qilish uchun yaroqli bo'lgan ko'p omilli testdir. Bu amaliy va ilmiy tadqiqot maqsadlari uchun muhim manbadir. Savolnoma shaxs omili to'g'risida har tomonlama ma'lumotlar beradi.

Test tadqiq qilinuvchilarning keng ommasiga mo'ljallangan. Ushbu metodikaning qisqartirilgan varianti ham bor. Testni yakka holda yoki guruhliy shaklda qo'llash mumkin. Bajarish uchun vaqt savolnomaning shakliga bog'liq bo'lib u 20 daqiqadan 50 daqiqagacha davom etishi mumkin. Tadqiqot uchun yo'riqnoma, savolnoma va javoblar varaqasi zarur. FHI savolnomasi 12 o'lchamdan iborat.

Savolnomadagi savollar soni 114 ta. Faqat 1-savol hech bir o'lchamga (shkalaga) xos emas, chunki u tekshirish xarakteriga ega. 1-XP shkalalar asosiy shkalalar hisoblanadi.

1- shkala (asabiylashganlik) shaxsni asabiylashganlik darajasini belgilaydi. Yuqori baholar psixosomatik buzilishlar bilan jismoniy zaif kishilarning asabiylashganlik holatiga mos keladi. Bu omilni, psixologik terminlardan foydalanib, uni quyidagicha yanada aniqroq tavsiflash mumkin: asabiylashganlik, asabiy, kasalmand, biror bir holatdan chiqib ketolmaydigan, o'z hissiyotlariga berilgan.

P-shkala (spontan tajovuzkorlik) introtensiv turdagi psixopatik holatni aniqlash va baholashga imkon beradi. Yuqori baholar g'ayri-ixtiyoriy xulqqa ega bo'lgan kishilarga xos xususiyatlarni bildiradi. O'z-o'zidan paydo bo'ladigan (spontan) tajovuzkorlik — bu tajovuzkor, beixtiyor, soddadil, chiqisha olmaydigan, murosasiz deganidir.

SH-shkala (ruhiy siqilganlik) - psixopatologik, ruhiy siqilganlik holatlari uchun xos bo'lgan belgilarga tashxis qo'yish uchun imkon beradi. Yuqori baholar mana shu belgilarning emotsional holatda, o'ziga va ijtimoiy muhitga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'lishini bildiradi. Depressivlik - bu ta'bi xiralik, tortinchoqlik, ishonchsiz, g'amgin, ichki azoblanish xususiyatlari yig'indisidir.

IV-shkala (jizzakilik) emotsional turg'unlikni baholashga imkon beradi. Yuqori baholar emotsionol holatlarning noturg'unligidan darak bsradi. Jizzakilik bu chidamsizlik, beixtiyor asabiylashgan, jiddiy tarang soddadil, injiq demakdir.

V-shkala (dilkashlik) ijtimoiy faollikning imkoniyatlarini va bu xususiyatlarning haqiqiy ko'rinishini ifodalaydi. Yuqori baholar ehtiyojni ta'minlashda doimiy tayyorlikni va muomala ehtiyojining borligidan dalolat beradi.

Do'stonalik - xushmuomalali, dilkashlik, uddaburonlik xususiyatlaridir.

U1- shkala (og'ir, vazminlik ruhiy zarbaga chidamlilikni anglatadi. Yuqori baholar kelajakka ishonch va faollikni; o'ziga ishonchi odatdagi hayotiy holatlarda ruhiy zarba omillari ta'siridan yaxshi himoyalanganligini anglatadi. Mo'tadillik - bu yaxshi kayfiyat, barqarorlik, matonatlik, xotirjamlik, o'z kuchiga ishonch, ishonuvchanlik, faollik demakdir.

UP - shkala (reaktiv tajovuzkorlik) - ekstratensiv tipdagi psixopatik belgilarni namoyon bo'lishini aniqlaydi. Yuqori baholar ustunlikka intilishni va ijtimoiy muhitga tajovuzkorona munosabatni ifodalaydi. Reaktiv tajovuzkorlik bu tajovuzkorona o'z qarashlarini himoya qilish, o'z fikrini himoya qilish, xudbinlik, manmanlik, obro'ga, Yuqoriga, ustunlikka intilish demakdir.

USH - shkala (uyaluvchanlik, tortinchoqlik) insonning xayotiy vaziyatlarda o'zini passiv himoya qilish xususiyatiga moyillikni aniqlaydi. Bu kuchsiz himoyalangan turda o'tadi. Yuqori baholar shkalada xavotirlilik, ishonchsizlik, tortinchoqlik xususiyatlarini mavjudligini ifodalab, bular esa o'z navbatida ijtimoiy munosabatlarga

kirishishni qiyinlashtiradi. O'zini tuta bilish - vazmin, ishonchsiz, uyatchan jonlanuvchi, tahlikaga tushuvchi.

IX-shkala (oshkoralik) o'z-o'zini tanqid darajasini ijtimoiy muhitga munosabatini tavsiflashga imkon yaratadi. Yuqori baholar o'z-o'ziga tanqidning Yuqori darajasidan atrofda kishilar bilan ishonarli oshkora birgalikda katta intilishdan darak beradi. Ushbu shkala bo'yicha baholar sinalayotganing berilgan savolnoma bilan ishlayotganda u yoki bu darajada javoblarning samimiyligini tahlil qilishga imkon yaratadi, bu esa boshqa savolnomalarning yolg'on shkalalariga to'g'ri keladi. Samimiylik xususiyati o'z-o'zini tanqid, oshkoralik, shaxsiy kamchiliklarni va xatolarni tan oladi.

X-shkala (ekstrovertlik va introvertlik). Yuqori baholar shaxsning ekstrovertlik, quyi baholar esa introvertlik xususiyatlariga mos keladi.

Ekstrovertsiya – so'zamolik, jamoat ishlarida faollik yoki aksi, introvertsiya – odamlar bilan aloqadan qochish, passivlik, emotsional beqarorlik.

X1- shkalada (emotsional labillik, o'zgaruvchanlik) Yuqori baholar etarli o'zini idrok qilmaslik, serjahllik, Yuqori qo'zg'aluvchanlik, kayfiyatning tez-tez o'zgaruvchanligida ko'rinadigan emotsional holatning noto'g'riligini ko'rsatadi. Quyi baholar faqatgina emotsional holatning Yuqori barqarorligini tavsiflamasdan, balki o'z-o'zini idrok qila olishni ham ko'rsatadi. Emotsional o'zgaruvchanlik-barqarorlik-emotsional turg'unlik yoki noturg'unlik, kayfiyatning o'zgaruvchanligi, serjahllik, jo'shqinlik, ziqnalik, g'am yoki kelajakka ishonch, xursandchilik.

XP-shkala (maskulinizm-feminizm) - Yuqori baholar ruhiy faoliyatning, xususan, erkaklarga xosligidan guvohlik bersa, quyi baholar ayollarga xosligidan darak beradi.

Mardlik-nazokatilik-faollik, hammadan bilimdon, fahmlash topqirlikdir.

Sinov yakka holda yoki sinaluvchilar guruhi bilan o'tkazilishi mumkin. Sinalayotganlar bir-biriga halaqit bermaydigan holatda joylashtirilishi lozim. Tadqiqotchi tadqiqot maqsadini va savolnoma bilan ishlash qoidasini qisqacha bayon qiladi. Sinalayotganlarning topshiriqlarni bajarishiga ijobiy va qiziqish bilan munosabatda bo'lishlariga erishish muhimdir. Ularning e'tibori ish paytida javoblar bo'yicha maslahatlashishning va o'zaro har xil muhokamaning mumkin emasligiga qaratilmog'i darkor.

Shundan keyin psixolog sinaluvchilarga diqqat bilan yo'riqnomani o'rganib chiqishni tavsiya qiladi, so'ng savollar paydo bo'lgan bo'lsa, ularga javob beradi, savolnoma bilan mustaqil ishlashni taklif etadi.

Natijalar tahlilini tekshiruvchilar to'ldirgan barcha javob varaqalarini birinchi savolga qanday javob berganligini aniqlagan holda qarab chiqishdan boshlash kerak.

Tekshirilayotgan kishi qo'yilgan savollarga ochiqchasiga javob berishni istamasa, tadqiqot amalga oshmagan deb hisoblanishi kerak. Birinchi savolga ijobiy javob olingan taqdirda tadqiqotning natijalari ishlab chiqilgandan keyin Yuqori va quyi baholar ajratiladi.

Sinaluvchiga yo'riqnoma:

Sizning xulqingizga, alohida qilmishlaringizga, odamlarga bo'lgan munosabatingizga, hayotga qarashlaringizga va shunga o'xshash qandaydir xususiyatlaringizga berilgan tasdiq mos keladimi-yo'qmi? Agar shunday moslik bor deb hisoblasangiz «ha» javobini bering, aks holda esa «yo'q» javobini bering. Javoblarni hamma savolga berish zarur.

Tadqiqotning muvaffaqiyati topshiriqning qanchalik e'tibor bilan bajarilganligiga bog'liq. Javoblar berishda, biror kishida yaxshi taassurot qoldirishga intilmaslik kerak, chunki hech bir javob yaxshi yoki yomon deb hisoblanmaydi.

Siz har bir savol ustida uzoq o'ylab o'tirmasdan ikkala javobning qaysi biri sizningcha, har holda nisbiy bo'lsa ham haqiqatga yaqin kelishini hal qilmog'ingiz lozim bo'ladi. Ba'zi bir savollarning o'ta shaxsiyligi sizni tashvishlantirmasligi kerak, chunki tadqiqot har bir savolni, javobni tahlil qilishni nazarda tutmaydi, balki u yoki bu javobning soniga tayanadi.

Bundan tashqari Siz yakka psixologik tadqiqotning natijalari xuddi tibbiyotdagidek keng muhokama qilinmasligini bilishingiz kerak bo'ladi.

**SIZGA MUVAFFAQIYAT TILAYMIZ!**

1.Men diqqat bilan yuriqnomani o'qib chiqdim va hamma savollarga ochiqchasiga javob berishga tayyorman.

2. Kechqurunlari quvnoq davra safida - mehmonda, qahvaxonada vaqtimni chog` qilishni yoqtiraman.
3. Biror kishi bilan tanishganimda har doim suhbat uchun xos bo`lgan mavzuni topishim qiyinligi halaqit beradi.
4. Tez-tez boshim og`rib turadi.
5. Ba`zida chakkamda dukullashni va bo`ynim atrofida tomir urishni his qilaman.
6. Men o`zimni hushimni tez yo`qotaman, shuningdek tez o`zimni qo`lga olaman.
7. Ba`zida bemani latifalardan kulaman.
8. Men bir narsa haqida so`rashdan tortinaman, bilishim kerak bo`lgan narsani boshqa yo`l bilan bilishni ma`qul ko`raman.
9. Mening kelganim sezilmasa, xonaga kirmaslikni ma`qul ko`raman.
10. Shunday injiq bo`lishim ham mumkinki, qo`limga tushgan hamma narsani sindirib tashlashga tayyorman.
11. Atrofdagilar menga e`tiborini qarata boshlashsa, o`zimni noqulay sezaman.
12. Men ba`zida yuragimni xuddi o`lda-julda ishlayotgandek yoki ko`ragimdan chiqib ketgudek bo`lib ura boshlashini his qilaman.
13. Xafa qilganni kechirish mumkin deb o`ylayman.
14. Jahлга jahl bilan javob berish kerak deb hisoblamayman va har doim shunga amal qilaman.
15. Agar men o`tirgan bo`lsam va birdan o`rnimdan tursam ko`z oldim qorong`ulashib, boshim aylanib ketadi.
16. Agar meni deyarli har kuni muvaffaqiyatsizliklar ta`qib qilmaganda, hayotim naqadar yaxshi bo`lishi mumkinligi haqida o`ylayman.
17. O`z qilayotgan harakatlarimda odamlarga to`liq ishonish kerak, degan xulosaga amal qilmayman.
18. O`z manfaatlarimni himoya qilish zarurati tug`ilib qolsa, jismoniy kuch ishlatishdan ham qaytmayman.
19. Eng zerikarli guruhni ham osongina xushchaqchaq qila olaman.
20. Men osongina dovdirab qolaman.
21. Agar mening ishimga ogohlantirish berilsa, bu meni hech qachon xafa qilmaydi.
22. Qo`llarim va oyoqlarim sovuq qotib ketayotganini yoki uvishib qolayotganini tez-tez his qilaman.
23. Boshqa kishilar bilan munosabatda bo`lganimda o`ng`aysizlanaman.
24. Ba`zida hech bir sababsiz o`zimni baxtsiz his qilaman.
25. Ba`zida biror ish bilan shug`ullanishga hech ham xohish bo`lmaydi.
26. Xuddi juda og`ir ishni bajargandek, gohida menga havo etmayotgandek tuYuladi
27. Menga shunday tuYuladiki, o`z hayotimda juda ko`p narsalarni noto`g`ri qilganga o`xshayman.
28. Mening nazarimda boshqalar ko`pincha ustimdan kulishayotgandek tuYuladi.
29. Uzoq o`ylab o`tirmay bajariladigan topshiriqlarni yaxshi ko`raman.
30. O`z takdirimdan norozi bo`lishga etarli asoslarim bor deb hisoblamayman.
31. Ko`pincha ishtaham bo`lmaydi.
32. Bolaligimda ota-onam yoki o`qituvchilarim boshqa bolalarni jazolashganlarida quvonganman.
33. Odatda qarorim qat`iy va tez harakat qilaman.
34. Har doim ham rost gapirmayman.
35. Kimdir yoqimsiz holatdan chiqish uchun intilayotganini qiziqish bilan kuzataman.
36. O`tib ketgan voqealar meni kam tashvishlantiradi.
37. O`z fikrimda turmoqchi bo`lsam barcha vositalarni yaxshi deb hisoblayman.
38. Musht orqali biror narsani isbotlashdan bir arziydigan narsa chiqishini tasavvur qila olmayman.
39. Men bilan janjallashish yo`llarini qidirayotgan odam bilan uchrashishdan qochmayman.
40. Ba`zida hech narsaga yaroqsizdekman.
41. Men har doim qandaydir toliqqan, zo`riqqan holda yurgandekman, mening bo`shashishim qiyin.
42. Ko`pincha ko`ragim ostida og`riq, qornimda har xil yoqimsiz sezgilar paydo bo`ladi.
43. Do`stimni xafa qilganlardan o`ch olishga harakat qilaman.
44. Belgilangan vaqtga kech qolgan paytlarim bo`lgan.



45. Mening hayotimda shunaqa ham bo'lganki nimagadir hayvonlarga azob berishni o'zimga lozim topganman.
46. Eski tanishim bilan uchrashganda xursandligimdan uning bo'yniga osilib olishga tayyorman.
47. Men biror narsadan qo'rqsam og'zim quriydi, qo'l-oyog'im qaltiraydi.
48. Menda tez-tez shunday kayfiyat bo'ladiki, hech narsani ko'rmasam, eshitmasam deyman.
49. Uyquga yotsam odatda bir necha daqiqadan so'ng uxlab, qolaman.
50. Boshkalaming xato-kamchiliklarini ko'rsatish menga orom bag'ishlaydi.
51. Ba`zida maqtanib turaman.
52. Jamoat tadbirlarida faol qatnashaman.
53. Ko'pincha shunday bo'ladiki, xohlamagan uchrashuvdan qutilish uchun boshqa tomonga qarashimga to'g'ri keladi.
54. O'zimni oqlash uchun ba`zida biror narsani o'ylab topaman.
55. Men deyarli har doim harakatdaman va faolman.
56. Men gapirayotgan narsalar ko'p hollarda suhbatdoshlarimga haqiqatdan ham qiziqarli ekanligidan shubhalanib qolaman.
57. Ba`zida birdan ter qoplaganini his kilaman.
58. Agar biror kishidan qattiq jahlim chiqsa, uni urib yuborishim ham mumkin.
59. Kimnidir menga yomon munosabatda bo'lishi, meni kam tashvishlantiradi.
60. Tanishlarimga odatda e'tiroz bildirishim qiyin.
61. Bo'lishi mumkin bo'lgan muvaffaqiyatsizlik haqidagi fikrdan hayajonlanaman va tashvishlanaman.
62. Tanishlarimning hammasini ham yaxshi ko'rmayman.
63. Menda shunday fikr ham bo'lib turadiki, ulardan faqat uyalish kerak.
64. Bilmadim, nima uchundir ba`zida hamma biror narsadan ilhom olayotgan bo'lsa o'sha narsani buzgim keladi.
65. Har qanday odamdan menga kerakli narsani iltimos qilishdan ko'ra, unga majburlab qildirishni afzal ko'raman.
66. Men ko'p hollarda qo'l va oyoqlarimni noqulay harakatlantiraman.
67. Quvnoq davrada bo'lishdan ko'ra, o'zimning sevimli ishim bilan shug'ullanib erkin kecha o'tkazishni afzal ko'raman.
68. Davrada o'zimni uyda tutgandek tutolmayman.
69. Ba`zida o'ylamasdan shunday narsani gapirib qo'yamanki, u haqida yaxshisi jim turgan afzalroq.
70. Xatto tanishlar davrasida ham diqqat markazda bo'lishdan qo'rqaman.
71. Yaxshi tanishlarim juda ko'p emas.
72. Gohida menda shunday taaskurot paydo bo'ladiki, erkin rang, erkin bo'yoq, kuchli shovqin menda yoqimsiz hissiyotlarni uyg'otadi.
73. Menda ko'p hollarda davrada kimnidir xafa qilish yoki jahlini chiqarish istagi paydo bo'ladi.
74. Hayotda turli yoqimsiz narsalarning uchrashi mumkinligini o'ylasam, bundan tug'ilmaganim yaxshi edi deb qolaman.
75. Agar meni kimdir jiddiy xafa qilsa, o'ziga tegishlisini to'liq oladi.
76. Jahlimni chiqarishsa, aytadigan gaplarimdan uyalmayman.
77. Suhbatdoshimga mening shunday savol berishim yoki shunday javob berishim yoqadiki, o'sha vaqtda u o'zini yo'qotib qo'ysin.
78. Zarur bo'lgan ishlarni ham orqaga surgan vaqtlarim bo'lgan.
79. Latifalarni yoki kulguli voqealarni hikoya qilishni yoqtirmayman.
80. Kundalik qiyinchiliklar va tashvishlar o'z muvozanatimni yo'qotishga olib keladi.
81. O'zini noqulay tutgan davradagi odam bilan uchrashib qolsam, o'zimni qo'yarga joy topa olmayman.
82. Hayotdagi mayda-chuydalarga ham jiddiy e'tibor qaratadigan odam bilan ham afsuski munosabatda bo'la olaman.
83. Katta auditoriya oldida so'zga chiqishdan tortinaman.
84. Mening kayfiyatim o'zgarib turadi.
85. Atrofdagilarning ko'pchiligidan ko'ra men tezroq charchayman.
86. Agar men biror narsadan kuchli hayajonlangan yoki achchiqlangan bo'lsam, uni butun tanim bilan

his qilaman.

87.Kallamga keladigan yoqimsiz fikrlardan bezor bo'lib ketaman.

88.Afsuski, meni oilada ham, o'z tanishlarim davrasida ham tushinishmaydi.

89.Agar men bugun odatdagidan kamroq uxlagan bo'lsam, ertasiga o'zimni dam olgandek his qila olmayman.

90. O'zimni shunday tutamanki, atrofdagilar mening noroziligimni paydo qilishdan cho'chisin.

91.Kelajagimga ishonaman.

92. Atrofdagilardan birining yomon kayfiyatini sababchisi bo'lganman.

93. Boshqalarning ustidan kulishdan ham qaytmayman.

94.O'ta sergap odamlar bilan ham muomala qila olaman.

95.Men hamma narsaga oson munosabatda bo'ladigan kishilar toifasidanman.

96.O'smirligimda ta'qiqlangan mavzularga qiziqqanman.

97.Gohida yaxshi ko'rgan kishilarimning dilini og'ritganman.

98.Atrofdagilarning qaysarliklari tufayli ular bilan ko'pincha kelisha olmayman.

99.O'z qilmishlarimdan ko'pincha vijdonim qiynaladi.

100.Men ko'p hollarda parishonxotir bo'laman.

101.Yomon ko'rgan odamimning omadsizligi, meni bezovta qilganligini eslay olmayman.

102. Ko'p hollarda boshqalardan tez ranjiyman.

103. Ba`zida kutilmaganda, o'zim tushunmagan narsalar haqida ishonch bilan gapira boshlayman.

104. Ko'pincha shunday kayfiyatda bo'lamanki, har qanday bahona bilan portlab ketishga tayyor turaman.

105. Ko'pincha o'zimni charchagan va lanj sezaman.

106. Men odamlar bilan suhbatlashishni yaxshi ko'raman va har doim bunga tayyorman.

107. Afsuski, ko'p vaziyatlarda men odamlarga shoshib baho beraman.

108. Ertalab odatda men yaxshi turaman, ko'pincha xushtak chala boshlayman yoki xirgoyi qilaman

109. Muhim muammolarni hal qilishda xatto uzoq mulohazadan so'ng ham o'zimga to'liq ishonchni his qilmayman.

110. Bahsda nimagadir o'zimning tarafdorimdan balandroq ovozda gapirishga intilaman.

111. Umidsizlik menda kuchli tashvish uyg'otmaydi.

112. Birdan lablarimni, tirmoqlarimni tishlaydigan hollarim ham bo'ladi.

113. Yolg'iz qolgan hollarda o'zimni nihoyatda baxtiyor his qilaman.

114. Ba`zida shunday bo'ladiki, hamma bir-biri bilan urushib qolishini xohlab qolaman.

iltimos hamma savollarga javob berganligingizni tekshirib chiqing.

## KALIT

- Asabiylashganlik (hammasi bo'lib 17 savol)

«Ha» - 4, 5, 12, 15, 22, 26, 31, 41, 42, 57, 66, 72, 85, 86, 89, 105

«Yo'q» - 49

P – shkala. O'z-o'zidan paydo bo'ladigan tajovuzkorlik (13 savol)

«Ha» - 32, 35, 45, 50, 64, 73, 77, 93, 97, 99, 103, 12, 114

«Yo'q» - 99

SH – shkala. Ruhiy siqilish (14 ta savol).

«Ha» - 16, 24, 27, 28, 30, 40, 48, 56, 61, 74, 84, 87, 88, 100

«Yo'q» -

U1 – shkala. Serjahllik, serzardalik, jizzakilik (11 savol)

«Ha» - 6, 10, 58, 69, 76, 80, 102, 104, 107, 110

«Yo'q» -

- U – shkala. Muloqotchanlik (16 savol)  
 «Ha» - 2, 19, 46, 52, 55, 94, 106  
 «Yo'q» - 3, 8, 23, 53, 67, 71, 79, 113
- U1 – shkala. Og'irlik, vazminlik (10 ta savol)  
 «Ha» - 14, 21, 29, 37, 38, 59, 91, 95, 108, 111  
 «Yo'q» -
- UP – shkala. O'ta tajovuzkorlik (10 ta savol)  
 «Ha» - 13, 17, 18, 36, 39, 43, 65, 75, 90, 98  
 «Yo'q» -
- USH – shkala. Tortinchoqlik (10 savol)  
 «Ha» - 9, 11, 20, 47, 60, 70, 81, 83, 109
- 1X – shkala. Ochiqlik, oshkoralik (13 savol)  
 «Ha» - 7, 25, 34, 44, 51, 54, 62, 63, 68, 78, 92, 98, 101  
 «Yo'q» -
- X – shkala. Ekstroversiya-introversiya (12 ta savol)  
 «Ha» - 2, 29, 46, 51, 56, 76, 93, 95, 106, 110  
 «Yo'q» - 20, 87
- X1 – shkala. Ta'sirchanlik, o'zgaruvchanlik (14 ta savol)  
 «Ha» - 24, 25, 40, 48, 80, 83, 85, 87, 88, 102, 112, 113  
 «Yo'q» - 59
- XP – shkala. Mardlik-nazokatlik (15 ta savol)  
 «Ha» - 18, 29, 3, 50, 52, 58, 59, 65, 91, 104  
 «Yo'q» - 16, 20, 31, 47, 84

Javob varaqasiga savol nomerining qarshisiga «Ha» yoki «Yo'q» javobi yozib qo'yiladi.

Metodikaning «kaliti»ida har bir shkalaga tegishli bo'lgan savol nomerlari yozilgan. Har bir shkalaning savol nomeriga sizning javobingiz to'g'ri kelsa 1 ball bilan baholanadi.

(«Ha» javobi va «Yo'q» javobi bo'yicha ballar qo'yib hisoblanadi.)

Har bir shkala bo'yicha birlamchi baholar hisoblab chiqariladi.

SHkala raqami	Birlamchi baholar
I	
II	
III	
IY	
Y	
YI	
YII	
YIII	
IX	
X	
XI	
XII	

Bundan so'ng hosil bo'lgan birlamchi baholarni standart baholarga ko'chiriladi. (2-chi jadvalga qarang)

**BIRLAMCHI BALLARNI STANDART BAHOLARGA KO'CHIRISH**

1 ball dan 3 ball gacha bo'lgan baholar quyi  
4 ball dan 6 ball gacha bo'lgan baholar o'rta  
7 ball dan 9 ball gacha bo'lgan baholar Yuqori  
baholar turkumiga (xususiyatlar darajasi) kiradi.

### **XARAKTER TIPINI ANIQLASH METODIKASI (KARL YUNG)**

Berilgan savollarga javob variantlardan birini tanlash kerak

1. Qaysi biri siz uchun muhimroq?
  - a) kichkina do'stlar davrasi;
  - b) ko'pgina o'rtoqlar davrasi.
2. Qanday kitoblar sizga ko'proq yoqadi?
  - a) qiziqarli syujetli;
  - b) odamlar, ruhiy kechinmalar aks etgan.
3. Ishda ko'proq nimaga yo'l qo'yishingiz mumkin?
  - a) kechikish;
  - b) xatoliklar.
4. Agar yomon ish qilib qo'ygan bo'lsangiz?
  - a) juda qayg'urasiz;
  - b) unchalik qayg'urmaysiz.
5. Odamlar bilan qanday chiqishasiz?
  - a) juda tez va oson;
  - b) sekin ehtiyotkorlik bilan.
6. O'zingizni arazkash deb hisoblaysizmi?
  - a) ha;
  - b) yo'q.
7. Chin dildan kulishga moyilmisiz?
  - a) ha;
  - b) yo'q.
8. Siz qandaysiz?
  - a) kamgap;
  - b) sergap.
9. Siz ochiqmisiz yoki hislaringizni birovlardan yashirasizmi?
  - a) ochiqman;
  - b) yashiraman.
10. O'z his kechinmalaringizni tahlil qilishni yoqtirasizmi?
  - a) ha;
  - b) yo'q.
11. Ko'pchilik davrasida bo'lganda siz?
  - a) tinmay gapirasiz;
  - b) boshqalarni tinglaysiz.
12. Tez-tez o'zingizdan norozi bo'lib turasizmi?
  - a) ha;
  - b) yo'q.
13. Biror nimalarni tashkil qilishni yoqtirasizmi?
  - a) ha;
  - b) yo'q.
14. Sirlaringiz yozilgan kundalik tutishni yoqtirasizmi?
  - a) ha;
  - b) yo'q.
15. Biror narsaning qaroridan uni bajarishga tez o'tasizmi?
  - a) ha;

- b) yo'q.  
 16. Kayfiyatingizni tez o'zgartira olasizmi?  
 a) ha;  
 b) yo'q.  
 17. O'zgalarni ishonirib, ularga o'z fikringizni o'tkazishni yoqtirasizmi?  
 a) ha;  
 b) yo'q.  
 18. Sizning harakatlaringiz?  
 a) tez;  
 b) sekin.  
 19. Siz bo'lishi mumkin bo'lgan noxush narsalardan ta`sirlanasizmi?  
 a) tez-tez;  
 b) baz`an.  
 20. Qiyin holatlarda Siz:  
 a) yordam so'rashga shoshilasiz;  
 b) hech kimga murojaat qilmaysiz.

*Natijalarni qayta ishlash*

Javoblar ichidagi quyidagilar ekstroversiyani ko'rsatadi:  
 1b, 2a, 3b, 5a, 6b, 7a, 8b, 9a, 10b, 11a, 12b, 13a, 14b, 15a, 16a, 17a, 18a, 19b, 20a.  
 Mos kelgan javoblar sonini 5 ga ko'paytiring.  
 0-35 ballar – introversiya;  
 36-65 ballar – ambiversiya;  
 66-100 ballar – ekstroversiya.

T/r	A	B	T/r	A	B	T/r	A	B
1			14			27		
2			15			28		
3			16			29		
4			17			30		
5			18			31		
6			19			32		
7			20			33		
8			21			34		
9			22			35		
10			23			36		
11			24			37		
12			25			38		
13			26			39		

***SHMISHEK test – savolnomasi yordamida o'smirlarning xarakter aktsentuatsiyasini aniqlash***

Test – savolnoma negizida K. Leongardning shaxs aktsentuatsiyasi kontseptsiyasi yotadi. Shunga asosan aktsentuatsiyalar – bu har bir insonga xos bo'lgan ba'zi bir individual xususiyatlarning «keskinlashgan, o'tkirlashgan» ko'rinishidir. K.Leongard xarakter va temperamentning o'tkirlashgan xususiyatlarini ajratadi.

Test 10 shkaladan iborat. Ular ro'yxat shaklida 88 savoldan iborat va javoblarning «Ha» yoki «yo'q» ikki variantidan birini tanlab javob berishini nazarda tutadi.

Test o'tkazish uchun standart yo'riqnoma bilan test bukleti, shuningdek, standart javob varaqasi bo'lishi zarur. Javob varaqasiga raqam yoniga sinalayotgan javob variantiga mos tarzda «+» yoki «-» belgilari qo'yadi.

### Kalit bilan savollar ro'yxati.

1. Sen odatda xotirjam, quvnoqmisan? (1).
2. Sen tez xafa bo'lib qolasanmi? (1).
3. Tezda yig`lab yuborishing osonmi? (6).
4. O'z ishingda xato bor-yo'qligini ko'pincha tekshirasanmi?. (4).
5. Sinfdoshlaring singari kuchlimisan? (-2)
6. Xursandchilikdan g`am-andug`ga yoki g`am-andug`dan xursandchilikka oson ko'cha olasanmi? (9).
7. O'yinlarda etakchi bo'lishni yoqtirasanmi? (8)
8. Hech bir sababsiz hammaga jahl qiladigan kunlaring bo'ladimi? (5)
9. Sen jiddiy odammisan? (6)
10. Har doim o'qituvchilar topshirig`ini vijdonan bajarishga intilasanmi? (7)
11. YAngi o'yinlar topa olasanmi? (1)
12. Kimnidir xafa qilgan bo'lsang, tezda unutasanmi? (-7)
13. O'zingni mehribon deb hisoblaysanmi? (6)
14. Pochta qutisiga xat tashlagach, xat pochta qirrasiga tiqilib qoldimikan, deb qo'ling bilan tekshirib ko'rasanmi? (4)
15. Maktabda, to'garakda, sport sektsiyasida eng oldinda bo'lishga intilasanmi? (8)
16. Kichkinaligingda momaqaldiroq va itlardan qo'rqarmiding? (2)
17. Seni o'rtoqlaring o'ta intiluvchan va tartibli deb hisoblashadimi? (4)
18. Sening kayfiyating uydagi va maktabdagi ishlarga bog`liq bo'ladimi? (9)
19. Ko'pchilik tanishlaring seni yaxshi ko'radi, deb aytish mumkinmi? (8)
20. Ko'nglingda notinchlik bo'lib turadimi? (5)
21. Odatda biroz g`amgin yurasanmi? (3)
22. Alam cheka turib, o'kirib yig`laysanmi? (10)
23. Uzoq vaqt bir joyda qolish sen uchun qiyinmi? (1)
24. Senga nohaqlik qilishganda o'z huquqing uchun kurashasanmi? (7)
25. Qachonlardir mushuklarni roгатkadan mo'ljalga olganmisan (-6)
26. Parda yoki dasturxon qiyshiq turgan bo'lsa, achchig`ing chiqadimi? (4)
27. Bolaligingda bir o'zing uyda yolg`iz qolishdan qo'rqarmiding? (2)
28. Sababsiz xursand yoki g`amgin bo'lib turasanmi? (9)
29. Sinfingda eng yaxshi o'quvchining birimisan? (8)
30. Tez-tez vaqtichog`lik, maynabozchilik qilib turasanmi? (-3)
31. Jahling tez chiqadimi? (5)
32. Ba`zida o'zingni baxtiyor his qilasanmi? (10)
33. Bolalarni xursand qila olasanmi? (1)
34. Biror kishi haqida o'ylayotgan fikringning hammasini yuziga ayta olasanmi? (7)
35. Qondan qo'rqasanmi? (6)
36. Maktab topshirilarini sidqidildan bajarasanmi? (-4)
37. Kingadir nohaqlik qilingan bo'lsa, uning yonini olasanmi? (7)
38. Qorong`i bo'm-bo'sh xonaga kirish sen uchun yoqimsizmi? (2)
39. Tez va noaniq ishdan ko'ra, sekinlik bilan aniq bajariladigan ish senga ma`qulmi? (4)
40. Odamlar bilan tez tanisha olasanmi? (9)
41. Kechalarda sidqidildan so'zga chiqasanmi? (5)
42. Uydan qochib ketgan paytlaring bo'lganmi? (5)
43. Bolalar yoki o'qituvchilar bilan bo'lgan janjaldan keyin maktabga bormaslik darajasigacha xafa bo'lganmisan? (3)
44. Hayot senga og`ir tuYuladimi? (3)
45. Muvaffaqiyatsizlikka uchraganingda o'z ustingdan kula olasanmi? (1)
46. Agar janjal sening aybingsiz chiqqan bo'lsa, yarashishga intilasanmi? (-7)
47. Hayvonlarni yaxshi ko'rasanmi? (6)
48. Uydan keta turib, biror narsa qolib ketmadimikan, deb tekshirgani qaytib kirasanmi? (4).

49. Senga yoki sening qarindoshlaringga biror narsa bo'lgandek tuyuladimi? (2)
50. Kayfiyating ob-havoga bog'liq bo'ladimi? (9).
51. Savolga javobni bilsang ham sinfda javob berishga qiynalasanmi? -(8)
52. Agar biror kishidan jahling chiqsa, yoqalashib ketasanmi (5)
53. Bolalar orasida bo'lish senga yoqadimi? (-3)
54. Biror ishni bajara olmasang, umidsizlikka tushasanmi? (10)
55. Ishlarni, o'yinlarni tashkil qila olasanmi? (1)
56. Agar yo'lda qiyinchilikka duch kelgan bo'lsang ham, maqsad sari astoydil intilasanmi? (7)
57. Kino ko'rayotganingda yoki g'amgin kitob o'qiyotganingda yig'laganmisan? (6).
58. Biror tashvishdan uxlashing qiyin bo'ladimi? (4)
59. O'rtoqlaringga darsda pichirlab aytib turasanmi yoki ko'chirib olishga berasanmi? (-7)
60. Qorong'i ko'chadan yolg'iz yurishga qo'rqqasanmi? (2)
61. Har bir narsa joy-joyida bo'lishini kuzatasanmi? (4)
62. Uyquga yaxshi kayfiyat bilan yotib, yomon kayfiyat bilan uyg'onish hollari bo'ladimi? (9)
63. Notanish bolalar davrasida (yangi sinf, lagerda) o'zingni erkin tuta olasanmi? (8)
64. Boshing tez-tez og'rib turadimi? (5)
65. Tez-tez kulib turasanmi? (-3)
66. Agar sen biror kishini hurmat qilmasang, u bilan turganingda uni hurmat qilmasligingni sezdirmasanmi? (8)
67. Bir kun ichida ko'plab har xil ishlarni qila olasanmi? (7)
68. Tabiatni sevasanmi? (7)
69. Uydan keta turib yoki uxlash uchun yota turib eshik qulflanganligini, chiroq o'chirilganligini tekshirasanmi? (2)
70. Senga tez-tez nohaqlik qilishadimi? (6)
71. O'zingni qanday odam deb hisoblaysan, qo'rqqomisan? (2)
72. Bayram stoli oldida kayfiyating o'zgaradimi? (9)
73. Dramatik to'garakka qatnashasanmi, sahnaga chiqishni yaxshi ko'rasanmi? (8).
74. Senda besabab ma'yus kayfiyat bo'lib, bunda hech kim bilan gaplashging kelmaydigan holatlaring bo'ladimi? (5)
75. Kelajakni ma'yuslik bilan o'ylagan holatlaring bo'ladimi? (3)
76. Xursandchilikdan g'amginlikka bexosdan o'tib qolish hollari bo'ladimi? (10)
77. Mehmonlar kayfini chog' qila olasanmi? (1)
78. Uzoq muddat xafa bo'lib Yurasanmi? (7)
79. Agar sening do'stlaring bilan falokat Yuz bergan bo'lsa, qattiq tashvishlanasanmi? (6)
80. Xato tufayli daftar varag'ini qayta ko'chirgan bo'larmiding? (4)
81. O'zingni ishonmaydiganlardan hisoblaysanmi? (7)
82. Tez-tez dahshatli tush ko'rasanmi? (2)
83. Derazadan sakrash yoki mashina tagiga o'zingni tashlash hissi bo'lganmi? (4)
84. Atrofdagilarning hammasi vaqtichog'lik qilayotgan bo'lsa, sening vag'ting ham chog' bo'ladimi? (9)
85. Agar senda ko'ngilsiz voqealar sodir bo'lsa, vaqtinchalik ularni unuta olasanmi, ular haqida doim o'ylamay yura olasanmi? (8)
86. Kutilmaganda o'zingni tutolmasdan qolasanmi va o'zingni odobsizlarcha tuta olasanmi? (4)
87. Odatda kamgap, jim yuradiganlardanmisan? (3)
88. Dramatik tomoshada, rolga shunday kirishib ketib, xatto sahnadagidan boshqacharoq odam ekanligingni unutib qo'lasanmi? (8).

### ***Natijalarni baholash***

Har bir savolga javoblarni belgilab bo'lgandan so'ng, har bir shkalaga tegishli bo'lgan savollarning birlamchi ballari alohida-alohida hisoblab chiqiladi (savol oxirida ushbu savol nechanchi shkalaga tegishli ekanligi ko'rsatiladi. («-» belgisi qo'yilgan raqamlar sizning «yo'q» javobingizga to'g'ri kelsa, 1 ball bilan belgilanadi).

Shkala bo'yicha hosil bo'lgan birlamchi ballar, jadvalda ko'rsatilgan koeffitsientga ko'paytiriladi. Agar hisoblab chiqilganda, ballar 12 balldan oshsa, xarakter aktsentuatsiyasining namoyon bo'lishi ko'rinadi.

S Shkala raqami	Aktsentuatsiya tiplari	Koeffitsient	Birlamchi ballar	Aktsentuatsiya ko'rsat- kichi birlamchi ballar- ning koeffitsientiga ko'paytirilgani
1	Gipertim	3		
2	Xavotirlanuvchi	3		
3	Distim	3		
4	Rasmiy	2		
5	Qo'zg'aluvchan	3		
6	Emotiv	3		
7	Rigid	2		
8	Namoyishkor	2		
9	TSikloid	3		
10	Ekzaltr	6		

Aktsentuallashgan xususiyatlarning o'zaro birgalikdagi kelishi K.Leongard nazariyasiga asoslangan holda maxsus analiz qilinadi. K.Leongardning aktsentuatsiya tiplari insonlarning tevarak-atrofdagilar bilan qanday muloqot qilishlarini aniqlashga xizmat qiladi va o'zgacha (A.E.Lichkoning xarakter aktsentuatsiyasi tiplaridan farqli o'laroq) mustaqil xarakter tiplarini taklif qiladi.

### **1. Gipertim tip**

Bu tipdagi insonlar juda muloqatchan, so'zamol, mimika, pantomimika va jestlarga juda boy bo'ladi. Ular oiladagi va ish joyidagi burchlariga ma'suliyatsizligi tufayli atrofdagilar bilan kelishmovchilikka boradilar. Ushbu tipdagi odamlar boshqalar bilan bo'ladigan kelishmovchiliklarni o'zlari keltirib chiqaradilar, ana shunda atrofdagilar tanbeh berishsa, xafa bo'ladilar. Ularning ijobiy tomonlari harakatchan, biror bir faoliyatga chanqoq, tashabbuskor. Salbiy xususiyatlari: engiltabiat, engil xulq- atvorga moyil, o'ta asabiy, o'z ma'suliyatlariga jiddiy munosabatda bo'lmaydilar.

### **2.Xavotirlanuvchan tip**

Bu tipdagi insonlar muloqotga kirishimsiz, bo'sh, o'ziga ishonmaydigan, ma'Yus kayfiyatda yuruvchilardir. Juda kam holatda atrofdagilar bilan kelishmovchilikka boradilar va unda passiv ishtirok etadilar. Kelishmovchilik holatlarida o'zlariga tayanch va yordam qidiradilar, chunki ular shunga muhtoj bo'ladilar. Ko'pincha ularda do'stlik, o'z-o'zlariga tanqidiy ko'z bilan qarash kabi ijobiy xususiyatlari bilan ko'zga tashlanadilar. Lekin o'zini-o'zi himoya qila olmaganligi tufayli «itning keyingi oyog'i» bo'lib Yuradi. Bunday odamlar hazil uchun manba bo'lib hisoblanadi.

### **3.Distim tip**

Bu tipdagi insonlar muloqotga tez kirishmaydigan, kamgap, pessimistik kayfiyatning ustunligi bilan xarakterlanadilar. Ular asosan uyda o'tirishni afzal ko'radilar, atrofdagilar bilan kamdan kam holatda kelishmovchilikka boradilar, chegaralangan hayot tarzida yashaydilar. Ular o'zlari bilan do'stlashganlarni juda qadrlaydilar va ularga bo'ysinishga tayyordirlar. Ijobiy xislatlari: jiddiy, pok, vijdonli, o'ta adolatli. Salbiy xislatlari: faol emas, fikrlash qobiliyati sust, kam harakat.

### **4.Rasmiy tip**

Kelishmovchiliklarga juda kam holatlarda kirishadi, faol qatnashmaydi. Atrofdagilarga formal talablar qo'yib, xizmatda o'zini byurokrat sifatida tutadi. SHu bilan birga sardorlikni boshqalarga osonlikcha topshiradi. Ba'zida o'ta saranjomlikni da'vo qilish bilan boshqalarning g'ashiga



tegadi. Ijobiy xislatlari: pok vijdonli, saramjon, jiddiy, sinchkov, ishga umid bilan qarovchi. Salbiy xislatlari: serjahl, qog`ozboz, ezma, nasihatgo`y, o`ta rasmiyatchi.

#### **5. Qo`zg`aluvchan tip**

Bu tipdagi odamlar muloqotga kirishimsiz, ularda muloqotning verbal va noverbal turlari sust rivojlangan. Ko`pincha ular qovog`i soliq Yuradilar, surbetlik, janjalkashlik xususiyatlariga moyildirlar, bunga o`zlari shunday muhit yaratadilar. Jamoadagi insonlar bilan chiqisha olmaydilar, oilada hukmronlar. Emotsional turg`un holatlarda ko`pincha vijdonli, saranjom, hayvonlarni va bolalarni sevuvchidirlar. Shuningdek, emotsional qo`zg`aluvchan holatlarda serjahl, jizzaki, o`z xulq-atvorini boshqara olmaydigan xususiyatlarga egadirlar.

#### **6. Emotiv (o`ta hissiyotli) tip**

Bu tipdagi insonlar «yarim gapi»dan ularni tushunib oladigan, ular bilan yaxshi munosabatlar o`rnatadigan, tanlangan, tor doiradagi odamlar bilan muloqotda bo`lishni xush ko`ruvchilardir. Kelishmovchiliklarga kamdan-kam sababchi bo`ladilar va bunda passiv ishtirok etadilar. Ichlarida kek saqlaydilar. Ijobiy xususiyatlari – mehribon, hamdard, o`zgalarning muvaffaqiyatlariga sherik, o`z burchlariga o`ta sodiq. Salbiy tomonlari – o`ta hissiyotli, yig`loqi.

#### **7. Rigid (o`zgarmas) tip**

Ushbu tip xususiyatlariga xos odamlar muloqotga o`rtacha kirishimli, nasihatgo`y, ko`pincha kam gapiradilar. Kelishmovchiliklarda ular tashabbuskor bo`lib faol qatnashishga harakat qiladilar. Bu insonlar o`zlariga talabchan. Ayniqsa, ijtimoiy adolatni chuqur his etadigan, shu bilan birga ko`ngli nozik, arazchi, shubha bilan qarovchi, qasoskordirlar. Ba`zida o`zlariga juda ishonuvchan, haqiqatgo`y, rashkchi hamdirlar, qo`l ostidagi insonlarga va yaqinlarga o`ta talabchandir.

#### **8. Namoyishkor tip**

Bu tipdagi insonlar boshqalar bilan osonlikcha muloqotga kirishib ketish, sardorlikka intilish, lavozim va maqtovlarga chanqoqlik xususiyatlari bilan tez kirishib keta olish xususiyatini namoyish qila oladi, shu bilan birga ikki Yuzlamachilikka moyil. Bu tipdagi insonlar o`ziga o`ta ishonuvchanliklari va o`zlarini katta tutishlari bilan kelishmovchiliklar keltirib chiqaradilar, lekin bunda faol himoya qila oladilar. Suhbatdosh uchun muloqotda yoqimli xususiyatlari: turli vaziyatlardan chiqib ketishlik, artistlik, boshqalarni o`ziga jalb qila olishlik. O`zidan itaruvchi sifatleri: egoistlik, laganbardorlik, maqtanchoqlik, ishyoqmaslik.

#### **9. TSikloid tip**

Bu tipdagi insonlarning kayfiyatleri tez-tez o`zgarib turishi natijasida, atrofdagilarga bo`lgan munosabati ham o`zgaruvchandir. Ular shu paytda o`zlarini gipertimlarga o`xshab tutadilar. Ko`tarinki kayfiyatda bo`lganlarida muloqotga kirishuvchan, tushkunlik kayfiyatda muloqotga kirishmaydigan, indamas xususiyatlarga egadirlar. Shunday kayfiyatda distim tipdagilarga o`xshab ketadilar.

#### **10. Ekzaltr tiplar**

Bu tipdagi insonlar muloqotga o`ta kirishimli, sergap, ko`ngilchan. Ko`pincha bunday odamlar bahslashadilar, lekin baxsni ochiqdan-ochiq kelishmovchiliklarga olib bormaydilar. Kelishmovchilik vaziyatlarda ham passiv, ham aktiv bo`lishlari mumkin. Shu bilan birga ular do`tlari va yaqinlariga g`amxo`r, mehribon va ularga bog`lanib qolganlar.

#### **8.4. Shaxs psixodiagnostikasida ob`ektiv va situatsion testlardan foydalanish muammolari**

Shaxs psixodiagnostikasida foydalaniladigan metodlarni uch nuqtai nazardan qarab chiqish mumkin.

1. "Ob`ektiv nuqtai" nazar – diagnostika faoliyatni bajarishning usullari(xususiyatlari) va muvaffaqiyati (natijaliligi) asosida amalga oshiriladi.
2. "Sub`ektiv" nuqtai nazar – diagnostika o`zi haqida beriladigan ma`lumotlar, shaxs o`zining xususiyatlari, u yoki bu vaziyatdagi xulq-atvorini tavsiflash asosida amalga oshiriladi.
3. "Proektiv" nuqtai nazar - diagnostika tashqi neytral, shaxsga taalluqli bo`lmagan ma`lum ma`noda noma`lumligi tufayli proektsiya ob`ekti bo`lgan material bilan o`zaro ta`sir xususiyatlarini tahlil qilish asosida amalga oshiriladi.

Inson individualligi ko'rinishlarini diagnostika qilishdagi obektiv nuqtai nazar ikki xil metodikalarning hosil bo'lishiga olib keldi. Bular shaxs testlari va intellekt testlaridir. Ulardan birinchisi insonning intellektual bo'lmagan xususiyatlarini aniqlashga mo'ljallangan. Ikkinchisi esa uning intellektual darajasini aniqlashga qaratilgan. SHaxs testlarini harakat testlari (maqsadga yo'nalgan shaxs testlari) va vaziyatli testlarga ajratish mumkin. Intellektual rivojlanish darajasini diagnostika qilish ko'pgina intellekt testlari yordamida amalga oshiriladi. Ob'ektiv nuqtai nazar doirasida yana ikki gruruh testlarni ajratish mumkin: Bular maxsus qobiliyatlar testlari va yutuqqa erishish testlari. Sub'ektiv nuqtai nazarda ko'proq so'rovnomalarda o'tkaziladi, proektiv nuqtai nazar shaxsni o'rganishning proektiv metodikalari yordamida amalga oshiriladi.

### 8.5. Shaxsning qadriyatlar yo'nalishini diagnostika qilish

#### ROKICH METODIKASI

1-javob varaqasi (terminal qadriyatlar)

Yo'riqnoma: Quyida odamlar o'z hayotida ko'zlaydigan asosiy maqsadlar ro'yxati berilgan. Ularning har biri shaxsan siz uchun qanchalik muhim? Muhimlik darajasini 5 balli tizimda baholang.

Bunda «1» - eng past ball, «5» - eng Yuqori ball bo'ladi.

T.r.	Hayotiy maqsadlar (qadriyatlar) mazmuni	ball 1 dan 5 gacha
1	Fikrlash va xulosa chiqarishdagi mustaqillik	
2.	O'z-o'ziga ishonch (ichki shubha va gumonlardan xoli bo'lish).	
3.	Moddiy ta'minlanganlik (hayotda moddiy qiyinchiliklarning yo'qligi).	
4.	Sog'liq (jismonan va ruhiy).	
5.	Huzur-xalovat (vaqtichog'lik, aysh-ishrat).	
6.	Qiziqarli ish.	
7.	Muhabbat (sevgan kishi bilan ma'naviy va jismoniy yaqinlik).	
8.	Harakat va faoliyatdagi erkinlik.	
9.	Go'zallik (tabiat va san'atdagi go'zallikni his etish).	
10.	Sodiq va vafoli do'stlar.	
11.	Bilish (bilim olish, aqlni charxlash imkoniyati).	
12.	Baxtli oilaviy hayot.	
13.	Ijod (ijodiy faoliyat imkoniyati).	
14.	Ko'pchilik tomonidan tan olinish (hurmat qozonish).	
15.	Faol qizg'in hayot .	
16.	Tenglik (barcha uchun imkoniyatlar tengligi).	

2-javob varaqasi  
(terminal qadriyatlar)

Yo'riqnoma: Quyida shaxsga xos asosiy xususiyatlar ro'yxati berilgan. Ularning har biri siz uchun qanchalik muhim? Muhimlik darajasini 5 balli tizimda baholang.

Bunda «1» - eng past ball, «5» eng Yuqori ball bo'ladi.

t.r.	Shaxs xususiyatlari (qadriyatlar sifatida)ning mazmuni	5 dan 1 gacha ball
1.	O'ziga katta talablar qo'yish	
2.	E'tiborlilik (g'amxo'rlik)	
3.	Tarbiyalanganlilik (xushxulqlik, odoblilik)	
4.	Ishda samaradorlikka erishuvchanlik (mehnatsevarlik,	

	ishdagi mahsuldorlik, ishda muvaffaqiyatga erishuvchanlik)	
5.	Shaxsiy fikrlarni himoya qilishda jasurlik	
6.	Aytilgan ishlarni bekamu ko'st bajarish (intizomlilik)	
7.	Haxsiy kamchiliklarni, boshqalarning kamchiliklarini kechirmaslik	
8.	Masalaga har tomonlama qaray olish (boshqalarning nuqtai nazarini tushuna olish, o'zgacha did, odatlarni hurmat qilish)	
9.	Xalollik (rostgo'ylik, samimiylik)	
10.	Ma'lumotlilik (keng bilimlarda Yuksak madaniy daraja).	
11.	O'z-o'zini boshqara olish (bosqlik, tartiblilik)	
12.	Bag'rikenglik (boshqa odamlarning xato va kamchiliklarini kechira olish)	
13.	Mustahkam iroda (qiyinchiliklar oldida chekinmaslik)	
14.	Ratsionalizm (oqil va mantiqiy fikrlash, yaxshilab o'ylab qaror qabul qilish)	
15.	Ma'suliyat (burch hissi, va'daning ustidan chiqish)	
16.	Hayotdan zavqlanish (Yumor hissi)	

Natijalarni qayta ishlash va ularni talqin etish.

Eng avvalo qadriyatlar orientatsiyasi (QO) psixologik mexanizmining shakllanganlik darajasi, ya'ni o'quvchilarning qadriyatlarni tanlay olishga qodirligini aniqlash kerak. O'quvchilarning bunday qobiliyati ularning qadriyatlarga qo'ygan baholari xilma-xilligida namoyon bo'ladi. Agar sinaluvchilar qadriyatlarni baholashda 5 balli tizimdagi barcha ballardan foydalansalar, demak ularda differentsiatsiyalashning psixologik mexanizmi shakllangan bo'ladi. Bordi-yu, ular qadriyatlarni baholashda asosan 2 ta ballni (masalan 4 va 5ni) qo'llasalar, bu differentsiatsiyalash mexanizmi xali shakllanishning ilk bosqichida ekanligini anglatadi. Agar sinaluvchilar baholashda umuman faqat bitta balldan foydalansalar, ularda QO ning psixologik mexanizm sifatida differentsiatsiya qobiliyati shakllanmagan bo'ladi. Shu tariqa psixologik mexanizmning shakllanganligiga ko'ra sinaluvchilar uch guruhga ajratilishi mumkin:

- 1) QOning differentsiatsiyalashgan tarkibi shakllangan o'quvchilar;
- 2) QO ning differentsiatsiyalashgan tarkibi endi shakllana boshlagan o'quvchilar;
- 3) QO ning differentsiatsiyalashgan tarkibi shakllanmagan o'quvchilar.

## I.G. SENINNING «QADRIYATLAR YO'NALISHLARI» SO'ROVNOMASI<sup>9</sup>

Qo'llanma: "Kishining har xil istak va xohishlarini aks ettiradigan savollar diqqatingizga havola etiladi. Har bir savolni yaxshilab o'qing va uning mazmunini o'zingizga qiyoslab ko'ring. Javob variantlari quyidagicha:

1. Men uchun hech qanday ahamiyati yo'q.
2. Unchalik muhim emas.
3. Ma'lum ahamiyatga ega.
4. Muhim, zarur.
5. Juda muhim, ehtiyojiy zarur.

<sup>9</sup> Qodirov B.R., Qodirov K.B. Kasbiy tashxis metodikalari to'plami.-T.:O'zMU.2003. B.32-47.

Bilingki, bu erda yaxshi yoki yomon, to'g'ri yoki noto'g'ri javoblar yo'q. Eng to'g'ri javob chin ko'ngildan, xolisona berilgan javobdir. Shu sababli barcha savollarga o'ylab, haqqoniy javob berasiz, degan umiddamiz".

Marhamat, boshladik.

1. Biror ishimga atrofda gilarining yuqori baho berishi.
  2. Ish joyim orqali har xil kamyob narsalarga ega bo'lish.
  3. Barchaning hurmatiga sazovor bo'lish uchun o'qib, ilm olish.
  4. Ish faoliyatimda ixtirochi bo'lish. yangilikka intilish.
  5. Ko'p o'qish, ko'proq ma'lumotga ega bo'lish evaziga farovon hayot manbaiga erishish.
  6. Oilam a'zolarining meni hurmat qilishlari.
  7. Hamkasblarim bilan bajarilayotgan ish xususida tez-tez maslahat olib, suhbatlashib turish.
    8. O'rganayotgan bilim sohamda biror bir yangilik yaratish.
  9. Oilamning boy-badavlat hayot kechirishi.
- 
10. Atrofdagilarining nazariga tushadigan darajada ijtimoiy-siyosiy voqealardan xabardor bo'lish.
  11. Kasbiy mahoratimni doimiy ravishda oshirib borish.
  12. Har xil odamlar bilan faol muloqotda bo'lish uchun yuqori ma'lumot darajasiga ega bo'lish.
  13. Uy sharoitining ko'rinishini doimo o'zgartirib, yangilab turish.
  14. Jamoat ishlarida faol qatnashib, moddiy mukofotlar olish.
  15. Havas va qiziqishlarim bilan atrofimdagilarni hayratga solish.
  16. Kasbiy faoliyatimda katta yutuqlarga erishish.
  17. Olgan bilimlarimni tinimsiz rivojlantirish, keng doiradagi ilmiy ma'lumotga ega bo'lish.
  18. Oilada etakchi bo'lish, muloqotchanlik muhitini yaratish.
  19. Jamiyat hayotiga har xil yangiliklar kiritish, odamlarda yangicha ong, yangicha fikrni shakllantirish.
  20. Bo'sh vaqtlarimda daromad keltiradigan ishlar bilan shug'ullanish.
  21. Obro'-e'tibor keltiradigan kasb sohasida ishlash.
  22. Biror ishni boshlagach, unga chin qalbdan, berilib ishlash.
  23. Biror sohada ta'lim olib, katta muvaffaqiyatlarga erishish.
  24. Oilamda har xil tushunmovchiliklarga yo'l qo'ymaslik uchun boshqa oilalardagi voqealarni sinchkovlik bilan o'rganish.
  25. Ijtimoiy hayotning yanada qiziqarli bo'lishi uchun odamlarni bir-biriga birlashtirish, hamjihatlikni yo'lga qo'yish.
  26. Bo'sh vaqtimda ilgari mavjud bo'lmagan biror yangi narsani ixtiro etish.
  27. Ish sharoitidan foydalanib, shaxsiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish.
  28. Ilmiy darajalar va unvonlarga ega bo'lib, obro'-e'tibor qozonish.
  29. Boshqa kasblardan ijobiy farq qiladigan o'ziga xos kasb sohasida ishlash.
  30. Chin yurakdan berilib o'qish, ilm olish.
  31. Farzandlarimning har tomonlama rivojlanishi, tengdoshlaridan ustun bo'lishi.
  32. Jamoat ishlari bilan shug'ullanib, tashkilotchilik qobiliyatimni rivojlantirish.
  33. Qiziqishlarim doirasida o'rtoqlarim bilan birgalikda biror bir to'garakka, klubga a'zo bo'lish.
  34. Kasbiy faoliyatimda har xil ish uslublarini sinab ko'rish.
  35. O'qigan soham bo'yicha qo'shimcha moddiy ta'minlanish imkoniyati (masalan, har xil pullik mukofotlar, grantlar yoki tanqis mollar uchun alohida imtiyozlar).
  36. Turmush o'rtog'inning obro'-e'tiborli oiladan bo'lishligi.
  37. Oddiy kishilardan farq qilish uchun tinmay o'qib, ilm olish.
  38. Farzandlarimni ma'naviyati butun va to'g'riso'z insonlar qilib tarbiyalash.
  39. Aniq maqsadlar bilan jamiyat hayotida faol ishtirok etish.
  40. Bo'sh vaqtlardagi qiziqishlarimda butun qobiliyatlarimni namoyon qilib, o'z ustimda ishlash.
  41. Odamlar bilan tez-tez muloqotda bo'lish imkoniyati bo'lgan kasb sohasida ishlash.
  42. Ilm-fanda yangi, qiziqarli kashfiyotlar qilish, ilmiy unvonlar olish.
  43. Turmush o'rtog'im oladigan maoshining Yuqori bo'lishi.
  44. Biror tashkilotga rahbarlik qilib, obro'-e'tiborli bo'lish.
  45. Ko'pchilikning fikriga qarshi bo'lsa ham oilaviy hayotda o'z qarashlarimga tayanish.
  46. Jamoat ishida faol ishtirok etib, ma'naviy ozuqa olish.

47. Qiziqishlarim doirasidagi maqsadlarimga tezroq erishish.
48. Kasbiy vazifamni yuqori saviyada bajarish.
49. Turli ilmiy muammolarni hal etishga qaratilgan anjumanlarda faol qatnashish.
50. Oilani boshqarish, bola tarbiyalashning har xil usullarini o'ylab topish.
51. Jamiyatda o'z o'rnimni topib, badavlat yashash.
52. Havas va qiziqishlarim doirasida erishgan yutuqlarim bilan mag'rurlanib yurish.
53. Ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashimda o'zgalarning ta'siriga berilmaslik, o'z qarashlarimga ega bo'lish.
54. Bo'sh vaqtlardagi mashg'ulotlarim bilan butunlay berilib shug'ullanish.
55. Kasbiy faoliyatimda aniq maqsadlar sari intilib, tez orada ularga erishish.
56. O'qish, ta'lim olish jarayonida aqliy qobiliyatlarimni rivojlantirish.
57. Oilam a'zolarining to'y-ma'rakalarda, turli bayram va marosimlarda faol qatnashishi.
58. Jamiyatimiz taraqqiyotiga, uning iqtisodiy va ma'naviy yuksalishiga yangi taklif va g'oyalarim bilan hissa qo'shish.
59. Shaxsiy qiziqishlarimni moddiy boylik keltiradigan faoliyatga qaratish.
60. Mening havas va qiziqishlarim o'zimga xos xislat va qobiliyatlarimni aks ettirishi.
61. Qaysi kasb egasi bo'lmayin, u mazmunli, odamlar uchun foydali, halol bo'lsin.
62. Ilmiy daraja yoki unvon olish uchun aniq reja asosida harakat qilish.
63. Ahil hayot kechirish uchun turmush o'rtog'imning fe'l-atvorini tushunish va unga moslashish.
64. Jamiyat hayotida faol qatnashish, tajribali odamlar bilan hamkorlik qilish.
65. Bo'sh vaqtlarimda har xil qiziqarli, ijodiy ishlar bilan shug'ullanish.
66. Ish faoliyatimda o'zimning uslubimga ega bo'lish.
67. Ma'naviy dunyomni boyitish uchun ilm bilan shug'ullanish.
68. Oilaviy hayotimni obdon rejalashtirish.
69. Jamoat ishlari jarayonida odamlarni o'z fikrlarimga iqror etishni, ishontira olishni o'rganish.
70. Bo'sh vaqtlarda do'stlar bilan hamkorlikda qiziqqan mashg'ulotlarim bilan band bo'lish.
71. O'qish va ta'lim olishda boshqa kishilar bilmagan, «tesha tegmagan» bilimlarni egallash.
72. Oilaga nisbatan halol va sadoqatli bo'lish.
73. Ijtimoiy va tashkilotchilik faoliyatimda katta yutuqlarga erishish.
74. Havas va qiziqishlarimning doimiy ravishda ko'payib, rivojlanib turishi.
75. Farzandlarimda mustaqil dunyoqarash, o'zlariga xos fe'l-atvorning mavjud bo'lishi.
76. Jamiyat hayoti uchun foydali inson bo'lish.
77. Bo'sh vaqtlarimdagi mashg'ulotlarimni obdon o'ylab, aniq rejalashtirish va muvaffaqiyatlarga erishish.
78. Jamoatchilik orasida o'zimga xos mavqega, o'z fe'l-atvorimga ega bo'lish.
79. Bo'sh vaqtimning ko'proq qismini yoqtirgan mashg'ulotlarim bilan o'tkazish.
80. Yaqin-atrofdan hech kim shug'ullanmagan, o'ziga xos va noyob mashg'ulotlar bilan band bo'lish.

## JAVOB VARAQASI

Familiya				Ism	
1					1 Hech qanday ahamiyati yo'q.
2	3				2 Unchalik muhim emas.

4	5	6			3 Ma`lum ahamiyatga ega. 4 Muhim zarur 5 Juda muhim ehtiyoji zarur						
7	8	9	10								
11	12	13	14	15							
16	17	18	19	20	21						
22	23	24	25	26	27	28					
29	30	31	32	33	34	35	36				
1	37	38	39	40	41	42	43	44			
2		45	46	47	48	49	50	51	52	I	
		3	53	54	55	56	57	58	59	2	
			4	60	61	52	63	64	65	3	
			5		66	67	68	69	70	4	
1-6					6	71	72	73	74	5	
	2-7						7	75	76	77	6
		3-8					8	78	79	7	
		4-9						9	80	8	
		5-10							10		

Shunday qilib, ushbu mavzuda shaxs haqida tushuncha, shaxsni o'rganish uchun qo'llaniladigan asosiy psixodiagnostik vositalar, so'rovnomalar, shaxsning qadriyatlar yo'nalganligini aniqlash metodikalari bilan tanishdik.

**Laboratoriya mashg'uloti uchun topshiriqlar:**

“Xavotirlanish darajasini aniqlash” va “Empatiya darajasini aniqlash” metodikasini 5 nafar sinaluvchida o'tkazib, psixologik tavsif yozish.

**Mavzu Yuzasidan nazorat savollari**

1. Inson va shaxs tushunchalari o'rtasidagi tafovut bormi?
2. Shaxs xususiyatlarini aniqlash uchun qo'llaniladigan qanday metodikalarni bilasiz?
3. Shaxslararo munosabatlarning mohiyati nimadan iborat?
4. Shaxslararo munosabatlarni diagnostika qilish usullarining o'ziga xosligi nimalarda ko'rinadi?
5. Sosiometriya metodining mazmuni va qo'llanilishida qanday talablarga rioya qilinadi?
6. Individual-psixologik xususiyatlarni o'rganishda qanday metodlardan foydalaniladi?
7. Ayzenk testini necha yoshdagi tekshirilvchilarga qo'llash mumkin?

**IX.SHAXS PSIXODIAGNOSTIKASIDA PROEKTIV METODIKALARDAN FOYDALANISH**

### **Reja:**

- 9.1. Proektiv metodikalar haqida umumiy tushuncha.
- 9.2. Proektiv metodikalarning asosiy guruhleri.
- 9.3. "Rorshax siyoh dog'lari" proektiv metodikasi.
- 9.4. "Rozentsveyg frustratsiya testi" proektiv metodikasi.
- 9.5. "Lyusher ranglarni tanlash testi" proektiv metodikasi.

### **Maqsad:**

Talabalarda proektiv metodikalar haqida tushuncha hosil qilish.

### **Vazifa:**

Talabalarda proektiv metodikalar haqida dunyoqarashini rivojlantirish orqali mutaxassis sifatida shaxsini shakllantirish.

### **Tayanch tushunchalar:**

proektiv metodikalar, Rorshaxning siyoh dog'lari, Rozentsveyg va Lyusher testlari

#### **9.1. Proektiv metodikalar haqida umumiy tushuncha**

Psixologiya fani va amaliyotida shaxsni o'rganishning proektiv metodikalari alohida o'ringa ega. Uning yuzaga kelishi va rivojlanishida shaxs, uning ichki dunyosini bilish imkoniyati haqidagi g'oyalarga bo'lgan psixologik qarashlar evolyutsiyasi aks etadi. Yarim asrlik rivojlanish tarixiga ega proektiv psixologiya bugungi kunda inson haqidagi psixologik bilim sohalaridan biri bo'lib, uni o'zlashtirmay shaxs haqidagi yaxlit tasavvurlarni shakllantirish mumkin emas. Shaxsni tadqiq qilishning proektiv metodi proyektsiyalarni aniqlash va tasvirlashga asoslangan.

«Proyektsiya» tushunchasi dastlab Z. Freyd tomonidan sub'ektning ongli va ongsiz tarzda ko'chirilgan shaxsiy xususiyatlari, tashqi ob'ektlarga nisbatan holatlarning mazmunini ifodalash uchun qo'llanilgan. Proyektsiya lotincha «proektio» so'zidan olingan bo'lib, oldinga irg'itish, tashlash ma'nosini bildiradi. Shaxsni o'rganishning proektiv metodi eksperiment natijalariga asosan proyektsiyalarni aniqlash va so'ngra ularni tahlil qilishni ko'zda tutadi.

Proyektsiya tushunchasini tavsiflash «Men»ning himoya mexanizmlari bilan uzviy bog'liq. Proyektsiya sublimatsiya, ratsionalizatsiya, siqib chiqarish bilan bir qatorda himoya mexanizmlaridan biri sifatida qaraladi.

Proektiv metodlar yordamida inson proyektsiyalarining psixologik mexanizmlari o'rganiladi. G. S. Friman proyektsiyani:

- 1) Ongsizlik holati, yani insonning bu holatda boshqa kishilarning g'oya, qarash, istak, emotsiya yoki xarakter xislatlarini o'ziga olishi sifatida;
- 2) O'z shaxsiy ehtiyojlarini boshqalarga ko'chirish sifatida;
- 3) Qandaydir tajribaga asoslangan noto'g'ri xulosa chiqarish sifatida qaraydi.

Proektiv metodlar tekshiriluvchini shunday holatga qo'yadiki, bunda uning shaxsiy ehtiyojlari, uning o'ziga xos idroki, tavsiflari va ko'pgina xarakter xislatlari namoyon bo'ladi. Proyektsiya so'zli assotsiatsiyalar, tugallanmagan jumlalar, rasm va dog'lar, tekshiriluvchining chizgan rasmlari kabi verbal hamda rasmlil metodlarning barchasini qo'llaganda kuzatiladi.

Proyektsiya voqelikni, odamlarni, namoyon qilingan stimullarni idrok etish muayyan darajada shaxsning psixik holati, ehtiyoj, motiv, ustanovkalariga asoslangan. Bunda voqelikni shaxsning psixik holati, ehtiyojlari, xususiyatlariga mos ravishda tavsiflash tendentsiyasi mavjud. Proyektsiya anglanmagan psixologik mexanizm hisoblanadi, ya'ni proyektsiya elementlari ongsiz tarzda idrok qilinadi.

Proektiv metodikalarning asosiy, o'ziga xos xususiyati - foydalaniladigan stimullarning ko'p ma'noli, noaniq ekanligidir. Biroq, tekshiriluvchiga tavsifa qilinadigan stimul (rasm, rang, dog', verbal informatsiya bo'lishidan qat'iy nazar) noaniq, ko'p ma'noli ekanligiga qaramay ob'ektiv xarakterga ega va sub'ekt tomonidan yaratilgan obraz yoki Yuzaga kelgan vaziyatga kiritiladigan muayyan xususiyatlarga ega. Olingan natijalar tekshiriluvchi shaxsi haqidagi bilimlar, uni psixologik jihatdan chuqur o'rganish asosida, shuningdek, psixodiagnostikaning boshqa metodlarini qo'llagan holda tavsiflanishi zarur.

Proektiv metodikalar tarixi 1904-1905 yillarda K.Yung tomonidan yaratilgan so'zli assotsiatsiyalar testiga borib taqaladi. Bu metodikani yaratish bilan Yung shaxsning ongsizlik

holatidagi kechinmalarini assotsiativ diagnostika qilish mumkinligini ko'rsatib berdi. Keyinchalik assotsiativ testning turli variantlari aybdorlik hissini aniqlash (yolg'on detektor, M.Vertgaymer va L.R.Luriya), normani patologiyadan ajratish va boshqalar uchun qo'llanildi. Tugallanmagan hikoya yoki gap testi ham Yungning assotsiativ testidan kelib chiqqan deb hisoblanadi.

Proektiv metodikalar (lot.projectio -oldinga otish)- proektiv diagnostik nuqtai nazar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, shaxsni o'rganishga yo'naltirilgan metodikalar majmuidir. Dastlab **1939 yilda L.Frank** bu metodikalarni belgilash uchun proektsiya tushunchasini kiritgan, bu tushunchani o'zgartirishga bir necha urinish bo'lishiga qaramasdan psixologik diagnostika fanida barcha tomonidan e'tirof etildi.

Proektiv metodlarning muhim belgisi shundan iboratki, bunda aniq bo'lmagan, bir xil tuzilmagan stimullardan foydalaniladi. Sinaluvchi uni qayta qurishi, rivojlantirishi, to'ldirishi, sharhlashi zarur. Proektiv farazga mos ravishda individumning har bir hissiyoti, uning idroki, his-tuyg'ulari, fikrlari, harakatlarida shaxsning izini qoldiradi. Insonni faollika undovchi stimulyaziyatlar qanchalik kam stereotip bo'lsa, shaxs o'zini shunchalik yorqinroq namoyon qiladi. Proektiv metodikalardagi stimullar nafaqat uning ob'ektiv mazmuniga ko'ra ahamiyatga ega bo'lmaydi, sinaluvchi uchun shaxsiy ma'nosiga ko'ra ham ega bo'ladi. Ana shundan proektiv metodikalar uchun xos bo'lgan javoblarni to'g'ri yoki noto'g'ri deb baholash xos emas.

Proektsiyani shunday tushunish uni psixoanalitik talqin qilishdan tubdan farq qiladi. Psixoanaliz projektsiyani himoya mexanizmlaridan biri deb hisobladi. Bunda "Men" uchun hos bo'lgan ichki impulslar va hissiyotlar tashqi ob'ektga yo'naltiriladi, tevarak atrofnı o'zgartargan holda idrok qilish sifatida onnga kirib boradi.

Stimul vaziyati bilan bog'liq projektsiya jarayonini dastlab **G.Myurrey** tavsiflagan. Myurreyning ta'kidlashicha, projektsiya insonning o'z qiziqishlari, ehtiyojlari ta'siri ostida harakat qilishi tabiiy holati bilan bog'lanadi. Uning fikricha, himoya mexanizmlari projektsiya jarayonida namoyon bo'lishi ham, namoyon bo'lmasligi ham mumkin.

XX asrning 40-yillarida g'arb psixologiyasi"da "proektiv harakatlar" rivojlandi. Proektiv metodikalar psixodiagnostikada keng ommalashadi, an'anaviy psixodiagnostik testlar ikkinchi darajaga siqib chiqariladi. Hozirgi vaqtda g'arb psixologiyasida shaxsni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda, ayniqsa klinik psixodiagnostika sohasida keng qo'llanilmoqda. Bunga misol sifatida dunyoning ko'p davlatlarida tashkil etilgan maxsus ilmiy institut va jamiyatlar, faqatgina proektiv metodikalarga bag'ishlangan davriy nashrlar, to'plamlar va monografiyalar, doimiy ravishda o'tkaziluvchi xalqaro konferentsiyalar misol bo'ladi. 1996 yili proektiv metodikalarga bag'ishlangan 15 xalqaro kongress bo'lib o'tgan.

## 9.2.Proektiv metodikalarning asosiy guruhları

Proektiv metodikalarning quyidagi guruhları farqlanadi.

- 1) konstitutiv – stimolni bezash, unga ma'no berish.(Rorshax testi);
- 2) konstruktiv – bezatilgan qismlardan ma'noli bir butunlikni yaratish ( Mira testi);
- 3) interpretativ- qandaydir voqeani, hodisani sharhlash (Tematik appertseptsion test);
- 4) katartik – maxsus tashkil etilgan sharoitlarda o'yin faoliyatini amalga oshirish(Psixodrama);
- 5) Ekspressiv – erkin yoki berilgan mavzu bo'yicha rasm chizish ("Uy-daraxt –odam" testi;
- 6) Impressiv –boshqalariga nisbatan qaysidir stimolni afzal ko'rish (Lyusherning ranglarnı tanlash testi).
- 7) Additiv – gapni, hikoyani, tarixni tugallash.("Tugallanmagan gaplar" metodikasi.

Proektiv metodikalarnı tanqid qiluvchilar ularning etarlicha standartlashtirilmagani va eksperimentatorning bilimi va tajribasiga suyanilishi hamda olingan natijalar sinaluvchining emas, balki tadqiqotchining shaxsi haqida axborot beradi, degan fikrlarnı bayon etadilar.SHu bilan birga ular proektiv metodikalarning ishonchliligi va validligini ham aniqlash qiyinligini e'tirof etadilar.

A.Anastazi (1982) proektiv metodikalardagi miqdor tahlili emas, balki sifat tahlili ahamiyatlidir, degan fikrlari e'tiborga loyiq. SHu sababga ko'ra "test" atamasi proektiv



metodikalar uchun xos emas. Shuning uchun proektiv metodikalar bilan olingan natijalarni boshqa tadqiqotlar, sinaluvchining hayot yo'li haqida ma'lumotlar bilan solishtirish lozim.

### «UY-DARAXT-ODAM» RASMI TESTI

Ko'rsatma: Uy, daraxt va odam (butun bo'yicha) rasmini chizing. Rasmda qandaydir ish harakatni tasvirlashga harakat qiling. Odamning karikaturasini chizmang.

- Daraxt hayotiy energiyaning belgisidir, sizning hayotga bo'lgan intilishingiz daraxt tanasi va shoxlarining yo'g'onligi bilan belgilanadi. Agar rasmda daraxt sezilarli joyni egallagan bo'lsa, bu katta energiyadan va hayotga ijobiy yondashuvdan dalolat beradi.

- Shamol tufayli daraxt u tomonga engashib turibdi, siz xavfsizlikka va uy sharoitidagi sokinlikka intilasiz. Bu obraz o'tmishga o'ralashib qolganlikni ham ifodalashi mumkin.

- Shoxlar pastga yo'naltirilgan. Bunday rasmni hal qilinmagan muammolari ko'p bo'lgan odamlar chizadi. Majnuntol ko'pincha depressiya va o'tmishga o'ralashib qolganlikni ifodalaydi.

- Shoxlar yuqoriga yo'naltirilgan. Agar daraxt erda mustahkam turgan bo'lsa, bunday rasm oldinga intiladigan, etarlicha muvaffaqiyatli hayotga erishgan, intilishi bor shaxsni ifodalaydi. Shoxlar har tomonga qaragan bo'lsa, o'zining tan olinishini izlash. Agar shoxlar va daraxt tanasi bir chiziqda yasalgan bo'lsa - odamning hayotdagi mavjud noxushliklardan qochishga intilishi, narsalarga real qarashdan qochish. SHoxlar tashqariga yo'naltirilgan bo'lsa - odatda boshqalarga yordam berishni yaxshi ko'radigan odamlar shunday rasm chizadilar.

- Shoxlarning va ko'katning uyga qarama-qarshi tomonda ko'p bo'lishi. Bunday shaxs energiyaning o'zining rivojlanishi, o'sishi uchun qo'llaydi, oiladagi va uydagi qiymatlarni inkor etadi.

Agar daraxtning tomiri yasalgan bo'lsa, sizga er tagidagi yashirishgan narsani ko'rish xohishi xos. Agar narsa rasmi chizilgan bo'lsa, siz ustunlikka intiluvchansiz, hokimiyatga intilasiz, tashkilotchilik qobiliyatlarini, faollikni namoyon etasiz. Agar daraxt tepasida kovak yasalgan bo'lsa, bu kechirilgan psixotravmalar (shikastlar), operatsiyalar yoki jismoniy shikastlanganlik belgisidir.

### «MAVJUD BO'LMAGAN HAYVON» TESTI

Tadqiqot metodi psixomotor aloqalar ta'limoti asosiga qurilgan. Psixika holatini aks ettirish uchun motorika holati (xususan, dominant bo'lgan o'ng qo'lning rasm chizish dinamikasi) tadqiq etiladi.

Sechenov ta'kidlashicha, psixikada yuzaga keladigan har qanday tasavvur va bu bilan bog'liq tendentsiya harakat bilan tugallanadi. Agar real harakat qandaydir sababga ko'ra amalga oshmasa tegishli ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lum sharti to'planadi. Masalan, qo'rquv paydo qilishi yoki insonda keskinlikni yuzaga keltiradi, chunki qo'rquvga javob reaksiyasi sifatida odam Yugurib qochishi yoki qo'li bilan himoyalaniishi mumkin.

Harakat tendentsiyasi fazoda yo'nalishga ega bo'ladi, uzoqlashish, yaqinlashish, o'ziga tortish, engashish, to'g'rilanish, ko'tarilish va hakoza. Rasmni chizayotganda qog'oz varag'i fazo modelini aks ettiradi va muskul holati bilan birgalikda u fazoga bo'lgan munosabatni, ya'ni paydo bo'lgan tendentsiyani qayd etadi.

Fazo, o'z navbatida, kechinmaning hissiy tusi va vaqti davri (hozirgi, o'tgan, kelgusi) bilan shuningdek, borliq bilan ish psixikaning ideal – fikriy ish rejasi bilan bog'liq. Sub'ektning orqa tomonidagi va chap tomonidagi fazo o'tmish va faoliyatsizlik (tasavvur, rejalashtirish va uni amalga oshirish o'rtasidagi faol aloqasi yo'qligi) bilan bog'liq. O'ng tomondagi, oldindagi va yuqoridagi fazo – kelajak va faoliyat bilan bog'liq.

Qog'ozdagi fazo modelning chap tomoni va pastki qismi salbiy va depressiv hissiyotlar, ishonchsizlik va sustlik bilan, o'ng tomoni va yuqori qismi ijobiy hissiyotlar va energiya, faollik va xatti-harakatning konkretligi bilan bog'liq.

Test materiallarini tahlil qilishda psixomotor aloqalar va fazoda munosabatlar, quyidagi qonuniyatlardan tashqari simvollar va simvolik geometrik elementlar va shakllar bilan ishlashlarini ko'rib tahlil qilinadi.

O'z xarakteriga ko'ra «Mavjud bo'lmagan hayvon» testi proektiv testlar jumlasiga kiradi. O'z tarkibiga ko'ra bu test yo'llanma beruvchi test hisoblanadi va uni yakka holda qo'llanmasdan boshqa metodlar bilan birgalikda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Ko'rsatma: Mavjud bo'lmagan qayvonni o'ylab toping va rasmini chizing hamda uni mavjud bo'lmagan nom bilan atang.

### TUGALLANMAGAN GAPLAR

«Tugallanmagan gaplar» metodi psixodiagnostik maqsadlarda keng qo'llanib kelinmoqda. Uning bir necha xil variantlari amalda qo'llanilib kelinmoqda.

*Qo'llanish maqsadi:* Otaga munosabat, o'ziga munosabat, amalga oshirilmagan imkoniyatlar, qo'l ostidagi kishilarga munosabat, kelajakka munosabat, Yuqori lavozimdagi kishilarga munosabat, qo'rquv va do'stlarga munosabat, o'tmishiga munosabat, qarama-qarshi jinsdagi kishiga munosabat, jinsiy munosabat, oilaga munosabat, hamkasblariga munosabat.

*Metodikaning tuzilish:* Quyida taklif qilinadigan variant asosida tartib bilan gaplarni to'ldiring. Metodikaning tarkibida 60 ta tugallanmagan gaplar keltirilgan bo'lib, ular 13 guruhga ajratilgan.

*Vaqt:* Metodikani (testlashtirishni, natijalarni qayta ishlashdan tashqari) o'tkazish uchun 20 minutdan bir necha soatgacha vaqt sarflash mumkin (sinaluvchining shaxsiga qarab).

*Yo'riqnoma:* Test blankida keltirilgan jummalarni bir yoki bir necha so'zlardan foydalangan holda gapni tugallash kerak.

### TEST BLANKI

1. Mening otam kamdan kam \_\_\_\_\_  
o'ylayman.
2. Agar hamma menga qarshi chiqadigan bo'lsa \_\_\_\_\_
3. Men doimo \_\_\_\_\_ xohlardim.
4. Agar men rahbar bo'lsam \_\_\_\_\_
5. Kelajak menga go'yo \_\_\_\_\_ tuyulmoqda.
6. Mening boshlig'im \_\_\_\_\_
7. Yomonligini bilaman ammo \_\_\_\_\_ qo'rq.
8. Haqiqiy do'st \_\_\_\_\_ bo'ladi deb o'ylayman.
9. Men bolalik vaqtlarimda \_\_\_\_\_
10. Men uchun ideal ayol (erkak) \_\_\_\_\_ bo'ladi.
11. Agar ayollarni erkaklar bilan birga ko'rsam \_\_\_\_\_
12. Boshqa oilalar bilan taqqoslaganda mening oilam \_\_\_\_\_
13. Mening uchun eng yaxshisi \_\_\_\_\_
14. Men va mening onam \_\_\_\_\_
15. Men unutish uchun barchasiga tayyorman \_\_\_\_\_
16. Agar faqat otam xohlagan bo'lsa \_\_\_\_\_
17. Men etarlicha \_\_\_\_\_ qobiliyatga egaman.
18. Agar \_\_\_\_\_ bo'lsa men juda baxtli bo'lar edi
19. Kimdir mening qo'l ostimda ishlaydigan bo'lsa, \_\_\_\_\_
20. O'ylaymanki \_\_\_\_\_
21. Mening maktabdagi o'qituvchilarim \_\_\_\_\_
22. Ko'pchilik o'rtoqlarim mening \_\_\_\_\_ qo'rqishimni bilmaydi.
23. \_\_\_\_\_ odamlarni yoqtirmayman.
24. Institutga qadar men \_\_\_\_\_
25. Ko'pchilik o'spirinlar va qizlar \_\_\_\_\_ deb o'ylayman.
26. Er-xotinlik munosabati menga \_\_\_\_\_ tuYuladi.
27. Mening oilam menga xuddi \_\_\_\_\_ murojaat qiladi.
28. Men bilan birga ishlaydigan odamlar \_\_\_\_\_
29. Mening onam \_\_\_\_\_
30. Mening eng katta xatoim \_\_\_\_\_

31. Meni hech bo'lmaganda otam \_\_\_\_\_
32. Mening eng yaxshi tomonim \_\_\_\_\_ iborat.
33. Mening hayotdagi eng yashiringan istagim \_\_\_\_\_
34. Menga tobe kishilar \_\_\_\_\_
35. Men \_\_\_\_\_ kun kelsa edi.
36. Menga qachon boshlig'im yaqinlashib kelsa \_\_\_\_\_
37. Menga qo'rqishni bas qilish vaqti kelganda \_\_\_\_\_
38. Hammadan ham \_\_\_\_\_ odamlarni yaxshi ko'raman.
39. Agar men yana yosh bo'lib qolsam edi \_\_\_\_\_
40. Ko'pchilik ayollar (erkaklar) \_\_\_\_\_ deb o'ylayman.
41. Agar menda me'yordagi jinsiy hayot bo'lganida \_\_\_\_\_
42. Ko'pchilik menga tanish oilalar \_\_\_\_\_
43. Men \_\_\_\_\_ odamlar bilan ishlashni yoqtiraman.
44. Ko'pchilik onalar \_\_\_\_\_ hisoblayman.
45. Men yoshlik vaqtimda agar \_\_\_\_\_ o'zimni aybdordek his qilardim.
46. Mening otam \_\_\_\_\_ o'ylayman.
47. Mening omadim chopmay qolganda \_\_\_\_\_
48. Men hayotda ko'proq \_\_\_\_\_ bo'lishini xohlardim.
49. Men qachon \_\_\_\_\_ boshqalarga topshiriq beraman.
50. Keksayib qolganda \_\_\_\_\_
51. Mendan o'zini Yuqori tutadigan do'stlarni tan olaman \_\_\_\_\_
52. Mening hadiksirashlarim hech ham meni o'ziga bo'ysundirolmadi \_\_\_\_\_
53. Menda yo'q bo'lsa do'stlarim \_\_\_\_\_
54. Mening o'tmishdan qolgan eng yaxshi taassurotim \_\_\_\_\_
55. Menga ayollar (erkaklar)ning \_\_\_\_\_ juda yoqmaydi.
56. Mening jinsiy hayotim \_\_\_\_\_
57. Mening bolalik vaqtimda oilam \_\_\_\_\_
58. Men bilan ishlaydigan odamlar \_\_\_\_\_
59. Men o'z onamni yaxshi ko'raman, ammo \_\_\_\_\_
60. Mening uchun eng yomoni \_\_\_\_\_ yuz berishidir.

Har bir guruh gaplari bo'yicha ijobiy, salbiy va befarq tarzdagi munosabat tizimini belgilovchi xulosalar beriladi. Misollar va javoblar variantlarining bahosi:

Menga tanish bo'lgan ko'p oilalar

30. Baxtsiz, ahil emas, tarqoq \_\_\_\_\_ - 2
31. Asabiy, unchalik ahil emas \_\_\_\_\_ - 1
32. Hammasi bir xil \_\_\_\_\_ - 0

Kelajak men uchun

40. Tashvishli, yomon, tushunib bo'lmaydigandek \_\_\_\_\_ - 2
41. Mavhum \_\_\_\_\_ - 1
42. Noaniq, noma'lum \_\_\_\_\_ - 0

Bu miqdoriy ko'rsatkichlar sinaluvchilarning munosabatlaridagi disgarmoniyani engillashtirishga imkon bersa-da, ammo asosiy natijalarni qo'shimcha gaplar bo'yicha sifat tahlili belgilaydi.

Kalit

№	Gaplar guruhi	Topshiriqlar
1	Otaga munosabat	1, 16, 31, 46
2	O'ziga munosabat	2, 17, 32, 47
3	Amalga oshirilmagan imkoniyatlar	3, 18, 33, 48
4	Qo'l ostidagi kishilarga munosabat	4, 19, 34, 49
5	Kelajakka munosabat	5, 20, 35, 50
6	Yuqori lavozimdagi kishilarga munosabat	6, 21, 36, 51

7	Qo'rqish	7, 22, 37, 52
8	Do'stlarga munosabat	8, 23, 38, 53
9	O'tmishiga munosabat	9, 24, 39, 54
10	Qarama-qarshi jinsdagi kishiga munosabat	10, 25, 40, 55
11	Jinsiy munosabat	11, 26, 41, 56
12	Oilaga munosabat	12, 27, 42, 57
13	Hamkasblariga munosabat	13, 28, 43, 58
14	Onaga munosabat	14, 29, 44, 59
15	Aybdorlik hissi	15, 30, 45, 60

### «AVTOPORTRET» testi

Mualliflar: E.S. Romanova, S.F.Potemkinalar tomonidan taklif etilgan, proektiv metodikalardan biri. Katta maktab o'quvchilarining shaxsini diagnostika qilish uchun qo'llanishi mumkin. Avtoportret – insonning o'zi chizgan qiyofasi. Bu metodikaning ikki xil varianti mavjud, ulardan biri mualliflar, ikkinchisi R.Berns (AQSH) tomonidan taklif qilingan.

#### Interpretatsiya № 1

«Avtoportret» testi R.Berns (AQSH, Insonlararo munosabatlarni rivojlantirish instituti, Sietl) tomonidan qo'llanganda, u kishilarga o'zining yakka holdagi yoki oila a'zolari bilan birga, hamkasblarning orasida tasvirlashni iltimos qilgan. R.Berns shunday yozadi: «Siz uyga kelib o'kirib-o'kirib yig'lashingiz mumkin, ammo ishxonada bunday qilmaysiz. Bu holatingiz siz chizgan portretida o'z aksini topadi». Uning fikricha, avtoportretidagi belgilar quyidagicha aniqlanishi mumkin.

- Bosh. Katta bosh rasmi odatda katta intellektual (aqliy) da'vogarlikni yoki o'z intellektidan norozilikni bildiradi. Kichik bosh rasmi odatda itellektual yoki ijtimoiy noadekvatlik hissini aks ettiradi

-Ko'zlar. Rasmdagi katta ko'zlar odatda gumonsirashni aks ettiradi, shuningdek ular xavotirlanishni va ijtimoiy fikrga nisbatan o'ta sezuvchanlikni bildiradi. Ko'zdagi uzun kipriklar-noz karashmani, o'zini ko'z-ko'z qilishni bildiradi. Kichkina yoki yopiq ko'zlar o'ziga butunlay berilganlik va introversiyaga bo'lgan intilishni ko'rsatadi.

- Og'iz. Og'izning alohida ajratib ko'rsatilmaganligi ehtimoli bo'lgan: nutqiy qiyinchiliklarni va oddiy (sodda) og'zaki tendentsiyalarni bildiradi. Rasmda og'izning yo'qligi yo depressiyani (og'ir ruhiy siqilish) yoki muloqotdagi sustkashlikni ifodalaydi. Masxarabozning og'zi majburiy iltifot belgisi.

-Tishlar. Tajovuzkorlik (agressivlik).

- Quloqlar va burun. Katta quloqlar tanqidga nisbatan sezgirlikni, kichik quloqlar esa hech qanday tanqidni qabul qilmaslikka intilishni bildiradi. Burunga nisbatan urg'u berish jinsiy mayl mavjudligini bildiradi. Burun kataklarining alohida ko'rsatilishi agressiyaga moyillik borligidan dalolat beradi.

- Qo'llar. Qo'llar shaxsning atrof olam bilan bog'liqligining belgisidir. Tortinchoq qo'llar qattiq mas'uliyatli, odamovi shaxs to'g'risida dalolat beradi. Shalviragan holda tashlab qo'yilgan qo'llar samarasizlikni bildiradi. Mo'rt, nimjon qo'llar jismoniy yoki psixologik nimjonlikni, vasiylikka bo'lgan ehtiyojni, bog'liqlikni bildiradi. Uzun - baquvvat qo'llar izzat-nafslilik (nafsoniyati kuchlilik)ni va tashqi olam hodisalariga kuchli kirishuvchanlikni bildiradi. Juda kalta qo'llar yoki qo'llarning yo'qligi noadekvatlik hissini bildiradi. Qo'l orqaga qilingan, yoki cho'ntakda bo'lsa, bu aybdorlik hissi, o'ziga

ishonchsizlikdan dalolat beradi. Boksining qo'lqopiga o'xshagan qo'l siqilgani agressiya. Qo'lda barmoqlar beshdan ko'p bo'lsa, tajavuzkorlik, jizzakilik. Barmoqlar mushtga siqilgan bo'lsa - qarshilik, g'alayon.

- Oyoqlar. Uzun oyoqlar mustaqillikka bo'lgan ehtiyojni anglatadi. Oyoqsiz rasm turg'unlikning yo'qligi, suyanchiqning va asosning yo'qligi, jur'atsizlik.

- Gavda holati. Agar odam ensasi ko'rinadigan qilib chizilgan bo'lsa, bu odamovilikning namoyon bulishi. Agar bosh yon tomondan ko'rinishda chizilgan bo'lsa ijtimoiy atrof muhit tufayli paydo bo'lgan xavfsirashdan dalolat. Agar stulning chekkasida o'tirgan odam rasmi chizilgan bo'lsa - sharoitdan chiqish yo'lini topish xohishi, yakkalanib qolishdan qo'rqish. YUgurib borayotgan odam- kimdandir yashirinish xohishini bildiradi.

### **Ko'rsatkichlar va ularning tahlili**

Rasmning qog'ozdagi holati. Agar rasm vertikal qo'yilgan varaqning o'rtasida joylashgan bo'lsa – bu norma hisoblanadi. Oq yoki sarg'ishroq qog'oz va o'rta Yumshoqlikdagi qalamdan foydalanish kerak: og` silliq qog'oz, ruchka yoki flomaster ishlatmaslik kerak.

Rasm varaqning yuqorigi chekkasiga yaqin joylashgan bo'lsa qanchalik yaqin bo'lsa shunchalik yaqqolroq o'z-o'zini Yuqori baholash, o'zining jamiyatda egallagan holatidan o'z atrofda gilarning tan olishini etarli emasligidan norozilik, o'zini tasdiqlashga bo'lgan tendentsiya sifatida baholanadi.

Rasmning pastki qismidagi holati – teskari tendentsiya, o'ziga ishonchsizlik, o'z-o'ziga past baho, tushkunlik, jura`atsizlik, o'zining jamiyatdagi holatiga, o'zining tan olinishiga qiziqmaslik, o'z-o'zini tasdiqlashga bo'lgan tendentsiyaning yo'qligi.

Shakl (figura)ning markaziy qismi: bosh yoki uning o'rnini bosuvchi bo'lak.

Bosh o'ngga qaragan – faoliyatiga, harakatchanlikka bo'lgan turg'un tendentsiya deyarli nima o'ylanilgan, rejalashtirilgan bo'lsa barchasi amalga oshiriladi, yoki juda bo'lmasa, amalga oshirilib boshlanadi (xatto oxiriga etkazilmasa-da). Sinaluvchi o'z niyatlarini amalga oshirishga faol kirishadi.

Bosh chapga qaragan – refleksiyaga (o'z to'g'risida o'ylashga), fikrlashga bo'lgan tendentsiya. Bu harakat odami emas: fikrlarning faqat ozgina qismi amalga oshadi yoki amalga osha boshlaydi. Ko'pincha faol harakatlardan qo'rqish yoki jur`atsizlik (Variant: harakatga bo'lgan tendentsiyaning yo'qligi yoki faollikdan qo'rqish – buni qo'shimcha aniqlash zarur).

«Anfas» holati, ya'ni bosh rasmni chizayotgan odamga (o'ziga) qaratilgan bo'lsa, bu holat anfas deb baholanadi.

Boshda sezgi organlariga mos keladigan detallar – quloqlar, og'iz, ko'zlar joylashgan bo'lsa informatsiyalarga bo'lgan qiziquvchanlik, atrofda gilarning o'zi to'g'risidagi fikrlarning ahamiyatliligi. Boshqa ko'rsatkichlar va ularning majmuiga qarab qo'shimcha ravishda odam ijobiy baho olish uchun biron-bir narsa qiladimi yoki atrofda gilarning bahosiga nisbatan o'z xatti-harakatlarini o'zgartirmasdan, faqat hissiy javob (xursandchilik, mag'rurlanish, xafa bo'lish, achinish) beradimi, shuni aniqlanadi. Sal ochilgan og'iz til bilan birgalikda, lekin lablar aniq chizilmagan bo'lsa – bu katta nutqiy faollik (ko'p gaplik) deb baholanadi, bunga aniq chizilgan lablar ham qo'shilsa sezgirlik, ba`zida u ham bu ham birgalikda bo'lishi mumkin. Ochiq og'iz aniq chizilgan til va lablarsiz bo'lsa, ayniqsa qattiq chizilgan bo'lsa – xavotirlanish, qo'rquv, ishonchsizlikning osonlikcha paydo bo'lishi deb qaraladi. Og'izda tishlar ham bo'lsa – nutqiy tajovuzkorlik, ko'pchilik hollarda himoyaviy tajovuz: a) unga nisbatan salbiy xarakterda bo'lgan munosabatlarga qarata g`ijinish, qo'pollik va b. b) bolalar va o'smirlar uchun aylana shakldagi qattiq chizilgan og'iz rasmi xos qo'rquv, xavfsirash).

Ko'zlarga alohida ahamiyat beriladi. Bu odamga xos bo'lgan qo'rquv kechinmasining simvolidir: bu narsa ko'zning pardasi bilan ta'kidlanadi. Kipriklarning borligi yoki yo'qligiga e'tiborni qaratish kerak. Kipriklar – xulq-atvorning jazava – namoyishkorona manevrlari: erkaklar uchun: ko'z qorachig'i bilan ko'z pardasi mos ravishda chizilgan bo'lsa, ayollarga xos xarakter belgilari. Kipriklar – tashqi chiroyi va kiyinishi manerasiga boshqalarning e'tibor berishiga qiziqish, ya'ni bu narsaga katta e'tibor berish.

Bosh hajmining gavdasiga mos ravishda kattalashganini odamning o'zida va atrofda gilarlarda mavjud bo'lgan ratsional bog'lanish (ehtimol, eruditsiya)ni baholashidan dalolat beradi.

Boshda shuningdek, qo'shimcha detallar ham bo'lishi mumkin: masalan shox-himoya, tajovuz. Boshqa belgilar – tirnoqlar, dag'al jun, ignalar bilan birgalikda bo'lsa ushbu tajovuzning xarakterini aniqlash kerak, spontan yoki himoyaviy – javob. Patlar o'zini bezashga, o'z-o'zini oqlashga va namoyishkoronalikkka bo'lgan intilish. Yol, jun, prichyoskaga o'xshagan soch – sezgirlik, o'z jinsini ta'kidlash, ba`zida esa, o'zining jinsiy roliga bo'lgan orientirovka.

Figuraning tayanch qismlari (oyoqlar, panjalar, ba`zida postament). Bu qismning butun figuraning hajmiga nisbatan va shakl bo'yicha asosiylik ko'rib chiqiladi:

a) asosiylik o'ylanilganlik qaror qabul qilishning ratsionalligi xulosalarga fikrlarning shakllanishiga olib boradigan yo'llar, ahamiyatli holatlarga va muhim informatsiyalarga tayanish;

b) fikrlarning yuzakiligi, xulosalardagi engiltaklik va fikrlarning asossizligi, ba`zida qaror qabul qilishdagi impulsivlik (ayniqsa oyoqlaryo'q bo'lsa yoki oyoqlar deyarli yo'q bo'lsa).

Oyoqlarning korpus bilan birlashishi xarakteriga e'tibor berish kerak, birlashishi aniq, puxta yoki pala-partish, juda nimjon birlashtirilgan, yoki umuman birlashtirilmagan – bu o'z fikrlarini, xulosalarini, qarorlarini nazorat qilish xarakterini bildiradi. Oyoqlar, panjalar tayanch qismlar barcha elementlarining bir xilligi va bir xil yo'nalganlik fikrlarning va qaror qabul qilishlarning, ustanovkalarining konformliligi (kelishuvchanlik), ularning standartiligi va oddiyliigi. Shakllardagi va bu detallarning holatidagi rang-baranglik – ustanovka va fikrlarning o'ziga xosligi, mustaqillik va oddiy emaslik, ba`zida xatto ijodiy boshlanish (mos ravishda shaklning odatdagidek emas) yoki boshqacha fikrlash (patologiyaga yaqin).

Shakl (figura)dan yuqoriga ko'tarilgan qismlar:

Funksional, qisqichlar yoki bezovchi bo'lishi mumkin: qanotlar, qo'shimcha oyoqlar, qisqichlar, parlar, jingalakka o'xshagan bantiklar, guli – funksional detallar – inson faoliyati turli sohalarini qamrash energiyasi, o'ziga ishonch yoki qiziquvchanlik, imkoni boricha ko'proq atrofdagilarning ishlarida ishtirok etish xohishi, quyosh ostida o'z joyini egallash, o'z faoliyatiga berilganlik. Bezovchi detallar – namoyishkoronalik, atrofdagilarning e'tiborini o'ziga qaratishga intilish (masalan, uning mavjud bo'lmagan ramzini tovus parlari bilan bezatilgan sulton sifatida aks ettirish).

Dumlar. O'z harakatlariga, qarorlariga, xulosalariga nutqiy mahsulotlariga bo'lgan munosabatini aks ettiradi – bunda dum (qog'ozda) o'ngga yoki chapga burilganligiga e'tibor berilishi kerak. Dumlar o'ngga burilgan – o'z harakatlari va xulq-atvoriga munosabat. CHapga burilgan bo'lsa – o'z fikrlariga, qarorlariga boy berilgan imkoniyatlariga, o'zining jur'atsizligiga munosabat. Bu munosabatning ijobiy yoki salbiy tusdaligi dumning yuqoriga yo'nalganligida (ishonch bilan, norozilik, o'zining haqligiga ishonmaslik, qilingan, aytilgan narsadan afsuslanish va hakovolar) aks etadi. Dumning bir nechta qismlaridan, ba`zida takrorlanuvchi zvenolardan tashkil topganligiga, tushib turganligiga, uzunligiga va ba`zida shoxlab ketganligiga e'tiborni qaratish kerak.

Shakl (figura) konturlari. Bo'rtib chiqishlar (qalqon, igna singari) kontur chiziqlarni chizib tashlashlar va bo'yab qoraytirishlar borligi yoki yo'qligiga qarab tahlil qilinadi. Bu – atrofdagilardan himoya, agar rasm o'tkir burchaklarda chizilgan bo'lsa – tajovuzkorona himoya; agar konturlar bo'yalgan, «iflos qilingan» bo'lsa – qo'rquvli va xavfsirashli himoya; agar qalqonlar, «to'siqlar» qo'yilgan, chiziq ikkilangan bo'lsa xavfsirovchi, gumonsirovchi himoya. Bunday himoyaning yo'nalganligi fazoviy joylashuvga mos ravishda: figuraning Yuqoriga konturi yuqori mansabda turuvchi, ta'qiqlash chegaralab qo'yish imkoniga ega bo'lgan majburlashni amalga oshira oladigan shaxslarga qarshi, ya'ni yoshi kattalarga, ota-onalarga, o'qituvchilarga, boshliqlarga, rahbarlarga qarshi; pastki kontur – o'z ustidan kulishlaridan, o'zini tan olmasliklaridan, o'z qo'l ostidagilarning oldida, yoshlar orasida hurmatsizlikdan himoya, muhokamalardan qo'rqish, yonidagi konturlar – aniq yo'naltirilmagan xavfsirash, turli ko'rinishdagi va turli sharoitlarda o'z-o'zini himoya qilishga tayyorgarlik; agar konturda joylashmagan bo'lsa, konturning ichida bo'lsa, hayvon korpusining o'zida bo'lsa – xuddi shunday «himoia» elementlar. O'ngda bo'lsa – ko'proq «real» faoliyat jarayonidagi himoya, chapda bo'lsa o'z fikrlari e'tiqodi, qarashlarini himoya qilish.

Umumiy energiya tasvirlangan detallar miqdori baholanadi – o'ylab topilgan mavjud bo'lmagan hayvon to'g'risidagi tasavvurni berish uchun zarur bo'lgan miqdordagi belgilar (gavda, bosh, qo'l – oyoqlar yoki tana, dum, qanotlar va sh.k); to'ldirilgan konturlik, shtrixlarsiz, qo'shimcha chiziqlar va qismlarsiz, oddiygina kontur yoki faqatgina zarurini emas, hatto konstruksiyani murakkablashtiruvchi qo'shimcha detallarni ham ayamasdan ortiqchasiga tasvirlash mavjud ekanligiga e'tibor qaratish lozim. Mos ravishda tashkil qiluvchi qismlar va elementlar ko'p bo'lsa (zarurlaridan tashqari), energiya shunchalik Yuqori bo'ladi. Aksincha

bo'lsa – energiyani tejash, organizmning astenikligi, surunkali somatik kasallikdir. (Xuddi shu narsa chiziqlarning xarakteri orqali – o'rgimchak to'rsimon nimjon chiziq, «qalamni qog'ozga tekkizgan xolos», qalamni bosmagan bo'lsa tasdiqlanadi). Chiziqlarning aksincha xarakterdaligi – bosib chizilgan bo'lsa –bu aksincha xarakteristika emas, bu energiya emas, balki xavotirlanish belgisi. Juda qattiq bosib chizilgan (xatto qog'ozning orqa tomonidan ko'rinib turadigan) chiziq'larga e'tibor berish kerak – bu qattiq xavotirlanish. Qaysi bo'lak, qaysi simvol shunday bajarilganligiga (ya'ni xavotirlanish nimaga bog'liqligiga) e'tibor berish kerak.

Chiziqlar xarakterini baholash (chiziqlarni takrorlash, e'tiborsizlik, saranjom sarishtalikning yo'qligi, rasmni ayrim qismlarining qoraytirilganligi, «ifloslanish» vertikal chizig'idan og'ish va boshqalar). Piktogrammani tahlil qilgandagi singari baholanadi.

Mazkur jihatdan hayvonlar tahlika ostida bo'lganlar dahshatli va neytral turlarga bo'linadi. Bu o'z shaxsiga bo'lgan, o'zining «Men»ga bo'lgan munosabatini bildiradi, o'zini ahamiyatiga ko'ra aynan o'xshatishiga (identifikatsiya qilishga) ko'ra o'zining olamdagi, o'zni to'g'risidagi tasavvurini bildiradi. Bu erda rasm chizilgan hayvon – rasmni chizayotgan odam o'zining vakili.

Chizilayotgan hayvonning odamga o'xshatilishi hayvonni tik Yuradigan qilib to'rtta oyoq o'rniga ikki oyoqqa turg'izib qo'yish, hayvonga odam kiyimlarini (ishton, yubka, bantiklar, ko'ylak, kamar) kiydirish, hayvon basharasini odamnikiga o'xshatish, oyoq va panjalarni qo'lga o'xshatish – infantillik, hissiy norasolikdan dalolat beradi, bu hayvonni «Odamlashtirishning» namoyon bo'lish darajasiga mos ravishda bo'ladi.

Tajovuzkorlik darajasi rasmdagi burchaklarning miqdori, joylanishi va xarakterida aks etadi, bunda burchaklarning tasvirning u yoki bu detali bilan bog'liqligi ahamiyatga ega emas. Bunda tajovuzning belgilari namoyon bo'ladigan burchaklar – tumshuqlarning ahamiyati shuningdek, jinsiy belgilar – elin, emchaklar, ko'krakka (odam figurasida) urg'u berishga e'tiborni qaratish kerak. Bu jinsga bo'lgan munosabat, xatto jinsiy muammoga qaratilganlikni bildiradi.

Aylana shakli (ayniqsa – hech narsa bilan to'ldirilmagan bo'lsa) yopiqlik belgisi, mahfiylikka, o'z ichki dunyosining yopiqligiga, atrofdagilarga o'zi to'g'risida ma'lumot bermaslikka intilishga, sinovga tortilishni xohlamaslikka bo'lgan intilishni bildiradi. Bunday rasmlar odatda tahlil uchun juda kam ma'lumot beradi.

«Hayvon» tanasiga har xil mexanik qismlar qo'shib qo'yish – hayvonni postamentga, traktor yoki tank gusenitsalariga, uch oyoqqa qo'yish, boshga charxpalak, vint mahkamlash, ko'zlariga elektr chiroqlar qo'yish, hayvon tanasiga va oyoqlariga dasta (sop), klavish va antennalar qo'yish hollariga e'tibor qaratish kerak. Bu asosan shizofreniya bilan xastalanganlarda va chuqur shizoid tiplarda kuzatiladi.

Ijodiy imkoniyatlar odatda figurada to'plangan elementlar miqdorida aks etadi: «tayyor», mavjud hayvonga detallar yopishtirilsa, masalan, qanotli mushuk, parli baliq va shu kabi mavjud bo'lmagan hayvon paydo bo'lsa bu siyqasi chiqqanlik, ijodiy yo'nalishning yo'qligidir. Originallik esa tayyor qismlardan emas, balki mayda elementlardan figura tuzishda aks etadi.

Nomlanish mazmuniy bo'laklarni ratsional birlashtirishda ifodalanishi mumkin (uchar quyon, «begimot», «muhojir» va boshqalar). So'z tashkil etishning boshqa varianti – kitobiy bo'lishi mumkin. Birinchisi – ratsionallik, orientirovkada va moslanishda konkret yo'nalish, ikkinchisi – namoyishkoronalik, asosan o'z aqlini, eruditsiyasini, bilimlarini namoyish qilishga yo'nalganlik. Hech bir mazmunga ega bo'lmagan yuzaki – tovushlardan iborat so'zlar ham bo'lishi mumkin, bu atrofdagilarga engiltaklik bilan munosabatda bo'lish, xavf signalini inobatga ola bilmaslik, tafakkur asosida mahsuldor mezonlarning mavjudligi, fikrlarda ratsionallikka qaraganda estetik elementlarning ustunligi.

Hazil – yumoristik nomlar («rinochurka», «puzirend» va boshqa) – atrofdagilarga nisbatan hazil – takabburlik munosabatini bildiradi. Infantil nomlar odatda takrorlanuvchi elementlarni o'z ichiga oladi («gru-gru», «lyu-lyu», «kus-kus» va boshqa) xayolparastlikka (odatda himoyalalanuvchi) ishonish uzundan uzoq nomlarda aks etadi («aberosinotikliron», «tulobarnikletalieshiniya va boshqalar.

Mazkur interpretatsiya orqali insonning o'zi haqidagi, o'zining tashqi tuzilishi, o'zining shaxsi to'g'risidagi tasavvurlarini bilish, individual-tipologik xususiyatlarini aniqlash mumkin.

15. Estetik tasvir – rassomlik qobiliyatlari bo'lgan badiiy tip.
16. Sxematik tasvir – ilmiy tip.
17. Realistik tasvir /o'ta tafsilotlar bilan chizilgan rasm/ - mayda – chuydaga ko'p e'tibor beruvchi tip.
18. Metamorfik tasvir /odam o'zini biron predmet, masalan, choynak, probirka, o'simlik, hayvon, badiiy personaj ko'rinishida ifodalagan rasm/ - fantaziyasi yaxshi rivojlangan, ijodiy kobilyatlarga ega, albatta, ko'ngilchan, kulguga moyil tip.
19. Emotsional tasvir /biror emotsional holatni ifodalovchi rasm/ - juda Yuqori emotsional ta'sirlanuvchanlikka ega tip. U odatda o'zining hozirgi emotsional holatiga teskari holatni tasvirlaydi. Masalan: xafa bo'lsa-da, kulayotgan Yuzni chizishi mumkin.
20. Harakatdagi tasvir-harakatchanlikka moyil, odatda sport, raqs bilan shug'ullanuvchi tip.
21. Orqaning tasviri – belgilangan tartiblarga zid harakat qiluvchi tip.

«Avtoportret» testidan olingan ma'lumotlarni shuningdek, Rid sxemasi bo'yicha tartibga solish va rasmning miqdoriy ko'rsatkichlarini aniqlash mumkin.

Sanab o'tuvchi rasm /bitta avtoportret chizib berish iltimos qilinganiga qaramay bir necha avtoportretlar chizilgan rasm/ - fikriy ekstrovert.

Organik rasm /odamni o'simliklar, hayvonlar qurshovida, tabiat qo'ynida tasvirlovchi rasm/ - fikriy introvert.

Gaptik rasm /odamni biror bir holatda ko'pincha «tishi og'riyotgan», «boshi og'riyotgan» holatlarda tasvirlovchi rasm/ - sensor introvert.

Emfatik rasm /odamni biror emotsional muhitda tasvirlovchi rasm/ - sensor estravert.

Dekorativ rasm /portretni turli bezaklar bilan, chiroyli ramkalarda, erkin ranglar bilan tasvirlovchi rasm/ - sensor ekstrovert.

Imajitar rasm / odamni biror bir adabiy qahramon yoki xayoliy obraz tarzida tasvirlovchi rasm/ - emotsional introvert.

Ritmik rasm /harakatdagi odamni masalan, Yurayotgan, zinadan chopayotgan va h. odamni tasvirlovchi rasm/ - intuitiv ekstrovert.

Strukturali rasm /odamni qanday bo'lsa, shundayligicha, ba`zan faqat Yuzi, bYustni yoki bo'y-bastni tasvirlovchi rasm/ - intuitiv introvert.

Ushbu belgilar bo'yicha quyidagi jadvaldagiga o'xshab, turli rasmlar o'rtasidagi miqdoriy farqlarni aniqlash mumkin.

«Avtoportret» testi bo'yicha individual – tipologik farqlar /500 kishi orasida/

Tasvir ko'rinishi G.Rid bo'yicha	Psixologik tip K.Yung bo'yicha	Tasvirlararo miqdoriy farqlar
Sanab o'tuvchi	fikriy ekstrovert	2,4
Organik	fikriy introvert	30,3
Emfatik	sezuvchi ekstrovert	3,2
Gaptik	sezuvchi introvert	2,2
Dekorativ	hissiy ekstrovert	8,8
Imajitar	hissiy introvert	13,2
Ritmik	intuitiv ekstrovert	20,8
Strukturali	intuitiv introvert	19,1

Metodika manbasi: Rogov E.I. Nastolnaya kniga prakticheskogo psixologa: Ucheb. Posobie: V 2 kn. – 3-e izd.: Gumanit. Izd. TSentr VLADOS, 2000. – Kn.!: Sistema raboty psixologa s detmi raznogo vozrasta. – 384 s. 286-292 s.



### 9.3. “Rorshax siyoh dog‘lari” proektiv metodikasi

Metodika 1921 yilda G.Rorshax tomonidan yaratilgan bo‘lib, eng mashhur proektiv metodikalardan biri hisoblanadi. Ushbu metodikada qo‘zg‘atuvchi material 10 nafar oq-qora va rangli bo‘lgan simmetrik, lekin aniq tuzilishga ega bo‘lmagan tasvirlardan iborat. Sinaluvchiga har bir tasvir ko‘rsatilib, u nimaga o‘xshashi haqidagi savolga javob berishlari lozim. Sinaluvchi aytgan barcha gaplar so‘zma-so‘z yozib boriladi. Tasvir ko‘rsatilganidan sinaluvchi javob bera boshlagan vaqt e‘tiborga olinadi. Tadqiqot eksperimentator tomonidan assotsiatsiya hosil qilgan tasvir detallarni aniqlashtirish uchun savollar berish bilan yakunlanadi.

Har bir javob quyidagi besh kategoriya bo‘yicha qayta ishlanadi:

1) lokalizatsiya (butun tasvirni yoki uning ayrim qismlarini javob uchun tanlash); 2) determinantlar (javob berish uchun tasvir shakli, rangi va boshqalar foydalanilishi mumkin); 3) shakl darajasi (tasvir shakli javobda qanchalik to‘g‘ri baholangan, bunda mezon sifatida ko‘proq berilgan javoblar olinadi); 4) mazmun (javob odamlar, hayvonlar va jonsiz narsalarga taalluqli bo‘lishi mumkin); 5) originallik- ommaviylik (juda kam uchraydigan javoblar original, ommaviy deb 30% dan ko‘p sinaluvchilarning javoblarida uchraganiga aytiladi).

G.Rorshaxning asosiy nazariy g‘oyasi shundan iboratki, shaxsning faolligi ichki va tashqi undovchilar bilan belgilanadi. Faollikning ustun turiga ko‘ra muallif introversiya va ekstratensiya tushunchalarini kiritadi. Ekstratensiv tip – bu shunday insonlarki o‘z xulq-atvori sabablarini “Men” dan tashqarida izlaydi, introvertlar bo‘lsa o‘z xulq-atvori sabablarini ichki “Men”dan izlaydi. Introversiya va ekstratensiya ko‘rsatkichlari orasidagi munosabatda Rorshax testidagi muhim ko‘rsatkich “qayg‘urish tipi” aniqlanadi. Rorshax testlarining ishonchliligi va validligi 80-90 yillarda o‘tkazilgan ko‘plab tadqiqotlarda isbotangan.

### 9.4. “Rozentsveyg frustratsiya testi” proektiv metodikasi

Metodika 1945 yilda S.Rozentsveyg tomonidan taklif etilgan bo‘lib, olim tomonidan ishlab chiqilgan frustratsiya nazariyasiga asoslanadi. (lot. Frustration-aldash, ruxsizlik holati). Metodikada stimulyer material bo‘lib frustratsion vaziyatlarga tushgan shaxslar tasvirlangan 24 ta rasm xizmat qiladi. Chap tomonda turgan shaxs o‘zining yoki boshqa shaxsning frustratsiyasini so‘z bilan tasvirlaydi. O‘ng tomondagi shaxsning tepasida bo‘sh kvadrat bo‘lib, sinaluvchi miyasiga kelgan birinchi fikrni ifodalashi zarur. Rasmlardagi personajlarda mimikalar aks etmagan. Rasmlarda tasvirlangan vaziyatlar kundalik turmushdan olingan bo‘lib, ularni ikki guruxga ajratish mumkin: 1) to‘siq- vaziyatlar yoki S.Rozentsveyg terminologiyasi bo‘yicha «egoblokinglar». Bunda har qanday usul bilan o‘ng tomondagi personajning jahlini chiqarishga harakat qilinadi.

2) ayblash vaziyatlari, yoki «superegoblokinglar». Bu vaziyatlarda o‘ng tomonda chizilgan personaj nimadadir ayblanadi yoki uni javobgarlikka tortiladi.

Olingan javoblarni baholash S.Rozentsveyg nazariyasiga mos ravishda reaksiyalar va ularning yonalishiga ko‘ra amalga oshiriladi.

Yo‘nalishiga ko‘ra reaksiyalar uchga bo‘linadi: a) ekstrapunitiv – frustratsiyaning sababi tashqaridan izlanadi, vaziyatni hal qilish boshqa odamlarga bog‘liq bo‘ladi; b) intropunitiv – reaksiya aybni o‘ziga olishga qaratilgan bo‘lib, frustratsiya vujudga keltirilgan holat muhokama qilinmaydi; c) impunitiv – frustratsiya vujudga keltiruvchi vaziyat vaqt o‘tishi bilan hal bo‘ladigan ahamiyatsiz holat deb baholanadi, atrofdagilar yoki o‘zi ayblanmaydi. Ekstrapunitiv, intropunitiv, impunitiv yonalganlikni belgilash uchun E, I, M – harflari mos ravishda foydalaniladi.

Bundan tashqari reaksiya tipiga ko‘ra ham uchga bo‘linadi: a) to‘sqinlik dominantlik (E’, I’, M’) – frustratsiya vujudga keltiradigan to‘siqqa qulay, noqulay va ahamiyatsiz bo‘lishidan qat’iy nazar urg‘u beriladi; b) o‘zini himoya qiluvchi (E, I, M)- o‘z «men»ini himoya qilishga qaratilgan, o‘z aybiga iqror bo‘lish yoki rad etish;

c) ehtiyojga qaratilgan - nizoli vaziyatlarni kimdandir yordam olib yoki o‘zi hal qilishni bo‘yniga olib konstruktiv hal qilish.

Frustratsiya vaziyatidagi xulq-atvor haqida qo'himcha ma'lumotni Rauxfmeys (1971) indexsi beradi. Ularga quyidagilar kiradi:

- «Agressiyaning yonalganligi» indexsi- E/I;
- «Agressiyaning transformatsiyasi» – E/e;
- «Muammolarni hal qilish» indexsi – i/e.

S. Rozentsveyg nazariyasiga ko'ra frustratsiya organizm qandaydir hayotiy ehtiyojlarni qondirish yo'lida to'siqlarga duch kelgan holatlarda Yuzaga keladi. Frustratsion vaziyatlarda organizm himoyasi uch darajada amalga oshiriladi: hujayraviy (fagotsit va antitelalar va b. ta'siri); avtonom – organizmni jismoniy «agressiyalardan» himoya qilish; kortikal, psixologik darajada shaxs reaksiyalari yo'nalganligiga mos tiplarni ajratish amalga oshiriladi.

Hozirgi vaqtda ushbu test MDH davlatlarida keng qo'llaniladi.

#### **9.5. "Lyusher ranglarni tanlash testi" proektiv metodikasi**

Lyusherning testi sinalayotgan odamning ma'lum bir faoliyati, kayfiyatiga, funktsional holat va shaxsning eng barqaror tomonlariga yo'nalishi rang tanlashda ifodalanadi degan taxminga asoslangan.

Chet el psixologlari Lyusher testini kasbga yo'naltirishda, hodimlarni tanlashda, ishlab chiqaruvchi jamoani yig'ganida, etnik va gerontologik tadqiqotlarda, kelin-kuyovlar bir-birlarini tanlashdagi tavsiyalarida va boshqa hollarda ko'p ishlatiladi. Ranglarning ma'nosi ularning psixologik interpretatsiyasida har xil sinalayotganlarning ko'p sonli kontingentini har tomonlama o'rganish davomida tadqiq qilinadi.

Lyusher bo'yicha ranglarni ta'riflash 4 asosiy va 4 qo'shimcha ranglarni o'z ichiga oladi.

#### **ASOSIY RANGLAR**

1. Ko'k - tinchlik, qoniqarli holatni ifodalaydi.
2. Ko'k - yashil-dadillik, qat'iylik gohida qaysarlik hissini ifodalaydi.
3. Sariq – qizil - irodasi kuchli, agressivlik, jangovarlik va qo'zg'aluvchanlikni ifodalaydi.
4. Och-sariq - aktivlik, muloqotga intiluvchanlik, ekspansivlik, xushchaqchaqlik hissi.

Asosiy ranglar konfliktning yo'qligida optimal holatda ko'proq birinchi 5 pozitsiyani egallashi zarur.

Qo'shimcha ranglar:

1. siyohrang
2. jigarrang
3. qora rang
4. nolga barobor bo'lgan.

Ular salbiy yo'nalishlarni: xavotir, stress, qo'rquv, xafagarchilik hislarini bildiradi. Shu ranglarning (asosiy ranglar kabi) Yuqori darajada pastda ko'rsatilganidek ularning o'zaro joylashishi, pozitsiyalariga bo'lib tashlashi aniqlanadi.

**Psixolog uchun ko'rsatma:** Rangli kartochkalarni aralashtiring va rangli tomonini tepaga qaratib qo'ying. Sinaluvchiga 8 rangdan eng yoqqanini tanlashni taklif qiling. Unga tushuntrish kerakki, u rangni shundayligicha, o'zining kiyimidagi yoqtirgan rangga, ko'zlarining rangiga va boshqalariga o'xshatmasligi kerak. Sinalayotgan 8 rangdan eng yoqimlisini tanlash zarur. Tanlangan kartochkani rangli tomonini pastga qaratilib bir chekkaga olib qo'yishi zarur. Kartochkalarning nomerlarini qo'yilgan tartibda yozib oling. 2-3 daqiqadan so'ng kartochkalarni rangli tomonini tepaga ko'tarib qo'yib chiqing protsedurani xuddi shunday qaytaring. Shundan tushunavering: sinalayotgan odam birinchi tanlashdagi tartibni eslamay, o'ngli ravishda oldingi tartibni o'zgartirmasligi kerak. U ranglarni xuddi birinchi marta ranglanganidek tanlashi kerak.

Birinchi tanlashni xohlayotgan xolatni, ikkinchi haqiqiy xolatni ta'riflaydi. Tadqiqotning maqsadiga qarab sinovning natijalarini izohlash mumkin. Sinovning natijasida sakkiz pozitsiyani hosil qilamiz:

Birinchi va ikkinchi yaqqol afzal ko'rish (+ + deb belgilanadi).

Uchinchi va to'rtinchi afzal ko'rish (XX belgilanadi).

Beshinchi va oltinchi rangga befarqlik (= = belgilanadi).

Ettinchi va sakkizinchi rangga antipatiya ( - = belgilanadi).

Tadqiqotlarning 36,000 ziyod natijalarning tahlili asosida M.Lyusher tanlangan pozitsiyalarni taxminiy ta'rifini berdi.

Beshinchi pozitsiya maqsadiga etish vositasilarini aks etadi. (masalan, ko'k rangni tanlash xotirjam ortiqcha zo'r berishsiz harakat qilish niyatini bildiradi)

Ikkinchi pozitsiya sinaluvchining intitlayotgan maqsadini ko'rsatadi.

Uchinchi va to'rtinchi pozitsiyalar rangni afzal qilish sinalayotgan bo'lgan haqiqiy situatsiyani xis etish yoki situatsiyaga qarab harakat qilish tarzini ta'riflaydi.

Beshinchi oltinchi pozitsiyalar rangga bo'lgan befarqlikni unga bo'lgan betaraf munosabatini bildiradi. Ular sinalayotganlar o'zining holatini, kayfiyatini va motivlarini bu ranglar bilan bog'lamasligini bildiradi. Biroq bu pozitsiya ma'lum bir vaziyatda rangning rezerv izohlashiga ega bo'lishi mumkin, masalan, ko'k rang (xotirjamlik rangi) shu vaziyatga mos kelmaydigan vaqtinchalik chekkaga olib qo'yiladi.

Ettinchi va sakkizinchi pozitsiya rangga bo'lgan salbiy munosabatni, bu rang aks etadigan ehtiyoji, motivi, kayfiyatini bildirmaydi.

+ + x x = = --

3 4 1 0 2 5 6 7

Tanlangan ranglarning yozilishi nomerlarning ro'yhati afzal ko'rish tartibida pozitsiyalarni ko'rsatish orqali amalga oshadi.

Masalan, qizil, sariq, ko'k, kulrang, yashil, siyohrang. Jigarrang va qora ranglar tartibda tanlanganda quyidagicha yoziladi:

+ + x x = = - -

3 4 1 0 2 5 6 7

(+ +; x x; = =; - -; ) zonalar 4 funktsional guruhni tashkil etadi.

#### **Testdan o'tkazish natijalarini izohlash.**

Belgilaganimizdek, tanlanish natijalarini izohlash usullaridan biri asosiy ranglarga baho berishdir. Agar ular beshinchi pozitsiyadan keyingilarni egallasa, demak, ular ta'riflaydigan xossalari, ehtiyojlari qoniqtirilmagan, shunday ekan, xavotir, salbiy holat o'ringa ega.

Asosiy ranglarning o'zaro bo'lgan holati ko'rib chiqiladi. Masalan, N I va 2 (ko'k va sariq) yonma-yon joylashsa ( funktsional guruhni tashkil qilib), ularning asosiy xislati "ichkariga" sub`ektiv yo'nalishi ta'kidlanadi.

2 va 3 ranglari yonma-yon (yashil va qizil) joylashsa muhtorlik, masalani echishda mustaqillik va tashabbuskorlikni ko'rsatadi. 3 va 4 (qizil va sariq) ranglarning birgaligi, boshqa yo'nalishlari ta'kidlanadi. 1 va 4 (ko'k va yashil) ranglarning birikmasi sinalayotganlarning muhitga qaramligining tasavvurlarini kuchaytiradi. 1 va 3 ( ko'k va qizil) ranglarning bitta funktsional guruhda birgaligi muhitga qaramlik va sub`ektiv yo'nalishining (ko'k rang) va muxtorlik, "ichiga" yo'nalish (qizil rang)ning g'animat balansi ta'kidlanadi. Yashil va sariq (2va4) ranglarning birikmasi "ichkariga" sub`ektiv yo'nalishi, muxtorlik va qaysarlik "tashqarisiga" yo'nalishiga, muhitga qaramlikka qarama-qarshiligi sifatida ko'riladi.

LYusherning fikricha, asosiy ranglar quyidagi psixologik ehtiyojlarni ifodalaydi:

1. (Ko'k) qoniqishga, xotirjamlikka, barqaror ijobiy mehribonlikka bo'lgan ehtiyoj.
2. (Yashil) o'zini ta'kidlashga bo'lgan ehtiyoj
3. (Qizil) faol harakatga va niyatga erishish ehtiyoji.
4. (Sariq) istiqbolga.

Ushbu mavzuda biz proektiv metodikalar, ularning turlari, Lyusher, Rorshax, Rozentsvey proektiv metodikalari bilan tanishdik.

#### **Laboratoriya mashg'uloti uchun topshiriqlar:**

"Tugallanmagan gaplar" metodikasini 5 nafar sinaluvchida o'tkazib, psixologik tahlil yozing.

#### **Mavzu yuzasidan nazorat savollari**

1. Proyektiv metodlarning mohiyati va o'ziga xosligi nimadan iborat?
2. Proyektiv metodikalar qanday tuzilishga ega?
3. Proyektiv metodikalarni interpretatsiya qilishda nimalarga e'tibor berish kerak?
4. Qanday metodikalar ekspressiv proyektiv metodikalar hisoblanadi?
5. Shaxsni o'rganishda qanday proyektiv metodikalardan foydalaniladi?

## **X.SHAXSLARARO MUNOSABATLAR PSIXODIAGNOSTIKASI**

### **Reja:**

- 10.1. Shaxslararo munosabatlarning turlari va ularning o'zaro ta'siriga xos xususiyatlar.
- 10.2. Sotsiometriya, referentometriya metodikalari
- 10.3. "Oila rasmi",
- 10.4. "Jil film testi" proyektiv metodikalari.

### **Maqsad:**

Talabalarda shaxslararo munosabatlar psixodiagnostikasi haqida tushuncha hosil qilish.

### **Vazifa:**

Talabalarda shaxslararo munosabatlar psixodiagnostikasi haqida bilim, malaka, ko'nikma hosil qilish orqali mutaxassis sifatida shaxsini rivojlantirish.

### **Tayanch tushunchalar:**

*shaxslararo munosabat psixodiagnostikasi, sotsiometriya, referentometriya, "oila rasmi", "Jil film "proektiv metodikalari.*

## **10.1. Shaxslararo munosabatlarning turlari va ularning o'zaro ta'siriga xos xususiyatlar**



1	Abdullaev	x			2		1	3
2	Baxodirov	2	x		3		1	
3	Vaxobov	2		x			1	3
4	Do'stmuxamedov	2		3	x		1	
5	Jo'raev		2		1	x	2	
6	Xakimov		1	2			x	3
	Jami	3	2	2	3	0	5	3

Har xil statuslarni quyidagicha aniqlaymiz.

O'rtachadan ikki barobar ko'p tanlov olsa –“Yulduzlar” hisoblanadi.

$St > m + 2k = 6$  ta

O'rtachadan bir-bir yarim barobar ko'p tanlov olsa –“yoqimtoylar”

$St > m + 1(1,5)k = 5-4$  ta

O'rtacha tanlov olgan = o'rtacha (+3)

O'rtachadan 1 yoki 1,5 barabor kam tanlov olganlar “qabul qilinmaganlar”

$St > m - 1(1,5)k = 1-2$  ta

Umuman tanlov olmaganlar “yakkalanib qolganlar” deyiladi.

$St > m - 2k = 0$  ta.

Sotsiometrik tanlov jarayonida qog'ozning orqa tomoniga ”Sarvar sen nima uchun Sardorni tanlading” deb so'raladi va javobi yozib qo'yiladi. Bu tanlov motivlarini aniqlash jarayonidir.

#### Sotsiogramma

Guruhning ichidagi kichik guruhchalarni aniqlash, kichik guruhchalarda o'zaro munosabatlar (statuslar), lider va “yakkalanib qolganlarning” shaxslararo munosabatlarini yaqqolroq va aniq ko'rish uchun sotsiogrammadan foydalaniladi.

#### Sotsiogramma –nishon

Guruhda har bir o'quvchining o'zni, mavqei, boshqa tengdoshlar bilan munosabatlarini yanada yaqqolroq tasavvur etish uchun guruh a'zolarining tanlovlari ifoda etilgan sotsiogramma “karta monogramma” tuziladi.

“Karta monogramma” guruh jurnali asosida tuzilib, har bir o'quvchining tengdoshlari bilan munosabatini ifoda etadi. Sotsiometriya metodikasining natijalari aniq, ishonchli bo'lishi uchun metodikani o'quv yilining o'rtalarida o'tkaziladi. Metodikani bir yilda bir necha marta o'tkaziladi va chiqqan natijalar umumlashtiriladi.

#### Referentometriya

Ijtimoiy psixologiyada shaxs uchun muhim va ahamiyatli bo'lgan kishilarni aniqlash uchun referentometriya metodikasi qo'llaniladi. Referent guruhga kiruvchi kishilarni aniqlashning ahamiyati shundaki, shaxs uchun ularning fikri, munosabatlari qadrli va ahamiyatli ekanida.

Sinaluvchi uchun referent shaxslarni aniqlash, unga 10 ta savol –vaziyat (1-A) va sinaluvchining atrofidagi shaxslarning ro'yxati beriladi.

(1-A)

Siz boshqa shaharga kim bilan borgan bo'lar edingiz (sayohat yoki ish bilan)?

Hayotingizda ko'ngilsiz voqea ro'y bersa, bu haqda kimga gapirib berar edingiz?

Siz tug'ilgan kuningizni kim bilan nishonlar edingiz?

Siz vaqtingizni ko'proq kim bilan o'tkazar edingiz?

Sizning kamchiliklaringiz?

Sizga yoqqan kishini uchratdingiz. Kim uni to'g'ri baholashga yordam berar edi?

Siz o'z hayotingizni o'zgartirmoqchisiz. Bu haqda kim bilan maslahatlashasiz?

Hayotda siz kimdan o'rnak olasiz?

Siz ko'poq kimga yoqishni istar edingiz?

Siz kimga o'z sirlaringizni aytib berasiz?

(1-B)

1.Ota-onamga

2.Qarindoshlar(buva, buvi, amaki, tog'a, xola)

3. Aka, opa, uka, singil
4. Katta yoshdagi tanish kishilarga
5. Oilamizning, ota-onamning tanishlariga
6. Do'stlarimga
7. Eng yaqin do'stinga
8. Tanish bilishlar
9. Tanish qizga, tanish yigitga
10. Birga o'qiyotgan, ishlayotgan do'stlarimga.
11. To'garakda, sektsiya, studiyadagi (birga faoliyat Yurgizuvchi) do'stlarimga.
12. Tarixiy shaxslarga
13. Mashhur kishiga.
14. Do'stlaring orqali tanishgan kishiga
15. Badiiy personajga.

Sinovni boshlashdan oldin, sinalluvchilarga quyidagi ko'rsatma beriladi:

Sizga taklif etilayotgan savol-vaziyatga (1-a), atrofingizdagi, tanish kishilar ro'yxatidan (1-B) kamida ikkita kishini tanlash kerak. Tanlashda birinchi tanlangan shaxs-ikkinchi tanlangan shaxsga nisbatan siz uchun ahamiyatliroq bo'lishi kerak. Boshladik"

Tanlov o'tkazilganidan so'ng, 1B ro'yxatdan tanlangan shaxslarni besh balli shkalada (5,4,3,2,1) baholash zarur. Tanlangan shaxslar alohida varaqqa yozib, ularning ballari alohida hisoblanadi. Eng ko'p ball olgan shaxslar sinalluvchi uchun referent guruh a'zolari hisoblanadi.

#### «Harakatdagi tanlov» metodikasi

Ushbu metodikaning maqsadi – maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning shaxslararo munosabatini guruhlarda o'rganish va baholashdan iborat. Ushbu metodika bolalar uchun mo'ljallangan sotsiometrik metodlardan biri hisoblanadi.

Guruhdagi har bir bolaga uni qiziqtiradigan va o'zida bo'lishni hohlaydigan predmetlar beriladi. Bu har xil o'yinchoqlar, rasmlar hamda shirinliklar bo'lishi mumkin. Bola quyidagicha ko'rsatma oladi: senga berilgan 3 ta predmetning o'zingga yoqadiganini eng yaqin o'rtoq deb hisoblagan bolaning shkafiga qo'y, keyingi predmetni esa o'rtacha o'rtoq'ing shkafiga, oxirgisini esa o'zing bilan unchalik o'rtoq bo'lmagan bolaning shkafiga qo'y.

Har bir bola ushbu predmetlarni tarqatib bo'lgandan so'ng, tadqiqotchi har bir bolada qancha predmet yig'ilgani haqida xulosa chiqaradi va bolaning guruhdagi sotsiometrik o'rni aniqlanadi.

Bu quyidagi formula bilan ishlab chiqiladi: 
$$C = \frac{K}{n - 1} \cdot 100 \%$$
, bunda C – bolaning o'rtoqlari

bilan shaxslararo munosabatdagi o'rni, K – esa bolaning o'rtoqlaridan olgan predmetlar miqdori, n – guruhda testda qatnashgan bolalar soni.

#### Natijalarni baholash:

- 10 ball – agar bolaning ko'rsatkichi 100% bo'lsa
- 8-9 ball – bolaning ko'rsatkichi 80 – 99% bo'lsa
- 6-7 ball – bolaning ko'rsatkichi 60 – 79% bo'lsa
- 4-5 ball – bolaning ko'rsatkichi 40 – 59% bo'lsa
- 2-3 ball – bolaning ko'rsatkichi 20 – 39% bo'lsa
- 0-1 ball – bolaning ko'rsatkichi 0 – 19% bo'lsa

10 ball – juda Yuqori

8-9 ball – Yuqori

4-7 ball – o'rtacha

2-3 ball – past

0-3 ballgacha – juda past

### SHAXSLARARO MUNOSABATLAR INTERPERSONAL TASHXISINING MODIFIKATSIYALASHTIRILGAN VARIANTI

## (T.LIRI - SOBCHIK)

O'smirning ijtimoiy voqelikdagi o'z-o'zini qidirish, shaxsiy xususiyatlarni aniqlash jarayoni ko'p hollarda ichki nizolarni keltirib chiqaradi. Bolaligi nihoyasiga etgan-u, hali katta bo'lmagan inson -- o'smir uchun o'zining yangi «Meni» obrazini qidirish ancha og'riqli va davomiy kechadi.

Ularg a e'tibor bermaslikka urinish o'smirning atrofdagilar bilan munosabatlari buzilishiga olib kelmaydi.

Shaxslararo munosabatlar sohasida vujudga keladigan nizolar o'smirlar tomonidan emotsional affektiv tarzda qabul qilinadi, ular barkamol shaxs kamolotiga to'sqinlik qilib, o'smirning hayotiy faoliyat samarasizligiga sabab bo'ladi.

Shaxslararo munosabatlar tashxisining (T.Liri - Sobchik) modifikatsiyalashtirilgan varianti shaxslararo va ichki ziddiyatlar strukturasi o'rganish uchun juda qulay. Empirik jihatdan isbotlanganki, o'z-o'zini baholash strukturasi (real «Men» va ideal «Men»)dagi jiddiy o'zaro nomuvofiqlik shaxsning ichki disgarmoniyasidan darak berib, uning nizo uyg'otuvchi xulq-atvoriga sabab bo'ladi. Mazkur metodikaning qimmat shundaki, u o'z-o'zini baholash tizimidagi nomuvofiqlikni va uning xarakterini aniqlashga qodir bo'lgan yagona o'lchov asbobi ekanidadir.

Xilma-xil psixodiagnostik metodikalar orasida shaxslararo munosabatlarning interpersonal diagnostikasi anketalar va ko'p omilli so'rovnomalarning ijobiy tomonlarini o'z ichiga olganligi bilan ajralib turadi. Ushbu metodlar esa motivatsiyalangan buzilishlar va sinaluvchining tadqiqot jarayoniga ustanovkalari ta'siridan xoli emas.

Shaxslararo munosabatlar diagnostikasi metodi T.Liri (1969) ishlab chiqqan original variantdan asosan boshqa psixodiagnostik tadqiqotlar natijalari bilan qiyoslashda asoslab berilgan talqin bilan farqlanadi. Bundan tashqari, L.N.Sobchik tomonidan sport jamoalaridagi (1972, 1974, L.Sobchik), ishlab chiqarish jamoalari, talabalar jamoalari va boshqa turdagi kichik guruhlardagi (L.Sobchik 1986, M.Maleshina, 1986) shaxslararo munosabatlarni o'rganish jarayonida sinovdan o'tkazilgan metodikaning verbal materialini moslashtirish ishlari amalga oshirildi. Ammo metodikani qo'llash amaliyoti so'rovnoma hukmlarining ayrimlari mukammal tuzilmaganligini ko'rsatdi. Bu holat metodikani tahrirlash va moslashtirish Yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirishga undadi. Shuningdek, natijalarni qayd etish va hisoblab chiqishning o'zgacharoq qulay va tezkor usuli ishlab chiqildi.

Shaxs atrofdagilar bilan o'zaro ta'sirning dolzarblashgan jarayonidagi xatti - harakatlarida namoyon bo'lishiga asoslanib Timoti Liri empirik kuzatishlarni shaxslararo o'zaro ta'sirining 8ta umumiy, yoki 16 ta tobora konkretlashtirilgan oktantlari - variatnlari ko'rinishida sistemalashtirgan. Shaxslararo xulq-atvor tiplariga muvofiq jami 128 ta anchagina oddiy tavsif-epitetlardan iborat so'rovnoma ishlab chiqilgan. Sifat tavsifi u yoki bu shaxslararo munosabatlar variantini aks ettiruvchi ustuvor tiplarni aniqlashni ko'zda tutadi. Oktantlarning ifodalanganlik darajasi tegishli ballar va shaxsning ma'lum tavsiflari bilan belgilanadi. Oktantlarning qutbiy tavsiflariga to'xtalib o'tamiz.

Shaxslararo munosabatlarning dastlabki (1, -2, -3, -4 -) to'rtta tipi nokonform tendentsiyalar ustunligi va dezYuktiv (konfliktli) ko'rinishlarga moyillik (3 - 4), fikrlarning ko'proq mustaqilligi va o'z nuqtai nazarini himoyalashda qat'iylik, liderlik va ustuvorlik tendentsiyalari (1 - 2) bilan xarakterlanadi. Qolgan to'rtta (5, -6, -7, -8 -) oktant aksincha kartinani namoyon etadi: konform tendentsiyalar ustunligi, atrofdagilar bilan aloqalarda kongruentlik (7, 8), o'ziga ishonmaslik, atrofdagilar fikriga yon bosish, murosaga moyillik (5,6)ni bildiradi.

Psixogrammada oktantlar berk tuzilma sifatida berilib, uning chegaralarida shaxslararo munosabatlardagi xulq-atvor uslubiga xos xususiyatlar joylashtirilgan. Ana shu shaxslararo munosabatlardagi xulq-atvor tiplariga muvofiq tarzda 128 ta sodda, turli xarakterli xususiyatlarni aks ettiruvchi epitetlar tuzilgan. Metodikaning modifikatsiyalashtirilgan variantida maxsus javob varaqasi mavjud bo'lib, unda 1 dan 128 gacha bo'lgan raqamlar shunday joylashtirilganki, har bir oktant bo'yicha ballarni hisoblash deyarli avtomatlashtiriladi.

So'rovnoma bandlari bo'yicha o'z-o'zini baholar ekan, sinaluvchi tegishli xususiyatni o'zi uchun xos deb bilganida, javob varaqasida unga mos raqamni o'chirib qo'yishi, mos emas» degan fikrda bo'lsa, raqamga tegmay o'tishi kerak. Bunda quyidagicha yo'riqnoma beriladi: Sizning oldingizda insonga xos turli xususiyatlarni o'zida jamlagan



so'rovnomaga. Undagi har bir hukmni o'qib, so'ng u sizga, sizning o'zingiz haqingizdagi tasavvurlaringizga mos yoki mos emasligi to'g'risida o'ylab ko'ring. Agar mos deb hisoblasangiz, javob varaqasidagi tegishli raqamni «x» belgi qo'yib o'chiring, mos emas deb hisoblasangiz, javob varaqasida hech qanday belgi qo'ymang. E'tiborli bo'ling!

Sinaluvchi o'zi va o'zining dolzarb «Men» ini baholagach, unga o'z-o'zini baholash strukturasi o'zaro muvofiqlikni aniqlash uchun ideal «Men»ni baholash taklif etiladi. Bunda quyidagi yo'riqnoma beriladi: Endi siz yana o'sha so'rovnomadagi xususiyatlardan foydalanib, ideal «Men»ingizni, ya'ni siz intiladigan, siz talpinadigan, siz o'shanday bo'lishni xohlaydigan «Men»ni baholang. Har bir xususiyat ideal «Men»ingizga xos yoki xos emasligiga muvofiq (bu xususiyat sizning real «Men»ingizga ham xos yoki xos emas bo'lishi mumkin) javob varaqasidagi tegishli raqamni o'chiring yohud o'chirmay qoldiring.

#### METODIKA SO'ROVNOMASI

### SHunday qilib, Siz qanday odamsiz?

1. Yoqishni biladi.
2. Atrofdagilarda taassurot qoldira oladi.
3. Buyruq berish va ishlatishni biladi.
4. O'z gapini o'tkaza oladi.
5. O'z qadrini biladi.
6. Mustaqil.
7. O'zini o'zi eplay oladi.
8. Beparvo (e'tiborsiz) bo'lishi mumkin.
9. Qat'iyatli bo'la oladi.
10. Qattiqqo'l, lekin adolatli.
11. Samimiy bo'la oladi.
12. Atrofdagilarga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'ladi.
13. Xasrat qilishni yoqtiradi.
14. Ko'pincha g'amgin.
15. SHubha qilishi mumkin.
16. Ko'pincha xafsalasi pir bo'ladi (ko'ngli qoladi).
17. O'ziga nisbatan tanqidiy qaray oladi.
18. O'zining nohaqligini tan oladi.
19. Bajonidil bo'ysunadi.
20. Ko'ngilchan.
21. Minnatdor.
22. Qoyil qoluvchi va taqlidchilikka moyil.
23. Iltifotli.
24. Manzur bo'lishni xohlaydi, ma'qullashga intiladi.
25. Hamkorlik va yordamga tayyor.
26. Atrofdagilar bilan chiqishib ketishga intiladi.
27. Xayrixoh.
28. E'tiborli va muloyim.
29. Xushmuomala.
30. Ruhlantiruvchi.
31. Yordam so'raganda yordam berishga tayyor.
32. Beg'araz.
33. Maftunkor (mahliyo qila oladi).
34. Atrofdagilar hurmatiga sazovor.
35. Rahbarlik qilish, boshqarish iste'dodiga ega.
36. Javobgarlikni yoqtiradi.
37. O'ziga ishongan.
38. O'ziga ishongan va tirishqoq.
39. Uddaburon, omilkor (Epchil va tadbirkor).
40. Raqobatchi.
41. CHidamli, kerak joyda qattiqligini ko'rsatadi.
42. Qattiq qo'l, biroq beg'araz.
43. Badjahl.
44. Ochiq va bir so'zli (to'g'riso'z).
45. Buyruq berishlarini ko'tara olmaydi.
46. Skeptik, shubha qilaveradi.
47. Unga ta'sir ko'rsatish qiyin.
48. Arazchi.
49. Uyatchan.
50. O'ziga ishonmaydigan.
51. Ko'nuvchan (bo'sh keladigan).
52. Kamtar.
53. Boshqalar yordamidan ko'p foydalanadi.
54. Martabali kishilarni juda hurmat qiladi.
55. Maslahatlarni bajonidil qabul qiladi.
56. Ishonuvchan va boshqalarni xursand qilishga intiladi.
57. Hamisha xushmuomala.
58. Atrofdagilar fikrini qadrlaydi.
59. Muloqotga kirishuvchan.
60. Rahmdil.
61. Xushfe'l, ishonch uyg'otadigan.
62. Mayin va yumshoqko'ngil.

63. Boshqalarga g'amxo'rlik qilishni yoqtiradi.
64. Saxiy.
65. Maslahat berishni yoqtiradi.
66. Salobatli (hukmronlikni yoqtiradi).
67. Kattalik – buyruqbozlik (buyruq berishni yoqtiradi).
68. Hukmron.
69. Maqtanchoq.
70. Takabbur va o'ziga bino qo'ygan.
71. Faqat o'zi haqida o'ylaydi.
72. Ayyor.
73. Boshqalar xatosini kechira olmaydi.
74. Manfaatparast.
75. Sofdil.
76. Ko'pincha g'arazgo'y.
77. Alamzada.
78. Shikoyatchi.
79. Rashkchi.
80. Uzoq kek saqlab yuradi.
81. O'zini-o'zi tanqid qilib qiynashga moyil.
82. Tortinchoq.
83. Tashabussiz.
84. Beozor.
85. Mute (erksiz), nomustaqil.
86. Bo'ysunishni yoqtiradi.
87. Hal qilishni boshqalarga qo'yib beradi.
88. Noqulay ahvolga tushib qolishi oson.
89. Do'stlari ta'siriga berilishi oson.
90. Har kimga ham ishonaveradi.
91. Odam tanlamay, hammaga yordam beradi.
92. Barchani yoqtiradi.
93. Hamma narsani kechiradi.
94. Haddan tashqari rahmdil.
95. Muruvvatli va kamchiliklarga nisbatan chidamli.
96. Barchaga yordam berishga intiladi.
97. Muvaffaqiyatga intiluvchan.
98. Barchaning qoyil qolishini xohlaydi.
99. Boshqalarni ishga soladi.
100. Zulmkor.
101. Atrofdagilardan o'zini ustun qo'yadi.
102. Shuhratparast.
103. Xudbin.
104. Sovuq, toshbag'ir.
105. Zahar, mazax qiluvchi.
106. Qahri qattiq, shavqatsiz.
107. Tez-tez jahli chiqib turadi.
108. Hissiz, loqayd.
109. Kek saqlovchi.
110. Hamma narsaga qarshi bo'ladi.
111. O'jar.
112. Gumonsiraydigan va shubhalanuvchan.
113. Tortinchoq.
114. Uyatchan.
115. Iltifotli.
116. Bo'shang (landovur).
117. Deyarli hech kimga e'tiroz bildirmaydi.
118. Shilqim.
119. Unga g'amxo'rlik (homiyluk) qilishlarini yoqtiradi.
120. Haddan tashqari ishonuvchan.
121. Barchaga yoqishga (hurmat qilishlariga) intiladi.
122. Hammaning gapiga qo'shiladi.
123. Har doim hamma bilan do'stona munosabatda.
124. Hammani yaxshi ko'radi.
125. Atrofdagilarga o'ta muruvvatli.
126. Barchaning ko'nglini ko'tarishga intiladi.
127. O'ziga zarar etkazsa ham boshqalarga g'amxo'rlik qiladi.
128. Ortiqcha ko'ngilchanligi bilan odamlarni buzadi.

1. Hukmron – liderlik. Me'yorda ifodalangan ballarda (8 gacha) o'ziga ishonch, yaxshi maslahatchi, etakchi va tashkilotchi bo'la olish malakasi, rahbarlik sifatlarini aniqlaydi. YUqori ko'rsatkichlarda tanqidga toqatsizlik, o'z imkoniyatlarini ortiqcha baholash (12 ball), fikrlarning diktaat uslubi, boshqalarga buyruq berishga imperativ ehtiyoj, despotizm qirralarini (12 ball dan yuqori) ifoda etadi.

2. Mustaqil – ustuvorlik. Shaxslararo munosabatlarning ishonchli, mustaqil, raqobatchilik uslubidan (8 ball atrofida) o'zboshimcha, nartsistik, atrofdagilardan ustunlik hissi ifodalangan, ko'pchilik fikridan farqli o'z fikriga egalik tendentsiyasi va guruhda ajratilgan pozitsiyaga egalik uslubigacha (12-16 ball) ifoda etadi.

3. To'g'ri – tajovuzkor. Ko'rsatkichlar ifodalanganlik darajasiga ko'ra bu oktant samimiylik, erkinlik, to'g'rilik, maqsadga erishish yo'lida qat'iylik (me'yorlangan ballarda) yoki haddan ziyod qaysarlik, do'stona emaslik, o'zini tuta bilmaslik va jahli tezlikni (yuqori ballar) ifoda etadi.

4. Ishonchsizlik – skeptiklik. Fikrlar va xatti-harakatlar bazasi realistikligi, skeptitsizm va nokonformlik (8 ballgacha) o'ta xafa bo'luvchan va atrofdagilarga ishonchsiz munosabat moduliga, krititsizmga moyillik, atrofdagilar bilan munosabatlardan norozilik va shubhalikka o'tadi.

5. Itoatkor – tortinchoqlik. Shaxslararo munosabatlarning kamtarlik, tortinchoqlik (3-4), o'zgalar mas'uliyatini o'z zimmasiga olish (8ballgacha), 12dan Yuqori ballarda to'la itoatkorlik, oshirilgan aybdorlik tuyg'usi, o'z-o'zini kamsitishni aks ettiradi.

6. Bog'liqlik – bo'ysunuvchanlik. O'rtacha (3-4) ballarda – atrofdagilarning yordami va ishonchiga, ularning e'tiboriga ehtiyoj, yuqori ko'rsatkichlarda - o'ta konformlik, boshqalar fikriga to'la bog'liqlik.

7. Hamkorlik – konventsiallik. Referent guruh bilan yaqin hamkorlik, atrofdagilar bilan do'stona munosabatlarga intiluvchi shaxslarga xos bo'lgan shaxslararo munosabatlar uslubini ifodalaydi. SHaxslararo munosabatlarning bu uslubi namoyon bo'lishida ortiqcha kompromis xulq atrofdagilarga nisbatan do'stonaligini to'kib – sochishda, o'zini tuta olmaslik, o'zining ko'pchilik manfaatlariga daxldor ekanini ta'kidlashga intilishda ko'zga tashlanadi.


8. Mas'uliyatli – bag'ri kenglik. Atrofdagilarga yordam berishga tayyorlik, mas'uliyat hissi rivojlanganligida namoyon bo'ladi. Yuqori ballar ko'ngli bo'shlik, ustanovkalarining o'ta majburiyiligi, ta'kidlangan altruizmni bildiradi.

Olingan ma'lumotlar qayta ishlanadi va psixogramмага kiritiladi, so'ng sinaluvchilarning dolzarb va ideal «Men» iga baholari tahlil qilinadi va taqqoslanadi.

Ko'pincha, me'yoriy holatda dolzarb va ideal «Men» o'rtasida jiddiy tafovutlar kuzatilmaydi. O'rtacha (mojarosiz) tafovut yoki ko'proq, to'la mos kelmaslikni Sobchik o'sish va o'z-o'zini takomillashtirishning zarur sharti deb biladi.

8 ball dan yuqori xarakteristikalar mazkur oktant aniqlaydigan xususiyatlarning aktsentuatsiyasidan, 14-16 ball darajasida baholar esa ijtimoiy adaptatsiyadagi qiyinchiliklardan dalolat beradi.

O'z-o'zini baholashning tarkibiy tuzilishini tahlil va talqin etishni osonlashtirish uchun aktual «Men» va ideal «Men» uchun psixogramma tuzish kerak. Buning uchun sinaluvchilar javob varaqasida o'chirilgan raqamlar miqdori har bir oktantga muvofiq psixogramмага kiritiladi. Har bir oktant bo'yicha miqdoriy ko'rsatkichlar 0-16 orasida tegishli koordinata chiziqlarida joylashtiriladi. Bu chiziqlar 0,4,8,12,16 kabi bo'limlarda doiralar bilan to'rt qismga ajratilgan. Oktant bo'yicha to'plangan ballga mos darajada yarim egri chiziq o'tkazilib, ajratilgan qism shtrixlanadi. Barcha oktantlar bo'yicha natijalar shu tariqa psixogrammada aks ettirilgach, undan go'yo «elpig'ich»ga o'xshash tasvir hosil bo'ladi. Eng ko'p darajada shtrixlangan oktantlar sinaluvchi uchun xos shaxslararo munosabatlarning etakchi uslubini ifodalaydi.



8 balldan kam ballga ega xususiyatlar har tomonlama rivojlangan shaxslarga asosdir. Muayyan xususiyatlarining 8 balldan ortiq ball to'plashi tegishli oktanta bo'yicha aksentuatsiya mavjudligini ko'rsatadi. 14-16 ballga teng ko'rsatkichlar ijtimoiy moslashish sohasida muammolar mavjudligidan guvohlik beradi. Barcha oktantlar bo'yicha past ko'rsatkich (0-3 ball) natijalar ishonchsiz, sinaluvchi samimiy javob bermagan bo'lishi mumkinligidan dalolat.

Metodika ko'rsatkichlarini talqin etishda asosiy e'tibor ayrim ko'rsatkichlarning boshqalardan ustunligiga qaratilishi kerak. Ammo ba'zida ichki mazmuni bir-biriga qarama-qarshi oktantlar (masalan 1- va 5- oktantlar)ning usutunlik holati ham uchraydi. Bunday holat o'zini o'ta sevadigan va avtoritar insonlarga xos, 4-8 oktantlarning ustunlik holati guruh tomonidan tan olinish istagi va bostirilgan dushmanlik o'rtasidagi nizodan darak berishi, 3- va 7- oktantlarning parallel ustunligi o'z imkoniyatlarini ko'rsatib qo'yish motivi va affiliatsiya motivi (hamkorlikka intilish) o'rtasida kurash mavjudligini ko'rsatishi, 2- va 6- oktantlarning bir vaqtda ustunligi mustaqillik – bo'ysunmaslik muammosi, ichki qarshilikka qaramay, ayrim paytlarda bo'ysunishga majburlikdan guvohlik berishi mumkin.

Dolzarb «Men» va ideal «Men»ga tegishli natijalar solishtirib talqin etilganda ham xuddi shunday yo'l tutiladi. Amaliyotning ko'rsatishicha, aslida aktual «Men» obrazi ham, ideal «Men» obrazi ham yaxlit «Men»ning tarkibiy qismlari bo'lib hisoblanadi.

Rivojlanish me'yoridan chetga chiqmagan holatda aktual va ideal «Men» o'rtasida jiddiy tafovut kuzatilmaydi. Kichik farq yoki o'xshashlik shaxsning kelgusi taraqqiyoti uchun zarur shartlardan biridir. O'z-o'zini baholashi past bo'lgan, shuningdek, shaxslararo munosabatlardagi nizolar girdobiga o'ralashib qolgan insonlarda odatda o'zidan qoniqmaslik hissi kuchli bo'ladi.

L.N.Sobchik P.Lirining shaxslararo munosabatlar interpersonal diagnostikasi metodikasi moslashtirish Yuzasidan o'tkazgan ko'p yillik ishlari natijasida oktantlar o'zaro nisbatidan hosil bo'luvchi har xil variantlarning talqinini ishlab chiqdi. Albatta, hayotda uchraydigan barcha

variantlarni ta'riflash qiyin. Ammo umuman gap ikki yo'nalish: ustunlik – tobelik hamda tajovuzkorlik - mehribonlik xususida boradi. Ulardan kelib chiqib, har bir xususiy holat alohida talqin etiladi.

Masalan: agar aktual «Men» obrazida 5- oktant boshqalaridan ko'ra ko'proq ballga ega bo'lsa, ideal «Men» obrazida bu oktant ancha past, 1- oktant aksincha Yuqori ballga egalik qilsa, sinaluvchi shaxslararo munosabatlarda o'zini ortiqcha passiv, tortinchoq va uyatchan, deb hisoblashi hamda bu xususiyatlardan xalos bo'lishni istashini bilish mumkin.

Agar aktual «Men» 4- oktant bo'yicha (ya'ni shubhalanish, gumonsirash, atrofdagilar bilan bo'lgan munosabatlardan norozilik bo'yicha) Yuqori ballga ega bo'lsa-Yu, ideal «Men» uchun 8- oktantning ustunligi xos bo'lsa, talqin etish vaqtida sinaluvchi shaxslararo nizoga tortilganligi va bu vaziyatda o'zini tanqidiy baholashga moyillik, odamlarga mehr-muruvvatli bo'lish bilan idealga o'xshashga intilishini anglatadi. Demak, qarama-qarshi xususiyatli oktantlar (3- va 7-, 2- va 6-) ning o'zaro munosabati ijtimoiy muhitga moslashishga halaqit berayotgan shaxs xususiyatlari qanday yo'llar bilan kompensatsiyalanayotganini namoyish etadi.

Agar aktual «Men» uchun tobe va komform xulq-atvoriga xos xususiyatlarni ifodalovchi oktantlar (5,6,7) ustunlik qilsa-Yu, ideal «Men»da mustaqillik va dominantlik oktantlari (1,2) yoki tajovuzkorlik oktanti (3) ustunlik qilsa, sinaluvchi uchun o'zining bo'ysunishga majburligi og'ir kechayotgani, bu uning shaxsiyatiga og'ir botayotgani va barcha kompensator harakatlar o'z ijtimoiy mavqeini oshirishga yo'naltirilganligini bildiradi.

Bordi-yu, nisbat teskari bo'lsa, ya'ni aktual «Men»da mustaqillik, dominantlik va tajovuzkorlik (2,1,4) ustun bo'lsa, idealda sinaluvchi atrofidagilarga yaqinroq va shaxslararo munosabatlarga to'sqinlak qilayotgan xarakter qirralari - qaysarlik(3), tajovuzkorlik (4), o'ziga ishonganlik (1), distantlik (2) dan xoli bo'lishni istasa, sinaluvchining o'zining bevosita spontan xulq-atvori ustidan nazorati kuchliligi, shuningdek o'z shaxsini takomillashtirishga va tarbiyalashga intilayotganligini anglash mumkin. Shaxsning ichki holati tahlili murakkab va serqirra jarayon, biroq shu bilan birga psixolog uchun shaxsning ichki imkoniyatlari va mavjud muammolarini anglash darajasini hisobga olgan holda korreksiya metodlarini tanlashda o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

### Javob varaqasi

Familiyasi \_\_\_\_\_ Ismi \_\_\_\_\_ Yoshi \_\_\_ Tashhis sanasi \_\_\_\_\_  
Dolzarb «Men»

1	2	3	4	5	6	7	8	9	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	3	3	3	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	3	3	3	
3	3	3	3	3	3	3	4	4	4	4	4	4	4	4	4	4	4	4	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	6	6	6	6
3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	5	5	5	5	5	5	5	5	6	6	6	6	
6	6	6	6	6	7	7	7	7	7	7	7	7	7	7	7	7	7	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8
5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8
9	9	9	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1
7	8	9	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1

### Ideal «Men»

1	2	3	4	5	6	7	8	9	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2
3	3	3	3	3	3	3	4	4	4	4	4	4	4	4	4	4	4	4	4	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5
3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5
6	6	6	6	6	7	7	7	7	7	7	7	7	7	7	7	7	7	7	7	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8
5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8



Tasavvur qilaylik, oilangiz mehmonga borishi kerak. Biroq kimdir kasal bo'lib uyda qoladi. U kim?

Konstruktordan uy yasayapsan, lekin uning uddasidan chiqa olmayapsan. Kimni yordamga chaqirasan?

Senda qiziqarli filmga bir necha chiptalar bor, lekin u oila a'zolarining sonidan 1 taga kam. Uyda kim qoladi?

Tasavvur qilaylik, sen kimsasiz orolga tushib qolding, u erda kim bilan birga yashashni xohlarding?

Senda qiziqarli loto o'yini bor? Oila a'zolarining bilan uni o'ynamoqchisizlar. Ammo bitta odam ortiqchalik qilyapti. Kim loto o'ynamaydi?

Interpretatsiya uchun quyidagilarni bilish zarur:

- a) tadqiq qilinayotgan bolaning yoshi;
- b) oila a'zolarining soni, aka-singillari yoshi;
- c) agar iloji bo'lsa, bolaning uy va bog'chadagi, maktabdagi xulqi haqida ma'lumotlar.

“Oila rasmi” metodikasi interpretatsiyasini shartli 3 qismga ajratish mumkin:

- Oila rasmi strukturasi taxlili;
- Oila a'zolari grafik tasviri xususiyatlari tavsifi;
- Rasm chizish jarayoni taxlili.

### **“Oila rasmi” strukturasi taxlil qilish va chizilgan hamda real oila tarkibini taqqoslash**

Odatda, oilada ijobiy emotsiyalarni his qiluvchi bola oilani to'laligicha aks ettiradi.

Tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, 6-8 yoshli, normal intellektga ega bo'lgan bolalarning 85 % (oilasi bilan yashovchi) rasmda oila a'zolarining to'liq rasmini chizadi. Agar oila a'zolaridan birortasi tushib qolgan bo'lsa, bunga alohida e'tibor berilishi talab qilinadi.

Chunki u emotsional ziddiyat, oiladagi mavjud vaziyatdan qoniqmaslikdan dalolat beradi.

Ba'zi hollarda rasmda umuman odamlar aks ettirilmasligi yoki oilaga umuman aloqasi bo'lmagan odamlar aks ettirilganligini ko'rish mumkin. Bunday holatlar juda kam uchraydi. Buning sababi – oila bilan bog'liq bo'gan salbiy kechinmalar, rad etilganlik hissi, himoyasizlik hissi, Yuqori darajadagi havotirlanish hamda psixologning o'rganilayotgan bola bilan yahshi aloqa o'rnata olmaganligi bo'lishi mumkin.

Ba'zan bolalar oila a'zolaridan birini tushirib qoldirishlari ham uchraydi. Buning sababi - o'sha oila a'zosining emotsional yoqimsizligi, u bilan nizoli munosabatning mavjudligidir. Ko'proq aka yoki singillar rasmi chizilmay qoladi. U yoki bu oila a'zosi rasmi nima uchun chizilmagan degan savolga himoya javobi beriladi - masalan, “joy qolmagani uchun chizmadim”. Ba'zida esa ochiqdan-ochiq “Chizgim kelmadi, chunki u men bilan urishadi”.

Ba'zan real o'ila a'zolari o'rniga bola biror hayvoncha, qushcha rasmini chizishi mumkin. Bunda psixolog uchun bola ular bilan kimni identifikatsiya qilayotganligi muhim”.

Ba'zi rasmlarda bola o'z rasmini chizmaydi yoki oilasi o'rniga faqat o'zini aks ettiradi. Bu bolaning o'zini oila tarkibiga qo'shmasligidan, oilada hamjihatlik mavjud emasligidan dalolat beradi. Rasmda “Men”ning mavjud bo'lmasligi qabul qilinmaslik, rad etilish hissini boshidan kechirayotgan bolalar uchun xarakterli.

Oila tarkibining kattalashtirilishi ham bizga ba'zi ma'lumotlar berishi mumkin.

Odatda bu psixologik ehtiyojlarning qondirilmaganligi bilan bog'liq. Oilada yolg'iz farzand bo'lsa, affiliyatsiya ehtiyojlari qondirilmasa, qarindosh yoki qo'shni bolalar yoki ba'zida kuchukcha, mushukcha rasmini aks ettirishi mumkin.

### **Oila a'zolarining joylashishi**

Rasmda oila a'zolarining joylashishi oiladagi o'zaro munosabatlarning psixologik xususiyatlaridan darak berishi mumkin.

Oilaning jipsligi, oila a'zolari bir-birlari bilan qo'l ushlab turishi, umumfaoliyat bilan birlashuvi oilaning normal psixologik muxiti ko'rsatkichi hisoblanadi. Bunga qarama-qarshi xarakteristikali rasmlar emotsional aloqaning past darajaligidan dalolat beradi.

Oilaning bir qismi bir guruhda chizilgan, bitta yoki bir necha shaxs alohida tasvirlangan rasmlar psixologik jihatdan qiziqarlidir. Agar bola o'zini alohida ajratib qo'ysa, bu unda ajralib qolganlik hissi mavjudligini bildiradi. Agar oila a'zolaridan birortasi alohida qilib chizilsa, bolaning unga nisbatan salbiy munosabati, undan bolaga kelayotgan xavf haqida taxmin qilish mumkin.

Rasmda oila a'zolarini guruxlarga birlashtirish oilaning psixologik mikrostrukturasini aniqlash imkonini beradi.

#### Chizilgan figuralar xususiyatlari taxlili

Oila a'zolarining grafik tasvir xususiyatlari bolaning ayrim oila a'zosiga nisbatan emotsional munosabatini, bola uni qanday idrok etishi, bolaning "Men obrazi", uning jinsiy identifikatsiya kabi keng qamrovli ma'lumotlar berishi mumkin.

Bolaning oila a'zolariga emotsional munosabatini baholashda quyidagilarga alohida e'tibor berish zarur:

- 1) Tana detallari miqdori: bosh, soch, quloqlar, ko'zlar, ko'z qorachig'i, kipriklar, qosh, burun, yuz, og'iz, bo'yin, yelka, qo'llar, kaft, barmoqlar, oyoq, tovonning mavjudligi.
- 2) Kiyim detallari va bezaklar: bosh kiyimi, yoqa, galstuk, bant, chontak, kamar, tugmacha, soch turmak elementlari, yani kiyimning murakkabligi, bezaklar.
- 3) Figurani chizishda qo'llanilgan ranglar miqdori.

Odatda ijobiy emotsional munosabat uning rasmini chizishda ijobiy kontsentratsiyada namoyon bo'ladi yani tana detallarining miqdori, kiyim detallari va bezaklari hamda turli ranglar qo'llanilishida ifodalanadi. Aksincha, insonga negativ munosabat sxematik tasvir, ba'zida tananing muhim qismlari tushub qoldirilishida ham aks etadi. Odatda bolalar ota yoki onasining rasmini kattalashtirib chizishadi. Bu haqiqatga yaqin. Ba'zida esa chizilgan figuranu munosabati oila a'zolari real munosabatlariga mos kelmaydi. Masalan, 7 yoshli bola o'z ota-onalaridan kattaroq tasvirlanishi mumkin. Bu bola uchun figuraning kattaligi kuch, ustunlik, ahamiyatlilikni ifodalash vositasi bo'lib hizmat qilishidan dalolat beradi.

Masalan, 6 yoshli qiz rasmida onasi otasidan 3 marta katta qilib chizilgan. Bu oilada ona avtoritar rahbar bo'lib, dominantlik qiladi.

Ba'zi bolalar o'zlarini hammadan katta yoki ota-onalari bilan teng qilib chizadilar. Bu esa – bir tomondan, bola egotsentrizmidan, ikkinchi tomondan qarama-qarshi jinsdagi ota yoki onaga "raqobatchi" ekanligini tasdiqlash maqsadida qilinadi. Spu bilan birga "raqibini" kichraytirish yoki umuman chizmaslik hollari ham uchrashi mumkin. O'zlarini ahamiyatsiz ortiqcha deb his qiluvchi hamda ota-onalari tomonidan mehribonchilik, g'amxo'rlik talab qiluvchi bolalar o'zlarini boshqa oila a'zolariga nisbatan ancha kichik hajmda tasvirlaydilar.

Shuningdek, impulsiv, o'ziga ishongan, ustunlikka moyil bolalar o'zlarini juda katta, hatto butun daraxt hajmida tavirlasalar, xavotirlanish, himoyasizlik hissi mavjud bolalar o'zlarini haddan tashqari kichik qilib chizadilar.

Oila a'zolarining xususiyatlarini taxlil qilishda tananing ayrim qismlari tasviriga alohida e'tibor berish lozim. Chunki, tananing alohida qismlari muayan faollik sohasi bilan bog'langan bo'lib muloqot, nazorat, xavotirlanish vositasi bo'lib hizmat qiladi.

Qo'llar dunyoga ta'sir qilish, boshqa odamlar xulq-atvorini jismoniy nazorat qilish vositasi hisoblanadi. Agar bola qo'llarini baland ko'targan holda tasvirlangan bo'lsa, barmoqlari uzun bo'lsa, bu ko'pincha uning agressiv istaklari bilan bog'langan boladi. Ba'zida tashqi ko'rinishdan yovvoyi ko'ringan bolalar ham shunday rasm hizadilar. Bunday bolalar atrofdegilarga nisbatan dushmanlikni his qiladilar, ammo uning asressiv xulq-atvori bosilgan.

Ba'zida bola barcha oila a'zolariga qo'l chizadi, o'ziga esa chizishni unutadi. Agar bunda bola o'zini noproporsional tarzda juda kichik tasvirlasa, bu kuchsizlik, oiladagi o'zining ahamiyatsizligiga, atrofdegilar uni haddan ziyod nazorat qilishi, uning faolligini bo'g'ishi hissidan darak beradi.

Bosh "Men" lokalizatsiyasi, intellectual va pertseptiv faoliyat markazi.



YUz – tananing muloqot jarayonidagi eng muhim qismi. Agar 5 yoshdan oshgan bolalar rasmda tana qismlari - ko'z, og'izni tushirib qoldirsalar, bu muloqot sohasidagi jiddiy buzilishlardan dalolat beradi.

Agar boshqa oila azolarini chizishda bosh, yuz belgilarini qoldirib ketsa yoki yuzni shtrix bilan chizsa, bu shu tasvirlangan shaxs bilan nizoli munosabatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Tish va og'izni alohida ajratish agressiyaga moyil bolallarga xos. Agar bola o'zini emas, oila a'zolaridan birortasini shunday tasvirlasa, ko'pincha bu odamning bolaga nisbatan dushmanchilik munosabati hamda bolaning qo'rquv hissi bilan bog'langan bo'ladi.

#### **Rasm chizish jarayoni taxlili**

Bunda asosiy e'tibor quyidagilarga qaratilishi zarur:

- a) Oila a'zolari rasmini chizishda ketma-ketlik;
- b) detallarni chizishda ketma-ketlik;
- c) o'chirish;
- d) o'chizib bolingan o'bektlar, detallar va figuralarga qaytish;
- e) pauzalar;
- f) spontan izohlar.

Bolalar rasmda birinchi bo'lib emotsional jihatdan eng yaqin odamni aks ettiradi. O'zlarini birinchi bo'lib tasvirlash bolalarga xos bo'lgan yosh xususiyati – egotsentrizm bilan bog'liq. Agar rasm onasi yoki o'zidan emas, boshqa oila a'zolaridan boshlansa, bu shaxs bola uchun qadrli bo'lib unga bog'langan bo'ladi. Agar bola eng oxirida onasini chizsa, bu bolaning unga nisbatan negativ munosabatini bildiradi.

Oila a'zolarini chizishdagi ketma-ketlik taxlili figuralar grafik tasviri xususiyatlari taxlili bilan birgalikda amalga oshirilsa, ishonchli ma'lumotlar olish mumkin. Agar birinchi tasvirlangan figura hajm jihatdan katta, biroq sxematik tarzda, bezatilmagan holda ifodalansa, bu shaxsning bola uchun ahamiyati, oiladagi ustunligi, kuchidan dalolat beradi, ammo bolaning unga nisbatan hissiyotlari ijobiy emas. Ko'pincha bolalar oila rasmi chizish vazifasini olishgach, oila a'zolarini chiza boshlaydilar. Ba'zi bolalar esa avval turli ob'ektlarni quyosh, mebel rasmini chizib, keyin odamlarni tasvirlashga kirishadilar. Bu o'ziga xos himoya reaksiyasi bolib, bola o'ziga yoqimsiz vazifani bajarishni bir oz orqaga suradi. [Ko'pincha bu noqulay oilaviy vaziyat](#), yomon munosabatlar, shuningdek, ba'zida psixolog bilan bolaning aloqasi yomon bo'lganida kuzatiladi.

## **10. 4. “Jil film testi” proektiv metodikasi**

Jil film testini 1959 yilda Rene Jil kashf etgan. Jil film testi uchun qo'zg'atuvchi material bo'lib bolalar va kattalar tasvirlangan 69ta kartinkalar hizmat qiladi. Bunda bolaning boshqalar bilan munosabatlari o'rganiladi. Masalan, rasmda stol atrofida o'tirgan oila tasvirlangan. Bola o'ziga stol atrofida joy tanlashi lozim. Test topshiriqlarida ba'zi vaviyatlarda xulq-atvorning tipik shakllarini tanlash taklif etiladi. Masalan:

-Kim bilan o'ynashni xohlaysan? Tengdoshlaring bilanmi, sendan kattalar bilanmi, kichiklar bilanmi?

Tadqiqot psixologni qiziqtirgan savollarga aniqlik kiritish bilan yakunlanadi. Jil film testi bolaning ikki xil shaxslararo munosabatlari tizimini tavsiflash imkonini beradi:

1. Bolaning boshqa insonlar bilan aniq- shaxsiy munosabatlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar: a) onasi; b) otasi; c) ota-onasi; d) aka-singillari; e) buvi-buvasi;

j) do'sti; z) o'qituvchisi.

2. Bolaning o'zining xususiyatlarini tavsiflovchi xususiyatlar: a)qiziquvchanlik; b)guruxda ustunlik qilishga intilish;c) katta guruxlardagi boshqa bolalar bilan muloqot qilishga intilish; d)yolg'izlikka intilish; e)xulq-atvorning ijtimoiy mosligi.

Olingan natijalar sifat va miqdor jihatidan taxlil qilinadi.

## XI. ILMIY TADQIQOTNING UMUMIY SXEMASI

### Reja:

- 11.1. Ilmiy tadqiqotni o'tkazishning asosiy bosqichlari.
- 11.2. Tadqiqotning psixologik gipotezasi.
- 11.3. Ilmiy tadqiqot gipotezasini empirik tekshirish

### Maqsad:

Talabalarda ildmiy tadqiqot o'tkazishning umumiy sxemasi, ilmiy faraz, muammo xususida nazariy bilimlarni shakllantirish.

### Vazifalar:

1. Ilmiy tadqiqotni o'tkazishning asosiy bosqichlari haqidagi ma'lumotlarni bayon qilish.
2. Tadqiqotning psixologik gipotezasini izohlash.
3. Ilmiy tadqiqot gipotezasini empirik tekshirish haqida ma'lumot berish.

### Tayanch tushunchalar

Muammo; nazariya; ilmiy faraz; tadqiqot predmeti; ichki validlik; tashqi validlik; empirik umumlashma; nazariy umumlashma.

### 11.1. Ilmiy tadqiqotni o'tkazishning asosiy bosqichlari

Albatta har bir ish tadqiqotsiz kechmaydi. Ilm fandagi har bir yangilik, g'oya ilmiy tadqiqot orqali o'z isbotini topadi. Prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimovning ta'kidlaganidek "hozirgi vaqtda ko'z o'ngimizda barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan krrashish har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda" degan fikrni bildirganlar. Har bir o'tkazilgan izlanish ilgari qo'yilgan g'oyani yo tasdiqlaydi yo inkor etadi.

"Agar fanni ulkan bir daraxt deb tasavvur qilsak fundamental tadqiqotlar uning ildizini tashkil etadi. Zero, ildiz qanchalik baquvvat, chuqur ketgan bo'lsa, daraxt shunchalik barq urib yashnaydi, ko'p hosil beradi" degan fikrni bildirganlar. Har bir fanning rivojlanishi o'tkaziladigan izlanishlarning jiddiyligini talab etadi. Quyida ilmiy izlanishni o'tkazish umumiy sxemasi, sxemaga kiruvchi bosqichlarni ta'rifi, ularga qo'yiladigan talablar va izlanishlar bo'yicha bir qator olimlarning fikrlari yoritilgan.

Eksperiment bu ixtisoslashgan sharoitlarda ilmiy bilimlarni olish maqsadida o'tkazilgan tajribadir, uning asosiy xususiyati izlanuvchining o'rganilayotgan ob'ektga maqsadli aralashuvidir.

*Eksperimen turlari.* Normalar asoslarga ko'ra eksperimental izlanishlar bir necha turlarga ajratiladi: ya'ni ilmiy (qidiruv) va tasdiqlovchi eksperimentlar. Ularni qo'yilgan muammolarni darajasi va bog'liq va bog'liq bo'lmagan o'zgaruvchilarning orasida bog'lanish to'g'risidagi bilimning borligi bilan qidiruv eksperiment bog'liq va bog'liq bo'lmagan o'zgaruvchilarning orasidagi bog'lanish no'malum bo'lganda o'tkaziladi. Shuning uchun qidiruv eksperimentining maqsadi o'zgaruvchi A va V lar o'rtasidagi bog'liqlik borligi yoki yo'qligi to'g'risidagi gipotezani tekshirishga qaratilgan.

Agarda ikki o'zgaruvchi o'rtasidagi sifat bog'liqlik to'g'risida ma'lumot bo'lsa bu bog'lanish turi to'g'risida gipoteza ilgari suriladi. Bunda izlanuvchi tasdiqlovchi (konfirmator) eksperiment o'tkaziladi va bog'liq va bog'liq bo'lmagan o'zgaruvchilar o'rtasidagi funktsional miqdoriy bog'liqlik turi aniqlanadi. Izlanish algoritmi quyidagichadir:

1. A va V o'rtasida sifat sabab bog'lanish to'g'risida gipoteza ilgari suriladi.
2. Qidiruv eksperimenti o'tkaziladi.
3. Gipoteza tasdiqlanmasa boshqa sifat gipoteza ilgari suriladi va yangi qidiruv eksperimenti o'tkaziladi, agarda sifat gipoteza tasdiqlansa funktsional miqdoriy gipoteza ilgari suriladi.
4. Tasdiqlovchi eksperiment o'tkaziladi.
5. O'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlik turi to'g'risida gipoteza qabul qilinadi (qabul qilinmaydi) va aniqlanadi.

Har bir ilmiy tadqiqotning bajarilishi jarayonini quyida keltirilgan shartli logik sxema ko'rinishida tariflash mumkin:

1. Tanlangan mavzuning dolzarbligini asoslash (Bu bosqich har bir izlanishning boshlang'ich bosqichidir.)
2. Izlanishning maqsadlari va aniq vazifalarini belgilash.
3. Izlanishning ob'ekti va predmetini aniqlash.
4. Izlanish o'tkazishning metodikasini tanlash.
5. Izlanish jarayonini yoritilishning natijalari muhokamasi.
6. Izlanishda olingan natijalarni baholash va xulosa.

Kurs, diplom ishlari yoki proektlari, dissertatsiya turli professional darajadagi ilmiy ishlardir va muallif ularga mavzu tanlashida, mavzuning muhimligini, dolzarbliligi, ijtimoiy ahamiyati, iqtisodiy va tijorat ahamiyatligiga yondashganligiga qarab uni ilmiy etukligi va amaliy faoliyatga uni professional tayyorgarligiga baho bersa bo'ladi.

**Mavzuning dolzarbligini** yoritish juda ko'p so'z bo'lmasligi, lekin tushunarli bo'lishi lozim. Asoslashni uzoqdan boshlab kelishga hech qanday zaruriyat yo'q. Mavzuning dolzarbligi ko'rinib turadigan holda mavzuni asoslash etarlidir.

**Muommoli vaziyatni** tariflash ilmiy ishning juda asosiy qismidir. "Muommo" - eski bilim o'zining nochorligini sezganida, yangi bilim esa ham o'zi u darajada rivojlanmaganligida paydo bo'ladi.

Demak, ilmdagi "muammo" – o'z vaqtida echish lozim bo'lgan "ziddiyatli" vaziyat. Bunday vaziyat odatda yangi faktlar aniqlanish natijasida, qachonki ular oldingi nazariy izlanishlar va fikrlar doirasi tushmaydi, yani hech bir zamonaviy nazariyalar yangi- yangi aniqlangan faktlarni tushuntirib bera olmaydi.

**Ilmiy tadqiqot maqsadi** - bevosita sharoitlarni o'zaro qarama -qarshiligida hosil bo'ladi. Ilmiy muammoning maqsadini ushbu jabhadagi etishmovchilikni aniqlashda ushbu taqchillikni bartaraf etish ehtiyojini sezishda ilmiy atamalarda muammoli hodisalarni tasvirlashda muammoni shakllantirishda seziladi.

Ilmiy tadqiqot oldiga qo'yilgan vazifaning tabiatiga ko'ra psixologik tadqiqotlarni 3 guruhga ajratish mumkin:

a) ayrim hodisalar yoki shaxslar haqida ma'lumot to'plashga xizmat qiluvchi tajribalar. Bunday tajribalarga tafakkur xususiyatlari, xotira tipini, sezgirlik darajasini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarni misol qilish mumkin.

b) alohida psixik hodisani u yoki bu omilning ta'siriga bog'liqligini aniqlashga xizmat qiladigan tajribalar: masalan: esda qoldirishni materialning sifatiga bog'liqligini aniqlash va hokazo .

v) ikki hodisa o'rtasidagi funktsional aloqani aniqlashga qaratilgan tajriba, masalan, materialning hajmi bilan takrorlashlar soni o'rtasidagi funktsional aloqani o'rganish. Birinchi tipga kiradigan tajribalarni-sifat; ikkinchisini faktorli, uchinchisini-funktsional tajribalar deb atash mumkin.

## Ikki hodisa o'rtasidagi funktsional aloqani aniqlashga qaratilgan tajriba

### 11.2. Tadqiqotning psixologik gipotezasi

**Faraz (gipoteza)** - bu hodisa yoki bir-biriga aloqador hodisalar o'rtasidagi qandaydir qonuniyat, sabablar mavjudligi to'g'risida (egallangan bilimlarga asoslangan holda) bildirilgan taxmindir. Masalan, ta'lim jarayonida bola psixikasining rivojlanishi to'g'risidagi faktlar asosida Yuqori sinf o'quvchilari o'smirlarga nisbatan o'tilgan darslarni yaxshiroq eslab qolish imkoniyatiga egadirlar, ularning bu sohadagi qobiliyatlari ko'proq darajada rivojlangandir, degan taxminni aytilish (farazni olg'a surish) mumkin. Yo bo'lmasa, odam psixikasi butun bir ta'lim jarayoni sifatida rivojlanib borishi va faoliyat ko'rsatishini bilib olinganidan keyin nutq va tafakkurning rivojlanish darajasi o'rtasida o'zaro aloqa mavjudligi to'g'risidagi farazni olg'a surish mumkin. Yoki gipotezaga oid boshqa bir misolni olaylik: kishi o'z qadrini bilishi shaxsning xususiyatlaridan biri sifatida kishining o'smirlik yoshida ko'proq darajada intensivlik bilan shakllanishini xamda o'smirning o'ziga o'zi qanday baho berishi ko'p jihatdan tevarak-atrofdagi kishilarning unga bo'lgan munosabatlari bilan belgilanishini bilgan holda shunday taxmin qilishi mumkinki, o'smirni u yoki bu guruxga kiritilishi uning shaxsiga nisbatan tevarak-atrofdagi kishilar tomonidan xurmat bildirish ehtiyojining mavjudligi bilan izoxlanadi. Bu ayni mana shu guruxda qondiriladi.

Fan metodologiyasida farazlar nazariy va empirik holatlar kabi eksperimental farazlarga ajratiladi. **Nazariy farazlar** ichki nazariyalar va nazariy bilimlar asosida vujudga keladi. Fan farazlari tugallanuvchi, davom ettiriluvchi xarakterga ega bo'lishi kerak.

Ikkinchi tur farazlar **eksperimental usullar** bilan muammolarni hal etuvchi holatlardir. Eksperimental farazlar albatta nazariyaga asoslanishi shart emas.

Insonning faolligi uning dunyosini muammosiz bo'lishini ta'minlaydi. Muammolar ruhiy faollik bilan ham bog'liq. Atrof olamga ko'ra farazlarni 3 ta turga ajratish mumkin. Birinchi turi nazariyalarga yoki borliq modellariga asoslanadi va ularni ochib beradi. Ikkinchi turi ta'limiy eksperimental farazlar, ular voqea va asoslar orasidagi munosabatni ifoda etadi. Ular Feyerbendning "Barchasi tasdiqlanadi" tamoyillari asosida shakllanadi. Uchinchi turi empirik farazlardir. Ular qandaydir model yoki nazariyalar asosida rivojlanadi va shakllanadi.

Qadimgi variantda bunday farazlar Kozma Prutkovaning qarashlarida ifoda etiladi: "Burninga e'tibor ber, u tuklar bilan qoplangan", eksperimentdan keyin bunday faraz isbotlangan.

Isbotlangan farazlarni natijalariga ko'ra ajratish mumkin:

A) hodisa;

B) hodisalar orasidagi aloqa;

V) hodisalar orasidagi aloqaning sabablari.

Farazning A turini ko'rib chiqamiz bunda bitta odamda qancha ramziylik borligi ifoda etiladi.

Farazning B turi bunda bola intellekti va ota-onalarning bunga bo'lgan munosabati tushuntiriladi. Farazning V turida sabablar tushuntiriladi.

Gottsdanker farazlarning quyidagi eksperimental turlarini ajratadi:

■ **Kontr faraz** asosiy betaraflik avtomatik tarzda;

■ **Kontr eksperimental farazlar** faqat laboratoriya eksperimentidan iborat.

■ **Aniq eksperimental faraz** – asosiy sabab va laboratoriya orasidagi aloqa.

■ **Eksperimental maksimal** (yoki minimal) **ko'rsatkichli faraz** – mustaqillik va nomlanishning maksimal bilishlari bilan ko'rsatiladi. Faqatgina juda ko'plab eksperimentlar natijalari asosida isbotlanadi.

■ **AbsolYut eksperimental farazlar** ko'p harakterli eksperimentlarda o'tkaziladi.

**Bir munosabatli eksperimental farazlar** bitta mustaqil va mustaqil bo'lmagan holatlar orasidagi munosabatlarda o'z aksini topadi. Bu eksperimental farazni o'tkazish uchun bitta munosabatga doimiy eksperiment o'tkazilgan bo'lishi, ikkinchisi esa unga nazoratli hodisa bo'lishi kerak.

Ba'zi olimlar farazlarning statistik va fan turlarini farqlaydilar. **Fan farazlari** taklif etilgan muammolarning qarorlaridan shakllangan. **Statistik farazlar** matematik statistika asosida shakllanadi. Istalgan fan farazi statistik ma'lumotlarni talab etadi. Har bir sabab qonuniyatlar, aloqalarni yoki voqealarni isbotlashda ko'plab tushuntirishlar keltirishi kerak. Faraz ikkita tarkib: asosiy va alternativdan iborat. Statistik farazlar ikkita tushunchada qo'llaniladi: N (Farqlanish haqidagi faraz) va N (Ish haqidagi faraz).

Eksperimental faraz eksperiment tuzilmasi uchun, statistik farazlar esa tomonlarning qayd etish uchun olinadi. Ular o'z tuzilmasiga ega va har biri dalillarga tayanadi. Bitta eksperimentni tushuntirish uchun birgina emas, balki bir nechta nazariyalar hisobga olinadi.

SHubhasiz, statistik farazlar juda zarur va eksperimental farazlarning to'ldiruvchisidir. Eksperimental farazlar birinchi o'rinda, statistik farazlar esa ikkilamchidir. Farazlar mavjud nazariy borliq bilimlari: dalillar, qonun-qoidalarsiz eksperiment o'tkaza olmaydilar.

Nazariyani eksperimentda tekshirib bo'lmaydi. Nazariy xulosalar universal hisoblanadi. Agar nazariyadan chiqadigan xulosalar eksperiment jarayonida tasdiqlanmasa, nazariy isbotlanmaydi. Eksperiment natijasini ifodalovchi xulosalar assimetrikdir, ya'ni faraz inkor qilinishi mumkin bo'lgan, lekin hech qachon qat'iy qabo'l qilinmaydi. Har qanday faraz keyingi tekshirishlarda tasdiqlanadi.

### 11.3. Ilmiy tadqiqot gipotezasini empirik tekshirish

**Gipotezami nazariy jihatdan tekshirish** - bu taxmin qilinayotgan fikrni ajratish isbotlangan va ilmiy adabiyotlarda mavjud bo'lgan qoidalar, printsiplar bilan taqqoslashdan iborat bo'lib, natijada shunda qurilayotgan faraz bilan o'sha printsiplar o'rtasida mantiqiy qarama-qarshilik yo'qligi aniqlab olinadi. *Gipotezami eksperiment tarzida tekshirib chiqish* jarayonida uning to'g'riligi yoki to'g'ri emasligi ilmiy tadqiqotlar orqali olingan ma'lumotlarni analiz qilish asosida, tajribalar o'tkazish yo'li bilan belgilanadi.

Tadqiqotchi tomonidan aniqlab olingan va yozib qo'yilgan voqealar, hodisalar *faktlar* deb ataladi. Shuning uchun kuzatuvchanlik ilmiy xodimning qimmatli fazilatlaridan hisoblanadi: u bunday qaraganda tadqiq etilayotgan ob'ektdagi uncha muhim emasdek tuyulgan xususiyatlarni ham, tajriba o'tkazish shart-sharoitlarini ham tez ilg'ab olish va ularga to'g'ri baho bera olish qobiliyatiga ega bo'lmog'i kerak. Qat'iy ilmiy tushunish ma'nosidagi fakt deganda kuzatilayotgan hodisani yangi tajribada yoki boshqa tadqiqotchi olib borayotgan tajribada qayta tiklash imkoniyati nazarda tutiladi.

**Empirik umumlashma** - bu ob'ekt hodisalarini faqat ularning tashqi alomatlarini asosida birlashtirilishidir.

**Nazariy umumlashma** - bu ob'ektlarni (hodisalarini) ularning muhim bir-biriga o'xshashlik belgilariga qarab, ya'ni mazkur hodisaning o'ziga xos xususiyatini belgilovchi tomonlariga qarab birlashtirilishidir.

Chunonchi, barcha o'quvchilarni kuzatish asosida ikki intizomli va intizomsiz o'quvchilar guruxiga ajratish mumkin. Bunday ajratish empirik umumlashtirish bo'ladi, chunki bu o'rinda o'quvchilarning faqat tashqi harakteristikasi hisobga olinmoqda. Agar bir o'quvchilarni ularning temperamenti xususiyatlariga qarab, funktsional xolatining o'ziga xosligi va shu singarilarga qarab birlashtiradigan bo'lsak, bu xildagi guruxlarga ajratilgan ishimiz nazariy umumlashmaning natijasi bo'ladi, chunki bu o'rinda biz bir xil

o'quvchilarning intizomsizliklari, boshqalarning esa intizomli ekanliklari sababini izoxlab beramiz.

Eksperiment metodikasiga tadqiqot o'tkaziluvchilar uchun topshiriq (ish uchun instruksiya, material va xokazolar) tajriba o'tkazish shart-sharoitlarining bayoni (eksperiment gurux yoki individual tarzda o'tkazilishi, qancha vaqt davom etishi), sinalayotgan kishilarning tarkibi va miqdori, tajriba o'tkazilayotganda almashinib turgan kishilarning bir-biriga bog'liqligi va bog'liq emaslik darajasini aniqlash singari tadbirlar kiradi.

Tajriba tariqasida o'quv-tadqiqot ishlarining quyidagi turlarini ko'rsatish mumkin:

1. Kuzatishlar o'tkazish (masalan maktab o'quvchisini kuzatish, norasmiy xoldagi maktab o'quvchilaridan tashkil topgan mikroguruxni va sinf jamoasini kuzatish, o'qituvchini kuzatish va xokazo).

2. Muayyan eksperimental metodikani egallab olish. Ushbu metodika albatta, vakillikka ega bo'lishi lozim. Ya'ni tanlangan metodika maqsad asosida belgilangan vazifalarni hamda farazni tekshirish imkoniga ega bo'lsa, u xolda tanlangan metodika validlikka ega deyiladi. Validlik - ishonchimizning darajasi, u yoki bu tanlangan test, o'lchov yo eksperiment haqiqatan belgilangan vazifani echishga qodirligi yoki aksi haqidagi ishonchimiz darajasi.

A) ichki validlik - haqiqatan ham kuzatilayotgan effekt eksperimental yondashuvning natijasi;

B) tashqi validlik - eksperimentimiz ijobiy natijaga ega bo'lgan holda ham, keng ommaga qo'llab bo'lmasligi.

3. Mazkur o'quv guruxida (yoki mazkur sinfdagi) muayyan psixik xolatlar Yuzasidan o'quvchilardagi individual-psixologik farqlar hamda o'rtacha ko'rsatkichlarni o'rganish.

4. Turli o'ziga xos psixik xususiyatlarning ifodalanishi o'rtasidagi o'zaro aloqalarni aniqlash.

Dastlab to'g'ri psixologik kuzatish olib borish malakasini hosil qilish zarur. Uni bajarayotganda kuzatish rejasini tuzib chiqish, ob'ektlarni tanlash, maqsadni belgilab olish, alohida e'tibor berilishi zarur bo'lgan belgilarni aniqlab qo'yish lozim; kuzatishni vaqt bo'yicha taqsimlab chiqish lozim va xokazo. YAngi faktlarning olg'a surilishi, eksperiment tarzida tekshirib chiqish talab qilinadigan yangi-yangi masalalarni o'rtaga qo'yish ushbu ish turining ilmiy maqsadi bo'lishi mumkin. Ayrim o'quvchilarni, o'quvchilar guruxi yoki o'qituvchilarni ta'riflab beradigan ma'lumotlar to'plash bu ishning amaliy maqsadi bo'lishi mumkin.

Ishning ikkinchi turi muayyan metodikani egallab olish bilan bog'liq bo'lib, turli sharoitlarda sinov o'tkaziladigan turli kishilarga nisbatan ko'p marta tadbiriq etishni talab qiladi. Bunday ishning ilmiy maqsadi u yoki bu metodikani qo'llanish chegaralarini qidirib topish va uning variantlarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Ishning uchinchi turi gurux uchun o'rtacha ahamiyatga ega bo'lgan (yoki ancha harakterli) jixatlarni statistik aniqlashning elementar metodlarini egallab olishni nazarda tutadi.

Ishning turtinchi turi muammoning o'rganilayotgan o'ziga xos ayrim tomonlari o'rtasidagi statistik aloqalarni aniqlash metodlarini egallab olishga yordam beradi. Bu o'rinda turli yoshdagi va har xil ixtisosdagi sinalayotgan kishilarning psixik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida, psixik hodisalar o'rtasidagi o'zaro aloqalar haqida yangi axborotlar olish, ma'lumotlarni qayta tekshirish va shu singari ishlar ilmiy maqsad bo'lib xizmat qilishi; ishning amaliy maqsadi - turli kursdagi studentlar va har xil

sinfdagi maktab o'quvchilari to'g'risida fakultet yoki maktab uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar olishdan iborat bo'lishi mumkin.

**Izlanish obekti-** bu " muammoli vaziyat" va tanlangan maxsus o'rganishdagi jarayon yoki hodisa. Psixologik tadqiqotlar ob'ekti sifatida yo aloxida individ, yoki gurux bo'lishi mumkin.

**Izlanishning predmeti-** bu izlanish ob'ekti chegarasidagi narsa.

Izlanish ob'ekti va predmeti bilishning ilmiy jarayoni kategoriyasi sifatida o'zaro uzviy - umumiy va xususiy bog'liq bo'lib, chunki ob'ektning izlanish predmeti bir qismi bo'lib xizmat qiladi.

Ayni unga izlanuvchining asosiy e'tibori qaratilgan, ayni izlanish predmeti *ilmiy- tekshirishning mavzusini belgilaydi.*

Ilmiy izlanishning metodika (uslubiyat) tanlash bilan bog'liq keyingi bosqichi asosiy bosqichlardan hisoblanadi, yani u ishni bajarish uchun asosiy instrument bo'lib, ilmiy ishda qo'yilgan maqsadga erishish uchun asosiy shart bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonini ifodalash ilmiy - tekshirish ishining asosiy qismi, unda logik qonun va qoidalardan foydalanib tadqiqotning metodikasi, texnikasi, texnologiyasi, operatsiyalari yoritiladi.

Ilmiy tadqiqotning eng asosiy bosqichi uning natijalari muxokamasi, bu narsa raxbar, kafedra majlislari, ilmiy kengashlarda o'tkaziladi, bunda ilmiy ishning nazariy va amaliy ahamiyatiga baxo beradi.

**So'nggi bosqich-** bu xulosani tarifi unda bajarilgan ilmiy ishning yangi ilmiy va amaliy natijalari o'z aksini topadi.

Eksperiment nazariyani tekshirib ko'rish uchun o'tkaziladi. Nazariya ichki bilishning nutqiy tizimiga izoh beradi. Nazariyaning mantiqiy qismlari bir-birini rad etadi. Nazariya asosida uning tushunarli ob'ektiv haqiqatlari yotadi.

Mavjud ko'plab shakllar nazariy bilish: qonunlar, tasniflar va turlar, modellar, sxemalar, farazlardan iborat. Har bir nazariya o'ziga quyidagi tarkibiy qismlarni oladi: 1. Empirik oqibatlar poydevori (dalillar, empirik qonun-qoidalar). 2. Asos – ko'plab birlamchi sharoitlar (faraz, shart-sharoitlar farazi, aksioma), bu nazariyaning fikriy ob'ekti sifatida qaraladi. 3. Ko'plab nazariyalar asosiy nazariy bilimlarni mustahkamlaydi.

Nazariy bilimlar tarkibiy qismlarining kelib chiqishi turlichadir. Nazariyaning empirik tuzilishi tadqiqot va eksperiment natijalari bilan izohlanadi. Nazariyaning ideallashtirilgan ob'ekti o'zi bilan (tanish) aniqlikning tanish-ramziy modelini yaratadi. Qonunlar nazariyani shakllantiradi, ayni paytda (aniqlikni) borliqni emas, ideal ob'ektning ta'riflaydi. Uslubiy qurilma aksiomani va gipotetik-deduktiv nazariyalarni rivojlantiradi. Birinchidan, nazariyaning ramkasi bo'lmish, isbot talab etmaydigan, zarur va etarli bo'lgan aksiomalardan qurilgan bo'ladi. Ikkinchidan, farazlarning empirik, induktiv asoslari mavjudligi, nazariyalar matematik apparatning sifat qurilmasi tarzida, shakllan, rasmiy tomondan rivojlanadi. Sifat nazariyalarni psixologiyada A. Maslouning qarashlari, L. Festinger, Dj. Gibsonning ekologik idrok qarashlarida ko'rish mumkin. SHakliy nazariyalar qo'llaniladigan matematik apparatning tuzilishida namoyon bo'ladi. Bu nazariya D. Xonsonning ishlarida o'z aksini topgan, aqliy nazariya J. Piaje, motivlar nazariyasi K. Levin, D.Kelli tomonidan yaratilgan. Formal nazariyalar matematikada ishlatiladigan apparatda namoyon bo'ladi.

Empirik yo'nalish nazariyaning sifatini rivojlantiradi, haqiqatni yozish uchun lozim bo'ladi. Nazariya faqatgina borliqni aks ettirmaydi, balki uning tuzilishini ham ko'rib chiqadi, eksperimental natijalar, nazariyaning holati va uning ta'sirini hisobga oladi.

Mavjud vaqtda o'tkazilgan eksperiment natijalarida faqat bitta emas, balki ikki yoki undan ortiq nazariyalar isbotlanib tushuntiriladi. Masalan, psixofiziologiyada sensorning uzluksizligi haqida nazariya mavjud. Psixofiziologiyada shaxsning bir qancha sifatleri va empirik ta'sir etuvchi omillari isbotlangan. (G. Ayzenk modeli, R. Kettell modeli, "Katta beshlik").


Taniqli metodolog B. Feyerbend "Tirishqoqlik tamoyili"da eski nazariyalarni rad etmaslik lozim, hatto ularning aniq isbotlarini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi, deb hisoblaydi. Ikkinchi uning tamoyili metodologik anarxizm tamoyili: "Fan o'zi bilan anarxistlikni vujudga keltiradi, nazariya



qonunlar asosida har doim progressiv rivojlanishda. Bu tarixiy voqealarni analiz qiladi va isbot etadi, fikr va harakat orasidagi munosabatni mavhum tahlil qiladi. Asosiy tamoyil progressiyaga to'sqinlik qilmaydi, bu "Hammani qo'yib yuboramiz" deb ataladi. Masalan, biz farazlarni qo'llashimiz mumkin, bular nazariyada ko'rsatilgan va eksperiment natijalarida isbotlangan bo'lishi lozim. Fanni konstruktiv harakatlar bilan rivojlantirish mumkin" (Feyerbend. 1986). Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ilmiy tadqiqot muayyan bir tizimga tushirilgan, mantiqiy uzviylikka ega bo'lgan, ilmiy amaliy yangiliklar yaratishga qaratilgan ilmiy asardir. Har bir o'tkaziladigan ilmiy tadqiqot ushbu uzviylik asosida mantiqiy xulosalarga, nazariy kontseptsiyalarga tayangan holda olib boriladi.

**Mavzuni mustahkamlashga oid amaliy topshiriqlar:  
"Qanday" organayzeri**

Muhim muammoning echimini topishga yordam beradi va "Qanday" savoli orqali muammo hal qilinadi.



**"FSMU" usuli**

Ilmiy farazni nazariy va empirik tekshirishning ilm-fandagi yutuqlarini "FSMU" usuli orqali tahlil qiling.

1)

Ilmiy farazni nazariy tekshirishning ilm fandagi Yutuqlari ko'proqdir.	
F	
S	
M	
U	

2)

Ilmiy farazni emperik tekshirishning ilm fandagi Yutuqlari ko'proqdir.	
F	
S	
M	
U	

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar?**

1. Ilmiy tadqiqot nima?
2. Ilmiy tadqiqot qanday tuzilishga ega bo'ladi?
3. Ilmiy tadqiqotning dolzarbligini asoslashda nimalarga ahamiyat qaratish lozim?
4. Ilmiy tadqiqot maqsadini to'g'ri tanlash nimalarga bog'liq?
5. Nazariya nima?
6. Tadqiqotning ilmiy farazi nima va uning qanday turlari mavjud?
7. Nazariy va empirik umumlashmani sharhlang.
8. Tashqi va ichki validlik nima?

### **Mavzu bo'yicha test topshiriqlari**

#### **1. Empirik umumlashma nima?**

A) ilmiy bilish shakllaridan biri hisoblanib, hodisalar orasidagi mantiqiy bog'liqlik yoki buning aksini isbotlab beruvchi ichki bilishning nutqiy ifodasidir

V) bu hodisa yoki bir-biriga aloqador hodisalar o'rtasidagi qandaydir qonuniyat, sabablar mavjudligi to'g'risida (egallangan bilimlarga asoslangan holda) bildirilgan taxmindir

S) bu ob'ektlarni (hodisalarni) ularning muhim bir-biriga o'xshashlik belgilariga qarab, ya'ni mazkur hodisaning o'ziga xos xususiyatini belgilovchi tomonlariga qarab birlashtirilishidir

\*D) bu ob'ekt hodisalarini faqat ularning tashqi alomatlarini asosida birlashtirilishidir

#### **2. Nazariya nima?**

\*A) ilmiy bilish shakllaridan biri hisoblanib, hodisalar orasidagi mantiqiy bog'liqlik yoki buning aksini isbotlab beruvchi ichki bilishning nutqiy ifodasidir

V) bu hodisa yoki bir-biriga aloqador hodisalar o'rtasidagi qandaydir qonuniyat, sabablar mavjudligi to'g'risida (egallangan bilimlarga asoslangan holda) bildirilgan taxmindir

S) bu ob'ektlarni (hodisalarni) ularning muhim bir-biriga o'xshashlik belgilariga qarab, ya'ni mazkur hodisaning o'ziga xos xususiyatini belgilovchi tomonlariga qarab birlashtirilishidir

D) bu ob'ekt hodisalarini faqat ularning tashqi alomatlarini asosida birlashtirilishidir

#### **3. Bilish ehtiyojini qondirishda tafakkur qilish sharti bo'lgan psixologik hodisa nima deb ataladi?**

A) nazariya

\*V) muammo

S) ilmiy faraz

D) ob'ekt

#### **4. Ob'ektlarni (hodisalarni) ularning muhim bir-biriga o'xshashlik belgilariga qarab, ya'ni mazkur hodisaning o'ziga xos xususiyatini belgilovchi tomonlariga qarab birlashtirilish nima deb ataladi?**

A) Tashqi validlik

V) Empirik umumlashma

\*S) Nazariy umumlashma

D) Tadqiqot predmeti

#### **5. Ilmiy faraz nima?**

A) ilmiy bilish shakllaridan biri hisoblanib, hodisalar orasidagi mantiqiy bog'liqlik yoki buning aksini isbotlab beruvchi ichki bilishning nutqiy ifodasidir

\*V) bu hodisa yoki bir-biriga aloqador hodisalar o'rtasidagi qandaydir qonuniyat, sabablar mavjudligi to'g'risida (egallangan bilimlarga asoslangan holda) bildirilgan taxmindir

S) bu ob'ektlarni (hodisalarni) ularning muhim bir-biriga o'xshashlik belgilariga qarab, ya'ni mazkur hodisaning o'ziga xos xususiyatini belgilovchi tomonlariga qarab birlashtirilishidir

D) bu ob'ekt hodisalarini faqat ularning tashqi alomatlarini asosida birlashtirilishidir

## XII. EKSPERIMENTLARNI O'TKAZISH SHART-SHAROITLARI VA BOSQICHLARI

### Reja:

12.1. O'zgaruvchilar: mustaqil, tobe, idora qilsa bo'ladigan, tasodifiy.

12.2. Randomizatsiya. Aralashuvchi omillar.

13.3. Ichki validlikka xavf soluvchi omillar: fon, etilish, saralash, o'lim, testlash, statistik regressiya tushunchalari

### Maqsad:

Talabalarda eksperiment o'tkazish shart-sharoitlari va bosqichlari haqida tushuncha hosil qilish, dunyoqarashini shakllantirish orqali mutaxassis shaxsini rivojlantirish.

### Vazifalar:

1. Eksperiment o'tkazishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan mustaqil, tobe, idora qilsa bo'ladigan, tasodifiy o'zgaruvchilar haqidagi nazariy ma'lumotlarni tahlil qilish orqali ularning ilmiy tadqiqotdagi rolini asoslash.

2. Randomizatsiya va aralashuvchi omillar haqidagi ma'lumotlarni bayon qilish.

3. Ichki validlikka xavf soluvchi omillar: fon, etilish, saralash, o'lim, testlash, statistik regressiya tushunchalarini mohiyatini yoritib berish


### Tayanch tushunchalar.

Mustaqil o'zgaruvchilar; tobe o'zgaruvchilar; idora qilsa bo'ladigan o'zgaruvchilar; tasodifiy o'zgaruvchilar; randomizatsiya; aralashuvchi omillar; fon; etilish; saralash; o'lim; testlash; statistik regressiya.

### 12.1. O'zgaruvchilar: mustaqil, tobe, idora qilsa bo'ladigan, tasodifiy.

### 12.2. Randomizatsiya. Aralashuvchi omillar.

Har qanday eksperiment jarayonida o'zgaruvchi ko'rsatkichlar eksperiment natijalariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Biz ushbu bobda aynan eksperiment o'tkazish shart-sharoitlari, umuman eksperiment jarayonida o'z ta'sriga ega bo'lgan o'zgaruvchilar xususida to'xtalib o'tamiz.



Eksperiment jarayoniga katta, intensiv ta'sir o'tkazadigan ko'rsatkichlarga mustaqil o'zgaruvchilar deb ataladi. Ushbu o'zgaruvchining muhim tomoni shundaki, bu ko'rsatkich ishtirokchilarning xulq-atvoriga bog'liq bo'lmaydi. Eksperimentatorning o'zi mustaqil o'zgaruvchilarni boshqaradi va ikki va undan ortiq darajalarini belgilab beradi, ishtirokchilar esa bu jarayonni o'zgartira olmaydilar. Masalan, tasavvur qiling biz sinoluvchining muayyan intensiv chiroq yorug'ligi ko'rinishidagi signalga javob tarzda tugmachani bosishi uchun ketgan vaqtni aniqlashga urinyapmiz. Eksperiment davomida chiroq yorug'ligining intensivligini mustaqil o'zgaruvchi deb qabul qilsak, uning ikki darajasini: past va yuqori darajalarini ko'rsatishimiz mumkin va aynan shu o'zgaruvchi ta'sirida xulq-atvordagi boshqa o'zgarishlarni

kuzatishimiz mumkin. Ikkitadan kam miqdordagi o'zgaruvchilar bilan eksperiment o'tkazish mumkin emas, biroq eksperimentatorning tashabbusi bilan bir qancha o'zgaruvchilar darajasini tanlash va ulardan faqat bittasini muhim sifatida ajratib olish mumkin.

Eksperimentator tomonidan mustaqil o'zgaruvchi tanlab olingandan so'ng ushbu manipulyativ o'zgaruvchiga nisbatan ishtirokchilarning javob reaksiya sini aniqlab olish ham muhimdir. Biz tomonimizdan o'rganish uchun tanlab olingan xulq-atvor ko'rsatkichi tobe o'zgaruvchi deb nomlanib, u ishtirokchilarning xatti-harakatlariga bog'liq bo'ladi. Masalan, yuqoridagi misolga ko'ra, chiroq yorug'ligi intensivligi va reaksiya vaqti orasida qanday bog'liqlik borligini aniqlash lozim. Bu erda signaldan so'ng tugmachani bosishga sarflangan vaqt oralig'i tobe o'zgaruvchini tashkil etadi. Ba'zida kutilayotgan bog'liqlik xarakteriga ko'ra ilmiy farazlarni shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bizning ushbu tajribamizning ilmiy farazini quyidagicha shakllantirish mumkin: chiroq yorug'ligini intensivligi javob reaksiyalarini tezligini ta'minlashi mumkin. Eksperiment natijasi esa ushbu ilmiy farazni tasdiqlab, uning ilmiy ahamiyatini yoritib beradi yoki aksincha, ilmiy faraz o'z tasdig'ini topmay yana boshqa ilmiy izlanishlarga xizmat qilishi mumkin.

Ba'zi hollarda ilmiy farazlar noaniq va mujmal ko'rinishga ega bo'lib, shunchaki, mustaqil o'zgaruvchilar ta'sirida xulq-atvor qanday o'zgarishi mumkinligiga javob berish holatiga o'xshab qoladi. Bunday vaziyatda ilmiy faraz qandaydir savolga javobga o'xshab qoladi. Ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy muammolarning echimiga qaratilgan savollargina ilmiy farazga aylanishi va amaliy qiymatga ega bo'lishi mumkin. Masalan, agar tadqiqotchi tig'iz vaqt agressivlikni keltirib chiqaruvchi omil bo'la olishi mumkin yoki mumkin emasligini aniqlashga urinsa va buni ilmiy jihatdan asoslab bera olsagina qo'yilgan muammo ilmiy farazga aylanishi mumkin.

Hozirga qadar biz eksperimentni manipulyatsiya, ya'ni boshqaradigan bittagina ko'rsatkich – mustaqil o'zgaruvchinigina ko'rib chiqdik. Biroq, eksperiment jarayoniga ta'sir etadigan boshqa shart-sharoitlarni ham hisobga olish kerak. Muhimi shundaki, eksperiment jarayoniga ta'sir etadigan sharoitlarni shunday yo'llar bilan nazorat qila olish kerakki, natijada ular idora qilsa bo'ladigan o'zgaruvchilarga aylanadi. Biz qachon o'zgaruvchilarni idora qila olamiz, qachonki, ularni o'rnatilgan darajasidan o'zgarmay qolishini nazorat qilsak bunga erishamiz. Biz Yuqorida keltirgan misolga ko'ra, tajriba vaqti davomida binodagi yorug'likni o'zgarmasligi, ishtirokchilar orasida chapaqaylarning bo'lmasligi, xona haroratining bir xilligi va boshqalarni idora qilsa bo'ladigan o'zgaruvchilarga kiritish mumkin. Ideal sharoitda eksperiment davomida hech bir ko'rsatkich mustaqil o'zgaruvchilar ta'sirida o'zgarmay, doimiy bo'lib qoladi. Bu bizga tobe o'zgaruvchidagi har qanday o'zgarishlar mustaqil o'zgaruvchi ta'sirida amalga oshishini ko'rsatib beradi.

Nazorat tushunchasi eksperiment uchun muhim bo'lib, uning boshqa tadqiqot ishlaridan farqini ko'rsatib beradi. Eksperiment davomida qator idora qilsa bo'ladigan o'zgaruvchilar aniqlab olinishi lozim. Eksperimentatorning vazifasi shundaki, u eksperiment davomida idora qilsa bo'ladigan barcha o'zgaruvchilarni ko'zdan qochirmasligi kerak. Nazorat qilish eksperiment metodining asosini tashkil etadi. Aynan shuning uchun ham psixologlar ovoz, yorug'lik va haroratni nazorat qilish uchun maxsus sharoitlarni yaratishga va reaksiyani diqqat bilan o'rganishga yordam beradigan maxsus uskunalardan foydalanishga harakat qiladilar.

Eksperiment jarayonida barcha o'zgaruvchilarni idora qilinadigan o'zgaruvchilar toifasiga kiritish mumkin emas. Birinchidan, barcha ko'rsatkichlar nazorat qilinmaydi. Faqatgina genetik va ijtimoiy omillarnigina idora qilish mumkin emas, balki, eksperiment ishtirokchilari, sinaluvchilarga umumiy ustanovkalar berish, ularning ziyaklik darajasi, moddalar almashinuvi va boshqa situativ omillar bir xil deb bo'lmaydi.

Ikkinchidan, aslida eksperiment jarayonida barcha o'zgaruvchilarni nazorat qilmaymiz, chunki, bizning maqsadimiz vaziyatlarning o'ziga xos xususiyatlarini jamlashga e'tibor qaratish emas. Agar biz mustaqil o'zgaruvchilar ta'siridagi barcha ko'rsatkichlarni idora qila olsak, bunda eksperiment yordamida aniqlangan barcha qonuniyatlar kam sonli idora qilsa bo'ladigan o'zgaruvchili vaziyatlarga tegishli bo'lib qoladi. Boshqacha aytganda, biz eksperiment natijasini

muayyan vaziyatdan boshqasiga qo'llay olmaymiz. Qoidaga binoan, eksperiment qanchalik nazorat qilinsa, natijalar shunchalik kam darajada umumlashtirilgan bo'ladi.

Tasavvur qiling, sizga AQSH havo-harbiy kuchlarining generallaridan biriga kelib shunday desa: "Mening eshitishimcha, siz reaksiya vaqti bo'yicha eksperiment o'tkazibsiz. Aytinch, uchuvchilar yong'in vaqtida jadal ravishda reaksiya bildirishlari uchun binodagi signal chiroqlari qanchalik darajada yorug' bo'lishi darkor". Yaxshi nazorat qilingan eksperiment o'tkazgan holda siz shunday javob berasiz: "Janob, agar siz uchuvchilar IQ si 115 ballga teng bo'lgan 19 yoshli ikkinchi kurs talabalari bo'lishini, ular 5x7 metrli konditsioneri bor xonada o'tirishini, ushbu xonada ularni chalg'ituvchi tovushlar bo'lmasligini, ular boshqa hech qanday ish bilan band bo'lmasligini va nihoyat, siz ogohlantiruvchi signalni xavf chiroqchalari yongunga qadar bosishga kafolat bersangiz men sizning savolingizga javob beraman". Siz general bu vaziyatda qanday javob berishi mumkinligini tasavvur qila olasizmi. Ushbu vaziyatdan shuni anglab etish mumkin: agar siz eksperiment natijalarini umumlashtirmoqchi bo'lsangiz, barcha ko'rsatkichlarni nazorat qilmaslik kerak.

Eksperiment natijalarini umulashtirish, qolaversa, sabab va oqibat bog'lanishlari boshqa insonlar, vaziyat va vaqtning ta'sirida yuz bersa bu tashqi validlik hisoblanadi. Kuk va Kempellar validlikning bir qancha tiplari nomlarini fanga kiritganlar. Ular tomonidan qo'llanilgan validlik tushunchasi sabablar haqidagi eksperimental xulosalarni yaroqlilik diapozoniga tegishlidir. Tashqi validlikka tahdidlar qachonki tadqiqotchi muayyan cheklovlarga ega bo'lgan eksperimental to'plamda, masalan, talabalar guruhida tadqiqot o'tkazib, ulardan olingan natijalarni yoshi yoki intellektual salohiyatidan qat'iy nazar barcha insonlarga nisbatan qo'llasa yuzaga kelishi mumkin. Boshqa misol keltiradigan bo'lsak, agar tadqiqotchi nazorat qilinadigan laboratoriya eksperimentidan olinadigan natijalarni real ishlab chiqarish sharoitiga, ya'ni sershovqin, issiq va tor joy, ishchilari esa katta tajribaga ega bo'lishlariga qaramay charchagan va ishtiyoqi past darajada ishlayotgan sharoitda qo'llasa tashqi validlikka xavf tug'iladi. Boshqacha aytganda, tadqiqotchi qanchalik eksperimentni nazorat qilsa, qolaversa,sharoitlarni qanchalik ko'p qismini idora qilinadigan o'zgaruvchilarga aylantirsa tashqi validlikka xavf darajasini ortish ehtimoli kuchayib ketadi.

Eksperiment davomidagi barcha sharoitlarni nazorat qilish maqsadga muvofiq emasligi aniqlangandan so'ng bir muammo yuzaga keladi: eksperiment jarayonidagi qolgan ko'rsatkichlarni nima qilish mumkin? Bunday vaziyatdagi echimlardan biri ularni o'zgarishlariga imkoniyat yaratishdir. Nima qilsak, ushbu ko'rsatkichlar o'zgarishi bilan bizning eksperiment natijalari o'zgarmaydi? Buning echimi shundaki, ayrim ko'rsatkichlarga tasodifiy tarzda o'zgarishiga imkoniyat yaratish lozim. Bunday ko'rsatkichlar tasodifiy o'zgaruvchilar deb nomlanadi.

Tasodifiy o'zgaruvchilar nazorat etilmagan holda o'zgaradi, biroq eksperimentatorning bu ko'rsatkichlar mutloq tasodifiy tarzda o'zgarishiga ishonchi komil bo'lishi kerak. Tasodifiy o'zgarishlar ko'p marotaba takrorlangan sharoitda eksperiment natijalarining o'zgarishligi ehtimoli kam bo'ladi. Masalan, aytaylik, siz televideniya orqali namoyish etilayotgan zo'ravonlik holatlarini boladagi agressivlikni shakllanishiga ta'sirini aniqlamoqchisiz. Siz taxminan 100 nafar 6-yoshli bolalarni tanlab olasiz va ularga zo'ravonlik elementlari aks etgan teleko'rsatuvlarni ko'rishni, taxminan 100 nafar 6-yoshli bolaga esa faqat tarbiyaviy ko'rsatuvlarni ko'rish topshiriqlarini berasiz. Siz tanlagan birinchi guruh bolalarining aksariyati ikkinchi guruh bolalaridan farqli ravishda yaxshi tarbiyalanmagan bolalar bilan o'qishi yoki ko'p shakar moddasini iste'mol qilishi, yoki zo'ravonlik elementlari mavjud bo'lgan oilada yashashi mumkinmi? Agar to'plam haqiqatdan ham tasodifiy tarzda to'plangan bo'lsa statistik jihatdan buning ehtimoli kam, chunki aksariyat to'plamlar asimmetrik harakterga ega bo'ladi. Tasavvur qiling, siz bolaga zo'ravonlik elementlari bo'lgan ko'rsatuvlarni yoki oddiy ko'rsatuvlarni ko'rishni tavsiya etyapsiz. Balki, birinchi guruh ishtirokchilarining aksariyatining uyida katta ekranli televizor, ikkinchi guruh ishtirokchilarida esa kichkinagina televizor bo'lgan ma'quldir? Balki shundaydir, lekin buning ehtimoli kam: to'plamning tasodifiylik harakteri bu imkoniyatni ahamiyatlilik darajasini kamaytiradi.

## 12.2. Randomizatsiya. Aralashuvchi omillar

Tasodifiy to'plamni (randomizatsiya) yig'ish oddiydir. To'plam uchun xos bo'lgan umumiy xususiyatlarni tanlab olish usulidan foydalanish mumkin. Agar siz ikkita umumiy elementni tanlab olgan bo'lsangiz, ulardan bittasini, eng ummiyroq'ini tanlashingiz lozim. Umumiy elementlar soni qanchalik ko'p bo'lsa ularning yagona eng umumiyrog'ini ajratib olish darkor. Ko'pgina matematik ma'lumotnomalarda maxsus jadvallar keltirilgan bo'lib, ularda tasodifiy tanlanma sonlar qatori keltirilgan. Aynan shu qatorlar yordamida tanlanma tasodifiy sonlarni aniqlash mumkin. Agar siz qandaydir sharoitni tasodifiy o'zgaruvchiga aylantirmoqchi bo'lsangiz, unda siz ushbu sharoit haqiqatdan ham tasodifiy tarzda o'zgarayotganiga amin bo'lishingiz lozim, chunki, tasodifiy tuyulgan har qanday sharoit aslida bunday bo'lmasligi mumkin. Masalan, agar siz o'zingiz sharoit yaratib eksperimentni randomizatsiyalamoqchi bo'lsangiz, siz ularni randomizatsiyalamagan bo'lasiz. Bizga ma'lumki, insonlar tasodifiy hodisalarni qiyinchilik bilan boshqaradilar. Agar siz sinaluvchilar kun yoki semestr davomida eksperimentdagi tasodifiy ishtirokchi bo'la oladilar deb hisoblasangiz adashasiz. Insonlarning kunduz kuni, kechqurun yoki bir oy davomida qilishni istagan narsalari turli harakterga ega bo'ladi. Yangi eksperimentatorlar ko'pincha randomizatsiyalashda xatoliklarga yo'l qo'yadilar.

Tasodifiy o'zgaruvchilarni qo'llanilishining asosiy afzalligi – natijalarni umumlashtirish mumkin va tashqi validligi kuchli bo'ladi. Yuqorida biz ta'kidlab o'tganimizdek barcha sharoitlar eksperiment davomida nazorat qilib borilsa uning natijalarini umumlashtirishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Aynan mana shunday holatni oldini olish uchun eksperiment davomida tasodifiy o'zgaruvchilarni ishtiroki ta'minlansa, tadqiqot natijalarini umumlashtirish imkoniyati Yuzaga keladi. Shundagina randomizatsiya samarali eksperiment vositasiga aylanadi.

Endi randomizatsiya o'zi nima ekanligiga to'xtalib o'tsak.

Ayrim vaziyatlarda sharoitlarni tasodifiy yoki idora qilsa bo'ladigan o'zgaruvchilar sifatida ko'rib chiqishning o'zi etarli emas. Randomizatsiya va idora qilinadigan o'zgaruvchilar ikki qutbda joylashgan holatlardir. Mana shu ikki qutb oralig'ida cheklangan randomizatsiyaning turli darajalari joylashadi. Bunday vaziyatda hodisalarni bir qismi idora etiladi va boshqa qismi randomizatsiyalanadi. Aytaylik, bizning reaksiya vaqtini aniqlashga qaratilgan tadqiqotimizda bir necha bor mashq qilish muhim o'zgaruvchi bo'lishi mumkinligini bilamiz. Agar dastlabki urinish yorug'lik intensivligining zaifligi bilan harakterlanib, keyingi urinishlar yuqori yorug'lik intensivligiga etib borsa, bizni eksperiment natijasiga ta'sir etganlikda ayblashlari mumkin: chunki, yorug'likning har qanday zaif va kuchli intensivligiga nisbatan reaksiya vaqti orasidagi farq bir necha bor mashq qilganlik bilan shartlangan bo'lishi tabiiy holdir. Bunday muammodan qochish uchun mashq qilish ko'rsatkichini nazorat qilishimiz va har bir sinaluvchiga bir marotabadan urinib ko'rish imkoniyatini berishimiz mumkin. Yoki zaif va kuchli intensivlikda urinishlarni tasodifiy tarzda tashkil etishimiz mumkin. Masalan, 12 marotaba tanga tashlab, agar rasmlil tomoni tushsa Yuqori intensivlikdagi chiroqni, raqamli tomoni tushsa zaif intensivlikdagi chiroqni yoqishimiz mumkin. Biroq, bu ham unchalik ishonchli usul emas, chunki bitta tomon bir necha bor ketma-ket tushib qolishi va eksperimentga noadekvat tarzda ta'sir etishi mumkin. Bu muammodan qochish uchun ehtimollar nazariyasiga muvofiq teng miqdordagi urinishlarni hisobga olamiz. Shu tariqa urinishlarga bir qancha cheklavlarni kiritamiz va ularni taqsimlashda tasodifiylik qoidasiga amal qilamiz. Buning uchun 6 ta qog'ozga "Yuqori intensivlik" va 6 ta qog'ozga "zaif intensivlik" so'zlarini yozib qo'yamiz va ularni tanlab ketma-ketlikni aniqlab olamiz. Mana shundagina ikki toifadagi intensivlikning tanlanish miqdori teng bo'ladi.

Bundan boshqa cheklavlarni ham mavjud. Biz bir intensivlikda urinishlar soni ortib ketishini muayyan tarzda nazorat qilishimiz mumkin. Bunday sharoitda bloklar ichidagi randomizatsiya amalga oshadi, natijada bloklar cheklov vazifasini o'taydi. Ushbu muqobil variantni qo'llash orqali biz to'rtta blok, shundan ikkitasi yuqori intensivlikka, ikkitasi zaif intensivlikka ega bo'lgan bloklarni ajratib olsak, har bir blok ichida tasodifiy tanlanishlar sodir bo'ladi.

Biz ideal eksperiment o'tkazish maqsadida manipulyatsiyalashga mustaqil o'zgaruvchini, o'rganishga tobe o'zgaruvchini, qolgan sharoitlarni esa idora etiladigan hamda tasodifiy

o'zgaruvchilarga aylantirib, cheklangan randomizatsiyani tanlasak ham ayrim o'zgaruvchilar borki, ular eksperimentga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Biroq, har qanday eksperiment ideal tarzda tashkil etilmaydi, chunki real hayotda ayrim hodisalar eksperiment jarayoniga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bunday vaziyatda eksperimentator aralashuvchi o'zgaruvchilar qachon "boshini jarayonga suqmasligini" bilishi lozim. Mustaqil o'zgaruvchini boshqaruvi ta'sirida tizimli ravishda o'zgaruvchi har qanday ko'rsatkich aralashuvchi o'zgaruvchilar deb ataladi.

Masalan, yuqorida keltirilgan reaksiya vaqti tajribamizga asoslanib chiroq yorug'ligining uch intensiv darajasini ajratib olishimiz mumkin: dastlabki 20 ta urinishni o'zida mujassamlashtirgan zaif, keyingi 20 ta urinishni o'zida aks ettirgan o'rta va nihoyat oxirgi 20 ta urinishlarni yuqori deb baholashimiz mumkin. Shunga muvofiq "insonlar chiroq yorug'ligi qanchalik intensiv bo'lsa shunchalik tez reaksiya bildiradilar", deb xulosa qilsak, kimdir e'tiroz bildirishi mumkin "yo'q, insonlar bir necha bor urinib ko'rib tajriba orttirganlaridan so'ng tez reaksiya qaytaradilar", deb. Agar kuzatuvlarga tayanadigan bo'lsak, har ikki holat ham to'g'ri. Muammo shundaki, biz eksperiment jarayoniga bevosita mustaqil o'zgaruvchi ta'sirida tizimli ravishda o'zgarib turadigan ko'rsatkichlarni aralashishiga beixtiyor imkoniyat yaratib berdik. Eksperimentator murakkab o'lchamlarni aniq tizimli tekshirishi va natijalarni Xeminguey uslubida talqin etishi mumkin, biroq, aralashuvchi o'zgaruvchilar uning barcha urinishlarini yo'qqa chiqarishi mumkin. Bunday qiyinchiliklar Coca-Cola va Pepsi-Cola brendi taqdimotida ham uchragan. Pepsi brendi o'z mahsulotini Coca-Colaga qarshi qo'yib degustatorlar ishtirokida test sinovi o'tkazadi, unga ko'ra odatda Q yozilgan stakandan Coca-Cola, M yozilgan stakandan Pepsi-Cola ichimliklarini iste'mol qilganlar. Deyarli aksariyat degustatorlar pepsi ichimliklari solingan stakanlarni ma'qul ko'rganlar. Ushbu vaziyatni kuzatib turgan Coca-Cola rahbariyati tezda chora ko'rish maqsadida boshqa eksperiment o'tkazadi. Unga ko'ra, ichimliklar emas balki, Q va M harflarining qaysi biri insonlarga ma'qulligini aniqlaydilar. Ushbu eksperiment natijasiga asoslanib, shunday xulosaga kelinadi: aksariyat insonlar M harfini ma'qul ko'radilar. Shu boisdan, ular M harfi yozilgan stakanlarni ularni ichidagi ichimlikning ta'miga qarab emas, balki, shunchaki M harfi Q harfiga nisbatan ko'proq ularga ma'qul bo'lganligi uchun ushbu stakanlarni tanlaganlarini ma'lum qiladilar. Ushbu farazni tasdiqlash uchun eksperimentni keng miqyosda quyidagi tartibda ham o'tkazilgan, unga ko'ra Q va M harflari yozilgan stakanlarga Coca-Cola ichimligi quyib berilganda ham sinaluvchilar M harfi yozilgan stakandagi ichimlikni afzal deb hisoblaganlar. Ajablanarlisi, ushbu tadqiqotlarda harflar aralashuvchi o'zgaruvchi vazifasini bajargan. Dastlabki test davomida harflar ichimliklar bilan birga o'zgarib borgan, vaholanki, degustatorlar keyinchalik ichimliklarning harfi o'zgargani bilan ta'mi bir xil ekanini aniqlaganlar. Mavzuning boshida Kuk va Kempbellar tomonidan validlikning bir qancha turlari ajratib o'tilgani haqida gapirgan va tashqi validlikka to'xtalib o'tgan edik. Validlikning yana bir turi – bu ichki validlikdir. Bunda mustaqil o'zgaruvchilarni manipulyativ holati haqiqatdan ham tobe ko'rsatkichlarning o'zgarishiga sabab bo'ldimi yoki bunga boshqa omillar ta'sir etdimi aniqlash lozim. Agar bunday o'zgarishlar mustaqil ko'rsatkichlar ta'sirida yuz bermasa, unda sabab aralashuvchi o'zgaruvchilardadir. Shu boisdan, eksperiment jarayonidagi aralashuvchi o'zgarishlardan qanday qochishni o'ylashda ichki validlikka tahdid haqida ham bosh qotirish lozim. Eksperimentatorning vazifasi aralashuvchi o'zgaruvchilar ta'sirida ichki validlikka havf soluvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf etishdir.

### **12.3. Ichki validlikka xavf soluvchi omillar: fon, etilish, saralash, o'lim, testlash, statistik regressiya tushunchalari**

Laboratoriya sharoitidagi eksperimentlarda qisqa muddat ichida mustaqil o'zgaruvchilarning barcha darajalari bo'yicha ma'lumotlar to'plash mumkin. Bu vaziyatda fon bilan shartlangan tobe ko'rsatkichning o'zgarishi ehtimoli kam, qolaversa, arim vaziyatlar mustaqil o'zgaruvchining darajasiga bog'liq bo'ladi.

Masalan, tasavvur qiling siz katta guruhlardagi umumiy psixologiya kursi bo'yicha tinglovchilarning o'zlashtirish darajasi kompyuter texnologiyalariga asoslangan videoroliklar bilan o'tilgan dars yoki an'anaviy plakatlar, turli qo'lyozmalarga asoslangan darsga bog'liq ekanligini qiyosiy tahlil qilmoqchisiz. Shuningdek, umumiy psixologiya kursi bir yilda bir

marotaba o'tilishini taxmin qilaylik. Bu yil siz kompyuter vidiorolik materiallari va amaliy materiallarni to'plab dars o'tasiz va o'tgan yilgi guruh o'zlashtirish ko'rsatkichi bilan solishtirasiz. Agar bu yilgi guruhning o'zlashtirish ko'rsatkichlari o'tgan yilgi guruh ko'rsatkichlaridan yuqori bo'lsa, unda siz kompyuter texnologiyalari qo'llanilgan dars samaraliroq deb xulosa chiqarishga haqlisiz. Biroq, bu o'zgarish qandaydir fonli hodisa ta'sirida ro'y bergan bo'lishi ham mumkin. Masalan, fakultetga qabul talablari qat'iy bo'lganligi sababli guruh talabalarining akademik qobiliyatlari rivojlangan bo'lishi mumkin. Yoki kollej rahbariyati bitiruvchi talabalar umumiy psixologiya kursini o'qishi kerakligi haqidagi talabni qo'ygan bo'lsa, bu ham guruhning ko'rsatkichlariga ta'sir etgan. Balki, psixologiya kursiga qiziqish shaxsiy kompyuterlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq ravishda ortgan bo'lishi mumkin. Bunga boshqa omillar ham ta'sir etgan bo'lishi mumkin, ya'ni talabalar yuqori kurs talabalaridan o'tgan yilgi imtixon savollarini nusxasini olib tayyorgarlik ko'rgan bo'lishlari mumkin. Siz ikkita guruh o'zlashtirishdagi farqni aynan kompyuter texnologiyalarini darsga joriy qilinishi bilan bog'liq vaziyatda aniq xulosa chiqarishingiz uchun ichki validlikka tahdid soluvchi yuqoridagi fonli hodisalarni chetlab o'tilganligiga ishonchingiz komil bo'lishi lozim.

Etilish – bu ichki validlikka xavf soluvchi omillardan biri bo'lib, ishtirokchilarning yoshi kattaligi va tajribaliligi bilan bog'liq. Ajablanarlisi, etilish aynan kichik bolalarga nisbatan munosabatlarda tahdidlidir, masalan, bu maktabgacha ta'lim muassasasi dasturlarini baholashda yaqqol ko'zga tashlanadi. Biroq, etilish kattalar hayotini tadqiq qilishga qaratilgan uzoq vaqtli eksperimentlarda masalan, oddiy hodimlikdan rahbar lavozimiga ko'tarilgan holatdagi vaziyatda ham ta'sir etishi mumkin.

Saralash ko'pincha ishtirokchilarni tanlashda, ayniqsa, ko'ngilli ishtirokchilarni saralashda ichki validlikka tahdid soladi. Agar yuqoridagi misolni ko'rib chiqadigan bo'lsak, guruhlar bahorgi va kuzgi bo'ladi, bu esa muammo tug'diradi. Kuzgi 1-kurs talabalarining guruhi psixologiyaga ixtisoslashtirilgandir. Bahorgi guruh talabalarini bitiruvchi kurs bo'lib, ularning ixtisosligi texnologdir. Sizningcha, bu guruhlar orasida psixologiyani o'zlashtirish ko'rsatkichidan boshqa vaziyatlarda ham farq kuzatilishi mumkinmi? Eksperimentatorlarga ma'lumki, semestr boshida o'z ixtiyori bilan tadqiqotda ishtirok etish xohishini bildirgan ishtirokchilar bilan semestr oxirida ishtirok etish xohishini bildirgan ishtirokchilar orasida potentsial farqlar mavjud. Semestr boshidagi ko'ngilli ishtirokchilarning psixologiyani o'rganishga nisbatan motivatsiyasi, qiziqishi kuchli bo'lishi tabiiy hol va ular o'z vaqtlarini unumli rejalashtira oladilar. Saralashdagi noxush tahdidlar bevosita mustaqil o'zgaruvchilar bilan bog'liq bo'ladi. Aytaylik, siz ishlab chiqarish amaliyotidagi yangi dasturni samaradorlik darajasini baholamoqchisiz. Siz hodimlarni o'z xohishlariga ko'ra ushbu dasturda ishtirok etishlarini so'raysiz va tadqiqot yakunida dastur doirasida ishtirok etishni xohlamagan ishtirokchilarning ko'rsatkichlari bilan tadqiqotda ishtirok etgan hodimlarning ko'rsatkichlarini solishtirasiz. Sizningcha ikkita guruh orasida farq mavjud bo'ladimi? Bu kabi holatlar, ya'ni ishtirokchilarni saralashga oid muammolar deyarli barcha tadqiqotlarda uchrab, ichki validlikka xavf soluvchi omil hisoblanadi.

Sinaluvchilarning eksperimentdan chiqib ketishi, ya'ni o'lim (bu tushuncha Kuk va Kempbell tomonidan qo'llanilgan, lekin ayrim manbalarda *otsev* deb nomlanadi) ham ichki validlikka tahdid solishi mumkin. Ayrim tadqiqotlarda sinaluvchilarning biologik o'limi emas, balki shunchaki eksperimentdan chetga chiqish ham o'lim deb Yuritiladi. Bu erda asosiy muammo umumiy xarakterga ega emas, balki, o'limning differentsial xarakterga egaligidadir. Guruhlar mustaqil o'zgaruvchilarning turli xarakteristikalariga muvofiq taqsimlanganda ayrim ishtirokchilarning tadqiqotdan chetlanishi bu muammoni Yuzaga keltiradi. Masalan, tasavvur qiling bir firma saralangan o'rta zveno menejerlariga ijtimoiy stressli vaziyatlarga qarshi "emlash" ishlarini olib borish orqali yangi bir dasturni amaliy sinovdan o'tkazmoqchi. Ular firmadagi menejerlarning teng yarmini tavakkaliga tanlab oladilar va har kuni menejerlarni boshqa hodimlar bilan shaxsiy nizoga undovchi sharoit yaratilgan qismga joylashtiradilar. Boshqa guruh menejerlari bu turdagi treninglardan o'tmaydilar. Tadqiqotdan keyin besh yil davomida bu ikki guruh ishtirokchilarining stress bilan bog'liq ravishda salomatliklaridan shikoyat qilish holatlari hisoblab borilgan. Aniqlanishicha, stressga qarshi emlangan guruh



menejerlarining shikoyatlari kamroq bo'lgan va kompaniya dasturni muvaffaqiyatli o'tgani haqida xulosa bergan. Lekin, bu qanday amalga oshgan?

Tadqiqotchi tomonidan aniqlanishi lozim bo'lgan savollar ichida quyidagilar ham bo'lishi kerak: o'quv dasturini o'tash vaqtida guruhlardan qancha menejerlar tadqiqotni tark etgan? Stressli guruh menejerlarining aksariyati tadqiqotdan chiqib ketishi bilan bir qatorda ularning aksariyatida stressga nisbatan sezgirlik ham Yuqori bo'lishi ehtimoli mavjud. Maxsus "emlangan" guruhning muvaffaqiyati faqatgina dastur bilan bog'liq emas, balki ushbu guruhni tark etuvchilar natijasida guruh ishtirokchilarining xususiyatlarini o'zgarishi ham guruhdagi xarakteristikani o'zgarishiga ta'sir etgan.

Endi ichki validlikka xavf tug'diruvchi yana bir omil testlashtirish xususida to'xtalib o'tamiz.

Testlashtirish har qanday manipulyativ jarayonga qaramay ishtirokchilarning xulq-atvorini o'zgarishiga ta'sir etadi. Test qachonki dastlabki testlashtirish yoki ko'p marotaba testlashtirish bilan bog'liq ishlar rejalashtirilganda ichki validlikka tahdid tug'diradi. Aytaylik, yangi reklama kompaniyasi sizni firmangizda ishlab chiqarilayotgan yumshatuvchi qo'l kremi haqida insonlarga etarlicha ma'lumot bera olish olmasligi sizni qiziqiryapti. Siz katta tasodifiy to'plamni tanlab olib, ular orasida so'rovnomaga o'tkazasiz. Siz ularga turli yumshatuvchi qo'l kremlari va ularning reklama roliklari bilan bog'liq qator savollarni berasiz. Uch oy muddat o'tib sizning firmangizni qo'l kremi yangi reklama roligi taqdim etiladi va ushbu kremdan foydalanuvchilar sonini ortganini ko'rib yana avvalgi guruhda qayta savolnoma o'tkazsangiz, ularni sizning firmangiz kremi haqidagi ma'lumotlari ortganini guvohi bo'lasiz. Natijada reklama kompaniyasini muvaffaqiyatiga tan berasiz. Biroq, siz haqmisiz?


Muammo shundaki, bu erda insonlarning qo'l kremi haqidagi ma'lumotlari darajasini ortishiga reklama bilan bir qatorda dastlabki o'tkazilgan test ham xizmat qilgan. Bunday testni o'tkazilishi ushbu guruh ishtirokchilarida qo'l kremiga nisbatan qiziqishni orttirgan bo'lishi mumkin. Testlashtirishdan so'nggina ular ushbu krem bilan bog'liq reklama roliklarini e'tibor bilan kuzatib, ushbu firma haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'la boshlagan bo'lishlari ham ehtimoldan yiroq emas.

Qolaversa, ishtirokchilarning eksperimentga va uning ilmiy faraziga nisbatan qiziquvchanligi ham bu kabi ma'lumotlarni to'plashga ularni undagan bo'lishi mumkin. Dastlabki testning o'zi ham ularga ushbu firma va krem haqida ancha ma'lumotlarni berib qo'yadi. Shu misolga asoslanib, testlashtirish ham qaysidir ma'noda ichki validlikka tahdid qiladi deb aytish mumkin.

Biz ichki validlikka xavf soluvchi turli omillar xususida to'xtalib o'tdik, lekin ularning ichida shundaylari borki, u yashirin shaklga ega bo'ladi – bu statistik regressiyadir. Bu vaziyat qachonki tadqiqotchilar sinaluvchilarning muayyan testdagi juda Yuqori yoki juda past natijalariga asoslanib guruhlariga taqsimlanganlarida yuzaga keladi. Chunki, juda past yoki juda yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan sinaluvchilarning boshqa test natijasi aralash, ya'ni o'rtacha ko'rsatkichga ham ega bo'lishi mumkin. Ajablanarlisi shundaki, regressiya nega aynan o'rtacha ko'rsatkichga nisbatan sodir bo'ladi. Misol bilan tushuntirsak. Siz engil darajadagi aqliy rivojlanishdan orqada qolgan (IQ 53 dan 68 gacha bo'lgan daraja) maktabgacha yoshdagi bolalarning IQni oshiradigan dastur ishlab chiqdingiz. Buning uchun siz IQ testini o'tkazib engil darajadagi aqliy rivojlanishi sust 30 nafar bolani tanlab oldingiz. Bolalarni bir yil davomida maxsus dastur asosida o'qitgandan so'ng yana test o'tkazasiz. Test natijalariga ko'ra siz guruhdagi o'rtacha IQ ko'rsatkichi 7 ballga oshganini guvohi bo'lasiz va sizningcha bu ahamiyatli ko'rsatkich. Siz o'z dasturingizni muvaffaqiyatli deb e'lon qilasiz. Lekin, o'ylab ko'ringchi aslida ham shunday ekanmi?

Bu natijalarda qanday qilib statistik regressiyaga erishildi? Tasavvur qiling dastlabki IQ testi ikkita mustaqil komponentdan iborat: ideal yo'l bilan aniqlanadigan "tabiiy" IQ va "xatoliklar". Ideal test shundayki, siz bitta bolada ushbu testni necha marotaba o'tkazishingizdan qat'iy nazar u bir xil natija ko'rsataveradi. Agar siz shunday testni tanlay olganingizda edi statistik regressiya hech qanday muammoga sabab bo'lmagan bo'lar edi. Biroq, siz o'tkazayotgan IQ testida xato komponentlari ham uchraydi.

Bu xatoliklar turli o'zgaruvchilarning ta'siri bilan shartlangan bo'lishi mumkin. Masalan, ehtimollar nazariyasiga muvofiq, bolaning shunchaki omadi chopib bilmagan savollariga ham to'g'ri yoki buning aksi omadi chopmay noto'g'ri javob bergan bo'lishi ham mumkin. Balki bolaning ertalabdan kayfiyati yo'q bo'lib, o'tkazilgan dastlabki test davomida ham diqqatini bir joyga jamlay olmagan bo'lishi ehtimoldan holi emas. Xattoki, tadqiqotchining shaxsiy holati tufayli bola bilan yaxshi munosabat o'rnata olmaganligi ham test natijasiga ta'sir etgan bo'lishi mumkin. Biz bu kabi ta'sirlarni miqdori va yo'nalishini oldindan aytib bera olmaganimizdek, har qanday xato natijalarga nisbatan ham ularni haqiqatga aylantirishdan oldin tanqidiy ko'z bilan qarashni o'rganishimiz kerak.



Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, eksperiment shunday murakkab jarayon bo'lib, o'zida qator o'zgaruvchilar orasidagi munosabatlarni mujassamlashtiradi.

Ekspirimentda validlik degan muhim ko'rsatkich ham mavjud bo'lib, uning ikki turi keng tarqalgan: ichki va tashqi. Aynan ichki va tashqi validlikka xavf soluvchi omillarning ta'sirini kamaytirish orqali tadqiqotdan olingan natijalarni amaldagi samaradorlik darajasini orttirish mumkin.

### Mavzuni mustahkamlashga oid amaliy topshiriqlar:

1. Har bir o'zgaruvchining eksperiment jarayoniga ta'sirini "FSMU" usuli asosida tahlil qilib bering.

#### "FSMU" usuli

F – fikr	
S – sabab	
M – misol	
U – umumlashtirish	

2. "O'smirlarda mustaqillik fenomenini namoyon bo'lishiga "ota-ona-bola" munosabatlari tizimining ta'siri" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishida sizningcha ichki validlikka qanday omillar xavf solishi mumkin. Fikringizni izohlang.

#### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar?

1. O'zgaruvchilarni tanlashda nimalarga e'tibor qaratiladi?
2. Tobe o'zgaruvchi va mustaqil o'zgaruvchi orasidagi munosabatni sharhlang.
3. Randomizatsiyaning mohiyatini tushuntiring.
4. Aralashuvchi omillar nima?
5. Tashqi validlik va ichki validlikka ta'rif bering.
6. Tashqi validlikka xavf soluvchi omillarni sanab o'ting.
7. Ichki validlikka xavf soluvchi omillarni sanab o'ting.
8. Statistik regressiyaning mohiyatini yoriting.

#### Mavzu bo'yicha test topshiriqlari

**1. Eksperiment o'tkazishdagi mustaqil ko'rsatkichning ta'sirini aks ettiradigan o'zgaruvchi – bu...**

A) Idora qilsa bo'ladigan ko'rsatkich

\* V) Tobe ko'rsatkich

S) Tasodifiy ko'rsatkich

D) Aralashuvchi ko'rsatkich

**2. Eksperiment davomida o'zgarmasligi nazorat qilinadigan ko'rsatkichlar qanday nomlanadi?**

\*A) Idora qilsa bo'ladigan ko'rsatkich

V) Tobe ko'rsatkich

S) Tasodifiy ko'rsatkich

D) Aralashuvchi ko'rsatkich

**3. Bog'liq bo'lmagan o'zgaruvchini boshqa omillarga nisbatan bog'liq o'zgaruvchiga ta'siri me'yorini ifoda etuvchi validlik bu ...**

\*A) Ichki validlik

V) Tashqi validlik

S) Me'yoriy validlik

D) Konstruktiv validlik

**4. Real tadqiqotning o'rganilayotgan ob'ektiv voqelikka mos kelishini ... deyish mumkin.**

A) Ideal eksperiment

V) Real eksperiment

S) Psixogenetika

\*D) Tashqi validlik

**5. Statistik regressiya nima?**

A) Eksperiment jarayonida ishtirokchilarning yoshi va tajribasini ortishi bilan bog'liq omil

V) Eksperiment jarayonida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan nazorat qilib bo'linmaydigan hodisa

\*S) Asosiy ko'rsatkichlarga ko'ra natijalarni guruh o'rtacha ko'rsatkichiga aralashib ketishi, mos kelmasligi

D) Test o'tkazish jarayonida ishtirokchilar xulq-atvorini o'zgarish

### **XIII. ILM-FANDAGI HALOLLIK**

#### **Reja:**

13.1.Xarom amallar: fabrikatsiya, falsifikatsiya.

13.2.Shubhali amallar: eksperimentni loyihalash, axborot yig`ish, ma`lumotlar tahlili, natijalar taqdimoti.

13.3.Turli amallar: ba`zi bir narsalarni tushirib qoldirish, reorganizatsiya, yangicha formulirovka.

#### **Maqsad:**

Talabalarda ilm fandagi halollik, fabrikatsiya, falsifikatsiya haqida tushuncha hosil qilish.

#### **Vazifa:**

1.Xarom amallar: fabrikatsiya, falsifikatsiya haqida ma`lumot berish.

2.Shubhali amallar: eksperimentni loyihalash, axborot yig`ish, ma`lumotlar tahlili, natijalar taqdimotini asoslash.

3.Turli amallar: ba`zi bir narsalarni tushirib qoldirish, reorganizatsiya, yangicha formulirovkani bayon etish.

#### **Tayanch tushunchalar:**

**Fabrikatsiya** – ayrim ma`lumotlarni qo`shib tahlil qilish.

**Falsifikatsiya** – tadqiqot natijalarini soxtalashtirish.

**Reorganizatsiya** – tajribani noto`g`ri tashkil etish.

**Yangicha formulirovka** – ma`lumotlarni sharhlashda, izohlashda yangicha yondashuvning mavjudligi.

#### **13.1.Xarom amallar: fabrikatsiya, falsifikatsiya**

Zamonaviy psixodiagnostik tushunchalarga va tadqiqotlarni tashkil etishga, natijalarni tahlil etishga alohida talablar qo`yiladi. Ana shunday tushunchalarga qo`yiladigan talablardan biri **operasionalizasiya** deb ataladi, ya`ni mazkur tushuncha haqiqatdan ham tavsiflanayotgan xususiyatning barcha jihatlarini qamrab olishi kerak.

Psixodiagnostik tushunchalarga qo`yiladigan ikkinchi talab **verifikasiya** degan tushuncha bilan ifodalanadi. **Verifikasiya** talabiga ko`ra, har bir tushunchani amaliyotda qo`llash uchun u sinovdan, tekshiruvdan o`tgan bo`lishi kerak.

Psixologik-pedagogik tajribalar tadqiqotning ishonchli vositasi bo`lishi, uning yordamida ilmiy asoslangan ma`lumotlar olish, amaliy jihatdan to`g`ri xulosalar chiqarish imkonini berishi uchun psixodiagnostik metodlar muayyan talablarga javob berishi kerak.

Ilm fandagi g`irromlikning eng mashhur turi bu ma`lumotlar fabrikatsiyasi. Ba`zi“eksperimentator” tajriba o`tkazishning eng yaxshi yoki uni umuman o`tkazmaslik ekanini juda yaxshi biladilar. Ular texnik ta`minot vositalarini tayyorlash, ishtirokchilarni jalb qilish, metodni tanlash, olinadigan natijalarni matematik-statistik tahlil qilish kabi o`zlarini ortiqcha ovora qiluvchi ishlarni amalga oshirmaydilar. Ular bilishi zarur bo`lgan yagona narsa bu – eksperimentni o`tkazish tartibini to`g`ri yoritib bera olish xalos. Bunday “eksperimentatorlar” boshqa kasbni egallash haqida o`ylab ko`rsalar bo`lar edi, chunki ular uzoq vaqt psixolog bo`la

olmaydilar. Ta`lim olish jarayonida sizda ma`lumotlarni fabrikatsiyalash istagi Yuzaga kelishi mumkin, chunki vazifani topshirish muddati yaqin, siz esa hali tayyor emassiz. Bunday qilmang! Topshirilmagan ish uzog`i bilan sizning yomon baho olishingizga sabab bo`lishi mumkin, soxtalashtirilgan ma`lumotlar esa sizni sharmandalarcha talabalar safidan chiqarilishingizgacha olib kelishi mumkin. Imda professionallar soxtalashtirilgan ma`lumotlarni kechirmaydilar.

1990 yillarning boshida Kammerer familiyali biolog orttirilgan xarakter xususiyatlari ham nasldan naslga o`tishini isbotlamoqchi bo`lgan, uning qarashlari Darvinning evolYutsiya nazariyasidan tubdan farq qilardi. Kammerer qora tuproqda o`tli salamandera (fire salamanders) ning bir necha avlodini etishtirganini da`vo qilardi. Uning aytishicha, asli rangi qora, tanasida sariq dog`lari bor salamanderlarning sariq dog`lari kamayib, yana bu xususiyat keyingi avlodga ham o`tgan ekan. Kammerer olgan natijalardan shubhalangan boshqa bir olim Kammerer tekshirdim degan salamanderlarning buncha avlodini boqishga ketgan vaqtni uning hisobotlarida keltirilgan vaqt bilan solishtitib ko`radi, qarasaki natijalar turlicha. Boshqa olimlar ham Kammererdan bu holatni tushuntirib berishini talab qildilar, bu hol 7 yildan so`ng boshqa ikki olim tajriba vaqtida o`rganilgan salamanderlarning murdalarini tatqiq qilishga ruxsat olgunlariga qadar davom etadi. Ularning aniqlashicha salamanderlar tanasi qora tush bilan bo`yalgan ekan. Kammererning o`zi esa natijalarni qora “yordamida” biroz yaxshilaganini ta`kidlagan. Ko`p o`tmay Kammerer o`z joniga qasd qiladi. Olim uchun eng uyatli ish bu – ilmiy fanlar sistemasiga soxta yangiliklarni qo`shishdir. Agar siz yomon tadqiqot o`tkazgan bo`lsangiz u holda insonlar bunga e`tibor bermasliklari mumkin, lekin agar siz aslida unday bo`lmasada omadli tadqiqot o`tkazdim desangiz unda shaxsan o`zingiz va ilm fanning rivojlanishiga to`sqinlik qilayotgan bo`lasiz. Boshqa olimlar keladi va o`z tadqiqotlarini sizning tadqiqotlaringiz natijalari asosida o`tkazishga harakat qiladilar, kutilgan natija ololmagach, aslida ular haq bo`lsalarda o`zlarini nohaq qaerdadir xatolikka yo`l qo`yyapmiz deb o`ylaydilar. Keyin ular asos sifatida olingan ishdagi xatolikni aniqlashga ortiqcha vaqt ketkazadilar, bundan tashqari o`z tadqiqotlarini yana qaytadan loyihalashtirishga majbur bo`lib qolishlari ham mumkin. Yuqoridagi g`irromlk qancha uzoq muddat noma`lumligicha qolsa, ilm fan shuncha ko`p narsa yo`qotadi. Agar ilm fandagi g`irromlik aniqlanmasa, u jamiyatdagi g`irromlikka olib kelishi Hech gap emas. Masalan, 1930 yillarning boshida rus “olimi” T.D.Lisenko ham orttirilgan xususiyatlar nasldan naslga o`tishi mumkin degan fikr tarafdori bo`lgan (Lerner 1968). U o`z nazariyasiga shu qadar ishonardiki, bir olam ma`lumotlarni soxtalashtirishgacha borib etdi. Lisenko tarafdorlari fantastik natijalarga erishayotganlarini da`vo qilib chiqdilar: sayroqi qush qo`ygan tuxumdan kakku bolasining yorib chiqqani, lavlagining karamga aylanishi (ular isbot tariqasida soxta suratlardan foydalanganlar) va hakazo (Lerner 1968). Lisenkoning bu o`ta odobsiz harakati nafaqat ilm fan balki bevosita jamiyatga ham zarar etkazgan. Shaxsan uning vijdonida ishdan bo`shatilgan va xatto qatl qilingan ba`zi rus genetiklarining xuni yotibdi. U avval Stalinni keyinchalik esa Xrushyo`vni o`z nazariyasi to`g`riligi va undan qishloq xo`jaligida keng foydalanish zarurligiga ishontirgan (Medvedev, 1969). Va nihoyat qishloq xo`jaligidagi omadsiz amaliyotning sabablari qisqacha izohlangandagina Lisenko nazariyalari bekor qilindi, lekin bu rus jamiyatiga o`z ta`sirini o`tkazib bo`lgan edi. Bu mavzuni yozish jarayonida ilm fan tarixidagi juda ko`plab g`irromliklarga ko`zim tushdi, g`irromliklar oshdimikan yoki ularni ochib tashlash urfga aylanmoqdami? Eski davr olimlari ham bunday ishlar bilan shug`ullangan ekan. XIX asr genetikasi Gregorg Mendalni ba`zi erlarda unchalik ham haq bo`lmaganlikda ayblamoqda (Fisher 1936). Xatto ser Isaak NYutonning ishlarida ham ba`zi mulohazali jihatlar bor (Wetsfall 1973).

Kornellida men psixologiya fakulteti talabalari va o`qituvchilari bilan juda ko`p suhbatda bo`lganman. Bir talaba qiz menga o`tkazmoqchi bo`lgan eksperimenti haqida gapirib berdi. Kimningdir aniqlashicha ma`lum sharoitlarda (X), kalamushlar ma`lum xatti-harakatlarni amalga oshirar ekan (A). U agar X sharoitni Y ga almashtirsak kalamushlar avvalgidek A ni qilishda davom etadimi yo`qmi shuni aniqlamoqchi edi. U Y sharoitda eksperiment o`tkazib, kalamushlar A ni qilish qilmasligini kuzatmoqchi edi. Men unga avval birinchi tadqiqot (ya`ni X

sharoitda kalamushlar haqiqatdan ham A faoliyatni bajaradimi) ni laboratoriyada qayta o'tkazib tekshirib ko'rish zarurligini faqat shundan keyingina X sharoitni Y sharoitga o'zgartirib kalamushlar faoliyatini kuzatish kerakligini tushuntirdim. Faqat shundagina to'liq natijaga erishish mumkin. Unga bu yangi fikr juda yoqdi va u o'zining professori oldiga ketdi. Lekin u: "bunday qilish shart emas eksperiment o'tkazib bo'lingan siz faqat bekorga vaqt yo'qotasiz" deb javob beradi. Bu voqea 1947 yillarda sodir bo'lgan u vaqtda psixologik tadqiqotlarni qaytarish emas, balki shart-sharoitlarning o'ziningina o'zgartirib yangi natijalar olish siyosati hukmron edi.

Fan tarixidagi eng yirik yolg'onlar.

Gregor Mendel.

Tabiiy tadqiqotchi, ruhoni va cherkov hodimi Gregor Mendel – irsiylik ta'limoti asoschisi hisoblanadi. XIX asrning oxirida Mendel noxotning gibritlashishi utsida keng tadqiqotlar olib borgan. Mendel birinchi bo'lib, o'z tadqiqotlarida irsiylik haqida ma'lumotlar olib boshlagan, biroq uning ishlarini keyinchalik o'rgangan olimlar fikricha Mendel tadqiqotlaridan olingan natijalar biroz shubhali. Lekin Mendel g'irromlik qilmagan, balki o'zini qoniqtiradigan natijalarni olib boshlashi bilan tadqiqotlarini to'xtatgan.

Zigmunt Freyd.

Freyd ijodiyotining bir necha yillik tadqiqotchisi, ko'pgina ilmiy mukofotlar sovrindori Yudjin Mallou (Eugene F. Mallove) "Freydning xato va g'irromliklari" (The Faults and Frauds of Freud) nomli kitobida psixoanaliz maktabi asoschisi o'z tadqiqotlari natijalarini fabrikatsiya qilganligini isbotlagan.

Mallouning fikricha Freydning nazariyasi u vrach sifatida ishlagan olti kishining hayotidan olingan olti prinsipial voqealarga asoslangan. Biroq arxiv ma'lumotlari analizidan ma'lum bo'lishicha mijozlardan biri davolash boshlanganidan uch oy o'tgach, Freyd xizmatlaridan voz kechgan, yana ikki mijozning esa Zigmund Freydga hech qanday aloqasi bo'lmagan. Qolgan uch kishidan faqat bittasigina Freyd bilan o'z ongosti qo'rquvlarini bo'lishgan. Ya'ni nazariya yaratuvchisi o'z fikrlarini faqat bir kishining hikoyalari asosiga qurgan. Mallouning fikricha Freyd bu ishni bilib turib qilgan, chunki Freyd fikricha psixoanalizni kitoblardan o'qib o'rganib bo'lmaydi, psixoanalizni mutaxassis faqat amaliy faoliyatda kishilar xulqini analiz qilish yo'li bilangina o'rganishi mumkin.

Ernets Gekkel.

Mashhur Germaniyalik biolog va faylasuf Ernets Gekkel Charlz Darvin ta'limoti tarafdori 1866 yilda "bioenergetik qonunni" ochgan. Bu qonunga ko'ra, butun kishilik jamiyati evolutsiyasi soddalashtirilgan holatda alohida shaxsning individual rivojlanish jarayonida takrorlanadi. Ya'ni inson bolasi o'zining rivojlanish davrida avval baliq keyin er hayvoni va hakazo bosqichlardan o'tadi. Isbot tariqasida Gekkel o'z fikrlariga mos embrionlar suratini ko'rsatgan. G'irromlik uning ishini universitet sudiga olib chiqqan hamkasblari tomonidan aniqlangan. Gekkel kerakli joylarini "qo'shib chizganligini" tan olgan. 1950 yilga kelib inson bolasini o'z hayotining ilk davrlarida ham baliq yoki boshqa biror hayvon bolasi bilan ayniylashtirib bo'lmasligi uzil-kesil isbotlangan.

Rene Blondlo.

XX asrning 20 yillari boshida mashhur fransuz fizigi, Fransiya Fanlar Akademiyasi a'zosi Rene Blondlo N-nurlar nomli yangi kashfiyot qilganligini ma'lum qiladi (rentgen nurlari bo'lgan X-nurlarga o'xshab N-nurlar deb nomlangan, Blondlo ishlagan Nansi shahrining nomidan N-nurlar deyilgan), uning fikricha n-nurlarni materiyaning barcha shakl va turlari ajratadi faqatgina yashil daraxtlar va ba'zi metallar bundan mustasno. N-nurlar papirus qog'ozini platina plitadan

o'ta oladi, lekin kalka va tosh bu nurlar uchun o'tib bo'lmas to'siq. Blondlo aynan shu kashfiyotdan keyin mashhur bo'lib ketdi. 1903-1906 yillar oralig'ida 120 ga yaqin frantsuz olimlari N-nurlar fenomenini izohlovchi, analiz qiluvchi 300 dan ortiq ilmiy maqolalar yozdilar. Blondloning o'zi 26 ta maqola va kitob nashr ettirdi. Biroq Blondlo o'z eksperimentini chet ellik olimlar oldida o'tkazishga qiynalardi, tadqiqotlar nimqorong'ulikda o'tkazilar bu esa bevosita olimning xatti-harakatlarini diqqat bilan kuzatish imkoniyatini bermasdi. 1904 yilga kelib blondlone tanqid qiluvchi, uni g'irromlikda ayblovchi ilk maqolalar paydo bo'la boshladi – bunga Blondlo tadqiqotlarini uning o'zining laboratoriyasidan boshqa joyda o'tkazib bo'lmasligi sabab bo'lgan. Eng qizig'i BuYuk Britaniya va Irlandiyalik bir guruh olimlar 1920 yilda ham N-nurlarni bor deb hisoblardilar. Blondloning ishiga bu narsa ta'sir qilmadi u yana elektrotexnikaga qaytdi va bir qancha yaxshi ishlarni chop etdi.

Psixologiya sohasidagi bunday ishlar ichida eng mashhuri ser Siril Bert nomi bilan bog'liq. U ko'zga ko'ringan ingliz psixologi, Georg VI tomonidan ritserlik unvoni berilgan. Siril Bert intellekt koeffitsienti genetik yo'l bilan o'tishi haqidagi g'oyasini isbotlash uchun monozigota egizaklarda tadqiqot olib borgan. Uning o'limidan so'ng boshqa bir guruh olimlarning aniqlashicha Bert tadqiqotlaridan olingan natijalar korelyatsiyasi boshqa egizaklar guruhi tadqiq etilayotgan bo'lsada avvalgisining natijalaridekligicha qolavergan. Bunday tasodif shubhali ko'rindi. Londonning Sunday Times gazetasida Sirel Bertni natijalarni soxtalashtirishda ayblovchi maqola chiqqandan so'ng bu narsa olimlar o'rtasida hozirgi kunda ham davom etib kelayotgan muhokamalarga olib keldi. Bir tomonda – Bert olgan natijalar noto'g'ri deb qabul qilinishini talab qilayotgan olimlar guruhi bo'lsa (Mc Askie 1978), ikkinchi tomondan olimni g'irromlikda ayblash noto'g'ri, bu shunchaki e'tiborsizlik natijasida yo'l qo'yilgan xato deb olimlar guruhi hisoblashdi (Jensen 1978).

### **13.2.Shubhali amallar: eksperimentni loyihalash, axborot yig'ish, ma'lumotlar tahlili, natijalar taqdimoti**

Yuqoridagi paragrafda biz eksperimentatorning o'ziga qo'yiladigan talablarga rioya etmasligi natijasida kelib chiqadigan holatlar xususida gaplashdik. Endi esa, shubhali amallar haqida to'xtalib o'tamiz. Bunday holatlardan biri eksperimentni loyihalashtirishda uchraydi. Masalan, agar tadqiqotchi biror bir ko'rsatkichni idora qilsa bo'ladigan o'zgaruvchi deb tanlab olsa-yu, lekin ushbu ko'rsatkich mustaqil o'zgaruvchi ta'sirida muntazam o'zgarib tursa bunday tadqiqotlardan olingan natijalar shubhali amallar qatoriga kiradi. Ayniqsa, laboratoriya sharoitida o'tkazilmagan ko'pgina tadqiqotlarda aynan shu turdagi firibgarlik uchraydi.

Eksperimental tadqiqotlarni loyihalashtirishda o'zgaruvchi ko'rsatkichlarni o'zaro bir – biriga ta'siri inobatga olinmaydi. Natijada esa, eksperiment jarayonidagi o'zgaruvchilar o'z tipik xususiyatlarini yo'qotib olingan natijalar shubha ostida qoladi.

Eksperimental tadqiqot davomida axborotlarni yig'ish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan axborot yig'ishda yo'l qo'yilgan ayrim xatoliklar ham tadqiqot natijalarini shubha ostida qoldiradi.

### **13.3.Turli amallar: ba'zi bir narsalarni tushirib qoldirish, reorganizatsiya, yangicha formulirovka**

Eksperimentatorning tadqiqot jarayoniga ta'siri.

Klassik tabiiy ilmiy eksperiment nazariy jihatdan me'yoriy pozitsiyalarda ko'riladi: agar eksperiment holatlarida tadqiqotchi o'rni avtomat bilan almashtirilsa eksperiment ideal holatga mos kelar edi. Afsuski yoki yaxshiyamki inson psixologiyasi shunday fanlar qatoriga kiradiki, bunday qilishning iloji yo'q. Bundan kelib chiqadiki psixolog shuni ham inobatga olishi kerakki

har qanday eksperimentator shu jumladan uning o'zi ham – inson, insonga xos barcha o'ziga xosliklar unga ham begona emas. Birinchi navbatda xatoliklarga yo'l qo'yish ya'ni eksperiment me'yorlaridan chiqish. Biz hozir eksperimentatorning ataylab xatolikka yo'l qo'yishi natijalarni soxtalashtirishi haqida gaplashmoqchi emasmiz. Xatoliklarni to'g'irlash mumkin. Eksperimentator xulqining muallaq holati – boshqa gap bu eksperiment jarayoniga ta'sir etadi va xatti- harakatlarning ongsiz psixik boshqariluvining oqibati hisoblanadi.

Eksperiment shu jumladan psixologik eksperiment har qanday boshqa tadqiqotchi tomonidan takrorlanish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Shuning uchun uning harakat sxemasi (eksperiment me'yor) maksimal darajada obektivlashtirilishi kerak, ya'ni natijalarni takrorlash eksperimentatorning qobiliyati, professional harakatlariga, tashqi sharoit yoki holatlarga bog'liq bo'lmasligi kerak. Faoliyatli yondashuv pozitsiyasidan eksperiment bu eksperimentatorning sinaluvchiga ta'sirli faoliyati bo'lib, sinaluvchi harakatlari, faoliyat sharoitlarini o'zgartirishi bilan o'rganiluvchi, psixikasidagi o'ziga xosliklarning namoyon qilinishi. Eksperiment muolajasi eksperimentatorning faollik darajasi uchun isbot bo'lib xizmat qiladi, u sinaluvchi ishini tashkil etadi, unga vazifa beradi, natijalarni baholaydi, eksperiment sharoitlarini belgilaydi, sinaluvchi harakatini va uning faoliyat natijalarini belgilab beradi. Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan, eksperimentator rahbar, o'qituvchi, o'yin tashkilotchisi rollarini ijro etsa, sinaluvchi esa hodim, o'quvchi, o'yindagi ishtirokchi sifatida namoyon bo'ladi. Eksperiment sxemasini eksperimentator faoliyati sifatida ko'rib chiqadigan bo'lsak, u neobixeviorizm modeliga mos keladi: stimul – oraliq o'zgaruvchi – reaksiya. Eksperimentator sinaluvchiga mashq beradi, sinaluvchi (oraliq o'zgaruvchi) ularni bajaradi. Agar tadqiqotchi o'z natijalarining ma'qullanishini (yoki inkor etilishini) istasa, u eksperiment jarayonida bilmagan xolda xatoliklarga yo'l qo'yishi yoki natijalarni o'zgartirishi mumkin, bunda u sinaluvchi “uning gipotezasi” bo'yicha ishlashi uchun faqatgina eksperimental guruh uchun imtiyozli sharoitlar yaratadi. Eksperimentatorning bunday harakatlari – aftofakt manbaidir. Amerikalik psixolog R.Rozental bu hodisani grek afsonasi qahramoniga bag'ishlab “Pigmalion effekti” deb nomladi (Haykaltarosh Pigmalion Galateya deb nomlanadigan qiz Haykalini yasadi. Haykal shunday mahorat bilan yasalgan va shu qadar go'zal ediki natijada Pigmalion o'z mehnati mahsuli Galateyani sevib qoladi. Va xudolardan unga jon ato etishlarini yolvorib so'raydi. Go'zallik va muhabbat ma'budasi Afrodita uning bu nolishlarini qabul qiladi va haykalga jon ato etadi).

Nazariyasining to'g'ri chiqishini hohlagan tadqiqotchi, u to'g'ri bo'lib chiqishi uchun irodasiz harakatlar qiladi. Bunday holatni nazorat qilish mumkin. Buning uchun tadqiqotga eksperimentator assitsentlarni jalb qilishi lozim, faqat ular tadqiqot gipotezasi, uning maqsadidan bexabar bo'lishlari kerak. To'liq nazorat – bu boshqa tadqiqotchilar eksperiment muallifining gipotezasiga tanqidiy munosabatda bo'lish, natijalarni qaytadan tekshirish. Biroq bu holatda ham artifaktlardan holi bo'lmaymiz – nazorat qiluvchi xuddi eksperimentator kabi oddiy inson. N.Fridman 1960 yillargacha amerika psixologiyasida hukmronlik qilgan nuqtai nazarni ilmiy afsona deb aytgan, uning mazmuni quyidagicha edi: eksperiment o'tkazish jarayonlari bir xil eksperimentatorlar esa bir xilda mutlaqo befarq va malakali bo'lishgan eksperimentatorlar omonim emas va o'zaro yaqin ham emas: turlicha kuzatiladi, qayd qiladi va eksperiment natijalarini baholashadi.

Eng asosiy muammo – eksperimentatorlarning motivatsiyasidagi farq. Ularning bari yangilikni o'rganishga intilsa-da, unga intilish yo'llari, vositalari, o'rganish maqsadlari turlicha bo'ladi. Bundan tashqari tadqiqotchilar turli etnomadaniy jamiyatlarga mansub bo'ladilar. Shu bilan birga barcha eksperimentatorlar “ideal sinaluvchi” haqida orzu qiladilar. “Ideal sinaluvchi” bir qator psixologik sifatlarga ega bo'lishi kerak: itoatkor aqlli bo'lishi, eksperimentator bilan hamkorlik qilishga intilishi, ishga qobilaytli, do'stona yondashuvli, agressiv bo'lmagan va yomon sifatlardan holi bo'lishi kerak. “Ideal sinaluvchi” modeli ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan butunlay ideal bo'ysunuvchi yoki ideal o'quvchi modeliga to'g'ri keladi.



Aqlli eksperimentator bu ushalmas orzu ekanligini yaxshi angelaydi. Biroq, sinaluvchining xatti harakatlari eksperimentator kutuvlaridan farq qilsa, u sinaluvchiga qahr va g'azab ko'rsatishi mumkin.

Pigmalion effektining aniq ko'rinishi qanday?

Eksperimentator kutuvlari uni sinaluvchining xatti-harakatlariga o'zi bilmagan holda ta'sir o'tkazishga olib kelishi mumkin. Rozental sinaluvchi shaxsiga ta'sir etish va tadqiqotning borish jarayoniga ta'sir etish muammolari bo'yicha eng mashhur mutaxassis, shuni aniqladiki, eksperiment natijalariga eksperimentator tomonidan eng ko'p ta'sir quyidagilarda aks etar ekan: Ta'lim bilan bog'liq eksperimentlarda, qobilyatlarni diagnostika qilishda, psixofizik eksperimentlarda, reaksiya qilish vaqtini aniqlashda, loyihaviy testlarni (Rorshax testi) o'tkazishda, ish faoliyatining laborator tadqiqotlarida, ijtimoiy perseptsiyalarni tatqiq etishda.

Qanday qilib sinaluvchiga eksperimentatorning kutuvlari ayon bo'ladi?

Ta'sir etish manbai tushunib bo'lmas ustanovkalar bo'lganligi uchun, ular eksperimentator harakatining parametrlaridan, qaysiki ongsiz boshqariluvchi, namoyon bo'ladi. Bu birinchi navbatda mimika va pantomimika (boshni chayqash, tabassum va hakazolar). Ikkinchidan asosiy rolni sinaluvchiga ta'sir etuvchi paralingvistik nutq usullari, xususan: yo'riqnomani o'qishdagi ovoz intonatsiyasi, emotsional ton, ekspressiya va hakazolar. Hayvonlar bilan o'tkaziladigan eksperimentlarda eksperimentator bilmay ular bilan muloqot qilish usilini o'zgartirib qo'yishi mumkin. Ayniqsa eksperimentator eksperimentgacha katta ta'sir o'tkazishi mumkin: sinaluvchini tayyorlashda, ilk muloqot davrida, yo'riqnomani o'qishda, eksperiment jarayonida, eksperimentatorning sinaluvchi xatti-harakatlariga ko'rsatayotgan e'tibori, katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Eksperimental tadqiqot natijalariga ko'ra ushbu e'tibor sinaluvchi faoliyatining predmetga qaratilganligini oshiradi. Shu bilan birga tadqiqotchi sinaluvchida eksperimentga nisbatan birlamchi ustanovkalarni hosil qiladi va o'ziga nisbatan munosabatni shakllantiradi. Ma'lumki, aynan "birinchi taassurot effekti" yaratilgan obrazga mos kelmaydigan, barcha keyingi ma'lumotlarni tasodifiy deb qarashga olib keladi. Eksperiment o'tkazuvchining kutuvlari u tomonidan eksperiment natijalarini yozib olishga ham ta'sir qiladi. Shu jumladan Kennedi va Upxoff tadqiqotchining u tomonidan natijalarni yozib olishda yo'l qo'yiladigan xatoliklarga, munosabatiga ta'sirini aniqladilar. Eksperiment "fenomenal telepatiya"ni o'rganishga bag'ishlangan edi. Bir hil qiymatdagi odamlar guruhi (telepatiyaga ishonadigan va ishonmaydigan) tanlab olingan edi. Ulardan sinaluvchi urinishlari natijalarini boshqa sinaluvchi tomonidan Yuborilayotgan "telepatik ma'lumotlari" orqali natijalar mazmunini aniqlash va ularni yozib borish so'raladi. Telepatiyaga ishonadiganlar, o'rtacha aniqlanganlar sonini 63 % ga ko'paytirildi, unga ishonmaganlar esa 67 % ga kamaytirildilar. Rozental natijalarni qayd etishga kutuvlarning ta'siri muammosi bo'yicha 21 ishni tahlil qilgan. Aniqlanishicha natijalarni qayd qilishning 60 % xatoliklarga eksperiment gipotezasini ma'qullanishiga intilish natijasida yo'l qo'yilgan ekan. Boshqa to'plamda (36 ta ish) xuddi shunday bu fakt o'z isbotini topgan. Kutuvlarning ta'siri nafaqat odamlar harakat natijalarini qayd qilishda namoyon bo'ladi, balki hayvonlardagi eksperimentlarda ham aks etadi. Rozental keyingi tadqiqotni olib bordi. U bir necha eksperimentatordan kalamushlarning tadqiqot davomidagi harakatlarini qayd etib borishlarini so'radi. Birinchi guruh eksperimentatorlariga alohida ishlar o'tkazilgan "juda aqlli kalamushlar" bilan ishlashlari aytili. Ikkinchi guruhga esa ularning kalamushlari "juda ahmoq" ekanligi aytili. Aslida esa hamma kalamushlar bir xil populyatsiyaga xos bo'lib, qobilyatlari bo'yicha ham farq qilmas edi. Natijada kalamushlar harakatlariga qo'yilgan baholar eksperimentatorlarga berilgan ustanovkalarga mos holda qo'yilganligi ma'lum bo'ldi. A. Berger eksperimentatorning sinaluvchi faoliyati natijalarini baholashdagi xatoliklarning quyidagi turlarini ajratadi: Juda Yuqori natijalarni pasaytirish. Buning sababi, tadqiqotchining ongli ravishda sinaluvchi natijalarini o'zining ma'lumotlari bilan "bog'lashga" intilishi bilan izohlash

mumkin. Past natijalar oshirib ko'rsatilishi ham mumkin. Nima bo'lganda ham natijalar differensiallashtiriladi va siqiladi, eng chetki natijalar o'rtachaga yaqinlashtiriladi.

Eng chetki natijalardan qochish (eng past va eng Yuqori). Xuddi Yuqoridagi effekt bilan bir xil ya'ni natijalarni o'rtachaga yaqinlashtirish. Sinaluvchi xususiyatlaridan biri yoki seriyalar ichidagi mashqlardan birining qiymatini oshirish. Ushbu qoida orqali shaxs va mashqni baholash amalga oshiriladi.

O'xshash hodisa, lekin effekti qisqa muddatli bo'lib, alohida e'tibor, eksperiment uchun sinaluvchining shaxsiy tuzlishidagi ahamiyatlisini ajratib olinganligidan so'nggi mashq mazmuniga qaratiladi. O'xshash hol, lekin baho shaxs u yoki bu xususiyatlarining aloqasi yoki qarama-qarshiligi haqidagi kontseptsiyaga asoslanadi.

Sinaluvchi bilan emotsional bog'langan hodisalar ta'siri orqali kelib chiquvchi xatolar. Pigmalion effekti albatta mavjud, lekin u qay darajada ahamiyatga ega? Balki, bir qator holatlarda natijalarni o'zgartirishda unga yo'l qo'yish mumkinmikan? Bu borada turli xil fikrlar mavjud va ular ichidan quyidagi 3 nuqtai nazarni ajratish mumkin:

Birinchi nuqtai nazar. Rozental ta'kidlashicha, universal ta'sirga ega bo'lgan faktlar tasodifiyga qaraganda 7 marta ko'p. Har qalay ushbu muammoga bag'ishlangan barcha ishlarning 1/3 qismida eksperimentatorning eksperiment natijalariga ta'siri 0.95 qiymati darajasida ekanligi aniqlangan.

Ikkinchi nuqtai nazar. T.Barber va Silver fikri bo'yicha, bu ta'sir ahamiyatli emas va barcha eksperimentatorning eksperiment natijalariga ta'sirini aniqlashga qaratilgan, tadqiqotni rejalashtirishdagi hatoliklar bilan statistik choralarning yomon tanlanishi va eksperimentni yaxshi o'tkazilmaganligidan kelib chiqqan. Ular shunday xulosaga kelishadiki, faqat 29 % tadqiqotlardagina "Pigmalion effekti" tasdiqlangan – ə eksperimentatorning ongli harakatlarining sinaluvchi harakatlariga va uning baholanishiga ta'siri belgilangan.

Uchinchi nuqtai nazar. Barber nuqtai nazari: biz ta'sir bo'lishi mumkinligini ta'kidlaymiz, lekin aniq eksperimentda qanday bo'lishini aytib bera olmaymiz. Biroq tadqiqotchilar yanada aniq bog'liqliklarni aniqlashga harakat qilmoqdalar.

Eksperimental psixologiyaning amalga oshmas ideal eksperimentatorning hech qanday ta`siri yo`q yoki uning ta`siri hech qanday ahamiyatga ega emas. Gipoteza haqiqatdan yiroq. Eksperimentatorning shaxsi har doim va doimiy ravishda eksperiment natijalariga ta`sir qiladi. Bunday holatda ta`sir natijasini o`lchashning sistematik xatoligi – konstanta deb hisoblash mumkin. Uning ta`siri, eksperiment turi, eksperimentatorning shaxsi va sinaluvchi shaxsiga bog`liq holda turlicha namoyon bo`ladi. Hisobga olish har bir eksperimentdagi juda ko`p sondagi relevant psixologik o`zgaruvchilarning nazorati va ajratishning murakkab vazifasiga aylanib boradi. Muammo u yoki bu darajada yoritilgan ko`plab tadqiqotlar mavjud. Asosiy faktlarni keltirib o`tamiz:

Natijalarga shaxs tipi va eksperimentator holati ta`sir etadi: bioijtimoiy sifatlar (yosh, jinsi, irqi diniy madaniyati, etnik mansubligi va hakazo); psixoiijtimoiy sifatlar (notinchlik darajasi, ijtimoiy ma`qullanish ehtiyoji, agressivlik, intellekt, ijtimoiy mavqe) eksperimentning borishi va natijalariga tadqiqotchining jinsi katta ta`sir etishi belgilangan. Jumladan, yosh bolalar har doim eksperimentator ayollar bilan yaxshi va hayrihohlikda ishlaydilar, katta yoshdagi sinaluvchilar esa erkak eksperimentatorlar bilan chiqishadilar. Bundan tashqari eksperiment davomida erkak eksperimentatorlarning ishtiroki sinaluvchilarning faol harakat qilishlariga o`z holatini tushunishga va yangi axborotni izlashga qaratilgan harakatlarni amalga oshirishga undaydi, ayol eksperimentatorlar esa “ko`ngilni yozish, ochiqlikka intilish” Hissini uyg`otadi shuning uchun sinaluvchilarning xatti-harakati emotsionalroq bo`ladi. Ta`sir etish me`yorini aniq belgilash qiyin. Ko`pincha boshqa o`zgaruvchilar: yosh, mavqe, do`stona munosabat va hakazolar ta`sirini inobatga olmaslik qiyin. Shunday qilib eksperimentator jinsi ayollar va erkaklarga, boy va kambag`allarga turlicha ta`sir etadi, ta`sir o`zaro munosabat mavqeiga, yoqtirish va boshqalarga bog`liq bo`ladi. U sinaluvchilar tomonidan bir xil turdagi vazifani bajarishda ahamiyatli bo`lishi va boshqa eksperimentlarda umuman ahamiyatsiz bo`lishi mumkin. Eksperimentatorning eksperimentlardagi ta`sirining namoyon bo`lish qonuniyati ishonchli aniqlangan. Barcha tadqiqotlarni ijtimoiy – biologik shkalasi bo`yicha ajratish mumkin: ijtimoiy-psixologik eksperimentlardagi tartib (shkalaning tepasi) psixofiziologikkacha (shkalaning past). Psixologik haqiqiylikning tuzilmaviy darajasi qanchalik yuqori bo`lsa, shunchalik o`rganilayotgan muammo ta`siri ahamiyatli bo`ladi.

### **Mavzu yuzasidan nazorat savollari**

1. Tadqiqot natijalarini tahlil qilishga qanday talablar qo`yiladi?
2. Tajriba natijalarini noto`g`ri talqin etish qanday oqibatlarga olib keladi?
3. Noto`g`ri xatti- harakatlarni qanday aniqlash mumkin?

## XIY. ILMIY MANBALAR BILAN ISHLASH

### Reja:

14.1. Rasmiy manbalar: kitoblar, maqolalar, texnik hisobotlar, elektron nashrlar.

14.2. Norasmiy manbalar: mutaxassislar bilan uchrashuvlar, tadqiqiy guruhlar, o'qituvchilar

### Maqsad.

Talabalarda ilmiy manbalar bilan ishlash bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirish; o'z ustida ishlash, fan tarixini o'rganish orqali mamlakatimizdagi fan texnika taraqqiyotini tahlil qilish va tadqiqotchilik ko'nikmalarini tarbiyalash; ilmiy dunyoqarashni, ijodiy mustaqil tafakkurni rivojlantirish.

### Vazifalar:

1. Rasmiy manbalar hisoblanmish kitoblar, maqolalar, texnik hisobotlar, elektron nashrlarning ilmiy tadqiqotdagi o'rni haqida tushuncha berish.

2. Norasmiy manbalar: mutaxassislar bilan uchrashuvlar, tadqiqiy guruhlar, o'qituvchilar haqidagi ma'lumotlarni bayon qilish.

### Tayanch tushunchalar:


Rasmiy manba; norasmiy manba; ilmiy manbalar; maqola; kitob; texnik hisobot; to'garak; jurnal.

#### 14.1. Rasmiy manbalar: kitoblar, maqolalar, texnik hisobotlar, elektron nashrlar

Eksperimental psixologiyada ilmiy manbalar bilan ishlash katta ahamiyat kasb etadi. Bizga ma'lumki ilmiy manbalar – ma'lum bir fan doirasidagi tasdiqlangan bilimlar tizimi hisoblanadi. Eksperimental psixologiyada ilmiy manbalar bilan ishlashda o'z vaqtida manbalarni qo'llashga e'tibor berish lozim. Ilmiy manbalar o'z navbatida ikki turga bo'linadi:

1. Rasmiy manbalarga- psixologiya sohasidagi turli xil kitoblar, ma'lum mavzudagi ma'lumotlarni jamlovchi kitob va maqolalar, texnik hisobotlar, elektron nashrlar, jurnallardagi maqolalar kiradi.

2. Norasmiy manbalarga – koferensiya tezislari to'plami, to'garaklar, laboratoriya kengashlari, og'zaki maslahatlar, tadqiqotchi guruh kiradi.



Har qanday tadqiqotni bajarish uchun qanday ilmiy manbalar mavjud va ulardan qanday foydalanish kerakligi haqida ma'lum bir tushunchaga ega bo'lish kerak. Inson umrini kutubxonada ilmdagi yangiliklarni o'rganish uchun o'tkazishi mumkin, lekin shunda ham u ortda qolaveradi.

Amaliy tajribalar uchun eksperimental farazlar odatda zaruriy ehtiyojlar, yoki hech bo'lmasa nimanidir yaxshilash maqsadida yuzaga keladi. Ular bevosita doimiy hayotdan dunyoga keladilar. To'qimachilik tsexidagi shovqin, fortepyano pessalarini o'rganish usullari, samalyotning kechki payt qo'nishi bilan bog'liq eksperimentlar aynan shunday vujudga kelgan. Xatti- harakatni anglashni yaxshilash kabi ilmiy tadqiqotlar uchun avvalgi tadqiqotlarga asoslanish xosdir. Barcha tadqiqotlarning ilmiy asosi albatta ilmiy manbalardan olinadi. Inson miyasiga juda zo'r g'oyalar kelsa ham o'sha vaqtdayoq tadqiqot sxemasini tuzmaslik lozim, chunki, kimdir aynan shu sohada birinchi bo'lgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun ilmiy adabiyotlarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Ilmiy manbalar – ma'lum bir fan doirasidagi tasdiqlangan bilimlar tizimi hisoblanadi. Eksperiment jarayonida ilmiy manbalar bilan ishlash katta ahamiyat kasb etadi. Ilmiy manbalar o'z navbatida ikki turga bo'linadi:

A) Rasmiy manbalar

B) Norasmiy manbalar

Rasmiy manbalarga psixologiya sohasidagi turli xil kitoblar, ma'lum mavzudagi ma'lumotlarni jamlovchi kitob va maqolalar, texnik hisobotlar, elektron nashrlar, jurnallardagi maqolalar kiradi. Norasmiy manbalarga konferentsiya tezislari to'plami, to'garaklar, laboratoriya kengashlari, og'zaki maslahatlari, tadqiqotchi guruh kiradi.

**Kitob**

Kitoblarda faqat ancha oldin boshlangan tadqiqotlar haqida yozilganligi uchun, kitoblarni foydalanish mumkin bo'lgan manbalar ichida eng yomoni deb o'ylash mumkin. Lekin aynan shu narsa ularni eng yaxshi manba bo'lishiga sabab bo'ladi. Tadqiqot yakunlangandan to uning manbalarda paydo bo'lguniga qadar davr davomida muxim jarayon: tadqiqot sifati va ilmga keraklilik jihatlari tekshiriladi. Shunga ko'ra, tadqiqot haqidagi ma'lumotlar kitobga kirguncha u boshqa tadqiqotlar qatoriga hamda yagona bilimlar majmuasiga kirib boradi. Kitob muallifi bunda biz qilishimiz kerak bo'lgan ishning ko'p qismini bajarib bo'lgan bo'ladi, faqat ular bir oz eskirib qolganligi uchun bizdan uni yangi ma'lumotlar bilan to'ldirish talab qilinadi xolos.

Adabiyotlarni qidirishning asosiy nuqtasi aynan bizni qiziqtirayotgan ilmiy mavzu bo'yicha yaqinda chop etilgan kitob xisoblanadi. Agar muallif kitobni yaxshi yozgan bo'lsa, hamma ilmiy ishlarning xulosalari yaxshi bo'lish haqida qayg'urmasa ham bo'ladi.

Muammolardan biri muallif kitobga psixologiya paydo bo'lgandan boshlangan hamma tadqiqotlarni ham kirita olmaydi. Hamda qandaydir yo'l bilan tanlashga to'g'ri keladi. Har bir muallif o'zining nazariy va metodologik yo'nalishiga ega, tadqiqotlarni tanlashda ham aynan shunga asoslanadi. Ko'pchilik kitoblar jurnal maqolasi uchun kerakli talablarga mos kelmay, ekspert baholashidan o'ta olmaydi. Ekspert baholash deganda bir necha hurmatga sazovor olimlar maqolani o'qib o'zaro kelishib unga "sifat belgisini" berishadi. Ko'pchilik jurnallar chop etishga tanlangan maqolalar shu bosqichdan o'tishi talab etadi, lekin kitob nashr etuvchilar buni kamdan- kam talab etadilar.

Kutubxonadan kitob qidirish. Ko'pchilik kutubxonalarda mavjud kitoblarning elektron katalogi mavjud. Bunday hollarda ishni kerakli kitob nomi, muallifi yoki mavzu nomini kompYuterga kiritishdan boshlash kerak. Monitor ekranda berilgan talabga javob beruvchi kitoblar haqidagi ma'lumotlar chiqadi. Internetga ulangan kompyuter orqali ham kitob qidirish mumkin ammo uni qo'lga kiritishga bir qadar muammollar bo'lishi mumkin.

Kutubxonaga borishdan avval psixologiya asoslaridan aynan o'sha mavzuga bag'ishlangan turli xil kitoblarni ham ko'rib chiqish mumkin.

Ko'pchilik o'quv qo'llanmalari shu mavzuni boshlanishiga kerakli matnlarni tavsiya etishi mumkin.

Ma'lum mavzudagi ma'lumotlarni jamlovchi kitob va maqolalar

Ba'zi manbalar psixologiyaning ba'zi sohalarini birlashtirishga xizmat qiladi. Bu manbalar kitoblarga nisbatan hozirgi davr ruhiga yaqinroqdir shu bilan birga tadqiqotlarning istiqbollilik darajasini baxolashga ham ko'p vaqt ajratmaydi.

Byulletendagi maqola boshlang'ich nuqta sifatlarda oldingi jamlovchi maqolani yaralish muddatini olishi mumkin hamda psixologiyaning paydo bo'lish muddatini emas va har doim to'liq yoritavermaydi. Bundan tashqari, jamlovchi maqolalar sizning izlanish mudatingizni iqtisod qilib berishi mumkin Shuningdek jamlovchi maqola kitoblarga nisbatan dolzarbdir.

Agar ish tadqiqot borasida bo'ladigan bo'lsa jamlovchi maqoladagi tadqiqot tafsilotlari siz uchun etarli bo'lmasligi mumkin Bunda dokladni eshitishdan ko'ra o'qib uni anglash osonroq kechishi ham mumkin. Bunda ham muammolar mavjud. Maqolaning sifatiga Kim javob beradi? Journallarni chiqaruvchi professional assotsiatstsiyalar redaktor tanlashga alohida e'tibor berishadi, redaktor esa ko'rib chiqish uchun berilgan ilmiy maqolalarning qo'lyozmalarini rettsenentlarga tekshirishga taqdim etishadi. Ba'zan berilgan maqolalar qo'lyozmalarining 10-20% chop etish uchun tanlanadi, ammo ulardan ham muxarrir maqolalarni yaxshilab ko'rib chiqib, xatolarini to'g'irlamaguncha chop etilmaydi. Internetda esa internetga ulangan hoxlovchi shaxs o'z sahifasini yaratib ilmiy doklادلarni unga kiritish mumkin. Yana bir muammo sahifadagi maqolalarni bir necha qoralamalari bo'lishi, bunda qay biri so'nggisiligini topish qiyin.

Jurnallardagi maqolalar

Psixologik maqolalar- bu ilmning tayanch nuqtalaridandir.

Ularni birlamchi manbalari deb atashadi chunki ular eksperimentator interpretatsiyalarining asosiy natijalarini taqdim etadilar to'liq adabiyotlar qidiruvi olib borish uchun jurnal maqolalarini ko'rib chiqish zaruriy shartlardir. Bilamizki u zamon talabiga javob beruvchi ma'lumotlarni etkazadi. Maqola mualliflari ularning maqolalari bilimlar tizimida ma'lum bir o'rin egallashga intiladilar, ularning intilishlari ma'lum ma'noda oqlanishi mumkin, chunki shu vaqtning o'zida boshqa tadqiqotlar o'tkazilayotganini bilmaydilar.

Texnik hisobot

Texnik hisobotlar odatda psixologik adabiyotlar qatoriga qo'shilmaydilar, lekin har xil vaziyatlarda ulardan foydalanish mumki bo'ladi. Agar ilmiy ish davlat ayniqsa, mudofaa vazirligi tomonidan qo'llanilayotgan bo'lsa olim texnik hisobot sifatida doklادل qilishi kerak. Bu hisobotlar jurnallardagi maqolalarga o'xshaydi, ammo unda odatda tavsilotlar ayniqsa, jarayon va tadqiqot uskunalariga taalluqli tavsilotlar ko'p bo'ladi, ba'zida dastlabki ko'rsatkichlar ham keltiriladi. Ushbu proektni qo'llayotgan davlat agentligi avtomatik tarzda texnik hisobotlarni barcha shunga o'xshash tadqiqot o'tkazayotganlarga tarqatadi. Taxminan jurnal muallifining 10 dan biri shunday texnik hisobotlar yozadi va shu hisobotlarni uchdan birigina e'lon qilnadi. Ko'pchilik kutubxonalar texnik hisobotlarga bu Yurtma bermaydi, chunki bu ish qilingan kutubxona javonlari hisobotlariga to'lib ketib, ularni tizimlashtirish va klassifikatsiya qilish anchayin qiyinlashgan bo'lar edi. Mudofaa vazirligi bilan grand bo'yicha yoki kontrkat asosida ishlaydigan tadqiqotchilar xar oyda texnik hisobotlarni qisqa mazmunini olib turadilar. Bu hisobotlarning ko'pchiligi ilmiy jurnallarda chop etiladi. Afsuski texnik hisobotlarni topish juda qiyin bo'ladi. Ularni topish uchun kerakli joylarga so'rov berish, xujjat tartib raqami va narxini ham bilishingiz lozim bo'ladi.

Ba'zi tadqiqotlar uchun texnik hisobotlardan axborotlar qidirish bekor vaqt o'tkazish bilan teng. Lekin siz davlat tomonidan qo'llab quvvatlanadigan yirik agentliklarda ilmiy yo'nalishda ishlasangiz texnik hisobotlar siz uchun qimmatli ma'lumot bo'lishi mumkin.

Elektron nashrlar.

Elektron ma'lumotlarni ham rasmiy manbalarga kiritish biroz oshirib Yuborish bo'lsada uni ham kiritamiz. Elektron ma'lumotlar o'z xarakteriga ko'ra turli xil bo'lishi mumkin: o'z veb saytida maqolasini qoralama nusxasi kiritilgan shaxsiy ma'lumotlar, ekspert baholashdan o'tgan maqolalarga ega bo'lgan, chop etilgan jurnallardan sifat jihatdan bir xil bo'lgan elektron jurnallar. Shuning uchun ham topilgan material sifatani aniqlashda qiyinchiliklar bo'ladi. Ba'zilarni aytishicha elektron ma'lumotlar ilmiy kommunikatsiyalarning asosiy turiga aylanib oxir oqibat kitoblarni chetga surib qo'yadi deyishadi. Lekin bu xali amalga oshmaydi.

Ammo bu erda internetning ustunlik taraflari ko'rinib turibdi. Vaqt tejaladi. Insonlar Internet orqali maqola topib uni faqat chop etish puliga qo'lga kiritishlari mumkin. Olimlar o'z

maqolalarining qoralama versiyasini internetga kiritib, maqola o'quvchilarning talablariga ko'ra uni o'zgartirib, to'g'irlashlari mumkin.

## **14.2. Norasmiy manbalar: mutaxassislar bilan uchrashuvlar, tadqiqiy guruhlar, o'qituvchilar**

Tadqiqotchilik guruhlari.

Agar sizni qiziqtirgan soha bo'yicha tadqiqot olib boruvchilarni bilib olsangiz, ular norasmiy kanallar orqali o'zaro bilim, ma'lumot va yangiliklar almashishlarini aniqlaysiz. Ba'zan olimlar kichik guruhlarga birlashib yaqinda chop etiladigan maqolalaridan nusxalar almashib yurishadi. Hozirda bunday guruh a'zolariga Internet katta imkoniyatlar yaratib bermoqda. Bunda ba'zan maqsad maqolalar almashish bo'lishi mumkin bo'ladi. Boshqa vaziyatlarda esa ular elektron pochta orqali o'zlarini qiziqtirgan tadqiqot haqida baxs yuritadilar. Bunday guruhlar odatda shu sohaga qiziquvchi har qanday insonni o'z a'zolari safiga qo'shadilar. Shuning uchun sizga ilmning ma'lum bir tadqiqot sohasiga qiziqish shakllangandan boshlab shunday guruhlar faoliyatini kuzatib boring. Ular juda qimmatli ma'lumotlar manbai bo'lishlari mumkin.

Mutaxassislik uchrashuvlari, konferensiyalar

Soha yangiliklaridan boxabar bo'lish uchun norasmiy manbalarni unutmaslik kerak. O'z ishi jurnallarda chiqishidan oldin ko'plab tadqiqotchilar o'z ishlarini mutaxassislik uchrashuvlarida hamkasblariga taqdim etadilar. Journallarda chop etilgan maqolalarning deyarli 5 dan bir qismi bundan oldin OTM va Respublikaning konferensiyalarida taqdim etilgan bo'ladi.

Albatta ilmiy yo'nalishingizga bag'ishlangan barcha uchrashuvlar va konferensiyalarda ishtirok etishning iloji yo'q. Ammo ba'zi uchrashuvlardagi dokladlar tezislar to'plami deb nomlanuvchi tomlarga birlashtiriladi hamda u ko'pchilik kutubxonalarda mavjud bo'ladi. Bundan tashqari konferensiyadan oldin tashkilot a'zolari konferensiya dasturini qo'lga kiritadilar. Bu dasturdagi biron doklad mavzusi sizning tadqiqotingizga bog'liq bo'ladigan bo'lsa shunchaki muallifga shu dokladdan nusxa jo'natishni so'rab so'rov jo'natishingiz mumkin. Bunda jamlovchi maqola oxirida keltirilgan original maqolaga tegishli adabiyot siz uchun foydali bo'lishi mumkin.

Oxirgi vaqtlarda mashhur olimlar boshchiligida majmua kitoblar chop etilmoqda. Bu kitoblarning ba'zilarida psixologiya sohasidagi eng so'nggi ishlar umumlashtirilgan. Har bir bobda odatda olim tomonidan tadqiqotning yanada torroq sohalarining hozirgi zamondagi holati haqida ma'lumot beriladi. Bu boblar taxliliy maqolaga o'xshaydi, agarda sizning tadqiqotingiz bilan bog'liq bobni topa olsangiz vaqtingiz ancha tejaladi. Bu tur kitoblarda ma'lumotlarni ommalashtirish kechishi standart o'quv kitoblariga nisbatan qisqa bo'ladi. Ularning ko'pchiligi qo'llanma nashr etish tizimlari yordamida chiqariladi, bunda esa kiritish, tahrirlash va so'nggi variantni qo'lga kiritish vaqti qisqaradi. Bunday vaziyatlarda ba'zi ishlar 1-2 yil oldin bajarilgan bo'lishi mumkin. Lekin bu kitoblarda ham jurnallarda bo'ladigan ekspert baholash amalga oshirilmaydi.

Shuni unitmaslik lozimki, siz uchun adabiyotlar topishda norasmiy manba sifatida xizmat qiluvchi fakultetingiz o'qituvchilari ham mavjuddir. Ba'zi talabalar o'qituvchi, domlalar menga maslahat berishga vaqtlari yo'q yoki bu qolgan talabalarga nisbatan noxaqlik bo'ladi qabilidagi fikrlar bilan ularga maslahat so'rash masalasi bilan murojaat qilmaydilar. Haqiqatda esa ko'pchilik domlarga bunday murojaatlar yoqadi hamda beminnat maslaxat berib, kerakligini anglab o'zlarini juda yaxshi xis qilishadi. Bu maslaxat ham xuddi domla, o'qituvchilarning talabalarga auditoriyada ma'ruza o'qishlari kabi ta'lim berishning bir bo'lagidir. Haqiqiy tadqiqotchilar o'z tadqiqotlariga kerakli ma'lumotlarni olish uchun bor kuchlari bilan barcha manbalardan foydalanadilar. Zero, fan-olimlarning o'zaro kim o'zarga bo'lgan kurashi emas, maqsadi- yagona bilimlar tizimini shakllantirish bo'lgan hamkorlikdagi faoliyatdir.

Psixodiagnostika va eksperimental psixologiyada ilmiy manbalar bilan ishlash bir qancha talablarni qo'yadi. Bunda ilmiy manbalarni o'z vaqtida ishlatish, ularni to'g'ri tanlash, manbalarni samarali qo'llay olish lozim. Manbalar bilan ishlashda ma'lumotalarni qaysi yilga mansubligi, dolzarbligini va hozirgi davrga tadbiq qilish mumkin yoki mumkin emasligini ham hisobga olish lozim. Ma'lum bo'ldiki, psixodiagnostika va eksperimental psixologiyada ilmiy

manbalar bilan ishlash ikki turga ajratilgan, bulardan birinchisi rasmiy manbalar bo'lib, bunda rasmiy manbalar bilan ishlash natijasida kenroq ma'lumot to'planadi hamda tadqiqot ishining unumdorligi ta'minlanadi. Rasmiy manbalarda ma'lumot hajmining kengligi sababli kerakli asosiy dalillarni ajratishda qiyinchiliklar bo'ladi. Bundan tashqari rasmiy manba bo'lgan texnik hisobot o'ziga yarasha kamchiliklarga ega. Texnik hisobotdagi natijalar raqamlardan iborat bo'ladi, ularni taxlili berilmaydi.

Norasmiy manbalar bilan ishlash jarayonida eksperimentator yangi ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin. Chunki konferentsiya, tadqiqotchilar guruhi, laboratoriya kengashlari, og'zaki maslaxatlarda, to'garaklarda tadqiqotchilar o'zaro fikr almashib yangi ma'lumotlarga ega bo'ladi, dunyoqarashi kengayadi.

Manbalarning har ikki turi bilan ishlash qiyin jarayon hisoblanadi. Bu jarayon engil kechishi uchun eksperimentatorda etarli bilim, malakalar talab etiladi. Shuni hisobga olib har qanday eksperimentatordan kerakli tajriba, ishga qiziqish hamda oldinga intilish talab etiladi.

### **Mavzuni mustahkamlashga oid amaliy topshiriqlar:**

#### **T-organayzeri**

Ushbu usul yordamida rasmiy va norasmiy manbalarning afzallik va kamchiliklarini qiyosiy tahlil qiling.

#### Rasmiy manbalar

Afzalliklari	Kamchiliklari

#### Norasmiy manbalar

Afzalliklari	Kamchiliklari

#### **2-o'quv topshirig'i**

#### **Kontseptual jadval**

Ushbu usul yordamida ilmiy manbalarning ko'rinishlarini o'ziga xos jihatlarini yoritib bering.

Ilmiy manbalarning ko'rinishlari	O'ziga xos jihatlari
Jurnal	
Kitob	
Texnik hisobotlar	
Ilmiy maqola va tezislar	
Me'yoriy hujjatlar	
Elektron ma'lumotlar	

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar?**

1. Rasmiy manbalar deganda nimani tushunasiz?
2. Jurnal nima?
3. Norasmiy manbalarga nimalar kiradi?
4. Norasmiy manbalarni rasmiylashtirish qanday yuz beradi?
5. Bibliografiya tuzish tartibini bilasizmi?

#### **Mavzu bo'yicha test topshiriqlari**

##### **I. Rasmiy manba nima?**

**\*A)** psixologiya sohasidagi turli xil kitoblar, ma'lum mavzudagi ma'lumotlarni jamlovchi kitob va maqolalar, texnik hisobotlar, elektron nashrlar, jurnallardagi maqolalar

**V)** konferensiya tezislari to'plami, to'garaklar, laboratoriya kengashlari, og'zaki maslahatlar, tadqiqotchi guruh

**S)** tadqiq etilayotgan muammoga oid to'liq nazariy va amaliy ma'lumotlar aks etgan manba

**D)** ilmiy tadqiqotning nazariy va amaliy natijalari aks ettirilgan kichik ilmiy ish



## **2. Norasmiy manba nima?**

A) psixologiya sohasidagi turli xil kitoblar, ma`lum mavzudagi ma`lumotlarni jamlovchi kitob va maqolalar, texnik hisobotlar, elektron nashrlar, jurnallardagi maqolalar

\*V) koferensiya tezislari to'plami, to'garaklar, laboratoriya kengashlari, og`zaki maslahatlar, tadqiqotchi guruh

S) tadqiq etilayotgan muammoga oid to'liq nazariy va amaliy ma`lumotlar aks etgan manba

D) ilmiy tadqiqotning nazariy va amaliy natijalari aks ettirilgan kichik ilmiy ish

## **3. Maqola nima?**

A) ilmiy tadqiqot davomidla murojaat etiladigan rasmiy statusga ega bo'lgan, davlat ro'yhatidan o'tkazilgan manba

V) ilmiy ish davlat ayniqsa mudofaa vazirligi tomonidan qo'llanilayotgan bo'lsa qo'llanilib, ularda statistik ma`lumotnomalar ham keltiriladi

S) rasmiy statusga ega bo'lgan, ilmiy ish natijalari, yangiliklari aks etirilgan to'plam.

\*D) ilmiy tadqiqotning nazariy va amaliy natijalari aks ettirilgan kichik ilmiy ish

## **4. Jurnal nima?**

A) ilmiy tadqiqot davomidla murojaat etiladigan rasmiy statusga ega bo'lgan, davlat ro'yhatidan o'tkazilgan manba

V) ilmiy ish davlat ayniqsa mudofaa vazirligi tomonidan qo'llanilayotgan bo'lsa qo'llanilib, ularda statistik ma`lumotnomalar ham keltiriladi

\*S) rasmiy statusga ega bo'lgan, ilmiy ish natijalari, yangiliklari aks etirilgan to'plam.

D) ilmiy tadqiqotning nazariy va amaliy natijalari aks ettirilgan kichik ilmiy ish

## **5. Kitob nima?**

A) psixologiya sohasidagi turli xil kitoblar, ma`lum mavzudagi ma`lumotlarni jamlovchi kitob va maqolalar, texnik hisobotlar, elektron nashrlar, jurnallardagi maqolalar

V) koferensiya tezislari to'plami, to'garaklar, laboratoriya kengashlari, og`zaki maslahatlar, tadqiqotchi guruh

\*S) tadqiq etilayotgan muammoga oid to'liq nazariy va amaliy ma`lumotlar aks etgan manba

D) ilmiy tadqiqotning nazariy va amaliy natijalari aks ettirilgan kichik ilmiy ish.

## XV. O'ZGARUVCHILARNI TANLASH

### Reja:

- 15.1. Eksperimentda o'tkaziladigan mustaqil va tobe o'zgaruvchilarni tanlash.
- 15.2. Tobe o'zgaruvchini tanlash: operatsional tushuncha, validlik, ishonchlilik.
- 15.3. Bevosita kuzatsa bo'ladigan tobe o'zgaruvchilar, bilvosita ta'sir o'tkazadigan tobe o'zgaruvchilar hamda salbiy va ijobiy ko'rsatkichlari.

### Maqsad:

Talabalarda o'zgaruvchilar haqida nazariy bilimlarni shakllantirish.

### Vazifalar:

Talabalarda o'z ustida ishlash, psixologik tadqiqotlar orqali mamlakatimizdagi fan texnika taraqqiyotini tahlil qilish va tadqiqotxilik ko'nikmalarini tarbiyalashdan iborat. Talabalarda ilmiy dunyoqarashni, ijodiy mustaqil tafakko'rni rivojlantirish.

### Tayanch tushunchalar:

Validlik. Yakka tobe o'zgaruvchilar. Tarkibiy tobe o'zgaruvchilar. Ko'p miqdorli tobe o'zgaruvchilar. Yaqqol validlik. Bashoratlovchi validlik. Raqobatli (diagnostik) validlik.

### 15.1. Eksperimentda o'tkaziladigan mustaqil va tobe o'zgaruvchilarni tanlash

Tadqiqotchi ichki hodisaning Ava V sababli aloqasi to'g'risidagi gipotezani tekshiradi. "Sabablilik" tushunchasi fanda eng qiyin tushunchalardan biri hisoblanadi. Ikki hodisa o'rtasidagi sababli aloqalarning bir qator empirik belgilari mavjud.

1-belgisi. Boshlang'ich harakat sabablarini va harakat vaqtini ajralganligi. Agar tadqiqotchi tajriba ta'siridan so'ng ob'ektda o'zgarishni kuzatsa, ta'sirga uchramagan analitik ob'ektga nisbatan o'zgarishni kuzatsa, unda eksperimental ta'sir ob'ekt ahvolini o'zgartirishga sabab bo'ldi, deyishi uchun asos bo'ladi. Ob'ektlarning ta'siri va taqqoslanishi bunday xulosaning muhim sharoiti hisoblanadi. G'ozlarning janubga uchib ketishlari, bir oydan so'ng qor yog'ishiga sabab bo'la olmaydi.

2-belgisi. Ikki o'zgaruvchilar o'rtasidagi statistik aloqalarning mavjudligi (Sababli va harakatli). O'zgaruvchilarning biri o'zgarishi ikkinchisining o'zgarishi bilan kuzatiladi. Boshqacha qilib aytganda, o'zgaruvchilar o'rtasida yoki chiziqli korrelyatsiya xuddi verbal intellekt va maktabdagi yutuqlar o'rtasidagi daraja yoki to'g'ri chiziqli korrelyatsiya uchraydi.

3- belgisi. Sababli tekshiruv aloqasi, agar tadqiqot muolajasi A va V aloqalarini tushuntirishning boshqa imkoniyatlarini rad etganda qayd etiladi. Ikki hodisa orasidagi bog'lanish eksperimental gipotezasining tekshiruv quyidagicha amalga oshiriladi. Tadqiqotchi taxminiy sababni modellashtiradi: U eksperimental ta'sir sifatida namoyon bo'ladi, natija esa - ob'ekt holatining o'zgarishi -u qandaydir o'lchaydigan asbob orqali o'lchanadi. Shunday qilib, tadqiqotchi ishtirokchiga turli baland pastlikdagi signallarni taqdim etadi-uning psixikasi o'zgarib boshlaydi-ishtirokchi yoki eshitadi yoki signalni eshitmaydi va turli motor va verbal javoblarga sabab bo'ladi ("xa"- "yo'q", "eshitayapman", "eshitmayapman").

Tashqi o'zgaruvchilarda tadqiqot vaziyatlarini tadqiqotchi nazorat qilishi kerak. Tashqi o'zgaruvchilar orasidan ajralib turadiganlari:

1) Salbiy o'zgaruvchilar, u sistematik aralashmani buzib, ishonchli bo'lmagan ma'lumotlar Yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. (vaqt faktori, ishtirokchining individual o'ziga xosliklari)

2) Qo'shimcha o'zgarishli, sababli va tekshiruv o'rtasidagi aloqani o'rganish uchun mavjud. Xususiy gipotezalarni tekshirishda qo'shimcha o'zgarishning darajasi haqiqatni o'rganishda uning darajasiga mos kelishi lozim. Tadqiqotchilar mustaqil o'zgaruvchilarni turli xillarini ajratadilar:

-sifatli ("o'rgatib turish"- "o'rgatmaslik")

-miqdoriy (pul bilan qo'llash darajasi)

Tobe o'zgaruvchilar orasidan bazisini ajratadilar. Bazisli o'zgaruvchi -yagona bog'liq bo'lgan o'zgarish bo'lib, unga bog'liq bo'lmagan o'zgaruvchilar ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotchi tajribida faqatgina tobe o'zgaruvchini o'zgartirishi lozim. Bu shart qo'llaniladigan tajriba, toza eksperiment hisoblanadi, lekin tajriba davomida tadqiqotchi bir o'zgaruvchini tanlay turib qolganlarini ham o'zgartirib yuboradi. Bu o'zgarish tadqiqotchining harakati orqali yuz berishi va ikki o'zgaruvchilar o'rtasidagi aloqa shartiga to'g'ri kelishi mumkin. Tajriba tekshiruvini o'tkazishdagi asosiy muammo mustaqil o'zgaruvchilarni ajratish va qolgan o'zgaruvchilarni qo'llamaslik.

#### **14.2. Tobe o'zgaruvchini tanlash: operatsional tushuncha, validlik, ishonchlilik**

Tobe o'zgaruvchi qandaydir mustaqil o'zgaruvchining ta'sirida xulq-atvorda ro'y beradigan o'zgarishdir. Tekshirish uchun xulq-atvordagi o'zgarishlarning xilma xil ko'rsatkichlari predmet qilib olinishi mumkin. Tobe o'zgaruvchi sifatida qanday jarayon yoki hodisani tanlashimiz yakunda nimani tekshirishimizni ma'lum qiladi.

#### **Yana bir karra tushunchalarning talqini**

Keling, "Zo'ravonlik tasvirlangan teleko'rsatuvlar bolalardagi agressivlikni oshiradimi?" degan savolga qaytaylik. Tasavvur qilaylik, biz tajribada agressivlik darajasiga teleko'rsatuvlar ta'sirini tekshirishni rejalashtirganmiz. Bunday holatda biz avvalo agressivlik tushunchasiga operatsional ta'rifni aniqlashtirib olishimiz kerak bo'ladi. Chunki agressivlik deganda nimani tushunishimiz bolaning qaysi harakatlarini agressiya toifasiga kiritishimizni belgilab beradi.

Avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, biz keltirayotgan misolga o'xshash vaziyatda tadqiqotchi birinchi navbatda tobe o'zgaruvchi sifatida gavdalanayotgan agressivlikning mezoni, agressiv xatti-harakatlarni ifodalovchi alomatlar deganda nimalarni qabul qilishini hal etishi kerak. Bu masalani hal etishning usullaridan biri ekspertlar guruhiga har bir bolaning o'yin vaziyatidagi xatti-harakatlari tasvirlangan videolavhani ko'rsatib, ularga 7 balli shkala asosida bola xulq-atvorida agressivlikning namoyon bo'lishi darajasini baholashdir. Boshqacha usulni qo'llab, ya'ni bolalarga turli muammoli vaziyatlarga tushib qolgan bolalar haqida hikoya qilib berib, ularning o'rnida o'zlari bo'lganda qanday yo'l tutishlarini so'rash orqali ham ushbu masalani echish mumkin. SHuningdek, bolalarning agressiv toifaga kiruvchi o'yinchoqlar (masalan, to'pponcha, pichoq va h.) va noagressiv o'yinchoqlar (masalan, mashinalar, qurilish uskunolari, qo'g'irchoqlar va h.) bilan o'ynashini kuzatishimiz mumkin. Kuzatuv natijasida biz har bir toifa o'yinchoqlar bilan bola qancha vaqt o'ynayotganini qayd etib, bu belgini agressivlik ifodasi sifatida qabul qilishimiz mumkin. Shubhasiz, qo'yilayotgan ilmiy-tekshiruv masalasining bu jihatini hal etishning yana boshqa xil usullarini o'ylab topsa bo'ladi. Muhimi shuki, ilmiy tekshiruvga kirishayotganda, albatta, operatsional ta'rifni aniqlashtirib olish shartdir.

Ba'zida tobe o'zgaruvchi go'yo aniq ko'rinib turgandek bo'lganda ham, operatsional ta'rifni aniqlashtirish qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Masalan, faraz qilaylik, ikki tadqiqotchi evol'yutsion psixologiyada ilgari surilayotgan ayrim nazariyalar statistika ma'lumotlari bilan qanchalik tasdiqlanishini tekshirmoqchi. Jumladan, shunday taxminlardan biriga ko'ra, odam o'zi bilan birga yashayotgan odamlar orasida o'ziga irsiy jihatdan qondosh-qarindosh bo'lganlarga nisbatan ularga genetik aloqasi yo'q odamlarni ko'proq o'ldiradilar. Go'yoki bu erda har bir toifaga kiruvchi odamlar orasida kimlarga nisbatan ko'proq qotillik jinoyati sodir etilganini hisoblashning o'zi kifoyadek tuYuladi. Ammo qotillik deganda nimani tushunish kerak? Ba'zi mamkallatlarda qotillik jinoyati tofasiga qotillikka urinish va behosdan odam o'ldirish kiritiladi. Bu holda o'tkazilayotgan tekshiruv qanday yakunlanganidan qat'iy nazar barcha suiqa-sdlar va ehtiyotsizlik sababli ro'y bergan qotilliklarni hisobga olish zarur bo'ladi. Tasodifiy qotilliklarning ko'pchiligi, xuddi mashinada odamni urib Yuborish holati kabi vaziyatlarda aslida qotillik niyati bo'lmaydi. Niyatning bo'lishi qanchalik muhim? Agar niyat muhim bo'lsa, unda qotillikka urinishni ham qotillik deb hisoblash kerak. Yoki faqatgina sud hukmi bilan aybdor, deb topilganlarni qotillar toifasiga kiritish mumkinmi? Bir qarashda oxirgi tilga olingan yondashuv to'g'riday: hisob kitobga aybdorligi isbotlanmagan odamlarni

kiritmagan ma`qul. Ammo ayblovlar sonini sanash yana boshqa xil raqamlarni berishi mumkin. Detroytda bir yilda sodir qilingan qotilliklarda 20 ta erkak o'z xotinini o'ldirganda aybdor deb topilgan, 9 ta ayol o'z erining qotili sifatida qayd etilgan. Bu raqamlar go'yo oiladagi qotilliklar ko'proq erkak kishilar tomonidan sodir qilinishini ko'rsatayotganday. Biroq aslida bunday qotilliklar ko'proq ayollar tomonidan sodir etiladi. Faqatgina qotil xotinlarning jinoyat ishlari 75% holatlarda tergov-surishtiruvsiz tugallanadi, qotil erlar orasida esa bu ko'rsatkich 20% tashkil etadi, xolos. Tadqiqotchilarning ko'rsatishicha, ayblovlarning o'zini hisoblash jinoyatchilardan ko'ra ko'proq da'vogarlarining xulq-atvori haqida ma'lumot beradi. Ushbu misoldan ham ma'lum bo'layaptiki, tobe o'zgaruvchilarni operatsional aniqlash mustaqil o'zgaruvchilarni aniqlashtirishdan oson emas.

Tobe o'zgaruvchilarni aniqlashtirishda biz nafaqat operatsional ta'riflar masalasini, balki amalga oshiriladigan tekshiruv valid va ishonchli bo'lishini ham nazorat qilib turishimiz kerak.

### **Ishonchlilik va validlik**

Ilmiy tekshirish jarayonida qo'llanuvchi vosita o'xshash vaziyatlarda qaytadan o'tkazilgan sinovlarda har safar bir-biriga yaqin natijalarni bersa, uni ishonchli deb hisoblash mumkin. Olinayotgan natijalar qanchalik xilma xil bo'lsa, o'lchov asbobi shunchalik ishonchsiz bo'ladi. Bu holatga shunday qiyosni keltirish mumkin: faraz qiling uzunlikni o'lchashga xizmat qilishi ko'zda tutilgan chizg'ich rezinadan tayorlangan. Bir marta uning yordamida o'lchangan narsa 7 santimetr, boshqa safar esa 8 santimetrni ko'rsatishi mumkin. Chizg'ichimiz qanchalik ishonchli ekanini aniqlash uchun biz aynan bir narsani kamida ikki marta o'lchab, ularning uzunliklari o'rtasidagi korrelyatsion aloqadorlik darajasini tekshirimiz kerak (1-bobga qarang). Agar birinchi teshiruv natijasi ikkinchi bor o'tkazilgan o'lchovning ko'rsatkichiga yaqin bo'lsa, o'lchov asbobini ishonchli, deb hisoblash mumkin. Agar o'rtadagi korrelyatsiya sust bo'lsa, asbob unchalik ishonchlik bo'lmaydi.

Yuqorida biz keltirgan misolda biz bolaning xatti-harakatlari tasvirlangan videolavhani ikkinchi guruh ekspertlariga ko'rsatib, ulardan xulq-atvordagi agressivlikni baholab berishni so'rashimiz, so'ngra ikkala guruh ekspertlari qo'ygan baholarni solishtirishimiz mumkin. Agar ikki guruh ekspertlari bir biriga o'xshash baholarni qo'ygan bo'lsalar, demak, ularning xulosalari ishonchli. Ishonchlik masalasiga aniqlik kiritish tobe o'zgaruvchi muayyan psixologik sinov vositasi, jumladan, qandaydir test yoki so'rovnoma yordamida aniqlanayotgan vaziyatda, ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etadi. Odatda standartlashtirilgan metodikalarning ishonchlik darajasi uni ishlab chiqqan mutaxassislar tomonidan aniqlangan bo'lib, diagnostika vositasini qo'llash bo'yicha yo'riqnomada keltirilgan bo'ladi. Ammo psixologik sinov vositasi tadqiqotchining o'zi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lsa, uning ishonchlilik darajasini aniqlash ham izlanuvchi zimmasiga tushadi. Buni bir necha xil usullar bilan amalga oshirish mumkin. Eng keng tarqalgan usul – retest tekshiruv usuli bo'lib, bunda aynan bir guruh sinaluvchilarning o'zi bilan ma'lum vaqt oralig'ida tegishli metodika bilan qayta tekshiruv o'tkazishdir. Bunda ikki marta amalga oshirilgan tekshiruv natijalari orasidagi korrelyatsiya koeffitsientini hisoblash orqali ishonchlilik darajasi aniqlanadi. Ammo aynan bir odamning o'zi ikki marta tekshirilganda beixtiyor avvalgi tekshiruvda hosil bo'lgan tushuncha, ko'nikmalar ikkinchi bor tekshiruv o'tkazilganda natijalarga ta'sir ko'rsatishi ehtimoli bor. Qolaversa, ikki tekshiruv orasidagi vaqt davomida sinaluvchi hayotida ro'y bergan voqealar ham natijalarga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli ba`zida ishonchlilikni aniqlashning boshqa usuli, jumladan, parallel shakllarni qo'llash usuli qo'llanadi. Bu usulni qo'llashda ishonchligi aniqlanayotgan metodikadagi topshiriqlar kabi vazifalarga ega bo'lgan, ya'ni qo'llanayotgan vositaga o'xshash yana bir o'lchov asbobi ishlab chiqiladi va sinovdan o'tkazilayotgan odamlar har ikki shakldagi vosita yordamida tekshiriladi. Bu erda ham yakunda bir metodikaning ikki xil shakli yordamida olingan natijalar o'rtasidagi korrelyatsiya tekshiriladi. O'z-o'zidan tushunarliki, korrelyatsiya ko'rsatkichlarining Yuqori bo'lishi tegishli metodikaning ishonchli ekanidan darak beradi.

**Qaysi o'zgaruvchilarni boshqarish kerakligini qanday tanlash kerak...**

Validlik quyidagi jihatga aloqador: o'lchashni xohlagan narsani o'lchayapmizmi. Aytaylik bizda yog'och lineyka bor, undagi markirovkaga ko'ra u 10 sm biroq, aslida 20 sm. Chunki haqiqatda uning har bir santimetri 2 smni o'lchaydi. Bunday holatda biz biror bir ob'ektni ko'p bora o'lchashimiz mumkin, biroq lineyka doim bir xil natijani, aytaylik 9 sm ni ko'rsatadi.

Bizda ishonchli o'lchov asbobi bor, biroq o'lchovlar albatta xato, chunki biz santimetrlarni o'lchayapmiz deb o'ylayapmiz aslida esa unday emas. SHuning uchun ham biz asboblarimiz validligini, ya'ni boshqa valid bo'lgan asboblar singari bizning asboblarimiz ham to'g'ri birliklarni ko'rsatadimi, yo'qmi shuni bilishimiz darkor.

Masalan, aytaylik, bizdagi agressivlikning operatsional ta'rifi bolaning agressiv yoki noagressiv o'yinchoqlarni o'ynash vaqtining foizini aniqlashni ko'zda tutadi. Agar bizning sekundomerimiz to'g'ri ishlasa olingan natijalar ham ishonchli bo'ladi, chunki ikkinchi bora xulq-atvorning xronometriyasini o'tkazganimizda deyarli o'shanday natijalarni olamiz. Biroq odamlar bizning o'lchovlarimiz agressivlik me'yor uchun valid emas degan e'tirozni bildirishlari mumkin. Ular: "bolalar o'zlari foydalanishni bilgan o'yinchoqlarini o'ynaydilar" deyishlari mumkin. Bolalar zo'ravonlik aks etgan teleko'rsatuvlarda pistoletlar, tanklar, pichoqlar ishlatilayotganligini ko'rishgani uchun aynan shu o'yinchoqlarni ishlatishadi. SHuningdek, ular bolalar o'ynayotgan Yuk mashina, asboblar, o'yinchoqlarni nafaqat noagressiv, balki agressiv maqsadda ham qo'llashga qodirlar deb davo qilishlari mumkin. Bu odamlarni siz ishlatayotgan o'lchovlar validligiga ishonitirishingiz uchun bu o'lchovlarni qoniqtiradigan ma'lum bir standartlarga solishtirishingiz lozim. Agar sizning o'lchov vositangiz standartga mos bo'lsa uni valid deb atay olasiz.

Metod	Afzalliklari	Kamchiliklari
Retestli	Testlar bilan bir xil band (punkt)lardan foydalanadi Sodda	Birinchi test ikkinchisiga ta'sir etishi mumkin Respondentlar vaqti bilan o'zgarishi mumkin
Paralel uslub	Bandlar takrorlanishining ta'sirini minimumga tushiradi Qayta testgacha kam vaqt o'tadi Boshlang'ich va yakuniy testli loixalarda qo'llash foydali.	Turli bandlardan foydalanish ishonchlilikni kamaytiradi.
Ikkiga bo'lish	Bandlar takrorlanishining ta'sirini minimumga tushiradi Vaqtini tejaydi, chunki bir martada o'tkaziladi.	Turli bandlardan foydalanish ishonchlilikni kamaytiradi. Testning davomiyroq bo'lishini talab etadi.

Tobe o'zgaruvchi sifatida test natijalaridan foydalanilganda, ba'zan validlikning ancha rasmiy tarifi talab etiladi. Validlikning eng yomon shakli – **yaqqol validlik**dir, bu tashqi tomondan test o'lchashi kerak bo'lgan narsani o'lchayotgandek ko'rinishini anglatadi. Yaqqol validlik shunchalik sub'ektivki, juda kam ilmiy qimmatga egaligi ko'rinib turibdiki; barcha tadqiqotchilar ularning testlari Yuqori yaqqol validlikka ega deb o'ylashadi. Validlashtirishning rasmiyroq va asosliroq tartibi – **tarkibiy validlik**ni aniqlashdir. Test qamrab olgan mavzuning tarkibi yaxshilab analiz qilinadi. Keyin test shunday ishlab chiqiladiki, u aniqlangan tarkibning har bir soxasi bo'yicha savollarning reprezentativ tanlanmasini qamrab olishi kerak. Validlashtirishning uchinchi tartibi – **bashoratlovchi validlik**ni aniqlash. U test qandaydir o'ziga xos me'zonni muvaffaqiyatli bashorat qilolishini anglatadi. Masalan, o'quvchilar kollejga kirayotganlarida topshiradigan testning qimmati shundaki, uning natijalari

o'quvchining kollejdagi ta'limi jarayonidagi o'rtacha baxolarini bashorat qilishi mumkin. Imtixon natijalari va o'rtacha ball o'rtasidagi kuchli korrelyatsiya Yuqori validlikdan guvohlik beradi. **Raqobatli (diagnostik) validlikni** test natijasini qandaydir mezonga solishtirib ham aniqlash mumkin, biroq bunday holatda ikkita o'lchov ham bir vaqtda o'tkazilishi borilishi lozim. Masalan, ota-onalar uchun ularning tele ko'rsatuvlarni ko'p ko'radigan bolalarining agressiyasini o'lchaydigan test ishlab chiqayapmiz, shunday vaqtda biz har bir boladan olingan so'rov natijalari bilan o'qituvchilar tomonidan qo'yilgan agressivlikning miqdoriy bahosi o'rtasidagi korrelyatsiyani chiqarib raqobatli validlikni aniqlash mumkin. Ko'rib turganingizdek, tobe o'zgaruvchining validligini o'lchash, uning ishonchligini o'lchashdan ham qiyinroq. Ko'pincha biz qilishimiz mumkin bo'lgan maksimum ish – bizning o'lchovlarimiz mantiqiy jihatdan validligini ta'kidlashdir.

### **14.3. Bevosita kuzatsa bo'ladigan tobe o'zgaruvchilar, bilvosita ta'sir o'tkazadigan tobe o'zgaruvchilar hamda salbiy va ijobiy ko'rsatkichlari**

Sizning metodingiz xulq-atvorni bevosita kuzatishga qanchalik yaqin bo'lsa, siz olgan o'lchovlar shuncha kam baxslarga sabab bo'ladi. Biroq aytaylik siz inson ongi qanday ishlashini bilmoqchi bo'lsangiz, u xolda tan oling, keltirgan tobe o'lchovlaringiz bilvosita bo'ladi. Masalan, sizni xotira qiziqtiradi va siz eslab qolish uchun berilgan matnni taqdim etishning ikki usulini solishtirmoqchisiz. Bir haftadan so'ng qatnashchilar matnning qanchasini eslab qolishganini aniqlamoqchisiz. Xo'sh, nimani o'lchashingiz kerak?


Vazifa juda oddiy: ulardan nimani eslashlarini so'rash kifoya. Lekin, aytaylik, ular ikki usulda taqdim etilgan materialdan hech nimani eslay olmadilar. Shunda siz ular hech narsani esda saqlab qolmaganlar deya xulosa bera olasizmi? Buning o'rniga siz, yaxshisi, tanish testini o'tkazishingiz va avvalgi material bilan yangi materialni solishtirishlari qanchalik aniqligini tekshirishingiz mumkin. Yoki siz ulardan materialni yana bir bor yodlashni so'rashingiz va avval yodlaganlari hisobiga bu safar qancha vaqtni tejaganliklarini hisoblashingiz mumkin. Bu metodlarning har biri sizning: odamlar qancha eslab qoldi degan savolingizga turlicha javoblarni berishi mumkin. O'ylaymanki, keltirilgan misollar orqali siz – boshlanishida bevosita kuzatilayotganga o'xshab ko'rinayotgan o'zgaruvchilar ham sizni qiziqtirayotgan xulq-atvor bilan bilvosita aloqador bo'lishi mumkinligini tushuna olasiz.

### **Bilvosita ta'sir o'tkazadigan tobe o'zgaruvchilar hamda salbiy va ijobiy ko'rsatkichlari**

Aytaylik biz qaysi holatda: tugmani bosish uchun berilgan nurli signal yorqin bo'lgandami yoki xira bo'lgandami — odamlar tezroq reaksiya bildirishlarini bilmoqchimiz. Extimol siz chiroq yonganda sekundomerni yoqib, tugma bosilganda o'chirarsiz. Shuni tan olish lozimki bunda reaksiyaning faqat bir tavsifi o'lchanayapti. Biz boshqa reaksiyalarni ham, masalan odamlar tugmani qanday bosayotganlarini xohlagan miqdorda o'lchashimiz mumkin. Individ bir urinishda barmog'ini tugma ustida ko'chirib, boshqasida to'g'ri xarakatlantirayaptimi? Boshida u nishonni xato olmayaptimi? Boshqa urinishda u tugmani oxista bosib boshqasida qattiqroq bosmayaptimi? Bunday turli reaksiyalar to'plamidan biz faqat birginasini o'lchash uchun tanlab olayapmiz, ya'ni nurli signal boshlanishidan to tugma bosilgunga qadar bo'lgan vaqtni o'lchayapmiz. Boshqacha qilib aytganda biz **yakka tobe o'zgaruvchilarni tanladik**.

Biz tanlayotgan har qanday yakka tobe o'zgaruvchi nimaningdir adekvat me'yori bo'lishi ham bo'lmasligi ham mumkin. Aytaylik, odamlardan qo'llariga qalam olishlarini va Yulduzlarning ko'zgudagi aksiga qarab ularning chetiga kontur bo'ylab chiziq tortishlarini so'radik. Ko'zgu har qanday tasvirning teskari aksini ko'rsatishini hisobga olsak, ko'pchilik odamlar uchun bu vazifani bajarish boshida qiyinchilik tug'diradi. Aytaylik, biz bu vazifada natijaning 1 dan 10 gacha bo'lgan urinish davomida yaxshilanishini tekshirmoqchimiz. Qaysi tobe o'zgaruvchi bu yaxshilanishni aks ettiradi?

*Menimcha siz  
ko'rsatmani  
noto'g'ri  
tushungansiz!*




Bu eksperimentlarda standart tobe o'zgaruvchi qatnashchi tomonidan chizilayotgan chiziq necha bor Yulduz konturi bilan kesishayotgani bo'ladi. 1-rasmda ikki ishtirokchi tomonidan chizilgan chiziq ko'rsatilgan. Bu ishtirokchilarni 1- va 2- qatnashchi deb ataymiz. Birinchi urinishda 1- ishtirokchi chizgan chiziq chegara bilan 20 marta kesishgan, ikkinchi urinishda esa 6 marta kesishgan. Bu individning tobe o'zgaruvchisi kutilgan yaxshilanishni aks ettirmoqda. Endi 2- ishtirokchiga qarang. Bu individ har ikkala urinishda ham chegarani 14 marta kesib o'tdi. Bu tobe o'zgaruvchi shuni ko'rsatayaptiki, 2- ishtirokchining ko'zgudan nusxa olish vazifasi bo'yicha natijalari yaxshilanmagan. Bu xulosaga ishonasizmi?

Asosiy muammo shundaki, xatto chegarani kesib o'tish miqdori kabi bevosita kuzatiladigan tobe o'zgaruvchidan foydalanilganda ham validlikni xisobga olish darkor. Chegarani kesib o'tish bilan bog'liq xarakat – ko'zgudan nusxa olish vazifasini bajarish sifatining faqat bitta extimoliy me'yoridir. Alternativ tariqasida biz chizilgan chiziqning umumiy uzunligini o'lchashimiz va uning necha foizi yulduz chegarasining ichki qismiga tushganini aniqlashimiz mumkin. Yoki har bir urinishdagi chiziq va chegara o'rtasidagi maydonni o'lchashimiz mumkin. Yoki urinishlar bajarilgan vaqtni belgilab, ishtirokchilarning qay biri 1-Yulduzdan 10-Yulduzgacha tezroq kelganini aniqlashimiz mumkin.

### **Ko'p miqdorli tobe o'zgaruvchilar**

Tobe o'zgaruvchi validligini oshirish usullaridan biri - Ko'p miqdorli tobe o'zgaruvchilardan foydalanishdir. Aslini olganda, eksperimental psixologiyaning ba'zi tarmoqlarida faqat bitta tobe o'lchov haqida gapirish umuman mumkin emas. Masalan, ko'pchilik tadqiqotlarda tobe o'lchov sifatida tanlov reaksiyasi vaqti ishlatiladi. **Tanlov reaksiyasi vaqti** – bu bir nechta stimullardan biri ta'sir ettirilganda bildiriladigan bir nechta reaksiyalardan birining bajarilish vaqtidir. Tabiiyki, odamlar qancha kam xato qilishni istahsa ular sekinroq ta'sirlanishlari kerak. Agar aniqlik ularni kamroq qiziqtirsa, tezroq ta'sirlanishlari mumkin. Tezlik va aniqlik o'rtasidagi bunday murosalar berilayotgan xabarda tezlik ham, aniqlik ham tobe o'zgaruvchi sifatida berilishini talab etadi. Agar bizni natijaning umumiy sifati qiziqtirsa, bitta o'lchov boshqasiz ahamiyatga ega emas. Shu sababli ham yaxsha ilmiy jurnallarda tanlov reaksiyasi vaqtini aniqlashda faqat reaksiyaning tezligi yoki aniqligi haqida ma'lumot beriluvchi maqolalar qabul qilinmaydi.



### Tarkibiy tobe o'zgaruvchilar

Qoidaga ko'ra xulq atvorning iloji boricha ko'proq jihatlari haqida axborot keltirilishi ma'qullansa-da, bu natijalar interpretatsiyasini sezilarli darajada qiyinlashtiradi. Aytaylik, bizda to'rtta tobe o'zgaruvchi bor. Ulardan biri barcha sharoitlarda natijalarning sezilarli yaxshilanishini ko'rsatmoqda, ikkitasi o'zgarishsiz qolgan, to'rtinchisida esa sezilarli pasayish kuzatiladi. Xulq atvorning umumiy o'zgarishlari haqida biror nima deyish uchun biz alohida tobe o'zgaruvchilarni tarkibiy tobe o'zgaruvchilarga birlashtirishimiz kerak. Bu umumiy natijalar haqida bir muncha tasavvur beradi. Tarkibiy tobe o'zgaruvchilar eksperimental psixologiyaning bir qator tarmoqlarida qo'llaniladi. Bunday tarmoqlarning biri – intellekt testidir. Vekslerning kattalar intellekti shkalasi (Weksler Adult Intelligence Scale) murakkab tobe o'zgaruvchiga misol bo'ladi. IQ intellekt koeffitsienti – bu ikki shkala, verbal va noverbal (harakat) shkalaning jami ko'rsatkichidir. Ularning har biri bo'yicha olingan natija – subtestlarda olinadigan qandaydir jami ko'rsatkichidir. Masalan, verbal shkala quyidagi subtestlardan tashkil topgan: umumiy bilag'onlik, raqamlarni eslab qolish, so'z zaxirasi, arifmetik qobiliyatlar, o'xshashlikni tushuna olish. Intellekt testining g'oyasi shundaki, intellektni bir butun holda tavsiflaydigan ma'lum bir me'yorga ega bo'lish foydali. Albatta hamma psixologlar ham yagona raqamli ko'rsatkich intellektni adekvat aks ettirish fikriga qo'shilmaydilar. Biroq murakkab tobe o'zgaruvchidan foydalanish test psixologiyasida an'anaviy hisoblanadi.

Murakkab tobe o'zgaruvchining ikkinchi turi o'zida biror bir yagona ko'rsatkichning bir nechta o'lchovlarini birlashtiradi. Bu o'lchovlar turli vaqtlarda yoki turli sharoitlarda o'tkaziladi. **Tejash foizi** – xotirani tadqiq qilishda ishlatiladigan tobe o'zgaruvchi Yuqoridagilarga misol bo'ladi. Misol uchun, aytaylik, bir gurux odamlar vilosiped xaydashni yoshlik chog'larida



o'rganganlar, keyin esa 40 yoshga kirguncha vilosipedga umuman minmaganlar. Biz ulardan bu qanday qilinishini eslashlarini so'rashimiz va bir daqiqa davomida oyoqlarini erga tekkizmay vilosiped haydashga urinishlarini kuzatishimiz mumkin. Aytaylik buning uchun ularga 7 urinish etarli bo'ldi. Endi bu natijani ikkinchi guruxdagi hech qachon vilosiped minmagan 40 yoshli odamlarning natijasi bilan solishtirishimiz kerak. Aytaylik ularga bir daqiqa davomida muvozanatni saqlab vilosipedda qolishga erishish uchun o'rtacha 14 ta urinish talab etildi:

Tejash %

Bizning misolimizda:

$$tejash \% = \frac{14 - 7}{14} \times 100 = 50 \%$$

Murakkab tobe o'zgaruvchining bunday turi yordamida siz yakka raqamli ko'rsatkichdan mustaqil o'zgaruvchi (vilosiped haydashning oldingi ko'nikmasi) ta'sirida vujudga kelgan o'zgarish effektini ko'rsatishda foydalanishingiz mumkin.

Balki siz bunday murakkab tobe o'zgaruvchilarni qanday olishni yoki ularning nima uchun adekvat me'yor ekanligini tushunmagandirsiz. Biroq agar siz psixologiyaning ma'lum tarmoqlarida tadqiqot olib borsangiz ularning ko'plab xillari bilan tanishasiz va xatto bir kun kelib o'zingiz ham murakkab o'zgaruvchilarni o'ylab toparsiz.

**Mavzuni mustahkamlashga oid amaliy topshiriqlar:**

1. Har bir o'zgaruvchining eksperiment jarayoniga ta'sirini "FSMU" usuli asosida tahlil qilib bering.

**"FSMU" usli**

F – fikr	
S – sabab	
M – misol	
U – umumlashtirish	

2. O'zgaruvchilarni to'g'ri tanlay olish eksperiment natijasining ijobiy bo'lishini belgilaydi. Fikringizni izohlang.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Mustail o'zgaruvchilar deb qanday o'zgaruvchilarga aytiladi.
2. Tob'e o'zgaruvchilar va mustaqil lo'zgaruvchilarning asosiy farqi nimada?
3. Qo'shimcha o'zgaruvchilar deb qanday o'zgaruvchilarga nisbatan aytiladi?
4. Tashqi o'zgaruvchilar qanday aniqlanadi?
5. Randomizatsiya deb nimaga aytiladi?

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. V.N. Drujinin "Eksperimentalnaya psixologiya" M.: Infra-M, 1997;
2. T.V. Kornilova "Vvedenie v psixologicheskiy eksperiment". Moskva Universiteta, CHeRo Nashriyoti, 1997;
3. D. Kempbell "Modeli eksperimentov v sotsialnoy psixologii i prikladnix issledovaniyax" Sankt-Peterburg, Sotsialno-psixologicheskiy tsentr 1996.

**Mavzu bo'yicha test topshiriqlari**

1. Eksperiment o'tkazishdagi mustail ko'rsatkichning ta'sirini aks ettiradigan faoliyatning ba'zi jiatlaridan biri – bu... ?

- A. Ko'rsatkichlar
  - \*B. Tobe ko'rsatkich
  - V. Sifat ko'rsatkich
  - G. Midoriy ko'rsatkich
2. Ahamiyati o'zgarib turish ehtimoli bor istalgan ko'rsatkich bu... ?
- A. Validlik
  - \*B. O'zgaruvchanlik
  - V. Ideal eksperiment
  - G. Real eksperiment
  - D. V va G
3. \_\_\_\_\_psixik jarayon bo'lib, tashqi kuzatuvlardan xoli tarzda amalga oshadi. Signal berilgandan to' javob berilgunga qadar o'tgan vaqt latent (yashirin) vaqti deyiladi.
- A. Randomizatsiya
  - B. Latentlik
  - V. Eminatsiya
  - G. Kontrabalansirovka
4. \_\_\_\_\_bu - muolaja ya'ni har bir mashxurlik a'zolari uchun tajriba ishtirokchisi bo'lishning tekis va ravon imkonini beruvchi muolaja
- A. Eminatsiya
  - B. Randomizatsiya
  - V. Latentlik
  - G. Kontrabalansirovka
5. To'be o'zgaruvchilar qatorini ko'rsating
- A. Bir vaqtli; ko'p o'lchamli; Fundamental
  - B. Fundamental; Randomizatsiya; Latentlik
  - V. Ko'p ulchamli; Latentlik; Eminatsiya
  - G. Bir vaqtli; Eminatsiya Randomizatsiya

## XVI. GURUHLARARO VA GURUH ICHIDAGI LOYIXALAR

### Reja:

- 16.1.Guruh haqida tushuncha va guruh borasidagi ekperimentlar tarixi.
- 16.2.Guruh ichidagi va guruhlararo eksperimentlar tuzish.
- 16.3.Guruh ichidagi va guruhlararo eksperimentlarning yutuq va kamchiliklari.

### Maqsad:

Talabalarda guruh va guruhlararo eksperimentlarni tuzish va ularni o'tkazish, ularning Yutuq va kamchiliklarini o'rganish hamda nazariy bilimlarni shakllantirish.

### Vazifalar:

- 1.Talabalarda o'z ustida ilmiy izlanish olib borishda, guruh va guruhlararo eksperimentlarning etik tamoyillarini hamda ilmiy tadqiqotchilik ko'nikmalarini tarbiyalash.
- 2.Talabalarda ilmiy dunyoqarashni, ijodiy mustaqil tafakkurni, ma'lumotlarni tizimlashtirish, umumlashtirish malakalarini rivojlantirish.

### Tayanch tushunchalar:

Konformizm effekti .Tashqi konformizm .Ichki konformizm.  
Negativizm, Nonkonformizm.

### 16.1 Guruh haqida tushuncha va guruh borasidagi ekperimentlar tarixi.

Guruh - aniq chegaralangan kattalikdagi, (sotsiumdan) jamiyatdan ajralib chiqqan, biror bir maqsadda birlashgan, vazifasi va faoliyati bir bo'lgan insonlar yig'indisi, jamlanmasi hisoblanadi. Guruhlar haqida gapirganimizda ko'z oldimizga tabiiy sharoitda hosil bo'lgan guruhlarni keltiramiz: oila, sport guruhi, do'stlar jamoasi, harbiy bo'linma, sinf, jinoyatchilar uYushmasi, ishlab chiqaruvchi jamoa, kosmik kema ekipaji va hakoza. Bu qatorni uzoq davom ettirishimiz mumkin. Aynan shuning uchun guruhga nisbatan universal ijtimoiy - psixologik klassifikatsiyani keltira olmaymiz. Har qanday klassifikatsiya tuzilmasi qanchalik to'liq va yaxshi ishlab chiqilgan bo'lmasin barcha guruhlarga tegishli bo'lmaydi. Shuning uchun guruhlarni klassifikatsiyalashda dixotomik tamoyilga asoslanadi.

Bunga misol qilib, mavjud an'anaga aylangan klassifikatsiyalarni keltirishimiz mumkin: katta va kichik, ochiq va yopiq, birlamchi va ikkilamchi, rasmiy (formal) va norasmiy (noformal), uzoq va qisqa muddatli, referent va a'zolik guruhi, tashkil qilingan va tashkil qilinmagan va hakoza.

Katta guruh - katta miqdordagi a'zolarga ega bo'lgan, turli aloqalar xillariga asoslangan ijtimoiy guruh.

Kichik guruh - nisbatan kichik hajmdagi a'zolarga ega bo'lgan va faqat o'zaro hal qilinadigan muammolarga asoslanadigan ijtimoiy guruh.

Birlamchi guruh - asosan individning birlamchi ijtimoiy jarayonini va uning boshqa guruhlarga tortilishini ta'minlovchi kichik guruhning (oila,o'smirlar guruhi) ko'rinishidan biri.

Ikkilamchi guruh - birlamchi katta va undagi munosabatlar shakllangan. Masalan: basketbol klubi unda bir necha guruhlar mavjud. Bu ikkilamchi guruh. Agar bitta guruh bo'lsa - birlamchi guruh bo'ladi.

Rasmiy (formal) guruh - yuridik maqomga ega bo'lgan ijtimoiy guruh bo'lib,bunda guruhga a'zolik, vazifalar, maqsad va xulq - atvor qoidalari me'yoriy hujjatlarda qayd etilgan bo'ladi.

Amerikalik psixolog yuvenk esa guruhni klassifikatsiya qilishda quyidagi omillarda e'tibor berishni aytib o'tgan. Ular quyidagilar:

1. shakllanganlik darajasi;
2. guruh tipi;
3. guruhning maqsadi;
4. guruhning vazifalari;
5. guruh a'zolarining muloqotchanlik darajasi.

Shuni nazarda tutish kerakki XX asrning 70 - yillaridayoq psixologiyada stranometrik kontsepsiya - nazariy - metodologik va eksperimental rejada ishlab chiqildi (A.V.Petrovskiy,

guruhdagi shaxslararo munosabatlar nazariyasi). Bunga ko'ra har bir guruhni asosan kichik guruhlarni ijtimoiy - psixologik rivojlanish darajasini aniqlash va boshqa guruhlar bilan solishtirish edi. Bu yondashuvga binoan guruhning ijtimoiy - psixologik darajasi uning maqsadi, vazifasiga bog'liq. Bundan tashqari diffuz yoki nominal guruhlar ham mavjud bo'lib, bunda shaxslararo munosabatlar darajasi umuman belgalanmaydi (bu guruh tasodifiy yig'ilgan odamlar ya'ni bekatdagi odamlar guruhi hisoblanadi).

Guruh muammosi, asosan kichik guruhlar muammosi butun dunyo psixologlarini har doim qiziqtirgan. Bu qiziqishlarning ilk namunalari XIX asrning oxiriga tegishli bo'lib, 1887- yili "Amerikalik psixolog N.Triplett eksperimental tadqiqot natijalarini chop ettirgan. Bu tadqiqotda Triplett individual ta'sir effektini yolg'iz holatda va guruhdagi sharoitda o'rgangan. F. Olport fikriga ko'ra, bu birinchi eksperimental muammolardan biri edi va u bu eksperimentni quyidagicha talqin qilgan: Individual shaxslarda boshqa odamlar ichida qanday o'zgarishlar bo'ladi?"

Birinchi Jahon urushidan keyin guruh muammosi bo'yicha F. Olport, J. Moreno ishladi va ular sotsiometriya metodikasi yordamida qochoqlar guruhida eksperiment o'tkazdilar.

O'tgan asr 20 - yillarining oxiri 30 - yillarining boshlarida AQShda guruh va guruhliy xatti - harakatlar bo'yicha ijtimoiy -psixologik tadqiqotlar avj oldi. O'smirlar guruhi bo'yicha K. Levin va R. Lipetta tadqiqot olib borib, kichik guruhlarni rivojlanish qonunini va vazifalarini tushuntirishga harakat qilishdi.

Mana shu vaqtlarda M.Sherif ham guruhliy normalari bo'yicha laboratoriyali eksperiment, T.Nyukom dala sharoitidagi guruhni holati bo'yicha eksperiment o'tkazdilar.

Guruh borasida qo'shimcha ishlar qilish Ikkinchi jahon urushida imkon berdi. Bu jarayonda admiral Ch. Nimitsani (Tinch okeani flotiga komandir, keyinchalik Ikkinchi jahon urushining yagona katta boshlig'iga aylanadi) o'rni beqiyosdir. Ch. Nimitsa harbiy guruhni birdamligini oshirish va guruh tashkil qilish borasida ish olib borishga olimlarga buyruq bergan.

Urushdan keyingi davrda 80 - yillarda psixologlarda tashkilotdagi yoki ishlab chiqarishdagi guruhlarga qiziqish ortdi. Shuningdek, Rossiyada ham zamonaviy guruhlar muammosi ko'tarila boshlandi.

D.Bredford ishchi guruh va komanda o'rtasidagi farqlarni ochib bergan. Lining fikricha, guruh - almashtirib bo'lmaydigan a'zolaridan individual kuch oladigan, faoliyat qatlami; komanda esa tizimli, bir maqsadda yig'ilgan shaxslar yig'indisi. Uning fikricha, komanda guruhni rivojlanishidan kelib chiqadi.

## **16.2.Guruh ichidagi va guruhlararo eksperimentlarni tuzish**

Agar insonlarni hammasi bir xil bo'lganida ularda eksperiment o'tkazmagan bo'lar edik. Lekin dunyo ana shu har xillikdan qiziqarlidir. Shuning uchun har bir individual shaxsni emas, ularni guruhlarga bo'lib o'rganishimiz mumkin.

Birinchi eksperiment yoki vosita guruhlararo reja (between - subjects design) deb nomlanadi. Bu eksperimentda ikki turli xil guruhlar, ishtirokchilar farqi yoki ikkinchi tur eksperimentda ya'ni guruh ichidagi eksperiment rejasida (within - subjects design) bir guruhdagi ishtirokchilar o'rganiladi.

Tasavvur qiling, biz talabalarda tanaffus vaqtidagi dam olishi ularni o'zlashtirish ko'rsatkichini ko'tarishi bo'yicha eksperiment o'tkazmoqchimiz. Buning uchun biz ikki guruhni olib, birinchi guruhga dam olish sharoitida talabalarga 2 soat ichida o'rganib chiqish uchun material beramiz. Ikkinchi guruh talabalariga ham o'sha materialni 2 soat ichida o'rganib chiqish beriladi, faqat har yarim soatda 5 daqiqadan dam olish uchun ruhsat beriladi. Har ikki holatda ham talabalardan so'ralganda ham bu sharoit qoniqtirganini aytib o'tishadi. Endi biz guruhlararo eksperiment o'tkazishimiz mumkin yoki bir guruhdagi ishtirokchilarni har biri materialni qanchalik darajada o'zlashtirgani bo'yicha guruh ichidagi eksperiment o'tkazishimiz mumkin.

Guruhlararo eksperimentda guruh a'zolari mustaqillik darajasi teng bo'ladi.

Ba'zi eksperimentlarda mantiqiy imkoniyatlar yetarli bo'lmaydi, bo'lsa ham unda rejani tuzish qiyin bo'ladi. Nihoyat reja qiyin bo'lgan taqdirda ham to'liq natija olmaymiz. Lekin guruhlararo eksperimentlarda bunday emas.

Shunday bo'lsa ham hamma ishni o'z kamchiligi bo'lganidan guruhlararo eksperimentlarda ham kamchiliklar mavjud. Har doim guruhlar har xil a'zolaridan tashkil topganligi tufayli, har doim guruhni boshqacha shakllanganligini ko'ramiz. Masalan, uxlagisi kelayotgan bolalarni majburlab teleko'rsatuv ko'rsatishda, bolalarda agressiyani hosil qiladimi degan eksperimentimizda har xil sharoit bo'lishi mumkin: ayrim bolalar kam ta'minlanmagan oiladan bo'lganliklari uchun bolada majburlash odatiy holga aylangan, ayrim bolalar esa teleko'rsatuvlarni tomosha qilishni yaxshi ko'rishlari mumkin.

Shuning uchun, bir - birini yaxshi tanimaydigan odamlarni turli xil yo'llar bilan guruhlaraga bo'lishimiz lozim. Masalan, tanga tashlab, qog'ozga guruh nomini yozing, turli o'yin orqali va hakozi. Bunday jarayonda guruh a'zolarini bir - birini ta'nimasligi yoki bir - birini haddan ortiq yaxshi bilishi eksperiment uchun katta kamchilikdir. Bu guruhlarda bo'linishlar ko'p bo'ladi.

### **Guruh ichidagi eksperimentlar.**

Ayrim eksperimentatorlarga bu optimal tanlov bo'lmasada, guruh ichidagi eksperimentlar ham o'z yaxshi imkoniyatlariga ega.

Agarda guruh ichidagi eksperimentda bizga N (turli xil miqdordagi ishtirokchilar soni, masalan, 20 ta, 30 ta) ta ishtirokchilar zarur bo'lsa ham biz eksperiment o'tkaza olamiz. Lekin guruhlararo eksperimentda biz 2 ta guruhni oladigan bo'lsak N2 yoki 3 ta guruhni oladigan bo'lsak N3 ishtirokchilar bo'lishi lozim.

Agar biz guruh ichida eksperiment o'tkazadigan bo'lsak, biz guruhda oldindan bir necha marta trening shaklidagi amaliyotni o'tkazsak bo'ladi. Chunki bu jarayon biz o'tkazmoqchi bo'lgan eksperimentga guruhni moslashtirib olishga ko'mak beradi.

Guruhlararo eksperiment jarayonida ham guruh ichidagi eksperiment o'tkazishimiz mumkin.

Guruh ichidagi eksperiment xulosasi shu darajada ishonchli bo'ladiki, har bir ishtirokchini har xil bo'lganligi uchun ham natijalar turlicha chiqadi.

Agar guruh ichidagi eksperimentlar shunchalik foydali bo'lsa, unda kamchiliklari nimada? Bu savolga psixologlar ko'p bahslashishgan bo'lsada, ana shu kamchiliklar guruh ichidagi eksperiment keraksiz qilmoqda: "Shunday kun keladiki, hech qaysi hurmatli psixolog guruh ichidagi eksperimentdan foydalanmaydi, agarda bunga majbur bo'lsa, guruhlararo eksperimentni o'rnini to'ldiradi". (Poulton, 1973)

Guruh ichidagi eksperimentning eng katta kamchiligi ishtirokchilarni o'zgaruvchanligidir. Ya'ni ular endi mustaqillikga erishganida ma'lum sabablar orqali yana avvalgi holatiga tushishlari mumkin. Bu jarayon ketma - ketlik effekti deb nomlangan.

Ketma -ketlik effekti bir qancha ta'sirlar natijasida bo'lishi mumkin. Bular:

O'rganish ya'ni ishtirokchilar nimaga boshqa bir ishtirokchilardan o'rgangan xulq - atvori. Masalan: guruh ichidagi ishtirokchilarni QWERTY yoki klaviaturada qanday tezlikda yozishi bo'yicha eksperiment o'tkazamiz. Bunda turli xil natijani ko'ramiz: kimdirning tezligi Yuqori, kimnikidir juda yomon va hakozi. Biz endi ishtirokchilarga tayyorlanish uchun vaqt beramiz va 10 kishini tanlab olib, 1 daqiqa ichida 30 ta so'z yozishni aytamiz. Birinchi holatda natijalar juda yomon bo'lsa, ikkinchi holatda natijalar boshqacha bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki, guruh a'zolari xulq - atvori bir - biriga ta'sir ko'rsatadi.

Tenglashtirish ya'ni bu tushunchani tushuntirish uchun ABBA tenglashtirishidan foydalanamiz va ABBA eng mashxur tenglashtirish hisoblanadi. Ava B, Mustaqil o'zgaruvchilarning ikki xil darajasi, ketma- ketli ABBA uchun navbatma - navbatlikni ta'minlaydi. 1 navbatda A darajasi, 2 va 3 navbatda B darajasi, 4navbatda A darajasi. Har bir ishtirokchi navbatlardan o'tadi. ABBAning mohiyati shundaki, u guruh a'zolarini aralashib ketganini belgilaydi. Lekin shuni aytib o'tishimiz lozimki, AB navbati va BA navbati bir - biriga qarama - qarshidir. (Poulton & Freeman, 1966). Bu jarayon simmetrik o'tkazuvchi deyiladi. Darajalar miqdori ko'payishi to'liq tenglashtirishni qiyinlashtiradi.

### 16.3. Guruh ichidagi va guruhlararo eksperimentlar

Guruhlararo va guruh ichidagi eksperimentlar juda ko'p, ulardan ayrimlari quyidagilardir:

**Konformizm effekti** - bu oddiy holda inson xulq - atvorining o'zgarishi yoki guruh bosimi ostida o'zgarishidir. 1937 yili Muzaffer Sherif guruhiy normalarni laboratoriya sharoitida o'rgangan. Qorong'u xonada ekranda nuqtadek nur manbasi ko'ringan, keyin bir necha daqiqa harakatlanib keyin yo'qolgan. Sinaluvchi nur manbasini birinchi holatga nisbatan necha santimetr yaqinlashganini aniqlashi lozim. Oldin sinaluvchini bir o'zi bu eksperimentdan mustaqil o'tadi. Ikkinchi etapda 3 sinaluvchi bu eksperimentdan o'tadi. Birinchi sinaluvchi ikkinchi etapdagi sinaluvchilar gapini tasdiqlaydi. Sherif birinchi bo'lib insonlar ko'pchilikni fikriga qo'shilishini isbotladi.

1956 yili Solomon Ash "konformizm" atamasini qo'llagan va guruhga bog'lagan. Guruhda 7 ishtirokchi bo'lib, ular plakatda chizilgan 3 kesmalardan qaysi biri etalonga mos kelishini aniqlashi lozim. Birinchi etapda ishtirokchilar bitta- bitta bo'lib, to'g'ri javob berishadi. Ikkinchi etapda guruh a'zolar yig'ilab javob berishadi. Ash ma'lumotlariga ko'ra 37 % sinaluvchilar guruh fikriga quloq solishdi. Richard Krachvild Yulduzlar va aylana egallagan masofani aniqlashni bergan. Bu noan'anaviy savolda ham guruh fikriga quloq solishgan.

1965 yili Stenli Milgram konformizmni keltirib chiqaruvchi sharoitlarni sanab o'tgan:

Shaxs tipi; Guruhdagilar soni;

Guruh tarkibi;

Guruh ahilligi;

A'zolarning kimligi.

Bu eksperimentlarga xulosa qilib, Ash tomonidan keltirilgan guruh bosimi ostidagi 4 tipni keltirishimiz mumkin:

**Tashqikonformizm** - bunda sinaluvchi guruh normalaridan va a'zolaridan qo'rqgani uchun guruh fikriga qo'shiladi, aslida u o'z fikrida turadi.

**Ichki konformizm** - bunda sinaluvchi xohlab guruh fikriga qo'shiladi.

**Negativizm - guruh** bosimiga qarshi chiqadi, o'z fikrida qat'iy turadi, bunday tipdagilar guruhga bo'ysunishni emas, guruhni bo'ysundirishni xohlashadi.

**Nonkonformizm** - mustaqillik, ko'pchilikga qo'shilmaydi va bog'lanmaydi.

Guruhlararo qaramlik va birgalikdagi faoliyat bo'yicha Ageyev 1983 yili sessiya oldida turgan talabalarda eksperiment o'tkazadi. U 2 guruhni olib bir fandan, bir o'qituvchiga, bir vaqtning o'zida imtihon topshirishni belgilaydi. Bunga ko'ra seminar guruhi bo'lgan guruh avtomatik tarzda baho olgan, qolgan guruh esa oddiy holda imtihon topshirgan. Eksperimentator kirib seminar baholari Yuqori bo'lgan guruhni favorit (a'lo) deb e'lon qilgan, lekin hali imkon bor favorit bo'lishga deb aytib o'tgan. Bu eksperimentda eksperimentator o'z farazini tasdiqlagan ya'ni:

- Guruh a'zolarining bir - birini qo'llab - quvvatlashi ortgan;
- Imtihonda javob beruvchilar ham ko'paygan;
- Imtihon oluvchining ro'li kamaygan.

Tashfel guruhlararo eksperimentda guruh ichidagi jipslikni aniqlagan. U talabalarga V.Kardinskovo va P.KIee tomonidan chizilgan sur'atlar ko'rsatiladi va talabalarni ikki guruhga bo'ladi. Bu guruhlarni biri V.Kardinskovoni ishini ikkinchi guruh esa P.KIee ishini Yutuqlarini aytib o'tishlari lozim bo'ladi. Bu eksperimentda guruhlar bir - biri bilan shu darajada yaqin bo'lishadiki, Tashfel farazi isbotlanadi.

M.L.Btovskayaning fikricha, guruh ichidagi nizolarda o'g'il bolalarga nisbatan qiz bolalar tezroq yechimni hal qilishga kirishadi. Qiz bolalar nizodan so'ng aytgan gaplariga afsuslanishadi, o'g'il bolalar esa nizoda o'z mavqelarini oshirishni o'ylashadi.(2004)

### 16.3. Guruh ichidagi va guruhlararo eksperimentlarning yutuq va kamchiliklari

Guruh ichidagi eksperimentlar	Guruh ichidagi eksperiment
-------------------------------	----------------------------

Yutuqlar	Kamchiliklar	Yutuqlar	Kamchiliklar
Ishtirokchilar sonining ko'p bo'lishi	Bir - biriga ta'sirni kuchliligi	Guruhlararo raqobat	Guruhlararo farq
Eksperimentga kamroq vaqt sarflanishi	ABBA tengligi guruhni aralashishiga halaqit beradi	Tenglashtirish kerak emas	Ko'p ishtirokchilarning kerak bo'lishi
Guruhlararo o'zgaruvchanlikni kamligi	Ta'sir qilish diapazoni muammolarni hal qilishi mumkin	Tanlovlar guruhdagi o'zgaruvchanlikni kamaytiradi	Ko'p vaqt ketishi
		Ishtirokchilarni tasodifiy bo'lish mumkin	Guruhlarni hosil qilish ko'p kuch talab etadi

#### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Guruhlararo o'tkaziladigan eksperimentlarning yutuqlari nimada?
2. Guruhlararo eksperimentlarni tuzishda nimaga e'tibor berish lozim?
3. Guruh ichida eksperimentlar guruhlararo eksperimentlardan qaysi jihati bilan farqlanadi.
4. Negativizm deb nimaga aytiladi?
5. Nonkonformizm tushunchasi qanday guruhga nisbatan qo'llanadi?

#### Mavzu bo'yicha test topshiriqlari

1. \_\_\_\_\_ insonni xulq - atvorini o'zgarishi yoki guruh bosimi ostida o'zgarishidir  
A. Nonkonformizm  
B. Konformizm effekti  
V. Negativizm  
G. Tashqi konformizm
2. \_\_\_\_\_ - bunda sinaluvchi xohlab guruh fikriga qo'shiladi.  
A. Ichki konformizm  
B. Tashqi konformizm  
V. Nonkonformizm  
G. Negativizm
3. \_\_\_\_\_ - mustaqillik, ko'pchilikka qo'shilmaydi va bog'lanmaydi.  
A. Ichki konformizm  
B. Tashqi konformizm  
V. Negativizm  
G. Nonkonformizm
4. \_\_\_\_\_ - bunda sinaluvchi guruh normalaridan va a'zolaridan qo'rqgani uchungina guruh fikriga qo'shiladi, aslida u o'z fikrida turadi.  
A. Tashqi konformizm  
B. Negativizm

V. Nonkonformizm

G. Konformizm effekti

5.Qaysi olim dala sharoitidagi guruhni holati bo'yicha eksperiment o'tkazgan.

A. T.Nyukom

B.K.Levin.

V.J.Moreno.

G. V.Kardinskovo

6.Nechanchi yilda Stenli Milgram konformizmni keltirib chiqaruvchi sharoitlarni sanab o'tgan

A.1978y

B.1985y

V.1975y

G.1965y



## XVII. EKSPERIMENTLARNI LOYIHALASHTIRISH

### Reja:

- 17.1. Bitta o'zgaruvchili eksperimentlar.
- 17.2. Faktorli loyihalar.

### Maqsad:

Talabalarda eksperimentlarni loyihalashtirish haqida nazariy bilimlarni shakllantirish.

### Vazifalar:

Talabalarda bitta o'zgaruvchili eksperimentlar, faktorli loyihalar ilmiy dunyoarashni, ijodiy mustail tafakkurni rivojlantirish.

### Tayanch tushunchalar:

Interpolyatsiya. Ekstrapolyatsiya, Ikki darajali eksperiment. Tub effekti. omilli reja. rotatsion eksperimentlar. Shift effekti, faktor. Faktorli eksperiment. Gomogen, geterogen

### 16.1. Bir o'zgaruvchili eksperimentlar

Oddiy eksperimentda bir mustaqil o'zgaruvchi ikki darajaga ega bo'ladi. Ayrim tadqiqotchilar mazkur darajalarga mos keluvchi guruhlarini *eksperiment guruhi* va *nazorat guruhi* deb nomlashni ma'qul ko'radilar. Ba'zi hollarda nazorat sharti – biron-bir ta'sirning mavjud emasligi aniq-ravshan bo'ladi. Masalan, sizni biron-bir dorining xulq-atvoriga ta'siri qiziqтира, nazorat guruhi bu dorini olmaydi, eksperiment guruhi esa – oladi. Bu erda nazorat guruhi kuzatilayotgan effekt eksperimentda ishtirok etishining o'zi bilangina paydo bo'lmaganini ko'rsatishga ham yordam beradi. Boshqa hollarda, ayniqsa mustaqil o'zgaruvchining bir necha darajalaridan foydalanilganida, qaysi guruhni nazorat guruhi deb nomlash zarurligi aniq bo'lmaydi<sup>10</sup>. Shu sababli odatda, mustaqil o'zgaruvchini tavsiflash uchun *daraja* atamasi ishlatiladi. Nima bo'lganda ham biz real eksperimentga ega bo'lish uchun kamida ikki darajadan foydalanishimiz lozim. Aks holda mustaqil o'zgaruvchining o'zgarishi xulq-atvorda o'zgarish Yuz berishiga sabab bo'lgan, deb aytilish mumkin bo'lmaydi, chunki taqqoslashni amalga oshirish mumkin emas.

Ma'lumotlarga qaraganda, eksperimental psixologiya endigina paydo bo'lgan davrda bir o'zgaruvchili va ikki darajali eksperimentlar odatdagi bir hol hisoblangan. Fanimiz o'zining shakllanish bosqichida bo'lgani bois, tadqiqotchilar mustaqil o'zgaruvchi ta'sirining xususiyatini aniqlashdan ko'ra, umuman mustaqil o'zgaruvchi biron-bir ta'sir ko'rsatadimi, degan savolga javob topish bilan ko'proq shug'ullanganlar. Boz ustiga, ular yanada murakkab eksperimental omillarni tahlil qilish uchun zarur tekshirishlarning statistik metodlarini hali ishlab chiqqan bo'lmagan. Bir qator holatlar uchun metodlar mavjud bo'lgan, biroq, qoida tariqasida, o'rtacha tadqiqotchiga ular yaxshi ma'lum bo'lmagan.

Bugungi kunda jurnallarning muharrirlari odatda eksperimentda ta'sirlarning ikkitadan ortiq darajalarini ko'rishga umid qiladilar. Ba'zan juda yaxshi bajarilgan ikki darajali eksperimentlar maqbul deb qaraladi (ayniqsa bir nechta eksperimentlar to'g'risida xabar berilganida), biroq tipik eksperiment odatda darajalar to'plamiga ega bo'ladi. SHunga qaramay ikki darajali eksperimentdan birinchi qadam sifatida foydalanishga yo'l qo'yiladi. Boshlovchi

---

<sup>10</sup> Masalan, biz mustaqil o'zgaruvchi sifatida jinsni (u sizda qay darajada ifodalangani nuqtai nazaridan emas, balki siz ikki jinsdan qaysi biriga mansubligingiz nuqtai nazaridan) qo'llashga qaror qilgan bo'lsak, kimni nazorat guruhi deb nomlasak, o'rinli bo'ladi: erkaklarnimi yoki ayollarnimi? Feministlar va ularning raqiblari bu xususda soatlab bahslashishlari mumkin, shu bois, undan butunlay uzoqlashish va guruhlarini 1-daraja va 2-daraja deb belgilash, bizningcha, maqsadga muvofiq bo'ladi.

eksperimentatorlar bunday eksperimentni o'tkazishni o'rganib olishlari lozim. Ayrim hollarda ikki darajali eksperimentlar qimmatli natijalar berishi mumkin.

**Afzalliklari.** Ikki darajali eksperimentlar eksperiment o'tkazishning yanada murakkab rejalari oldida bir qancha afzalliklarga ega. Ular mustaqil o'zgaruvchi o'rganishga arziydimi, degan savolga javob topish imkonini beradi. Agar mustaqil o'zgaruvchi inson xulq-atvoriga aslo ta'sir ko'rsatmasa, o'z-o'zidan ravshanki, mazkur ta'sirning xususiyatini aniqlash uchun yanada murakkab eksperiment o'tkazish amalda vaqtni behuda sovrishdan boshqa narsa emas.

Bundan tashqari, ikki darajali eksperiment natijalarini talqin va tahlil qilish oson. Uning yakuni sodda va lo'nda: "Ha, o'zgaruvchi ta'sir ko'rsatdi; xulq-atvor falon tomonga o'zgardi" yoki "Yo'q, o'zgaruvchi ta'sir ko'rsatmadi". Biron-bir effekt chindan ham mavjudmi yoki u tasodifiy variatsiya ta'sirida paydo bo'lganmi, degan savolga javob topish uchun odatda statistik tekshirish talab etiladi va ikki darajali eksperimentlar uchun uni o'tkazish qiyinchilik tug'dirmaydi. Masalan, u faqat pLYuslar va minuslarni sanab chiqishdan iborat bo'lishi mumkin. Qaysi tekshirish usulini qo'llash zarurligi sizga ma'lum bo'lsa, o'z ma'lumotlaringizni statistik tahlil qilish uchun sizga qulay hisoblashni amalga oshirishga atigi bir necha minut (yoki kompyuter yordamida hisoblashga bir necha sekund) talab etiladi.

Nihoyat, ayrim hollarda ikki darajali eksperiment bergan axborotning o'zi sizga kifoya qiladi. Agar eksperimentning maqsadi ikki raqobatdosh nazariyani tekshirishdan iborat bo'lib, nazariyalardan biri ikki daraja uchun xulq-atvorda farqlar mavjudligini, ikkinchi nazariya esa yo o'zgarishlar mavjud emasligi, yo qarama-qarshi o'zgarishni bashorat qilsa, bu holda ikki darajali eksperiment nazariyalarni qarama-qarshi qo'yish uchun mutlaqo o'rinlidir. Ba'zi bir amaliy tadqiqotlarda ham ikki darajali eksperiment qimmatli axborot berishi mumkin. Masalan, siz sanoat qurilmasining ikki birligini solishtirmoqchi bo'lsangiz va mazkur ishda foydalanish uchun faqat ikkita qurilma mavjud bo'lsa, ikki darajali eksperiment sizga zaruriy axborotni to'liq olish imkonini beradi. Mazkur printsip siz ikki davolash usulini, ikki ta'lim tizimini, ikki o'quv dasturini, ikki dorini, ikki jinsni yoki biron-bir o'zgaruvchining ikki darajasini tadqiq qilganingizda ham faqat ikki daraja muhim yoki mavjud bo'lgan holda mutlaqo to'g'ridir.

**Kamchiliklari.** Garchi to'g'ri chiziq ikki nuqta o'rtasidagi eng qisqa masofa hisoblansa-da, bu ularning o'rtasidagi birdan-bir chiziq emas. Boshqacha qilib aytganda, ikki darajali eksperimentlarning aksariyatida siz noaniqlik holatiga tushib qolasiz, chunki mustaqil va tobe o'zgaruvchilar o'rtasidagi aloqaning xususiyati noma'lum bo'lib qoladi.

Kitobxon murakkab nasriy asarning mazmunini tushunishga mumkin qadar kamroq vaqt sarflashi uchun mazkur kitobni qanday shriftda bosish zarurligini aniqlash maqsadida biz eksperiment o'tkazdik deb faraz qilaylik. Biz elektron matn muharriri yordamida bir nechta abzatslarni chop etishimiz mumkin. Abzatslarning ayrimlari balandligi 12 punkt bo'lgan shrift bilan, boshqalari esa – balandligi kichikroq, 10 punktga teng bo'lgan shrift bilan chop etiladi. Shundan keyin biz har bir shriftda chop etilgan abzatslarni o'qish uchun odamlarga zarur bo'lgan vaqtni o'lchashimiz mumkin. Albatta, dastavval biz abzatslarni mazmunning tushunarligiga tekshirib ko'ramiz va tartibni muvozanatga solamiz, shuningdek biz mazkur kitobdan o'qib bilgan boshqa zaruriy amallarning barchasini bajaramiz.

O'qish vaqti	12 punkt	10 punkt
	Shrift balandligi	

24-jadval. Balandligi 12 va 10 punkt bo'lgan shrift bilan chop etilgan abzatslarni o'qish vaqtini o'lchashga bag'ishlangan eksperimentning ehtimol tutilgan natijalari

24-jadvalda mazkur eksperimentning o'ylab topilgan natijalari ko'rsatilgan. Ma'lumotlar qiymatlarining ikki nuqtasi orqali o'tkazilgan erkin to'g'ri chiziq shrift qancha kichkina bo'lsa, o'qish vaqti shuncha uzoq bo'lishini ko'rsatadi. Shu tariqa eksperiment bizning savolimizga javob berdi: balandligi 12 punkt bo'lgan shrift matnini yanada tezroq o'qish imkonini beradi. Ammo biz mavjud barcha shriftlar orasida eng yaxshisini aniqlamoqchi bo'lsak va eksperiment

uchun shriftning ikki balandligini ular bizga ayniqsa ma`qul bo`lib tuyulgani tufayli tanlasak, bu holda biz qaror qabul qilish uchun etarli axborotga ega bo`lmaymiz. Bizning natijalarimiz shriftning balandligi va o`qish vaqti o`rtasidagi to`g`ri chiziqli aloqa 12 va 10 punktli shriftlardan tashqari boshqa shriftlarning barchasi uchun to`g`ri yoki to`g`ri emasligi haqida biron-bir ma`lumot bermaydi.

O`qish vaqti	12 punkt	10 punkt

25-jadval. Shrift balandligi va o`qish vaqti o`rtasida mavjudligi ehtimol tutilgan bir qator aloqalar. Barcha funktsiyalar ma`lumotlar qiymatlarining ayni bir nuqtalari orqali o`tadi

25-jadvalda amalda mavjudligi ehtimol tutilgan bir qator aloqalar ko`rsatilgan. Siz aloqaning xususiyatini bilmaslik interpolyatsiyaga shubhali tus berishini ko`rishingiz mumkin. Biz balandligi 12 va 10 punktlar oralig`ida joylashgan shrift mazkur kattaliklar o`rtasida yotuvchi o`qish vaqtini beradi, degan xulosaga kelib yanglishishimiz mumkin.

Ikki nuqta chegarasidan chetga chiqish yoki ekstrapolyatsiya interpolyatsiyaga qaraganda xavfliroq. Psixologik funktsiyalarning aksariyatiga shift va tub effektlari xos. *Shift effekti* tobe o`zgaruvchi oshib o`tish mumkin bo`lmagan darajaga etganida paydo bo`ladi. Oshib o`tish mumkin bo`lmagan darajalarga reaksiyaning 100% ga teng aniqligi; reaksiyaning 1,0 ga teng ehtimolligi; reaksiyaga bo`lgan 100% ishonch misol bo`lishi mumkin. Ko`rsatilgan holatlarning har birida kimdir amalga oshirgan reaksiya muayyan kattalikdan oshib ketishi jismonan mumkin emas. (Boshqacha qilib aytganda, sizning aniqligingiz 100% dan oshishi mumkin emas.) Boshqa hollarda, garchi reaksiyalar biron-bir mutlaq shift bilan cheklangan bo`lmasa-da, ularni amalda ayrim nisbatan elastik shift cheklaydi. Masalan, hatto mashqni hisobga olganda ham, biz qisqa muddatli xotirada saqlab qolishimiz mumkin bo`lgan elementlar soni uchun muayyan faktik shift mavjud: taxminan etti element. Xuddi shuningdek, odamlar qayd etilgan ma`lum vaqt mobaynida ishlov berishga qodir bo`lgan axborot hajmi ham amalda cheklangan. Bunday axborot jumlasiga odamlar qo`sha oladigan sonlar miqdori, ular displeyda topishga qodir bo`lgan ob`ektlar soni, ular chop eta oladigan so`zlar soni va hokazolar kirishi mumkin. Mazkur shift haddan tashqari qattiq bo`lmasligi ham mumkin, lekin undan hali hech kim oshib o`tgan emas.

*Tub effekti* – bu shunday bir kattalikki, undan quyi darajada reaksiya paydo bo`lishi mumkin emas. Masalan, nol sekunddan kamroq vaqt ichida reaksiya qilishga yoki noldan ortiq reaksiya paydo qilishga hech kim qodir emas. Xuddi shuningdek, tub mutlaq bo`lmasligi ham mumkin. Amalda nisbatan elastik muayyan tub mavjud bo`lishi mumkin. Masalan, stimolni tanib olish uchun eng qisqa vaqt nazariy jihatdan olib qaraganda nolga teng, amalda esa taxminan 150 millisekundni tashkil etadi. Agar biz natijalarning ikki qiymatini olsak va shiftdan Yuqorida yoki tubdan quyida joylashgan qiymatlarni ekstrapolyatsiya qilishni amalga oshirsak, chordoqqa yoki erto`laga emas, balki mushkul ahvolga tushib qolamiz! Bunda shift yoki tub qaerda bo`lishi lozimligi ba`zan aniq bo`lmaydi. Ikki darajali eksperiment o`tkazayotganda bu muammolarni chetlab o`tish uchun siz eksperimentda mavjud bo`lgan darajalardan tashqariga ekstrapolyatsiya yoki interpolyatsiya qilmaslikni o`zingiz uchun qoidaga aylantirishingiz lozim.

*Ikki nuqta o`rtasida interpolyatsiya qilish xavfli*

*Ikki nuqtadan tashqariga ekstrapolyatsiya qilish bundan ham xavfliroq!*

Bundan tashqari, ikki darajali eksperimentlarning nazariy qiymati ba`zan cheklangan bo`ladi. 1–3-boblarda biz fan zamirida o`zaro aloqalar yotadi va olimlar nazariyadan eksperimentlarda aniqlanadigan o`zaro aloqalarni tushuntirish uchun foydalanadi, degan fikrga qo`shildik. Toki nazariyalardan birini tasdiqlaydigan va boshqa nazariyalarning barchasini rad etadigan eksperiment o`tkazilmagan ekan, har bir nazariya mavjud boshqa nazariyalar bilan raqobatlashadi. Ko`pgina nazariyalar mustaqil o`zgaruvchining o`zgarishi tobe o`zgaruvchini

ma'lum tomonga o'zgarishga majbur etishini bashorat qilishi bois, ikki darajali eksperiment natijasi aksariyat hollarda raqobatlashayotgan nazariyalarni bir-biridan ajratish imkonini bermaydi. Raqobatlashayotgan nazariyalar qarama-qarshi yo'nalishlarda o'zgarishlarni bashorat qilgan yoki nazariyalardan biri o'zgarishni bashorat qilgan, boshqasi esa uni bashorat qilmagan hollarni istisno etganda, nazariyalarni tekshirish odatda yanada murakkab mezonlarga muvofiq eksperimentlar o'tkazishni talab qiladi.

**Ko'p darajali eksperimentlar** – bu uch yoki undan ortiq darajali bir o'zgaruvchi bilan o'tkaziladigan eksperimentlardir. Ayrim tadqiqotchilar ko'p darajali eksperimentlarni *funksional eksperimentlar* deb ham ataydilar, chunki ular sizga mustaqil va tobe o'zgaruvchilarni bog'lovchi funktsiyalarning xususiyati haqida muayyan tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

### Afzalliklari

Ko'p darajali eksperimentning afzalligi asosan shu bilan belgilanadiki, uning natijalari bizga eksperimental aloqaning xususiyati to'g'risida bir to'xtamga kelish uchun imkoniyat yaratadi. Hatto eksperiment faqat uch darajaga ega bo'lgan holda ham u baribir bizga aloqa haqida ikki darajali eksperimentga qaraganda yaxshiroq tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Biz talabanning tashvishlanish darajasi imtihon ballariga qanday ta'sir ko'rsatishini bilmoqchimiz, deb faraz qilaylik. Biz umumiy psixologiyani o'rganayotgan talabalarning ikki guruhini olishga va ikki darajali guruhlararo mezonni qo'llashga qaror qilamiz. 1-guruhda o'qituvchi har bir jiddiy imtihon oldidan talabalarga fakultetni muvaffaqiyatli tamomlash uchun baholarning muhimligi haqida gapirishga besh daqiqa vaqt sarflaydi. U o'qishni eng Yuqori baholar bilan bitirgan talabalar eng yaxshi ishni olishlarini, ilmiy darajaga ega bo'lgan bitiruvchilar ko'proq pul ishlab topishlarini va hozirgi vaqtda universitetga qabul qilingan talabalar soni me'yordan ortiq ekanini tushuntiradi.

2-guruhda ham o'qituvchi har bir imtihondan oldin besh daqiqali suhbat o'tkazadi. Bu suhbatda u talabalarga yuqori ball olish materialni o'zlashtirish bilan teng darajada muhim emasligini eslatadi. U talabalarga o'n yildan keyin mazkur imtihonda qanday ball olganlarini ular baribir eslay olishmasligini aytib o'tadi. Biz ko'proq potentsial aralashuvchi o'zgaruvchilarni, chunonchi: o'qish yili, imtihonning og'irligi va guruhga berilgan yo'l-yo'riqlarni puxta nazorat qilamiz. Pirovard natijada biz imtihon ballaridagi farqlarni suhbat tufayli paydo bo'lgan xavotirlanish darajasiga bog'lash mumkin, degan qarorga kelamiz. Birinchi nutq talabalarda Yuqori darajada xavotirlanish, ikkinchi nutq esa – pastroq darajada xavotirlanish paydo qiladi, deb faraz qilsak, biz 9.3-rasmda ko'rsatilgan natijalarni olishimiz mumkin.

O'rtacha imtihon balli	Past	Baland
	Xavotirlanish darajasi	

26-jadval. Ikki darajali eksperimentning o'ylab topilgan natijalari; bunda talabalarning xavotirlanish darajasi o'zgartiriladi va ularning o'rtacha imtihon balli baholanadi.

Hozirgi vaqtda biz haqiqatga ayniqsa yaqin bo'lgan quyidagi farazni ilgari surishimiz mumkin: tashvishlanish darajasi va o'rtacha imtihon balli bir-biri bilan umuman bog'liq emas; ikki nuqta orqali o'tkazilgan to'g'ri chiziq qat'iy gorizontall. Biroq, biz ko'p darajali mezonni tanladik va xavotirlanishning uchinchi darajasi – neytral darajani qo'shdik deb faraz qilaylik. Bunda o'qituvchi besh daqiqali nutq so'zlab, talabalarga imtihonni o'tkazish tartibining ayrim ikir-chikirlarini eslatib o'tishi nazarda tutiladi. 9.4-rasmda bu ko'p darajali eksperiment uchun o'ylab topilgan natijalar ko'rsatilgan.

O'rtacha imtihon balli	Past	Neytral	Baland
	xavotirlanish darajasi		

27-jadval. Uch darajali eksperimentning o'ylab topilgan natijalari; bunda talabalarning xavotirlanish darajasi o'zgartiriladi va ularning o'rtacha imtihon bali baholanadi.

Agar ma'lumotlar qiymatlarining uchinchi nuqtasini belgilasak, amalda xavotirlanish darajasi va imtihon ballari o'rtasida muhim aloqa mavjudligini ko'ramiz. Biroq, shunga qaramay, mazkur funktsiya grafigining aniq shakliga nisbatan ayrim shubhalar saqlanib qoladi. Aftidan, 9.4-rasmda ko'rsatilgan uch shakldan istalgan biri mavjud bo'lishi mumkin va psixologik funktsiyalarning aksariyati keskin bukilishlarga ega emasligi va yo'nalishni keskin o'zgartirmasligi bois, biz boshqa aloqalar to'plamining mavjudlik ehtimoli ozligini bilamiz. Ko'rib turganingizdek, qiymatlarning uchinchi nuqtasi bizga eksperimental aloqa xususiyati haqida yaxshiroq tasavvur hosil qilish imkonini beradi. O'z eksperimentimizga yangi darajalarni qo'shish orqali biz mustaqil va tobe o'zgaruvchilar o'rtasidagi haqiqiy funktsional aloqa to'g'risida yanada aniqroq xulosalar chiqarishimiz mumkin. SHuningdek biz o'z qiymatlar nuqtalarimizdan kelib chiqib interpolyatsiya va ekstrapolyatsiya amallarini yanada ishonch bilan bajarishimiz mumkin. Bu misolda biz qo'shgan neytral guruh nazorat guruhi sifatida qaralishi mumkin, chunki ayni holda o'qituvchi xavotirlanish darajasiga ta'sir ko'rsatishga aslo harakat qilmagan. Bu erda o'qituvchi aytilgan so'zlarning birortasi xulq-atvorga ta'sir ko'rsatgani yoki ko'rsatmaganini aniqlashga turtki beradigan biron-bir gapni aytmaydigan yana bir nazorat guruhini qo'shish mumkin. Ko'p darajali eksperimentlar bunday moslashuvchanlikni ta'minlaydi.

Bu misol ko'p darajali eksperimentning ikkinchi afzal jihatini ham namoyon etadi: odatda, qo'shilgan darajalar qancha ko'p bo'lsa, mustaqil o'zgaruvchining o'zgarish (qamrov) doirasi qiymati shuncha oz bo'ladi. O'z-o'zidan ravshanki, eksperimentda mustaqil o'zgaruvchilarning darajalari ko'p bo'lsa, ko'rsatib o'tilgan talablarning ikkalasini ham bajarish oson bo'ladi.

**Kamchiliklari.** Amaliy nuqtai nazardan olib qaraganda, ko'p darajali eksperimentning asosiy kamchiligi shu bilan belgilanadiki, u ikki darajali eksperimentga qaraganda ko'proq vaqt va kuch talab qiladi. Esingizda bo'lsa, har safar guruhlararo eksperimentga yangi daraja qo'shilganda, ishtirokchilar soni ham ko'payadi. Guruh doirasida o'tkaziladigan eksperimentlarda qo'shimcha darajalar ishtirokchilar sonini ko'paytirmaydi, biroq, shunga qaramay, ular eksperimentning umumiy vaqtini ko'paytiradi va muvozanatga solish sxemalarini yanada yiriklashtiradi.

Ko'p darajali eksperimentlarni tahlil qilish uchun zarur bo'lgan tekshirish statistik metodlarini qo'llash ham ma'lum darajada qiyinchiliklar tug'diradi. Ular ko'proq vaqt talab qiladi va bunday statistik tekshirishdan keyin ma'lumotlarni talqin qilish qiyinlashadi.

Ikki va ko'p darajali eksperimentlarning afzalliklari va kamchiliklari taroziga solinganida, mustaqil o'zgaruvchili darajalarning qo'shilishi bilan bog'liq bo'lgan oz miqdordagi qo'shimcha harajatlarni, odatda, olinadigan axborotning ahamiyati ortig'i bilan qoplaydi. Bu afzallik eksperiment rejasiga qo'shiladigan dastlabki bir nechta darajalar uchun ayniqsa muhimdir. O'z-o'zidan ravshanki, ma'lum vaqtdan boshlab yangi darajalarning qo'shilishi bizning eksperimental aloqa haqidagi bitimlarimizni ko'paytirishga kam hissa qo'shadi.

Shu paytgacha biz barcha eksperimentlar faqat bitta mustaqil o'zgaruvchiga ega ekanligidan kelib chiqdik. Ammo bu cheklash real hayotni emas, balki ko'proq bizning muhokamamiz maqsadini aks ettiradi. Siz o'tkazishingizga to'g'ri keladigan eksperimentlarning aksariyati bittadan ortiq mustaqil o'zgaruvchiga ega bo'ladi. Bu erda men yanada murakkab eksperimentlarni rejalashtirayotganda qo'llaniladigan umumiy usullarning ayrimlariga to'xtalib o'taman.

Eksperimental psixologiyada **omilli reja** ayniqsa faol qo'llaniladi. Psixologiyaga oid jurnallarda e'lon qilinadigan aksariyat eksperimentlarning natijalarini anglab etish uchun siz omilli rejalar mantiqini tushunishingiz lozim.

## 16.2. Faktorli eksperimentlar

O'zgaruvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ifodalovchi murakkab farazlarni tekshirish uchun faktorli eksperimentlar qo'llaniladi. Bunday farazlarning umumiy ko'rinishi quyidagicha: "Agar A<sub>1</sub>, A<sub>2</sub> ... A<sub>n</sub> bo'lsa B" bo'ladi. Bunday gipoteza (faraz) lar kompleks, **farazlar** deb ham ataladi. Faktorli eksperimentlar ko'p o'Ichovli tadqiqotlarning xususiy hodisasi hisoblanib, ularni yo'lga qo'yishda bir qancha mustaqil va tobe' ko'rsatkichlar o'rtasidagi aloqani aniqlash lozim.

Qoidaga muvofiq, faktorli eksperimentlarda bir vaqtning o'zida 2 turdagi farazlar tekshiriladi:

1 Har bir mustaqil ko'rsatkichga alohida ta'sir ko'rsatadigan farazlar.

2. O'zgaruvchilar o'rtasidagi o'zaro ta'sirga ega farazlar, ayniqsa - bir mustaqil ko'rsatkichning boshqa bir ko'rsatkichga o'tkazgan ta'sir effektini hisobga olgan holda tekshiriladi.

Faktorli eksperimentning asosiy muammosi bu - bitta mustaqil ko'rsatkichga ega bo'lgan bir qancha oddiy eksperimentlarni qo'llagan holda, 2ta o'zgaruvchilar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni aniqlashning yechilishi mumkinligi yoki mumkin bo'lmazligidir.

Bir faktorli eksperimentlar psixologiya fanining asosiy ish quroli hisoblanadi. Ikki va undan ortiq ko'rsatkichlarning 1 ta tobe' ko'rsatkichga ta'sirini o'rganish uchun tadqiqotchilar faktorli eksperimentdan va uning rejasidan foydalanadilar. Bu reja ikki va undan ortiq mustaqil ko'rsatkichlar bilan bir vaqtning o'zida ishlash imkoniyatini beradi.

Faktorli eksperimentlar faktorli rejaga asosan tuziladi. Eksperimentni faktorli rejalashtirish xususiyati shundan iboratki, bunda har bir mustaqil ko'rsatkichlar barcha bosqichlarda bir-biri bilan bog'liq bo'lishi kerak. Eksperimental guruhlarining soni barcha mustaqil ko'rsatkichlar darajasiga teng bo'lishi lozim. Bir nechta o'zgaruvchilarni qo'shishning, umumlashtirishning eng oddiy usuli bu - faktorli umumlashtirishdir. Bunda har bir mustaqil ko'rsatkich, 2-darajadagi ko'rsatkichni taqozo etadi, 2-si esa 3-sini va shu taxlit davom etaveradi. Mustaqil ko'rsatkichlarni bu ma'noda, **faktor** deb ham atashadi.

Bugungi kunda faktorli rejalar psixologiyada keng va unumli tarzda qo'llanilgani bois, o'zgaruvchilar o'rtasidagi o'zaro tobe'lik umuman kuzatilmaydi.

Eksperimental rejaning turli variantlardagi klassifikatsiyasi taklif qilingan.

Unga ko'ra, eksperimental reja quyidagi asoslarga tayangan holda farqlanadi:

1) Mustaqil ko'rsatkichlarning soni bitta yoki undan ko'p bo'lishi.

Bunda, ularning sonidan qat'iy nazar oddiy yoki faktorli reja qo'llaniladi.

2) Mustaqil ko'rsatkichlardagi darajalar soni : 2 ta darajada sifatli aloqani o'rnatish, 3 va undan Yuqori darajalarda - son jihatdan aloqalar to'g'risida soz boradi.

3) Ta'sirni qabul qilishi.

Agar "Har bir guruhga - o'z kombinatsiyasi" sxemasi qo'llanilsa, unda guruhlar o'rtasidagi reja ko'zda tutiladi. Agarda, "Barcha guruhlariga-barcha ta'sirlar" sxemasi qo'llanilsa, unda rotatsion reja ustida soz boradi. Gotssdenker bum kross-individual taqqoslash deb ataydi.

Faktorli rejadagi faktorlar soni faqatgina sizning taassavvuringiz va dunyo aholisining soni bilan chegaralangan bo'lishi mumkin. Faktorli eksperimentlar holatida faktorlarning o'zi guruh ichidagi va guruhlararo bo'lishi, shu bilan bir qatorda ularni ham birlamchi faktorli eksperimentlarga, ham aralash faktorli eksperimentlarga qo'shish mumkin bo'ladi. Guruh ichidagi va guruhlararo faktorlarni aniqlashda, ularning Yutuq va kamchiliklarini hisobga olishimiz zarur.

Agar har bir guruh ichidagi faktorlarni {2x2} rejasining kontsepsiyasini quyidagi jadval (sxema) tarzida ko'rishimiz mumkin :

O'zgaruvchi V (stimul)

z-bosqich O'zgaruvchi A

T/AV/OI/

A1-B1	A1-B2

A2-B1	A2-B2
-------	-------

Binder 1967-yilda o'z hamkasblari bilan ana shunday uslubda eksperimentlarining natijalarini tahlil qilgan. U aniqlangan ma'lumotlar qaysi tomonga o'zgarmasin, bu o'zgarishlar statistik qiymatga ega bo'la olmaydi deb ta'kidlagan. Ya'ni o'zgarishlarning Yuqoriligi, o'z-o'zidan vujudga kelgan o'rtacha qiymatdan ortiq bo'la olmaydi. O'z-o'zidan vujudga kelgan o'rtacha qiymat **nazoratga ega bo'lmagan faktor** sanaladi. Bu albatta, eksperimentator xatosi hisoblanadi.

Ko'pincha, kontrolga ega bo'lmagan faktorlar mavjudligi tufayli, o'rtacha qiymat ayrim og'ishlarga ega bo'ladi. Garchi o'rganilayotgan faktorlar natijalarga o'z ta'sirini ko'rsatmasa ham. Ko'pgina (statistik tahlil) masalalarida interpretatsiya natijalari "statistik qiymatga ega bo'lgan ma'lumotlar" sifatida ko'riladi.

Eksperiment rejasini tuzish **gomogen** yoki **geterogen** bo'lishi mumkin. Bu uning mustaqil ko'rsatkichlar soniga, o'zgaruvchilar darajasining teng yoki teng emasligiga bog'liq bo'ladi. 3 ta mustaqil ko'rsatkichga ega bo'lgan LxMxN rejasi **Lotin kvadrati** metodi asosida tuziladi. "Lotin kvadrati" metodi 2 ta va undan ortiq bosqichga ega bo'lgan 3 ta ko'rsatkichni bir vaqtning o'zida tekshirish uchun qo'llaniladi. "Lotin kvadrati" ning tamoyili shundan iboratki, 2 ta bosqichga ega har xil o'zgaruvchilar eksperimental rejada bir martagina uchraydi. "Lotin kvadrati" guruhlar sonini keskin qisqartirish imkonini beradi.

O'zgaruvchilar o'rtasidagi bo'lishi mumkin bo'lgan ta'sirlar quyidagilardir:

- nolga teng bo'lgan ;
- ajraladigan;
- kesishadigan ta'sirlar.

O'zaro ta'sirning Yuqori baholanishi dispersion tahlil bo'yicha, **StYudentning t-mezoni** esa, har xil guruhlarining faoliyatini baholashda qo'llaniladi.

Barcha ko'rib chiqilgan variantlarda eksperimentni rejalashtirishda **balansirovka usulidan** ham foydalaniladi: turli xil sinaluvchi guruhlariga har xil eksperimental talablar qo'yiladi.

Guruhlar miqdorini tenglashtirish natijalarni tenglashtirish imkonini yaratadi.

"Barcha sinaluvchilarga - barcha ta'sirlar" strategiyasi aks ettirilgan rejalarni Makk Koll **rotatsion eksperimentlar** deb ataydi. Kempbell bu rejaga kvazieksperimentlar sonini qo'shib, ular asosida tashqi validlikni boshqarib turgan.

Faktorli eksperimentlarga misol uchun, konsensus liderli yoki lidersiz guruhda yaxshi aniqlanishini bilmoqchi bo'lsak, qanday boshqa talablarni qo'yishimizni va o'zimiz qay tomonga o'zgarishimizni aniqlab olishimiz lozim. Guruhning har bir a'zosi qatnashishi shartmi va ular bir xil jinsda bo'lishligi, kommunikatsiya ya'ni o'zaro aloqalar erkin yoki tizimlashtirilgan bo'lishligi, guruhdagi muammoni yechish uchun qiyin yoki oson masalani berishimiz alohida ahamiyat kasb etadi. Balki sizlar bularning hammasi hech qanday rol o'ynamaydi deb o'ylarsiz, ammo liderning guruhga ta'sir etish jarayoni uning soniga bog'liqdir. Biz bu ma'noda faktorlar sirasiga guruh sonini va guruh liderini hisobga olishimiz lozim.

Tasavvur qiling, guruhning qabul qilgan qarori nafaqat liderga balki guruh soni va qatnashuvchilar jinsiga ham bog'liq deb o'ylaylik. Shuning uchun biz qatnashuvchilar jinsini 3-faktor deb olamiz va uni 3 bosqichga bo'lamiz : erkaklar, ayollar va aralash guruh(ayollar va erkaklar). Ana shundagina natijalar biz kutgandek bo'lishi mumkin.

Yuqorida biz faktorli eksperimentlar, rejalar va ularda qo'llaniladigan usullar haqida so'z Yuritdik. Endi ularning Yutuq va kamchiliklariga to'xtalib o'tamiz.

### **Faktorli eksperimentlarning yutug'i va kamchiliklari.**

Faktorli eksperimentlarning asosiy Yutug'i shundan iboratki, biz uning o'zaro ta'sirini o'rganishimiz mumkin. **Ozaro ta'sirning** o'rni mustaqil va tobe ko'rsatkichlar

o'rtasidagi o'zaro harakatni o'rganishda benixoyat kattadir. Masalan, 3 kishidan iborat guruhda liderni aniqlashda qaror qabul qilish oson kechadi, ammo guruhdagi shaxslar soni qanchalik ko'p bo'lsa, lider bo'lsa ham bo'lmasa ham qaror qabul qilish va konsensusni topish uchun juda ko'p vaqt sarf qilish kerak bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda, aytilish mumkinki, liderlikni aniqlash va qaror qabul qilish o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar guruhdagi shaxslar soniga bog'liq bo'ladi.

Faktorli eksperimentlar bizga 3 ta alternativ tanlovni beradi ya'ni biz bir holatni yana bir mustaqil ko'rsatkichga aylantirishimiz, buning oqibatida uning aniqligini va natijalarning o'zgarishini Yuqori darajaga ko'tarishimiz mumkin bo'ladi. Biz natijalarni keng miqyosda olsak bo'ladi. Chunki faktorlar tarzida katta hajmdagi holatlar va biz aniqligini bilgan, har bir bosqichda Yuqori effektga ega bo'lgan faktorlar olingan. Shunga ko'ra bizda eng optimal va bajarilishi muqarrar bo'lgan holat bor. Har safar biz bir holatni to'g'ridan-to'g'ri bir faktorga aylantirganimiz uchun eksperiment ham qiyinlashib boradi. Lekin bu eksperimentning naqadar chuqur o'rganishimiz va o'tkazishimiz uchun qulay kontseptsiya sanaladi. Bu albatta uning Yutuqlaridan biridir.

Faktorli eksperimentning yana bir yutuqi - **uning statistik holatidir**. Faktorli eksperimentda ma'lum bir holat qaysi tomonga o'zgarmasin, natijalarni o'zgartirishdan qat'iy nazar faktorga aylanadi. Baxolashning o'zgaruvchanligi esa, pasayib boraveradi. Qanchalik holatlar ko'payib borsa, biz ularni faktorlarga aylantiraveramiz, baho qanchalik past bo'lmasa, demak biz aniqlagan har bir farq statistik qiymatga ega bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tilgan Yutuqlar bilan bir qatorda, faktorli eksperimentlarning kamchiliklari ham mavjud.

Faktorli eksperimentning eng asosiy kamchiliklaridan biri uning juda ko'p vaqt va mablag'ni talab qilishidir.

Bizga ma'lumki, ayrim ko'rsatkichlar boshqa ko'rsatkichlar bilan aloqaga kirishishi mumkinligi bois faktorli rejaga tayanib ish ko'ramiz. Chunki faktorli eksperimentga qo'shiladigan har bir faktor rejadagi qismlarning shunchaga ko'payishiga olib keladi. Shunga ko'ra, faktorli rejalar benihoyat chegarasiz o'lchovlarga ega bo'lishi mumkin. Har bir qo'shilgan qism qoshimcha vaqt va e'tiborni talab qilib, bizdan ehtiyotkorlikni va har bir faktorlar qismini tanlamaslikka qaratadi.

Katta masshtabli faktorli eksperimentlarni o'tkazish uchun kerakli resurslar mavjud bo'lmasa, unda biz bir nechta kichik hajmdagi eksperimentlarni o'tkazishimiz mumkin. Muammoni yechishning asosi shundan iboratki, siz mustaqil ko'rsatkichni har xil eksperimentlarga mansub bo'lishini va ular o'zaro ta'sirga ega bo'lmasligini bilishingiz zarur. Bu tahminni tekshirish uchun esa, bizda boshqa imkoniyat ham yo'q. Mana shunday tahminlarga javob izlash uchun ko'pgina psixologlar real holatlarda keskin yo'l tutishadi. Kichik eksperimentlarni o'tkazib, faktorli rejalarini qo'llashadi.

Katta faktorli eksperimentlarga yondashuvning yana bir juda murakkab usuli mavjud. Bu **his-tuyg'ularni chegaralash metodidir**. (Mayers 1971 yil) Bu metod faktorli reja ichidagi qismlarni aniqlashga yordam berib, tobe' ko'rsatkichdagi maksimal va minimal, aniq to'ldiruvchilarsiz paydo bo'ladigan qismlarni anglatadi. Bu metodni qo'llashning asosiy hissiy chegarasi bu boshlovchi eksperimentatorning belgilangan qolipdan chetga chiqishidir.

Faktorli eksperimentlarda yuzaga keladigan 2- qiyinchilik - **natijalarning interpretatsiyasidir**. Faktorli va bir necha faktorli eksperimentlarni tahlil qilish uchun maxsus statistik yondashuv - dispersion tahlil (analiz) qo'llaniladi. Biz bu haqda Yuqorida to'htalib o'tgan edik. Bu ish sizdan aniq yechimni va natijalar xarakterining

o'zgaruvchanligini talab qiladi. Agar natijalaringizning o'zgaruvchanligi normal taqsimlashga to'g'ri kelmasa, bunda dispersion tahlil orqali statistic tekshiruvni o'tkazish mumkin emas. (Bredli. 1968 "Distribution-Free statistical tests".)

Baxtga qarshi, ko'pgina faktorli eksperimentlar o'z taqsimotiga ega bo'ladi va normal dispersion tahlilni qo'llash imkoniyatiga ega bo'lamiz. Faktorli eksperimentlar tahlili orqali o'z yechimiga ega bo'lgan bo'lsada, ba'zi hollarda natijalarni interpretatsiya qilish qiyinchilik tug'diradi. O'zaro ta'sir jarayoni bir faktor va tobe' ko'rsatkichning 2-darajali faktoridan tarkib topadi.



### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Bitta o'zgaruvchili eksperimentlar deb qanday o'zgaruvchilarga aytiladi?
2. Faktorli eksperimentlar deb qanday eksperiment turlariga aytiladi?
3. Ko'p darajali eksperiment qanday eksperiment turlariga nisbatan qo'llanadi?
4. Faktorli eksperimentning yutuq va kamchiliklarini sanab o'ting?
5. Balansirovka usuli deb qanday usulga nisbatan aytiladi?

### Mavzu bo'yicha test topshiriqlari:

1. \_\_\_\_\_ bu uch yoki undan ortiq darajali bir o'zgaruvchi bilan o'tkaziladigan eksperimentlardir  
A. "Lotin kvadrati" metodi  
B. Faktorli eksperimentlar  
V. Ko'p darajali eksperimentlar  
G. Omilli reja
2. His-tuyg'ularni chegaralash metodini qaysi olim fanga kiritgan?  
A. Mayers 1971 yil  
B. V Vunt 1879 yil  
V. D. Martin. 1970 yil  
G. D. Kempbell 1871 yil
- 3 Faktorli eksperimentlar bizga nechta alternativ tanlovni beradi  
A. 2 ta  
B. 13 ta  
V. 5 ta  
G. 3 ta
4. Makk Koll fanga qaysi eksperiment turini kiritdi  
A. Faktorli eksperimentlar  
B. Rotatsion eksperiment  
V. Ko'p darajali eksperimentlar  
G. Bir darajali eksperimentlar

## XVIII. NO AN 'ANAVIY TADQIQOTLARNI LOYIHALASH

### Reja:

- 18.1. Kvazieksperimentlar.
- 18.2. Bir ishtirokchidan iborat eksperimentlar.
- 18.3. So'rov tadqiqot sifatida

### Maqsad:

Talabalarda noan'anaviy tadqiqotlar va ularning tuzilishi hamda ularning Yutuq va kamchiliklari haqida nazariy bilimlarni shakllantirish.

### Vazifalar:

1. Talabalarda kvazieksperimentlar, bir ishtirokchidan iborat eksperimentlar haqida ilmiy dunyoqarashni, ijodiy mustaqil tafakkurni rivojlantirish.

### Tayanch tushunchalar:

Kvazieksperiment. Ekvivalent. Noekvivalent. Bir kishili loyihalar

### 18.1. Kvazieksperimentlar

(yoki eksperimental bo'lmagan loyihalar)

Eksperimental tadqiqot talablariga to'liq javob bermaydigan tadqiqiy loyihalar - kvazieksperimental loyihalar deyiladi. Biz bilamizki, organizatsiya shartlari variantlaridan biri kvazieksperimental loyihalarni maqsadi shundan iboratki, bizni guruhlarini randomizatsiya qilmasak ham baribir tahdidni kamaytiriladi. Bu yo'l bilan biz o'zgaruvchilarni aralashishini oldini olgan bo'lamiz. Bu muammoni ko'rib chiqish uchun taxminimizcha, biz guruhni tadqiqot paytida yaxshi darslik kursi bo'yicha qanday yetisha olayotganini «tekshiruvchi» tadqiqot o'tkazishimiz zarur.

Bazaviy eksperiment modeli orqali biz bilamizki, kamida ikkita mustaqil o'zgaruvchidan foydalanishimiz kerak. Tabiiyki bular: "mavjud bilimni tekshirish" va "bilimni mavjudmasligini tekshirish" darajalaridan iborat.

Ayrim vaziyatlarda nazorat o'zgaruvchilar bo'ladi. Masalan, biz ishtirokchilarga o'sha kurs ishini beramiz, bilimni tekshirishimiz yo tekshirmasligimizdan qat'iy nazar. Ammo ichki qoidalarimiz deb talabalar birinchi bosqichda egallagan, ya'ni o'zlashtirgan bilimlarni esdan chiqarishga majbur qilib o'z materialimizni bera olmaymiz. Shuning uchun biz tasodifiy o'zgaruvchilarga ajratilgan guruh talabalarini to'xtatishimiz kerak. Ideal holatda esa, biz universitet talabalarini ism shariflarini qog'ozga yozib shlyapaga joylashtirib, bu kursni eshitmaganlar uchun va ulardan Yuztasini tanlab olib ikki guruhga ajratishimiz mumkin. So'ng birinchi guruh bilimlarini tekshiramiz, ikkinchi guruhnikini esa yo'q. Baxtga qarshi bizda bu talabalarni qaysidir guruhda majburlab o'qitishga yo'l qo'yilmaydi.

Real hayotda talabalarga o'zlari o'qishni xohlagan guruhda o'qishlariga tanlash imkoniyati beriladi. Balki mavjud ikki guruhdan foydalanishimiz kerak bo'lar. Masalan, kunduzgi va ertalabki guruhlar mustaqil o'zgaruvchimizni u yoki bu talabalarini aniqlaymiz. Ertalabki guruh deb taxmin qilamiz, ayrim guruhlar dushanba, chorshanba, juma kunlari boshqalari seshanba va payshanba kunlari ma'ruza eshitadi. Siz ma'ruzani qaysi kunlari o'zlashtirish muvaffaqiyati oshishini bila olasizmi. Bundan ham muhimroq muammo kelib chiqadiki, o'qituvchi har seminarida yo har yili o'sha kursni bittagina bo'limini o'qiyversin. Sizningcha, bahorgi yo kuzgi talabalar yoki bu yilgi yo kelasi yilgi ta'lim unumdorligini oshishini bila olamizmi va shunga o'xshash savollar...

## **Ekspirimental bo 'Imagan loyihalar**

- bir martalik test xulosalarni loyihalash
- ekvivalent bo'Imagan guruhlarda bir martalik xulosalarni loyihalash
- oldinda va xulosaviy bir martalik testlarni loyihalash

## **18.2. Bir ishtirokchidan iborat eksperimentlar**

Tadqiqiy loyihaga bir ishtirokchi jalb etiladigan loyihalar bir kishili loyihalar deyiladi. Qaysidir guruhni xulqini baholayotgan bo'lsak, mutlaq o'zgaruvchini qaysidir bosqichda to'qnash kelgan bo'lsa u holda bir martalik test xulosalarini birinchi guruhda loyihalari ishlatiladi.

### **Ekvivalent bo 'Imagan guruhlarda bir martalik test xulosalarini loyihalash**

Ekvivalent bo'Imagan guruhlarda bir martalik test xulosalari rejasida asosiy muammo shunga qaratilgan bo'ladiki, bu vaziyatda har qanday kuzatuvni ajratish shartli ravishda ta'sir ko'rsatishi va tanlanma guruhda bo'lishi kuzatiladi. Qanchalik guruhlar o'xshash bo'lsa shunchalik natijalar o'xshash bo'ladi.

### **Oldindan va xulosaviy bir martalik testlarni loyihalash**

Bu loyiha keng qamrovli tadqiqotlarda ko'plap qo'llaniladi. Noekvivalent guruhlarni qanday bo'lishidan qat'iy nazar yaxshi bajarishini ta'minlaydi.

### **Noekvivalent nazorat guruhlari bilan oldindan va testlarni loyihalash**

Birinchi tur rejasida tadqiqot guruhidan tashqari tashqi ta'sirlarsiz noekvivalent guruhlar qo'llaniladi. Har bir guruh bilan oldindan va xulosaviy testlar o'tkaziladi. Bu loyiha ijtimoiy fanlarda va keng qamrovli tadqiqotlarda ko'p foydalaniladi.

Ba'zi hollarda bir guruh ta'sirini bir yo'nalishda bog'liq o'zgaruvchilarga, ikkinchi guruhga teskarisini berib va aks natijani ko'rishimiz mumkin. Masalan, ikkita ishchi guruh bir soatdan qismlarga bo'lib, bir guruhga faqat ishlangan vaqt uchun, ikkinchi guruhga ishlab chiqarilgan mahsulotlar uchun haq to'lanadi. Noekvivalent nazorat guruhlari va oldindan xulosaviy testlarni o'tkazish bilan turli loyihalar muolajalaridan foydalanilganda e'tibor bering birinchi va ikkinchi guruhlarda ta'sir va ta'sirsiz tasodifiy bo'Imagan obrazlarda taqsimlangan va tabiiy ravishda noekvivalent hisoblanadi. Agar biz ishlab chiqarish mehnatini bahosini oshirdik deb aytsak demak quyilanish birinchi guruhga ko'tarilish mumkin. Natijada bizni tashhisimiz o'z isbotini topadi. Bizning gipoteza o'z isbotini topdi.

### **Vaqtinchalik seriyalarni loyihalash**

Kvaziekspirimental loyihalarni ikkinchi asosiy sinfi **vaqtinchalik seriyalarni loyihalash** deb ataladi. Vaqtinchalik qismlarni loyihalash turini oldindan ko'rinishi bitta guruhni tadqiqotgacha va undan so'ng ham ko'p martalab kuzatish hamda bir marotabalik oldindan testlashdir.

### **Kvaziekspirimentlarning statistik analizi**

Oxirgi yillarda kvaziekspirimentni statistik analizi o'tkazish tartibi sezilarli darajada takomillashtirildi. Bu statistic metodlarni ko'rib chiqish kitob doirasidan chetga chiqqan. Lekin ularni ayrim manbalari oxirgi boblarda berilgan hamda ularni topish mumkin. Yutuqlari.

Kvaziekspirimentni asosiy Yutuqlaridan biri shundan iboratki oldin o'tkazila olmagan eksprementlarni bu metod orqali o'tkazish mumkin. Kvaziekspiriment psixologlarga sotsiologiyadagi ularni qiziqtirgan savollarni klinik baholashda ta'lim dasturlaridagi savollarni yechishda yordam beradi. Biz taxminan o'zimizda ta'savvur qilib validlikka taxdid soluvchi

manbalardan ehtiyotkorlik bilan foydalanib aynan muammo bo'lgan loyihalarni baholashni ko'rib chiqishimiz mumkin.

Kamchiligi.

Bizni bunday harakatlarimizga qaramay ichki validlikka tahdidni aniqlashimiz mumkin. Bu esa bizni ishimizni yo'qqa chiqaradi.

## **18.2. Chiqish bosqichlari bilan loyihalash**

Sinaluvchi bilan yoki kichik N individual yoki guruhiy ma'lumot.

Ayrim tadqiqotchilar ta'kidlashicha, eksperimentni o'tkazishda ko'pchilik psixologlar adashadi va eng yomoni o'tqazilgan tadqiqot samarasiz va ma'nosiz bo'ladi. Sidman (1960) ning ta'kidlashicha tadqiqotimiz shunday natija beradiki sinaluvchilar harakatidagi real mavjud bo'lmagan ishtirokchi xulq-atvori haqida ma'lumot beradi. Uning ta'kidlashicha aksariyat tadqiqotchilar guruhdan foydalanilyotgandek qilib ko'rsatishadi va bir insonning xulqi guruhdagilarning xulqini ifodalaydi deb hisoblashadi. U shuni ta'kidlaydiki, guruhga ajratilgan vaqt har bir kishini individual xulqini aniqlashga yetmaydi.

### **Chiqish bosqichidagi muolaja**

Eksperiment chiqish bosqichini ta'savvur qilish uchun biz Sidman tomonidan ishlab chiqilgan eksperimentni ko'rib chiqamiz.

Bu eksperimentda birinchi qadamimiz chiquvchi bosqichini aniqlash, aniqrog'i qat'i holatda intuitiv reaksiya juda ham ahamiyatga ega emas. Tadqiqotimizni nohush muammolaridan biri "juda muhim emas" degan iborani tushunishdir. Aniqlash metodlarida statistik kriteriy, ya'ni bir seansdan boshqa seansga o'tganda o'zgarishlari 3%dan ko'p bo'lmagan reaksiya intensivligi chiqish bosqichini qat'iy holatda ola oldikmi.

Yutuqlari

Asosiy yutuqlaridan biri chiqish bosqichida individual xulq-atvorni kuzatishni effektiv foydalanish imkonini beradi. Muolajamizni yana bir yutuqlaridan biri uni egiluvchanligidir. Ya'ni u mustaqil o'zgaruvchini qanday bosqichda va qanday darajada qo'llashni ko'rsatadi. Standart tadqiqot o'tkazishda oldin tadqiqotchi nechta imkoniyatdan foydalanishi mumkinligini hamda mustaqil o'zgaruvchini qanday bosqichda foydalanishini oldindan bilishi lozim.

Kamchiligi.

Tadqiqotimiz ko'plab yutuqlarga ega bo'lsada bir necha tadqiqotlarni guruhiy an'anviy loyihalashni chiqish bosqichida tadqiqotimiz barcha talablarini qondira olmaydi. Keyin loyihalar chiqish bosqichi bilan asosan ko'p bo'lmagan, ammo muhim natijalarni olish imkonini bermaydi.

Ta'savvur qiling, siz telefon aloqa kompaniyasida ishlaysiz. Sizing vazifangiz standart bo'lmagan telefon kitobchasidanmi yoki kompyuterdan qidiruvchi programmadan operator telefon raqamini topishda vaqtni tejaydi. O'rta qo'ng'iroqlarda har bir sekundni tejash esa oxir oqibat aloqa kompaniyalariga millionlab dollarlarni tejashni, ya'ni iqtisod qilish imkonini beradi. Bu esa ular uchun shubhasiz muhimdir.

Tadqiqotni yana bir kamchiligi chiqish bosqichida biz tomonimizdan aniqlangan qandaydir natija aloqadorligini aniqlash qiyin bo'ladi. Odamlar eksperimental manipulyatsiyani turli xil qabul qilishlari va bizni qatnashimiz katta original bo'lishi mumkin. Bu kamchilikni tadqiqotni boshqa qatnashchilar bilan qayta o'tkazib bartaraf qilsa bo'ladi.

Ammo tadqiqotni chiqish bosqichida qanchalik kam ishtirokchidan foydalanish tadqiqot an'anasi hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda tadqiqot loyihalari chiqish bosqichi bilan eksperimental psixologiyani ba'zi sohalarida qimmatli ma'lumot bo'lishi mumkin.

## **18.3. So'rov tadqiqot sifatida**

*So'rov o'tkazish usullari.* Tanlangan odamlardan axborot olishda so'rov o'tkaziladi. So'ng katta to'plamda ko'rib chiqiladi. So'rov o'tkazishda xulq-atvor haqidagi ma'lumotlarni bevosita o'lchash yo'li bilan olish mumkin. Lekin fikr, motivatsiya va hatto kutiluvchi bo'lajak xulq-atvorni bevosita baholash mumkin bo'lmagan axboratlarni o'z ichiga oladi.

Bunday hollarda so'rov o'tkazishda kerakli axboratlarni to'plash mumkin emas. Shunday so'rovnoma borki, nafaqat nimalar bilan shug'illanishni balki nimaga buni qilishlarini bilish mumkin. Shu sababli so'rovnoma ijtimoiy ta'limotda keng qo'llaniladi. Talabalar tadqiqot proektini o'tqazishda o'ylanayotganda birinchi hayollariga kelgan fikr so'rovnoma ko'pincha tadqiqotni uni ko'rinishi bo'lishi haqida bo'ladi.

Ehtimoli kam emas, boshqalarida esa ikki yo undan ko'proq telefon bo'lishi mumkin. Ba'zi odamlar esa telefonlari bor, ammo raqamlari qayd etilmagan.

Yana bir turi internet so'rovnoma, respondentlarga elektron pochta orqali javob beradilar. Hozirgi kunda dunyo tarmoqlarida ma'lumotnoma materiallari bo'lib, ular sizga savolnomani tuzishda yordam beradi.

### **Tanlash tashkiloti.**

Tanlash tashkilotlarida sizga so'rovnoma o'tkazishda to'plam ko'rgazmali bo'lishi uchun hamda siz xohlagan xulosalarni olish uchun sizga guruh kerak bo'ladi. Ko'rgazmali so'rovnoma qayerdan olishimiz mumkin? Imkoniyatlardan biri - tasodifiy tanlashni olishimiz mumkin. Bu vazifa ko'rinishidan ham ko'proq qiyinchilik tug'diradi.

Tasodifiy tanlash mumkin bo'lmagan hollarda ba'zida tadqiqotchilar statusini tanlash degan usuldan foydalanishadi.

So'rovnoma tarkibi.

### **Savolnoma turlari**

- Ochiq turdagi savolnomalar;
- Yopiq turdagi savolnomalar;
- Alternativ turdagi savolnomalar.

Endi bizda tanlash imkoni bo'lsa, savol tug'iladi - savolnoma qanday tuziladi? Agar sizning so'rovnomangizni maqsadi odamlardagi u yoki bu shaxs hususiyatlari darajasini aniqlash bo'lsa, masalan, avtoritar, his-hayajonli, ichki yo'nalganligi, ijodiy qobiliyati yoki boshqa qandaydir shaxsni xarakteristikasi haqida bo'lsa, savolnomaga bu vazifa oldindan tuzilgan va ishlab chiqilgan. Aniqrog'i bu savolnomalar ommaviylashgan, ishonchliligi va validligi aniqlangan. Shuning uchun siz uni ishonchliligini bilasiz. Agar siz tanlagan mavzu spetsifik yoki siz uni savolnomasini topa olmayotgan bo'lsangiz sizning maqsadingizga hamda talablaringizga javob beruvchi savolnomani tarkibini tuzib chiqishni talab qiladi

Yana yopiq hamda alternativ so'rovnoma mavjud.

Yopiq so'rovnomalarga tadqiqotchi tomonidan savol hamda javoblar qatori bo'ladi, ishtirokchi esa ulardan birini tanlab javob beradi.

Alternativ so'rovnomalarda esa javoblar qatoridan tashqari u bo'sh joy qoldiriladi ishtirokchi esa bu javoblardan tashqari o'zi xohlagan javobni beradi agar javoblar ichida u bayon etmoqchi bo'lgan fikr bo'lmaganda.

Yutuqlari

So'rovnoma va savollarni yutuqlarini ko'rib chiqdik, savolnomalar odamlarni fikrini baholash imkonini beradi. Ularni keyinchalik kuzatiladigan xulqi va motivatsiyasini bilish imkonini beradi. Biz standart eksperiment usullaridan ololmagan qo'shimcha ravishda esa ular ko'plab ma'lumotlarni tez va kam harakat sarflab to'plashimiz mumkin.

Kamchiligi

Shuningdek, biz tadqiqotimizni kamchiliklari qatorini ham muhokama qildik. Katta miqdordagi ma'lumotlarni tahlil qilish aniqrog'i ma'lumotlari tahlili savolnomani loyihalash etapida qiyinchilik tug'diradi. Qo'shimcha ravishda esa quyi darajada katta miqdordagi to'plamda natijalarni taxlil qilishda qiyinchiliklar tug'diradi.

Yana bir kamchiligi shundaki, so'rovnoma eksperimental emas, haqiqatdan ham korreksion tadqiqotligidir.

Yana bir kamchiliklaridan biri, agar u yuqori sifatda bo'lsa ham u bevosita xulq atvorni baholay olmaydi. U faqatgina o'z -o'ziga hisobot berishdir. Shuning uchun respondent bizga o'zi xohlaganini aytadi. Bizni esa bularni tekshirishga qo'shimcha imkoniyatimiz mavjud emas.

Lekin ularni biz aldashlariga asos bormi, degan shubha tu'giladi. Buni bir qancha, ya'ni bizga yolg'on ma'lumot berishlariga sabablar mavjud. Bu sabablardan biri o'zlarini himoyalash. Xatto ularga tadqiqotchi tomonidan ularni javoblari anonim bo'lishini aytilgan bo'lsa ham va xatto ismlarini yozmasliklarini aytsakda, ularni hayolan bu blankalarni belgilab qo'yilgan degan fikr bo'lishi ehtimoldan holi emas. Yoki ularni javoblarini kimdir ko'rib qolishi mumkinligidan havotir oladilar. Bu esa tadqiqotimizda to'g'ri va aniq xulosalarni olishimizga halaqit beradi.

Xulosa qilib aytganda, keng qamrovli talablarni bajarishda tasodifiy ishtirokchilarni guruhga ajratish mumkin bo'lmaydi. Bunday hollarda noan'anviy loyihalardan foydalanishimiz mumkin. Ularni kvazi eksperiment loyihalar deyiladi. Noeksperimental loyihalar ichki validlikka tahdid tufayli interpretiv bo'lishi mumkin.

Bu loyihalarga faqatgina bir guruhni xulq atvorini testlardan o'tkazish uchun guruhdagi bir marotabali xulosaviy testlar o'tkaziladi.

Ikkinchi guruhni ya'ni noekivalent guruhni qarama - qarshi holatini testlardan o'tkazuvchi va uni bir martalik testlardan o'tkazishda oldingi va keyingi xulosaviy testlardan o'tkazishdan iboratdir.

Kvazieksperiment loyihalar ko'pincha ichki validlikka tahdidni baholash yo aniqlash imkonini beradi. Nazorat guruhidagi noekivalent loyihalar oldindan va loyihaviy testlar bir guruhda ishimizdan oldin va keyin o'tkaziladi.

Ikkinchisi esa teskari holat aks obrazlardan foydalaniladi. Chiqish loyahasini turli ko'rinishini o'z ichiga quydagilarni oladi: chiqish testlari bilan loyihalash o'zgaruvchini aniqlovchi chiqish testlarini o'rniga ishlatiluvchi chiqish testlaridan foydalanish imkoni bo'lmagan holatlarda noekivalent guruh va guruh yarmida xarakatimiz va ungacha bo'lgan hollarda aniqlash yo'li bilan mustaqil tanlashda xulosaviy testlardan foydalanish.

Ishimizdan oldin har qaysi guruh bir necha marotalab testlardan o'tkazish bir martalikdan ko'ra ko'p oldindan testlardan o'tkazishlardan foydalaniladi.

### **MAVZUNI MUSTAHKAMLASHGA OID AMALIY TOPSHIRIQLAR:**

#### FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o'quv jarayonini baxs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, Chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda baxslashishga hamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o'rgatadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F - fikringizni bayon eting

S - fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

#### 1-guruh

Savol	Kvazieksperimental loyihalar eksperimentda qo'llash samarali natijalarga olib kelmaydi.
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

#### 2-guruh

Savol	Bir kishili loyihalar kam vaqtni talab etadi samaradorligi past hisoblanadi.
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

9. Kvaziekperimentlar va ularning yutuq va kamchiliklari nimada?
10. Kvaziekperimentlar deb qanday eksperimentlarga aytiladi?
11. Qanday savolnoma turlari mavjud?
12. Eksperimental bo'lmagan loyihalar deb qanday loyihalarga aytiladi?
13. Kvaziekperimentlarning boshqa eksperimentlardan farqi nimada?

### Mavzu bo'yicha test topshiriqlari

1. Eksperimental tadqiqot talablariga to'liq javob bermaydigan tadqiqiy loyihalar - \_\_\_\_\_ loyihalar deyiladi.

- A. Noekvivalent loyiha
- B. Kvaziekperimental
- V. bir kishili loyihalar
- G. A va B

2. Tadqiqiy loyihaga bir ishtirokchi jalb etiladigan loyihalar \_\_\_\_\_ loyihalar deyiladi

- A. Kvaziekperimental
- B. Noekvivalent loyiha
- V. Ekvivalent bo'lmagan loyiha
- G. Bir kishili

3. Savolnoma turlari keltirilgan qatorni toping

- A. Ochiq. Yopiq. Alternativ
- B. Yarmi ochiq. Yarmi yopiq. savolnomalar
- V. Ochiq. Yopiq. Anonim.
- G. B va V javob to'g'ri

## **XIX. EKSPERIMENT NATIJALARI TAXLILI**

### **Reja:**

- 19.1. Chastotalar taqsimlanishi. Taqsimot tavsifi statistikasi.
- 19.2. O'zgaruvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni grafik taqdimoti. Diagramma. Korrelyatsiya koeffitsenti. Asosiy effektlar. O'zaro ta'sir.
- 19.3. Statistik xulosalarni chiqarish metodlari.

### **Maqsad:**

Talabalarda eksperiment natijalarini tahlili, chastotalar hamda korrelyatsiya koeffitsenti haqida nazariy bilimlarni shakllantirish.

### **Vazifalar:**

1. Talabalarda o'z ustida ilmiy izlanish olib borishda, natijalarni taxlil qilishda ilmiy tadqiqotchilik ko'nikmalarini tarbiyalash.
2. Talabalarda ilmiy dunyoqarashni, ijodiy mustaqil tafakkurni, eksperiment natijalarini tahlil qilish malakalarini rivojlantirish.

### **Tayanch tushunchalar:**

Guruhlashtirish. Mediana. Korrelyatsiya koeffitsenti. O'rtacha kvadratik chetlashish. O'rtacha arifmetik qiymat. Tanlanma. Markaziy tendentsiya

### **18.1. Chastotalar taqsimlanishi. Taqsimot tavsifi statistikasi**

Tasavvur qilamiz, sizni psixologiya yo'nalishidagi talabalarining xavotirlanish darajalari iqtisod yo'nalishidagi talabalardan qay darajada farqlanishi qiziqtiradi. Kolledjingiz uchun har xil ixtisoslik bo'yicha o'quvchi talabalar ro'yhatini tuzasiz, ikki xil ixtisoslik bo'yicha o'quvchi o'ntadan talabalarni tavakkaliga tanlaysiz va ularni testdan o'tishlariga ko'ndirasiz, ya'ni xavotirlanish darajasini aniqlaydigan test. Test natijalarini 2 guruh qilasiz – bu sizning dastlabki ma'lumotlaringiz<sup>11</sup>.

Bir nechta 0 va 100 orasidagi uydirma (to'qib chiqarilgan) xavotirlanishning qiymati ko'rsatilgan. Qiymat qanchalik yuqori bo'lsa, talabalar xavotirlanish darajasi shunchalik Yuqori bo'ladi. Guruhlararo tafovutlar mavjudmi? Bu holatda individual qiymat ko'rish xuddi qo'shiqning alohida notalarini eshitib ko'rishga o'xshaydi: qanday ohang ekanligini aniqlash qiyin. Sizga dastlabki ma'lumotlarni interpretatsiya qilish uchun qandaydir usul kerak bo'ladi. Siz tez-tez takrorlanuvchi hodisalarning (chastota) taqsimotini yoki shunchaki, grafik tarzda har bir qiymatning qanday qilib tez-tez ma'lumotlarda paydo bo'lishini tuzishingiz mumkin. Lekin siz hech bir qiymatning birdan ortiq marta takrorlanmasligini kuzatishingiz mumkin. Shu bilan birga taqsimotni sarmahsul bo'lishi uchun siz individual qiymatlarni kategoriyalarga ajratishingiz kerak bo'ladi. Siz hammasidan ko'ra tez-tez uchrab turuvchi kategoriya ichida boshlang'ich ma'lumotning bir qancha qiymati bo'lishini xohlaysiz, shuning uchun siz kategoriyaning kattaligini o'rnatasiz, u 10ga teng bo'ladi. (masalan, 10dan 19gacha). har ikkala guruhingiz uchun shunda tez-tez takrorlanuvchi hodisalarning taqsimoti ko'rsatilgan. Vertikal "Chastota" deb belgilangan o'qda har bir baholovchi kategoriyaga kelib tushadigan dastlabki ma'lumotlarning qiymati ajratib qo'yiladi.

---

<sup>11</sup> Siz e'tibor berishingiz kerak bo'lgani mohiyatan bu eksperiment emasligi, balki korrelyatsion (o'zaro bog'langan) tadqiqotligi va siz ikki xil fe'l-atvor ko'rsatkichlarini taqqoslaysiz: mutaxassislik tanlovi va test savollariga javob. Bu tadqiqotda qaysidir mustaqil o'zgaruvchini manipulyatsiya qilish ko'zda tutilmagan.



Sharoitlarda qandaydir tafovutlar mavjudligi yoki mavjudmasligini aniqlashda tez-tez takrorlanuvchi hodisalarning taqsimot tuzilishi birinchi foydali qadam bo'lishi mumkin. Ba'zida eksperimental effekt etarli darajada yorqin ifodalangan bo'ladi va vizual o'rganish taqsimoti sizni tafovut borligiga ishonтиради. Lekin bu holatda taqsimot judayam o'xshash bo'lib ko'rinmoqda.

Statistlar turli xil taqsimot tiplariga nom berganlar, shu sababli tadqiqotchilar turli xil atamalardan foydalanib, barcha taqsimot grafigini bir-biriga ko'rsatishga zaruriyat yo'qligini his qilgan holda gaplashadilar

Tez-tez takrorlanuvchi hodisalarning chastota-taqsimot tuzilishi sizga boshlang'ich formadan oddiy hisoblab chiqishdan ko'ra, ma'lumotlaringizni tartibga solingan holda taqdim qilishingizga yordam beradi, lekin bu baribir eksperiment natijalarini taqdim qilishning beso'naqay usuli bo'lib qolaveradi. Xohishga ko'ra, har bir guruh natijalarini namoyon qilish uchun bir sonda belgilash kerak. Ma'lumotlarni shunday taqdim qilishimiz uchun bizga statistikani tasvirlovchi bir nechta usullar kerak bo'ladi.

### **Qiymatlarni tavsiflash uchun statistikalar**

Psixologlar 2 ta asosiy statistik metoddan foydalanadilar: statistik tavsif va statistik xulosa. Tavsiflovchi statistika –bu eksperimentatorga har bir qiymat haqida bayon qilib turishning o'rniga, ayrim qiymatlarni tavsiflash haqida ma'lumot beradi. Statistik xulosa haqida biroz keyinroq shu bobda muhokama qilinadi.

### **Markaziy tendentsiya**

Ma'lumotlarni yig'ishda asosiy bilishimiz kerak bo'lgan yana bir jihat bu ishtirokchilarni turli sharoitlarda boshqalardan ajralib turadigan xatti-harakatlaridir. Psixologlar bunday tipik xatti-harakatlarni ifodalovchi statistikani **markaziy tendentsiya** ko'rsatkichi deb nomlaydilar. Bizning ikki guruhimizni taqqoslash uchun qilgan eksperimentimizda - talaba-psixologlar va talaba-iqtisodchilarning markaziy tendentsiyasini topishdan iborat.

. **Moda** - oson hisoblanadi, lekin odatda, ko'pgina ma'lumotlarni bee'tibor qoldirganligi sababli o'rtacha statistika hisoblanadi. Moda – bu eng ko'p uchraydigan bir qiymat. Bizning misolimizda moda mavjud emas, chunki hech qaysi baho 1 martadan ko'p takrorlanmagan. Modani ma'lumotlarni kategoriyalarga ajratgandan so'ng topish mumkin. Talaba-psixologlar uchun moda 50-59 kategoriyasidir, undagi tez-tez takrorlanuvchi hodisa 3. Bu kategoriya berilgan taqsimotning markaziy tendentsiyani ifodalasada, bitta bahoni joylashtirsak moda tezda o'zgaradi. Masalan, 14chi student 58 emas 71 bahoni oldi. Tez -tez takrorlanuvchi hodisa 3 bo'lgani uchun, moda endi 70-79 kategoriyaga o'tadi. Siz bu kategoriyaning markaziy tendentsiya yaxshi ifodalaydi deb hisoblaysizmi?

Muammo shundaki tipik xatti-harakatlarni tavsiflashda moda faqatgina bitta qiymatni, ya'ni eng ko'p takrorlanuvchi qiymatni oladi. U boshqa qiymatlarni e'tiborsiz qoldiradi. shuning uchun siz modadan foydalanayotganingizda joy tartibi va har bir songa tegishli bo'lgan ko'pgina ma'lumotlarni tashlab ketasiz.

Mediana – bu haqiqiy markaziy qiymat; undan Yuqorida va pastda teng miqdordagi qiymatlar joylashadi. Medianani hisoblash uchun hamma qiymatlarni tartib bilan qo'ying va undan so'ng, o'rta qiymatni aniqlang. Agar siz juft qiymatlarga ega bo'lsangiz, u holda mediana ikkita markazdagi qiymatlarning o'rtasidagi qiymat bo'ladi. Masalan, iqtisodchi talabalarning 10ta bahosini tartib bilan joylashtirib chiqamiz. Beshinchi baho – 62, oltinchisi esa – 63 ligini ko'ramiz, shuning uchun mediana 62,5ga teng bo'ladi. Talaba-psixologlar uchun mediana 56,5 ga teng bo'ladi. Medianani hisoblashda faqatgina tartibning o'zi aniqlovchi printsip bo'lgani uchun qiymatlar orasidagi o'lcham farqlarni namoyon qilmaydi. SHu bilan birga biz taqsimotdagi istalgan qiymatni, medianaga tegmagan holda, o'zgartirishimiz mumkin, qachonki ro'yxatda markaziy qiymatning joyi o'zgarmasa. Medianani tavsiflaganda ham biz ayrim ma'lumotlarni yo'qotayapmiz.

**O'rtacha** - bu o'rtacha chamalangan qiymat, ya'ni hamma individual qiymatlarning yig'indisini ushbu qiymatlar soniga bo'lingani qiymati. Masalan, iqtisodchi-talabalarning o'rtachasini topish uchun, biz 10 ta bahoni qo'shib chiqamiz, hosil bo'lgan 647 sonini 10 ga bo'lamiz. O'rtacha qiymat – 64,7 bo'ladi. Talaba-psixologlar uchun o'rtacha qiymat – 55,6. O'rtacha – taqsimotning markaziy og'irligidir. SHu bilan birga, qiymatning o'lchami o'rtachaga ta'sir ko'rsatgani sababli, har safar taqsimotdagi qiymatning o'zgarishi bilan o'rtacha ham o'zgaradi.

Qaysi xarakteristika markaziy tendentsiyani to'g'ri talqin qiladi? Boshqa shu kabi qiziqarli savollarga quyidagicha javob berish mumkin: “Hammasi vaziyatga bog'liq”. Birinchidan, ko'pgina hodisalar taqsimotning shakliga bog'liq. Agar siz o'rtacha(normal) taqsimotni yoki simmetrik unimodal taqsimotni olgan bo'lsangiz, uchchala xarakteristika ham bir xil sonni beradi.

Medianaga faqatgina o'ng tomondagi qiymatning kattaligi ta'sir ko'rsatayotgan bo'lsa, modaga oxirgi qiymatlar ta'sirini kuzatmaymiz. Siz qaysi xarakteristikadan foydalanishni lozim ko'rsangiz, avval yaxshilab mulohaza qilishingiz kerak bo'ladi. Agar siz katta guruhning grafik tarzidagi daromadlarini aniqlamoqchi bo'lsangiz, shunday taqsimotni Bu holatda optimal o'rtacha ko'rsatkich mediana bo'lishi mumkin, chunki katta daromad oluvchi ayrim odamlar unga o'rtachadan ko'ra ko'proq kam darajada ta'sir ko'rsatadilar. Siz balki o'rtachani o'zgartiruvchi bir qancha juda katta yoki juda kichkina qiymatlarni misol tariqasida keltirishingiz mumkin. Har gal qachonki siz qandaydir o'rtacha ko'rsatkichga xarakteristika tanlaganingizda, siz taqsimot shaklini o'rganishingiz, o'rtacha qiymat qanday maqsadda foydalanilishini aniqlashingiz va shundan so'nggina siz o'z mulohazangizdan foydalanishingiz lozim bo'ladi.

Markaziy tendentsiya xarakteristikasi sizga taqsimot haqida foydalarni ma'lum qiladi, lekin u faqatgina bitta aspektni tasvirlaydi. Taqsimotni tavsiflashga yordam beruvchi ikkinchi statistika bu tarqoq(despersion) statistika yoki sochma qiymat deyiladi.

Tarqoqning xarakteristikasidan yana biri bu masofa(razmax) bo'lib, uni hisoblashda katta qiymatdan kichik qiymatni ayiramiz. Bizning misolimizda talaba-iqtisodchilar uchun masofa quyidagiga teng bo'ladi:  $92-46=45$ ; talaba-psixologlar uchun:  $74-36=38$ . Masofa tarqoq haqida ma'lum bir tushunchalarni bersa-da u eng kam va eng ko'p qiymatlar orqali topilgani sababli, oradagi qiymatlarga mutlaqo dahldor bo'lmaydi. Bitta oxirgi qiymat masofani butunlay o'zgartirishi mumkin. SHu sababga ko'ra tarqoqning boshqa qaysidir xarakteristikasi foyda berishi mumkin.

Alternativ(bir-biriga zid bo'lgan 2 yo'l) sifatida biz har bir qiymatdan o'rtachani ayirishimiz mumkin, shunda bizda o'rtacha qiymatdan har bir qiymat farqni ko'rsatuvchisi paydo bo'ladi. O'rtacha farqni olish uchun, farqlar sonini qo'shamiz va tartibli joylashtirilgan farqlar soniga bo'lamiz. Biroq qo'shish mobaynida qisqarishlar Yuz berib, so'ngi natija nolga teng bo'lib qoladi. Biz farqli belgisini e'tiborsiz qoldirib, absolYut qiymatlarni qo'shish orqali o'rtacha farqni olishimiz mumkin. Ammo statistiklarning fikricha, har bir farqni kvadratga(plus va minus ishoralaridan ham qutilishga yordam beradi) oshirish orqali, kvadratlarning yig'indisi va farqlarning kvadrati bo'lish yanada aniqroq bo'lgan tarqoq ko'rsatkichini topish mumkin. Bu holatda biz dispersiya (variance) deb nomlanuvchi tarqoqning xarakteristikasini olamiz. YAnada muhim bo'lgan xarakteristika dispersiyali kvadrat ildiz – standart farqlar deb ataluvchi sonlar. A ilovasidan bu xarakteristikani hisoblaydigan formulalarni topish mumkin.

Balki standart farqlarning tuzilish darajasini kamchilik sifatida qarash sizga osonroq tuyilishi mumkin, qachonki siz o'rtachadan taqsimot qiymatning xarakteristikasi sifatida foydalansangiz. O'rtacha - har qanday individual qiymatlar uchun optimal baho; shu bilan birga standart farq siz qanchalik to'g'ri baho berganingizni ko'rsatadi. Agar hamma qiymatlar bir xil bo'lganda, standart farq nolga teng bo'lib, o'rtacha qandaydir nuqsonlardan xoli bo'lardi. Qachonki qiymatlar orasidagi farqlar oshsa, standart farqlar o'sadi, o'rtachaning qiymatini o'zgartirishingiz orqali xatolarga yo'l qo'yiladi.

## 19.2.O'zgaruvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni grafik taqdimoti

Psixologiyada ilmiy axborotlarni grafik taqdim etishning bir necha asosiy shakllaridan foydalaniladi: xarakteristikalariga tayanuvchi topologik va metrik. Topologik tavsiflashdan foydalanuvchi axborotlarni etkazib berish an'anaviy usullaridan biri - bu grafiklardir. Qirralari bilan (yo'naltirilgan yoki yo'naltirilmagan qismlari bilan) birlashtirilgan ko'p sonli nuqtalar «cho'qqilar» grafiklar hisoblanadi. Grafiklarni fazoviy yo'naltirilgan va yo'naltirilmagan, bog'langan va bog'lanmagan turlarga ajratiladi.

Psixologik tadqiqotlarda grafiklardan natijalarni tasvirlashda juda ko'p foydalaniladi. Ko'plab nazariy modellarni tadqiqotchilar grafiklar ko'rinishida berishadi. Masalan, D. Vekslerning ierarxik modeli yoki CH.Spirmenning intellekt modeli: ular dendritik, simmetrik bo'lmagan grafiklar shaklida berilgan. P.X. Anoxinning funktsional sistemasi sxemasi, V.D.Shadrikovning faoliyat psixologik funktsional sistemasi sxemasi, E.N. Sokolovning kontseptual reflektorli yoyi modeli - yo'naltirilgan grafiklarga misol bo'la oladi.

Natijalarni tariflashga o'tamiz, yo'naltirilgan grafiklardan ko'pincha bog'liq bo'lmagan, qo'shimcha va bog'liq bo'lgan o'zgaruvchilar o'rtasidagi sababiy bog'liqliklar sistemasini ta'riflashda foydalaniladi. Yo'naltirilmagan grafalar psixikaning o'rganish xususiyatlari o'rtasidagi korrektsion aloqalar sistemasini tasvirlash uchun qo'llaniladi. «Cho'qqilari» bilan xususiyatlari, «qirralari» bilan korrektsion bog'liqligi ifodalanadi. Bog'lanishlar xarakteristikasi odatda grafik qirralarini tasvirlash turli variantlari bilan kodlashtiriladi. Ijobiy aloqalari to'g'ri chiziqlar bilan (yoki qizil rang bilan), salbiy bog'liqliklari – punktir (yoki havo rang bilan) tasvirlanadi. Aloqaning kuchi va ahamiyati chiziqning qalinligi bilan kodlashtiriladi.

Eng muhim belgilari (boshqalari bilan eng ko'p bog'liqlikka ega bo'lgani) markazda joylashtiriladi. Kengroq ahamiyatga ega bo'lgan belgilari atrofga joylashtiriladi.

Korrektsion aloqalar sistemasidan tekislikda belgilari o'rtasidagi «masofalarni» aks ettirishga o'tiladi. Masofalar ma'lum formula bo'yicha hisoblanadi:

$$D=(1-r)|2$$

bu erda  $d$  –masofa,  $r$  - korrektsiya belgilari masofalar o'xshashligini, farqini aks ettiradi. Bu holatda topologik tasvirlashdan metrik tasvirlashga o'tamiz, chunki grafaning cho'qqilari o'rtasidagi masofa belgisini hisobga olgan holda korrektsiya kattaliklariga proporsional bo'ladi:  $r=1$  bo'lganida masofa maksimal bo'ladi,  $d = 1$ ,  $r=1$ ,bo'lganida masofa minimal:  $d=0$ .

Yo'naltirilgan va yo'naltirilmagan grafalar ko'pincha shaxsiy va ijtimoiy psixologik tadqiqotlar natijalarini tasvirlashda qo'llaniladi. Xususan, sotsiometrik tadqiqotlar: sotsiogramma bu yo'naltirilgan grafa. Har qanday grafik- sxema matritsaga o'xshash bo'ladi. Tushunib olish qulay bo'lishi uchun natijalarni tasvirlashda 10-11 cho'qqidan ko'p bo'lgan grafiklardan foydalanish tavsiya etiladi.

Grafiklar bilan bir qatorda psixologiyada fazoviy-grafik tasvirlash ham o'rnatiladi, unda elementlar o'rtasidagi munosabatlar va parametrlari tuzilishi hisobga olinadi (yoki metrik yoki topologik). Bunga D.Gilfordning «kub» nomi bilan ma'lum bo'lgan intellekt tuzilishini tasvirlash misol bo'ladi. Fazoviy tasvirlashni qo'llash boshqa bir varianti - V.Vunt bo'yicha emotsional holati, kengligi yoki bo'lmasa G.Ayzenk bo'yicha shaxs turini tasvirlashni misol sifatida keltirish mumkin.

Agarda belgilar maydonida metrika aniqlangan bo'lsa, unda ma'lumotlarni yanada aniqroq berishdan foydalaniladi. Chiziqda ko'rsatilgan nuqtaning joylashishi belgilar maydonidan uning haqiqiy koordinatalariga mos keladi. Shunday usul bilan ko'p shkalalar, faktorli analiz, patent tuzilishli analiz va klasterli analizning ba'zi variantlari beriladi. Har bir omil maydonda o'q chiziq bilan aks ettiriladi, biz o'rgangan o'tkazilish parametri esa - bu maydonda nuqta bilan ko'rsatiladi. Boshqa hollarda xususan differentsial psixologik tadqiqotlar natijalarini tasvirlashda nuqtalar bilan sinalayotganlar, o'q chiziqlari bilan esa asosiy omillari tasvirlanadi. Ma'lumotlarni dastlab berish uchun boshqa grafik shakllardan foydalaniladi: diagramma, gistogrammalar va taqsimlash poligonlari hamda turli grafiklarni qo'llash mumkin.

## **Diagramma. Korrelyatsiya koeffitsenti. Asosiy effektlar. O'zaro ta'sir. Statistik xulosalarni sriqarish metodlari.**

Ma'lumotlarni taqdim etishning boshlang'ich usuli taqsimlashni tasvirlash hisoblanadi. Tanlab olingan tekshirishlarda o'zgaruvchining o'rganish ko'rsatkichlarini tasvirlash uchun gistogramma va poligonlardan foydalaniladi. Tajriba va nazorat guruhlarida ko'rsatkichlarni taqsimlash ko'rgazmali bo'lishi uchun ularni bir rasmda tasvirlanadi.

**Gistogramma** - bu tekshiriluvchi belgilarini chastotali taqsimlanishi «ustunli» diagrammasidir. Gistogrammalarni qurishda abtsissalar o'qida o'rganiladigan kattalik ko'rsatkichi joylashtiriladi. Ordinatalar o'qida esa chastotalar yoki tekshirilayotgan tanlovda ushbu diapazon kattaliklarida uchraydigan nisbiy chastotalar joylashtiriladi. Agarda gistogrammada nisbiy chastotalar aks ettirilsa, unda hamma ustunlar maydoni 1 ga teng.

**Poligonda** belgilari berilgan kattalikka ega bo'lgan sinovda ishtirok etuvchilar sonini taqsimlashni nuqtalar va koordinatalar bilan belgilaydilar: X belgisining, Y aniq gradatsiya yoki nisbiy chastotalar( belgilari ana shu gradatsiyalarda odamlar sonining butun tanlab olingan ko'rinishi).

Nuqtalar to'g'ri chiziqlar bilan birlashtiriladi, taqsimlash poligoni yoki gistogrammani qurishdan oldin tadqiqotchi belgilar intervallar yoki nisbatlar shkalasida berilgan bo'lsa, o'rganilayotgan kattalik diapazonini teng qismlarga bo'lishi kerak. 5 tadan kam bo'lmagan, lekin 10 tadan ko'p bo'lmagan gradatsiyadan foydalanish tavsiya etiladi. Nominal yoki tartibli shkaladan foydalanishda bunday muammo Yuzaga kelmaydi. Agarda tadqiqotchi turli kattaliklar o'rtasidagi nisbatlarni yaqinroq ko'rsatishni xohlasa, masalan, turli sifatli xususiyatdagi sinovda ishtirok etuvchilar nisbatini (erkaklar va ayollar soni) unda diagrammadan foydalanish foydaliroq bo'ladi.

**Sektorli aylana diagrammada** har bir sektor kattaligi har bir turning uchrashi kattaligiga proporsionaldir. Aylana diagramma kattaligida tanlov nisbiy hajmi yoki belgining ahamiyati aks ettirilishi mumkin. Axborotlarni grafikdan analitikka o'tishini aks ettirish variantini berish navbatdagi belgilar funktsional bog'liqligini ko'rsatuvchi grafiklar hisoblanadi. Umuman aytganda, taqsimlash poligonlari - bu belgining uning kattaligida uchrashiga bog'liqdir.

Jadval(grafik) turlarini mazmuniga ko'ra 2 shartli tipga ajratamiz :

1. Vaqtga asosan parametr o'zgarishlariga bog'liqlikni ifodalovchi;
2. Bog'liq bo'lmagan va bog'liq bo'lgan navbatni ifodalash.

Idrok etilgan material va o'rganilgandan so'ng o'tgan vaqtga nisbatan idrok etish materiali hajmining o'rtasidagi aloqadorlikni birinchi bo'lib G.Ebbingauz aniqlab bergan. «O'rganish egri chizig'i», yoki «unutish egri chizig'i»ning ko'p sonli muqobilini vaqtga ko'ra faoliyat samaradorligidagi o'zgarishlar ko'rsatadi.

Funktsional bog'liqlik jadvali ham psixologiyada uchraydi: Fexner, Stivens qonunlari (psixofizikada). Yerks-Donson (psixologiyada motivatsiyalar), qonuniyatlar, o'z o'rnida (kognitiv psixologiya) elementni anglash va boshqalar.

Jadval tuzishda bir qator oddiy tavsiyalar ham mavjud. Jumladan, L.V.Kulikov boshlovchi tadqiqotchilarga quyidagi maslahatlarni beradi:

1. Matn va jadval o'zaro bir-birini to'ldirishi kerak.
2. Jadval tushunarli, «o'z -o'zidan tushunarli bo'lishi» va zarur belgilarni o'ziga kiritishi kerak.
3. Jadvalda to'rttadan ortiq egri ifoda bo'lishi mumkin emas.
4. Jadval chiziqlari eng muhim raqamlarni, ahamiyatli parametrlarni ifodalashi shart.
5. Pastda yoki chap tomonda jadval ifodasi yozilishi shart.
6. Nuqtalarni turli chiziqlarda aylana, kvadrat va uchburchak bilan ifodalash qabul qilingan.

Agar shu jadvalda uzunlikni ifodalash zarur bo'lsa, ularni vertikal qirqimlar ko'rinishida ifodalash lozim. Nuqta qirqim o'rtasida joylashtirilishi ( assimetriya ko'rsatkichiga muvofiq) bo'lishi shart. Jadval ko'rinishida tashxis jadvallari guruh yoki individ ko'rsatkichlarini

o'rtachasi tavsiflanishi mumkin. Ilmiy ishlar natijalarini taqdim etilishida eng muhimi kattalik raqamli ko'rsatkichining ifodalanishidir.

1. Markaziy tendentsiyalar ko'rsatkichlari (o'rtacha qiymat, moda, mediana).

2. Absolyut va nisbiy.

3. Ko'rsatkichlar (standart, og'ishganlik, dispersiya, protsentil).

4. Mezon ko'rsatkichlari, turli guruh natijalarining solishtirma ko'rsatkichlarida foydalanuvchi mezon belgilari.

5. Ko'rsatkich koeffitsientlari va boshqalar standart jadvalda natijalarni ifodalashda satrlar bo'yicha - ustunlar bo'yicha sinaluvchilar - o'lchangan parametrlar belgilari ifodalanadi.

Jadvalda shuningdek, matematik statistikaga asosan ishlab chiqilgan natijalar ifoda etiladi. Mavjud kompyuter ma'lumotlarini statistik ishlab chiqish paketlaridan istalgan standart shakldagi jadvallarni ilmiy nashrlar uchun taqdim etishda tanlab olish imkonini beradi.

Tajriba tadqiqotlarini yakunlash eng yaxshi usuli analitik tasvirlash mumkin bo'lgan bog'liq bo'lmagan va bog'liq bo'lgan o'zgaruvchilarni funktsional aloqalarini aniqlashdir. Empirik olingan bog'liqliklarga misol uchun G.Fexnerning yoki S.Stivensning psixofizik «qonuni» kiradi. U. Xik va R.Xaymet bu qonunlar bo'yicha reaksiya vaqti alternativ sonini tanlashga bog'liqligini aniqladi:

$$t = k \log (n+ 1) \quad \text{va} \quad t = a + b \log n$$

bu erda  $t$  - tanlovning funktsiya vaqti,  $n$  - stimullar soni,

$a$ ,  $b$  va  $k$  - kattaliklardir. Odatda birgina emas balki turli mualliflar o'tkazgan tadqiqotlar seriyasini yakuniy umumlashtirish zarur bo'ladi. Shuning uchun ular kamdan-kam hollarda alohida tajriba ishlari yakuni hisoblanadi, funktsional bog'liqlik aniq bir turi faraz sifatida ishtirok etadi, uni tanqidiy tajribada tekshirib ko'riladi.

**Korrelyatsion tatqiqot** nazariyasi korrelyatsion aloqa haqidagi tasavvurlarga asoslangan bo'lib, K.Pirson tomonidan ishlab chiqilgan va matematik-statistika fani darsliklarida kengroq berilgan. Bu erda esa korrelyatsion psixologik tatqiqotning faqatgina metodologik asoslarigina ko'rib chiqiladi.

Korrelyatsion tatqiqot o'tkazish strategiyasi kvazieksperiment o'tkazish strategiyasiga yaqin. Kvazieksperimentdan farqli jihati shundaki, korrelyatsion tatqiqotda ob'ektga nisbatan boshqaruvchi ta'sirning yo'qligi. Korrelyatsion tatqiqot rejasi murakkab emas. Tadqiqotchi individning bir necha psixologik xususiyat yoki ma'lum tashqi bosqichlar va psixologik holatlar o'rtasidagi statistic bog'liqliklar haqida o'z gipotezasini o'rtaga suradi. Bunda sababiy bog'liqlik taxmini muhokama qilinmaydi.

Korrelyatsion tadqiqot deb bir necha o'zgaruvchi o'rtasidagi statistik bog'lanishlarni tasdiqlash yoki inkor etish uchun o'tkaziladigan tadqiqotga aytiladi. Psixologiyada o'zgaruvchi sifatida psixologik xususiyatlar, jarayonlar, holatlar va boshqalar ko'riladi.

“Korrelyatsion” so'zi o'zbek tiliga “o'zaro munosabat” deb tarjima qilinadi. Agar bitta o'zgaruvchining o'zgarishi ikkinchisining ham o'zgarishiga olib kelsa, unda bu ko'rsatkichlarning korrelyatsiyasi deyiladi. Ikki o'zgaruvchilar o'rtasidagi korrelyatsiyasi ular orasida sabab-oqibat munosabatlari ham mavjud deyish imkonini bermaydi, shunchaki shunday gipoteza bilan chiqish imkonini beradi xolos. Korrelyatsiyaning yo'qligi esa o'zgaruvchilar orasida sabab-oqibat munosabatlari bor degan gipotezasini to'laligicha rad etish imkonini beradi. Ikki o'lchanayotganlar orasida korrelyatsiyaning mavjudligini aniqlashning bir necha yo'li bor:

1. To'g'ri korrelyatsion aloqa. Bitta o'zgaruvchining darajasi boshqasining darajasiga to'laligicha mos tushadi. Misol tariqasida Xikning qonunini keltirish mumkin: axborotni qayta ishlash tezligi alternativlar soni logarifmiga proporsional. Boshqa misol: ijtimoiy ustanovkalarni almashtirishga moyillik va Yuqori shaxsiy egiluvchanlik o'rtasidagi korrelyatsiya.

2. Uchinchi o'zgaruvchi bilan asoslangan korrelyatsiya. Ikki o'zgaruvchi ( $a, b$ ) bir-biri bilan tadqiqot jarayonida o'lchanmagan uchinchi o'zgaruvchi ( $v$ ) vositasida bog'langan. Tranzitivlik qoidasiga ko'ra, agar  $R(a, B)$  va  $R(b, c)$  bo'lsa unda  $R(a, c)$ . bunday korrelyatsiyaga AQSH

psixologlari tomonidan aniqlangan intellekt va daromad darajalari o'rtasidagi bog'liqlik misol bo'la oladi. Agar shunday tadqiqot hozirgi zamon Rossiyasida o'tkazilganda natijalar boshqacharoq ko'rinish kasb etardi. Bundan ko'rinadiki hamma gap jamiyatning tuzilishida. Sinaluvchilarning lug'at boyligi va ko'rsatilayotgan rasmlar tezligi ham korrelyatsiyalanmoqda. Bu korrelyatsiyani asoslayotgan yashirin o'zgaruvchi umumiy intellekt hisoblanadi.

3. Hech narsa bilan asoslanmagan tasodifiy korrelyatsiya.

4. Tanlanmaning turliligi bilan asoslangan korrelyatsiya. Tasavvur qiling, biz tatqiq qilishimiz kerak bo'lgan tanlanma ikki o'xshash guruhlardan iborat. Masalan, biz jinsning ekstrovertlikka bog'liqlik darajasini o'rganmoqchimiz. Ma'lumki, jinsni "o'lchash" qiyinchilik tug'dirmaydi, ekstrovertlikni esa Ayzenkning ETI-1 testi yordamida tekshiramiz. Bizda ikki guruh bor: matematik-erkaklar va jurnalist-ayollar. Agar biz ekstrovertlik darajasi va jins o'rtasida bog'liqlikni: ko'pchilik erkaklar – introvert, ayollar esa – ekstrovert; aniqlasak, bu ajablanarli hol bo'lmaydi.

Korrelyatsion aloqalarni o'ziga xosligiga qarab turlarga ajratadilar. Agar bir o'zgaruvchi darajasining oshishi ikkinchisining ham o'sishi bilan birgalikda kuzatilsa unda bu ijobiy korrelyatsiya. SHaxsiy bezovtalik qanchalik yuqori bo'lsa, oshqozon yarasi kasalligi bilan kasallanib qolish ehtimoli ham shunchalik yuqori. Tovushning balandlashishi uni toninig ham oshishiga olib keladi. Agar bitta o'zgaruvchining o'sishi ikkinchisining kamayishiga sabab bo'lsa u holda bu salbiy korrelyatsiya. Zayonts ma'lumotlariga qaraganda oilada bola sonining ortishi ularning intellekt darajasining pasayishiga olib kelar ekan. Mavjudot qanchalik qo'rqqoq bo'lsa, guruhda liderlikni egallashi ehtimoli ham shunchalik past bo'ladi.

Agar o'zgaruvchilar o'rtasida hech qanday aloqa bo'lmasa unda bu nulevoy korrelyatsiya bo'ladi. Psixologiyada bir tekis (ijobiy yoki salbiy) aloqalarga misollar yo'q. Ko'pchilik aloqalar – notekis. Notekis bog'liqlikning klassik misoli bu - Yerks-Dodson qonuni: yosh motivatsiyalari o'rgatish effektini oshiradi, keyin samaradorlikning tushishi kuzatiladi ("peremotivatsiya" effekti). Boshqa misol sifatida ma'lum narsaga erishish motivi hamda qiyinchiliklarni tanlash o'rtasidagi aloqani keltirish mumkin. Omadga motivatsiyalangan shaxslar o'rtacha qiyinchilikdagi vazifalarni afzal ko'radilar – qiyinchiliklar shkalasi bo'yicha tanlovlar chastotasi qo'ng'iroqcha sifat diagrammada beriladi.

Tekis korrelyatsiyalarning matematik nazariyasini Pirson yaratgan. Nazariyaning asosini o'zining matematik statistika fani darsliklarida bergan. Eslatib o'tamiz, Pirsonning tekis korrelyatsiya koeffitsienti  $r$  -1 dan +1 gacha oraliqda joylashadi. U quyidagi yo'l bilan hisoblab topiladi:

$$r = \frac{\sum(X-X_0)(Y-Y_0)}{\sqrt{\sum(X-X_0)^2 \sum(Y-Y_0)^2}}$$

Korrelyatsiya koeffitsientining ahamiyati qabul qilingan ahamiyati va tanlanmaning kattaligiga bog'liq. Korrelyatsiya koeffitsienti qanchalik katta bo'lsa o'zgaruvchilar orasidagi munosabat to'g'ri korrelyatsiyaga shunchalik yaqin bo'ladi.

Korrelyatsion tadqiqotlarni rejalashtirish.

Korrelyatsion tadqiqot rejasi kvaziekperimental rejalarning mustaqil o'zgaruvchining nomustaqil o'zgaruvchilarga ta'siri bo'lmagan vaqtdagi bir turi hisoblanadi. Boshqacha aytganda: tadqiq qilinayotgan guruhlarga o'zaro ekvivalent sharoitlarda bo'lishlari zarur. Korrelyatsion tadqiqot vaqtida barcha o'lchanayotgan o'zgaruvchilar – nomustaqil o'zgaruvchilar hisoblanadi. Bu bog'liqlikni aniqlovchi faktor o'zgaruvchilarning biri yoki o'lchanmagan, yashirin o'zgaruvchi bo'ladi.

Korrelyatsion tadqiqot R sinaluvchilar guruhida bir-biridan mustaqil tarzda olib boriladigan bir necha seriyalarga bo'linadi. Korrelyatsion tadqiqotning oddiy va qiyosiy turlari mavjud. Birinchi holatda sinaluvchilar guruhi bir xil. Ikkinchi holatda bir necha randolizatsiyalangan, ma'lum xususiyatlariga ko'ra bir-biriga farqlanadigan guruhlar bilan ishlaymiz. Umumiy holda yuqoridagidek tadqiqotlar quyidagi matritsa bilan belgilanadi:  $R \times O$  (sinaluvchilar  $x$  o'lchashlar). Uning natijasi korrelyatsiyalar matritsasi hisoblanadi. Natijalar qayta ishlanmasini faol matritsa

qatorlari yoki ustunlarini solishtirib olib borish mumkin. Qatorlarni o'zaro korrelyatsiyalab biz sinaluvchilarni o'zaro solishtiramiz; korrelyatsiya esa o'xshashlik koeffitsienti – insonlarning o'zaro farqlari deb taxlil qilinadi. Tabiiyki R – korrelyatsiyalarni ma'lumotlar Z yordamida bitta shkalaga keltirilgan bo'lsada aniqlash mumkin.

$$Z = \frac{X - \bar{X}}{\sigma}$$

Ustunlarni o'zaro korrelyatsiyalab biz, o'lchanayotgan o'zgaruvchilar orasidagi statistik aloqa mavjudligi haqidagi gipotezamizni tekshiramiz. Bu holatda ular o'lchami hech qanday ahamiyat kasb etmaydi.

Bunday tadqiqot strukturali deb nomlanadi, chunki oxirgi natijada biz o'lchangan o'zgaruvchilar matritsasi korrelyatsiyasiga ega bo'lamiz, bu esa o'z o'rnida ular orasidagi aloqa strukturasi aniqlab beradi.

Longityut tadqiqot rejasi o'zida ma'lum vaqt oralig'ida o'lchangan bir yoki bir necha o'zgaruvchilarning alohida seriyalarini mujassamlashtiradi. Longityut tadqiqot – korrelyatsion va kvaziekperimental tadqiqot orasidagi oraliq variant bo'lib, vaqt tadqiqotchi tomonidan nomustaqil o'zgaruvchilarning bog'ligini belgilovchi mustaqil ko'rsatkich sifatida taxlil qilinadi (masalan shaxsiy xususiyatlar).

Korrelyatsion tadqiqotning to'liq rejasi chegaralari “sinaluvchilar”, “operatsiya”, “vaqtincha bosqich” deb belgilanuvchi  $R \times O \times R$  paralipidlarini o'z ichiga oladi.

Tadqiqot natijalarini turlicha analiz qilish mumkin.  $R$  va  $O$  – korrelyatsiyalarni aniqlash bilan bir qatorda ikki xil korrelyatsiyani – ikki o'zgaruvchining uchinchi bilan aloqasini hisoblash yo'li bilan turli vaqt oralig'ida olingan  $R \times O$  matritsalarini qiyoslash imkoni ham paydo bo'ladi. Huddi shu holat  $R \times T$  va  $T \times O$  matritsalariga ham tegishli.

Lekin ko'pincha tadqiqotchilar boshqa turdagi hisob-kitobdan foydalanadilar, ular  $R \times T$  matritsasini analiz qilib, o'zgaruvchilarni vaqtda o'zgarish gipotezasini tekshiradilar.

Korrelyatsion tadqiqotning asosiy turlarini ko'rib chiqamiz.

**1. Ikki guruhning solishtirilishi.** Bu rejani faqat shartli ravishda korrelyatsion tadqiqotga kiritish mumkin. U ma'lum psixologik xususiyat yoki holatning namoyon bo'lishiga qarab ikki tabiiy yoki randolizatsiyalangan guruhlar orasidagi o'xshashlik yoki farqlarni aniqlash uchun qo'llanadi. Tassavur qiling, siz erkak va ayollar ekstrovertlik darajasiga ko'ra farqlanadimi yo'qmi shuni tekshirib ko'rmoqchisiz. Buning uchun siz ikki reprezentativ tanlanmani ekstrovertsiya va introvertsiyaga ta'sir etuvchi faktorlarni hisobga olgan holda tashkil qilishingiz kerak, keyin esa EPQ testi yordamida reprezentativlik darajasini aniqlaysiz. Ikki guruhning o'rtacha qiymatlari StYudentning t-kriteriyasi yordamida solishtiriladi. Zarur bo'lsa, natijalar dispersiyasi F kriteriy bo'yicha qiyoslanadi.

Ikki guruhning qiyoslanishi, korrelyatsion tadqiqot uchun xos bo'lgan, bir necha artefaktlarni o'z ichiga oladi. Birinchidan, guruhlarni rondonizatsiyasi muammosi (ular belgilangan mezon bo'yicha aniq bo'linishlari kerak) paydo bo'ladi. Ikkinchidan, real o'lchashlar bir vaqtda emas balki turli vaqtlarda sodir bo'ladi:  $R' \neq 0$ ,  $R'' \neq 0$ . Uchinchidan, guruh ichidagi so'rov bir vaqtda olib borilsa yaxshi. Agar turli sinaluvchilar turli vaqtlarda so'rov qilinsa, unda o'zgaruvchilarga vaqtning ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Jinsni maxsus xatti- harakatlarsiz (shu jumladan xirurgik yo'l bilan ham) o'zgartirib bo'lmaydi, lekin osongina boshqa guruh yoki sinfga ko'chish mumkin. Agar tadqiqotchi ikki o'quv guruhini o'qishdagi Yutuqlariga ko'ra tatqiq qilishni rejalashtirsa, unda guruhlarni tadqiqot jarayonida aralashib ketmasligiga alohida ahamiyat berishi lozim bo'ladi. Boshqa guruhlardagi turli vaqtlardagi o'lchashlar muammosini ikkita nazorat guruhini kiritib hal qilish mumkin, lekin u holda ularni boshqa vaqtda so'rov qilishga to'g'ri keladi. Ilk guruhlarni yarmidan bo'lib, so'rovni quyidagi reja asosida o'tkazgan qulayroq:

$$R - O, -$$

$$R'' - O,$$

$$R' O, -$$

$$R'' - O,$$

Tartiblilik effektini ikki faktorli  $2 \times 2$  analiz yordamida aniqlash mumkin. Tabiiy (randomizatsiyalanmagan) guruhlarni qiyoslash ham huddi shu reja bo'yicha ketadi.

**2. Bitta guruhni bir vaqtning o'zida turli sharoitlarda tadqiq qilish.** Bu tadqiqotning rejasi Yuqoridagi tadqiqot rejasiga yaqin. Lekin, mazmuni jihatidan u eksperimentga yaqin chunki guruh tushib qolgan vaziyatlar farqlanadi. Korrelyatsion tadqiqot holatida biz mustaqil o'zgaruvchi darajasini boshqarmaymiz, shunchaki individning turli sharoitlardagi hulqini izohlaymiz xalos. Bolalarning bog'chadan 1-sinfga o'tish vaqtida xavotir darajasining ortishi (guruh o'sha-o'sha sharoit esa boshqacha) ni misol qilishimiz mumkin. Bu rejaning bosh artefaktlari – tartiblilik effekti va so'rovning akumulatsiyasi. Bundan tashqari natijalarga vaqt faktori (tabiiy rivojlanish effekti) ham ta'sir etishi mumkin. Bu rejaning sxemasi juda oddiy: AO, BOd, bu erda A va B turli sharoitlar. Sinaluvchilar tasodifiy tarzda tanlanishi yoki tabiiy guruhni tadqiqot uchun olish ham mumkin. Natijalar taxlili A va B sharoitlardagi so'rovlar o'rtasidagi o'xshashlikka olib kelinadi.

**3. Bir-biriga ekvivalent bo'lgan juft guruhlardagi tadqiqotlar korrelyatsiyasi.** Bu reja egizaklarni ichki juftlik metodi bilan tadqiq qilish uchun ishlatiladi. Dizigota va monozigota egizaklar ikki guruhga bo'linadi, har bir guruhda egizaklarning bittasi bo'ladi. Ikkala guruh egizaklarida tadqiqotchini qiziqtirayotgan psixologik xususiyat tekshiriladi. Keyin egizaklar (R-korrelyatsiya) va xususiyatlar (O-korrelyatsiya) orasidagi korrelyatsiya tekshiriladi. Shuningdek egizaklarni tadqiq qilishning yana ko'pgina murakkab psixogenetik turlari mavjud.

**4. Bir necha xulqni xarakterlaydigan o'zgaruvchilarning statistik aloqasi haqidagi gipotezani tekshirish uchun strukturali korrelyatsion tadqiqot o'tkaziladi.** U quyidagi dastur bo'yicha realizatsiya qilinadi. Bizni aynan qiziqtirayotgan yoki umumiy populyatsiya vakillaridan guruh tuziladi. Ishonchlilik va ichki validlilik darajasi Yuqori bo'lgan testlar tanlanadi. Keyin guruh belgilangan dasturga ko'ra testdan o'tadi:

$R A(0,) B(0,) C(0,) D(0,) \dots N(0,,)$

Bu erda A, B, C, ..., N – testlar, T> - testdan o'tkazish operatsiyasi.

Tadqiqot natijalari  $t_{x n}$ , bu erda  $t$  – sinaluvchilar soni,  $n$  – testlar. “xom” ma'lumotlar matritsasi qayta ishlanadi, tekis korrelyatsiya koeffitsienti hisoblanadi.  $t_{x n}$ , matritsasi hosil bo'ladi, bu erda  $n$  – testlar soni. Matritsa katakchalarida – korrelyatsiya koeffitsienti, uning diagonal bo'ylab – birliklar (testning o'zi bilan korrelyatsiyasi). Matritsa shu diagonalga nisbatan simmetrik. Korrelyatsiyalar statistik farqlarga quyidagicha ajratiladi: avval  $r$  Z-baholarga aylantiriladi, keyin  $r$  ni qiyoslash uchun StYudentning  $t$ -mezonidan foydalaniladi. Korrelyatsiyaning ahamiyati jadvalning ahamiyati bilan solishtirilib baholanadi. Qiyoslashda aniqlik kiritilgan vaqtdagi korrelyatsiyaning tasodifiy korrelyatsiyadan farqliligi haqidagi gipoteza qabul qilinadi ( $\alpha=0.05$  yoki  $\alpha=0.001$ ). Ba'zi hollarda ko'pgina korrelyatsiyalarni, jumladan xususiy korrelyatsiyalarni aniqlash ehtiyoji paydo bo'ladi.

O'lchangan parametrlar sonini kamaytirish uchun latent analizning turli usullaridan foydalaniladi. Ularning psixologik tadqiqotlarda qo'llanilishiga ko'pgina ilmiy ishlar bag'ishlangan. Ko'p o'lchamli psixologik testdan o'tkazishda Yuzaga keladigan asosiy artefakt, bu real tabiiy vaqtdir. Korrelyatsion tadqiqot natijalarini taxlil qilishda biz o'lchovlarni o'tkazilish vaqti turlicha ekanligidan chalg'iyimiz. Bundan tashqari, avvalgi o'lcham keyingisiga ta'sir etmaydi deb hisoblanadi.

Bu rejani qo'llash vaqtida Yuzaga keladigan asosiy artefaktlarni sanab o'tamiz:

1. davomiylik effekti – avvalgi testni bajarish jarayoni keyingisini bajarilishiga ham ta'sir etadi (simmetrik yoki assimmetrik).
2. o'rgatish effekti – turli test sinovi seriyalarini bajargandan so'ng sinaluvchida o'ziga xos malaka hosil bo'lishi mumkin.
3. fonning va tabiiy rivojlanishning ta'siri effekti sinaluvchining tadqiqot jarayonida boshqarib bo'lmaydigan dinamikasiga olib keladi.
4. guruh tarkibi va test jarayonining o'zaro ta'siri bir xil bo'lmagan guruhlarda ko'zga tashlanadi: introvertlar ekstrovertlarga nisbatan imtixonni yomonroq topshiradilar, “behalovat” kishilar tezlik testlarida yomon natija ko'rsatadilar;



Davomiylik va ko'chuvchanlik effektini oldini olish uchun eksperimentni rejalashtirishda ishlatiladigan metod – kontrbalansirovkadan foydalanish tavsiya etiladi. Faqat ta'sir o'rniga testlarni o'tkazish ketma-ketligi o'zgartiriladi.

Uchta test uchun kontrbalansirovkali korrelyatsiya quyidagicha ko'rinadi:

1-guruh: A B C

2-guruh: C A B

3-guruh: B C A

Bu erda A, B, C – turli testlar. Biroq men korrelyatsion tadqiqot davomida davomiylik effekti nazorat qilib borilgan birorta eksperimentni bilmayman.

Bitta misol keltiraman: biz bir-birini almashtiruvchi vazifalar to'plamini echishga vazifa turining qanday ta'sir qilishini aniqlashimiz lozim edi. Biz sinaluvchiga testlar unga qay tartibda berilayotgani befarq emas degan qarorga keldik. Kreativlikka (Torrens testi) va umumiy intellektga (Ayzenk testi) bog'liq vazifalar tanlandi. Vazifalar sinaluvchiga tasodifiy tartibda berilar edi. Ma'lum bo'lishicha avvalroq echilgan kreativlik testini natijalari umumiy intellekt testini echish tezligi va aniqligini sekinlashtirar ekan. Teskarisida esa ta'sir sezilmasdi. Bu holatni muhokama qilmasdan (chunki bu murakkab ish) biz assimetrik davomiylik effekti bilan to'qnash keldik degan qarorni qabul qildik.

**5. Strukturali korrelyatsion tadqiqot.** Bu sxemaning yuqoridagilaridan farqi shundaki u o'zgaruvchilar orasida korrelyatsion aloqaning mavjud yoki mavjud emasligini emas balki turli guruh vakillarida o'lchangan bir xil ko'rsatkichlar orasidagi korrelyatsion bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan.

Bu holatni misol bilan tushuntiramiz. Tasavvur qiling farzand va ota yoki onaning jinsi ma'lum shaxs xususiyatlari (masalan Ayzenk bo'yicha neyrotizm) orasida bog'liqlik bormi, yo'qmi shuni aniqlash lozim. Buning uchun biz real guruhlar – oilalarda tadqiqot olib borishimiz kerak bo'ladi. Keyin ota yoki ona va farzandning xavotirlilik darajasining korrelyatsion koeffitsienti aniqlanadi. To'rtta asosiy: 1) ona – qiz; 2) ona – o'g'il; 3) ota – qiz; 4) ota – o'g'il va ikkita qo'shimcha korrelyatsiya koeffitsienti kelib chiqadi: 1) qiz – o'g'il; va 2) ota – ona. Agar bizni faqatgina o'xshashliklar qiziqтира, unda biz 4 katakchalik 2x2 matritsani quramiz:

Z - o'zgaruvchi korrelyatsiyalanadi va StYudentning t-kriteriysi bo'yicha qiyoslanadi.

Bu erda strukturali korrelyatsion tadqiqotga eng oddiy misol keltirilgan. Tadqiqotchilik amaliyotida yanada murakkabroq strukturali korrelyatsion tadqiqotlar uchrab turadi. Hammadan ham ko'proq bunday tadqiqotlar individuallik psixologiyasi (B.G.Anan'ev va uning maktabi), mehnat va ta'lim psixologiyasi (V.D.Shadrikov), individual farqlarning psixofiziologiyasi (B.M.Teplov, V.D.Nebilitsin, V.M.Rusalov va boshqalar) va psixosemantika (V.F.Petrenko, A.G.Shmelev va boshqalar) sohalarida ko'p qo'llaniladi.

**6. Longityud korrelyatsion tadqiqot.** Longityud tadqiqot – kvaziekperimental tadqiqotlar rejaları varianti. Longityud tadqiqotni o'tkazuvchi psixolog tadqiqotga ta'sir etuvchi o'zgaruvchi sifatida vaqtni hisoblaydi. U bir guruhni turli sharoitlarda testdan o'tkazish rejasining o'xshashi hisoblanadi. Faqat sharoitlar o'zgarmas hisoblanadi. Har qanday vaqtincha tadqiqotning natijasi (shuningdek Longityud tadqiqotning ham) o'lchangan o'zgaruvchilarning vaqtli tendri hisoblanadi.

Longityud korrelyatsion tadqiqot guruhni ma'lum vaqtdan so'ng testdan o'tkazish seriyalariga bo'linish rejasida o'tkaziladi. O'rganish va davomiylik effektlari bilan bir qatorda Longityud korrelyatsion tadqiqotda "chiqib ketish" effektini ham hisobga olish darkor, chunki tadqiqotning birinchi bosqichida qatnashgan hamma sinaluvchilarni ham ikkinchi bosqichda ya'ni ma'lum vaqtdan so'ng yana qayta testdan o'tkazib bo'lmaydi. "Chiqib ketish" va o'rganish effektlari o'rtasida o'zaro ta'sir ham bo'lishi mumkin (tadqiqotlarning qolgan qismida qatnashishdan voz kechish) va hakazo.

Strukturali longityud tadqiqot oddiy longityud tadqiqotdan bizni nafaqat o'zgaruvchilarning markaziy tendentsiyasining o'zgarishi balki o'zgaruvchilar orasidagi munosabatlarning ham o'zgarishi qiziqtirishi bilan farq qiladi. Bu turdagi tadqiqotlar psixogenetikada keng tarqalgan.

**Korrelyatsion tadqiqot natijalarini qayta ishlash.**

Korrelyatsion tadqiqot natijalari bu – “sinaluvchi” x “testlar” ko’rinishidagi bir yoki bir necha matritsalaridir. Qayta ishlashning dastlabki bosqichi – ikki yoki undan ortiq o’zgaruvchilar orasidagi korrelyatsiya koeffitsientini hisoblab topish. Aloqa chegarasini aniqlash o’lchov o’tkazilgan shkala bilan belgilanadi.

1. Agar o’lchashlar dixotomik shkala bo’yicha o’tkazilgan bo’lsa, unda aloqa belgilarini hisoblash uchun koeffitsient ishlatiladi. Dixotomik shkalani ko’pincha nominal shkala bilan adashtiradilar (Dj.Glase va Dj.Stenlilarning “Pedagogika va psixologiyada statistic metodlar” 1976 ni qarang). Dixotomik shkala – intervallar shkalasining varianti; biroq u uchun intervallar shkalasining barcha statistic amallari ham mos tushmaydi. Koeffitsientni aniqlash uchun ma`lumotlar hamrohlik jadvalida berilgan:

Y belgi	X belgi		
	1	0	a+b
1 a			c+d
0 c	b		n
a+c		d	
		d+d	

$$\phi = \frac{bc - ad}{\sqrt{(a+c)(b+d)(c+d)}}$$

2. Ma`lumotlar tartib shkalasida berilgan. Tartib shkalasiga mos tushuvchi o’lchov chegarasi bu Kendell koeffitsienti hisoblanadi. U X va Y larnig borish tartibidagi tasodiy emas hodisalarning hisob-kitobiga asoslanadi. Bizda bir qator sinaluvchilar bor: avval biz bu qatorni tana massasining kamayishi bo’yicha tartiblab chiqamiz, keyin bo’ynig pasayish tartibi bo’yicha joylashtiramiz. Har bir juftlik uchun tasodiflar va interversiyalar soni hisoblanadi: agar ular tartibi X va Y tartibi bilan ayniy bo’lsa tasodif, aksi bo’lsa interversiya. “Interversiya” va “tasodif” lar orasidagi farq  $n(1)/2$  ga bo’linsa koeffitsient kelib chiqadi. Hisob-kitob algoritmi statistika bo’yicha adabiyotlarda (Dj.Glase va Dj.Stenlilarga qarang) va shaxsiy kompYuterlar uchun stat paketlarda keltirilgan. Ba`zi hollarda tartib shkalasi yordamida olingan natijalarni qayta ishlashda Spirmenning, Pirson koeffitsientining tabiiy sonlar qatori uchun modifikatsiya qilingan korrelyatsiya koeffitsientidan foydalaniladi. Lekin bu koeffitsienti birinchi o’lchash tartib ikkinchisi interval shkalasida amalga oshirilgan hollarda ishlatish tavsiya etiladi.

3. Ma`lumotlar interval yoki teng munosabatlar shkalasi yordamida olingan. Bu holda standart hisoblangan Pirsonning korrelyatsiya koeffitsienti yoki Spirmen koeffitsientidan foydalaniladi. Bu holda bitta o’zgaruvchi – dixotomik, ikkinchisi esa – intervalli bo’lganligi uchun maxsus biserial korrelyatsiya koeffitsientidan foydalaniladi. Nihoyat agar tadqiqotchi o’zgaruvchilar orasidagi aloqa notekis degan xulosaga kelsa, u holda ikki o’zgaruvchining notekis statistik bog’liqlik darajasini o’lchovchi korrelyatsion munosabat hisoblanadi.

#### **Nazorat uchun savollari**

1. Gistogramma deb nimaga aytiladi?
2. Sektorli aylanadan qachon foydalanish mumkin?
3. Korrelyatsiya koeffitsienti deb nimaga aytiladi?
4. Interpretatsiya deb nimaga aytiladi?
5. Ch. Spirmenning intellekt modeli qanday shaklda berilgan?
6. Jadval (grafik) turlarini mazmuniga ko’ra nechta shartli tipga ajratamiz?

## GLOSSARIY

«**Psixodiagnostika**» atamasi **psixologik tashxis qo'yish** degan ma'noni anglatib, shaxsning ruhiy holatiga oid to'liq biror-bir alohida xususiyati haqida xulosa chiqarishdir, bunda «tashxis» shaxsning taraqqiyot ko'rsatkichi va tavsifnomalarini birgalikda tahlil qilish asosida sinaluvchining holat va xususiyatlari haqidagi xulosalardan iboratdir.

**Psixologik diagnozning 3 bosqichi** farqlanadi:

**1) Simptomatik diagnozda** mavjud har qanday EHM bajarishi mumkin bo'lgan tadqiqotda olingan natijalar qayta ishlanadi.

**2) Etiologik diagnozda** (kelib chiqish sabablari) biror xususiyatning mavjudligigina emas, balki uning vujudga kelish sabablari ham hisobga olinadi.

**3) Tipologik diagnozda** sinaluvchi shaxs tuzilishida olingan natijalarning ahamiyati va o'rni aniqlanadi.

**Test** – shaxsning aqliy taraqqiyoti, qobiliyati, irodaviy sifatleri va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo'llaniladigan qisqa standart masalalar.

**Testlashtirish** – psixodiagnostika metodlaridan biri bo'lib, standartlashtirilgan savol va topshiriqlar yordamida individual farqlarni o'rganish, alohida shkalalar bilan o'lchash.

**Etuklik testlari** psixodiagnostika metodlaridan biri bo'lib, konkret bilim, malaka va ko'nikmalarining o'zlashtirish darajasini aniqlab beradi. Etuklik testi uchga bo'linadi: harakat testlari, og'zaki va yozma testlar. Harakat testlari mexanizmlar, materiallar, asboblilar bilan ishlash layoqatini aniqlab beradi.

**Intellektual testlar** – psixodiagnostika metodlaridan biri bo'lib, individning aqliy taraqqiyoti darajasini aniqlab beradi.

**Proektiv test** motivatsiyaning anglanilmagan to'liq anglanilmagan shakllarini o'rganishga qaratilgan va bu jihati bilan inson psixikasining tobora intim sohasiga kirishning yagona psixologik metodidir.

«Proektiv» atamasi ilk bor **Lourens Fenk** tomonidan 1939 yili qo'llangan. Shuningdek, u shaxsni tadqiq etishning proektiv metodlari tasnifini ham keltiradi:

1. Strukturalash metodlari (Rorshaxning siyoh dog'leri testi, bulutlar testi, uch o'lchamli proeksiya testi).
2. Konstruktsiyalash metodikalari (MAR, olam testi).
3. Sharhlash metodikalari (SATO, TAT, Rene Jil' testi).
4. To'ldirish metodikalari (tugallanmagan gaplar, hikoyalar, One assotsiativ testi).
5. Katapsis metodikalari (psixogramma, proektiv o'yin).
6. Ekspressiyani o'rganish metodikalari (dastxat, muloqot tahlili).
7. Ijod mahsulini o'rganish metodikalari (rasimli testlar, yozma ishlar va hokazo).

**Psixodiagnostikaning sir saqlash tamoyili** – sinaluvchining ruxsatisiz olingan natijalarni e'lon qilmaslik, bu birinchi navbatda balog'at yoshiga etgan odamlarga taalluqlidir. Agar sinaluvchilar balog'at yoshiga etmaganlar bo'lsa hamda psixodiagnostik natijalarni e'lon qilish uchun otanonalar bolalar uchun ma'naviy va huquqiy mas'ul bo'lgan shaxslarning ruxsati bo'lishi shart.

Psixodiagnostik metodikalarning **ilmiy asoslanganlik tamoyilida** metodikaga validlik, ishonchlilik talabi qo'yiladi, ya'ni olingan natijalarga to'liq ishonch imkonini bersin.

**Ziyon etkazmaslik tamoyili** psixologik tashxis natijalaridan hech qachon tadqiqotda qatnashgan odamlarga nisbatan zarar etkazish maqsadida foydalanmaslikni bildiradi.

**Xulosalarning ob'ektivlik tamoyili** test o'tkazayotgan odamning sub'ektiv ustanovkalarga tobe bo'lmasligi, test olingan natijalaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan bo'lib, validli va ishonchli metodika yordamida o'tkazilgan bo'lishi shart.

**Taklif qilinayotgan tavsiyalarning samaradorlik tamoyilida** tavsiyalar albatta taklif qilinayotgan odamga yordam berishi shart. Test natijalari asosida taklif qilinayotgan tavsiyalar befoyda tasodifiy holatlarni keltirib chiqarmasligi kerak.

**Intellektual testlar** shaxsning aqliy faoliyati rivojlanganlik darajasi va ularni alohida bilish jarayonlarini (idrok, diqqat, xayol, xotira, nutq) baholashda qo'llaniladi.

**Shaxs testlari** insonning barqaror individual xususiyatlari, xatti-harakatlarini aniqlash, bunga: temperament, xarakter, motivatsiya, emotsiya va qobiliyatlarni aniqlovchi testlar kiradi. Bundan tashqari shaxsda har tomonlama, shaxs holatini kompleks baholash alohida xususiyatining rivojlanganlik darajasini baholash testlari ham mavjuddir. Bunga Kettell, MMPI testlari va boshqa testlar kiradi.

**Xususiy testlar** yordamida shaxsning alohida belgilari, motivlar, emotsiyalar, masalan xarakter aktsentuatsiyasi, xavotirlik, lokus nazorati, yutuqqa erishish motivi, tajovuzkorlik va boshqalar aniqlanadi.

**Shaxslararo testlar** har xil ijtimoiy guruhlarda odamlarning munosabati sifatida ijtimoiy-psixologik o'z-o'zini attestatsiya qilish testi.

**Amaliy testlar** o'ziga topshiriq va shakllarni qamrab oladi, bunda sinaluvchi aniq predmet materiallari ularni almashtiruvchi materiallar bilan ko'rgazmali-harakatli reja asosida amaliy ish bajaradi.

**Obrazli testlar** obrazlar, surat, rasm, sxema va tasavvurlar bilan mashqlarni o'z ichiga oladi.

**Verbal testlar** so'zli topshiriqlardan iborat bo'lib tushunchalarni aniqlash, xulosa chiqarish, har xil so'zlarning ma'nosini anglash va taqqoslash hamda bu so'zlar bilan har xil mantiqiy operatsiyalarni bajarishni o'z ichiga oladi.

**Blankali testlarda** test materiallari sifatida har xil shakldagi blankalardan foydalaniladi, masalan, rasmlar, sxemalar, jadvallar va savolnomalar.

**Apparaturali testlar** – bu shunday testlarki, unda test natijalarini qayta ishlash va ko'rsatish uchun har xil turdagi apparaturalar qo'llaniladi, masalan, audio va videotexnika, elektron hisoblash mashinalari.

**Protsessual testlar** yordamida qandaydir psixologik xulqiy jarayon o'rganiladi va unga aniq miqdoriy va sifatiy tahlil beriladi, masalan, materiallarni esda olib qolish jarayoni, individlarning guruhda shaxslararo hamkorlik jarayoniga tahlilini misol sifatida keltirish mumkin.

**Yutuqqa erishish testlari** kishining muayyan bir faoliyatda, bilish sohasining qandaydir bir turidagi Yutug'ini baholashda qo'llaniladi, masalan, tafakkurning mantiqiyliigi, diqqatning barqarorligi, verbal tafakkurning rivojlanganlik darajasi.

**Holatlar va xususiyatlar testlari** shaxs psixologik sifatlarining barqarorligini diagnostika qilish bilan bog'liqdir, masalan, shaxs xislatlari, temperament xususiyati, qobiliyatlari va boshqalar.

**Proektiv testlar** maxsus guruhga ajratiladi. Proektiv test kishining u bu psixologik sifatini to'g'ridan-to'g'ri emas, balki bivosita baholaydi. Bunday baholash kishining ko'p ma'noli ob'ektlarni qanday qabul qilishi va talqin qilishining analizi natijasida olinadi. Bunga: surat syujetining noaniqligi, shaklsiz dog'lar, tugallanmagan jumlar va boshqalar kiradi. Bunday ob'ektlarni tahlil qilish va baholashda kishi ongsiz ravishda o'z-o'zining «proektsiyasini» ko'rsatib beradi.

Bu guruh testlarga Rorshax testi, Tematik Appertseptiv Test (TAT) va boshqalar kiradi.

**Test me'yorlari** – bu kishilar taraqqiyotining o'rtacha ko'rsatkichi. Har qanday me'yor, o'lchov ham vaqti bilan o'zgarib turadi, chunki ishlar davomida kishilarning ham psixologik taraqqiyotida o'zgarishlar bo'ladi, masalan, XX asrning birinchi choragida kishilarning intellektual taraqqiyotiga qo'yilgan me'yorlar, shu asrning oxirgi choragida qo'yilgan me'yorlarga to'g'ri kelmaydi, chunki ushbu yillar mobaynida kishilarning aqliy taraqqiyot ko'rsatkichlari ancha Yuqorilagan.

Bundan tashqari, empirik qoidalar mavjud, unga ko'ra kamida har besh yilda test me'yorlari qayta ko'rib chiqilishi shart, asosan bu intellektual testlarga taalluqlidir.

**Validlik** atamasi Evropa tillaridan olingan bo'lib, u quyidagi ma'noni anglatadi: to'laqonli, yaroqli, mos. **Psixodiagnostik metodikaning validlik** sifatidagi tavsifi uning aynan o'rganilayotgan psixologik xususiyatga mo'ljallanganligi va ushbu psixologik xususiyatni baholashga mosligi hamda yaroqliligini ko'rsatib beradi.

**Metodikaning validlik tavsifi** ushbu metodika orqali haqiqatdan ham psixologik sifatni o'lchash mumkin, degan xulosadan tashqari uning qo'llash mumkin bo'lgan sohani va uning sharoitlari haqidagi ma'lumotlarni ham o'ziga qamrab oladi.

Psixodiagnostik metodikaning validligi haqida mulohaza qilar ekanmiz, validlikning bir necha turi bor va ularning har birini alohida ko'rib chiqish hamda baholash zarurdir. Validlik – nazariy, amaliy, empirik, ichki va tashqi bo'lishi mumkin.

**Nazariy validlik** – qo'llanilgan metodika yordamida olingan ko'rsatkichlarni boshqa metodik vositalardan olingan ko'rsatkichlar bilan, ya'ni ko'rsatkichlar orasida nazariy asoslangan bog'liqlik borligi va tadqiqot qilinyotgan sifat ko'rsatkichlari mosligi bilan aniqlanadi.

**Empirik validlik** – sinaluvchining reaksiyasi va xatti-harakatini kuzatish orqali, uning haqqoniy xulqidagi diagnostik ko'rsatkichlarning bir-biriga mosligi bilan tekshiriladi. Agar sinaluvchining xarakterini qo'llanilgan metodika yordamida baholasak, ushbu odamning hayotdagi xarakter ko'rinishining qo'llanilgan metodikadan olingan ko'rsatkichlar bilan bir xilligini aniqlasak, u holda metodikani empirik va amaliy validli deb hisoblasak bo'ladi.

Empirik validlik mezonlari bo'yicha metodika odamlarning amaliy faoliyat natijalari hamda haqqoniy hayotiy huquqlarining ko'rsatkichlarini taqqoslash bilan tekshiriladi.

**Ichki validlik** – metodikadagi topshiriqlar, subtestlar, mulohazalarning umumiy maqsadga mosligini anglatadi. Metodikadagi subtestlar, topshiriqlar va undagi savollar qisman butunlay biz o'rganayotgan xususiyatni o'lchay olmasa, u holda ushbu metodika ichki validli emas ichki validlik etarli darajada emas, deb hisoblanadi.

**Tashqi validlik** – ham xuddi empirik validlikka o'xshash, undan farqli tomoni shundaki, sinaluvchining xulqiga taalluqli asosiy tashqi ko'rinishlarning ko'rsatkichlari bilan metodikadagi ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligiga e'tibor qaratiladi.

**Metodikaning ishonchliligi** – metodika yordamida barqaror, qat'iy ko'rsatkichlarni olish imkoniyatlari bilan tavsiflanadi.

**Metodikaning aniqligi** – psixodiagnostik tadqiqot paytida biror-bir xususiyatni baholashda ozgina o'zgartirishga ham javob qaytarish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Metodikaning aniqligini texnik o'lchov asbob-uskunalarning aniqligi bilan izohlash mumkin. Masalan: santimetrda bo'lingan metrdan ko'ra, millimetrga bo'lingan chizg'ich bilan aniqroq o'lchash mumkin.

**Diqqat** – ongning muayyan ob'yektga yo'naltirilishi va to'planishi.

**Assosiasiya** – ongimizdagi avvalgi turmush tajribalari bilan belgilanadigan tasavvurlar bog'lanishi.

**Xotira** – o'tmish tajribannig esda olib qolinishi, saqlanishi va qayta esga tushirilishidan iborat psixik jarayon.

**Idrok** – predmet va hodisalarni yaxlit bir butun holda aks ettirish.

**Konstantlik** – predmetlarning fazodagi vaziyati o'zgargani holda idrok obrazlarining o'zgarmay qolishi.

**Ilyuziya** – fazodagi ob'yektlarni noto'g'ri idrok qilish.

**Adaptatsiya** – qo'zg'atuvchining davomli ta'siriga analizatorning moslashishi.

**Idrokning yaxlitligi** – idrok obrazlarining bir butun holda aks ettirilishi.

**Predmetlilik** – tashqi olamdagi ob'yektlarni uni o'ziga tenglashtirish.

**Psixofizika** – psixologiya va fizika oralig'ida tashkil topgan umumiy psixolgiyaning klassik bo'limlaridan biri.

**Psixofizik muammo** – psixikaning tabiatdagi o'rnini aniqlash.

**Psixofizik qonun** – sezgirlik kuchining qo'zg'atuvchining kuchiga bog'liqligi.

**AbsolYut chegara** – qo'zg'atuvchining sezgi hosil qiladigan eng Yuqori va eng kichik kuchi.

**Farq qilish chegarasi** – ikkita qo'zg'atuvchi kuchi o'rtasidagi minimal farq.

**Minimal o'zgaruvchilar metodi** – farq qilish yoki absolYut chegarani o'rganish metodi.

**Tafakkur** – voqelikdagi predmet va hodisalarni aniq, to'liq, umumlashtirib vositali yo'l bilan aks ettirish usuli.

**Nutq** – kishilar o'rtasidagi aloqa jarayonida tildan foydalanish.

**Analiz** – bir butun predmet va hodisalarni tarkibiy qismlarga bo'lish.

**Sintez** – alohida tarkibiy qismlarni bir butun qilib birlashtirish.

**Umumlashtirish** – predmet va hodisalarni biror xususiyatiga ko'ra bita tushunchaga birlashtirish.

**Taqqoslash** – predmet va hodisalar o'rtasidagi o'xshash va farq qiluvchi tomonlarini aniqlash.

**Mavhumlashtirish** – predmet va hodisalarning biror belgisini fikran ajratib olish.

**Tushuncha** – predmet va hodisalarning umumiy va maxsus belgilarini aks ettirish.

**Hukm** – predmet va hodisalarga biror belgining xos yoki xos emasligini tasdiqlash.

**Xulosa chiqarish** – ikki yoki undan ortiq hukmlardan yangi hukmlar keltirib chiqarish.

**Til** – kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi.

**Monolog** – bir kishining o'ziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqi.

**Dialog** – ikki kishining o'rtasidagi nutqiy aloqa jarayoni.

**Affektiv nutq** – his-hayajon va kechinmalar aks ettirilgan nutq turi.

**Ichki nutq** – tafakkur bilan bog'liq tashqi nutqdan avval paydo bo'ladigan nutq turi.

**Mustaqil o'zgaruvchilar** – eksperiment jarayoniga katta, intensiv ta'sir o'tkazadigan ko'rsatkichlardir.

**Tobe o'zgaruvchilar** – bu o'rganilayotgan hodisalarning ko'rsatkichlari bo'lib mustaqil o'zgaruvchilarga bog'liq ravishda o'zgaradi.

**Idora qilsa bo'ladigan o'zgaruvchilar** – bu eksperiment davomida o'zgarmasligi nazorat qilinadigan ko'rsatkichlar.

**Muammo-** bilish ehtiyojini qondirishda tafakkur qilish sharti bo'lgan psixologik hodisa

**Nazariya-** ilmiy bilish shakllaridan biri hisoblanib, hodisalar orasidagi mantiqiy bog'liqlik yoki buning aksini isbotlab beruvchi ichki bilishning nutqiy ifodasidir.

**Ilmiy faraz-** bu xodisa yoki bir-biriga aloqador xodisalar o'rtasidagi qandaydir qonuniyat, sabablar mavjudligi to'g'risida (egallangan bilimlarga asoslangan xolda) bildirilgan taxmindir.

**Tadqiqot predmeti-** bu izlanish obekti chegarasidagi narsa.

**Ichki validlik-** xakikatan ham kuzatilayotgan effekt eksperimental yondashuvning natijasi;

**Tashqi validlik-** eksperimentimiz ijobiy natijaga ega bulgan xolda ham, keng ommaga ko'llab bo'lmasligi.

**Emperik umumlashma-** bu ob`ekt xodisalarini fakat ularning tashki alomatlarini asosida birlashtirilishidir.

**Nazariy umumlashma-** bu ob`ektlarni (xodisalarini) ularning muxim bir-biriga o'xshashlik belgilariga karab, ya`ni mazkur xodisaning uziga xos xususiyatini belgilovchi tomonlariga karab birlashtirilishidir.

**Fabrikatsiya** – ayrim ma'lumotlarni qo'shib tahlil qilish.

**Falsifikatsiya** – tadqiqot natijalarini soxtalashtirish.

**Reorganizatsiya** – tajribani noto'g'ri tashkil etish.

**Yangicha formulirovka** – ma'lumotlarni sharhlashda, izohlashda yangicha yondashuvning mavjudligi

**Rasmiy manba** - psixologiya soxasidagi turli xil kitoblar, ma`lum mavzudagi ma'lumotlarni jamlovchi kitob va maqolalar, texnik xisobotlar, elektron nashrlar, jurnallardagi maqolalar kiradi.

**Norasmiy manba** – koferentsiya tezislari to'plami, to'garaklar, laboratoriya kengashlari, og`zaki maslaxatlar ya`ni, o'z fakultetingiz o'qituvchilarining maslaxatlari, tadqiqotchi gurux kiradi.

**Ilmiy manbalar** – ilmiy tadqiqot davomidla murojaat etiladigan rasmiy statusga ega bo'lgan, davlat ro'yhatidan o'tkazilgan manbalar.

**Maqola-** ilmiy tadqiqotning nazariy va amaliy natijalari aks ettirilgan kichik ilmiy ish.

**Kitob** – tadqiq etilayotgan muammoga oid to'liq nazariy va amaliy ma'lumotlar aks etgan rasmiy manba.

**Texnik hisobot** - ilmiy ish davlat ayniqsa mudofaa vazirligi tomonidan qo'llanilayotgan bo'lsa qo'llanilib, ularda statistik ma'lumotnomalar ham keltiriladi.

**To'garak** – kichik tadqiqotchilarning ilmiy qiziqishlarini birlashtirib, ular faoliyatini yo'naltirib turadigan mashg'ulot.

## TAVSIYA QILINGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Akimova M.I. Psixologicheskaya diagnostika M. 2007
2. Anastazi A. Psixologicheskoe tetsirovanie: V. 2 kn Per. s angl. / Pod red. K.M.Gurevicha, V.I.Lubovskogo. - M.: Pedagogika, 1982
3. Akindinova I.A. Osobennosti samoaktualizatsii lichnosti v professiyax razlichnogo urovnya sotsialnogo prestija: Avtoref. dis. ... kand. psixol. nauk. – SPb.: SPbGU, 2000. – 24 s.
4. Berulava G.A. Psixodiagnostika umstvennogo razvitiya uchashixsya: uchebnoe posobie. Novosibirsk. 1990.
5. Bleyxer B.M. Klinicheskaya psixologiya. - Tashkent: Meditsina, 1976, 326 s
6. Burlachuk L.F., Morozov S.M. Slovar-spravochnik po psixodiagnostike.-SPb.:Piter Kom.1999.-528 s.
7. Burlachuk L.F. Pixodiagnostika lichnosti. - K: Zdorov'ya. 1989. 168 s
8. Bola taraqqiyotini psixologik tashxis qilish. R.I.Sunnatova, N.I.Irgasheva tahriri ostida. –T.: San`at. 2008.156 b.
9. Bolshaya ensiklopediya psixologicheskix testov M. 2009
10. Gamezo M.V., Domashenko I.A. “Atlas po psixologii”. Inform.-metod. posobie k kursu “Psixologiya cheloveka”, “Pedagogicheskoe obshestvo”, - M.: 2001. -448 c.
11. Gil'yasheva I.N. Voprosniki kak issledovaniya lichnosti // Metody psixologicheskoy diagnostiki i korreksii v klinike. - L.: Meditsina, 1983. - S. 62-81
12. Graficheskie metody v psixologicheskoy diagnostike/ Sots. E.S.Romanova, O.F.Potemkina. M.,1992.-256 s.
13. Diagnostika psixicheskogo razvitiya /Per s cheshsk. - Praga: Avitsenum, 1978. -388 s.
14. Drujinin V.N. Eksperimentalnaya psixologiya.- 2-e izd., dop.- SPb.: Piter, 2001. -320 c.
15. Eliseev O.P. Praktikum po psixologii lishnosti. 2-e izd., ispr. i pererab.- SPb.: Piter, 2002. - 512 c.
16. Zinchenko T. P. Kognitivnaya i prikladnaya psixologiya. – M.: MODEK, 2000 . - 608 s.
17. Ivanova A.YA. Obuchaemose kak printsip otsenki umstvennogo razvitiya detey. - M.: Izd-vo Mosk. Un-ta. 1976 - 98 s
18. Kornilov K.N. Metodika issledovaniya rebenka rannego vozrasta: Rukovodstvo dlya pedagogov i vrachey. - M.:Gosizdat. 1921. 78 s
19. Metodiki psixodiagnostiki v uchebno-vospitatel'nom protsesse /Sost. V.V.Grishin, P.V.Mushin. M., 1990.-64s.
20. Merlin V.S. Ocherk integral'nogo issledovaniya individual'nosti. - M.: Pedagogika. 1996. - 254 s
21. Nemov R.S. Psixologiya . kniga 3.M. Vlados.2004.-631 s.
22. Nishanova Z.T. va boshqalar. Psixodiagnostika. -T.: Fan va texnologiyalar markazining bosmaxonasi. 2008.- 314 b.
23. Nishanova Z.T., Qarshieva D.S. Eksperimental psixologiya.-T.: Fan va texnologiyalar markazining bosmaxonasi. 2006.-91 b.
24. Nishanova Z.T. va boshqalar. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya.-T.:Tafakkur bo'stoni.2011.-303 b.
25. Obshaya psixodiagnostika. - M.: Izd-vo Mos-va. Un-ta, 1987, - 305 b
26. Djek Palmer, Linda Palmer. Evoluytsionnaya psixologiya. Sekrety povedeniya HOMO SAPIENS. - SPb.: Praym-EVROZNAK, 2003 -384 c.
27. PanasYuk A.Yu. Adaptirovanniy variant metodiki D.Vekslera. - M.: In-tut gigieny detey i podrostkov, 1973. - 79 s
28. Praktikum po psixodiagnostiki. Differentsialnaya psixometrika /Pod. red. V.V.Stolina, A.G.SHmeleva - M.: Izd-vo Mos-va. Un-ta, 1984. -154 b
29. Psixodiagnosticheskaya rabota v nachalnoy shkole.CH.I. Opredelenie gotovnotsi k obucheniyu v shkole. SPb.1994.--78 s
30. Psixodiagnostika: teoriya i praktika /Per s nem. - M.: Progress, 1986. – 207 s


31. Psixologicheskaya diagnostika: Problemy i issledovaniya /Pod red. K.M.Gurevicha. - M.: Pedagogika, 1981. - 232 b
32. Ratanova T.A., Shlyaxta N.F. Psixodiagnosticheskie metody izucheniya lichnosti: Uchebnoe posobie. – Pererabotannoe i dopolnennoe izdanie posobiya: T.A.Ratanova, L.I. Zolotareva, N.F.Shlyaxta «Metody izucheniya i psixodiagnostika lichnosti» - M.: Moskovskiy psixologo – sotsialniy institut: Flinta, 1998. S.60 – 64.
33. Rogov E.I. Nastolnaya kniga prakticheskogo psixologa. –M.: VLADOS .2002.
34. Romanova E.S. Psixodiagnostika. -Spb.Piter.2005.-440s.
35. Fetiskin N.P., Kozlov V.V., Manuylov G.M. Sotsialno-psixologicheskaya diagnostika razvitiya lichnosti i malix grupp. – M., 2002. C.59-64.
36. Filimonenko Yu., Timofeev V. Rukovodstvo k metodike issledovaniya intellekta u detey D.Vekslera. Adaptirovanny variant. SPb.,1993.-57 s.
37. Xudik V.A. Psixologicheskaya diagnostika detskogo razvitiya: Metody issledovaniya. - K:Otsiva. 1992 -220 s
38. Sshivarev N.A. Metodika "Doski Segena" // Voprosy patopsixologii. - M.: NII psixiatrii MZ RSFSR. 1970. 235-237 s.
39. Shaxsning psixik taraqqiyoti diagnostikasi.S.X.Jalilova va b. -T.: Fan va texnologiyalar markazining bosmoxansi. 2009.164b.



ILOVALAR

1-ilova

PE'RON-RUZER METODIKASIDA QOZG'ATUVCHI MATERIAL



## SHUL'T JADVALLARI

6	15	17	3	18	9	5	11	23	20
19	4	8	25	13	14	25	17	19	13
24	2	22	10	5	3	21	7	6	1
9	14	11	23	16	18	2	6	24	4
1	7	12	20	21	8	15	10	2	22

14	18	7	24	21	22	25	7	21	11
22	1	10	9	6	6	2	10	3	23
16	5	8	20	11	17	12	16	5	18
23	2	25	3	15	1	15	20	9	24
19	113	117	112	44	119	4	113	114	88

## BURDON JADVALI

Sinaluvchi ismi, familiyasi \_\_\_\_\_

Yoshi \_\_\_\_\_ sinfi \_\_\_\_\_ sana \_\_\_\_\_

A M K Z


Mashq

G X B P K S H X Z P Y U V R B X P A E T J D J S G R V X S Y U G I K R G M A  
 I T K O B E M F O I Y U S H L E J V P E P C H N V S J U L Z X S H Y U R X B Y A I  
 O S V C H E X T E S P M N N O J X S H N A E C H Y U P J V L Y U F O V P A K C H M  
 K C H Z S H A J K Y A D X I S V P B Y U R J P V U Y U S H A T X T S G K M R A T Y U L  
 D R G R L V R G A M K E T N C H Z O U V X F P L J S H Y A T S Y U D Y U X V T U  
 P Y A T X N L U T S H T V B K O G E M X Y A R D A C H E Y U J S F N F D S R K G




Tajriba

Y U T L E F G J Y U U P S H S R D E A T L B Z K I N F Y A V P C H M O Z A G N B  
 V I O M S H S Y A S N L C H O J V M F E Y U Z U X D R T K G V I A N D K X U J  
 G Z S H I Y A N V X Y U A V C H Y U F D P Z S I X P C H J G O B S H J S V U A R L M T  
 B D K O M V Z T S Y U X N G Y A J V S Y U I M P E T R S H U X K P L J I U C H F R  
 E Z N A G A R X M F P U Y U N K E Y A G S H V I C H A J L S O E D T V I T I S H P U  
 D L O U U J A G Z D V Y U Y A I F M S X U K S H L P T E B R J N C H O G P R C H M  
 Z S I X G X L Y A Z D E J O F O N F G U S H T Y U G M A P I B R V E N P A X  
 K R A M O C H R P D X I Y U P J C H G V F S Z S B O Y A J X L Y U V E B D K D F  
 L E P S V U T N V S O Y U M Y U P J E S H J N V R T X S K L P A X I J D A G  
 M T R G J M J U Z X D L P A E K V R N Y U I C H B F Y A O G T S H S A D K O C H  
 I B F S E P S M F Y U O N Y A C H X S R E A U D E J T G S H V I G P L N P V Z  
 A U R G O L K Y U X U S H Y U M N V P S Y A S X E Z N P C H O J F A Z J N T B K A  
 I R C H Z E K M X T Y U J C H B R V S S H V G S B J P I Y U U D P X A M E T N L  
 J M P D J U S H S E M P T O N Y U A V K B I C H R L X Y A U D F Z K G O A N G  
 N L R B Z Y A Y U B O J X M U F D T P A C H G S Z K E V R N L I J I V T F X  
 G A J M P G T K P O U R I D N V C H Y U L S Y A E X F Z Z A S H J M D K O S S H  
 C H N L L X B N Y A O C H J L F X M S Z A E V P G J T K I D Y U R B U Y U R I Z U




4-ilova  
LANDOLT UZUKLARI METODIKASIDA QOG`OZ NAMUNASI



























9-Subtest. KOSS KUBIKLARI




6-ILOVA  
 KO'RIB ESDA OLIB QOLINGAN NARSALARNI QAYTA TIKLASH




GEOMETRIK FIGURALAR NAMUNALI


8-ILOVA.  
ORTIQCHASINI O'CHIRISH METODIKASIDA QO'ZG' ATUVCHI MATERIAL







VEKSLAR INTELLEKT SHKALASI SUBTESTLARI UCHUN QO'ZG' ATUVCHI MATERIAL

7 subtest – etishmaydigan qismlar




8 subtest – ketma-ket rasmlar







11 subtest – kodlashtirish

«A» shakl



12 subtest – Labirintlar



## MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I.PSIXODIAGNOSTIKA VA EKSPERIMENTAL PSIXOLOGIYA FANIGA KIRISH.....	4
II. PSIXODIAGNOSTIKA VA EKSPERIMENTAL PSIXOLOGIYA TARIXI.....	14
III. PSIXODIAGNOSTIK TEKSHIRUVDA QO'LLANADIGAN ASOSIY METODLAR HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT.....	31
IV.PSIXODIAGNOSTIK METODIKALAR VA PSIXODIAGNOSTIK TEKSHIRUV JARAYONIGA QO'YILADIGAN TALABLAR.....	54
V. BILISH JARAYONLARI PSIXODIAGNOSTIKASI.....	68
VI. INTELLEKT PSIXODIAGNOSTIKASI.....	100
VII.QOBILIYATLAR PSIXODIAGNOSTIKASI.....	154
VIII.SHAXS PSIXODIAGNOSTIKASI.....	180
IX.SHAXS PSIXODIAGNOSTIKASIDA PROEKTIV METODIKALARDAN FOYDALANISH.....	237
X.SHAXSLARARO MUNOSABATLAR PSIXODIAGNOSTIKASI.....	253
XI. ILMIY TADQIQOTNING UMUMIY SXEMASI.....	269
XII. EKSPERIMENTLARNI O'TKAZISH SHART-SHAROITLARI VA BOSQICHLARI.....	278
XIII.ILM FANDAGI HALOLLIK.....	289
XIV.ILMIY MANBALAR BILAN ISHLASH.....	300
XV. O'ZGARUVCHILARNI TANLASH.....	307
XVI. GURUHLARARO VA GURUH ICHIDAGI LOYIXALAR .....	318
XVII.EKSPERIMENTLARNI LOYIHALASHTIRISH.....	325
XVIII. NO AN 'ANAVIY TADQIQOTLARNI LOYIHALASH.....	336
XIX.EKSPERIMENT NATIJALARI TAXLILI.....	343
GLOSSARIY .....	357
ADABIYOTLAR .....	363
ILOVALAR .....	365

## СОДЕРЖАНИЕ

ВВЕДЕНИЕ.....	3
I. ВВЕДЕНИЕ В ПСИХОДИАГНОСТИКУ И ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ ПСИХОЛОГИИ.....	4
II. ИСТОРИЯ ПСИХОДИАГНОСТИКИ И ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ ПСИХОЛОГИИ.....	14
III. ОБЩИЕ СВЕДЕНИЯ О МЕТОДАХ ПРИМЕНЯЕМЫХ В ПСИХОДИАГНОСТИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ.....	31
IV. ТРЕБОВАНИЯ ПРЕДЪЯВЛЯЕМЫХ ПРОЦЕССУ ПСИХОДИАГНОСТИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ И ПСИХОДИАГНОСТИЧЕСКИХ МЕТОДИК.....	54
V. ПСИХОДИАГНОСТИКА ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ.....	68
VI. ПСИХОДИАГНОСТИКА ИНТЕЛЛЕКТА.....	100
VII. ПСИХОДИАГНОСТИКА СПОСОБНОСТЕЙ.....	154
VIII. ПСИХОДИАГНОСТИКА ЛИЧНОСТИ.....	180
IX. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРОЕКТИВНЫХ МЕТОДИК В ПСИХОДИАГНОСТИКЕ ЛИЧНОСТИ.....	237
X. ПСИХОДИАГНОСТИКА МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ОТНОШЕНИЙ.....	253
XI. ОБЩАЯ СХЕМА НАУЧНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ.....	269
XII. УСЛОВИЯ И ЭТАПЫ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ.....	278
XIII. <b>ОБЪЕКТИВНОСТЬ</b> НАУЧНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ.....	289
XIV. РАБОТА С НАУЧНЫМИ ИСТОЧНИКАМИ.....	300
XV. ВЫБОРКА ПЕРЕМЕННЫХ.....	307
XVI. ПРОЕКТЫ ВНУТРИ ГРУППЫ И МЕЖДУ ГРУППАМИ.....	318
XVII. ПРОЕКТИРОВАНИЕ ЭКСПЕРИМЕНТОВ.....	325
XVIII. ПРОЕКТИРОВАНИЕ НЕТРАДИЦИОННЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ.....	336
XIX. АНАЛИЗ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫХ ДАННЫХ.....	343
ГЛОССАРИЙ.....	357

ЛИТЕРАТУРА.....	363
ПРЕДИСЛОВИЕ.....	365



## CONTENT

I-CHAPTER. Introduction to psycho-diagnostics and experimental psychology.....	4
II-CHAPTER. History of psycho-diagnostics and experimental psychology.....	14
III-CHAPTER. General information about psycho-diagnostics methods.....	31
IV-CHAPTER. Requirements for psycho-diagnostic methods and psycho-diagnostic processes.....	54
V-CHAPTER. Psycho-diagnostics of cognitive processes.....	68
VI-CHAPTER. Psycho-diagnostics of intelligence.....	100
VII-CHAPTER. Psycho-diagnostics of capabilities.....	154
VIII-CHAPTER. Psycho-diagnostics of personality.....	180
IX-CHAPTER. Application of protective techniques in psycho-diagnostics of personality.....	237
X-CHAPTER. . Psycho-diagnostics of interpersonal attitudes.....	253
XI-CHAPTER. General arrangements of scientific research.....	269
XII-CHAPTER. Conditions of experiment and stages.....	278
XIII-CHAPTER. Rectitude upon science.....	289
XIV-CHAPTER. Works with sources.....	300
XV-CHAPTER. Selection of independents and dependents.....	307
XVI-CHAPTER. Plans in groups and between groups.....	318
XVII-CHAPTER. Design of experiments.....	325
XVIII-CHAPTER. Design of unconventional experiments.....	336
XIX-CHAPTER. Interpretation of research results.....	343
Glossary.....	357

Table of authorities.....	363
Appendix.....	...
...365	